PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISHNING AXBOROT-TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ORGANIZATION OF INFORMATION AND EDUCATION ENVIRONMENT FOR TEACHER TRAINING: PROBLEMS AND SOLUTIONS

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

ОРГАНИЗАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

GULISTON-2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

SIRDARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISHNING AXBOROT-TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2023-yil 20-21-aprel

ORGANIZATION OF INFORMATION AND EDUCATION ENVIRONMENT FOR TEACHER TRAINING: PROBLEMS AND SOLUTIONS

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

April 20-21, 2023

ОРГАНИЗАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

20-21 апреля 2023 г.

Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-ta’lim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Guliston, Sirdaryo viloyat PYMO‘MM.

Ushbu konferensiya to‘plamida Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi tomonidan tashkil etilgan — “Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-ta’lim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda pedagoglar yangi metodikalarga o‘rgatish, ularning malakasini oshirish, ta’limga raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda ta’lim samaradorligini oshirishga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to‘plash, tajribalarni o‘rganish, aniqlash va ommalashtirish, ta’lim samaradorligini oshirishga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to‘plash, tajribalarni o‘rganish, aniqlash va ommalashtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlashda life-long learning – hayot davomida o‘qish tamoyilining o‘rni, o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ta’lim bosqichlari uzviyligini ta’minlashda masofaviy ta’lim sifatini tubdan oshirish va takomillashtirishga oid xorijiy tajribalar bo‘yicha to‘plangan materiallar joy olgan. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, umumta’lim maktab o‘qituvchilari, barcha tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin

Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2022-yil 27-apreldagi o‘tkazilgan 3-sonli yig‘ilishining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO‘Z BOSHI

“Bizning maqsadimiz – O‘zbekistonni jadal islohotlar, ilm-fan, ta’lim va innovatsiyalar orqali erishish mumkin bo‘lgan rivojlangan davlatga aylantirish!”

Shavkat Mirziyoyev

Barchamizga ma‘lumki, “2022 – 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF – 134-sonli Prezident farmoni e‘lon qilindi. Bu farmonga ko‘ra yangi dasturlar ishlab chiqish, ta’lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollarini belgilab olish masalalari yetakchi vazifa qilib belgilangan. XXI asr fen-texnika, axborotlashtirish asri bo‘lishligi bilan bugungi jadallashib borayotgan ilm-fan yutuqlari kechagi oldimizga qo‘yilgan rejalarning natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 25-yanvar kuni “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4963-sonli qarorni imzolandi.

Qarorga ko‘ra, xalq ta’limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo‘yicha o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birgalikda, an’anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o‘qitishning uyg‘unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etiladi. Uzluksiz ta’limni modernizasiyalash orqali o‘quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan Farmon va qarorlar ana shu dolzarb masalalarga jiddiy yondashishga ko‘mak beradi. Ushbu dolzarb masalalarni yechishda soha rahbarlari, metodistlar oldida qator vazifalar turibdi. Bular: O‘quv-tarbiya jarayoniga o‘qitishning zamonaviy ilg‘or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; o‘qitishning mazmuni, ta’lim-tarbiya jarayoni, dars mashg‘ulotlarining sifatli tashkil etilishini ta’minlashda o‘qituvchining kasb mahoratini oshirish; dars jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida yaratilgan metodik qo‘llanmalar, ularning multimedia ilovalaridan samarali foydalanish hamda har bir o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishini nazorat qilib borishga oid ilg‘or tajribalarni o‘rganish hamda targ‘ib etish; o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon ta’lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg‘or tajribalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini

egallashlariga erishish; yangi avlod darsliklarining mazmuni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos bo'lishini ta'minlash; darsliklar o'quv jarayonining axborotli modelga aylanishiga, o'quv materiallarining o'quvchilarni muloqotga undashiga erishish ishlarini takomillashtirishdir. Malaka oshirish tizimi malakali, salohiyatli, zamonaviy o'qituvchini shakllantirishi, har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlab, malakasini oshirib, o'z tajribalarini o'quvchilar ta'lim- tarbiyasiga qaratishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning mazmuni, samaradorligiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu – ilmiy asoslangan, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari bilan qurollangan, mazkur texnologiyalarni amalda qo'llay oladigan salohiyatli kadrlar potensialiga ega boshqaruv tizimini yaratish hisoblanadi.

Milliy markaz direktori v.v.b. A. Gaffarov

1-SHO‘BA. PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISHNING SIFATI VA SAMARADORLIGI

УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМИ ВА УНИНГ ТАШКИЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Гаффаров Азизбек Муҳаммадсаидович,
Сирдарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази директори, мустақил тадқиқотчи

АННОТАЦИЯ. Мақолада педагог касбий компетентлиги унинг ўзини-ўзи ривожлантириши - мустақил таълим ола билишига боғлиқлиги, мустақил таълимининг самарадорлиги шахсий ривожланиш ва ўзини ривожлантиришга эҳтиёжнинг мавжудлиги ҳамда мазкур эҳтиёжни рўёбга чиқариш учун шароитлар мавжудлиги каби омилларга боғлиқлиги амалий мисоллар билан ёритилган.

АННОТАЦИЯ. В статье изложены практические примеры того, как профессиональная компетентность педагога зависит от его саморазвития-способности к самостоятельному обучению, эффективность его самостоятельного обучения зависит от таких факторов, как наличие потребности в личностном развитии и саморазвитии, а также наличие условий для реализации данной потребности.

ANNOTATION. The article covers practical examples of whether the professional competence of an educator depends on factors such as his self-development - his ability to receive independent education, the effectiveness of his independent education-the presence of a need for personal development and self-development, and the presence of conditions for realizing this need.

Педагогларнинг касбий компетентлилигини ривожлантиришсиз таълимни замонавийлаштириш мумкин эмас. Касбий компетентликнинг кўрсаткичларидан бири педагогнинг ўзини-ўзи устида ишлаши - мустақил таълим ола билишидир. Мустақил таълимсиз ўқитувчи шахсий ва касбий жиҳатдан ривожланиши мумкин эмас.

Мустақил таълим шахснинг қобилиятлари ва ўзига хосликларини ривожлантиришга йўналтирилган, инсоннинг ўз ихтиёри билан амалга ошириладиган, ўзи томонидан бошқариладиган ва касбий фазилатларни такомиллаштириш учун зарур бўлган фаолиятларини бирлаштиради. Мустақил таълим, аввало, ихтиёрийлиги ва изчиллиги билан тавсифланади ҳамда узлуксиз педагогик таълим ғоясини амалга ошиишнинг энг муҳим шартларидан ҳисобланади.

Агар ўқув муассасасида ўқитувчининг ўзини ўзи ўқитиши ҳеч ким томонидан уюштирилмаса, мониторинг ўтказилмаса ва рағбатлантирилмаса, мустақил таълимга бўлган интилиш сусаяди. Кадрлар салоҳиятини такомиллаштиришнинг муҳимлигини ҳисобга олган ҳолда, ўз-ўзини ривожлантириш жараёнини ташкил этиш бошқаришнинг муҳим

вазифаларидан бирига айлананиб қолади.

Таълим муассасасининг раҳбар ҳар бир педагогнинг ўзига хос касбий имкониятларини ва ўсиш истиқболларини аниқлаш имкониятини берувчи самарали механизмни яратиш вазифасига дуч келади. Педагогнинг мустақил таълими учун шароитларни яратиш, таълим жараёнини самарали ривожлантиришга қодир педагогларнинг малакали жамоасини шакллантириш кадрлар стратегиясининг биринчи навбатдаги вазифасига айланади, зеро, таълимий натижалар барчанинг биргаликдаги фаолияти ва сайи-ҳаракати орқали қўлга киритилади.

Педагог мустақил таълимининг самарадорлиги қуйидаги омилларга боғлиқ: биринчидан, шахсий ривожланиш ва ўзини ривожлантиришга эҳтиёжнинг мавжудлиги, иккинчидан, мазкур эҳтиёжни рўёбга чиқариш учун шароитлар мавжудлиги ёки йўқлиги. Биринчи шарт бажарилиши учун ўқитувчида фикрлаш ва ўзини-ўзи баҳолаш қобилияти бўлиши керак, яъни, фаолияти натижалари ва касбий қийинчиликларини холис тасхишлаш асосида ўз фаолиятини таҳлил қила олиши лозим. Иккинчи шартни рўёбга чиқариш учун педагог ходимларга қуйидаги йўналишларда ривожланиш имкониятини бериш керак:

ўқитаётган фани соҳасида;

педагогика-психология билимлари соҳасида (ўқувчиларнинг шахс сифатдаги хусусиятлари тўғрисида);

методик имкониятларни кенгайтириш бўйича (педагогик технологиялар, ўқитишнинг шакл, усул ва услублари);

ахборот компетентлилигини оширишда (компьютер технологилари, интернет-ресурслар);

мулоқот кўникмаларини ривожлантиришда (таълим жараёни иштирокчиларининг ўзаро таъсири);

шахсий компетенцияларни такомиллаштиришда (имиж, мулоқот маданияти, етакчилик қобилияти, педагогик такт).

Педагогнинг мустақил таълими жараёнини ташкил этишга йўналтирилган бошқарув дастури қуйидагиларга асосланиши лозим:

педагогнинг профессионал фаолиятини тизимли таҳлил қилишга;

педагог шахсига индивидуал ёндашишга;

педагог ходимларнинг мотивациясига;

маъмурият ва педагогларнинг ўзаро муносабатларидаги инсонпарварлик ва эркинликка;

педагог иеҳнати натижаларини мунтазам кузатиш ва баҳолашга;

педагоглар турли тоифаларининг касбий ўсиши, шахсий ривожланиши ва ўзини намоён қилиш имкониятларига нисбатан табақалашган ёндашувга.

Педагогларнинг мустақил таълими жараёнини ташкил этишдаги энг катта тўсиқ – бунинг учун рағбатнинг етарли эмаслиги ва уни амалга ошириш учун тайёр эмаслик. Шу боис, бизнинг мамлакатимизда ўқитувчининг ўз касбий маҳоратини ривожлантиришига интилишини уйғотиш, мазкур

ривожланишнинг механизмлари билан қуроллантиришга йўналтирилган педагоглар касбий компетентлигини узлуксиз ошириб бориш тизимини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Касбий ривожланишнинг муҳим механизми – бу ўз-ўзини ривожлантириш бўйича амалга ошириладиган мустақил таълимнинг мавзусини белгилашдир. Ҳар бир педагог ўз педагогик амалиётини таҳлил қилиш асосида фаолиятига доир муаммоли соҳаларни аниқлайди ва бир неча йил давомида ишлайдиган мавзуни белгилайди, муаммонинг сабабларини ўрганади ва ечимларни излайди.

Касбий танловларда қатнашиш ҳам педагогнинг мустақил таълимига ҳисса қўшади, чунки мазкур танловларда иштирок этиш ўз фаолияти, педагогик эътиқоди, касбий мавқеи ва ўзининг иш услублари тизими ҳақида фикр юритиш зарурияти туғилади.

Шуни таъкидлаш керакки, юқорида айтиб ўтилган ишлар педагоглар томонидан маълум даражадаги қаршилик билан кутиб олинади. Шубҳасиз, мазкур қаршилик педагогларнинг иш юки кўплигидан (бу асосий далил бўлса-да) эмас, балки уларнинг бундай фаолиятни амалга ошириш кўникмасига эга эмаслигидан далолат беради.

Мустақил таълим жараёнини услубий жиҳатдан қўллаб-қувватлашни ташкил этилиши ушбу вазиятда катта рол ўйнайди. Исталган натижаларга эришиш учун наффақат педагогни мустақил мутолаага қизиқтириш, балки бутун жараён (мавзуни танлаш, унинг ифодалаш, тадқиқот натижаларини оммавий тақдимотини амалга ошириш) давомида унга амалий ёрдам кўрсатилишини таъминлаш керак.

Шу мақсадда мактаб қуйидаги методик ишларни амалга ошириши лозим: таълим натижаларини ташхислаш асосида педагогнинг касбий фаолиятини таҳлил қилиш, дарсларга қатнашиш, мактаб маъмурияти билан суҳбат ўтказиш, мактаб ҳужжатларини ўрганиш, педагогнинг касбий фаолиятини индивидуал методик қўллаб-қувватлаш ва мактабда педагогларнинг доимий фаолият юритувчи амалиётга ўналтирилган услубий семинари машғулотларини ташкил этиш.

Суҳбат, ҳар бир педагогнинг ўзи билан ўқув йилининг охирида ўтказилади. Педагогларга нафақат амалга оширилган ишлар, уларнинг ютуқлари, балки келгусидаги фаолиятнинг истиқболлари ҳақида алоҳида ҳисобот тақдим этиш имконияти берилади. Мазкур суҳбат раҳбарлар учун зарур, чунки улар педагогларнинг касбий фаолияти, қандай мақсадлар қўйганлиги, улар учун нималар кўпроқ аҳамиятга эга эканлиги ҳақида маълумот оладилар. Суҳбат педагоглар учун ҳам керак, чунки у педагогнинг шахсий нуқтаи-назарини шакллантиради, фикрлаш ва таҳлил қилиш даражасини оширади ва ўз касбий фаолиятни тушунишга қаратилган.

Семинар методологик кенгашда қабул қилинган умумий мавзу бўйича ташкил қилинган қатор машғулотлардан иборат бўлади. Машғулотлар назарий материалларни, психологик ва педагогик билимларни ўзлаштиришга, педагогик лойиҳалашга, ўз лойиҳаларини амалга оширишга қаратилган.

Муҳокама қилинаётган тушунчаларнинг асосий жиҳатлари ва умумий ёндашувлар кўриб чиқилади, ҳар бир педагогнинг вазифаси эса ўз олинган билимларни ўз фанига мустақил равишда жорий қилиш, уларни аниқлаштириш, ўзгартириш ва қўлланилиши мумкин бўлган соҳаларни аниқлашдир.

Ушбу иш шаклининг фаолиятга йўналтирилганлиги, шунингдек, турли фан ўқитувчиларининг умумий педагогик муаммоларни ҳал қилиш учун ижодий гуруҳларга бирлашиш имкониятининг мавжудлиги унинг афзаллиги сифатида қаралиши мумкин.

Гуруҳда ишлаш шаклларидан фойдаланиш, фаол ва интерфаол услублар, интерактив мулоқот, тескари алоқани ташкил қилиш ўрганилаётган материалнинг шахсий аҳамиятини оширади, семинар қатнашчиларида таҳлилий, коммуникатив ва рефлексив кўникмаларни шакллантиради.

Семинар машғулотлари турли шаклларда ўтказилади: назарий, амалий, маслаҳат машғулотлари. Масалан, семинар машғулотлари доирасида компетенцияларга асосланган вазифаларни ишлаб чиқиш, ўқувчиларнинг ўзлаштираолмаслик ҳолатларини бартараф этиш йўллари, синфда тарбиявий муҳитни шакллантириш ва бошқа шу каби муаммоларни муҳокама қилиш мумкин.

Албатта, педагогларнинг мустақил таълимини ташкил қилиниши мактабдаги барча муаммоларни ҳал қилмайди. Бироқ, педагогик амалиётни ўз-ўзини таҳлил қилиш, касбий муаммоларни аниқлаш ва шакллантириш, қийинчиликларни тушуниш, уларни бартараф этиш усулларини топиш ва назарияни ўрганиш учун қизиқтирувчи, ташкилий-моҳиятли шароитларни яратиш мумкин бўлади. Муҳими, педагогларнинг биргаликдаги мустақил таълими таълим муассасасидаги таълимий муҳитни ўзгартиришнинг таъсирчан омилига айланади. Педагог ўз касбий фаолиятининг ижобий ва салбий томонларини тушуниб, номукаммалликларни тан олса – ўзгаришга мойил бўлади.

Мустақил таълимни ташкил этиш бўйича юқорида қайд этилганларнинг амалга оширилиши педагогик жамоанинг методология, педагогика, методика ва психология масалаларига бўлган қизиқишини орттиради.

Педагогнинг мустақил таълими жараёнини бошқариш фаолиятининг асосини қуйидаги ҳолатлар кетма-кетлиги орқали ифодаланади:

• педагогни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш, унинг устувор йўналишларини белгилаш, ушбу стратегияни ривожланиш дастури ва инновацион лойиҳалар орқали амалга ошириш;

• касбий таълимни ривожлантиришга қаратилган илмий тадқиқотларни ташкил этиш ва уни янги сифат даражасига кўтариш;

• инновацион таълим фаолиятини фаол равишда тарғиб қилиш, ҳар бир педагогнинг инновацион фаолиятини ўрганиш ва қўллаб-қувватлаш;

• шахсни ривожлантириш ва ўз-ўзини ривожлантиришнинг махсус дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ҳисобига ҳар бир педагогга ўзини шахсий ва касбий такомиллаштириши учун имкониятларни таъминлаш;

• педагогик фаолият сифатини баҳолаш бўйича мониторингни ташкил этиш.

Бунда энг оқилона йўл – педагогни ўз-ўзини ривожлантиришнинг методологик асослари билан қуроллантириш, зеро мазкур билимлар ўқув ишларининг тегишли кўникмаларида, ижодий меҳнат маданиятида ўзининг давомини топсин. Педагогни курсдан кейинги даврда соҳага оид янгиликлардан иборат ахборотлар билан таъминлаш қуйидаги йўналишларда олиб борилиши мақсадга мувофиқ:

• замонавий таълим стратегиялари;

• таълим сифатини ошириш юзасидан меъёрий-ҳуқуқий таъминот;

• таълимни ривожлантиришга доир илмий ва амалий тадқиқот натижалари;

• янги педагогик технологияларни ва ўқитишнинг ноанъанавий шаклларини ривожлантириш;

• таълим соҳасидаги жаҳондаги ютуқлар, анъаналар ва бошқалар.

Фанлар бўйича педагогларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ошириб бориш

Ушбу йўналишдаги ишлар умумтаълим мактаблари ўқитувчиларининг ўзлари ўқитаётган фаннинг назарияси ва методикасига оид билимларини ошириш, амалиётда қўллаш кўникмаларини ривожлантириш, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишга оид метод ва усуллар билан таништириш, фанлар бўйича яратилган методик қўлланмалар, ресурслардан ўқув жараёнида самарали фойдаланишларига ёрдам бериш, ўқитувчиларни аттестациядан ўтишга тайёрлаш, шунингдек, уларнинг доимий тарзда мустақил таълим олишларини йулга қўйиш, фан ўқитувчиларининг касбий маҳоратини узлуксиз ошириб бориш бўйича методистлар томонидан ҳаракатдаги ўқув машғулотларини ташкил этиш мақсадида ташкил этилади.

Ўқув машғулотларини ташкил этиш жараёнида ўқитувчилар касбий компетентлигини узлуксиз ошириб боришнинг қуйидаги жиҳатларига эътибор қаратиш назарда тутилади:

- Давлат таълим стандарти, ўқув режа ва дастурлари билан ишлай олиш, янги яратилаётган адабиётлар асосида дарсларни ташкил этиш;
- дарс мавзуларига мос ўқитишнинг замонавий усуллари, методларини танлаш;
- ахборот - коммуникация технологияларидан унумли фойдаланиш, мавжуд мультимедиа материалларини қўллаш ва янгиларини яратиш;
- ўқув-лаборатория жиҳозларини сақлаш, уларнинг ўрнини тўлдириб бориш;
- лаборатория ва амалий машғулотларни бажариш кўникма, малакаларини ошириш;
- “Билимлар беллашуви”, олимпиада, мониторинг натижалари асосидаги бўшлиқларни тўлдириш;
- ўқув дастури асосидаги масала-машқ, топширикларни содда ва қулай усулларда бажариш устида ишлаш;

- мавзуларни ўргатишда бошқа фанлар билан боғлиқлигини кўрсата билиш;
- дарсликлар, ўқув дастурлари, қўшимча методик адабиётларни таҳлил қилиш;
- мавзулаштирилган мураккаб тестларни ечиш усулларини танлаш ва фандаги янгиликлар билан мунтазам таништириб борадиган касбий маҳоратга эга бўлган, малакали педагогларни тайёрлаш.

Хулоса қилиб айтганда, педагоглар узлуксиз касбий ривожланишида мустақил таълимининг зарурлиги, бир томондан, педагогик фаолиятнинг хусусиятлари, унинг ижтимоий роли билан, бошқа томондан, педагогик меҳнатнинг доимий ўзгарувчан шароитлари, жамиятнинг эҳтиёжлари, илм-фан ва амалиётнинг эволюцияси, педагогга бўлган талабларнинг ошиб бориши, унинг жамиятдаги жараёнлар ва ҳолатларнинг ўзгаришига тезкор мослашиши қобилияти, ўз фаолиятини қайта қуришга, янги, мураккаброқ касбий масалаларни самарадорлик билан ечишга тайёрлиги билан боғлиқ бўлган узлуксиз таълим тенденциялари орқали асосланади.

ПЕДАГОГЛАРНИНГ УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШИДА АХБОРОТ-ТАЪЛИМ МУҲИТИНИНГ АҲАМИЯТИ

Бердалиева Гуласал Абдукундузовна,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, ЎзПФИТИ мустақил тадқиқотчиси

АННОТАЦИЯ. Мақолада ахборот технологияларини қўллаган ҳолда ўқитиш ва тарбиялашга бўлган инновацион ёндашувлар, узлуксиз касбий ривожланиш жараёнларининг ахборот таъминотини такомиллаштириш, мактабгача ва мактаб таълими тизими педагогларини узлуксиз касбий ривожлантиришнинг инновацион ахборот-дидактик шакллари тўғрисидаги маълумотлар келтирилган.

АННОТАЦИЯ. В статье представлена информация об инновационных подходах к обучению и воспитанию с применением информационных технологий, а также о совершенствовании информационного обеспечения процессов непрерывного профессионального развития, об инновационных информационно-дидактических формах непрерывного профессионального развития педагогов системы дошкольного и школьного образования.

ANNOTATION. The article provides information about innovative approaches to training and education using information technology, as well as the improvement of information support processes of continuous professional development, innovative information and didactic forms of continuous professional development of teachers in pre-school and school education.

Инсоннинг ахборотли жамиятда яшаш тарзининг тубдан ўзгариши,

ахборотли жамият вужудга келиши билан пайдо бўлган илмий-техника ва ижтимоий тараққиётнинг воқеъликлари, уларни замонавий таълим мазмунига, таълим тизимларининг кўлами ва ривожланиш даражасига мос келмаслигига

олиб келди.

Таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳотлар у ёки бу даражада кадрлар тайёрлаш жараёнларининг ахборот таъминотини такомиллаштиришга бўлган эҳтиёжни белгилайди. Ахборотлар уларни сақлаш, қайта ишлаш ва етказиб бериш, ахборот технологияларини қўллаган ҳолда ўқитиш ва тарбиялашга бўлган ёндашувлар кўпчилик илмий тадқиқотлар ва давлат дастурларида асосий ўринлардан бирини эгаллайди.

Ахборот технологияларини узлуксиз педагогик таълим тизимига татбиқ қилиш йилдан йилга кенг кўламда амалга оширилмоқда. Ахборотлаштириш жараёнида педагогик ҳамжамият томонидан кўп сонли ахборот ресурслари ишлаб чиқилмоқда. Амалда қўлланилаётган ўқув, илмий ва методик ишланмаларнинг кўпчилиги электрон шаклга ўтказилди.

Замонавий ахборот технологиялари, телекоммуникациялар ва компьютер тармоқлари ахборот ресурсларига кириш ва йиғишнинг бутунлай янги имкониятларини яратди. Ўқитишнинг турли шакллари билан биргаликда ва бирликда таълимни такомиллаштириш учун янги имкониятлар яратилмоқда, таълимнинг янги шакллари – масофавий таълим ривожланмоқда. Лекин педагог малака оширишнинг қайси шаклини танламасин, унинг самарадорлиги, натижада, мустақил ишларнинг кўлами, мустақил ўқиш билан аниқланади. Мустақил таълим, онгнинг юқори ривожланиш даражасига, педагог кадрларнинг ўз-ўзини ривожлантириш ва ўзини ижодий амалга оширишга бўлган эҳтиёжига таянади.

Ҳозирги кунда XXI аср юксак технологиялар замони, тафаккур асри, ялпи ахборотлашув асри, глобаллашув даври деб таъриф этилмоқда.

Глобаллашув - инсониятнинг онгу шуури, тафаккури самараси сифатида вужудга келган жаҳон миқёсидаги умумий жараён, у чегара ва ҳудудларни билмайдиган, тузумларни тан олмайдиган, узлуксиз кучайиб ва ривожланиб бораётган жараёндир. Ана шундай глобаллашув даврида ҳар қандай давлатнинг ривожланиши, уни ривожланган давлатлар қаторидан мустаҳкам ўрин олиши, биринчи навбатда давлатнинг интеллектуал салоҳияти, ёш авлод таълим-тарбияси ва умуман замонавий кадрлар тайёрлаш тизимига боғлиқдир.

Инновацион жараён деганда янгиликни яратиш, ўзлаштириш, ундан фойдаланиш, уни тарқатиш ва ривожлантириш билан боғлиқ бўлган мажмуали фаолият тушунилади. Таълимда инновацион жараёнларни амалга ошириш эса таълим сифатини ривожлантиришнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

Ахборот коммуникация технологияларини изчил ривожланиши таълим тизимини бутун жаҳон таълим муҳити талабларига жавоб

бериши зарурлигини тақоза этмоқда. Таълимда ахборот ва телекоммуникация технологияларидан фойдаланиш масофавий таълимнинг юзага келишига шароит яратди.

Педагогик инноватика (янгилик киритиш, инновация) - таълим муассасасининг фаолиятига нисбатан барқарор янгилик элементларини киритиб, унинг ривожланиши ва фаолият кўрсатишига самарали таъсир этувчи мақсадга йўналтирилган ўзгартиришдир.

Инновацион педагогик технологиялар айнан таълим-тарбия жараёнида таълим олувчилар (тингловчилар)га муайян фан (мавзу) бўйича билим бериш ва шахсни шакллантиришга қаратилган ўқитишнинг замонавий ахборот-дидактик шакллари ва ахборот-коммуникацион технологиялар мажмуидир.

Таълимнинг инновацион ахборот-дидактик шакллари - таълим олувчининг қобилиятлари ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда таълим тарбия мазмунини, таълим мақсадига мос равишда лойиҳалаш ҳамда педагогик, ахборот-коммуникацион услублар, шакллар ва ўқитиш усулларини тадбиқ этишга йўналтирилган психологик, умумпедагогик, дидактик ва шахсий услубий тартиблар асосида амалга оширилувчи таълим берувчи ва таълим олувчи ўртасидаги ўзаро таъсир тизимидир (К.К.).

Мактабгача ва мактаб таълими тизими кадрларини узлуксиз ривожлантиришнинг инновацион ахборот-дидактик шакллари – юқори даражадаги самарадорликни таъминловчи, педагогик қонуниятлар, мақсадлар, принциплар, мазмун, шакл, услублар, ўқитиш воситалари ва ахборот-коммуникацион технологиялардан ҳамда тарбиялаш усулларидан ташкил топган лойиҳалаш ва мос равишда ушбу технологияни амалиётда қўллаш тизимидир.

Адабиётлар таҳлили асосида, амалда татбиқ қилинган ёки назарий ёндашувлар кўринишида тавсифланган учта асосий турдаги ахборот-таълим муҳитини ажратиш мумкин: билимларни тақдим этишга йўналтирилган муҳитлар, билимларни олиш бўйича мустақил фаолиятга йўналтирилган муҳитлар, муҳитларнинг аралаш тури.

Ахборот-таълим муҳитининг биринчи тури – ўрганилаётган билим соҳасининг ичига таълимнинг муайян методикалари киритиладиган аппаратли-дастурий модел билан боғлиқ. Одатда булар юқори даражада тузилмалаштирилган ўқитиш муҳитлари бўлиб, уларда таълимнинг характери ва йўналиши, таълим олувчининг имкониятлари ва иштирок этиш шакллари аниқланган, таълимга қўйилган пировард мақсадларга кетма-кет яқинлашиш амалга оширилади.

Бундай муҳитни яратишда когнитив ёндашув кенг қўлланилади, унинг асосида инсон билимининг ички тузилмасига, ўрганилаётган предметнинг тизимли-тузилмавий хоссаларига таяниш ётади.

Бу турга асосида таълим олувчининг билиш фаолияти моделлари

ётадиган, ўзгарувчан индивидуаллаштирилган таълим жараёнини амалга оширишга йўналтирилган интеллектуал ва адаптив ўқитиш муҳитларининг кўпчилиги тааллуқлидир.

Иккинчи турдаги муҳитларни қуришнинг асосига уларнинг фаолиятли, конструктивистик характери қўйилган. Муҳитни тушуниш мазмуний масалаларни ечиш жараёнида билимларни эгаллаш концепциясига таянади. Бундай қарашга мувофиқ, ахборот-таълим муҳитида ўқитиш билимни чиқариб олиш, конструкциялашга йўналтирилган фаол жараёндир. Бундай турдаги муҳитлар таълим берувчи учун ҳам, таълим олувчи учун ҳам очиқ бўлиб, мазмунни тўлдириш ва унга ўзгартиришлар киритиш, ўзининг муҳитдаги ўқув фаолияти натижаларини тақдим қилиш имконини беради. Бундай муҳитдаги коммуникацион жараёнлар ўқитишнинг дидактик, методик ва ташкилий томонини таъминлайди ва таълим жараёнининг марказий элементи бўлиб хизмат қилади.

Биз томонимиздан олиб борилган кўпчилик адабиётларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, ахборот муҳитини яратиш учун бир неча ташкилий-технологик ёндашувлардан фойдаланиш мумкин. Лекин энг катта самарага билимларни бошқаришнинг корпоратив порталидан фойдаланган ҳолда эришилади.

Педагог кадрлар узлуксиз касбий ривожлантиришни ташкил қилишнинг миллий ва хорижий назарияси ва амалиётини таҳлил қилиш асосида юқорида кўрсатилдики, бу талабларга узлуксиз таълимнинг махсус тамойилларини ва ўқитишнинг андрагогик моделини ўз ичига олиши лозим бўлган янги шакл сифатида қурилган ташкилий-дидактик тизим жавоб бериши мумкин.

Шу билан бирга, таълимий талаблар ҳар доим ҳам малака ошириш тизимига бўлган аниқ буюртма сифатида шакллантирилмайди, кўп ҳолларда педагоглар узлуксипз касбий ривожлантириш муассасалари томонидан ўзларида мавжуд бўлган кадрлар, ресурслар ва педагог кадрлар эҳтиёжлари тўғрисидаги тасаввурлардан келиб чиқиб таклиф этган амалдаги дастурлар ва курслар тўплами билан чекланишга мажбурлар.

Таъкидлаш лозимки, узлуксиз касбий ривожлантириш тизимида мақсадлар, мазмун ва иш шаклларини замонавийлаштириш лозимлиги аллақачон тан олинган. Бошқача қилиб айтганда, малака ошириш тизими педагогларни касбий моҳирлаштириш жараёнини узлуксиз кузатиб бориш тизимига мослашиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Айзенберг А.Я. Самообразование: история, теория и современные проблемы. - М.: Просвещение, 1986. - 128 с.

2. Алферова Г. А. Формирование у будущего учителя готовности к непрерывному образованию: Автореф. дис... канд. пед. наук. Волгоград, 1998- 27 с.

3. Абдуназарова Н.Ф. Педагогические основы повышения квалификации преподавателей профессиональных колледжей в условиях

информатизации образования Дисс. к. п. н. - Т. 2008 -151 с.
4. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. … док.пед.наук. - СПб.: 1995. -43 с.

МОРФЕМАЛАР ТИЗИМИДА АГГЛЮТИНАЦИЯ ВА ФУЗИЯ МУНОСАБАТИ

Турсунали МИРЗАҚУЛОВ,
филология фанлари доктори, профессор.
Олмалиқ шаҳар Ипак йўли инновациялар университети

Аннотация: мақолада морфемалар тизимида содир бўладиган агглютинация ходисаси ҳамда фузиявий жараёнлар баён этилади. Қўшимчалар ҳосил бўлишининг фузия усули бир неча аффиксал морфемаларнинг ўзаро зич бирикиб кетиши, шунингдек, қўшма аффикс таркибидаги элементларнинг сингишиб кетиши, тўғридан-тўғри қисмларга ажратишнинг мумкин эмаслиги, орадаги чегара сигналларининг йўқолиши каби ҳолатлар мисоллар ёрдамида асослаб берилган.

Калит сўзлар: агглютинация, фузия, аффикс, суфикс, префикс, флекция, қўшма аффикс, транспозиция-конверсия, плеонастик такрорлар.

АГГЛЮТИНАЦИЯ И ФУЗИЯ В СИСТЕМЕ МОРФЕМ

Аннотация: В статье описаны явления агглютинации в системе морфем, а также процессы слияния. Обосновывается фузионный способ суффиксообразования на таких примерах, как взаимообусловленность нескольких аффиксальных морфем, а также поглощение элементов в составном аффиксе, невозможность прямого дробления, утрата граничных сигналов между ними.

Ключевые слова: агглютинация, сращение, аффикс, суффикс, префикс, флексия, суставной аффикс, транспозиция-конверсия, плеонастические повторы.

AGGLYUTINATION AND PHYSICS IN THE SYSTEM OF MORPHEMAS

Annotation: The article describes the phenomenon of agglutination in the system of morphemes, as well as fusion processes. The fusion method of suffix formation is substantiated using examples such as the interdependence of several affixal morphemes, as well as the absorption of elements in the joint affix, the impossibility of direct fragmentation, the loss of boundary signals between them.

Keywords: agglutination, fusion, affix, suffix, prefix, flexion, joint affix, transposition-conversion, pleonastic repetitions.

Тил илмида, анъанавий талқинга кўра, сўзнинг ўзак, аффикс (суфикс, префикс, флекция) каби қисмлари маъноли ва вазифали унсурлар ҳисобланади ва улар морфема ҳукмида қаралади. Лекин ҳамма лексикаларнинг таркиби асос

ва қўшимчаларга аниқ ва тартибли ажралавермайди. Бу ҳолат даврлар ўтиши билан асос ва қўшимча қисмларнинг ўзаро келишуви (ташқи томондан) асосида бирикиб кетган бўлиши мумкин. Шундай сўзлар ҳам борки, улар таркибидаги айрим шаклий бирликлар, ана шу шаклларга расмийлашган лисоний маъноларни англатмай қолган. Аксинча, шунчаки шаклларга айланиб қолган унсурлар сифатида лексеманинг таркибига сингиб кетади. Чунончи, *дадамдан, ёрдамчилар, келдингиз, заргарлик* каби сўзлар таркибидаги ҳар бир морфема алоҳида қисм сифатида кўриниб туради: *дада+м+дан, ёрдам+чи+лар, зар+гар+лик*. Бунда ҳар бир морфеманинг ўзига хос функцияси мавжуд. *дада* – асос морфема, *-м, -дан* – муносабат шакл ясовчи; *ёрдам* – асос морфема, *-чи* – сўз ясовчи морфема, *-лар* – луғавий шакл ясовчи морфема; *зар* – асос морфема, *-гар, -лик* – сўз ясовчи морфемалар ҳисобланади.

А.Бердиалиевнинг фикрича, "Тилимизда *қалқиди (қалқди), тупурук (тупук), қўзиди (қўзди), борамиз, келажак* каби кўплаб луғавий бирликлар ҳам мавжудки, улар таркибидаги шаклий унсурларнинг айримларини лисоний маъно ва вазифага эга деб бўлмайди"[1. 15]. А. Бердиалиев келтирган мисолларда *-и-, -ур-, -и-, -а-* қисмлари бунинг далилидир.

*Солиқ, ўсимлик, юрак, мумиё, қўлтиқ, қуёнчиқ, қисир, қиров (*кирови тўкилмаган пичоқ*), биров, найча (*биологик атама*), қўшимча* (лингвистик атама) каби сўзлар таркибидаги *сол+иқ, ўс+им+лик, юр+ак, мум+и+ё, қўл+тиқ, қуён+чиқ, қис+ир, қир+ов, бир+ов, най+ча, қўш+им+ча* қисмларини бугунги кун лексикасида қотиб қолган унсурлар деб аташ мумкин. Бир қарашда бундай унсурлар лингвистикамиздаги бирликларга жуда ўхшаб кетади. Бироқ буларни айнан шу қўшимча ёки асос сифатида олиб бўлмайди.

Юқорида келтирилган мисоллардаги *сол, ўс, юр, мум, қўл, қуён, қис, қир, бир, қўш, най* морфемалар сифатида мустақил ишлатиладиган сўзлардан фарқлаш лозим. Ўзбек тилидаги *солмоқ, ўсмоқ, юрмоқ феъллари, мум органик моддаси, ўрмон қуёни, қисмоқ, қирмоқ феъллари, бир рақами, қўшмоқ феъли, созанданинг найи* сингари маънолари бўлса-да, лексема сифатида биргаликда маъно ифодаламоқда. Бу лексемалар: *солиқ, ўсимлик, юрак, мумиё, қўлтиқ, қуёнчиқ, қисир, қиров, биров, найча, қўшимча* бугунги кунда ажралмас ҳолатга келиб қолган. Юқоридагилар сўз таркибида "асос" қисми асл маъносини тубдан йўқотган, денонатив ном нуқтаи назардан уларга тенг келмайди.

-иқ – синиқ; -лик – қишлик; -ак – қирмизак; -чиқ – сирпанчиқ; -ир – гапир; -ов – бешов; -ча – йигитча… сингари бошқача маъноларини ифодалаб турган морфемалардан тубдан фарқ қилади. Уларни юқоридаги мисолларимиздан келиб чиқиб аффикс деб бўлмайди. Сўз таркибида асос морфема ёки қўшимча морфема кўринишидаги бу унсурлар ҳозирча ҳеч бир атама сифатида номланмайди. Бироқ тилимизда уларнинг ҳам алоҳида ўрни бор. Айрим тилшунослар томонидан уларга нисбатан ҳам морфема атамаси қўлланилган. Масалан, Прага функционал тилшунослиги таълимотида морфемага ана шу нуқтаи назардан қаралган. Унда "сўз таркибида формал (шаклий) ёхуд структур вазифа билан амал қилувчи қисм морфема"[2. 156-157] деб аталган.

Одатда тилимизда бир луғавий маъно касб этган асос морфема ёки

қўшимча морфема атама маъносига эга бўлмаган ҳолатлар ҳам тез-тез учраб туриши табиий ҳол. Баъзи ҳолатларда маълум бир синтагматик қуршовда тайинли ва расмийлашган ўша маъноси ва вазифасида келмай, лисоний номутаносибликни келтириб чиқариши мумкин.

Масалан, *-ча* морфемасини кузатамиз. Бу морфема одатда отларда кичрайтириш шаклини ҳосил қилади: уйча, столча, қутича. Олмош орқали ясалган *ўз+и+ча* сўзида, от сўз туркуми орқали ясалган *бошқа+ча* сўзида, сифат сўз туркуми орқали ясалган *қизил+ча* сўзида ва ҳеч қандай ясалишсиз отлардаги кичрайтириш шаклидаги *китоб+ча* сўзида турли маънолар (шаклдошлик)ни олиб келаётган бу морфема схема сифатида 1:2 шаклини ҳосил қилмоқда. Бу хусусда яна А.Бердиалиевнинг ўша асаридаги *“-лар*” аффиксининг уч маъносини кузатиш мумкин: “*фахрийлар доскаси”, “қариялар уйи”, “фахрийлар ҳурматли кишилардир”, “ойимлар ишдан келди”.* Биринчи ҳолатда (фахрийлар доскаси, қариялар уйи) тушунчага тенг қурилма ясалган, сўз ясашга тенг вазифада. Иккинчи ҳолатда (фахрийлар) грамматик кўпликни билдириб, сўзнинг морфологик шаклини ҳосил қилган, яъни шакл ясовчи қўшимча мақомида. Учинчи ҳолатда олдингиларидан мутлақо фарқ қилувчи бошқа маъно ва вазифада ишлатилган: шахсга нисбатан ҳурмат маъносини воқелантириб, услубий-прагматик қиймат касб этган: маълум даражада афункционал лисоний унсур қиёфасига кирган, унга расмийлашган одатдаги грамматик кўплик маъносини тарк этган.

Фузия – янги морфем бирикмалар ҳосил қилувчи жараён, алоҳида усул. Қўшимчалар ҳосил бўлишининг фузия усули бир неча аффиксал морфемаларнинг ўзаро зич бирикиб кетишини англатади, бунда қўшма аффикс таркибидаги элементларнинг сингишиб кетиши, тўғридан-тўғри қисмларга ажратишнинг мумкин эмаслиги, орадаги чегара сигналларининг йўқолиши каби ҳолатлар уқилиб туради.

Америкалик тилшунос Э.Сепир 1921 йилда “фузия” терминини илмий муомалага олиб кирди. Унинг фикрича, аффиксация икки кўринишда воқе бўлади: эрувчан (фузияланувчи); ёндош келувчи; бу кўринишни агглютинатив тур деб ҳам номлаш мумкин [3. 8]. Э.Сепир фузияни аффикслар, янги ўзаклар ҳосил қилувчи алоҳида усул сифатида ажратиб кўрсатмаган бўлса-да, унда фузия икки элементнинг ўзаро сингишиб, бири ёки ҳар иккиси ўзгаришга учраши ва дастлабки маъънолардаги изоҳлашиш юз беришини таъкидлайди. Айни талқин Ж.Марузонинг “Тилшунослик терминлари луғати” (М.1960. 331-бети)да тўлиғича ўз ифодасини топган. О.С.Ахманованинг луғатида “Ўзгарувчан ўзак билан ностандарт қўшимчани морфемалар ўртасидаги чегаранинг йўқолишига олиб келувчи зич бирикуви фузиядир (соддалашиш ҳодисаси билан солиштиринг)” [4. 505] дейилади.

Узоқ вақтларгача О.Н.Бётлингк ва В.В.Радловнинг морфемаларнинг келиб чиқиши ҳақидаги фикрлари далилларга мос тарзда татбиқ қилинмади: улар туркий тилларда саноқли қўшимчаларгина мустақил сўзларга бориб тақалади, деб кўрсатган эдилар. Тарихий-типологик текширишларнинг кенг қамровда олиб борилиши натижасида агглютинатив тиллар, шу жумладан,

ўзбек тилининг морфем бойлиги – ҳам ўзак қисми, ҳам қўшимчалар қисми икки етакчи усулда бойиб бориши аниқланди:

1) агглютинация (ёндошлик) усули – мустақил сўзларнинг аффиксал морфемаларга айланиши натижасида;

2) фузия усули – морфемаларнинг ўзаро бирикишидан янги ўзак ва қўшимчаларнинг ҳосил бўлиши натижасида.

Агглютинация (лот. agglyutinare – ёпиштирмоқ). 1. Сўз ясалиш ёки шакл ясалиш асоси ўзгармаган ҳолда янги сўз ёки сўз шакли ҳосил бўлиши). Бунда ҳар бир аффикс маълум бир маъно, вазифа билан қатнашади. Масалан, туркий тилларда, жумладан, ўзбек тилида ясама сўзлар ва сўз шакллари асосга маълум изчиллик билан аффикслар қўшиш орқали ҳосил қилинади ва бу аффиксларнинг ҳар бири ўз маъноси билан қатнашади: *тер-им-чи-лар-имиз-га*.

2. Икки сўз (асос)нинг бир сўзга, бир сўз шаклига айланишидан иборат морфологик жараён. Масалан, *эчкини эмар* > *эчки эмар* > *эчкемар*[5. 9].

Агглютинация жараёни тилларда сўз асослари, грамматик ва деривациявий маъноларга эга бўлган қўшимчалар ёрдамида янги сўз ёки грамматик шакл ҳосил қилади.

Агглютинация туркий тиллардаги грамматик шаклларни ҳосил қилишнинг қадимий усули ҳисобланади. Икки сўзнинг бирикувидан янги бирлик пайдо бўлади, ҳосил бўлган бирлик аналитик ёки синтетик ҳолатда бўлиши мумкин. Ўзбек тилида ҳам шунга ўхшаш мураккаб морфологик бирликларнинг ясалиш жараёни мавжуд. Бу ҳодиса бир вақтнинг ўзида содир бўлмай, вақтлар ўтиши билан юзага келади. Агглютинация ҳодисасида сўзларнинг бошқа сўзлардан ёки бирикмалардан ҳосил бўлиши, аффиксга айланиши тилларнинг ўзига хос кўринишини ифодалайди. Туркий тилларга хос жиҳатлар шуни кўрсатадики, бу жараён феъл сўз туркуми доирасида кўпроқ амал қилади. Бу ҳолат одатда кесимнинг ривожланишида кўринади. Шунинг учун феълларнинг аналитик шакллари содда ва қўшма аффикслар микдорини бойитувчи манба ҳисобланади. Бу усул билан ҳосил бўлган аффикслар таркиби фонетик, фономорфологик ҳамда синтактик редукцияга учрайди (тушиб қолади: *тўққиз+ўн – тўқсон, сариқ+а+й – сарғай*) ва у тилда ўзига хос янги бир вазифани бажаради: *келтирмакда турур мен – келтирмактатурмен – келтирмактадурмен – келтирмакдамен – келтирмоқдаман.* Келтирилган мисолдан кўринадики, агглютинация ҳодисаси феъл сўз туркумида кўпроқ учрайди.

Тил далилларининг табиати, айниқса, фузия усулининг бош ва асосий усул эканлигини кўрсатади. Ўз навбатида, ҳар иккала усул бошқа усуллар учун келиб чиқиш манбаи вазифасини бажаради.

А.Ҳожиевнинг “Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати”да фузия фонема таркибининг ўзгариши, бир фонеманинг ҳар икки фонема состави учун умумий бўлиб қолиши деб таърифланади ва *ўқийётирман* > *ўқиётирман* типидаги мисоллар берилган [5. 105-106]. “Фузиянинг илмий термин сифатидаги моҳияти морфемалар қўшилувидаги чегара сигналининг

йўқолиши ва сингишув жараёни билан боғлиқдир. Флексия терминининг лингвистик моҳияти эса асосан грамматик маънонинг ифодаланиши, реляцион қўшимчаларнинг бирикиш жараёни ва мана шу жараёнда юз берадиган айрим фонетик ўзгаришлар билан белгиланади” [6. 12].

“Ўзак ёки асос + аффикс” фузияси: бунда кам ишлатиладиган, нофаол ўзак ёки қўшимча ўзаро бирикиб, янги луғавий бутунликни ҳосил қилади. Шуниси муҳимки, нофаол бирлик ўзи қўшилган бирликлар билан сўз туркуми доирасида ё янги парадигматик боғланишларни юзага келтиради, ё бошқа сўз туркумига транспозиция-конверсия йўли билан ўтиб, умумкатегориал маъносини ўзгартиради. Бу парадигма таркибидан айрим ҳалқаларнинг тушиб қолиши характерида ҳам бўлиши мумкин. Масалан, отлардаги келишик парадигмасидан жўналиш келишигининг *-гари, -кари*, *-қари*, *-ғари*; восита-қурол келишиги *-ин* шакли аста-секин истеъмолдан чиқа бошлагач, бу шакллар ўз маъно таркибидаги ўрин, вақт, ҳолат семалари туфайли равишнинг тегишли бўлимларидан ўрин олди: *ичкари, ташқари*, *илгари, юқори*; *қишин-ёзин*, *тўкин-сочин, бирин-кетин* кабилар. Ана шу жараён туфайли ўрин-пайт, жўналиш, чиқиш келишигидаги сўзлар нисбатан кейинги даврларда равиш сўз туркумига ўтиб турди: *олдинда, орқада, бирга, бирдан, қўққисдан, тўсатдан* кабилар.

“Аффикс + аффикс” фузияси: от ва сифатдаги *-чоқ, -лоқ, -гина, /и/мсира, -/и/нқира* каби кичрайтириш шакллари икки ва ундан ортиқ функционал ўхшаш шакллардан таркиб топган; *-даги, -моқчи, -чи, -лик* каби қўшимчалар эса функционал ноўхшаш қисмлардан тузилган.

Юқоридагилар ўзбек тилида фузиянинг кенг тарқалган кўринишларидир. Кўринадики, бир неча морфемаларнинг ўзаро фузияланиши учун ўзакнинг вазифа жиҳатидан фаоллигини йўқотиши, айниқса, оралиқ ҳалқаларда келувчи қўшимчаларнинг ўз маъно ва вазифасидан узоқлашиши, шунингдек, морфемаларнинг туташув нуқталарида фонетик ўзгаришларнинг ҳам содир бўлиши зарурий шароитдир.

Янги ясалма таркибига фузияланган морфемалар ўзларининг собиқ, генетик маъноларидан ажралади, бу ўринда қисмларнинг кейинги, реал маъноси устун чиқади. Аввалги генетик маънони тиклаш махсус этимологик текширишларни талаб қилади.

Солиштиринг: *тиктиртир, кулчача, қўзичоқча, кичкинагина, ётоқхона*… бу хил плеонастик такрорлар кўплаб тилларга хос бўлиб, янги бирликлар юзага чиқишида муҳим восита ролини ўтайди.

Юқорида келтирилган ва гўё плеонастик қўлланиш каби қайд этилаётган ҳолатларда, аслида, плеоназм кузатилмайди, чунки бу бирликлар таркибидаги биринчи қўлланиш бошқа вазифа бажарса, иккинчи қўлланиш бошқа вазифа учун ишлатилган (чунки *тортишди* ва бошқа *тортишишди* алоҳида ифода; *тойчоқ* – бошқа, тойчоқча – бошқа: биринчи *-ш* бошқа вазифада, иккинчи *-ш* бошқа вазифада, биринчи *-чоқ* бошқа, кейинги -ча бошқа вазифада келмоқда).

Фузия ҳодисасини маълум даврлар бўйича диахроник аспектда, тарихий семасиология тамойиллари бўйича текшириш ўзбек тилининг турли

сатҳларига тегишли бирликларнинг ривожланиши қонуниятларини белгилаш ишига кўмаклашади. Айниқса, тил тарихи босқичлари бўйича генетик, этимологик ҳамда бирор синхрон давр учун хос бўлган маъно муносабатлари диалектикасини кузатиш семасиология фанини янги хулосалар билан бойитади. Бу тилнинг коммуникатив, прагматик, аккумлятив, эстетик-эмотив вазифалари ва аспектлари билан боғланган мураккаб масаладир[7. 75-125].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бердиалиев А. Сўз таркиби ва шакл-маъно номутаносиблиги. – Бишкек, 2013.
2. Гимпелевич В.С. Вопросы об «асемантических морфемах», Проблемы семантики. – М.: Наука, 1974.
3. Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках // Структура и история тюркских языков. – М.: Наука, 1971.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.; 1966.
5. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.; 1985.
6. Раҳимов А.У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш. Фил.ф. номзоди. дисс. автореф. – Т.; 2009.
7. Миртожиев М.Семасиология. – Т.; 2010.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Supiyeva Buxolida Abduvalievna
Toshkent shahar pedagogika markazi, p.f.b.f.d (PhD)

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘zining keng ko‘lamli o‘zgarishlari va har tomonlama islohotlari bilan ajralib turadi. Davlatimizda ta’lim siyosatining bosh muammosi – sifatli va mazmunli ta’limni ta’minlashdir. O‘qituvchi va rahbarlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi muammosini hal qilmasdan turib ta’limni isloh qilib bo‘lmaydi.

Faqat tinglovchining yuqori malakasi, kasbiy muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati, o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘zini rivojlantirish uchun motivatsiyani shakllantirish, introspektik qobiliyati va eng yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish unga doimo o‘zgarib turadigan sharoitlarda samarali ishlashga imkon beradi.

Davlat ta’lim talablarida “bugungi kun tinglovchisida ta’lim faoliyatida: kasbiy harakatchanlik va moslashuvchanlik; iqtisodiy va madaniy qadriyatlarni yaratishda faol ishtirok etish; ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashish; raqobatbardosh bo‘lish; yangi sharoitlarda kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga tayyor bo‘lish qobiliyat va fazilatlari shakllangan bo‘lishi kerak”ligi aytilgan.

Mazkur masalalar yuzasidan respublikamiz, MDH va xorij olimlari tomonidan tajriba tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot doirasida ularning ishlari tahlil qilindi va kerakli o‘rinlar takomillashtirildi.

Masalan, pedagog olimlar A.B. Radjiev Xalq ta’limi tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumta’lim maktablari direktorlari misolida), T.T.Shaymardonovning Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi, X.I. Ibragimov Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malaka oshirishi zamon talabi, E.M.Alkarov axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish, A.A. Ibragimovning pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv asoslari, Juraev A.S. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, M.J.Shodievaning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim sohasi va ilm-fanni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarida “...mamlakat taraqqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash” vazifasi belgilanib, bu borada tizimda innovatsiyalarga ochiqlik, uzluksizlik va uzviylikni ta’minlash, individuallashtirish, kognitiv yondashuvlar asosida tinglovchilarning kasbiy rivojlanishiga qulay sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Modernizatsiya qilingan ta’lim sharoitida tinglovchi maqomini va ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Respublikamizda 2022 -2023 o‘quv yili hisobiga 10008 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 498588 nafardan ortiq pedagog xodimlar faoliyat yuritmoqda. Shulardan 62881 nafari o‘rta maxsus ma’lumotli, 435707 nafari oliy ma’lumotli o‘qituvchilar hisoblanadi. 2022 yil attestatsiyasi hisobiga ko‘ra, 19090 nafar oliy toifali, 66859 nafari I toifali, 135517 nafari II toifali va 214241 nafari mutaxassis toifasiga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, Respublikamizda pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘yicha 14 ta Pedagogika oliy ta’lim muassasalari, A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti hamda o‘qituvchilar uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha 14 ta hududiy Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari faoliyat olib bormoqda.

Pedagoglarga yangi metodikalarni o‘rgatish milliy markazlarining mazmuni tinglovchilarni innovatsion jarayonga tayyorlashda ta’lim-tarbiyaning zamonaviy metodologiyasini o‘z ichiga oladi. Malaka oshirish dasturlari doirasida berilayotgan mavzular pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablari va o‘quv rejasi asosida shakllantirilgan bo‘lib, mutaxassislik fani tinglovchilarini fanga oid yangiliklar, innovasion ta’lim texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalaridan foydalanish, AKTni o‘quv jarayonida faol bo‘yicha kasbiy kompetensiyalari shakllantiriladi.

Muhtaram yurtboshimiz O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim va tarbiya, ilm-fanni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida

“...pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish” malaka oshirish tizimida ustivor vazifasi etib belgilandi.

A.Radjiev ayganidek, “... uzluksiz kasbiy rivojlanish O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirishning ta’minlovchi zamonaviy, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, tinglovchilarning bilimi, pedgogik mahoratini uzluksiz ravishda yangilab borish, zamon talablariga mos ta’lim sifatini ta’minlash uchun kasbiy tayyorgarligini oshirish imkonini beradigan ta’lim shaklidir.

Mazkur ta’lim bugungi kunda tinglovchilarning ilmiy salohiyati va kasbiy kompetnesiyasini shakllantirish, rivojlangan mamlakatlardagi tinglovchilar kasbiy mahoratidan kam bo‘lmagan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bunda birinchi bo‘lib tinglovchilar ijodkorligini shakllantirish vazifasi turibdi. Shu sababdan ta’lim jarayonida tinglovchilar ijodiy faoliyatini takomillashtirishga ehtiyoj ko‘paymoqda.

Mazkur sohadagi xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda tinglovchining kasbiy mahoratini oshirish istiqbollarini aniqlashning ilmiy yo‘nalishlari yaratilmoqda.

DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDAGI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH TAMOYILLARI

O‘sarov Jabbor Eshbekovich, Haqqiyeva Fotima Olimjonovna,
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika fanlari doktori, professor; 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim sohasida nodavlat sektorini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari, xususan davlat-xususiy sheriklikning 10 dan ortiq yangi shakllari me’yoriy-huquqiy bazasi shakllantirilgan holda, sohani rivojlantirishga qaratilgan keng imtiyozlar joriy etildi. Ushbu maqolada davlat xususiy sherikchiligi asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Boshqarish, rejalashtirish, tashkilot, faoliyat, imkoniyat, xususiy turkumlar, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish, samaradorlik, ta’lim sifati, bilimdonlik, xabardorlik.

Bugungi kunda jami faoliyati boshlangan 1 054 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 105 644 nafar bola qamrab olingan. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi (Davlat sherigi) tomonidan tadbirkorlik subyektlari (Xususiy sheriklar) bilan maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risida bitimlar imzolanib kelinmoqda.

Maktabgacha ta’lim vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2018-yildagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yana-da rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3651-son qarorida va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlarning tegishli bandida ko‘rsatilgan

majburiyatlarini bajarib, xususiy sheriklarga yer uchastkasi yoki (va) bino ajratilishida va uni ta’mirlash hamda rekonstruksiya qilish uchun imtiyozli kredit mablag‘lari berilishida ko‘maklashgan.

Bitimga asosan Xususiy sherik investitsiya obyektida qurilish ishlarini boshlash, tugallash, jihozlash va muassasani ishga tushirishni bitimning 2-ilovasida belgilangan muddatlarda bajarishi shartligi belgilangan.

Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish maqsadida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 2018-2022-yillar davomida jami 4,03 trln. so‘m miqdorida subsidiyalar ajratildi. Jumladan, 2018 yilda 60,0 mlrd. so‘m, 2019 yilda 238,4 mlrd. so‘m, 2020 yilda 300,0 mlrd. so‘m, 2021 yilda 1,30 trln. so‘m va 2022 yilda 2, 1 trln. so‘m byudjet mablag‘larini tashkil etdi.

Sohaga investisiyalarni jalb etishda keng imkoniyatlardan foydalanilmoqda,

xususan Saudiya Taraqqiyot Jamg‘armasi ishtirokida amalga oshirishi belgilangan loyihalar bo‘yicha 10,9 mln. AQSH dollari ekvivalentida «Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlash» loyihasi qarz bitimi imzolangan. Shunga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining 416-sonli qarori bilan umumiy qiymati 153,4 mlrd. so‘m bo‘lgan 41 ta loyihalarni shundan 50,9 mlrd. so‘m tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari hisobidan hamda 112,5 mlrd. so‘m ya’ni 10,9 mln. AQSH dollari ekvivalentida Saudiya Taraqqiyot Jamg‘armasi kredit mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilish belgilandi

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimining afzalliklari nimalardan iborat, subsidiyalar hamda barcha soliq va davlat ushlanmalarni avtomatik ravishda hisoblashi natijasida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun subsidiyalarni hisoblash va hisobot topshirishda byurokratik ovoragarchiliklar va qog‘ozbozlik yo‘qoldi hamda buxgalter jalb etish zarurati qolmadi.

Oldingi tartib bo‘yicha tadbirkor subsidiya olish uchun buyurtmanomani qog‘oz shaklida to‘ldirib, maktabgacha ta’lim bo‘limining kamida 2 ta xodimi bilan kelishib, moliya bo‘limiga taqdim etishi zarur bo‘lgan. Bundan tashqari xodimlar uchun ish haqi va ushlanadigan soliqlarni hisoblash, soliq idoralarga hisobotlarni topshirish uchun buxgalterlarni yollagan va ularga norasmiy ravishda har oyda ish haqi to‘langan. Shuningdek, ushbu tizim barcha jarayonlarni avtomatik ravishda amalga oshirilayotganligi sababli, tizimning inson omilidan xolisligi va shaffofligi ta’minlangan;

nodavlat MTTlarning elektron ro‘yxati shakllantirilib, unda har bir MTTning joylashuvi (lokasiyasi), quvvati, bank ma’lumotlari, tarbiyalanuvchilar va xodimlarning F.I.Sh. hamda boshqa zarur ma’lumotlar bazasi yaratildi, ya’ni tizim orqali istalgan vaqtda davomat kuzatib boriladi;

oilaviy MTTni ochish uchun ariza berish va uni ko‘rib chiqish jarayoni raqamlashtirilganligi tufayli tadbirkorlar uchun byurokratik to‘siqlar va korrupsion omillar bartaraf etildi, shuningdek, arizani ko‘rib chiqish jarayonini onlayn tarzda nazorat qilish imkoniyati yaratildi

Nodavlat maktabgacha ta’lim xizmatlari ko‘rsatish istagida bo‘lgan sub’yekt Maktabgacha ta’lim vazirligiga tegishli arizani beradi, unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

• xususiy sherikning nomi va joylashgan joyi – yuridik shaxslar uchun, shaxsiy ma'lumotlari va yashash manzili – jismoniy shaxslar uchun;

• loyihani amalga oshirish maqsadlari;

• nazarda tutilayotgan bitim ob'yekti yoki yer uchastkasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Kelib tushgan ariza Vazirlik tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda Davlat raqobat qo'mitasi bilan birgalikda 10 kun ichida ko'rib chiqiladi. Ulardan ijobiy xulosalar olinganidan keyin tanlov e'lon qilinadi. Tanlov, shuningdek, vazirlik tashabbusi bilan ham o'tkazilishi mumkin.

U boshlanishidan 30 kun oldin vazirlikning sayti va boshqa OAVlarda, ijtimoiy tarmoqlarda tanlov savdolari o'tkazilishi haqidagi e'lon joylashtiriladi. Tanlovda ishtirok etish uchun xususiy sherik quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda Vazirlikka buyurtma topshiradi:

• yuridik shaxs ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma yoki pasport nusxalari – jismoniy shaxs uchun;

• buyurtma taqdim etilishidan ko'pi bilan 1 oy oldin muddatda soliqlar,

yig'imlar, boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzi hamda boshqa moliyaviy sanksiyalar mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

• loyihani amalga oshirishning moliyaviy imkoniyatlarini tasdiqlovchi - sof aktivlar, loyiha qiymatining kamida 25%i miqdorida boshqa tashkilotning kafilligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

• MTT binosini qurish (rekonstruksiya qilish) uchun eskizli loyiha taklifi;

• bino qurilishi uchun dastlabki texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar;

• ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat (EKIHning 1 baravari).

Ariza maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi, tanlov taklifi loyihani amalga oshirish uchun eng maqbul deb topilgan ishtirokchi tanlov g'olibiga aylanadi. 10 kun ichida u bilan DXSh to'g'risidagi bitim tuziladi.

Ta'lim tashkilotini boshqarishda bitta emas, balki ko'plab boshqaruv turkumlari amalga oshiriladi. Bu turkumlar ierarxik tuzilmaga ega — xususiy turkumlar nisbatan umumiylari tarkibiga kiradi. Masalan, ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning umumiy turkumida boshlanQich va umumiy o'rta ta'limni rejalashtirish, tashkil etish, unga rahbarlik va uni nazorat etish turkumlari ajratib ko'rsatiladi. Bu turkumlar ham, o'z navbatida, murakkab tuzilmaga ega. Masalan, boshlang'ich ta'limni boshqarish turkumi ichida va ayrim sinflar, predmetlarni o'rganishni rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish turkumlari ajratiladi. Boshqaruv jarayonida, ayni paytda, turli boshqaruv turkumlari ishi amalga oshiriladi. Kimdir mashg'ulotlar jadvaliga tuzatishlar kiritishi, kimdir o'qituvchining ishini nazorat qilib borishi, yana kimdir pedagogika kengashining ish rejasini muhokama qilishi mumkin. Bu boshqaruv turkumlarini nafaqat bexabar kuzatuvchi uchun, balki aksariyat boshqaruv sub'yektlari uchun ham nooshkor holga keltiradi. Ammo boshqaruv faoliyatining yaxlitligi uchun javob beruvchi ta'lim tashkiloti rahbari ushbu turkumlarni tuzib, ularning har birini kuzatib borishi

kerak.

Maktabgacha ta’lim tashklotini boshqarish, rejalashtirish va tashkil qilish ishini bajarish tufayli ta’lim tashkiloti jamoasi a’zolarining kuch-g‘ayratini samarali birlashtirish uchun zarur, ammo yetarli bo‘lmagan shart-sharoit yaratiladi. Amaliyotdan shu narsa ma’lumki, odamlar real bajarayotgan ishlar ularga qo‘yilayotgan rasmiy talablarga har doim ham mos kelavermaydi. Ijtimoiy tashkilotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularga kiruvchi odamlar o‘z sabablariga ega bo‘lgan holda, o‘z oldilariga o‘zlari maqsad qo‘yishga qodirdirlar. Ular nimanidir qilishni xohlashlari va xohlamasliklari va shunga qarab ishlashlari mumkin. Odamlar tashkilotga kelgach, u o‘zlarining manfaatlarini amalga oshirish imkonini berishini xohlashadi. Bu hol yuz bermasa, ular yo tashkilotdan ketadilar yoki salohiyatlari va iqtidorlarini ishga to‘liq safarbar etmaydilar.

Ta’lim sifati ta’lim oluvchi yoshlarning xabardorligini rivojlantirishni ta’minlaydigan ta’lim faoliyatining turli jihatlarini, o‘qitish mazmuni, shakllari va metodlarini, moddiy-texnika bazasini, kadrlar tarkibini va hokozo tavsiflovchi ko‘rsatkichlar yig‘indisi bilan belgilanadi. «Bilimdonlik» («xabardorlik») termini menejmentda keng qo‘llaniladi. Ammo uni ta’lim tizimida ishlatish u qadar ommalashmagan. O‘quvchilar va talabalarga nimani berish maqsad qilib qo‘yilganligini aniqlash uchun ko‘pincha bilim, qadriyat yoki ishonch va e’tiqod tushunchalaridan foydalanib kelingan va hozir ham shulardan foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-yanvardagi PQ-4581-son qarori.

2. “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” T.: 2018.

3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.

TO‘RKUNLAB KETMOQ YOKI TURK, TURKIY ATAMALARI HAQIDA

Tursunali Mirzaqulov,
filologiya fanlari doktori,
Olmaliq shahar Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti professori

O‘zbek milliy tilining asoslaridan biri qipchoq lahjasi hisoblanadi. Qipchoq lahjasiga mansub qurama shevasida to‘rkunlab ketmoq iborasi ishlatiladi. Bu ibora juda qadimiy bo‘lib, turkiy qabilalar birlashmalari shakllanayotgan davrdagi ko‘pgina qabilalarga tegishli so‘zlardan hisoblanadi. Ibora mazmunidan kelin ota-onasinikiga to‘rt kunga ketdi ma’nosini ham anglash mumkin.Aslida to‘rkun so‘zi umum- turkiy so‘z bo‘lib, qadimdan quyidagi o‘zaro yaqin shakl va ma’nolarda ishlatilgan: turkun- “qabila to‘planadigan joy”, “qarindosh-urug‘lar ”, “ota-ona uyi” kabi .

Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘otit turk” asarida turkun-“xalq” , “qabila”, “ota-ona uyi” ma’nolarini bildiradi. Qirg‘iz tilida esa

to‘rkun “ayol kishining ota-onasi va qarindosh-urug‘lari” ma’nosidadir.

Akademik V.V. Radlovning “Turkiy lahjalar lug‘ati” da bu so‘zga “ota, ota-ona, ayolning barcha qarindosh-urug‘lari” deb izoh berilgan.

Boshqird tilida turken “ota-ona uyi”. “Qadimgi turkiy lug‘at” (“Drevnetyurkskiy slovar”, L.,1969 581- betda) turkun, to‘rkun “urug‘”, “qabila”, “qon-qarindoshlar uyi” ma’nolari qayd etilgan.Mo‘g‘ul tilida torgun (ko‘plik shakli torgut) “ona tomondan qarindosh-urug‘lar ”, “ayolning qarindoshlari” mazmunini anglatadi. Akademik A.N.Kononovning ko‘rsatishicha, to‘rkun-turkun so‘zining o‘zagi tura, turu, to‘ru shaklida bo‘lib, “paydo bo‘lmoq”, “tug‘ilmoq”, “kelib chiqmoq” ma’nolarini bildirgan. Buryat tilida turexe, mo‘g‘ulcha torox “tug‘moq”, “tug‘ilmoq”. Keyinchalik turkun so‘zining qisqarishi natijasida turk atamasi “hukmron qabilaga tegishli zodagonlar oilasiga mansub shaxs” ma’nosida ishlatilgan. Olimlarning fikricha, turk atamasi “hoqonlikni tashkil etgan qabilalar uyushmasi”, “harbiy –siyosiy uyushma” kabi ma’nolarni ham ifodalagan.

Arab tilidagi ilmiy manbalarda turk atamasi YevroOsiyo hududlarida kelib chiqishi va til yaqinligiga ega bo‘lgan xalqlarga nisbatan qo‘llana boshlagan.

M.Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida “Movarounnahrdan Sharqqacha bo‘lgan o‘lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand - Semizkand, Toshkand- Shosh, O‘zkand, Tunkand nomlarining hammasi turkchadir. Kand turkcha shahar demakdir.ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo‘ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda”, -deb yozadi.(III jild, 164-bet)X-XI asrlarda qorluq –chigil, qipchoq, o‘g‘uz kabi qabilalarning birlashuvi asosida o‘zbek xalqi shakllandi. Bu xalq turk va uning tili turkiy til atamasi bilan boshqa xalq va tillardan farqlandi.

Amir Temur saltanati va hazrat Alisher Navoiy davrida o‘zbeklar turk va o‘zbek adabiy tilini turkiy til deb nomlash keng yoyildi.

Alisher Navoiy faxr bilan yozadi :

Turk nazmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam

Mazmuni: men turk (o‘zbek) nazmida bayroq ko‘tarib, ul mamlakatni yagona adabiy tilga birlashtirdim.

Tahti farmonimg‘a olibmen oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Mazmuni : Qo‘shin tortmay Xitodin Xurosongacha bo‘lgan yerlarni qo‘l ostim (tahti farmonim) ga osonlik bilan birlashtirdim.

Atoqli adib Chingiz Aytmatov 80-yillarida Alisher Navoiy davri o‘zbek madaniyati haqida fikr yuritar ekan : “Vizantiya madaniyati slavyan madaniyatiga qay darajada ta’sir o‘tkazgan bo‘lsa, o‘zbek madaniyati ham O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatiga shu darajada ta’sir o‘tkazgan”, - deb yozgan edi.

Aniq bo‘ladiki, qadimda “ota-ona uyi”, “qarindosh - urug‘lar” ma’nosini ifodalaydigan va qurama shevasida hozir ham ishlatiladigan to‘rkun so‘zidan “qabilalar uyushmasi”, “qabilalar yashaydigan makon-manzil” ma’nosidagi turk atamasi paydo bo‘lgan va bu atama keyinchalik ijtimoiy-siyosiy atama sifatida o‘zbek xalqi, uning tili ma’nosida qat’iylashgan.A.Navoiy o‘zbek tilining maqomi

va mavqeini forsiy til bilan chog'ishtirgan holda turk tili, turk alfozi (nutqi), turkiy til nomi bilan abadiy mustahkamladi.

Hozirgi davrda turk atamasi Turkiya davlatida yashaydigan asosiy etnik birlashmani anglatadi, kelib chiqishi bir bo'lgan, til yaqinligiga ega bo'lgan 30 dan ortiq xalqlar va ularning tillari turkiy xalqlar va turkiy tillar degan nom bilan yuritiladi.

SINTAGMATIK YO'NALISHDA SIMMETRIYANING YO'QOLISHI VA QO'SHMA AFFIKSLAR ASIMMETRIYASI

Uralov Azamat Begnarovich, ***f.f.b.f.dok (PhD), dotsent***

Sintagmatik yo'nalishda simmetriya (uyg'unlik)ning yo'qolishi bir necha xil nomutanosiblikni yuzaga keltiradi:

1. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida bir qancha grammatik kategoriyalarda qo'shimchalar birdan ortiq grammatik ma'nolarni ifodalaydi: *-(i)m* (do'stim) egalik qo'shimchasi ham I shaxs, ham birlik ma'nosini, *-man (to'qiyman), -k (ko'rdik)* shakllari ham xuddi shunday xususiyatga ega: bu morfemalar ham I shaxs, birlik sonda; I shaxs ko'plik ma'nolarini anglatadi, ya'ni ifoda sathiga tegishli bir birlik mazmun sathiga tegishli ikki birlikni aks ettiradi: mayl shakllari ham tarkibida bir necha mazmun birligini tashib kela olish qobiliyatiga ega: *-(a)y* (ko'ray, yuray): I shaxs, birlik sonda.

2. Asosga birin-ketin qo'shiladigan affiksal morfemalar va ularga vazifadosh birliklar sintagmatik jihatdan shakl va mazmun uyg'unligiga ega bo'lavermaydi. Xuddi qo'shma va juft so'zlar hamda polipredikativ gaplarda bo'lgani kabi til taraqqiyoti tufayli alohida ifodalanishi mumkin bo'lgan mazmun birliklari morfemikada qo'shma affikslar va analitik shakllar tarkibida yaxlit mazmun ifodasiga ega bo'ladi (bu mazmun idiomatik va idiomatik bo'lmagan turlarga bo'linadi). Natijada, sintagmatik yo'nalishdagi tahlilda shakl va mazmun nomuvofiqligi, ifoda sathi birliklarining mazmun sathi birliklariga nisbatan miqdor ortiqligi hodisasi yuz beradi. Bu jarayon o'z-o'zidan turli nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi. Ayni shu o'rinda affikslarning qator kelishi ikki xil hodisa, ikki xil jarayonga nisbatan xoslanishi zarur: affikslarning qator kelishi ham, ularning qo'shilishi ham so'z tarkibiga aloqador hodisadir. Chunki, so'z tarkibi ma'no anglatishiga ko'ra qismlarga ajratiladi. Bir necha mustaqil shakllarning bir mazmunga xizmat qilishi asosga bog'liq holda o'rganiladi. Garchi tarkibni bir necha qismga ajratish mumkin bo'lsa-da, asos dastlabki shakl bilan munosabatga kirishganida (o'z mazmunini saqlab qolgan holatda) tushuncha paydo qilmasa, bu shaklni tarkibga bo'layotganimizda xatolikka yo'l qo'yayotgan bo'lamiz. Lekin ular morfemalarning miqdori jihatidan farqlanadi: affikslarning qo'shilishidan bitta morfema hosil bo'lsa, affikslarning qator kelishida bir necha affiksal morfema mavjud bo'ladi.

Qator kelgan affikslarning yoki biror mustaqil so'zning yangi ma'no-vazifa qiymati bilan paradigmatik qatorlarga tortilishi va paradigmatik qutb birligiga

aylanishi oxir-oqibat yangi affiks — qo‘shma affiksni hosil qiladi. Bunda yangi birlik eski birliklarni birlashishidan hosil bo‘ladi. Mazmun jihatidan mustaqil morfem shakl yana bir shaklga bog‘lanadi va oralari ajralishga moyilsiz bo‘lib qoladi. Bunda mazmunlarning birinchi qismi ikkinchisiga tobelanishi kuzatiladi, yoki aksincha bo‘lishi ham mumkin. Masalan, *kelmoqda, kelmoqchi* shakllarida qator kelgan — -*moq+da, -moq+chi* affikslarining zamon va mayl kategoriyalari paradigmasiga tortilishi eski o‘zbek tilidayoq boshlangan. Qarang: “O‘g‘uznoma” da: *ichagusin yemakta turur..*.[1]

O‘zbek tilshunosligida til va nutqning munosabati, diaxroniya va sinxroniya orasidagi farq va tutashuv nuqtalariga oid masalalar o‘z o‘rganilish tarixiga ega. O‘zbek tilshunosligida XX asrning 60-yillaridayoq affikslarning qo‘shilishi va qator kelishi turlicha talqin etilgan. Hatto S.Usmonov shu asosda “so‘zning morfematik va funksional analizi” konsepsiyasini qo‘ygan edi[2]. Bunda morfem birliklarning vazifalari tahlil qilinishi bilan bir qatorda mazmunning shaklga ta’sirini ham kuzatish muhimligi ko‘rsatiladi.

Shuni ham ta’kidlash zarurki, birdan, tezdan, ilgaridan, oldindan, ichkari, yarasha, qishin-yozin kabi shakllarga nisbatan so‘z yoki so‘z formasi morfemalarga bo‘lingani holda funksional qismlarga bo‘linmasligi mumkin deyilishi tarixiylik va tilning hozirgi holatini to‘g‘ri farqlamaslikdir, bu shakllar morfem jihatdan ham ma’noli qismlarga – funksional birliklarga ajralmaydi, bu o‘rinda morfologik yaxlitlanish – ma’no va shakl yaxlitligi – soddalanish hodisasi yuz bergan.

Ayrim manbalarda tashqi sintagmatik tasavvur tufayli qo‘shma affikslarning

tarixiylik holatiga e’tibor berilmaydi. Shunga ko‘ra, “hozirgi-kelasi zamon fe’li asosiga -*gan* affiksining qo‘shilishidan hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi hosil bo‘ladi: boradi+gan – boradigan, ishlaydi+gan – ishlaydigan; fe’lning hozirgi zamon ko‘rsatkichi bo‘lgan shakliga (asosiga) -*gan* affiksining qo‘shilishidan hozirgi zamon sifatdoshi hosil bo‘ladi: yozayotgan, ishlayotgan...”[3] tarzidagi fikrlarni

uchratamiz.

Ayni shu holat -*gi kel* analitik formanti tarkibida ham kuzatiladi; *ko‘rgim keldi, ko‘rging keldi, ko‘rgisi keldi, ko‘rgimiz keldi, ko‘rgingiz keldi, ko‘rgilari keldi.*

Dastlab, -*guncha* affiksi haqida. Sh.Rahmatullayevning fikricha, oraga egalik qo‘shimchasini “kiritish mumkinligi” -*guncha* yaxlit affiks emasligini isbotlab turadi: -*gun+im+cha*. Murakkab affiks ichiga forma o‘zgartiruvchi affiksni kiritib bo‘lmasligi – aksioma”[4]. Olimning qayd etishicha, -*gun+cha, -gan+cha* tarkibidagi -*dek* affiks tusini olgan birliklar bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratilishi va shunday yozilishi lozim: *kelgun-cha, uyga-cha, sen-dek*. Bunga ushbu shakllarning ko‘makchi so‘zlar (*kabi, qadar, singari*) bilan sinonimiyasi ham imkon beradi. Dunyo tillarida, jumladan, turkiy tillar va o‘zbek tilida qo‘shma va murakkab affikslar tarkibida so‘z o‘zgartiruvchi affikslarning joylashuvi umumlisoniy xususiyatga egaligini ko‘rsatadi.

---

[1] Bu haqda qarang: Щербак А.М. К истории узбекского литературного языка древнего периода / Академику В.А.Гордлевскому к его 75-летию. – М.; 1953. – С. 320.

[2] Usmonov S. So‘zning morfematik va funksional analizi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. 1965. 1-son, 39-bet.

[3] O‘zbek tili. grammatikasi, II tomlik, I tom. – T.; 1975. – B. 512-513.

[4] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilidagi bir sintaktik qurilma haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. 1992. №2 – B. 16.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi va turkiyshunoslikda *-guncha* shakli *-gancha* shaklining tovush o'zgarishidan (-guncha < -gancha) paydo bo'lgan degan qarash bor. Sh.Rahmatullayev o'z vaqtida A.N. Kononov tomonidan taklif etilgan etimologiyaga tayangan holda (-gun+cha: chog') *-gun* va *-gan* qismlari asli bir affiksning ikki fonetik varianti (shakli) degan xulosaga keldi. Lekin bu shakllarning genetik tabiati, diaxron jihatdan tamomila boshqa ekanligi keyinchalik A.N. Kononov tomonidan alohida e'tirof etilgan edi: *-guncha* shakli, aslida, *-gu* (kelasi zamon sifatdoshi) hamda -cha (chegara affiksi yoki ekvativ); - *gan* esa *-g* (orttirma daraja ko'rsatkichi) *+n* (sifatdosh+ravishdosh affiksi)dan iborat; *-guncha* tarkibidagi *-n* egalik kategoriyasining qoldig'idir; *-guncha* affiksi tarkibidagi *-gun* o'tgan zamon sifatdoshi, buning ustiga, fe'l sifatlovchi deb tan olinadigan bo'lsa, u qanday qilib "kelasi vaqt chegarasi"ni bildirishi mumkin?[5] Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda chog'ishtirish, o'xshatish, chegara, taxmin kabi ma'no ottenkalarini bildiruvchi yoki ifodalovchi *-cha* (chegara – ekvativ) affiksi amal qilgan. (aslini qaraganda, bunday mazmunning keng ifodalanishi tildagi bir shaklga nisbatan olinadigan bo'lsa, mazmun nomutanosibligini yuzaga chiqarmoqda.) Ayni ana shu affiks keyinchalik *-larcha:* (yuzlarcha: chama, taxmin), *-tacha* (o'ntacha: taxmin), *-larcha* (bolalarcha: o'xshatish), *-gacha* (uygacha: chegara) qo'shma affikslari tarkibiga singishgan va yaxlitlashgan. Taraqqiyot natijasida soddalashgan. Shu sababdan tilning qadimgi davridayoq affiks maqomiga to'la ega bo'lgan *-cha, -dek* morfemalarini goh yuklama – affiks, goh ko'makchi – affiks deb nomlash, ularning imlosini o'zgartirib, chiziqcha bilan yozishga asos yo'q. Yaxlit morfema orasiga sintaktik ehtiyoj tufayli egalik shakllarining orttirilishi o'z izohiga ega: ayrim hollarda yaxlit til birligining "uzilishi", oraga ba'zi elementlarning kiritilishi tipologik jihatdan xilma-xil tillarga xos hodisadir. Bu jarayon o'zbek tilida ham ko'plab kuzatiladi.

Sh. Rahmatullayev: "Tom ma'noda ikki affiksning qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan murakkab affiksdan, ikki morfemaning yonma-yon kelishini farqlash lozim", – deb to'g'ri ta'kidlaydi. "Lekin, – deb yozadi muallif, *-ga, -cha* murakkab affiks emas, chunki uning tarkibi *-ga* affiksiga va *-cha* morfemasiga ajraladi[6]. Keyingi birlik o'zidan oldin kelishik affiks qatnashuvini talab qiladi, go'yo "boshqaradi"; affiksga esa bunday xususiyat xos emas. Bu morfema tashqi ko'rinish asosidagina affiksga tenglashtirib yuborilgan, asli ko'makchi – affiks deb baholanishi to'g'ri: *Sirdaryoga qadar – Sirdaryogacha* haqiqatan ham, bu o'rinda, qadar ko'makchisiga ma'nodosh, vazifadosh bo'lib kelayotganligi aniq. Shunga ko'ra, *-gacha* birikuvidagi holatda tub ma'nodagi qo'shma affiks hali shakllanmagan deb hisoblash lozim.

O'zbek tilshunosligida ko'makchilar o'zidan oldin kelgan so'zni "boshqaradi" degan an'anaviy qarash hamon mavjud. Holbuki, ko'makchilar (analitik vositalar) ham, kelishik affikslari (sintetik vositalar) ham ikki mustaqil so'z (ot+fe'l)ning birikishi (valentligi)ni ta'minlaydigan, ularning munosabatga kirishuvi uchun "ko'prik" bo'ladigan yordamchi birliklardir. Shu sababli ham ko'makchi

---

5 Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации // Вопросы языкознания, 1976. – №4 – С. 13.

6 Rahmatullayev Sh. Ko'rsatilgan maqola. – B.16 – 18.

birliklarini faqatgina boshqarish uchun xoslangan deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shuning uchun ular bir so‘zga emas, balki ikki so‘zga taalluqli bo‘lgan, ularni “ushlab” turadigan morfemalardir. Solishtiring: *kitobcha, qizaloq, ko‘chalar; ishchan, sizla* kabi so‘zlardagi *-cha, -loq, -lar, - chan, -la* morfemalari bir so‘zga taalluqli birliklardir.

-gacha shaklida ikkinchi qism (-cha)ning ma’nosi aktual bo‘lib, *-ga* – tutashtiruvchi (asemantik) birlikka aylangan; ikkinchidan, mustaqil shakl bo‘lganidan, *-gacha* (uygacha, shahargacha) bog‘lanib keladigan fe’llar bilan *-ga* jo‘nalish kelishigi bog‘lanadigan fe’llar farqlanadi[7]. Tutashtiruvchi birlikning ma’nosizlanishiga esa o‘z vazifasini yo‘qotishi sabab bo‘lgan. Bunda -ga elementi jo‘nalish kelishigi xususiyatida emas, ikki birlik -ga+cha soddalashib bir shaklga aylangan.

Demak, hozirgi tilda *-guncha, -gacha* kabi affikslar xuddi *-gudek* (kelgudek: -gu: kelasi zamon sifatdoshi), *-larcha* (o‘nlarcha), *-tacha* (yuztacha) qo‘shma affikslari kabi yaxlit til birliklari bo‘lib, agar ularning tashkil etuvchilari alohida-alohida olib qaraladigan bo‘lsa, til sistemasiga tegishli paradigmalardagi binar-oppozitivlik munosabatlariga putur yetadi. Chunki har bir til elementi, sodda yoki qo‘shmaligidan qat’iy nazar sinxron sistemada o‘z o‘rni va mavqeiga ega. Albatta, ko‘makchilar ham, yuklama va bog‘lovchilar ham muayyan vazifada morfemik maydonga tortiladi. Morfem sintagmatikada ularning ham o‘ziga xos o‘rni va hissasi bor. Bunday birliklarni tarkibga ajratib o‘rganib bo‘lmaydi.

Yuqoridagi izohlardan aniq bo‘ladiki, morfem sintagmatika masalalari atroflicha, keng ilmiy maydonda o‘rganilmaganligi sababli bu borada xilma-xil fikrlar mavjud. Bunda sintagmaning qismi hisoblangan birliklarni u analitik bo‘ladimi yoki sintetik bo‘ladimi jiddiy o‘rganish kerak. Ayni shu o‘rinda sintagmatika nuqtayi nazaridan qo‘shma affikslar, analitik hamda sintetik formantlar farqlanishi kerak. Ular orasidagi o‘xshashlik va farqlar tildagi sintagmalar maydonini aniqlashga yordam beradi.

Tilshunoslik nuqtayi nazardan analitik formant va qo‘shma affiksning quyidagi

mushtarak belgilari bor:

1) shakl jihatidan har ikkalasi ham tilning bir morfem birligi sanalishi mumkin, bir umumiy yaxlit ma’no ifodalab, bir xil vazifada keladi;

2) tarkibda tashkil etuvchi qismlari turg‘un, doimiy xarakterga ega bo‘ladi;

3) har ikkala shakl ham postpozitiv o‘rinda, asosan, asosdan keyin joylashishi kuzatiladi;

4) lisoniy birlik sifatida analitik formant ham xotirada saqlanuvchi til birligi bo‘lganidan qo‘shma affiks kabi nutq jarayonida tayyor birlik maqomini kasb etadi;

5) har ikkalasi ham tilning ichki taraqqiyoti natijasi bo‘lib, ma’lum leksik-grammatik paradigmadan mustahkam o‘rin oladi hamda paradigma birligi sifatida gavdalanadi. Masalan, birgina edi fe’lining grammatikalizatsiyasi fe’l paradigmalarida *-(a)r edi* (borar edi), *-sa edi* (ko‘rsa edi), *-(i)b edi* (borib edi), *-gan*

[7] Hojiyev A. Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi. – T.: O‘qituvchi, 1979. – B. 42 – 48.

edi (borgan edi) kabi analitik formantlarning hosil bo‘lishiga olib keldi. Bunday birliklar tarkibida *edi* zamonni ifodalovchi qism ma’nosiga aylanadi hamda oldingi shakl bilan yaxlitlashadi.

O‘zbek tilida analitik formantlar asosan mustaqil so‘z turkumlarida, xususan, fe’l so‘z turkumida ko‘p uchraydi. Ular turli grammatik va modal ma’nolarni bildiradi. Shu xususiyatiga ko‘ra ham ularni fe’l so‘z turkumiga qo‘shilishi yoki ko‘makchi deb belgilanishi to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki, fe’l bo‘lib, mustaqil harakatni ifodalamaydi, ko‘makchi bo‘lib batamom ma’nosizlikka ham uchramagan. (Bu xususida ishimizning keyingi bobida to‘xtalamiz.)

Analitik formantning ikkinchi asosiy komponenti sifatida hozirgi o‘zbek tilida anchagina miqdordagi (A.G‘ulomov hisobi bo‘yicha – 27 ta, A.Hojiyev hisobiga ko‘ra – 30 ta) ko‘makchi fe’llar keladi va bu birliklar alohida tahlilga olinadi. Ko‘makchi fe’lni o‘zi birikadigan asos bilan tutashtiruvchi vositalar (sintagmatik – morfosintaktik bog‘lovchilar) maqomida ravishdosh, sifatdosh ko‘rsatkichlari keladi, ular asl ma’nosidan uzoqlashgan elementlar bo‘lib, ko‘makchi fe’l bilan birikib, yagona birlik – formant hosil qiladi: *-(i)b chiq-* (o‘qib chiq), *-(i)b tashla* (o‘qib tashla), *-(i)b ko‘r* (o‘qib ko‘r), *-(i)b boq* (o‘qib boq), *-gan bo‘l-* (tortingan bo‘lmoq)... Misollardan ham ko‘rinib turibdiki, ko‘makchi fe’llardagi mazmun batamom yo‘qolgan, bu yerda mazmun o‘zidan oldin kelgan birlik bilan yaxlitlashib ketgan va shaklga nisbatan nomutanosib holatda keladi. Morfem sintagmadagi mavqei muqim o‘rinlashadi. Asimmetrik tarafdan shakllar o‘rtasida lisoniy bog‘lanish hosil bo‘ladi hamda ikki shakl bir mazmunga xizmat qiladi. Morfem sintagmatikada bularni shu jihatini ham hisobga olgan holatda ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi.

O‘QITUVCHINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA P5BL MOHIYATI

Gulchexra Sharipboyevna Fayzullayeva,
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri, dotsent


Annotatsiya. Bugungi kunda o‘quv amaliyotiga kirib kelayotgan xorijiy ilg‘or tajribalar ta’lim samaradorligini ta’minlashga, uning bosqichma-bosqich integratsiyalashuviga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada ham P5BL zamonaviy yondashuvining o‘ziga xosliklari hamda mazmun-mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, kognitivlik, muammo, loyiha, shaxs, jarayon, natija, asoslangan o‘qitish, tuzilma, mazmun.

Hozirda raqobatbardosh kadrlarga nisbatan ijtimoiy buyurtma talablarining oshishi ta’lim berishning globallashuvi sharoitini vujudga keltiradi. Bu o‘z navbatida o‘qituvchilar zimmasiga yuklanish ko‘payishiga va majburiyatlarning ortishiga olib kelmoqda. Bunday holat pedagog xodimlarning faoliyatini nafaqat samarali tashkillashtirish, balki mustaqil kasbiy rivojlanish va o‘z darajasini uzluksiz takomillashtirish zarurligini talab qiladi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda,

jumladan, hozirda respublikamizda ham ilg‘or tajribalarni o‘rganish, ommalashtirish, ta’lim, pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi oldida turgan vazifalarni bajarishda natijadorlikka yo‘naltirish asosida harakatlanish muhim omil, deb qaralmoqda. Ta’lim sifatiga erishish uchun ijobiy samaraga egaligi olingan turli yondashuvlarni tajribada sinab ko‘rishga ehtiyoj sezilmoqda. Jarayonni to‘liq qamrab olishga mo‘ljallangan ana shunday yondashuvlardan biri – P5BL texnologiyasidir.

P5BL yondashuvi – uzoq davom etadigan, avvalo, o‘qituvchini uzluksiz rivojlantirish, uning g‘oyalarini amaliy faoliyatga tezkor singdirish hamda natijadorligiga erishish bo‘yicha mavjud muammoni aniqlash va aniqlangan muammo doirasida uning yechimiga olib boruvchi loyiha yaratish, uni qadam-baqadam amalga oshirishda turli chora-tadbirlarni, metod hamda texnologiyalarni qo‘llashni o‘zida qamrab olgan quyidagi 5 ta bosqichdan iborat o‘quv modelini aks ettiradi (1-rasm):



1-rasm. P5BL o‘quv modelining tarkibiy komponentlari

Ushbu model tarkibiy komponentlari izohiga to‘xtalsak:

Muammoga asoslangan o‘qitish (Problem-Based Learning) – bu muammoni hal qilishni tushunish uchun ish jarayonining natijasidir. Muammo o‘quv jarayonining birinchi elementi. PBL jarayonining diqqat markazida muammoni hal qilish emas, balki belgilangan yechimlarning mavjudligi va u boshqa ko‘nikmalar, xususiyatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatliligi bo‘ladi. U ssenariy doirasida aniqlangan muammolardan bilim va tushunchani oshirish uchun foydalanadigan jarayon. Yondashuv nafaqat yangi bilim, ko‘nikma va malakalar(BKM)ni shakllantirishga, balki ularni metabilimlar bilan birlashtirishga yordam beradi.

Loyihaga asoslangan o‘qitish (Project-Based Learning) eng muhim ta’lim modellaridan biri bo‘lib, jarayon ishtirokchisining BKMni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi, kichik doiralardan tortib, tashkilotlar darajasidagi hamkorlik va hamjamiyat hissini yaratadi. Shuningdek, ta’lim oluvchi maqsadlarni belgilashni

o‘rganish; mustaqillik va intizom, muzokaralar olib borish hamda kuzatish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish; chuqurroq bilim olishni davom ettirish, yangi g‘oyalarni rivojlantirish va ko‘p tarmoqli aloqalarni mustahkamlash; epchillik va pedagogik mahorat kabi zaruriy sifatlarga ega bo‘ladi.

Shaxsga asoslangan o‘qitish (People-Based Learning) – P5BL jamoaviy ish natijasida maqsadga erishilishi ko‘zlangan yondashuvdir. Markazda shaxs va uning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhim bo‘lgan ushbu texnologiyada o‘z qobiliyatini boshqarish, fanni takomillashtirishda ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, o‘zgarishlarni his qilish, kasblararo ko‘maklashuv, jamoaviy ishda hamkorlik, bilimlar almashinuvi, xizmat ko‘rsatishni o‘rganish kabilar nazarda tutiladi.

Jarayonga asoslangan o‘qitish yoki ta’lim – Process-Based Learning. Tadqiqotchilar o‘quv faoliyati davomida ushbu yondashuvni qo‘llash belgilangan maqsad hamda vazifalarni bajarishda, muammo yechimiga borishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning uzluksizligini ta’minlovchi strategiya ekanligini ta’kidlashadi. Shu bilan birga ilmiy jarayon ko‘nikmalarini qo‘llash va o‘lchash, fanni soddalashtirish orqali egallashni, mazmunlilikni oshiradi, doimiy mas’uliyatni his qilish, kuzatish, tasniflash, tahlil qilish, bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Natijaga asoslangan o‘qitish – Product-Based Learning. Qo‘shimcha bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bunday yondashuvda muammoning aniqligi va jamoaning hamkorlikdagi harakati muhim rol o‘ynaydi. Ganefrining ta’kidlashicha, mahsulot(natija)ga asoslangan ta’lim – bu o‘quvchini o‘qituvchi tomonidan o‘quv jarayoniga faol jalb etish uchun muayyan qiymatdagi mahsulot ishlab chiqarish kompetensiyasiga yo‘naltirish natijasida amalga oshiriladigan tartib yoki qadamlar sifatida aniqlanadi. Demak, yondashuvda yechilayotgan muammo doirasida jamoaviy ishni tashkil etish nimani kashf qilishi mumkinligi, yetib boradigan manzil yoki egallangan kompetentlik uning mahsuloti sifatida anglashiladi.

P5BL modeli ta’lim muassasasi, amaliyotchilar va turli fanlardan talabalarni birlashtirish, jamoaviy muhitni yaratish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ishtirokchilarning har biri loyihani amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Olimlarning fikricha, P5BL modeli bilan “talaba” jamoasi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida o‘quv jarayonini rivojlantirish hamda kognitiv jarayonlarni namoyon qilish osonlashadi. Loyihaga yo‘naltirilgan ko‘p tarmoqli aloqadorlik paydo bo‘ladi va nafaqat bir jamoa, balki bir nechta jamoa o‘rtasida hamkorlik muhiti oqibatida nazariyachilar amaliyotchilar jamoasiga aylanadi, ya’niki o‘rganilayotgan va ko‘zlangan har bir muammoning samaradorligiga ishlashga o‘tiladi. Xalq ta’limi tizimida o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning P5BL yondashuvini faollashtirish ko‘pgina muammolarga yechim topilishiga zamin yaratadi.

Xulosa sifatida quyidagilarni ta’kidlamoqchimiz:

- P5BL o‘quv modeli kompleks yondashuv bo‘lib, o‘z ichida turli metod va texnologiyalarni birlashtiradi;
- yondashuvning muvaffaqiyati – boshqaruvchi mahorati, tanlangan muammo

va loyihani amalga oshirishdagi tartib bilan uzluksiz qo‘yib boriladigan qat’iyatli qadamlarga bog‘liq;

- P5BL yondashuvini nafaqat o‘qituvchini o‘z-o‘zini rivojlantirish amaliyotida qo‘llash, balki ta’lim tizimida joriy etish natijadorlikni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ибрагимов, А. А. (2022). Ўқитувчиларнинг касбий билимларини ривожлантирищда муаммога асосланган ўқитиш ёндашувининг имкониятлари: Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич, Самарқанд вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази доценти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (2), 120-125.

2. Elektron resurs: https://www.ualberta.ca/rehabilitation/media-library/faculty-site/research/bsa/person-and-practice-based-learning-1411120.pdf.

3. Aksela, M. &Haatainen, O.(2019). Project-Based Learning (PBL) in practice: Ac teachers’ views of its’ advantages and challenges. https://www.researchgate.net/publication/333868087.

4. Fruchter, R. (1998). *Roles of Computing in P5BL: Problem-, Project-, product-, process-, and People-based Learning, Artificial Intelligence for Engineering-Design, Analysis and Manufacturing*, Cambridge University Press. 65-67.

5. Ganefri, G. (2013). The Development of Production-Based Learning Approach to Entrepreneurial Spirit for Engineering Students. *Journal Asian Social. Science*; Vol. 9, No. 12; 2013. ISSN 1911-2017 E-ISSN 1911-2025.

6. Samuel, K.; Libata, I. &Sabitu, A. (2018). Efficacy of Process-Based Instruction, In Enhancing Secondary School Students’ Academic Performance and Science Skills Acquisition, In Identification of Cations, In Faskari, Katsina State-Nigeria. Issues and Ideas in Education, 6(1), 87–97.

XALQ TA’LIMI XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH SOHASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna,

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish sohasidagi zamonaviy yondashuvlar batafsil yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning samaradorligini ta’minlashga doir omillar asoslangan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz kasbiy rivojlantirish, zamonaviy yondashuv, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ta’lim sifati, inson kapitali.

Аннотация. В данной статье подробно описаны современные подходы в области непрерывного профессионального развития работников народного образования. Также обосновываются факторы, обеспечивающие эффективность непрерывного профессионального развития педагогов на

основе современных подходов.
Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, современный подход, саморазвитие, качество образования, человеческий капитал.
Abstract. This article describes in detail modern approaches in the field of continuous professional development of public education workers. Also, factors to ensure the effectiveness of continuous professional development of teachers based on modern approaches are based.
Key words: continuous professional development, modern approach, self-development, quality of education, human capital.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlarining yangi bosqichi o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha umumiy strategiya, rivojlantirish tendensiyalari, zamonaviy yondashuvlarni o‘zgartirishda bir qator dolzarb vazifalarni belgilaydi. Ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta’minlaydigan tizimli o‘zgarishlarning umumiy asosidir.

Shunga muvofiq O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi: mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash; dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish; pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish [1].

Bu orqali o‘qituvchilarning ijtimoiy, kasbiy, maxsus va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (continuous professional development) va o‘zini o‘zi rivojlantirish (self-development), bajarish orqali o‘rganish (learning by doing) muhiti yaratiladi hamda ikkita eng muhim strategik maqsad – sifatli ta’lim olish imkoniyatini berish va inson kapitalini (human capital – inson va jamiyat manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalar yig‘indisi) mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga erishiladi.

Respublikada uzluksiz ta’lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tubdan isloh qilish uchun, avvalo, ta’lim jarayonini ilg‘or, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy metodika bilan ta’minlash, o‘qituvchi-pedagoglarni zamon talabi va jamiyat ehtiyojlari asosida kasbiy rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanganligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlarni egallashi va amaliyotda qo‘llay olishi, o‘qitish jarayonini samarali tashkil qilish, o‘zini o‘zi rivojlantirish kabi asosiy pedagogik faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining kasbiy va metodik bilimlarni mukammal

egallashi va amaliyotda foydalanishi, o‘qitish jarayonini loyihalash hamda ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, baholashga doir kompetentlikka ega bo‘lish, “hayot davomida o‘qish” tamoyili va akmeologik yondashuv asosida o‘zini o‘zi uzluksiz rivojlantirishni talab etadi.

Kasbiy rivojlanish – bu shaxsga “yo‘naltirish”ning dinamik jarayoni, kasbiy yo‘nalishni, kasbiy mahorat va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirishni, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan psixofiziologik xususiyatlarni rivojlantirishni, individual psixologik xususiyatlarga muvofiq professional ahamiyatli faoliyatni sifatli va ijodiy amalga oshirishning maqbul usullarini izlashni anglatadi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish, ya’ni, ijtimoiy holatdagi o‘zgarishlar, yetakchi faoliyatni o‘zgartirish va qayta qurish – bu shaxsning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi yuzasidan o‘tkazilgan nazariy tahlilni umumlashtirish quyidagi fikr-mulohazalarni shakllantirishga imkon berdi:

Uzluksiz – to‘xtovsiz, tinimsiz, davomli, abadiy, juda tez-tez yangilanadigan, takrorlanadigan jarayon hisoblanib, uzluksiz ta’lim – bu davlat va jamoat institutlari tizimidan foydalanish asosida, shaxs va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq, butun umr davomida shaxsning umumiy va kasbiy salohiyatini oshirish jarayoni. Uzluksiz ta’limga bo‘lgan ehtiyoj fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalarning keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish – bu shaxs rivojlanishining hozirgi darajasi, ijtimoiy ahvoli va yetakchi faoliyatni rivojlantirish o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish orqali kasbiy yo‘naltirilganlik darajasi, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy va kasbiy muhim fazilatlar, kasbiy ahamiyatga ega psixofiziologik xususiyatlar darajasini uzluksiz oshirish va takomillashtirish jarayoni.

Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish – shaxs kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o‘sishi jarayoni.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlari – xalq ta’limi xodimlarining o‘z sohasi bo‘yicha fan va texnologiyalar yutuqlari, yangiliklari bilan muntazam tanishtirib borish asosida kasbiy va pedagogik mahoratini, o‘quv-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion metodlaridan foydalanish bo‘yicha ularning kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirib borish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish bo‘yicha qisqa muddatli, sayyor va onlayn o‘quv kurslari, seminar va treninglar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, mahorat darslari, shuningdek, ixtisoslashtirilgan malaka oshirish muassasalarida tashkil qilingan an’anaviy ta’limga asoslangan mashg‘ulotlar hamda onlayn malaka oshirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Kasbiy rivojlanishda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy-kasbiy guruhlar, ijtimoiy va ta’limiy muhit hamda shaxsning faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Kasbiy rivojlanish o‘z vaqtida kasbiy muhim bilimlar, ko‘nikmalar, fazilatlar, xulq-atvorni shakllantirish uchun unga kasbiy muhim faoliyat turlarida (kognitiv, o‘quv, kasbiy va hokazo) ta’sir ko‘rsatadigan bir qator ijtimoiy ta’sir usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Mavjud meyoriy hujjatlarda pedagog xodimlar uchun o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanish, ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olish, o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishga doir majburiyatlarning belgilanishi har bir o‘qituvchi pedagog o‘z kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishiga doir zamonaviy talablarni keltirib chiqaradi.

Ko‘rinadiki, jamiyat ehtiyojlari o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning maqsadi va mazmunini o‘zgartiradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish masalalari ko‘p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va ta’limning yangi yo‘nalishlari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanganligiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni ishlab chiqish zaruriyatini kuchaytiradi.

Bugungi globallashuv davrida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanganlik darajasiga nisbatan zamonaviy talablarni belgilashda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishining muhim subyekti bo‘lgan o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, zamonaviy jamiyat hayotga kirib kelayotgan avlodga yangi talablarni qo‘ymoqda. XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘lish va o‘z harakatlarini rejalashtirish, hayotiy va ta’limiy muammolarni hal qilish uchun kerakli ma’lumotlarni topish, o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayonning axborot modelini yaratish va yangi texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’limiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat: umumiy madaniyati va bilimdonligi, bilimlarni mustaqil qo‘llash va bilish qobiliyati; o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yashashga va harakat qilishga tayyorlik; yangi bilimlarni kashf etish; o‘zini o‘zi baholash orqali o‘quv jarayonida ishtirok etish; mustaqillik, tashabbuskorlik, samaradorlik, mas’uliyat, keyingi ta’limga tayyorlik kabi fazilatlar mavjudligi.

Ikkinchidan, 2030-yilda ta’lim tizimida faol pedagogik va tashkiliy-texnologik transformatsiya yuz beradi. Globallashuv jarayonida internet, sun’iy intellekt texnologiyalari jadal kirib kelayotgan, ta’limda pedagogik, texnologik va ijtimoiy transformatsiyalar yuz berayotgan bir vaqtda o‘quvchining raqamli portreti qanday bo‘lishi yoki maktab o‘quvchisi qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerakligini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspertlar fikricha, yangi davr o‘quvchilari: akademik bilimga ega, bazaviy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay oladi; kasbiy ko‘nikmalarni mukammal egallab, zarur holatlarda murakkab nostandart masala va muammolarni yecha oladi; kreativ fikrlaydi, yuzaga kelgan muammoni matematik va mantiqiy qonuniyat asosida ijodiy yondoshgan holda hal etadi; yuqori saviyadagi shaxsiy sifatlarga, ya’ni tez o‘zgaradigan muhitga moslashuvchan, jamoa bilan tez til topishadigan, yuqori madaniyatga va intellektga, liderlik kompetensiyalariga ega bo‘ladi; axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori saviyada egallaydi; bir nechta xorijiy tillarni biladi.

Uchinchidan, o‘quvchilar kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal

qilishda o‘qish va yozish ko‘nikmalari, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi, moliyaviy savodxonlik, madaniy va fuqarolik savodxonligi kabi tayanch ko‘nikmalardan foydalanadilar. O‘quvchilar murakkabroq muammolarni tanqidiy fikrlash, kreativlik (ijodiy fikrlash), muloqot qilish ko‘nikmalari, jamoada ishlash ko‘nikmalari kabi kompetensiyalar orqali hal qilishadi.

To‘rtinchidan, XXI asr o‘quvchisi individual (har bir o‘quvchining imkoniyat va qobiliyatlari, alohida xususiyatlariga mos), differensial (tabaqalashtirilgan), variativ (o‘quvchilarning alohida qiziqishlariga mos) va intensiv (eng ko‘p natija beradigan, sermahsul, serunum) dasturlar asosida o‘qiydi.

Beshinchidan, XXI asr o‘quvchisi quyidagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim: Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang‘ich sinf bitiruvchi o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini aniqlash va baholash bo‘yicha xalqaro dastur; Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4-sinf va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan o‘zlashtirish darajasini aniqlash va baholash bo‘yicha xalqaro monitoring; The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini aniqlash va baholash bo‘yicha xalqaro dastur.

Shunga muvofiq, bilimga asoslangan iqtisodiyot ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi. Bunda davriy malaka oshirishdan farqli ravishda ijtimoiy va iqtisodiy muvofiqlik imkoniyatiga ega bo‘lgan “lifelong learning” (“hayot davomida o‘qish”) tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning samaradorligini quyidagi omillar bilan asoslash mumkin:

Birinchidan, tez o‘zgaruvchan texnologiyalar va yangilanib boruvchi axborot oqimini o‘zlashtirish, o‘qitish jarayonida qo‘llash ehtiyoji mavjud.

Ikkinchidan, zamonaviy o‘qituvchi uchun bir sohada mutaxassis bo‘lishning o‘zi yetarli emas, ta’limning boshqa sohasiga kirib borish lozim.

Uchinchidan, kasbiy faoliyatni tahlil qilish, kasbiy ehtiyojlar asosida o‘qitish metodikasini uzluksiz yangilab borish, hamkasblari bilan muloqotga kirishish, tajriba almashish orqali yangi bilimlarni olish jarayoni samaraliroq bo‘ladi.

To‘rtinchidan, insonning o‘zi tomonidan o‘zlashtirilgan bilim uning hayoti davomida egallagan bilimlari orasida eng samarali va uzoq vaqt natija berishi aniqlangan. Shuningdek, o‘rganish va o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatlari rivojlanib boradi. An’anaviy ta’lim orqali kasbiy rivojlanish jarayonida bilimlarni muhokama qilish va aniqlashtirish mumkin, mustaqil ta’limda faol pozitsiyani egallash orqali faollik va kutish rejimi mavjud bo‘ladi.

Beshinchidan, bilimni yaxshi o‘zlashtirish uchun nafaqat ma’lumot iste’molchisi bo‘libgina qolmay, balki uni o‘zi ham ijodiy ravishda qayta ishlash kerak. Bizning nazarimizda, “lifelong learning” tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida buning imkoni bor.

Xulosa shuki, pedagogning kasbiy faoliyati va shaxsiy sifatlaridagi ijobiy o‘zgarishlar ta’lim oluvchilarning Davlat ta’lim standartlarida belgilangan o‘quv kompetensiyalarini egallashi, pirovardida ta’limning sifat va samaradorligini oshishi, ta’lim muassasasi muvaffaqiyatining pedagogik kafolatidir. Shundan kelib chiqib, globallashuv davrida o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, milliy va xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish yo‘lidan borishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PF-6108-son Farmoni.
2. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fanl. dokt. diss. – T.: 2018, – 264 b.
3. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss… (DSc). – T.: 2022, – 386 b.

МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТАЬЛИМ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ЎРНИ

Абдуманноб Эшмуродов,

Сирдарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази доценти, педагогика фанлари номзоди

Республика миқёсида кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлашга эьтибор кун сайин ошиб бормоқда. Таьлим-тарбия жараёнининг сифати ва самарадорлигини ошириш орқали умумбашарий мерос ва қадриятларни замонавий билим, тафаккур билан бойитишга қодир, мустақил фикр юрита оладиган баркамол авлодни камол топтириш бугунги кун талабидир. Бу, ўз навбатида мазкур жараёнга билимли ва юксак педагогик махоратга эга, изланувчан педагогни жалб этишни ҳамда уларнинг касбий малакасини мунтазам ошириб боришни талаб этади.

Бугунги кунда юртимизда таьлим тизимида олиб борилаётган кенг кўламдаги ислоҳотлар натижасида ўқитишнинг янги-янги турларига эҳтиёж пайдо бўлмоқда.

Ривожланган мамлакатлар ва мустакил давлатлар ҳамдўстлиги (МДҲ) давлатлари тажрибасининг кўрсатишича, таьлим муассасаларида илғор педагогик ва ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш мақсадида масофавий таьлим тизими ва худудий таьлим марказларининг ривожлантирилаётганлиги ўз самарасини бераётганига гувоҳ бўлиб турибмиз.

Масофавий таьлим тизими биринчи навбатда аҳолининг қуйидаги ижтимоий қатламлари ва касбий гуруҳларига мўлжалланган:

- қўшимча таьлим олиш орқали ўз малакасини ошириш ва иккинчи мутахассисликка эҳтиёжи бўлган бакалаврлар, магистлар ва олий таьлим тизимида фаолият олиб бораётган педагоглар;

- фаолият турини ўзгартиришни хоҳловчи ва янги касбни эгаллашга талабгор бўлган фуқаролар;

- амалиётда фаолият олиб бораётган мутахассислар;

- Ўзбекистонда фаолият юритаётган чет эл олий ўқув юртларининг филиалларида таьлим олаётган талаба ва мутахассислар;

- чет эл фукаролари;

- қўшимча таьлим хизматлари ёрдамида билим олишга эҳтиёжи бўлган фукаролар (мактаб, академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари ўқувчилари).

Масофавий таьлим тизимининг мақсади ва вазифалари қуйидагилардан иборат:

- аҳолини мазмун-моҳиятига кўра янгича сифатга эга бўлган таьлим хизматлари билан таьминлаш;

- таьлим тизимини ҳалқаро талабларга мослаштириш ва аҳолининг сифатли таьлим хизматларига бўлган талаб ва эҳтиёжларини қондириш;

- ўқитишнинг амалда ўзини оқлаган ва қўлланилаётган усуллари билан биргаликда, илғор педагогик ва ахборот технологияларини кенг қўллаш орқали унинг янги шаклларини яратиш ва фойдаланиш.

Масофавий таьлимни амалга ошириш икки боскичда олиб борилиши кўзда тутилган.

Биринчи босқич – лойиҳани амалга ошириш мониторинги даври бўлиб, унинг харажатлари асосан вилоят педагогларини янги методикаларга ўргатиш миллий марказининг бюжетдан ташқари маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади. Шу билан бирга, масофавий ўқитишни тизими фаолияти йўлга қўйилиб профессор-ўқитувчиларнинг малакаси оширилади.

Иккинчи босқич – масовафий ўқитиш тизимининг тўлиқ фаолият юритиш даври бўлиб, унинг ҳужжатлари, асосан, ўқитишни амалга оширишдан тушган маблағлар ҳисобидан молиялаштирилади.

Замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланиши таьлим жараёнини масофадан туриб ташкил этиш, бошқариш, назорат қилиш имкониятларини оширади. Ҳозирги кунда жаҳонда миллионлаб талаба шу метод асосида таьлим олмоқда. Ривожланган давлатларнинг аксариятида шу метод асосида ўқитишни ташкил этадиган ўқув марказлари барпо этилмоқда.

Масофали ўқитишнинг имкониятлари жуда кўп, масалан, талабаларда таьлим малакаларни шакллантириш вакти камаяди, амалий жиҳатдан бажариладиган топшириқлар сони бирмунча ошади, компьютер томонидан фаол бошқаришни талаб қилиши натижасида талаба таьлим субьектига айланади, энг асосийси талабаларнинг мустақил ишлаш сурьатлари жадаллашади.

Замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланиши асосида масофали ўқитиш қуйидаги афзалликларга эга:

- берилаётган материалларни чуқуррок ва мукаммалроқ

ўзлаштириш имконияти бор;

- таьлим олишнинг янги соҳалари билан яқиндан алоқа қилиш иштиёқи янада ортади;
- таьлим олиш вақтининг қисқариши натижасида, вақтни тежаш имкониятига эришилади;
- фойдаланувчига таьлимни исталган пайтда олиш имконини беради;
- таьлим жараёнида талабанинг мустакил ишлаш қобиляти ривожланади;
- иқтисодий тежамкорликка эришишни таьминлайди;
- олинган билимлар киши хотирасида узоқ муддат сақланиб, керак бўлганда амалиётга қўллаш имкониятига эришилади.

Таьлим тизимини ҳаёт билан, давлатимиз сиёсати билан боғлаш принципи Олий таьлим тизими, малака ошириш, касб-ҳунар коллежлари олдида турган энг муҳим вазифа бўлиб колди. Шулардан келиб чиқиб, янги ахборот технологиялари ва мультимедия тизимларига асосланган маҳсус мукаммал ўқитиш технологияси – масофавий ўқитишнинг бугунги кундаги ўрни жуда ҳам беқиёс эканлигига ишончимиз комил.

MADANCHILIK TARIXIDAN

Muzaffar Mirzaqulov,
Rossiya federatsiyasi, mustaqil tadqiqotchi

Temir atamasi qanday paydo bo‘lgan? Kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi tarixgacha va tarixiy deb ikki davrga ajratiladi. Tarixgacha bo‘lgan davr haqida ko‘plab farazlar, qarashlar mavjud. Tarixiy davr ibtidoiy hayotdan boshlanib, u haqda ashyoviy dalillar - tosh qurollar, qoyalarga o‘yilgan turli tasvirlar saqlanib qolgan. Mehnat insonning aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyatidir. Kutilgan natijaga tezroq va ko‘ngildagidek erishish, bunda vaqt va mehnat sarfini kamaytirish, ularni tejash extiyoji tufayli, inson tajribasi va ko‘nikmalarining takomillashuvi yangidan yangi mehnat qurollarining yaratilishiga olib keldi. Ana shunday extiyoj temir ma’danini aniqlash va undan turli qurollar, uy-ro‘zg‘or buyumlari yasash imkonini yaratdi. Keyinchalik sanoat inqilobi tufayli temir buyumlar, vositalar insoniyat hayotining barcha sohalaridan mustahkam o‘rin oldi.

Til, tarix, etnografiya, etnogeografiya kabi fanlar erishgan natijalar bugungi kunda YevroOsiyo kengliklarida qadimgi davrlardan yashab kelgan qavmlar va xalqlarning tillarini Oltoy tillari oilasi deb umumlashtirishga olib keldi. Endi bu til oilasiga turkiy tillar, mo‘g‘ul tillari, tunguss-manchjur tillari va shartli ravishda koreys va yapon tillari kiritilmoqda.

O‘zbek tili turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lib, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, turkman, ozarbayjon, turk, tatar, boshqird, chuvash, yoqut, qrim-tatar kabi 30 dan ortiq tillardan tashkil topgan.

Bu xalklar ham insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo‘shib

kelganlar.Insoniyat tarixida qadimgi sivilizatsiya oʻchoqlari ekvatorga yaqin mintaqalar, jumladan, Sharq mintaqalari – Koreya, Xitoy, Hindiston, Oʻrta Osiyo, Yaqin Sharq va ayrim boshqa hududlarda joylashgan.

Temir soʻzi demir, damir, temir, timur, temur kabi shakllarda deyarli barcha Oltoy tillari va ularning shevalarida saqlanib qolgan.Bu soʻz turk tili orqali esa slavyan tillari, jumladan, bolgar va serb tillariga ham oʻtgan.

Dunyoning juda keng hududlariga tarqalgan bu soʻzning kelib chiqishi(etimologiyasi)ni ayrim olimlar qadimgi hind tili-sanskritcha qora-qizil metall maʼnosini anglatuvchi tamra, tamraka soʻzi bilan bogʻlaydilar, boshqa olimlar esa umumoltoy tillaridagi termur shaklining qisqarishidan hosil boʻlgan soʻz deb taxmin qiladilar. Albatta,bu borada aniq bir fikrga kelish qiyin. Sababi, temir va u bilan bogʻliq hunarmandchilik qadimgi davrlarga borib tutashadi. Foydali qazilmalardan temir ajratib olish inson turmushini yangi bosqichga olib chiqqan, uning mehnatini yengillashtirgan, koʻplab foyda va qulayliklar yaratgan.

Turkiy el va qavmlarning oʻz davrida yuksak madaniy saviyasi va salohiyatini koʻrsatuvchi milodning VII asri va VIII asr boshlariga oid Oʻrxun - Yenisey yodgorliklari (Qultegin hama Tonyuquq toshbitiklari) da Temir qapugʻ (“Temir darvoza”) iborasi uchraydi. Ibora tarkibidagi qapugʻ, qopqa soʻzi tarixiy davrlarda yoʻl oʻtgan togʻ darasining eng tor qismini- “darvoza” maʼnosini anglatgan.

Olimlarning fikricha, temir soʻzi toshbitiklar yaratilgan davrdan ancha oldin ham ishlatilishda boʻlgan.

Qadimgi yodgorliklarda **Temir qoziq** birikmasi ham qayd etilgan. Bu koʻhna astronomik tushuncha ajdodlarimizning oʻsha davrlardagi samoviy bilimlari ham yuqori darajada boʻlganligini koʻrsatadi. Temir qoziq atamasi ”Qutb yulduzi” - “Polyarnaya zvezda” maʼnosini bildirgan. Bu kabi tushunchalar osmon jismlarining oʻziga xos oʻrinlashish holatini bilish, dunyo tomonlarini belgilash, fasllar almashinuvi, ob-havoni kuzatish kabi hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida qayd etilishicha, Dovud paygʻambar xudodan bir hunar soʻragan: “Yaratuvchi Tangri unga temirchilik, sovutsozlik hunarini karomat qildi. Yana bir moʻjizasi shu ediki, temir uning qoʻlida mumdek yumshardi, qiyinchilik tortmay istagan asbobin yasar, yasalgandan keyin esa temir yana oʻz holiga borib qotardi. ”

Temirchi va temirchilik qadimdan yuqori hurmat va eʼtiborga sazovor boʻlgan. Temirchi usta noyob kasb egasi boʻlib, bu kasbni egallash yuksak mahorat, malaka va tajribani talab etgan.

Jamiyatlarda davrlar osha ajdodlardan avlodlarga oʻtuvchi, oʻziga xos sir - sinoatni jamlagan kasb-hunar egalari- temirchilar sulolasi shakllangan. Shahar va qishloqlarda temirchilar mahallalari, bozorlarda temirchilar rastalari va doʻkoni koʻpaya borgan. Dovud paygʻambar temirchilarning piri, himoyachisi degan aqida, eʼtiqod xalq ongidan mustahkam oʻrin ola boshlagan.

Temirchilar sulolasiga misol tariqasida hududimizdagi Ohangaron shahrining paydo bulishi tarixini keltirish mumkin. Ohangaron soʻzi tojik tilidan olingan boʻlib, ohan-temir, ohangar-temirchi, ohangaron- temirchilar degn maʼnoni bildiradi.

Rus – nemis olimi Maks Fasmer nemis tilida yaratilgan va qariyb qirq yillik umrini sarflagan to‘rt jildlik “ Rus tilining etimologik lug‘ati “(Etimologicheskiy slovar russkogo yazыka “, 3 – nashri, S.-Peterburg, 1996 yil, 174-bet)da temirchi (“kuznes”) ma’nosidagi blexchiy so‘zi rus tiliga Yevropa tillaridan emas, balki turkiy tillardan olingan bo‘lishi mumkin deb ko‘rsatadi, ya’ni geografik tarqalishi va so‘z yasalish xususiyati hisobga olinsa, rus – slavyan tillariga boshqird va tatar tillari uchun asos bo‘lgan qadimgi bulg‘or tilidan o‘zlashgan.Turkiy tillarda keng tarqalgan uddaburon , aqlli , donishmand ma’nolarini bildiradigan bilikchi, bilguchi so‘zlari blexchiy shaklida rus – slavyan tillariga moslashgan ko‘rinish sifatida baholanadi.

Qadimgi tilimizda temirchi ma’nosida tarxon, darxon so‘zi ham ishlatilgan, keyinchalik so‘zning bu ma’nosi unutilib, usta, tadbirkor, soliqlar va ayblanishdan ozod qilingan shaxs, yuqori mansab va xususiy mulk egasi kabi ma’nolarni ifodalagan.Ayni shu ma’nolari bilan rus – slavyan tillariga keng tarqalganligini M.Fasmer o‘z lug‘atida maxsus qayd etadi (IV jild, 25 – bet).

O‘zbek xalq shevalaridan Pop shevasida darxon so‘zi “ozod kishi” ma’nosida ishlatilsa, qurama shevasida darqanchilik “kengchilik, o‘zini erkin sezmoq, mo‘l-qo‘lchilik” kabi ma’nolarda ishlatiladi.

Hozirgi ilmiy talqinga ko‘ra, temir bolg‘alanganda yassilanadigan, istalgan shaklga kiradigan, uglerod bilan qo‘shilganda po‘lat va cho‘yan hosil qiladigan qoramtir kumush rangli og‘ir metall hisoblanadi.

Temir so‘zi hozirgi tilimizda bir qancha ko‘chma ma’nolarni bildiradi. Temir daftar, temir intizom, temir iroda, temir qanot (chumchuq bolalari- polaponlar haqida), temir xotin, temirni qizig‘ida bos, gapga temirchi(ezma, mijg‘ov) kabi ma’nolar bir qancha davrlarning mahsulidir.

Demak, so‘zlar borliqdagi turli narsa, belgi,harakat va jarayonlardagi eng asosiy ma’noni ifodalab, yakka shaxs va ijtimoiy ong, tafakkur taraqqiyotini o‘rganishda bebaho manbadir.

Mis (baqir) atamasi. Mis atamasi tojik tilidan olingan bo‘lib, rangli metallardan birini anglatadi.Qadimgi davrlarda –mis olina boshlangan davrlardan boshlab, ushbu metall baqir atamasi bilan yuritilgan. Ushbu atama turkiy tillar va ularning shevalarida mis, qizil mis, hatto bronza, latun, mis aralashmasi (okis medi) kabi ma’nolarni bildiradi.

Ohangaron vodiysida tashkil topgan Iloq davlatida jahon bozori ehtiyojlari uchun oltin va kumush tangalar chiqarilgan bo‘lsa, mahalliy muomala uchun mis tangalar tayyorlangan. Hozirgi Ohangaron yaqinida joylashgan Xonobodda Sohibqiron Amir Temurning zarbxonalaridan biri joylashgan bo‘lib, tarkibi yuqori sifatli tangalar davlat xazinasini boyitishga xizmat qilgan.

Mis tangalar mahalliy bozorlarda ko‘p ishlatilganligidan baqir atamasi “mayda mis tanga”, “kichik muomala birligi” ma’nolarini bildirgan.O‘zbek tilida ushbu birlik “paqir” shaklida kelib, ikki tiyinlik chaqa” qiymatini ifodalagan. Shu asosda ko‘chma ma’noli “bir paqirga qimmat, hech narsaga arzimaydi” kabi iboralar paydo bo‘lgan.

O‘rta asrlarda va undan keyin yarmaq (“Devonu lug‘otit turk” asarida) ,

aqcha, paysa kabi pul birligi (tanga) muomalada bo‘lgan. O‘rxun –Yenisey yodnomalarida ag‘ri, ag‘i-bargga o‘xshash qilib tayyorlangan oltin tanga.

”Qadimgi turkiy lug‘at” da baqir o‘lchov birligi sifatida to‘rt grammdan kamroq yoki 0,1 unsiya miqdorni bildirishi qayd etilgan. Toshkent , Qashqadaryo shevalarida paqir so‘zi “mis chaqa” ma’nosida ishlatiladi.

Baqir (mis)dan turli idish va anjomlar yasalgan : paqir (chelak), mis ko‘vacha, mis qumg‘on, mis qozon, mis qo‘shquloq (kastryul), eshik halqalari kabilar. Agar usta misdan yasalgan idishlarni sifatsiz tayyorlagan bo‘lsa, issiq suyuqlik quyilishi bilan mis eritmasi yuzaga qalqib chiqqan. Shu asosda xalq tilida “misi chiqdi” iborasi paydo bo‘lgan. Bu ibora ko‘chma ma’noda aldamchilik, yolg‘onchilik, firibgarlikning fosh bo‘lishi ma’nosini kasb etgan. Mis rangiga o‘xshashlikka ko‘ra planetalardan biri- Mars “Baqir soqim” deb nomlangan. Yupiter yulduzi- Erantuz, Mizon yulduzi- Qoraqush, Surayyo yulduzi- Hulkar, Yetti qaroqchi- Yetikan, Qutb yulduzi- Temirqoziq atamalari borliq (koinot) ni kuzatish, samoviy jismlar haqidagi bilimlarni umumlashtirish natijalari hisoblanadi.

Buyuk Alisher Navoiy asarlarida o‘n sakkiz ming olam yetti qavat osmon kabi tushunchalar ishlatiladi. Yer yuzasidagi ma’danlar Oy va Quyoshdan olingan:

Charx yetkurdi oyu kundin xisht,
Yasanur deb yer uzra yetti bihisht

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЧИЛАРИНИ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА ТЕХНОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

*Қурбонова Зилола Ураловна****, эркин тадқиқотчи***
Чирчиқ давлат педагогика университети, Чирчиқ, Ўзбекистон.

Аннотация. Мактабгача таълим тарбиячи-педагогларини малакасини ошириш жараёнида уларнинг технологик компетенцияларини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари, педагогика назарияси ва амалиётида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш муамолари, шунингдек, тарбиячи-педагогларнинг малакасини ошириш жараёнида технологик компетенциясини ривожлантиришнинг назарий асослари орқали касбий фаолиятга тайёрлашда методологик ёндашувлар касбий фаолиятга тайёрлаш омиллари бўлиб ҳисобланади.

Мақолада шахсдаги билим, кўникма ва малакаларга тегишли таълим компетенцияларини амалга ошириш учун фаолият усуллари ривожлантирилиши зарур бўлган шахсий сифатлар, олий маълумотли мутахассиснинг компетенцияси ва мактабгача таълим муассасалари тарбиячи-педагогининг технологик компетенцияси ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар. мактабгача таълим, малака ошириш, технологик компетенция, педагогика назарияси, касбий фаолият, билим, кўникма, малака.

Бугунги кунда жаҳон миқёсида ижтимоий-иқтисодий ва илмий-

техникавий соҳаларда олиб борилаётган глобал ўзгаришлар кадрлар тайёрлаш тизимини компетентлик талаблари асосида такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Европа Кенгашининг Берндаги “Европа учун таянч компетенциялар” (Key competencies for Europe) халқаро симпозиумида таълим олувчиларнинг “аниқ вазиятларда мулоқот ва ёзма кўникмалардан самарали фойдаланиш” ва “катта ҳажмдаги ахборотларга танқидий ишлов бериш ва янги ахборотлар муҳитини ривожлантириш” каби муҳим компетенциялар гуруҳи қабул қилинган [1]. Айни вақтда замонавий сифат менежменти тамойиллари асосида корпоратив таълим ва коучинг хизматларини кенгайтириш, кадрлар инновацион фаоллигини оширишнинг интеллектуал ахборот тизимларини яратиш, Форсайт методологияси асосида замонавий касбий компетенциялар тизимини прогнозлаштиришга қаратилган илмий изланишлар олиб борилмоқда. Шунинг учун мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларини малакасини ошириш жараёнида технологик компетенциясини ривожлантириш борасидаги муаммоларга амалий ечим топиш долзарблигича қолмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 16 декабрдаги “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги ЎРҚ-595-сон Қонуни [2] ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадида малака ошириш жараёнида кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, ташкил этиладиган педагогик жараёнларнинг сифат ва самарадорлигини ошириш, таълим жараёнларини ахборотлаштириш, компетенция, касбий компетентлик, жумладан, мактабгача таълим муассасаи тарбиячининг компетенцияларини такомиллаштиришнинг назарий ва амалий масалалари таҳлил қилинди. Олиб борилган изланишлар асосида юртимиз олимлари Ф.Р.Қодирова, Р.Х.Джураев, И.И.Туйчиева каби педагог ва файласуф олимлар томонидан ўрганилганлигини аниқланди [3; 4; 5]. Тарбиячиларнинг технологик компетенциясини такомиллаштириш методологияси шунингдек, педагогик-психологик жиҳатлари, андрогогик тамойиллари ва технологиялари, касбий ўзини-ўзи такомиллаштиришнинг концептуал масалалари Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДҲ) олимларидан Р.Штайнер, Д.Б.Эльконинлар томонидан ўрганилган [6; 7].

Мактабгача таълим тарбиячи-педагогларини малакасини ошириш жараёнида уларнинг технологик компетенцияларини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари, педагогика назарияси ва амалиётида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш муамолари, шунингдек, тарбиячи-педагогларнинг малакасини ошириш жараёнида технологик компетенциясини ривожлантиришнинг назарий асослари орқали касбий фаолиятга тайёрлашда методологик ёндашувлар касбий фаолиятга тайёрлаш омиллари бўлиб ҳисобланади.

Илм-фан, техника, ишлаб чиқариш ва технология соҳаларининг рақамли технологиялар асосида шиддат билан ривожланиши замонавий жамиятда ахборот муҳитини шакллантириш талабларини белгилаб бермоқда. Бу ўз навбатида ахборот муҳитида мустақил ҳаракатланиш имкониятига эга, ўз соҳасининг билимдони бўлган, профессионал малакаларни юқори даражада

эгаллай олган, рақамли технологияларидан фойдаланиш маҳоратига эга, ахборотларнинг шиддатли оқими билан ишлашда ахборот хавфсизлигини таъминлай олиш қобилиятларига ҳамда юқори даражали касбий технологик компетентликка эга кадрларга эҳтиёж туғдирмоқда. Шундай экан, мактабгача таълим муассасалари тарбиячи-педагогларини малакасини ошириш жараёнида даврнинг мазкур талабини инобатга олиш мақсадга мувофиқдир.

Бугунги кунда Ўзбекистонда мактабгача таълим муассасалари таълим-тарбиявий фаолиятини тубдан ислоҳ қилиш узлуксиз таълим соҳасидаги туб ижтимоий-сиёсий ўзгаришларнинг бош мақсадларидан бири сифатида эътироф этилган, чунки мактабгача таълим узлуксиз таълимнинг илк бўғини, унинг илк босқичи сифатида эътироф этилади. Сўнгги йилларда мактабгача таълим муассасалари фаолиятини қайта ташкил қилиш ва улар амалиётини тубдан ўзгартириш, тизим фаолиятини молиялаштириш механизмларини таъминлашга бағишланган қирққа яқин давлат хужжатлари, уларнинг ичида Президент Фармонлари ва Қарорлари, Вазирлар Маҳкамаси қарорлари ва фармойишлари, вазирлик меёрий хужжатлари қабул қилинди. Мактабгача таълим соҳасида малака оширишда компетентликни шакллантириш таълим олувчини малака оширишда таълим олишга қадар, малака оширишда таълим олиш ва малака оширишдан кейинги таълим каби даражалар бўйича ҳаракатланиши эвазига эришилади.

Малака оширишгача бўлган даража келгусида касбий таълим олиш учун зарур бўлган бошланғич билимлар, дунёқараш ва хулқ-атворнинг муйян модели шаклланадиган даврни назарда тутади. Мазкур даражада воқеликнинг у ёки бу объектларини билиш ва қайта ўзгартиришга қаратилган фаолиятнинг умумий қобилиятларини эгаллаш амалга оширилади.

Малака ошириш таълими негизида инсонга муайян турдаги касбий меҳнат фаолиятида иложи борича тўлиқ ўзини намоён қилишга, ҳозирги замондаги меҳнат тақсимоти ва у ёки бу малака ҳамда ихтисосликка эга ходимнинг рақобатбардошлик асосида меҳнат қилиши учун рағбатлантиришнинг самарали йўлларини топишга имкон беради.

Малака оширишдан кейинги даврда мавжуд бўлган ҳамда умумий ва касбий таълим негизида шаклланган компетенцияларга таянган ҳолда эркин тарзда изланишга ўтиш компетенцияларини ривожлантиришга ўтилади. Бунда тарбиячининг якка тартибдаги менталитети шаклланади, яъни дунёқарашнинг турғун, чуқур асослари, қадриятлар ва хулқ-атвор моделлари вужудга келиб, улар инсон шахсиятига нодир бетакрорликни бахшида этади.

Компетенциялар – касбий фаолиятни маҳсулдор бажаришга хизмат қилувчи ҳаракатларнинг умумлаштирилган усулларидир. Бу инсоннинг амалда ўз компетентлигини амалга ошириш қобилиятидир.

Компетенциялар кенг маънода инсоннинг нима иш бажараётганлиги,

ушбу бажаришга қобилияти, кўникмалари, имкониятлари ва уқувига тегишли бўлади. Компетентли инсон – муайян соҳада етарлича билим, кўникма, уқув ва имкониятларга эга бўлган шахсдир.

Компетенция муолажавий, қадриятли-мазмунли ва декларатив

билимларнинг очиқ тизимидан иборат бўлиб, улар ўзаро боғлиқ ва коммуникатив алоқадорликда бўлган (билишга оид, шахсий ва ижтимоий) омилларни ўз ичига олиб, улар компетенция эгаси келажакда касбий фаолиятдиа аниқ ҳаёт учун муҳим бўлган муаммолар вужудга келиши билан фаоллашади ва бойиб боради.

Шахсдаги билим, кўникма ва малакаларга тегишли таълим компетенцияларини амалга ошириш учун фаолият усуллари ривожлантирилиши зарур бўлган шахсий сифатлар блокларига бўлинади:

1) когнитив (билишга оид) сифатлар – савол бериш, ҳодисаларнинг сабабларини излаб топиш, ўзининг саволни тушунмаганлигини акс эттириш қобилияти ва ҳоказо;

2) креатив (ижодий) сифатлар – руҳий кўтаринкилик, қарама-қаршиликларга зийраклик ва ностандарт ёндашув, фикр ва ҳис-туйғуларнинг очиқ-ойдинлиги, башоратлилик, олдинни кўра била олиш, ўзига танқидий ёндашув, ўз фикрининг мавжудлиги ва бошқалар;

3) ташкилий фаолиятга оид (услубий) сифатлар – таълим фаолиятига лаёқатлилик ва уни тушунтириб бериш қобилияти, ўз олдига мақсад қўйиш ва унга эришиш, норма ижодкорлиги қобилиятига эга бўлиш, рефлексив фикр юритиш ва ўзига ўзи баҳо бера олиш в.ҳ.

4) коммуникатив сифатлар, бошқа одамлар, атроф муҳит объектлари ва унинг маълумотлари билан ўзаро алоқага киришиш, маълумотларни излаб топиш, қайта ишлаш ва узатиш қобилиятига эга бўлиш, гуруҳ ва жамоада турли ижтимоий ролларни ўйнай олиш, телекоммуникация технологияларидан фойдаланиш (электрон почта, Интернет) кўникмаларини ривожлантириш;

5) дунёқарашга оид сифатлар, педагогнинг ҳиссий-қадриятли тавсифларини, унинг ўзини ўзи англаш ва мустақил ҳаракат қилиш; атроф муҳитда, оилада, жамоада ўз ўрнини топа олиш, миллий ва умуминсоний интилишлар, шахснинг ватанпарварлик сифатларини белгилайди.

Умуман олганда, мактабгача таълим муассасалари тарбиячи-педагогларини малакасини ошириш жараёнида уларнинг касбий компетенцияларини шакллантириш асосий вазифа ҳисобланади. Тарбиячи-педагоглар нафақат малака ошириш жараёнида, балки узлуксиз малака ошириши назарда тутилади. “Илк қадам” давлат дастурида келтирилган ҳар бир концепция бажалиши зарур, шунинг учун тарбиячи-педагогларни малакасини оширишнинг методологик ёндашувлари ва тамойиллари ишлаб чиқилиши ва малака ошириш жараёнига жорий қилиниши зарур.

Таълим жараёнида ушбу тушунчаларнинг таърифига асосланиб, мактабгача таълим муассасалари тарбиячи-педагоглари касбий ривожланишининг моҳиятини аниқлаш учун касбий ривожланиш мазмунини психология, акмеология, касбий педагогика ва менежмент нуқтаи назаридан кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Олий маълумотли мутахассиснинг компетенцияси ёки касбий компетентлиги бу фаолиятнинг талабига кўра мақсадга мувофиқ тарзда ҳаракат қилишга тайёрлик ва қодирлик, юзага келган масалалар ва

муаммоларни услубий жиҳатдан ташкилий ва мустақил равишда ҳал қилиш, шунингдек ўз фаолияти натижаларига баҳо беришдан иборат.

Касбий компетенциялар касбий таълимнинг натижаси ҳисобланади. Касбий компетенция мезонлари сифатида мутахассис меҳнатининг ижтимоий аҳамиятлилиги, унинг обрўси, муайян билим (фаолият) соҳасида ижтимоий-меҳнат мақомини мисол қилиш мумкин.

Касбий компетенция – бу касбий фаолият олиб борувчи шахсга ўзининг касбий вазифаларини самарали амалга ошириш бўйича билим, кўникма ва малакаларда назарда тутиб, бу барча тоифадаги мутахассислар учун муайян ишда моддийлашган билим, кўникма, малакага эга бўлишни, тарбиячилар учун менеджмент соҳасида муайян тажрибага эга бўлишни назарда тутади.

Методик компетенция – бу, биринчидан, касбий фаолиятнинг фундаментал билим ва тушунчаларига эга бўлиш, иккинчидан, касбий фаолият соҳасидаги назарий ва методик ютуқлардан хабардор бўлиш ҳамда уларга мустақил мантиқий муносабатда бўлишни назарда тутади. Бундан ташқари, мутахассислар учун услубий компетенция улар ишига тегишли технологиялар ва фаолият соҳасига бевосита тегишли билимларни билишни тақозо этиб, ушбу компетенция ишлаб чиқариш фаолиятидаги барча жиҳатлар технологияларни билишни тақозо этади.

Таълим компетенциялари малака оширувчи шахснинг келажакдаги тўлақонли ҳаёти учун фаолиятини моделлаштиради. Масалан, тарбиячи-педагог қандайдир компетенцияни амалга оширишга қодир бўлмайди, бироқ бу ушбу қобилиятни унда таълим компетенциялари ёрдамида шакллантириб бўлмайди деган маънони билдирмайди.

Умуман олганда, асосий компетенцияларнинг бирламчи рўйхати мавжуд эмас, зеро, бу авваламбор, жамиятнинг унинг фуқароларини тайёрлашга буюртмасини билдиради. Бундай рўйхат кўп маънода муайян мамлакат ва минтақада жамият нуқтаи назарининг мувофиқлаштирилганлигини билдиради. Бироқ бундай мувофиқлаштиришга ҳар доим ҳам эришиб бўлмайди.

Шундай қилиб, мактабгача таълим муассасалари тарбиячи-педагогининг технологик компетенцияси деганда уларнинг замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдалана олиши, соҳага доир педагогик дастурий воситалар ишлаб чиқа олиши, мактабгача таълимда таълим ва тарбия жараёнини сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилган услубий-дидактик таъминотни ишлаб чиқа олиши, сюжетли-ролли ўйинларни имитация қила олиши назарда тутилади. Мазкур технологик компетентликни мактабгача таълим малака ошириш жараёнида риволантириш учун башоратлаё олувчи моделни ишлаб чиқиш ва тарбиячи-педагогларни технологик компетенциясини ривожлантириш методикасини
такомиллаштириш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Совет Европы: Симпозиум по теме «Ключевые компетенции для Европы»: Док. DECS / SC / Sec. (96) 43. Берн, 1996.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни. – Т., 2019. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон.
3. Қодирова Ф., Қодирова Р. Болалар нутқини ривожлантириш назарияси ва методикаси. – Т., Истиқлол. 2006. – 248 б.
4. Джураев Р.Х., Толипов Ў.Қ., Сафарова Р.Ғ., Тўрақулов Х.О., Иноятова М.Е, Диванова Д.С. Педагогик атамалар луғати. – Т., Фан, 2008.-198 б. – 164-б.
5. Туйчиева И.И. Мактабгача таълим ташкилотлари тайёрлов гуруҳи болаларининг фикрлаш фаоллигини ривожлантириш: фалсафа доктори (PhD). ... дисс. Автореф. – Т., 2020. – 45 б.
6. Штайнер Р. Воспитание ребенка с точки зрения духовной науки//Дошкольное воспитание. 1994, №1. с. 12-16.
7. Эльконин Д.Б. Опосредование. Действие. Развитие. – М., ЭРГО 2010. — 280 с.

O‘QUVCHILARNING CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Xidirova Dildora,
Xovos tumani 5-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchi chiroyli va to‘g‘ri yozuvda sinf taxtasiga bo‘rda aniq va chiroyli yozadigan o‘qituvchining o‘quvchilari chiroyli va to‘g‘ri yozishi.

Yozish malakalariga qo‘l harakatini rivojlantirish; simmetriyani his qilish va taxtaning qaysi qismida yozilgan harf, so‘z yozishni o‘rganish jarayonini foydali va samarali usullari va namunalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘xshash unsurli kichik va bosh harflarni yozish; harflarni bir-biriga tutashtirish; O‘xshash unsurli kichik harflar: O‘xshash unsurli bosh harflar, O‘xshash unsurli bosh harflar:

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug‘i asosida pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ‘ib qilishni rivojlantirishda o‘quvchilarni Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixat bilan yozishga o‘rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o‘qitish usullarini, yozuvga o‘rgatishning gigenik shartlarini, o‘quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

O‘qituvchining namunaviy yozuvi – bolalarda to‘g‘ri yozuvni

shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yozishga o‘rgatish ko‘pincha taqlid qilish orqali amalga oshadi. O‘qituvchining birinchi o‘quv yilida sinf taxtasi yoki o‘quvchi daftariga yozganlari asl nusxa sifatida ko‘riladi, chunki o‘quvchilar undan o‘z daftariga ko‘chirib oladilar. Shuning uchun o‘qituvchining husnixati to‘g‘ri va chiroyli bo‘lishi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuvi esa o‘quvchining daftaridagi

harflarning joylashishiga mos holda bo‘lishi kerak.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, agar o‘qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa (to‘ldirmasa), bolalar ham undan namuna olib qatorning oxirigacha yozishmaydi, qog‘ozni bekorga sarf etishadi va so‘zlarni keyingi qatorga to‘g‘ri ko‘chirish yo‘llani

o‘rgana olmaydilar, shubhali hollarda qator oxirigacha ko‘chirmaydigan bo‘lishadi.

O‘qituvchi o‘z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo‘lishi uchun uzluksiz shug‘ullanib borishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi shart. Shunday fikrlar bor, agar muntazam yozib borilsa, yozuv yaxshilanib boradi. Lekin buning aksi ham bo‘lishi mumkin: inson qanchalik ko‘p yozsa, uning yozuvi shunchalik tushunarsiz bo‘lib borar ekan. O‘qituvchi to‘g‘ri husnixatda yozishni o‘rganib olishi lozim.

O‘qituvchi faqat nazariy jihatdangina emas, balki har bir harf uchun yo‘lga qo‘yilgan amaliy proporsional bog‘liqlikni ham bilishi darkor.

Shu bilan bir vaqtda lozim bo‘lgan mashqlar orqali qo‘l kaftini va barmoqlar harakatini engillatish va rivojlantirish kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi sinf taxtasida yozish usullarini ham egallab olishi lozim. Sinf taxtasida yozish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Masalan, harflarni grafik yozish, uning uzoqdan qanday ko‘rinishini hisobga olmasdan yozish, barcha asosiy va birlashtiruvchi unsurlarni bir xil qolipda yozish kabi.

Faqatgina yaxshi yozuvga ega bo‘lgan holdagina o‘qituvchi bolalarga namuna bo‘la oladi va ulardan yaxshi natijalar olishi mumkin. O‘quvchilar harflarning tuzilishini, uni chizishdagi ketma-ketligini yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun o‘qituvchi bularning hammasini sinf taxtasida ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatishi lozim.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, o‘quvchi chiroyli va to‘g‘ri yozuvda sinf taxtasiga bo‘rda aniq va chiroyli yozadigan o‘qituvchining o‘quvchilari chiroyli va to‘g‘ri yozadilar.

Sinf taxtasida yozish malakalariga quyidagilar kiradi: 1-navbatda qo‘l harakatini rivojlantirish; simmetriyani his qilish va taxtaning qaysi qismida yozilgan harf, so‘z va fraza yozilganini tezda topishni; bir qarashda topishni o‘rgatish lozim.

Bundan so‘ng bo‘r bilan yozishni u bilan ishlash texnikasini o‘rganib olish lozim. Bo‘r bilan yozishda ingichka va qalin shtrixlarni yozishni, shuningdek, ingichka chiziqdan bosib yozishga o‘tish va h.z. malakalarni egallashi lozim.

Yozuvda sinf taxtasi va bo‘rning sifati katta ahamiyatga ega.

1.O‘qituvchi bolalarning daftaridagi xato-kamchiliklarni o‘z o‘rnida aniq ko‘rsatmasligi natijasida bolaning yozishiga nisbatan e’tiborsizlik yuzaga keladi.

2.Aniq va to‘g‘ri husnixatda yozishga nafaqat husnixat darsida, balki, barcha dars turlarida va sinfdan tashqari yozuv ishlarida, yozma ariza, ular tomonidan tayyorlanadigan ko‘rgazmalar (devoriy gazetalar, jadvallar, shiorlar va h.z.) amal

qilish kerak.

Orfografik - to‘g‘ri, aniq va tushunarli qilib yozishni talab etish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchining pala-partish yozuvini va ikki varaq qog‘ozga yozgan yozma ishini ham nazorat qilib borishi lozim. Har bir o‘quvchining daftari tartibli bo‘lishiga erishish kerak.

3. Husnixatga o‘rgatish izchil va ketma-ketlik xarakteriga ega bo‘lishi lozim. O‘rgatish jarayonida o‘qituvchining dastur materialini, o‘quvchini soddaroq shakliy ko‘rinishga ega bo‘lgan harflardan, murakkabroq ko‘rinishga ega harflarga o‘tkazishga va yirik hamda sekin yozuvdan, mayda va tez yozuvga o‘tkazishda e’tibor beriladi. Husnixat mashqlari o‘zaro bog‘liqlikda muntazam uyushtiriladi.

Shuni yodda tutishi kerakki, bolani sekin yozuvda harfni to‘g‘ri yozishni

o‘rganib olmaguncha tez yozuvga o‘tkazish mumkin emas. Shuning uchun ham dasturda tez yozish ko‘nikmalari 3-4-sinflarda shakllantiriladi.

4. Ayrim o‘quvchilarning yozuvidagi individual farqlarni kuzatib borish mumkin. Bu farq o‘ta qiya yozilishda va hokazolarda kuzatiladi.

Yozuvdagi individuallik o‘ziga xoslikni 4-sinflarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar jarayonida aniqlash mumkin, chunki bu davrda o‘quvchilar mustaqil ravishda bir chiziqli daftarga yozishga o‘tgani bo‘ladi.

O‘quvchida aniq va ravon yozuv hosil bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘quvchining

butun diqqatini harfning grafik shakliga, boshqa harf bilan qo‘shilib ketmasligiga, har biri bir-biridan o‘ziga ko‘rsatilgan o‘lchamga e’tiborini qaratishi lozim.

5. O‘quvchilarning husnihat bilan to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish, husnixatga o‘rgatish ishlarini tizimli tarzda olib borish talab etiladi. Buning uchun ham o‘quvchilar to‘g‘ri yozuvning har kungi ko‘nikmasi bilan cheklanib qolmay, uzluksiz ravishda nazorat-tekshiruv ishlarini olib borishlari zarur bo‘ladi.

O‘quvchilar nazorat vaqtini oldindan bilganlari ma’qul, chunki bungacha ruchkadagi kamchilikni va daftarni tayyorlab qo‘yishga vaqt ajratadilar. Yozib bo‘lgach, bolalar o‘z ishlarini o‘rtoqlari bilan almashadilar va o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qiladilar. Eng yaxshi ishlar o‘quvchi burchagiga ilib qo‘yiladi.

Nazorat paytida husnixat qoidalariga rioya etgan holda yozilganiga, harflarning to‘g‘ri yozilganligiga, matnning oson o‘qilishiga, yozuv bir tekisligiga, matnni o‘qish uchun va qog‘ozni tejashni rejalay olishga e’tibor berish lozim. Muntazam ravishda nafaqat ona tili darslaridagi yozma ishlarini, balki o‘quvchining boshqa o‘quv fanlaridagi yozuvini ham tekshirib borish lozim.

Nazorat-tekshiruv ishlarini bir-biri bilan solishtira olishi uchun o‘quvchilarning ishlarini maxsus joyga ilib qo‘yiladi. Buning uchun nazorat - tekshiruv ishlarini alohida qog‘ozga yozish kerak va u uncha katta bo‘lmagan matn asaosida bo‘lishi kerak. Yozuv malakasini yaxshilanganligini solishtirib borish uchun har bir o‘quvchining nazorat - tekshiruv ishlarini saqlab qo‘yish lozim.

Husnixatga o‘rgatish. Husnixatga o‘rgatishning vazifasi harf, so‘z, gap va matnni to‘g‘ri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni o‘rganish jarayonida o‘quvchi tovushning shakli bo‘lgan harfni, so‘z va gapni kitobdan va doskadan to‘g‘ri, husnixat qoidalariga rioya qilib ko‘chirib yozish, yozganlarini

tekshira olish va yo‘l qo‘ygan grafik kamchilik hamda xatolarini o‘qituvchi rahbarligida o‘zi tuzata olishi kerak. Bu davrda eshitib yozish ko‘nikmalari ham rivojlantirib boriladi. 1-sinfda o‘quv yilining 2 yarmidan boshlab husnixat malakalari takomillashtirib boriladi.

Dasturga ko‘ra ona tili darslarida A1 daraja uchun ―Husnixat daqiqa‖lari uchun 5-8 daqiqa, A1Q daraja uchun haftasiga 1 soat vaqt ajratiladi. Chiroyli yozish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bo‘g‘in, so‘z, gap matnni husnixat qoidalariga rioya qilgan holda ko‘chirib yozish; eshitib yozish va mustaqil yozish; matnni yozishda sarlavhaning yozilishiga, xat boshidan boshlash; so‘zlar orasidagi masofaning bir xilligiga, harflarning to‘g‘ri va aniq yozilishiga, tutashtirilishiga diqqat qaratiladi, hoshiyaga rioya qilish, o‘zining va o‘zgalarning yozuvini grafik tahlil qila olish kabi

malakalari takomillashtiriladi.

O‘quv dasturida sinflar kesimida husnixat uchun quyidagi mazmun kiritilgan:

1-sinf. Yozuvga oid malakalarni shakllantirish: harflarni yozuv chiziqlari orasida to‘g‘ri joylashtirish; harflarning qiyaligi, ulanishini hamda so‘zlar orasini bir xil tenglikda chamalash. Kichik va bosh harflarni alifbo tartibida husnixat bilan yozishni mashq qilish.

Ayrim yozuv qoidalari. Partada to‘g‘ri o‘tirish, daftarni belgilangan qiyalikda qo‘yish; ruchkani uch barmoq orasida erkin ushlash; daftarni chap qo‘l bilan ushlab turib yozish; har bir harfni to‘g‘ri tutashtirish, harf va harf birikmalarini to‘g‘ri va aniq yozish.

2-sinf. Bir chiziqli daftarda o‘xshash unsurli harflarni yozish va harfni bir-biriga to‘g‘ri tutashtirish; o‘xshash unsurli kichik harflar va shu harflardan tuzilgan bo‘g‘inlar va so‘zlarni yozish, o‘xshash unsurli bosh harflar va ularni o‘zidan keyin kelgan kichik harfga tutashtirish.

Ayrim yozuv qoidalari: daftarlarning past tomonidagi burchagini ko‘krak o‘rtasining qarshisiga to‘g‘ri qo‘yish; daftarni chap qo‘l bilan ushlab turib yozish; ruchkani uch barmoq orasida erkin ushlash; har bir harfni to‘g‘ri tutashtirishga rioya qilgan holda bo‘g‘in va so‘zlarni aniq yozish; harf va harf birikmalarini to‘g‘ri va aniq shakllantirish; shoshmasdan yozish; har bir mashqni uch-to‘rt marta takrorlash.

O‘quv yili davomida imlosi qiyin bo‘lgan quyidagi so‘zlarning talaffuzi va yozilishini bilib olish: *avgust, baland, baho, bahor, behi, Buxoro, dars, daftar, do‘st, farzand, hasl, havo, hikoya, jahon, juft, karam, kaft, kon’ki, lavlagi, loviya, lug‘at, mashina, minnatdor, moslama, navbatchi, no‘xat, oktabr, payvand, p’al’to, paxta, qo‘ng‘iroq, quyosh, sabzi, Samarqand, sentabr, sinf, singil, soat, Toshkent, traktor, vazifa, vatan, xalq, xursand, yomg‘ir, yostiq, o‘qituvchi, o‘quvchi, shahar* kabi.

O‘xshash unsurli kichik va bosh harflarni yozish; harflarni bir-biriga tutashtirish;

O‘xshash unsurli kichik harflar:

1-guruh – i, u, n, m, t, l, y

2-guruh – h, j, k, f

3-guruh – o, o‘, q, a, g, g‘, p

4-guruh – e, b, x

5-guruh – r, v, s, sh, ch

O‘xshash unsurli bosh harflar:

1-guruh – U, L, Z, I

2-guruh – M, H, K, N, A

3-guruh – O, O‘, Q, X, CH

4-guruh –E, S, I, Z

5-guruh –V, G, G‘, Y

3-sinf. Yozuvga oid malakalarni mustahkamlash. Bir chiziqli daftarda harflarning balandlik va kenglik o‘lchamiga rioya qilib yozish. Yozilishi qiyin ayrim bosh va kichik harflarni (I, S, H, N, G‘, Q, P, S) yozishga, shuningdek, harflarni to‘g‘ri tutashtirishga rioya qilish, so‘zlar, gaplarni ko‘chirib yozish, eshitib yozish.

Bog‘lanishli nutqqa oid mashqlar dastur materiallarini o‘rganish jarayonida unga bog‘liq holda o‘tkaziladi.

4-sinf. Ona tili darslarida ―Husnixat daqiqa‖lari uchun 5-8 daqiqa vaqt ajratiladi. Chiroyli yozish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bo‘g‘in, so‘z, gap matnni husnixat qoidalariga rioya qilgan holda ko‘chirib yozish; eshitib yozish va mustaqil yozish; matnni yozishda sarlavhaning yozilishiga, xat boshidan boshlash; so‘zlar orasidagi masofaning bir xilligiga, harflarning to‘g‘ri va aniq yozilishiga, tutashtirilishiga diqqat qaratiladi, hoshiyaga rioya qilish, o‘zining va o‘zgalarning yozuvini grafik tahlil qila olish kabi malakalari takomillashtiriladi.

O‘quv yili oxiridagi takrorlash o‘rganilgan bilimlarni eslatish orqali sistemaga solish va umumlashtirish maqsadida o‘tkaziladi. O‘quvchilar bir darsda bir necha turdagi mujassam topshiriqlarni bajaradilar. Takrorlash darslari matn, gap, gap bo‘laklari, tovush va harflar, tovushlarning turlari, bo‘g‘in, alifbo, asos, so‘z yasovchi, gapda so‘zlarni bog‘lovchi qo‘shimcha, so‘z turkumlari bo‘yicha o‘tkaziladi. O‘quvchilar nutqi va yozuvidagi kamchiliklar hisobga olinadi. Bu o‘qituvchining boshqa sinflarda ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishini ta’minlaydi. O‘quvchilar bilan o‘quv yili davomida imlosi ustida ishlanadigan, o‘quvchilarning lug‘at boyligiga qo‘shilgan ayrim so‘zlar darslik oxiridagi lug‘atda berilgan. Darslikda notanish so‘zlar ma’nosi berilgan bo‘lib, o‘quvchilardan ularni o‘zlashtirish talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki o‘quv yili oxiridagi takrorlash o‘rganilgan bilimlarni eslatish orqali sistemaga solish va umumlashtirish maqsadida o‘quvchilar bir darsda bir necha turdagi mujassam topshiriqlarni bajaradilar. Takrorlash darslari matn, gap, gap bo‘laklari, tovush va harflar, tovushlarning turlari, bo‘g‘in, alifbo, asos, so‘z yasovchi, gapda so‘zlarni bog‘lovchi qo‘shimcha, so‘z turkumlari bo‘yicha o‘tkaziladi. O‘quvchilar nutqi va yozuvidagi kamchiliklar hisobga olinadi. Bu o‘qituvchining boshqa sinflarda ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishini ta’minlaydi. O‘quvchilar bilan o‘quv yili davomida imlosi ustida ishlanadigan, o‘quvchilarning lug‘at boyligiga qo‘shilgan ayrim so‘zlar darslik oxiridagi lug‘atda berilgan. Darslikda notanish so‘zlar ma’nosi berilgan bo‘lib, o‘quvchilardan ularni o‘zlashtirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh.

Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqieva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
3. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. –T.: O‘qituvchi, 2003.
4. Qosimova Q. 2-sinflarda ona tili darslari, T. O‘qituvchi, 1998
5. G‘afforova T., G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish darslari. –T.:Sharq, 2003. – 126 b.
6. H.Bakieva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboeva, U.Ismoilova, B.Egamberdieva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremumpress”, 2014. -119 b.
7. George Yule. The Study of Language. CAMBRIDJE UNIVERSITY PRESS. 2010, 42-bet.

MAKTAB DIREKTORLARI MALAKASINI OSHIRISHDA BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNI TASHKIL ETISH

Mamatqulov Dilshod Egamberdiyevich,
"ORIENTAL UNIVERSITETI" magistranti

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy jamiyatning innovatsion rivojlanishi, birinchidan, ta’lim tiziming professional rahbarlariga bo‘lgan ehtiyoji, ikkinchidan, ularning kasbiy-bosqaruv kompetensiyaga qo‘yiladigan talablarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktab rahbarlari tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va hududiy munosabatlar tizimida ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy ahamiyatga ega shaxsga aylanmoqda.

Maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita subyektning ya’ni rahabar bilan ta’lim tizimi o‘zaro bog‘liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday halotda diretorning boshqaruv obyekti boshqarish va o‘zini-o‘zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo‘lgan ta’lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta’sirlar asosida, bashqarilayotgan maktab ham o‘z o‘rnida boshqaruv natijlariga hamda boshqaruv subyektiga ta’sir ko‘rsatadi. Rahbarning faoliyat obyektining mohiyati – umumiy o‘rta ta’lim maktablari nafaqat samarali mehnatni tashkil etuvchi, o‘z-aro aloqalar faoliyatining mazmuni, balki aniq obyektiv va subyektiv sharoitlarni hisobga olgan holda, ularni oldindan ko‘ra bilishdir. Muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyatining eng muhim sharti rahbarni tizimli ravishda o‘qitishdir. Har qanday boshqa lavozim kabi, umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarining o‘z obyekti, predmeti, mazmuni, shakllari, usullari va uslublari mavjud bo‘lib, mazkur ko‘nikma va malakalarning barchasi rahbarga o‘gatiladi.

Shu nuqtai nazardan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishni talab qilmoqda. Adabiyotlarda boshqaruvning ma’nosi bo‘yicha uch xil yo‘nalishda tushinchalar mavjud. Dastlabki tushinchalarga ko‘ra, boshqaruv – faoliyatdir. Masalan, o‘z vaqtida boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan, boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri

fransuz olimi A.Fayol boshqarishni kelajakni ko‘ruvchi; tashkilotni idora qiluvchi; faoliyatni tashkillashtiruvchi; faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi; qaror va buyruqlarni ijrosini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi.

Ikkinchi yo‘nalish vakillari boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga “ta’sir etishi” deb hisoblaydilar. Bu yo‘nalish tarafdorlari boshqaruv maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir etish, subyektning obyektga ta’siri natijasida obyektning o‘zarishi, deb ta’riflaydilar.

Uchinchi yo‘nalishga ko‘ra, boshqaruv subyektlar o‘rtasidagi o‘z-aro ta’sir, ya’ni to‘g‘ri va teskari ta’sirlarning uzliksizligi, bir-biriga ta’sir etuvchi subyektlarning o‘zgarishini organik bog‘liqligi degan qarshlar mavjud.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bashqaruv maqsadga yo‘nalishida obyektni muvofiqlashtirish; maqsadga erishish uchun obyektga ta’sir etish; maqsadga erishish yo‘nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta’sir etishni vertikal muvofiqlashtirish.

M.Sharifxo‘jayev, YO.Abdullayevlarning fikricha, boshqaruv, bu – tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir. Qator tadqiqotlarda boshqaruv insonlarning xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog‘liq faoliyat sifatida izohlanadi. Boshqaruv tizimida maqsadga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri maqsadni belgilash talablariga rioya qilish: maqsdalar oldinda belgilangan va aniq shakillantirilgan bo‘lishi; bajaruvchilar tamonidan qabul qilingan va ularga tushinarli bo‘lishi; maqsadlar tahlil qilingan va bajarilish muddati belgilangan, shuningdek, bajaruvchilarning harakati motivlashtirilgan bo‘lishi; vertikal va goriznatal bo‘yicha kelishilgan turli xil topshiriqlar yo‘nalishida taqsimlanishida maqsadlar birligining saqlanishi kerak.

P.I.Pidkasistiy fikriga ko‘ra maktabni boshqarish – bu rahbarlar bilan pedagoglarning ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarga fanlar bo‘yicha chuqur bilim va axloqiy tarbiya berish, kasb tanlashiga yo‘nalish berish va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan fikrlardir.

Shu munosabat bilan bundan oldin, quyidagi tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniqlash kerak: kompetensiya, boshqaruv kompetensiyasi, umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarining boshqaruv kompetensiyasi.

Takidlash joizki, pedagogikga oid adabiyotlarda ham ensklopedik lug‘atlarda kompetensiya va kompetentlik tushinchasi keltirilmagan. Ushbu tushinchalar avval pedagogik atamalar va kategoriyalar sohasiga kiritilmaganligi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. N.V.Tarasova kompetensiya tushinchasini muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim hamda harakat o‘rtasida aloqalarni ta’minlash imkoniyatini beradigan bilim, qadiryatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobilyat sifatida talqin qilinadi.

“Kompetentiya” (competentia) so‘zi lotinchadan tarjima qilinganda inson yaxshi biladigan, bilim va tajribaga ega bo‘lgan masalalar majmuasini anglatadi. Muayyan sohada kompetentli shaxs tegishli bilim va qobiliyatlarga ega bo‘lib, bu bilmlar unga asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Pedagogik ensklopediyada kompenetlik tushinchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza qilishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dadil ifodali fikr, kishining muayyan sahodagi saviyasi;

o‘z ishining ustasi, soha sirlarini har tamonlma chuqur bilgan, o‘zni o‘zi rivojlantiruvchi va o‘z qobilyati va imkoniyatlarini to‘la ishga sola biladigan pedagogik layoqat.

V.I.Andreyevning fikricha, kompetensiya – bu ma’lum o‘quv, kasbiy va boshqa kompleks masalalarni echishda namoyon bo‘luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko‘rastkich bo‘lib, shaxsning (ijobiy motivatsiya, bilim, mahorat, iqtidor va ijodiy tajribasini o‘z ichiga oluvchi) tayyorgarlik darajasidir.

Kompetentsiya – bu mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi barcha talablarga javob berishni anglatadi, uning professionalligini bildiradi, kompetentlik esa bu ushbu talablarni egallash darajasi, ya’ni mutaxassisning kasbiy va shaxsiy fazilatidir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv muammosi bo‘yicha xorijiy va mahalliy psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan tanishish shuni ko‘rsatadiki, ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mazmunini tavsiflovchi tushuncha uzoq vaqt davomida shakllantirilgan.

Ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning paydo bo‘lishi britaniyalik psixolog J.Ravenna nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u nafaqat kompetensiyaning har xil turlari va tarkibiy qismlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarni tizimlashtirgan, balki birinchi marta kompetensiyaning psixologik tabiatiga inson rivojlanishining turli yosh bosqichlarida kompetensiyani shakllantirish muammolariga va kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ko‘rib chiqishga e’tibor qaratgan.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar har xil faoliyat turlari uchun har xil turdagi kompetentlikni/kompetensiyalarni ajratib ko‘rsatadilar. Shuningdek, J.Raven zamonaviy jamiyatda 37 ta, N.V.Kuzmina 5 turdagi kasbiy va pedagogik kompetensiyalarni aniqlaydi. Asr boshida (1990-2001) ta‘limda kompetensiya/kompetentlik kategoriyalaridan faol foydalanish bilan ta’vsiflanadi. YuNESKO materiallarida ta’limning istalgan natijasi sifatida qaraladigan kompetensiyalar qatori keltirilgan.

“Kompetensiya” tushunchasi ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishning markaziy kontsepsiyasi bo‘lib xizmat qiladi, chunki u ta’lim natijasining intellektual va ko‘nikmadan iborat tarkibiy qismlarini o‘zida mujassamlashtiradi, madaniyat va faoliyatning keng sohalari bilan bog‘liq chambarchas bog‘liq ko‘nikma va bilimlarni uyg‘unlashtiradi. Asosiy (eng universal) kompetensiyalar nafaqat umumiy o‘rta ta’limning, balki butun shaxsning ta’limi va tajribasi natijasidir. Bunday talqinda kompetensiyaga asoslangan ta’limda uzluksiz ta’lim g‘oyasi uchun asos bo‘lishi mumkin. Masalan, Avstriyada kompetensiyalarni aniqlashda qiziq yondashuvdan foydalaniladi, bu yerda ta’lim tizimida quyidagi asosiy kompetensiyalar ajratiladi:

shaxsning o‘zini o‘zi namoyon qilishga qaratilgan kompetensiyalar;

ijtimoiy kompetensiyalar (muloqot qilish qobiliyati, jamoada ishlash qobiliyati, nizolarni aniqlash va hal qilish, boshqalarni tushunish, ijtimoiy mas’uliyat);

faoliyatning muayyan sohalaridagi (til va muloqot, ijodkorlik va dizayn, inson va jamiyat, salomatlik va harakat, tabiat va texnologiya) kompetensiyalar.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim mazmunini deklarativlikdan uzoqlashtirishni bartaraf etish, undagi shaxsga yo‘naltirilgan asosni ajratib ko‘rsatish imkonini

beradigan tinglovchilarning shaxsiy yo‘naltirilgan asosli tizimini shakllantirish ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvga imkon beradi. Ushbu yondashuv ta’limni modernizatsiya qilish yo‘nalishi bilan bog‘liq, chunki “kompetentsiyalar ta’limning shaxsiy va ijtimoiy mazmunini bog‘laydi”. Dunyoning kattalar uchun kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish sohasidagi ta’lim siyosatining dolzarb vazifasi “mehnat bozorida malakali, raqobatbardosh, tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha samarali ishlashga qodir, ijtimoiy va kasbiy jihatdan harakatchan, uzluksiz kasbiy ta’limga va o‘sishga tayyor bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashdir”.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH MASALALARI YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

Abdurazoqova Maxsuda,
Sirdaryo viloyati Guliston tumani 32-umumiy o‘rta ta’lim maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida boshlang‘ich ta’limda olib borilayotgan chora-tadbirlar, o‘quvchilarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish masalalari hamda fanlarni o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar. Interfaol metodlardan namunalar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, tabiatshunoslik, interfaol ta’lim, tabiat, o‘lka, "Qush, hayvon, gul, daraxt, meva, sabzavot" o‘yini.

So‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va madaniyatinig ilg‘or yutuqlarini jamlagan, o‘tmish ajdodlarimiz aql-zakovoti mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma’naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta’lim-tarbiya berish uslublarini shakllartirish muammosi vujudga keldi.

Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillash-tirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" - degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim amaliyoti ko‘rsatishicha, maktab ta’limida fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo‘layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini erkin qo‘llash imkoniyatini beradi.

Umumta’lim maktablarida boshlang‘ich ta’limda mavzularni o‘qitishda interfaol texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilar qobiliyatini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilibgina qolmay balki, ularning rivojlanishlarini amalga oshiruvchi, ularni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil ish yuritishga, o‘ziga va imkoniyatlariga ishonishlariga, yangiliklarni

o‘zlashtirishlariga va yaratuvchanlikka undaydi. Bu jarayonda o‘quvchilar zerikmaydilar.

Boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o‘qitishda o‘quvchilarni

jonli tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi tasavvurni shakllantirish orqali o‘quvchilarda go‘zal diyorimizga xos jonli va jonsiz tabiat, o‘simliklar va hayvonot dunyosi haqida tasavvurlar shakllantirib borish borasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar tahlil etilgan. Bu orqali o‘quvchilarni tabiat bilan tanishtirish, jonli mavjudotlarga qiziqtirish hamda ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni, ularni parvarish qilishda kattalarga yordam berishni o‘rgatishdan iborat.

Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim;

-o‘quvchilarni o‘z o‘lkasini sevishga o‘rgatish,

-tabiat bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish,

-o‘quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish,

-o‘zining , tengdoshlari va kattalarning meqnatini qadrlashga o‘rgatish,

-tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, qayol, tasavvur, nutq, diqqat),

-o‘quvchilarning hissiyotini irodasini rivojlantirish,

- tabiat in’om etgan nematlarni avaylab asrashga o‘rgatish.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan qolda, o‘quvchilarni qar tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali - aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, meqnat, ekologik, iqtisodiy tarbiya berish lozim.

Tabiat bilan tanishtirish davomida o‘qituvchilar rivojlantiruvchi muhit asosida

tajriba ishlarini ham tashkil etish orqali o‘quvchilar bilan tabiat hodisalarini kuzatish, qanday? qanday qilib? nega unaqa? kabi savollarni o‘quvchilar tahlil eta olishiga ko‘maklashadilar.

O‘quvchilarni tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida noan’anaviy ta’limiy o‘yinlardan foydalanish ham mumkin.

“Qush, hayvon, gul, daraxt, meva, sabzavot” o‘yini

Maqsad: Jonivorlar, parrandalar, gullar, sabzovotlarning nomlarini topib aytishga o‘rgatish. Borishi:O‘qituvchi o‘quvchilarga koptokni otadi, "Qush" desa, o‘quvchi-"Bedana" deb javob beradi.

O‘qituvchi "Hayvon" desa, o‘quvchi "bo‘ri", "Gul" desa, o‘quvchi "Atirgul" deb javob beradi, "Daraxt" desa, o‘quvchi "Chinor" deb javob beradi, "Meva" desa, o‘quvchi "Olma" deb javob beradi, "Sabzovot" desa, o‘quvchi "Sabzi" deb javob beradi. O‘yinda barcha o‘quvchilar faol ishtirok etadilar.

"Sevimli jonivorlar" Har bir o‘quvchi, agar iloji topilganda, qanday jonivorga aylanib qolishini hohlashini aytadi. Hayvonning nomi unga xos bo‘lgan harakatlar bilan ko‘rsatiladi.

Darhaqiqat, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish natijasida

pedagogik, psixologik jihatdan ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o‘quvchining

vaqti, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarning oldi olinadi, ta’lim samaradorligi oshadi. O‘quvchilar zarur ko‘nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o‘quv predmetlari mazmunini uyg‘unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.

2. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. - Toshkent, Universitet, 1998

3. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. - Jizzax: 2007.

ПЕДАГОГНИ КАСБИЙ МАҲОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИНИНГ ВАЗИФАЛАРИ

Козим Эшқуватов,

Физика-математика фанлари номзоди, доцент

Халқ таълими ходимларини малакасини оширишда уларнинг касбий билим ва малакаларини замон талабларига мос равишда чуқурлаштириш, мутахассислик бўйича энг сўнгги янгиликлар билан қуроллантириш, педагогик маҳоратини ошириш, ижодкорлик ва интилувчанлик, мустақил мутолага эътиборни кучайтириш, шунингдек, таълим жараёнига замонавий педагогик ва ахборот коммуникация технологияларини жорий этишга асосий эътибор қаратилади.

Марказда тингловчининг тайёргарлиги, эҳтиёжига мос равишда табақалаштирилган, мақсадли, муаллифлик, лойиҳали блоклар асосида ўқув жараёнини ташкил этиш йўлга қўйилган.

Ўқув-мавзу режалар тингловчиларнинг маънавий, касбий, методик тайёргарлигини ҳисобга олган ҳолда педагогик ва психологик эҳтиёжларидан ва ахборот технологиялардан унумли фойдаланиш имконини эътиборга олган ҳолда кафедралар томонидан тузилади.

Ўқув жараёнини ташкил этишда тингловчи фаоллигини ошириш ва тажрибасига суяниш ҳамда индивидуал режа асосида шуғулланишига шароит яратишимиз керак.

Курс машғулотларини кичик гуруҳларда ишлаш, якка ишлаш, катта гуруҳларда мунозара, давра суҳбатлари, дебатлар, ақлий хужум, муаммоли вазиятни вужудга келтириш ва ечим, ролли ўйинлар, компьютер билан мулоқот, ахборот коммуникация технологиялардан самарали фойдаланиш ва интернетда мустақил ишлаш даражасида ташкил этиш керак.

Шунда тингловчи мустақил фикрлашга, ўз устида тинмай ишлашга, манбалардан фойдаланишга ва изланишга ҳаракат қилади.

Тингловчи курс давомида маърузалар, амалий машғулотларда иштирок

этиб, мавжуд камчиликлар ва хатолар устида ишлайди. Янги илмий-методик адабиётлар, электрон дарсликлар, тарқатма материаллар, ўқув қўлланмалари, илмий-методик журналларни ўрганиш асосида касбий маҳоратини такомиллаштириб боради.

Малака ошириб қайтган педагог таълим муассасасидаги фан методбирлашмасига ҳисобот бериши очиқ (намунавий) дарсларни ташкил этиши ва касбдошларининг дарсларини кузатишлари лозим.

Педагогнинг дарс ўтиш услублари, жамоада туман (шаҳар) ва вилоят миқёсидаги фаоллиги, ижодкорлиги ва изланишларида рўй берган ўзгаришларга алоҳида эътибор қаратилиши лозим.

Педагогнинг ўтган дарслари самараси ва жамоа аъзоларининг педагогга нисбатан муносабати ва юз берган ўзгаришлари ҳам эътиборга олинади.

Демак шу тариқа малака ошириш ташкил этилса, ўқитувчида мустақил ишлаш кўникмаси шакллантириб борилса, уларда тинимсиз ўқиш, изланиш, яратувчанлик, бунёдкорлик, янгича қараш ва янгича ишлаш малакаси шаклланади.

МАЛАКА ОШИРИШ КУРСЛАРИДА ИЛҒОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЎҚУВ ЖАРАЁНИГА ТАДБИҚ ЭТИШ ОРҚАЛИ САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШ

А.Эшмуродов,

Сирдарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази доценти, педагогика фанлари номзоди

Таьлим соҳасида фаолият юритаётган илғор олим ва амалиётчилар илмий асосланган ҳамда Ўзбекистоннинг ижтимоий педагогик шароитига мослашган таьлим технологияларини тадбиқ этиш йўлида самарали ишларни амалга оширмоқда. Замонавий педагогик технологияни таьлим жараёнини технологиялаштириш назариясининг шаклланиши узоқ муддатли вакт оралиғида кечди. Қатор мамлакатларда таьлим технологияси ва унинг муаммоларини тадқиқ этишга алоҳида эьтибор қаратилди. Таьлим технологияси муаммоларини тадқиқ этувчи ташкилотлар тузилди, махсус журналлар нашр этилди.

Замонавий педагогик технологияни таьлим жараёнига татбиқ қилиш бўйича қуйидаги тадбирларни амалга ошириш керак бўлади:

- педагогик технологияни жорий этиш ва уларни қўллаш бўйича халқаро тажрибаларни алмашиш тизимини такомиллаштириш;
- малака ошириш тизимида ўқитиладиган барча фанлар ўқув машғулоти ва дарсларининг лойиҳасини ишлаб чиқиш;
- таьлим жараёнига педагогик технологияни жорий этиш бўйича махсус қўлланма ва андозаларни етарли даражада яратиш, мустақил ишларни баҳолашда педагогик технологияни алоҳида баҳолашнинг усулларини ишлаб чиқиш;
- замонавий педагогик технологияни таьлим жараёнига юқори

даражада татбиқ қилишга асос бўладиган техник воситалар, аудитория жиҳозлари, асбоб-ускуналар билан таьминлаш, слайд-презентацияларини ўтказиш мумкин бўлган катта хоналарни мультимедиа мажмуалари билан жиҳозлаш ;

- янгидан-янги вазиятли муаммоларни тингловчиларга тавсия этиш ва уларни ҳал қилишнинг қулай усулларини ўйлаб топиш;
- тарқатма материалларни янги маьлумотлар асосида тўлдириб ва янгилаб бориш;
- лаборатория дарсларида ахборот технологияларини қўллаш бўйича дастурлар тузиш ва уларни тингловчилар томонидан фойдаланилишига эришиш;
- зарур ўқув услубий мажмуаларни тайёрлаш учун кафедраларни етарли оргтехникалар билан таьминлаш ва профессор-ўқитувчиларни компьютер саводҳонлиги билан алоҳида замонавий педагогик технология бўйича малака ошириш ёки қайта тайёрлашни янада такомиллаштириш;
- таьлим технологияси ғояларининг таьлим жараёнига тўлақонли татбиқ этилиши учун минтақавий ички имкониятлларни пухта ўрганиш;
- фанларни ўқитилиши жараёнига илғор технологияларни жорий этиш чораларини белгилаш, зарур шарт-шароитларни яратиш;
- барча турдаги таьлим муассасаларнинг педагог ходимларини қайта тайёрлаш, уларнинг таьлим жараёнида янги педагогик технологиядан фойдаланиш малакаларини ошириш;
- таьлим субьектларининг техникавий саводхонлигига эришиш;
- тезкор ахборот хизматини йўлга қўйиш;
- педагогик жараённинг демократлашув ва инсонпарварлашувига эришиш;
- таҳсил олувчининг индивидуаллашувига алоҳида аҳамият бериш:
- натижаларни таҳлил этиш, умумлаштириш, тавсияларни ишлаб чиқувчи марказни ташкил этиш.

Мазкур муаммоларнинг ижобий ҳал этилиши таьлим-тарбия жараёнларида муайян самарадорликка эришиш билан бир қаторда баркамол шахс ва малакали мутахассисни тарбиялашга имкон беради.

PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISHDA INTEGRATIV O‘QITISHNING AHAMIYATI

Umida Bekmatova,
Sirdaryo pedagogika markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda fanlararo integrasiyaning ahamiyati haqidagi fikrlar misollar yordamida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Integratsiya, kompetentlik,rivojlantiruvchi ta’lim, o‘quv topshiriqlari, fikriy operasiyalar, fotosintez bosim, pedagogik jarayon*

Annotation: *This article highlights the importance of interdisciplinary integration in the development of students' competencies with the help of examples.*
Key words: *Integration, competence, developmental education, educational tasks, intellectual operations, photosynthesis pressure, pedagogical process*
Аннотация: *В данной статье на примерах подчеркивается важность междисциплинарной интеграции в развитии компетенций учащихся.*
Ключевые слова: *интеграция, компетентность, развивающее обучение, учебные задачи, интеллектуальные операции, фотосинтез, педагогический процесс.*

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohatlarning barchasi xalqimizga munosib turmush tarzini shakllantirish, ilm-fanni rivojlantirish masalasi dolzarb boʻlib qolmoqda. Bu borada muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlar koʻp. Ular oʻz maktablarini yaratshi, shogirdlar tarbiyalashi lozim. Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich - maktab ta'limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta'minlash zarur. Bu yoʻlda hech narsani ayamaymaz," deb ta'kidlagan edi.

Ya'ni, sogʻlom avlodni tarbiyalash vazifasi esa, birinchi navbatda, oilada, uzluksiz ta'lim tizimining ilk boʻgʻinlari maktabgacha va maktab ta'limidan boshlanadi. Shunga koʻra, bolalarni jismonan va ruhan sogʻlomlashtirish, bolaning harakat sohasini rivojlantirish, chaqqon, kuchli, jasur boʻlishdek hayotiy ehtiyojlar asosida harakatga boʻlgan qiziqishini kuchaytirishning samarali vositalarini izlab topishda biologiya fanining boshqa fanlar bilan integrativ bogʻliqligini shakllantirish va rivojlantirish muhim hisoblanadi. Integratsiyalashgan ta'lim berish jarayonida oʻquvchilarda tayanch kompetentsiyalardan kommunikativ, axborot bilan ishlash, oʻzini-oʻzi rivojlantirish va matematik savodxonlik kompetentsiyalari shakllanib boradi.

***Biologiyaning matematika fani bilan bogʻliqligi*.**

1-masala. Odam organizmining fizilogik ehtiyojiga koʻra bir kecha-kunduzgi ovqat tarkibidagi yogʻ miqdori 80-110 gramm boʻlishi kerak. Agar 15-16 yoshli oʻquvchining bir kecha-kunduzdagi iste'mol qilgan ovqati tarkibida 95 gramm yogʻ boʻlsa, bu miqdordagi yogʻning toʻliq parchalanishi natijasida qancha kkal va qancha kJ energiya hosil boʻladi?

1gr yogʻ parchalanganda 9,3 kkal , 38,9 kj energiya ajraladi.

Yechish

1) 1------9,3 kkal

95 gr --------x = 95·9,3/1= 883,5 kkal

2) 1--------- 38,9 kj

95---------x =950· 38,9 /1 =3695,5 kj

2-masala. Bir molekula oqsil sinteziga javobgar boʻlgan DNK fragmentidagi guanin va sitozin nukleotidlari orasidagi vodorod bogʻlar soni bilan, adenin va timin oʻrtasidagi vodorod bogʻlari soni yigʻindisi 750 ga, ayirmasi esa 150 ga teng boʻlsa, DNK fragmentidagi jami nukleotidlar sonini aniqlang.

Yechilishi:

1) x + y = 750

x – y = 150

x = 450 G va S

y = 300 A va T

2) 450 : 3 = 150 G va S bitta zanjirda

3) 300 : 2 = 150 ta A va T bitta zanjirda

4) 150 × 2 = 300 ta G va S

5) 150 × 2 = 300 ta A va T

6) 300 + 300=600 ta jami nukleotid

Javob: DNK fragmentidagi jami 600 nukleotid bor. Bunda o‘quvchilarda matematik savodxonlik kompetentsiyalari shakllanadi.

Biologiya fanning kimyo fani bilan bog‘liqligi.

Barcha tirik organizmlar kimyoviy moddalar oqsillar, uglevodlar, lipidlar va nuklein kislotalardan tashkil topgan. Kimyoviy moddalarning sintezlanishi va funktsiyasi hakida ma’lumot berish dikkatga sazovordir. Masalan, Fotosintez natijasida glyukoza hosil bo‘lsa energiya almashunuvida qancha glyukoza sarflanadi?

FOTOSINTEZ.

$6S0_2Q6N_20 \frac{xlorofil}{yorug'lik} {->}$ $-S_6N_{12}O_6QO_2$

ATF sintezi

$S_6N_{12}0_6 \frac{O_2}{} {->}$, $6C0_2Q6H_20Q2800$ kj.

1080 gr glyukoza parchalanganda nechta molekula suv hosil bo‘ladi.

180 g - $6S0_2$

1080 - x bulsa, x q 36 N_20 hosil bo‘ladi.

Bunda o‘quvchilarda kommunikativ va matematik savodxonlik kompetentsiyalari shakllanadi.

Biologiya fanining fizika fani bilan bogliqligi.

Tirik oraganizmlarda fizik jarayonlar xam sodir bulib turadi, bu esa biologiyaning fizika fani bilan integrativ bog‘liqligini ifodalaydi.

Atmosfera bosimi tirik organizmlarga qanday ta’sir qiladi?

Masalan, Baliqlar suv yuzasiga qanday ko‘tariladi? Baliqlar suzgich pufagining asosiy vazifasi suzuvchanlikni ta’minlashdir: u baliq tanasi zichligini suv zichligiga yaqinlashtiradi. Natijada baliq ma’lum chuqurlikda turishi uchun energiya sarflashi shart emas. Baliq suv ostiga tusha boshlaganda suvning bosimi ortishi tufayli pufak ichidagi gazlar siqilib, pufak kichiklashadi, natijada baliq yanada pastga tushadi. Baliq yuqorigako‘tarilganda pufak kengayadi, tanasi zichligining kamayishi tufayli baliq suv yuzasiga chiqadi. Bunda o‘quvchilarda kommunikativ va o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetentsiyalari shakllanadi.

Biologiya fanining geografiya fani bilan bog‘liqligi.

O‘simliklar o‘rganayotganimizda ularning joylashishi va kelib chiqish markazlari haqida ma’lumot beramiz.

O‘zbekistonda o‘sadigan madaniy o‘simliklarning vatani boshqa materik va

davlatlar ekanligi haqida ma’lumot beriladi. Masalan, Virgin archasining vatani Shimoliy Amerika, yeryongoqning vatani Braziliya, oshqovoq, loviya, makkajo‘xori, g‘o‘za, qalampirlarning kelib chiqish markazi Markaziy Amerika, arpaning kelib chiqish markazi Efiopiya, bug‘doy, suli, sabzining kelib chiqish markazi Janubiy-G‘arbiy Osiyo, kartoshka, pomidor, tamakilarning kelib chiqish markazi Janubiy Amerika ekanligi haqida ma’lumot berilganda o‘quvchilar diqqatini jalb qila olamiz.

Bunda o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyalari yanada shakllanib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni hulosa qilib aytish mumkinki, barcha fanlarning integrativ bog‘liqligini hamma davrlarda ta’minlagan holda fanlar taraqqiyoti yuksak daraja bo‘lgan. Fanlarning o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishi esa o‘quvchi yoshlarning intellektual salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga integratsiyalashgan ta’lim o‘quvchilarda tayanch kompetentsiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 06.11.2020 yildagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘grisidagi” PF-6108 sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6 aprel 2018 yil 187-son Qarori. xtxmom.tdpu.uz
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008.-180 b. 2010.-140 b.
4. Tabiiy fanlar [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. B. Sangirova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

HAYOT DAVOMIDA O‘QISH TAMOYILI ASOSIDA PEDAGOGLARNING UZLUKSIZ KASBIY MALAKA OSHIRISH TIZIMINING JORIY ETILISHI TAHLILIY MULOHAZALARI

Zarifa Shukurova,

326-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

E-mail: bbbxurramov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarning pedagog xodimlari malaka oshirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, mazmuni va tashkiliy shakllari bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan. Shu bilan birga bugungi kunda mamlakatimizda o‘qituvchilarning davriylikka asoslangan malaka oshirish tizimidan voz kechib, uzluksiz malaka oshirish tizimi joriy etilganligi borasida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, malaka oshirish tizimi, uzluksiz kasbiy rivojlanish, maktab ta’limi, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi.

Abstract. At the same time, today in our country, having abandoned the

system of periodic teacher training, information is provided on the introduction of a system of lifelong learning.

Key words: Modern education, training system, continuous professional development, school education, teacher's professional training.

Аннотация. В то же время сегодня в нашей стране, отказавшись от системы периодического обучения учителей, приведена информация о внедрении системы непрерывного обучения.

Ключевые слова: Современное образование, система повышения квалификации, непрерывное профессиональное развитие, школьное образование, профессиональная подготовка учителя.

Bugungi kunda jahonda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini nazorat qilishning mexanizmlari ta’lim sifatini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Jamiyat va maktab bugungi kunda ta’limning yangi muammolarini sifatli hal eta oladigan zamonaviy o‘qituvchiga muhtoj. Barkamollik, mas’uliyat, kasbiy faoliyatni jahon standartlari darajasida amalga oshirish qobiliyati va “doimiy kasbiy o‘sishga, ijtimoiy va kasbiy faollikka” tayyor bo‘lish zamonaviy o‘qituvchining o‘ziga xos xususiyatlaridir. Shu munosabat bilan o‘qituvchining uzluksiz malaka oshirishdan keyingi ta’lim tizimining roli va ijtimoiy mavqeini

aniqlash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Bunda ta’lim sohasi rivojlanayotgan barcha mamlakatlarda pedagoglarning davriylikka asoslangan qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatadigan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimiga transformatsiya qilish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, har bir o‘qituvchining kasbiy ehtiyojini o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha yuqori samarali mexanizmning kerakliligi va ushbu mexanizm orqali o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishini belgilashga zarurat paydo bo‘la boshladi. Ushbu mexanizm o‘qituvchining yangi bilimlarni olishdan oldingi bilimini diagnostika qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini joriy etilishi bir qator muammolarga yechim sifatida talqin etildi. Jumladan, pedagoglarning ehtiyojlarini o‘rganish, ehtiyojlariga mos variativ kontentlarni yaratish va malaka oshirish faoliyatini avtomatlashtirish hamda ta’lim oluvchilar uchun bir qator qulayliklarni yaratish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni, 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3931-son qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-sonli Farmoni, 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya

bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4851-son qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4884-son qarori, 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qaror va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Innovatsiyalar, moslashuvchanlik va doimiy o‘zgarishlarga tayyorgarlik mehnat bozorining kuchli raqobatdosh ustunliklari hisoblanadi. Bugungi kunda barcha soha rahbarlari o‘z tashkilotida, o‘z xodimlarini doimiy ravishda ta’lim olishi va yuqori natijalarga erishishi uchun axborot texnologiyalarisiz mumkin emasligini tushunishadi. Bu bir tomonlama jarayon emas: pedagoglar ham tizimli ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga tayyor bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Hayot davomida ta’lim olishning afzalliklari:

- o‘z kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish ish joyidagi shaxsiy samaradorlikni oshiradi;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish ta’limda bo‘layotgan islohotlar va o‘zgarishlar haqida vaqtida xabardor bo‘lishi va kasbiy yuksalishiga yordam beradi;
- o‘z kasbiy ehtiyojlari asosida bilimlarni o‘zlashtirish, pedagogik mahoratini oshirish va psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega;
- hayot davomida ta’lim olish xodimlarga o‘z kasbiy sohalaridagi tendensiyalardan xabardor bo‘lishga yordam beradi, bu esa raqobatbardosh mutaxassis bo‘lish uchun muhimdir.

Jahon Iqtisodiy Forumi - 2020 hisobotida aytilishicha, to‘rt yildan keyin mehnat bozori tanqidiy fikrlash va tahlil qilish, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarga ega bo‘lgan xodimlarga talab yuqori bo‘ladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar bunga qiziquvchanlikni ham qo‘shadilar.

Zamonaviy dunyoda o‘quv dasturlarini kasbiy kompetensiyalarga kengroq e’tibor qaratgan holda tuzish talab etiladi. Bizda fan o‘qituvchilari bor, ammo tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi, o‘zaro samarali munosabatlarni o‘rnatuvchi kreativ fikrlovchi o‘qituvchilar kam. O‘quv dasturlari avvalo bu ko‘nikmalarni an’anaviy fanlar doirasida o‘qitishni singdirishni, so‘ngra bosqichma-bosqich fan mazmunidan o‘quvchilarning malaka va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga o‘tishi kerak.

Hozirda an’anaviy o‘qitish usullarining o‘rnini loyiha va muammoli ta’limga asoslangan yondashuvlar asta-sekin egallay boshladi. Bu “o‘rganishni o‘rgatish” tushunchasini ham o‘z ichiga oladi. Bu haqdagi fikrlar o‘tgan asrning 80-yillaridan beri davom etmoqda, ammo hozir bu shoshilinch ehtiyojga aylandi.

Biz yoshlarga o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini o‘rgatishimiz kerak - buning uchun avvalo maktab o‘qituvchilari ham faol bo‘lishi hamda o‘z ustida muntazam ishalashi kerak bo‘ladi.

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlar malakasini oshirishda tashkil etilgan dastlabki kurslar dasturi tinglovchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuzildi. Bu kurslar zamonaviy pedagog va XXI asrda faoliyat yuritishga qobiliyatli mutaxassisni rivojlantirish maqsadida doimiy takomillashib borishi ko‘zda tutilgan.

2016-yilda Davosda bo‘lib o‘tgan Jahon iqtisodiy forumida (WEB) ma’ruzachilar zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan asosiy ko‘nikmalarni aytib o‘tdilar, ular:

- har bir mutaxassis uchun zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalar -hard skills
- raqamlar orqali baholash qiyin bo‘lgan moslashuvchanlik ko‘nikmalari - soft skillsga ajratadilar.

Xalqaro kasbiy kompetentlik modelida keltirilgan ko‘nikmalarni inobatga olgan holda, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi onlayn malaka oshirish kurslarida:

- Pedagogning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- AKT va media savodxonlik;
- O‘zini-o‘zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari;
- Pedagog mas’uliyati va moslashuvchanligi;
- Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari modullarida soft skills rivojlantirilsa,
- Fandagi yangiliklar, fanni o‘qitishning dolzarb masalalari;
- O‘quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari modullarida esa kasbiy ko‘nikmalarini ya’ni hard skills rivojlantiriladi.

Yaqin yillar ichida tadqiqotchilarimizning yangi avlodi bu soha samaradorligini yanada oshiradi. Oldindan kompetensiyalarni aniqlash va baholashning yangi usullarini ishlab chiqish, yangi vazifalarni izlash, konsepsiyani qo‘llashning yangi

yo‘nalishlarini tatbiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

- “tas-ix”da joylashtirilgani va personal kompyuter bilan birga mobil telefon orqali (Android, iOS) kirish;
- mustaqil onlayn ro‘yxatdan o‘tish va malaka oshirish;
- har bir tinglovchining shaxsiy kabineti;
- malaka oshirishni boshlashdan oldin kasbiy kompetensiyalar bo‘yicha diagnostikadan o‘tish;
- diagnostika natijalariga asosan individual kasbiy rivojlanish traektoriyasining shakllanishi;
- individual traektoriyaga asosan platforma tomonidan ehtiyojga asoslangan kurslarning taklif etilishi;
- har bir kursdagi alohida mavzu bo‘yicha videodars, taqdimot, adabiyotlar mavjudligi;
- har bir mavzudan keyin o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkoniyati (agarda tinglovchi ma’lum mavzuni o‘zlashtirishi past bo‘lsa keyingi mavzular ochilmaydi va qayta o‘zlashtirish imkoniyati beriladi);
- rahbar va mutaxassislar kamida 30 soat (15 kredit), pedagoglar 36 soat

(18 kredit) malaka oshirishdan o‘tgandan keyin malaka oshirganlik to‘g‘risidagi elektron sertifikat;

- har bir tinglovchining natijalaridan kelib chiqib shaxsiy portfoliosi shakllanishi;
- muqobil malaka oshirish shakllaridan foydalanish uchun muayyan kredit to‘plash imkoniyati;
- malaka oshirish davrida turli vebinarlarda cheklanmagan vaqtda cheklanmagan sondagi tinglovchilar ishtirok etishi (bunda tinglovchi onlayn vebinarda ishtirok etmasa vebinarning arxivini ko‘rishi mumkin);
- vebinarlar o‘tkazish paytida turli onlayn so‘rovnomalar o‘tkazish imkoniyati;
- yaratilgan kurslar sifatini baholash (5 balli tizimda);
- tinglovchilar va tyutorlar o‘rtasida o‘zaro muloqot qilish va fayl almashish;
- tinglovchilar tomonidan o‘zlarining mualliflik kurslarini joylashtirish va boshqa tinglovchilarga o‘rtoqlashish;
- malaka oshirish tizimini yanada rivojlantirish va sifat darajasini oshirish maqsadida monitoring tizimi, ya’ni respublika, hudud, maktab direktori, fan metodisti o‘zlarining pedagoglarini bilim va ko‘nikmalarnini monitoring qilish va

kerakli ko‘rsatmalar berish imkoniyati mavjudligi;

- kurs kontentlarini yanada rivojlantirish maqsadida har bir kursda individual so‘rovnoma va baholash tizimining mavjudligi hamda qulayligi xalq ta’limi tizimida “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasida onlayn malaka oshirmoqchi bo‘lgan talabgorlar ko‘paymoqda va yaqin kelajakda bu sohada yanada ko‘proq yutuqlarga erishamiz.

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi innovatsion ish, bu kichik bir qadam, ammo u rivojlanishda davom etadigan butunlay yangi ilmiy yo‘nalishni ochdi. Umid qilamizki, 3-5-yil ichida “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasida onlayn malaka oshirish orqali XXI asr ko‘nikmalarini o‘rgatishning yangi yondashuvlari hozirgilaridan samaraliroq tarzda xalq ta’limi tizimida ijobiy natijalarda aks etadi.

O‘qituvchilar nega malaka oshirishlari kerak?

Rotterdamlik Erazm bundan 500 yil oldin “o‘rganishdagi biinchi qadam o‘qituvchiga bo‘lgan munosabatdan boshlanadi”, “o‘quvchilar yaxshi ko‘rgan ustozlarida yaxshiroq o‘qishadi”, deb yozgan. Zamondoshimiz avstraliyalik professor, “Make Learning Visible” nomli mashhur kitob muallifi Jon Xetti 800 xil xalqaro tadqiqotlar tahlili asosida o‘quvchilarning muvaffaqiyatini na sinfdagi bolalar soni, na sinf xonalarining jihozlanishi, na dars davomiyligi aniqlaydi, uni aniqlovchi asosiy omil o‘qituvchidir degan xulosaga keladi.

O‘qituvchining vazifasi bolada uning hayotiy energiyasi, bilimli bo‘lish, bilimlarini o‘ziga moslashtirish va qo‘llash istagini qo‘llab-quvvatlashdir.

O‘quvchida o‘qish, o‘rganish istagi majburan shakllantirilmaydi, faqat o‘qituvchisining unga bo‘lgan ishonchini his qilganda uyg‘onadi. Yangi bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish faqat shaxsiy misol bilan ifodalanadi va o‘quvchilar

o‘qituvchining o‘zi ularga o‘qitilayotgan fanni yaxshi ko‘rishini shubhasiz his qilishadi.

Malaka oshirish kurslarida o‘qishning bir qancha sabablari bo‘lishi mumkin, ammo ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lamiz:

Ichki sabablar. O‘qituvchi o‘z malakasi darajasidan qoniqmagan va o‘zi o‘qitayotgan fanni o‘quvchilarga yetkazib berishda mahorat va ko‘nikmalar yetishmasligini his qilganida.

Tashqi sabablar. Ko‘pincha maktabda o‘qituvchidan malaka oshirish sertifikati talab qilinadi, shunda u o‘z lavozimini saqlab qolishi yoki lavozimga ko‘tarilishi uchun malaka oshirish kursida o‘qishga keladi.

Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pincha o‘qituvchilar malaka oshirish kurslariga majburan kelishadi, ularga mustaqil ravishda boradiganlar afsuski ko‘p emas.

Dunyo juda tez rivojlanmoqda, shuning uchun zamonaviy insonning eng muhim ko‘nikmalaridan biri bu hayot davomida ta’lim olish qobiliyatidir. Uning asoslari maktabda qo‘yiladi va o‘qituvchi bu nuqtai nazardan bolalar uchun eng muhim namunadir, chunki o‘qituvchi qanday o‘rganishni o‘rgatadi.

Malaka oshirish o‘qituvchining zamonaviy gadjetlardan foydalanish, sinfdagi faoliyatni boshqarish, nizolarni oqilona va adolatli hal qilish mahorati kabi kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bularning barchasini o‘qituvchilar uchun tashkil etiladigan malaka oshirishning an’anaviy, masofaviy, dual shuningdek eng zamonaviy va dolzarb bo‘lgan onlayn shakllarida o‘rganish imkoniyatiga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagogning o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishi, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha malakasini doimiy oshirib, jahon tajribasi va ilm-fan yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor bo‘lib borishida bugungi kunda jahon ta’lim sohasida keng muvaffaqiyat bilan faoliyat ko‘rsatib kelayotgan onlayn ta’lim olish tizimi yordamga keladi. Ana shu omillarni hisobga olgan holda, respublikamizning xalq ta’limi tizimida ham onlayn ta’limni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu ishda jahon tajribasi albatta qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017 yil 7 fevral) Farmoni // http://lex.uz/paGES/getpage.
2. O‘ktam Umurzoqov, Ta’lim tizimi islohotlari O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratadi. https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi
3. Аймукатов А.Т., Үескалиева С.Б, Система повышения квалификации педагогов: от традиции к инновациям./ Актобе, 2019./ https://anyflip.com/frooq/tdlq/basic
4. King M.B. and Newman F.M. (2001) Building school capacity through professional development: conceptual and empirical considerations. International Journal of Educational Management, 15(2)p87-93.
5. A.Radjiev, F.Karimov va boshqalar “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus

elektron platformasi xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimi, Toshkent-2021.
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2017 й., 09/18/1026/0497-сон (http://lex.uz/docs/3481190?ONDATE=29.12.2017%2000)
7. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.01.2022 yildagi 25-son (https://lex.uz/uz/docs/-5828765)

MALAKA OSHIRISH TA'LIM JARAYONIDA MUAMMOLI TA'LIM METODIDAN FOYDALANISH

Aliyeva Ravshanoy Zaripovna, Rasulova Zamira Sirojiddinovna,
Namangan viloyat PYAMOʻMM Maktabgacha, boshlangʻich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi oʻqituvchilari

Annotasiya: Mazkur maqolada malaka oshirish tahlim jarayonida muammoli tahlim metodini qoʻllash orqali pedagog-tarbiyachi faoliyat samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan

Kalit soʻzlar: muammoli tahlim, tinglovchi, vaziyat, yechim, izlanuvchanlik, tadqiqotchilik

Annotasiya: В данной статье рассмотрены вопросы повышения эффективности деятельности педагога-воспитателя за счет использования проблемного метода обучения в учебном процессе

Ключевые слова: проблемное обучение, слушатель, ситуация, решение,
любознательность, исследование

Abstract: This article describes the issues of increasing the effectiveness of the pedagogue-educator by using the problem-based learning method in the training process.

Key words: problem-based learning, listener, situation, solution, inquiry, research

Mamlakatimizda maktabgacha talim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlar asosida maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini amaliyotga joriy etgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan tajribali, yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilishga alohida e`tabor qaratilmoqda.

Malaka oshirish ta'limi jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy

etish, kattalar ta'limini tashkil etishda katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning alohida xususiyatlari, kasbiy tayyorgarligi darajasi va amaliy tajribalarini inobatga olinishi ta'lim sifatini natijadorligini belgilaydi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi ta'lim jarayonida eng samarali o'qitish usullaridan biri hisoblanadi. O'quv axborotining mummmoli qo'yilishi natijasida tinglovchilarning ta'limga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantiradi. S.L.Rubinshteyn "... fikrlash jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatuvchi omil o'rganilayotgan o'quv materialining muammoli qo'yilishi" degan g'oyani ilgari suradi. Bu tamoyil keyingi vaqtlarda o'quv dasturlari, darsliklarni yaratishda o'z aksini topmoqda. [1]

Muammoli o'qitish texnologiyasining asosini muammoli vaziyat tashkil qiladi. Pedagog tinglovchilar e'tiborini tahlil qilinishi kutilayotgan o'quv muammosiga qaratadiki, tinglovchilar uning yechimini topishda faol ishtirok qiladilar. Tinglovchilarning muammoli izlanuvchanlik faoliyatini to'g'ri tashkil qilish masalaning muhim jihati hisoblanadi. Pedagog uchun muammo hisoblanayotgan masala haqiqiy ma'noda tinglovchi uchun ham muammo bo'lishi lozim. Aks holda tinglovchi yechimini kutayotgan masalani shunchaki o'quv topshirig'i darajasida qabul qilishi mumkin. Eng muhimi tinglovchilarda o'quv muammosi, uning mohiyati, amaliy ahamiyati va mutaxassisning kasbiy mahoratini shakllanishidagi o'rni kabi masalalar haqida aniq tushunchalarini uyg'otish va izlanuvchanlik faoliyatiga nisbatan motvatsiyani yuzaga keltirish lozim.

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda pedagog uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funktsiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. Pedagog hech qachon tinglovchilarga tayyor haqiqatni (yechimini) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni yangilashga t urtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Bu metodda o'qitish jarayoni muammoli holatini yaratish, muammoli masalani ifodalash, uni yechish farazini ilgari surish, muammo yechimini izlash, yechimning to'g'riligini tekshirish hamda xulosalarni shakllantirish bo'yicha ketma-ketlikdagi harakatlar sifatida qo'riladi.[1]

Muammoli o'qitishda pedagog tinglovchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina tinglovchilar tahlillar asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, qo'lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi. Ayrim hollarda pedagog tinglovchilarda nafakat qiziqish uyg'otishi kerak, balki o'quv muammosini o'zi hal qilib qo'ymasligi va boshqa hollarda tinglovchilarning o'quv muammosini yechishdagi mustaqil ishlariga rahbarlik qilish lozim, natijada tinglovchilarda izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanadi hamda bilimlarni bir muammodan boshqa ko'chirish ko'nikmasini hosil qiladilar.[2]

O'quv materialining muammolilik jihatining tinglovchilar tomonidan to'la anglab yetilishiga e'tibor qaratiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilish orqali muammoning yechimida har bir tinglovchining faol ishtirokini ta'minlanadi. Tinglovchi nafaqat muammoning yechimida ishtirok qiladi,

balki uni amaliy faoliyatidagi tadbiqi bo‘yicha ma’lum xulosalarga keladi. Muammoli ta’lim metodini qo‘llash orqali tinglovchilarning pedagogik tafakkuri kengayib, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini ortishiga, muayyan muammoni hal etish uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini yangilanib chuqurlashtirilishiga olib keladi.

Malaka oshirish tizimida qo‘llaniladigan interfaol metodlar orqali tarbiyachi-pedagog ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarini maktab ta’limiga tayyorlashda muammolar yechimini turli yo‘llar orqali topishiga yo‘naltirish orqali ularda izlanuvchanlik, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish malakalariga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyaning tadbiqiy asoslari/O‘quv qo‘llanma.- Toshkent. “Fan” nashriyoti, 2006 .-79-90 betlar

2.Кларин М. В. Педагогическая технология в учебном процессе.–М.: Знание, 1989

BOSHLANG‘ICH SINF TABIIY FANLAR DARSLARIDA KOLLABORATSIYA – JAMOA BO‘LIB ISHLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna,

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslari jarayonida kollaboratsiya-jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatlarini shakllantirishda “Katta guruhda muhokama”, “Akvarium”, “Galereya bo‘ylab sayohat” kabi interfaol metodlarni qo‘llash usullari va namunalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kollaboratsiya, jamoa, “Katta guruhda muhokama”, “Akvarium”, “Galereya bo‘ylab sayohat”, interfaol metodlar.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug‘i asosida pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ‘ib qilishni rivojlantirishda o‘quvchilarni “Kollaboratsiya” (jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish)ga yo‘naltirilgan holda ish jarayonini tashkil etish asosiy omillardan biridir.

Jamoa bilan ishlash bu loyihani amalga oshirish uchun bir guruh odamlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari. Jamoa ishi umumiy maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan 2 yoki undan ortiq odamni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Har bir a’lo ishning bir qismini bajarish uchun o‘z hissasini qo‘shishi kerak. Hozirgi kunda bu turli xil qarashlarni keltirib chiqaradigan va iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda yuzaga keladigan nizolarni yanada samarali hal etishga xizmat qiladigan samarali ishlash usuli.

Jamoa bilan ishlashning xususiyatlari. Jamoada ishlash loyihani yoki

maqsadni amalga oshirish uchun turli xil shaxslarni birlashtirishni oʻz ichiga oladi. Shu ma'noda, jamoaviy ish guruhning barcha a'zolarining harakatidir. Jamoaviy ish yoqimli va samarali boʻlishi uchun ishchi guruhlar guruh dinamikasiga toʻsqinlik qiladigan xususiyatlarni bekor qilishga yordam beradigan ba'zi fikrlarni hisobga olishlari kerak. Jamoada ishlash - bu loyihalarni amalga oshirish yoki aniq maqsadlarga erishish usuli. Shu ma'noda, maqsadlarning ta'rifi, har qanday loyihada boʻlgani kabi, ishchi guruhni tashkil etadigan barcha a'zolari tomonidan oldindan ma'lum boʻlishi kerak. Jamoada ishlashni boshlashda vazifalarning taqsimotini aniq belgilash tavsiya etiladi. Uyga vazifalar odatda birgalikda bajariladi. Loyiha maqsadlarini taqdim etish paytida a'zolarning har biri oʻzlarining samaradorligini oshirishi yoki yaxshiroq hissa qoʻshishi mumkin boʻlgan sohalarni bilishi mumkin. Loyihada bir nechta mas'ul odamlar boʻlganida, har bir a'zoning ritmini muvofiqlashtirish uchun loyihani vaqtni boshqarish kerak. Jadvalda bu funktsiya mavjud. Shu tarzda, vazifalar bir necha qismga boʻlinishiga qaramay, muddatlar qismlarni birlashtirishga va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolar yoki gʻoyalarni muhokama qilishga imkon beradi.

Jamoada ishlashda aloqa kanallari va shakllari yaxshi oʻrnatilgan boʻlishi kerak. Muloqot tezkor boʻlishi va boshqalarning ishiga toʻsqinlik qilmasligi uchun ma'lum ma'lumotlarning yoʻnalishi ham muhimdir.

Barcha guruh dinamikasi oʻzining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Umuman aytganda, bu ijodkorlikni rivojlantiradi, tabiiy ravishda ragʻbatlantiradi, guruh a'zolari oʻrtasida funktsiyalarni markazsizlashtiradi, tajriba va bilimlarni erkin almashadi, har bir a'zoning vaqtini va bilimini optimallashtiradi.

Xuddi shu tarzda, jamoaviy ishning kamchiliklari mavjud: jamoa a'zolari orasidagi chalgʻitish, a'zolar oʻrtasidagi ziddiyatlar, qiyin shaxslar yoki vazifalarni adolatsiz taqsimlash. Jamoa bilan ishlashning muhim jihati shundaki, loyiha uchun barcha a'zolar javobgardir. A'zolar oʻrtasida yaxshi darajadagi muvofiqlashtirish, uygʻunlik, birdamlik, tushunish va yaxshi munosabatlar mavjud.

Quyida kollaboratsiya jarayonini tashkil etishga yoʻnaltirilgan interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

Katta guruhda muhokama-bunda butun guruh muayyan mavzuga doir boʻlgan gʻoyalar yoki hodisalarni muhokama qilinadi. Muhokama rejalshtirilgan yoki uyushtirilgan mavzular atrofida oʻtkaziladi.

"Katta guruhda muhokama" metodi asosida 3-sinfda "Tabiatni qanday oʻrganamiz?" mavzusini oʻtishda "Sizningcha tabiat nima?" soʻrogʻiga javob berish asosida katta guruhda muhokama qilinib, har bir ishtirokchining fikri eshitiladi va umumiy xulosa chiqariladi.

"Akvarium" metodi - bu "guruh ichida guruh" tarzida tashkil etiladi, ya'ni sinf ikki guruhga birlashtiriladi davraga bir guruh vakillari taklif etilib, berilgan savollarga javoblarini aytadilar. Ikkinchi guruh esa birinchi guruh a'zolarining ma'lumotlarini eshitadilar, ular yakunlagach, yuqoridagi savol boʻyicha qolgan joylarini toʻldiradilar. Ikkala guruh bir-birlarining taqdimotlarini nazorat qilishlari soʻraladi.

"Akvarium" metodi - 3-sinfda "Ob-havo" bobi yuzasidan takrorlash

darsida sinf ikki guruhga birlashtirilib, 1-guruh mavzuga fikrlarni bildiradilar, 2-guruh esa

1-guruhning fikrlarini takrorlamay, yangiliklar bilan to‘ldirishlari lozim.

Ikki guruh bir-birlarini taqdimotlarini nazorat qilishlari so‘raladi.

“Galereya bo‘ylab sayohat” metodi asosida har bir guruhga kichik ”galereya“ tashkilqilinadi, ya’ni sinfning 4 joyi mo‘ljallanib, filipchatka qog‘ozlar yopishtiriladi. Har bir guruh berilgan topshiriq asosida vazifa bajaradilar va qarsakdan so‘ng, joylar almashilib, oxirida o‘z galereyalariga keladilar va berilgan versiyalarni qabul qilish , qilmaslik guruh ixtiyorida bo‘ladi.

Masalan: 3-sinf “Hayvonlarning xilma-xilligi” mavzusi asosida hayvon turlarini yozishlari so‘raladi. Metod talabiga ko‘ra ketma-ketlikda bajarilgandan

so‘ng taqdimot o‘tkazilib, guruhlar xulosalari tinglanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kollaboratsiya – jamoa bo‘lib ishlashga yo‘naltirilgan metodlar asosida guruhda faol ishlash, chaqqonlik, musobaqada zafar quchish ishtiyoqi va bir-birini hurmat qilish, tinglay olish kabi xususiyatlarni tarbiyalash imkoniga egamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
3. K. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar: 1-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
4. K. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
5. Z. B. Sangirova [va boshq.]. Tabiiy fanlar 3-sinfi uchun darslik – Toshkent, Respublika ta’lim markazi, 2022

MAKTABGACHA TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Niyozova Gulnoza Baxtiyor qizi,
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta’lim muhitiga integrallashishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o‘zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Axborot texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda.

Barkamol avlod ta’lim-tarbiyasida turli texnologiyalarni, jumladan, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning birinchi turi bo‘libgina qolmay, balki ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi birinchi pog‘ona hamdir. Bola faoliyatining 80 foizini turli o‘yinlar, jumladan, didaktik

o‘yinlar tashkil etadi [1].

O‘yin orqali bolalarda mashg‘ulotlar jarayonida muvaffaqiyatli bilim olishi, intelektual qobiliyatlari rivojlantiriladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun, yosh avlodning raqamli texnologiyalardan foydalanish savodxonligini shakllantirish maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida “Ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innova-tsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish”, 46-moddasida esa pedagog xodimlarning majburiyatlari sifatida “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi” [2] -lozimligi ta’kidlangan.

Yuqorida bayon qilingan dalillardan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim tizimiga ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanish, multimedia texnologiyasini joriy etish, tarbiyalanuvchilarni kompyuter bilan elementar tarzda foydalanishga o‘rgatish va maktab ta’limiga kompyuter savodi bilan tayyorlash, kompyuterni o‘yin vositasida emas, balki ta’lim berish vositasi sifatida foydalanish hamda kompyuter o‘yinlarida multimediani tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalardan mashg‘ulot jarayonida foydalanish natijasida quyidagi asosiy didaktik funktsiyalarni bajaradi:

- multimedia texnologiyasini qo‘llash evaziga intellektual qobiliyatlari rivojlanadi;
- ta’limning interfaolligi tufayli bolalarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va mashg‘ulotlarni o‘zlashtirilishining samaradorligi oshadi;
- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini berishi bilan muhim hisoblanadi;
- mashg‘ulotlarni o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki bolalar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi;

MTMlarda kompyuterli ta’limning eng qulay va samarali varianti - multimedia texnologiyasiga asoslangan kompyuterli ta’limdir.

Bola miyasiga bunday “multimediali hujum” natijasida ta’lim samaradorligi ortadi, jumladan, S.S.G‘ulomov va boshqalarning ta’kidlashicha, “O‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30%ga oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75%ga ortadi”.

Raqamli texnologiyalar sharoitida kompyuterli ta’limiy o‘yinlar asosan bolalarga ta’lim berish, o‘rganilgan materialni takrorlash va mustahkamlashga qaratilgan.

Shuningdek, ular o‘rganiladigan materialga qiziqish o‘yg‘otish va uni bilishga intilish, havas qilish vazifalarini ham bajaradi.

Kompyuterli ta'limiy o'yinlarga quyidagilar kiradi: "Uy yasash", "Sonini top", "O'rta bo'ylisini aniqla", "So'z yasash", "Alifboni o'rganamiz", "Katakni to'ldir", "Ekologik o'yin" va hokazolar.

Ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan raqamli texnologiyalar odatdagi an'anaviy metodlarga nisbatan ma'lum bir afzalliklarga ega. Jumladan:

- tarbiyalanuvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stiradi;
- tarbiyalanuvchi bir vaqtning o'zida ham ko'radi, ham eshitadi (miyaning o'ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko'rsatadi);
- an'anaviy usullarga nisbatan ta'lim oluvchilarga o'rgatiladigan materialning hajmi ortadi;
- mashg'ulot davomida ta'lim oluvchilarni toliqtirmaslik uchun didaktik materiallarni animatsiyalar orqali uzatish imkoniyati mavjud;
- o'rganilayotgan materiallarni kichik qismlarga ajratgan holda namoyish etish yoki qayta namoyish etish mumkin.

Mashg'ulotlar jarayonida multimediali didaktik vositalardan foydalanishda tahlil, dialog, analogiya, savol-javob metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud. Bu esa hozirgi davr talabi hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishda elektron darsliklar, taqdimotlardan foydalanish samarali natija beradi. Shular qatorida, Internet ashyolaridan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqligi ko'rsatildi.

2. Multimedia vositalari psixologik jihatdan bolalarning faollashuvi, diqqatining barqarorlashishi, bola miyasining ikkala yarim sharining bir vaqtda ishlashi, o'rganiladigan materialga qiziqishlari va ishtiyoqining ortishi kabi psixologik jihatlarini tashkil etadi. Kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlari yangicha texnologik yondashuvda asoslab berildi.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish yo'llari yoritib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrdagi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'RQ-595-son.
3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011. -257 b.
4. Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayoniga multimediaga asoslangan kompyuter o'yinlarini qo'llash // Zamonaviy

ta'lim 2023, 3(112), 59-67 b.
5. Toshtemirov D.E., Jonibekov Sh. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati // "Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagogika va psixologiyaning muamolari va istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, Guliston-2022-yil 6-7-may, 69-70 b.

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI QO'LLASH MAHORATI

*D.N.Taylakova***,**

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedra mudiri

Annatasiya: Maqolada ta'lim jarayonida pedagogik kompetensiyalar ularni turlari, qo'llash mahoratlari va amaldagi natijalari ochib berilgan. Pedagogik kompetentlik yuqori darajada mavjud bo'lsa, kelgusida o'quvchilarning yuqori salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga yordam berishi xususida batafsil to'xtalgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagog, kompetensiya, innovatsiya, informatsiya, eksprementalm, texnologiya, kreativ, kommunikativ

Dunyo ta'lim tizimida ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, loyihalar olib borilmoqda, ayniqsa pedagogik kasbiy tayyorgarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda ham pedagogik kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ta'lim muassasalarida zamonaviy moddiy texnik baza yaratilgan hamda innovatsion ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan.

O'z ertangi kelajagiga befarq bo'lmagan, yorug' va farovon kunlarini uning egalari bo'lmish yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'limtarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda:

● birinchidan, hududiy rivojlanish istiqbolaridan kelib chiqib, kasb yo'nalishlarini belgilash va joriy etish amalga oshirildi;

● ikkinchidan, ta'lim muassasalarining kasbiy yo'nalishlari loyihalashtirildi;

● uchinchidan, ta'limning moddiy-texnikaviy bazasi mustahkamlandi;

● to'rtinchidan, ta'lim muassasalari yuqori malakali pedagog va muxandis-pedagog xodimlar bilan ta'minlandi;

● beshinchidan, ta'lim muassasalari faoliyatini yuritishda davlat byudjet va homiylik mablag'laridan samarali foydalanildi;

● oltinchidan, ta'lim muassasalari va mehnat bozori o'rtasida uzviylikni ta'minlash ishchi kuchi talab va taklifi muvofiqlashtirildi.

Pedagogika sohasidagi o'qituvchilarni intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatlari va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini

oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar

natijasida kirib kelgan. Vazirlar Maqkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’rif berilgan.

Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda kompetentlik bu insoninng mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma’lum bir muammoni hal etishga doir iqtidori degan xulosaga kelish mumkin.

Ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi muhim komponentlardan biri – o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeyer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integratsiyalashib borishini va

ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatadi.

Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o‘ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to‘liq izohlanishiga imkon beradi. Kasbiy kompetentlikda mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi nazarda tutiladi. Bu tushuncha bo‘yicha turlicha ta’rif va yondashuvlar mavjud. N.M.Muslimovning fikriga ko‘ra, “kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoèn eta olishni ifodalaydi. V.I.Andreyevning fikricha, kompetensiya ma’lum o‘quv, kasbiy va boshqa majmuaviy masalalarni hal qilishda namoyon bo‘luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko‘rsatkichlar bo‘lib, u shaxsning ijobiy motivatsiya, bilim, mahorat, iqtidor va ijodiy faoliyat tajribasini o‘z ichiga oluvchi tayyorgarlik darajasidir. N.V.Tarasova kompetensiya tushunchasini muammoni hal

etishga qaratilgan bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasida aloqadorlikni ta’minlash imkonini beruvchi bilim, qadriyatlar va idrokka asoslangan umumiy qobiliyat sifatida talqin etadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlarda, noaniq vazifalarni bajarishda, bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda, kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda va boshqa shu kabi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Kasbiy-pedagogik kompetentlik esa o‘zining kasbiy mahoratini mukammal rivojlantirgan, dars jarayonini samarali loyihalashtiradigan, uni boshqara oladigan, ta’lim islohotlarini, zamon talablarini, innovatsion paradigmalarni ilg‘agan holda ularni dars jarayonida muvafaqqiyatli qo‘llay oladigan mutaxassislarga nisbatan bildiriladi.

Aytib o‘tish kerakki, pedagogik kasbiy kompetentlik negizida bir qator sifatlar mavjud bo‘lib, ularning mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy-pedagogik faoliyatda subektlar bilan kommunikativ muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashdir. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonida sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta’lim oluvchilar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;
- uslubiy kompetentlik – pedagogik jarayonni uslubiy jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, usul va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, ularni samarali qo‘llay olish;
- informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan tezkor, maqsadli va samarali foydalanish;
- kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish, muammolarga nisbatan keng qamrovli turli hil yechimlarni topa olish;
- innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliètga muvaffaqiyatli tatbiq etish;
- kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.
- shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka

darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoèn qilish;
- texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

- ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik va hokazo. - maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);

- shaxsiy kompetentlik (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoèn etish);

- ijtimoiy kompetentlik (qo‘shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish);

-individual kompetentlik (o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish)

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan individual rivojlantirish dasturlarida pedagogik bilim, malaka va shaxsiy sifatlarining ayni paytdagi mavjud darajasi va bu kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan istiqbol vazifalar keltirilib o‘tilgan bo‘lishi tavsiya etiladi. Bu o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy jihatdan rivojlanish dinamikasini turli darajalarda doimiy monitoring qilib borishda samarali faoliyat maxsuli bo‘lib, buning natijasida pedagog kasbiy kompetentligiga katta e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan kompetentlik qismlari yaqqol ko‘rinadi va bu uni rivojlantirishga turtki beradi. Kasbiy pedagogik kompetentligi yuqori ta’lim beruvchi tomonidan olib boriladigan o‘quv-tarbiya jarayonlarida har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo ta’lim oluvchi yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish o‘quvchilarning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi, zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash kelgusida intellektual salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187- sonli qarori, 2017 yil 6 aprel.

2. Zeyer E.F., Shaxmatova N. Lichnostyu oriyentirovanniye texnologii pofessionalnogo razvitiya spetsialista. – Yekaterinburg, 1999.

3. R.Ishmuhamedov, M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 60 bet.

4. Muslimov N.M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.

5. Andreyev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya: Innovatsionniy kurs. Kn. 1. -Kazan: Izd-vo Kazan, un-ta, 1996. - 570 s.

6. Tarasova N.V. Strategiya realizatsii kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii: istoriko – pedagogicheskiy aspekt – M.: FIRO, 2007. – 52 s.

TARIXIY XARITALAR VA ILLYUSTRATSIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

U.A.Qlichev,
Sirdaryo pedagogika markazu Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola tarixiy xaritalar bilan ishlashda o‘quvchilarni tarix faniga doir bilimlarini yanada rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratiladi.

Tarixiy xarita bilan ishlash geografik muhitga xarakteristika berishning asosiy metodini tashkil etadi. Tarixiy xaritalarda mavzu va voqea-hodisalar, jarayonlarning mazmuni, davlatning chegaralari va boshqalar beriladi. Tarixiy kartalarning bir necha turlari bor: *tarixiy iqtisodiy, tarixiy etnografik, arxeologik, tarixiy-siyosiy, harbiy-tarixiy, tarixiy-madaniy.*

O‘quv tarixiy xaritalari esa ta’limda foydalaniladi. Xaritalar hech qachon eskirmaydi. Eskirganlari ham o‘z qadrini yo‘qotmaydi, aksincha dolzarbligi yanada oshadi. Ammo o‘sha davr tarixiga arxeologik izlanishlar yoki boshqa yozma manbalarning topilishi bilan yangi o‘zgarishlar kiritilishi mumkin bo‘lsada, baribir o‘tgan davr tarixshunosligi haqida ham ma’lumot berish vazifasini o‘taydi. Ularga qarab tanqidiy fikrni rivojlantirish ham mumkin.

6 - sinfda o‘quvchilarga geografik muhit bilan odamlarning mashg‘uloti o‘rtasidagi aloqani ochib berish, xalqlarning tarixiy rivojlanishiga geografik muhitning ta’sirini ko‘rsatish uchun katta imkoniyat bor.

Xarita yordamida biror mamlakatning tarixiy taraqqiyotida bosib o‘tgan turli bosqichlardagi ahvolini aniq tasvirlab berish, o‘quvchilarda birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi haqida aniq tasavvur yaratishga, ikkinchidan, inson ajdodlari mehnatining bunyodkorlik kuchini puxta tushunib, anglab olishlariga yordam beradi. Binobarin, xarita bilan ishlash juda katta ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Darsda xaritadan foydalanib tarixiy voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘rsatish, o‘quvchilarda geografik muhitning roli haqida tasavvur yaratish uchungina emas, balki tarixiy voqealarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini, o‘zaro aloqalari va sabab-natijalarni ochib berishda ham muhim rol o‘ynaydi. Xaritadan tarixiy voqeani tushuntirib berishdagina emas, balki uni tahlil qilishda va umumlashtirishda ham foydalaniladi.

Xarita yordamida tarixiy voqealarning sabab-aloqalari ochib beriladi. Masalan, Amir Temur saltanatining yuksalishi sabablari ochib beriladi. Xarita darsning boshida o‘rganilgan materialni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy taraqqiyot rivojlanishining qonuniyatlarini ochib berishga yordam ko‘rsatadi.

Tarixiy xarita o‘quv materialini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi voqea bo‘lib o‘tgan joyini devorga osilgan xaritadan ko‘rsatgan vaqtda o‘quvchilarning o‘sha joyni o‘z xaritasi yoki atlasidan izlab topishi, o‘qituvchi rahbarligida xaritaning tahlil qilinishi, o‘quvchilarning o‘z daftarlaridagi eskizlar va darslikdagi xaritalar ustida uyda mustaqil ishlashi, navbatdagi darsda berilgan

savollarga xaritadan foydalanib javob berishi oʻquv materialining puxta oʻzlashtirilishi va uzoq vaqt esda saqlanishiga yordam beradi.

Tarix oʻqitish tajribasida tarixiy xaritalarning uch turidan foydalaniladi:

1. Umumiy xaritalar. Ular bir mamlakat yoki bir guruh mamlakatlardagi tarixiy voqealarni, ularning mavqeini, tarixiy taraqqiyotning maʼlum bosqichidagi ahvolni aks ettiradi.

2. Obzor xaritalar. Oʻrganiladigan voqealar rivojlanishining izchilligini uzoq davr mobaynida hududning oʻzgarganligini aks ettiradi.

3. Mavzuga doir xaritalar. Maʼlum tarixiy voqealarga yoki tarixiy jarayonning ayrim tomonlariga bagʻishlanadi. Masalan, Muqanna qoʻzgʻoloni.

Mavzuga doir xaritalarda ijtimoiy hayotga doir masalalar, chunonchi iqtisodiy masalaga, harakatlarga, mustaqillik uchun milliy ozodlik kurashlari yoki harbiy oʻtmishga doir masalalar toʻlaroq yoritiladi. Darslik va atlasdagi xaritalarning koʻpchiligi tematik xaritalardir. Oʻqituvchi bosma yoki qoʻlda tayyorlangan osma tematik xaritalardan ham foydalanadi.

Sxematik xaritalar yoki xarita-sxemalar ham tematik xaritalarning bir turidir.

Tarix darslarida oʻquvchilarni mamlakatimizning tabiiy sharoiti va iqtisodiyotining rivojlanish tarixi bilan chuqurroq tanishtirish maqsadida tabiiy va iqtisodiy geografik xaritalardan ham foydalaniladi.

Birorta ham darsni xaritasiz tasavvur etish qiyin. Xarita tarix darsining eng zaruriy qoʻllanmasi boʻlib hisoblanadi. Xarita avvalo oʻrganiladigan mavzuga mos boʻlishi lozim. Oʻqituvchi voqealar rivoji davomini bayoni jarayonida xaritadan koʻrsatib borishi, ayni vaqtda oʻquvchilar oʻqituvchi koʻrsatadigan joyni qoʻllaridagi xarita yoki atlasdagi xaritadan izlab topishlari lozim.

Har bir yangi xarita oʻrgana boshlanganda unga qisqacha obzor berish, uni oʻrganilgan eski xarita bilan solishtirib, oʻquvchilarni yangi xaritadagi oʻzgarishlar bilan tanishtirish, ularning tarixiy taraqqiyotning izchilligi va har bir bosqichning oʻziga xos muhim xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. Oʻquvchilar ikki xaritani solishtirib mamlakat hududi toraygan yoki kengayganini, shaharlarning oʻsganligi va boshqa oʻzgarishlar yuz berganligini aniq tushunib oladilar.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, oʻqituvchi xarita yuzasidan savollar va topshiriqlar berish yoʻli bilan oʻquvchilarni 5-6-sinfdan boshlab xarita ustida ishlashga oʻrgatib boradi. Oʻquvchilarni xaritani oʻqib tushunishga, ulardan tarixiy bilimlar manbai sifatida foydalana bilishga oʻrgatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi. T., 2012.

2. Raxmatullayeva A.R., Ismatullayev F.O., Berdiev S.R., Narziev N.N. Tarix fanini oʻqitish metodikasi.// Oʻquv-uslubiy majmua. T., 2017.

3. Sobirov A. Vatan va millat tarixi manbai. “Yangi Oʻzbekiston”, 2020-yil 9-oktabr, 193-son.

4. Toshpoʻlatov T., Gafurov Ya. Tarix oʻqitish metodikasi. T., 2010.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGLARDA AXBOROT KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich,
Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi, e-mail: khamidullo.khamrakulov@mail.ru

Maqolada malaka oshirish jarayonida pedagoglarda axborot kompetentligini shakllantirishning hozirgi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, unda pedagoglarda axborot kompetentligini rivojlantirish yo‘llari bayon qilingan.
Kalit so‘zlar: axborot, axborot kompetentligi, axborot-ta’lim muhiti, jarayon, kasbiy sifat, kompetensiya, malaka oshirish, pedagog, qobiliyat, texnologiya, uzluksiz kasbiy rivojlantirish.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Хамракулов Хамидулло Тургунбоевич,
Старщий преподаватель национального центра обучения педагогов новым методикам Ферганской области,
e-mail: khamidullo.khamrakulov@mail.ru

В статье обсуждается актуальность формирования информационной компетентности педагогов в процессе повышения квалификации. Также описаны способы развития информационной компетентности у педагогов.
Ключевые слова: информация, информационная компетентность, информационно-образовательная среда, процесс, профессиональное качество, компетенция, повышение квалификации, педагог, способность, технология, непрерывное профессиональное развитие.

WAYS OF DEVELOPING INFORMATION COMPETENCE OF TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Khamrakulov Khamidullo,
Senior teacher of the National center for training pedagogues for new methods of the Fergana region, e-mail: khamidullo.khamrakulov@mail.ru

The article discusses the relevance of the formation of information competence of teachers in the process of professional development. The ways of developing information competence among teachers are also described.
Key words: information, information competence, information and educational environment, process, professional quality, competence, advanced training, teacher, ability, technology, continuous professional development.

Ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda pedagoglarning

kasbiy tayyorgarligi, ya’ni ularning professionalligi, ta’lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlashda kompetentli bo‘lishi, jumladan axborot kompetentligiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari muntazam

ravishda o‘zining kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirib borishi, fan-texnika yutuqlarini, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirib borishi uchun ta’lim tashkilotlarida zaruriy shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Hozirgi kunda ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish yo‘nalishidagi zamonaviy talablar pedagoglarning o‘z bilimlari, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borishini taqozo etmoqda. Bu o‘z navbatida, ta’lim tashkilotlarida pedagoglar malakasini uzluksiz ravishda oshirib borishga, pedagoglarning axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishni nazarda tutadi.

Barchamizga ayonki, axborot kompetentligi pedagogning kasbiy sifatlaridan biri bo‘lib, uning axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalana olish qobiliyatini ifoda etadi. Mazkur kompetentlik o‘zida bilimlarni izchil boyitib borish, yangi axborotlarni o‘zlashtirib borish, yangi bilimlarni izlab topish, ularni qayta ishlah va amaliy faoliyatda samarali foydalanishni aks ettirib, murakkab jarayonlarda, pedagogning ma’lumotlardan o‘rinli foydalanishida, noaniq vazifalarni bajara olishida, kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishida namoyon bo‘ladi.

Axborot kompetentligini pedagogning xilma-xil motivlariga tayangan holda alohida-alohida ko‘rib chiqish mumkin: moddiy manfaatdorlik; ijtimoiy (ijtimoiy munosabatlarda maqsadga erishish); kasbiy (kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish); ma’naviy-axloqiy (ma’naviy jihatdan o‘z-o‘zini takomillashtirish); vaziyatli-muammoli (qandaydir muayyan muammoni hal qilishga erishish bo‘yicha masalalarni yechish); shaxsiy (shaxsning o‘zo‘zini namoyon etishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi).

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot kompetentligi o‘zida kognitiv,

emotsional va xulq-atvorga oid komponentlarni aks ettiradi. Shuning uchun axborot kompetentligini shakllantirish jarayoni quyidagi integrativ pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi: zamonaviy axborot-ta’lim muhitining mavjudligi; axborot kompetentligini rivojlantirishning kasbiy yo‘nalganligini aniqlashtirish; umumkasbiy modullarni shaxsning insonparvar-axborot sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish; pedagoglarning o‘z-o‘zida axborot sifatlarni shakllantirishini rag‘batlantirish; o‘quv jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish.

Malaka ishirish tizimini modernizatsiyalash sharoitida pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kasbiy-axborot faoliyat uchun muhim hisoblangan integrativ shaxsiy sifatlarning rivojlanganligini talab qiladi. Ma’lumki, pedagoglarning kasbiy

takomillashuvida asosiy shart pedagoglarning kasbiy shakllanishi va pedagogik faoliyat uchun zarur shaxsiy sifatlarni egallashning o‘zaro aloqadorligi sanaladi. Pedagog shaxsining kasbiy ahamiyatli sifatlarini shakllantirish murakkab va uzoq muddatli jarayon bo‘lib, ta’lim mazmunini takomillashtirish va psixologik-pedagogik yetuklikka oid maxsus metodikalar bilan to‘ldirishni talab qiladi. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning yaxlit jarayoni o‘qitishda shaxsiy va guruhiy yondashuvni, pedagoglarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda integratsiyalash asosida qurilishi lozim.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosalarni keltirib chiqarish mumkin:

1. Axborot kompetentligi kognitiv (bilishga oid), emotsional va xulq-atvorga oid komponentlarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi.

2. Malaka oshirish jarayonida integrativ yondashuv asosida pedagoglarda axborot kompetentligini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim: axborot kompetensiyalarining kasbiy faoliyatga mosligi; kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarining variativligi; kasbiy-pedagogik sohada funksionallikni ta’minlash; ta’lim jarayoni uchun axborot-ta’lim muhitini yaratish; pedagoglarning axborot va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda modullararo aloqadorlikni ta’minlash; axborot kompetensiyalarini o‘zlashtirishda auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyat shakllarini uyg‘unlashtirish.

3. Pedagoglarda axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi integrativ komponentlarga tayanish maqsadga muvofiq: variativ shakllar asosida kasbiy faoliyat kompetensiyalarini o‘zlashtirish; shaxsiy muvaffaqiyatli faoliyat uchun o‘z salohiyatini namoyon qilishga intilish va qobiliyatning integral xususiyati, jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ijtimoiy faollikni shakllantirish; pedagoglarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va shaxs sifatlarining uyg‘unligiga erishish.

4. Pedagoglarda axborot kompetentliligini rivojlantirishning integrativ texnologiyasi (integratsion shakl, metod va vositalar majmui) umumkasbiy va mutaxassislik fanlari mazmunini kompetensiyaviy yondashuv talablari bo‘yicha intensiv loyihalashni taqozo etadi.

5. Axborot kompetentligi rivojlanganligining asosiy mezonlari sifatida kognitiv, motivatsion, pertseptiv va nutqiy komponentlarning shakllanganlik darajasini hisobga olish lozim.

Tajribalarimizdan kelib chiqib, malaka oshirish jarayonida integrativ yondashuv asosida pedagoglarda axborot kompetentligining rivojlantirilishini ta’minlash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

pedagoglarda axborot kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarida “Pedagogning axborot kompetentligini rivojlantirish” modulini alohida modul sifatida o‘qitish va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari o‘quv dasturlarida axborot kompetentligini rivojlantirishga doir mavzular ko‘lamini oshirish;

auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida axborot kompetentligini rivojlantirishga oid trening mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish;

pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari o‘quv jarayoniga axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash;

pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari o‘quv jarayonida sifatli axborot-ta’lim muhitining yaratilishi va uning doimiy rivojlanib borishiga erishish.

Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish pedagoglarda axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalana olish ko‘nikmalarini, ya’ni axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori. – Toshkent, 2022-yil 17-yanvar, 25-son.

4. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Moliya-iqtisod”. 2012.

5. Turg‘unov S.T. va boshqalar. O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish: Qo‘llanma. – T.: „Sano-standart“, 2012. - 172 b.

6. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2019. – 45 b.

7. Темербекова А.А. и др. Система формирования ИКТ-компетентности педагога на основе использования социальных сетей в образовательном процессе: опыт и перспективы: монография. – Горно-Алтайск, БИЦ ГАГУ, 2017. – 119 с.

MILLIY O‘QUV DASTURIDA INTEGRATSIYALASHGAN ALOQADORLIK ASOSIDA TARIX FANINI O‘QITISH METODIKASI

Ikromjon Abduraimov,

Sirdaryo viloyati Pedagogika markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida Milliy o‘quv dasturi asosida nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligiga e’tibor qaratgan bo‘lib, kelajakda olgan bilimlarini integratsiyalay oladigan, tez o‘zgarayotgan axborotlashgan bozor sharoitida o‘z yo‘lini topib keta oladigan mutaxassislarni samarali tayyorlash.*

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlardan

ko‘zlangan asosiy maqsad milliy iqtisodni barqarorlashtirish o‘z navbatida fuqarolarning tashabbuskorligi va tadbirkorligini namoyon qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy kafolatlarini ta’minlash, haqiqiy iqtisodiy barqarorlik uchun real sharoit yaratishdan iboratdir.

Davlat va jamiyatning ertangi kuni va kelajagini bugungi maktab dargoxida tahsil olayotgan o‘quvchilar belgilab beradi.

Milliy o‘quv dasturida *nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligiga e’tibor qaratgan bo‘lib,* fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o‘qitiladi. Ya’ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda kiritiladi. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashi va tasavvurni kengaytirib, intellektual rivojlangan shaxsni shakllantirish va jamiyatda munosib o‘rin olishni belgilab beradi.

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “O‘zbekistonda 2023-yil «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq yangi davlat standartlari ta’lim sohasidagi keng doiradagi yondashuvni va maktab sub’yektlarini integratsiyalashuvini talab qilishni ta’minlaydi.

Bunday o‘zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsni tarkib toptirish bilan chambarchas bog‘liq. Prezidentimiz nutqida keltirilganidek, dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan Milliy ta’lim tizimini yaratish zarurati paydo bo‘ldi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’limni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish maqsadida ilg‘or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikasi va ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

Fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, raqamli iqtisodiyotga o‘tish bilan bog‘liq jarayonlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, globallashuv va integrallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, pirovardida ta’lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda.

Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi 6 komponent – umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari, umumta’lim fanlarining konsepsiyalari, o‘quv reja, fanlarning o‘quv dasturlari, o‘qitish metodologiyasi va baholash tizimidan iborat bo‘ladi.

Bugungi kunda respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, xalqimiz oldida turgan ijtimoiy-itisodiy, g‘oyaviy-siyosiy, ta’limiy-tarbiyaviy muammolarning echimini topish, aniq va tabiiy, amaliy va texnik, integratsion aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv predmeti yoki integratsion o‘rganilayotgan fanlar hodisa yoki jarayonlar yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

Bu o‘z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va kreativ faoliyat ko‘rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlashni talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniklash, tahlil etish, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajadagi tafakkurni shakllantiradi.

Kelajakda olgan bilimlarini integratsiyalay oladigan, tez o‘zgarayotgan axborotlashgan bozor sharoitida o‘z yo‘lini topib keta oladigan mutaxassislarni samarali tayyorlash bilan uzviy ravishda bog‘liqdir.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida umumta’lim maktablarida Milliy o‘quv dasturi asosida ta’lim samaradorligini oshirishda fanlararo integratsiyasi ko‘p qirrali fanlararo aloqadorlik yordamida o‘quvchilarni o‘qitishi yo‘lga qo‘yilsa, ularni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash masalalari nafaqat sifat jihatidan yangi darajada hal qilinadi, balki ayni paytda ularda aniq amaliy faoliyatda murakkab muammolarni hal etish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Aynan shuning uchun ham fanlararo aloqalar asosida umumta’lim maktablaridao‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka va kampitentsiyaga asoslangan o‘qitish va tarbiyalash kompleks yondashishning muhim sharti va natijasi bo‘ladi. Ertangi jamiyatda o‘z o‘rnilarini topa oladigan keng fikr muloxaza yurita oladigan nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan yosh mutaxassislarni tayyorlashda fanlararo aloqalarni amalga oshirish muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim samaradorligini oshirish barcha zamonlarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sanalib kelingan.

Ta’limning bugingi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin takommilashib borayotgan axborot ta’lim muxiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzliksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Bunga o‘qitish mazmunini loyihalash jarayonida va bevosita o‘qitish jarayonining o‘zida fanlararo aloqadorlikni ta’minlamasdan turib erishib bo‘lmaydi.

Maktab o‘quvchilarida har xil tipdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish,

buning uchun barcha fanlani mukamal o‘zlashtirish va o‘rgangan bilimlarini amaliyotda foydalanish, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta’lim rejasidagi o‘qitish jarayonida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to‘la o‘zlashtrish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi: ko‘p maqsadli va rang-barangliligi hamda ko‘p funktsiyaga egaligi bilan tavsiflanadi (ko‘rgazmali).

Integratsiya negizida o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatining xar hil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g‘ri keladigan psixik

qo‘zg‘alish hosil qilishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Umumta’lim maktablarida fanlar asosini o‘rganishda o‘quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o‘tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish, turli o‘quv-ta’lim ish faoliyati bilan to‘qnashadilar. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o‘quv jarayoniga tadbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Fanlarni o‘zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek o‘quvchilari chet ellik o‘quvchilarga nisbatan ko‘p ma’lumot o‘zlashtirsalar ham, uni tadbiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar.

Ta’lim samaradorligini oshirishda shaxsning ta’lim markazida bo‘lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayorgarlik ko‘rgan va o‘z soxasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni va interfaol uslublarini biladigan ular asosida o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoydalarini biladigan o‘qituvchilar kerak.

Ijtimoiy gumanitar fanlarni, aniq va tabiy hamda amaliy fanlarni o‘zaro uyg‘un tarzda olib borilishi o‘rganilayotgan materiallarni, bilimlarini, ko‘nikmalarini va malaka natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsa, uning tuzilishi bilan har qanday dars o‘quvchi kompitentsiyasini shakillantirishga xizmat qiladi.

Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar interfaol uslublar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarni o‘quv ta’rbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzliksiz oshirib borishlari lozim.

Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta’lim sistemasida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta’lim rejasidagi o‘qitish joyida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to‘la o‘zlashtrish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi: ko‘p maqsadli va rang-barangliligi hamda ko‘p funktsiyaga egaligi bilan tavsiflanadi (ko‘rgazmali).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шарипов Ш.С., Абдураимов Ш.С. Качество высшего и профессионалного образования в постиндустриалную эпоху: сущност, обеспечение, проблемы: Международной научно-практической конференции. - Казан, 2016. - С. 81-86

2. Житникова Л. М. Учит детей запоминат. Пособие для воспитателя детского сада. –Москва: Просвещение, 1978.

3. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005.

4. Ismoilova M. Noan’anaviy ish usullari orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish yo‘llarini axtaryapmiz. //, 1992. №2

ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ ТРАЕКТОРИЯСИ АСОСИДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Химматалиев Дўстназар Омонович, Абдиева Эъзоза, Тиловбердиев Шохруҳ,
педагогика фанлари доктори, профессор;
“Мактаб менежменти” йўналиши 2 курс талабалари,
Чирчиқ давлат педагогика университети

Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги “Ўзбекистон республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони чиқарилган бўлиб, унга кўра олий таълим билан қамровни кенгайтириш, олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш бўйича, жумладан индивидуал таълим траекторияларига асосланган, талабаларда креатив фикрлаш, амалий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган ўқув режалар ишлаб чиқиш орқали талабалар қизиқишлари ҳамда кадрлар буюртмачилари эҳтиёжларига мувофиқ таълим дастурларини шакллантириш, уларни тасдиқлаш бўйича олий таълим муассасаларига босқичма-босқич академик мустақиллик бериш тадбирларини амалга ошириш белгилаб берилган[8].

Бугунги кунда ахборот технологияларининг ривожланиши, иқтисодиётдаги ўзгаришларнинг амалга оширилиши туфайли замонавий касбларнинг нуфузи ортиб бормоқда, бу эса талабаларнинг таянч табиий-илмий билимларининг аҳамияти ортиб бораётганлигини кўрсатади.

Талабаларнинг таълим олиш самарадорлиги уларнинг таълим эҳтиёжларига мос равишда ўқув-билиш фаолиятини ташкил этиш имконияти билан белгиланади. Уларнинг шахсий хусусиятлари ва таълим олишга эҳтиёжларини ҳисобга олиш зарурати, индивидуал таълим траекторияси асосида ўқитиш муаммосининг долзарблигини белгилайди, уни талабаларнинг дарсдан ташқари таълим фаолияти, ижодий ишлари, бўш вақтини унумли ташкил этиш шакллари билан биргаликда олиб бориш орқали ҳал этиш мумкин.

Таълим муассасалари учун таълимнинг меъёрий ҳужжатлари талабаларнинг ўқув фаолиятини мустақил лойиҳалаш, асосий ва чуқурлаштирилган даражада ўқув фанларини ўзлаштириш имконини берувчи мослашувчан индивидуал таълим траекториясини шакллантириш учун

---

[8] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. ПФ-5847-сон. 08.10.2019 й.

шароит яратиши керак. Талабаларнинг индивидуал таълим траекториясини ташкил этиш муаммосини ҳал қилишга бағишланган тадқиқотларда, индивидуал таълим траекториясини ташкил этиш вазифаси талабаларни ўқув эҳтиёжлари даражалари бўйича табақалаштириш асосида ҳал этилади, бу эса ўқитувчининг талабалар фаолиятини режалаштиришда қўлланиладиган ўқув-билиш фаолиятининг ўқув-методик таъминотни ишлаб чиқиш вазифасини қўяди. Таълим мазмуни ва методларини тезкор ўзгартириш имкониятидан келиб чиқиб, “индивидуал таълим траекторияси” тушунчасини *шахсий аҳамиятли ўқув мақсадларига эришишга қаратилган таълим фаолиятининг изчил олинган натижалари тўплами* деб белгилаймиз. Фанни ўрганишнинг *индивидуал таълим йўналишини шакллантириш* деганда биз *ўқув фаолиятини лойиҳалаш (ўқув даври учун фаолиятнинг дастлабки режасини тузиш), ўқув фаолиятини амалга ошириш (ўқув натижаларини изчил олиш ва тўплаш), талабанинг эришилган таълим натижаларининг шахсий-аҳамиятли мақсадларга мувофиқлигини/номувофиқлигини аниқлаш асосида ўқув фаолиятини бошқариш (дастлабки фаолият режасидаги вазиятни ўзгартириш)ни тушунамиз*.

Таълимда юқори натижаларига эришиш учун ўқитувчи томонидан индивидуал таълим траекториясини ишлаб чиқишни ўз ичига олган ёндашув (ривожлантирувчи); талабанинг дарсдан ташқари ўқув машғулотларида иштирок этиши билан ўқув жараёнини технологиялаштиришга (масофавий таълим технологияларидан фойдаланиш) йўналтирилган ёндашув қўлланилиши керак.

Индивидуал таълим траекториясини ишлаб чиқиш асосида таълим самарадорлигини оширишга ҳисса қўшадиган методик усулларни аниқлаш мақсадида олий таълим муассасаларида юқори таълим натижаларига эришиш имконини берувчи таълимга инсонпарварлик ёндашув методикасини таҳлил қилиш асосида, шуни айтиш мумкинки, таълимнинг асосий вазифалари билимларни ўзлаштириш, стандартларга мувофиқ кўникма ва малакаларни шакллантириш; барча учун муваффақиятли таълим бериш ҳисобланади. Таълим жараёни ҳар бир талабага шахсий ёндашувга; таълимда муваффақиятга эришиш вазиятини яратиш; талабаларнинг билим олишдаги ҳамкорлиги; синфда қулайлик; хатолар устида ишлаш эмас, балки уларни олдини олиш; ўқув материали мазмунининг кетма-кетлиги, изчиллиги; ҳамма учун вазифаларнинг мавжудлиги, табақалаштиришга асосланади.

Индивидуал таълим траекториясини ишлаб чиқиш асосида таълим беришда *ҳар бир талаба учун вазифаларнинг қулайлиги, таълимда муваффақиятга эришиш учун вазиятни яратиш, ўрганилаётган мавзуни график ҳолатини ифодаловчи таянч схемалардан фойдаланиш, мавзуни ўзлаштиришда тўлиқ мустақилликка босқичма-босқич ўтиш* каби ҳамкорлик методикаси тамойилларини амалга оширишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Педагогика фани ва амалиётининг кўплаб замонавий намояндалари талабаларнинг мустақил фаолияти улушини оширишга қаратилган гуманистик

ёндашув ва таълим натижаларининг такрорланишига эришишга қаратилган таълимга технологик ёндашувни интеграциялаш йўналишида тадқиқот олиб бормоқдалар. Мисол тариқасида Г.К.Селевконинг ўз-ўзини ривожлантирувчи таълим технологияси, В.П.Беспальконинг шахсийлаштирилган таълим концепцияси, В.М.Монаховнинг педагогик технологияларини келтириш мумкин, бу қисман индивидуал таълим траекториясини ишлаб чиқиш учун ишлатилиши мумкин.

В.М.Монаховнинг педагогик технологиясида таълим жараёнини лойиҳалашнинг учта асосий объекти белгиланган: технологик харита, талабаларни ривожлантиришнинг ахборот харитаси ва дарснинг ахборот харитаси. Технологик харитада талаба фаолиятининг мақсади, дастури, ушбу дидактик модул бўйича унинг билим ва кўникмаларига қўйиладиган талаблар тизими (ўқув дастурини ўрганишнинг мумкин бўлган усуллари ва шакллари кўрсатилган ўқув дастурининг бўлими) мавжуд. Бизнинг тадқиқотимизда таянадиган педагогик технологиянинг муҳим ютуқлари:

- мантиқий тузилма (таълим жараёнининг мазмунли, жараёнли ва мотивацион жиҳатларининг бирлиги);

- мақсадни белгилаш (кичик мақсадлар тизими, бунда кичик мақсаднинг мазмуни мавзу бўлими учун диагностика мазмунини белгилайди);

- уй вазифаларнииng диагностика қилинган мазмуни, ҳажми ва мураккаблиги;

- талабаларнинг эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда мустақил ишларининг табақалаштирилган ҳажми;

-ўқув натижалари паст бўлган талабалар учун ўқитувчи фаолиятининг тузатиш дастури.

В.М.Монахов томонидан тавсия этилган талабаларнинг таълим натижаларини назорат қилиш ва баҳолаш қисман қўлланилиши мумкин:

- диагностика топшириқларида хатолар аниқланганда материални тузатувчи такрорлаш;

- диагностика топшириқларини муваффақиятли бажаргандан сўнг уйга вазифа топшириқларини бажариш;

- уйга вазифа топшириқларини бажаргандан сўнг асосий даража натижасини аниқлаш (бўлимни ўзлаштиришни якунлаш);

- тематик бўлимнинг чуқурлаштирилган даражасини ўзлаштириш учун қўшимча топшириқларни бажариш (талаба хохишига биноан)[9].

Технологияни амалга ошириш мажбурий (асосий) натижани кафолатлаш тамойилини амалга оширишни таъминлайди, шу билан бирга талабага қўшимча мустақил топшириқларни танлаш орқали материални ўзлаштириш даражасини танлаш ҳуқуқи берилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

[9] Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса. [Текст]. - Волгоград: Перемена, 1995. - 152с.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. ПФ-5847-сон. 08.10.2019 й.

2. Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса. [Текст]. - Волгоград: Перемена, 1995. – 152 с.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI SOHASIDAGI RAHBAR KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVASIYALAR

Mexmonov Ismat Toshpo'latovich,

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti, o'quv jarayonini tashkil qilish bo'limi boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi

Anotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida rahbar kadrlarning malakasini oshirish tizimi samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar va innovasiyalar tahlil qilingan. Bu boradagi ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, amaliyotda samarali boshqaruv mexanizmini joriy etilganligi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, intellektual, kategoriya, shaxs, tarbiya, o'qitish, o'qish, bilim, ko'nikma, malaka, umumiy didaktika, xususiy didaktika, ta'lim berish , kadrlar tayyorlash, innovatsion boshqaruv, pedagog kadrlar malakasini oshirish, masofaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, onlayn tarzda malaka oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 17.01.2022 yildagi 25-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM tasdiqlandi. Nizomga muvofiq Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish ulardagi kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash va muntazam ravishda malaka oshirib borishning samarali mexanizmlarini joriy etish asosida mazkur xodimlarning yuqori saviyadagi uzluksiz kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga yo'naltirilganligi belgilandi. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilishi belgilandi.

kredit — tinglovchining alohida o'quv moduli bo'yicha o'qishi va o'zlashtirishi uchun sarflanadigan va ballarda ifodalanadigan, muayyan o'quv moduli bo'yicha belgilangan topshiriqlarni bajarib, tegishli nazorat shaklidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladigan o'quv yuklamasi;

malaka talablari — kasbiy rivojlanish kursi (o'quv moduli) bitiruvchisining

umumiy bilim va kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar;

mutaxassislar — xalq ta’limi tashkilotlarida metodist, defektolog, logoped, psixolog, kutubxonachi va mutaxassis lavozimlarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxslar;

pedagog xodimlar — xalq ta’limi tashkilotlarida ta’lim-tarbiya faoliyatini amalga oshiruvchi o‘qituvchi va tarbiyachilar;

rahbar xodimlar — xalq ta’limi tashkilotlari va ularning tarkibiy bo‘linmalarida boshqaruv funksiyalari va vazifalarini bajaruvchi shaxslar hamda ularning o‘rinbosarlari, shuningdek, xalq ta’limi tizimidagi hududiy boshqaruv organlari mutaxassislari;

tinglovchi — ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotiga qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursiga qabul qilingan xalq ta’limi xodimi;

xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish (keyingi o‘rinlarda — uzluksiz kasbiy rivojlantirish) — shaxs kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o‘sishi jarayoni;

qayta tayyorlash (malaka oshirish) kursi — qayta tayyorlash (malaka oshirish)ning tasdiqlangan o‘quv rejasi va dasturlari asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar tizimi;

o‘quv moduli — nisbatan mustaqil, mazmunan yaxlit o‘quv kursi yoki ta’lim texnologiyasining minimal hajmdagi tarkibiy birligi;

«Uzluksiz kasbiy ta’lim» maxsus elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda — elektron platforma) — o‘quv modullari kontentlarini yaratish, saqlash va ularni ta’lim oluvchilarga taqdim etish, shuningdek, ta’lim oluvchilarni ro‘yxatga olish va ularga o‘quv modullarini onlayn tarzda o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron dasturiy tizim;

Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlari reestri (keyingi o‘rinlarda — Reestr) — xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi nodavlat ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini o‘z ichiga olgan elektron axborot tizimi.

Jahonda ta’lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda «ta’limning hamma bosqichlarida, ta’lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda». Bugungi kunda barcha mamlakatlar, hattoki, eng taraqqiy etgan davlatlar ham ta’lim tizimini rivojlatirishda alohida e’tibor qaratib, mazkur yo‘nalish kun tartibidagi eng dolzarb vazifaga aylanib qolmoqda. Bizning malakatimizda ham ta’lim tizimini rivojlantirish strategik maqsadlarni biri sifatida qaratiladi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’lim va undan keyingi ta’limni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish vazifasi belgilangan. Unda Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, musiqa va san’at ta’lim muassasalari hamda bolalar sporti ob’yektlarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko‘rish, maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan

oshirish, yoshlarimizni har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Ma'lumki, turli sohada bilim oluvchi ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini yolg'iz pedagogika fanining o'zi mufassal yoritib bera olmaydi.

Masofaviy ta'limning u yoki boshqa turi bilan bog'liq kurslar va ta'lim jarayonlari o'z talablari, hajmi, davomiyligi, strukturasi va maqsadlariga ko'ra turli xil xarakterga ega bo'ladi. Masalan, ayrimlari auditoriyadagi darslar bilan bog'liq, ayrimlari o'quv muassasasiga kirishdan oldin o'tkaziladi, boshqalari o'quv jarayonidan keyin yoki ta'tillar vaqtiga mo'ljallanadi. Hatto "turdosh" masofaviy ta'lim turlari ham (masalan, onlayn o'qish) bir-biridan qo'yidagi jabhalarda farq qiladi: muloqot turlari, vaqti va davomiyligi (aniq belgilangan vaqt va mustaqil grafik), o'qish modellari (guruh asosida va yakka tartibda), strukturasi (ochiq yoki yopiq tartibda registratsiyadan o'tish) va maqsadlari. O'qituvchilarni qayta tayyorlash trening kurslari bo'yicha masofaviy ta'lim ilgari asosan nashrli yoki audioli usullarga tayangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu kurslarga masofaviy ta'limning bir qancha turlarini mujassam qilish tendensiyasi o'sib bormoqda. Masalan, ko'plab muassasalar talaba va o'qituvchilarning tayyorlov jarayoniga onlayn kurs materiallari, onlayn muloqot, maxsus fan veb-saytlari, elektron resurslar bazasi va virtual sinfxonalar kabi yangi paydo bo'layotgan texnologiyalarni tatbiq qilib bormoqdalar. Masofaviy ta'limni yetkazishning har xil usullarini onlayn instrumentlar yordamida aralashtirib kurs tashkil qilish turli qatlamdagi tinglovchilarga yetib borish va ta'limning har xil yo'nalishlar bo'yicha maqsadlariga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'qituvchining kasbiy rivojlanishini yanada takomillashtirishning har xil aspektida har xil texnologiyalar qo'llanmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida rahbar kadrlarning kasbiy ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirishni tashkil etish, uzluksiz kasbiy rivojlanishga kredit-modul tizimini tatbiq etish, pedagoglarga turli shakl va vositalardan foydalangan holda o'zlarining kasb mahoratlarini takomillashtirishining individual traektoriyalarini taqdim etish bo'yicha platforma tashkil qilingan. Mazkur platforma asosida joriy yilning mart ,aprel ,may oylarida respublikamiz bo'yicha jami 1685 nafar fan metodistlarining kasbiy malakasi asosiy ish joyidan ajralmagan holda tashkil qilindi. Endi bevosita masofadan malaka oshirishning afzalliklari to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Rivojlangan mamlakatlarda onlayn kurslarga bo'lgan talab va taklifning o'sib borayotgan reytingi ushbu kurslarning nihoyatda xalqchil ekanidan dalolat beradi. Ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishga jalb qilish va qo'yilgan talablarni bajarish uchun tinglovchilarda motivatsiyani kuchaytirish muhimdir. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, masofadan malaka oshirish tizimi joriy etilishining bir qator o'ziga xos qulayliklari mavjud. Ushbu yo'nalishdagi xorijiy tajribalarni tahlil qilar ekanmiz, ayniqsa aksariyat rivojlangan davlatlarda pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimi pullik ekanligi sababli o'qituvchilarga qo'shimcha moliyaviy xarajat keltirishini hamda bu borada O'zbekistonda samarali mexanizm mavjudligiga guvoh bo'ldik. Ya'ni, bizning mamlakatimizda pedagog xodimlar bepul malaka oshirishadi. Pedagogika fani tarmoqlari mazkur

muammolarni ijobiy xal etishda muhim omil hisoblanadi.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha ***kategoriya*** deb ataladi. ***Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari*** shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish. **Shaxs** – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulqatvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim deganda o'qitish va o'qish jarayonlari tushuniladi. ***O'qitish*** – insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir. Uning natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. O'qitishda deyarli hamma vaqt uning tarbiyaviy jihatlari yaqqol bilinib turadi. Ta'lim maqsad, mazmun, pedagogning shaxsi, ta'lim oluvchilardagi o'qitishning moddiy – texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo'lishining eng muhim sharti uni bolaligidan o'qitish va tarbiyalash, deb hisoblaydi. ***O'qish*** - bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, ta'lim oluvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch -g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. **Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui. ***Bilimlar*** – bu odamlarning ijtimoiy – siyosiy amaliyot jarayonida to'plangan umumlashgan tajribasidir.

Bilim – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Ob'yektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, nazariy bilimlarga ajraladi.

Ilmiy bilim ta'lim – tarbiyani takomillashtirish muammolari yechimlarini topishda qo'l keladi va u tizimli, asosli narsa – hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. Ilmiy bilimlar, ob'yektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi. Ular doimiy emas, ular o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi va natijada doimiy iste'moldagi bilimga aylanadi, ya'ni ular tadrijiy (evolyusion) tarzda rivojlanib turadi. Bilimlar asosida ta'lim oluvchilarning kuzatuvchanlik, sinchikovlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

Nazariy bilim – empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi.

Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika – texnologiyalar rivojlanishi

ta'minlanadi. Demak, bilimni ob'yektiv mavjudod haqidagi yoki muayyan sohaga oid ma'lumotlar majmui, deb ham ifodalash mumkin.

Bilimlar banki – bu ma'lumotlar majmualarini bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha tizimlarga ajratib, ular asosida shakllantirilgan bilimlar majmui. Shuningdek, **bilimlar banki** – bu izlanuvchilar tomonidan bir necha yo'nalishlar bo'yicha kompyuter xotirasiga kiritilgan nazariy va amaliy ma'lumotlar to'plami hamdir.

Bilimlar bazasi – muayyan bir soha (yo'nalish, fan, bob, bo'lim, mavzu, tushuncha va shu kabilar) bo'yicha to'plangan bilimlar va ularning kompyuter xotirasida mujassamlashtirilishi va qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'ljallangan bilimlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Ko'nikma - bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat.

Ko'nikma – ongli faoliyat (harakat) ni tez, tejamli, to'g'ribajarish jarayoni natijasi. U shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Ko'nikmalar ta'lim oluvchilarda muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali va ko'p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi. Ana shu sababli uning ta'lim–tarbiyadagi ahamiyati beqiyos. Ma'lum vaqt takrorlanmaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. U katta hajmdagi mashqlar bajarish va malaka oshirish orqali tiklanadi.

Ba'zan ko'nikmalar shaxsga malaka hosil qiladi va uning malakali ishlashiga yordam beradi, ba'zilari, aksincha, shaxsdagi malakalik sifatiga salbiy ta'sir etadi va uni o'zgartiradi. Bunday hol malaka va ko'nikmalarning o'zaro ta'siri deb yuritiladi.

Har qanday malaka ko'nikma bo'la oladi, lekin har qanday ko'nikma malaka bo'la olmaydi. Ko'nikmalar avtomatlashgan mohiyat kasb etsagina, malaka bo'ladi. Masalan, ta'lim oluvchining turli harakatlarini shakllarni yozish jarayoni avtomatlashgan bo'lgani uchun ko'nikilgan harakat bo'lib qolgan. Shuning uchun ta'lim oluvchi harflarni chiroyli va soz yoza oladi. Bu harakat ta'lim oluvchining ***malakalashgan ko'nikmalaridir***. Juda ko'p marta takrorlash tufayli ta'lim oluvchilarning harflar shakllarini yozishlar bilan bog'liq harakatlari avtomatlashadi.

Malaka– ongli hatti – harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi hamdir. Malaka bir hatti – harakatning o'zini bir xil sharoitlarning o'zida ko'p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi.

Ko'nikma va malakalarning umumiy hamda farq qiluvchi tomonlari bor. Umumiyligi shundaki, ko'nikma va malakalar ta'lim oluvchilarning olgan bilimlari asosida faoliyat usullarini tashkil etadi. Farqi shundaki, ta'lim oluvchilarning faoliyati har xil xarakterda bo'ladi.

Ma'lumot –ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash

majmui.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Ta’limning boshlang‘ich (dastlabki) vazifasi ta’lim oluvchini o‘qitishdan iborat. Shuning bilan birga oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma’lumot berish vazifasini bajaradi. Shunga ko‘ra, ta’lim **birinchidan** o‘qishni, **ikkinchidan** o‘qitishni, ya’ni o‘qishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o‘z ichiga oladi. ***Ta’lim berish*** – ta’lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo‘lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta’lim berish ta’lim oluvchilarning o‘qish – o‘qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi. Ta’lim-bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish jarayoni, kishini hayotga hamda mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim va tarbiya uzviy bog‘liq bo‘lib, ma’lumot ularning natijasidir. Ishlab chiqarish nuqtai nazardan olib qaraganda **jarayon** - ob’yektga maqsadga muvofiq ta’sir etib, uning holati, xususiyati, shakli kabilarni o‘zgartirishni anglatadi. Agar ta’lim-tarbiya pedagogik qonuniyatlarga asoslanishini hisobga olsak, **ta’lim-tarbiya jarayoni**- ta’lim oluvchilar his-tuyg‘ulari, ongi, xarakteri kabilarga maqsadga muvofiq ta’sir etib, ularda bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar shakllantirish tizimi ekanligi kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori.

3. Taylor, J. C. (1995). Distance education technologies: The fourth generation. Australian Journal of Educational Technology 11(2), 1–7 pp.

4. Burns, M. (2011). Distance Education for Teacher Training: Modes, Models, and Methods. Washington, DC:Education Development Center.

5. Dillemans, R., Lowyck, J., Van der Perre, G., Claeys, C., & Elen, J. (1998). New technologies for learning: Contribution of ICT to innovation of ducation. Leuven, Belgium: Leuven University Press.

6. Gaible, E. (2009). Survey of ICT and education in the Caribbean: Country reports. Washington, DC: World Bank.

7. Latchem, C., & Jung, I. (2010). Distance and blended learning in Asia. New York, NY: Routledge.

BOSHLANGICH TALIM OQITUVCHILARINING MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

Salieva Perdexan Alimbetovna,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-may-dagi “2022-2026 yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son Boshlang‘ich ta’lim umimiy o‘rta ta’limning asosiy poydevori sanalib,

o‘quvchilarning kelajakda komil inson bo‘lib voyaga yetishini ta’minlovchi asosiy ta’lim bosqichi hisoblanadi. [1].

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. DTS da umumiy o‘rta tálim muassasalarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi quyidagicha : “o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutqmadaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”. Ona tili fani o‘quv dasturi (1-4-sinf) TUSHUNTIRISH xatida korsatib otilganidek, oqıtuvchilarimiz har bir 45 daqiqalik drsi jarayonida milliy oquv dasturi talab va vazifalariga amal qilishi zarur. Darslarimizda óquvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan texnologiya, metod va usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bólib óqish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda oǵzaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi. O‘quvchining kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun fan dasturlari talablari bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va ona tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan lingvistik kompetensiyalar o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishini ko‘zda tutadi.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi sifatida “o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o‘quvchida grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat” ekanligi belgilangan.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi insonning tashqi ko‘rinishi va xarakterini ifodalashda ishlatiladigan til birliklarini aniqlay olish va ularning imlosi bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash,she’riy matn tarkibida qo‘llanilgan gaplar, ularning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, tinish belgilarining ifodalanishi bilan bog‘liq bilimlarni takrorlash, she’riy matnni

ifodali o‘qish bilan bog‘liq topshiriqlar va qaysi bir mavzu bilan bog‘liq 3 yoki undan ortiq gap tuzib ijodiy matn yaratish, bu jarayonda unli va undosh harflarning yozma nutqda qo‘llanilish qoidalari, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish, bosh va kichik harflarning imlosi, gapda tinish belgilarining qo‘llanilishini boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish orqali darslik asosida mavzular bo‘yicha interfaol metodlarni tanlash va asoslab berish. metodlarning abzalliklarini va qaysi kompetensiyaga asoslanganligiga e’tibor qaratish, dars jarayonida ilg‘or tajribalardan samarali foydalanish talab etiladi.


O‘qıtishning interfaol metodları – ... ?








Siz ish faoliyatingizda foydalanadigan interfaol metodlar ....


“ INTERFAOL METODLAR FORMULASI “ – mashqi











Kichik guruhlarda ishlash.

Har bir guruh a’zolari metodlardan birini tanglab metod haqida malumot beradi

Kreativlik o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasi ekanligi, interfaol metodlarning o‘qituvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanishi, o‘qituvchining kreativ yondashuvini rivojlantirish masalalari ahamiyati tálim sifatini oshirishda oqituvchilarning innovaciyon texnologiya vositalarida tálimga zamonaviy yondashish, pedagogik texnologiya va interfaol metodlarni darsda qóllash kónikmalarini rivojlantirish talablarini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarorida ko‘rsatib o‘tilgan hamda 2020-yil 30-oktabrdagi videoselektorda ta’lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha belgilab bergan ustuvor vazifalar zamonaviy talablar asosida dars jarayonining mazmunini takomillashtirish, dasturda óquvchilarning bilim darajasiga talab va vazifalar, boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish sifati va samaradorligini yanada oshirish nazarda tutilgan.

2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz rivojlantirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 18-sonli buyruqlari ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, , zamonaviy talablar asosida xalq ta’limi muassasalari pedagog kadrlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi. [2].

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi Davlat siyosati, mas’uliyat va moslashuvchanlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanishlarni o‘z ichiga olib, ular bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Demak, o‘qituvchi, shu jumladan boslangich sinf o‘qituvchisi pedagogik jarayonni togri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetentlilikga ega b o‘lishi lozim.

1.Ўзбекистон Республикаси Президентиининг 2022 11 мартдаги “Халқ таълимини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ 241 сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 17 январдаги 25-сон қарори билан "Халқ таълими ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини ташкил этиш тартиби тўғрисида низом".

TARIX FANINI O‘QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Ulug‘bek Qlichev

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA. Maqolada axborot kommunikatsiya vositalari orqali o‘qtuvchining tarix faniga qiziqishlarini oshirish va bilimlarini rivojlantirish haqida metodik tavsiyalar beriladi.

Tayanch so‘zlar: ta’lim, tarix, muloqot, g‘oya, taraqqiyot, internet, masofa, mashg‘ulot.

Klyuchevie slova: obrazovaniya, istoriya, kommunikatsiya, ideya,
prodvijenie, internet, rasstoyanie, zanyatie.

Key words: edication, history, kommunikatsiya, idea, promotion, internet, distance, training.

Tarix darslarida ta’limning axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Axborot kommunikatsiya vositalari o‘qitish va o‘rganish sifatini ko‘tarishga o‘quvchilarning o‘quv materialini qiziqib o‘rganishga va puxta o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

O‘qitishning axborot kommunikatsiya vositalari ekran qo‘llanmalar ya’ni animatsiyalar, internet ma’lumot, videofilm, kinofilm, radio-teleeshittirishlar kiradi.

Ammo axborot kommunikatsiya vositalari o'qitish jarayonida o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi moderatorlik vazifasini a'lo darajada bajarishi kerak bo'ladi. Amaliyotda qo'yidagicha situatsiya yuz berishi mumkin, ya'ni bitta mavzudagi dars bo'yicha darslikda illyustratsiyalar, devoriy (tablitsa) jadvallar, doskaga sxematik suratlar ishlanishi mumkin, yana film va boshqa xillari ham bo'lishi mumkin. Masalan: uyg'onish davri madaniyati haqidagi darsda darslikdagi (rangli) illyustratsiyalar, davriy tablitsalar, teleko'rsatuvlardan ham foydalanish mumkin.

O'quvchilar bilan ishlashni qanday tashkil qilish mumkin? Bu savollarga o'qituvchi o'qitish sharoitini va sinfning xususiyatlarini hisobga olib javob beradi. Dastavval bu qo'llanmalarning mazmunligi, qulayligiga e'tibor berish kerak. Masalan, "Yevropada uyg'onish davri madaniyati" mavzusi bo'yicha darsda ko'proq internet saytlaridan olingan rasm, videorolik yoki diafilmlardan parchalar darsning yaxshi qabul qilish imkoniyatini bera oladi. O'quv filmlarida tasviriy materiallar ko'p berilgan bo'ladi, va ularni bu mavzu bilan birinchi bor tanishtirishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun videoprektor orqali mavzuga oid surat, xarita, jadvallardan keng foydalaniladi. Mavzuni uyda mustahkamlash va takrorlash uchun darslik illyustratsiyalari beriladi. Dars jarayonida qo'llanilgan filmlar esa kelgusi darslarda parchalarda bo'lsa ham qo'llanilishi mumkin. Unda o'quvchilar ulardan yangi bo'lgan tomonlarini anglay olishlari kerak.

Axborot kommunikatsiya vositalari ko'rsatmaliligining o'qituvchi uchun eng qulaylisi bu-videofilmlardir. Tarixiy voqealarni qamrab olish, syujetlarning har xilligi bo'yicha, tasviriy materiallarga boyligi bilan boshqalaridan ustun turadi.

Axborot kommunikatsiya vositalari orqali ko'rsatish izchilligini o'qituvchining o'zi aniqlab beradi. Kadrlarga tayanib o'qituvchi hikoya qilish, tushuntirish va suhbat o'tkazish mumkin. Bu o'quvchilarning materialni nafaqat ko'rishlarini balki matnlardan kerakli joylarini daftarlariga yozib olishlariga ham imkon beradi. O'qituvchi ham o'quvchilar bilan kontaktni yo'qotmaydi.

Teleeshitirishlar, ma'naviy-ma'rifiy filmlar qisqa vaqt ichida keng ma'lumot bera oladi. Ular orqali tarixiy voqealar qatnashchilarining (aktyorlar ijrasida) jonli ovozini eshita oladi. Teleko'rsatuvlar filmlarga nisbatan (aktual) dolzarblikga ega.

Ular orqali ayniqsa o'quvchilar yaqin vaqtlardagi voqealar bilan tanishib boradi.

Axborot kommunikatsiya vositalari orqali o'quv materialini o'quvchilarga ko'rsatishdan oldin, o'qituvchining o'zi uni sinchiklab ko'rib chiqishi va o'rganishi lozim. Tarix o'qitish tajribasida o'quv filmlaridan foydalanishning bir qancha usullari bor:

a) O'qituvchi o'z bayonini o'quv filmining eng muhim va yorqin sahifalarini ko'rsatish bilan bog'lab olib boradi;

b) 10-15 minutda qisqa o'quv filmlariga bag'ishlab dars o'tkaziladi;

v) Axborot kommunikatsiya vositalari orqali darslari tashkil etiladi.

Axborot kommunikatsiya vositalari orqali o'quv darslarini qabul qilish uchun maxsus tarix xonasi bo'lishi kerak. O'qituvchi darsda internet ma'lumoti, videorolik kirgazganda, ularning bilim berish jarayonidagi funksiyasini aniq bilish

kerak bo‘ladi.

Murakkab va ma’suliyatlisi, axborot kommunikatsiya vositalari orqali mavzu bo‘yicha bilim berilganda buni asosiy bilim manbai sifatida qabul qilishidir. Bunga o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham e’tiborsiz qaramasligi kerak va u katta tayyorgarlikni talab qiladi. Dars oldidan o‘quvchilarni ekrandan qanday ma’lumot olishlari kerakligini aytib, tushuntirilib, tayyorlanish ham yaxshi usul. Unda film ko‘rish paytida bajarishlari lozim bulgan topshiriqlar berish mumkin. Bunga film bo‘yicha savollar, reja tuzish (ular doskaga yozib qo‘yiladi) kiradi. O‘quvchilar javob izlashi kerak. Ko‘rish paytida bunday topshiriqlar ko‘pincha yuqori sinf o‘quvchilariga beriladi.

Axborot kommunikatsiya vositalari orqali ko‘rish paytida o‘qituvchi muhim kadrlar paytida o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilib, tanish bo‘lmagan terminlarga, geografik atamalarga aniqlik beradi, ismlar, sanalar doskaga yozib qo‘yiladi. Shuningdek, axborot kommunikatsiya vositalari tarix fanini o‘qitishda ko‘rsatmalilikning samaradorligini yanada oshiradi. Bundan tashqari, dars so‘nggida axborot kommunikatsiya vositalari imkoniyatlaridan yana foydalangan holda mavzuni sust o‘zlashtirgan o‘quvchilar bilan mavjud bo‘shliqlar ustida ham ishlaydi.

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, interfaol usullar - tarix ta’limi va tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi (pedagog) va ta’lim oluvchi (o‘quvchi)lar, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchi (o‘quvchi)ning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Sa’diev A.Maktabda tarix o‘qitish metodikasi. T., 2011.

2. Shaxmaev N.M. Didakticheskie problemo primeneniya texnicheskix sredstv obucheniya v sredney shkole.M., 2012.

3. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. T., 2000.

4. Toshpulatov T, G‘afforov Y. Tarix o‘qitish metodikasi.T., 2000.

UZBEKISTAN-TAJIKISTAN: COOPERATION BETWEEN THE TWO COUNTRIES IN THE FIELD OF EDUCATION, SCIENCE AND TOURISM

Baxtiyor Usmonov,
Doctoral student of Gulistan State University
Guliston, Uzbekistan
E-mail: **usmonovbaxtiyorbotirovich@gmail.com**

ABOUT ARTICLE

Key words: new reforms, strategic partnership, mutual cooperation, interstate relations, cultural-humanitarian relations, culture, spirituality and enlightenment, art, mutual tourism relations, diplomacy, Uzbek-Tajik ties, age-old neighborliness.

Abstract: From a historical point of view, the peoples of the Central Asian countries, especially the Uzbeks and Tajiks, have a long common history belonging to a single region. The people of the countries have similar traditions, common history, and belong to the same religion. Uzbeks and Tajiks live on the borders of the two countries. Although this is the result of the national demarcation in 1924, border peoples are considered citizens of two countries and have established close fraternal and even family relations. Uzbekistan and Tajikistan are connected by a common history and common spiritual values. The two peoples drank water from the same river and were connected by ties of kinship. Literally, it is called a people speaking two languages. Age-old neighborliness, mutual respect and traditions serve as a solid basis of relations between the two countries.

ЎЗБЕКИСТОН-ТОЖИКИСТОН: ИККИ ДАВЛАТ ЎРТАСИДА ТАЪЛИМ, ИЛМ-ФАН ВА ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ

Baxtiyor B. Usmonov,
Guliston davlat universiteti doktoranti, Guliston, O‘zbekiston
E-mail: ***usmonovbaxtiyorbotirovich@gmail.com***

Калит сузлар: янгича ислоҳотлар, стратегик шериклик, ўзаро ҳамкорлик, давлатлараро муносабатлар, маданий-гуманитар алоқалар, маданият, маънавият ва маърифат, санъат, ўзаро туризм муносабатлари, дипломатия, ўзбек-тожик ришталари, азалий қўшничилик.

Аннотация: Тарихий нуқтайи назардан Марказий Осиё давлатлари халқлари, хусусан ўзбеклар ва тожиклар ҳамиша ягона минтақага тауллуқли азалий умумий тарихга эгадир. Мамлакатлар аҳолиси ўзаро ўхшаш урф-одатларга, умумий тарихга, бир динга мансубдир. Икки давлат чегараларида ўзбеклар ва тожиклар истиқомат қилиб келишади. Гарчи бу 1924 йилдаги миллий чегараланиш оқибатлари ўлароқ чегара халқлари икки давлат фуқаролари ҳисобланишсада ўзаро яқин қардош ва ҳаттоки оилавий муносабатларни ҳам йўлга қўйиган халқлардир. Ўзбекистон ва Тожикистонни умумий тарих, узвий маънавий қадриятлар боғлаб туради. Икки халқ азалдан бир дарёдан сув ичган, қариндошлик ришталари билан боғланган. Том маънода икки тилда гаплашувчи бир халқ деб аташади. Азалий қўшнилик, ўзаро ҳурмат ва анъаналар икки давлат ўртасидаги муносабатларнинг мустаҳкам асоси бўлиб хизмат қиляпти.

УЗБЕКИСТАН-ТАДЖИКИСТАН: СОТРУДНИЧЕСТВО ДВУХ СТРАН В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ТУРИЗМА.

Бахтиёр Усмонов,
Докторант Гулистанского государственного университета
Гулистон, Узбекистан
Электронная почта: usmonovbaxtiyorbotirovich@gmail.com

Ключевые слова: новые реформы, стратегическое партнерство, взаимное сотрудничество, межгосударственные отношения, культурно-

гуманитарные связи, культура, духовность и просвещение, искусство, взаимные туристические связи, дипломатия, узбекско-таджикские связи, исконное добрососедство.

Аннотация: С исторической точки зрения народы стран Центральной Азии, особенно узбеки и таджики, имеют длительную общую историю, принадлежавшую к единому региону. Народы стран имеют схожие традиции, общую историю и принадлежат к одной религии. На границе двух стран проживают узбеки и таджики. Хотя это результат национального размежевания в 1924 году, приграничные народы считаются гражданами двух стран и установили тесные братские и даже родственные отношения. Узбекистан и Таджикистан связаны общей историей и общими духовными ценностями. Два народа пили воду из одной реки и были связаны родственными узами. Буквально его называют народом, говорящим на двух языках. Многовековое добрососедство, взаимоуважение и традиции служат прочной основой отношений двух стран.

Ўзбекистон Марказий Осиё минтақасидаги давлатлар билан фаол, ташаббускор ва конструктив алоқалар олиб бормоқда. Марказий Осиёнинг туб аҳолиси умумий тарихга, ўзаро ўхшаша маданият ва урф-одатларга эга[10]. Ўзбекистон-Тожикистон халқлари азалдан бир дарёдан сув ичиб келаётган икки тилли бир миллат десак адашмаган бўламиз. Чегара ҳудудларда ҳозирга қадар ўзаро қариндошлик аълоқалари билан боғланган ўзбек-тожик халқлари истиқомат қилиб келишмоқда. Бу икки халқ эътиқоди ва дини бир, қон-қариндош халқлардир.

Умумий этник илдизга эга икки халқнинг маданиятларини, турмуш тарзларини, урф-одатларини ва халқ санъатини айрим ҳолларда умуман ажратиб бўлмайди. Икки халқнинг ибтидоий, қадимги ва аксарият ҳолларда ўрта асрларга оид тарихи ўзаро чамбарчас боғлиқдир.

Ўзбекистон ва Тожикистон халқлари ўртасида таълим, илм-фан ва туризм соҳасидаги ҳамкорлик алоқалар сўнги йилларда янги босқичга кўтарилмоқда. Аммо бу соҳадаги алоқалар кўп йиллик тарихга ҳам эга. Ҳаттоки собиқ иттифоқ даврида ҳам илм-фан соҳасида икки давлат ўртасида кадрлар алмашинуви тизими мавжуд эди. Масалан СамДУ битирувчиларидан Султон Умаров, Муҳаммад Осимий, Акобир Адҳамов, Исроил Исмоиловлар Тожикистон ФА академиги бўлганлигини айтиб ўтишимиз мумкин. Ёки тарихнавислик соҳасида Ш. Воҳидов каби олимларнинг ҳар икки давлатда фаолият олиб борганлигини айтиш мумкин. Илм-фан соҳасида бундай мисоллар минглаб топилади.

Бироқ собиқ иттифоқнинг парчаланишидан сўнг ўтган чорак аср давомида илм-фан соҳасидаги аълоқалар бироз сусайиб қолди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг сиёсий иродаси, яқин қўшничилик муносабатларини тиклаш йўлидаги саъй-

---

[10] Abdumajidova Hamida . Active foreign policy of Uzbekistan and its impact on integration process in Central Asia. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. Vol.2, No 3. 2021// file:///C:/Users/User/Downloads/414-Article%20Text-1218-1434-10-20210517.pdf

ҳаракатлари туфайли икки мамлакат ўртасида барча йўналишларда ва жумладан илм-фан соҳасидаги ҳам алоқалар қайта тиклана бошлади.

Сўнгги йилларда ўзаро ҳамкорлик алоқаларида улкан ўзгаришлар кузатилмоқда. 2016 йилнинг сентябридан то ҳозирги кунга қадар икки мамлакат президентлари ўртасида тўрт марта ўзаро учрашув, бир қатор самимий ва муҳим телефон мулоқотлари ўтказилди. Давлат раҳбарлари давлатлар ўртасидаги ўзаро алоқаларни икки қардош халқ манфаатларидан келиб чиқиб, сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш йўлида биргаликда ишлашга тайёр эканини бир неча маротаба қайд этди.

2021 йилдан давлатларимиз пойтахтлари ўртасидаги авиаташувлар, темир йўл қатнови қайта тикланди. Самарқанд – Панжикент А-377 халқаро автомобиль йўли очилди. Ўзбекистон – Тожикистон давлат чегарасида ўтказиш пунктлари ўз ишини тиклади, ўзаро алоқаларни кенгайтириш, савдо битимлари ва шартномаларни тузишга асос бўлган миллий кўргазмалар ва бизнес-форумлар ташкил этилди.

2017 йилда Тожикистон Республикасида Ўзбекистон Республикаси маданияти кунлари ва Ўзбекистон Республикасида Тожикистон Республикаси маданияти кунлари муваффақиятли ўтказилди.

Ўзбекистонда тожик миллатига мансуб қарийб 1,5 миллион фуқаро истиқомат қилади. Таълимнинг барча босқичлари тожик тилида ҳам йўлга қўйилган. Жумладан, 9700 дан ортиқ мактаблар 400 дан ортиғида тожик тилида таълим мавжуд. 245 та таълим муассасаси фақат тожик тилида таълим беради[11]. Юртимиз мактабларида жами 70101 нафар ўқувчи тожик тилида таълим олади. Юртимизнинг 10 ҳудудида тожик миллий маданият марказлари фаолият олиб бормоқда[12].

Самарқанд, Термиз, Фарғона давлат университетларида тожик тилида машғулотлар олиб борилади. Шунингдек, Фарғона вилоятининг Сўх туманидаги коллежда ҳам бир қатор мутахассислар тайёрланади.

Бухоро, Жиззах, Қашқадарё, Навоий, Наманган, Самарқанд, Сирдарё, Сурхондарё, Фарғона ва Тошкент вилоятларидаги тожик мактаблари учун тожик тилида дарсликлар чоп этилади.

Делегацияларнинг ўзаро ташрифлари, ижодий сафарлар ташкил этилмоқда, маданият кунлари, концертлар, кўргазмалар, анжуманлар ўтказилмоқда. Тожикистонда ҳам ўзбек тилини ривожлантириш борасида қатор ишлар қилинаётгани, жумладан, республикада таълим жараёни ўзбек тилида олиб борилаётган мактаблар сони 272та, тожик ва ўзбек тилларида фаолият юритадиган умумтаълим муассасалари 597тани ташкил этиши, шунингдек, тожик-ўзбек-рус, тожик-ўзбек-қирғиз ва тожик-ўзбек-туркман

---

[11] Ўзбекистонда қанча мактаб бор ва уларда неча нафар ўқувчи таълим олади?// 21.02.2019й.https://m.kun.uz/news/2019/02/21/ozbekistonda

[12] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик аълоқалари қўмитаси.// https://interkomitet.uz/mita-a-ida/millij-madanij-markazlar/?lang=oz

тилларидаги мактаблар мавжудлиги қайд этиш жоиз[13].

Бундан ташқари, Тожикистон Республикаси олийгоҳларида ўзбек тили ва адабиёти факультети ҳамда бўлимларининг фаолият юритаётгани, ўзбек тилидаги ўнлаб газета-журналлар, телерадиодастурларнинг эфирга узатилаётгани тожикистонлик ўзбеклар учун ўз она тилидан эркин фойдаланиш борасида яратиб берилган имконият дея баҳолаш мумкин.

Тожикистонда ўзбек тилида фаолият олиб бораётган 10 дан ортик нашрлар мавжуд бўлиб, Душанбеда ўзбек жамияти томонидан «Халқ сўзи» газетаси чоп этилади. Хўжандда «Маънавият» газетаси ва «Шарқнома» журнали ўзбек тилида чоп этилади. Шунингдек, ҳафтада бир марта ОАВда ўзбек тилидаги дастур ва эшиттиришлар олиб борилади[14].

Қайд этилганидек, илмий муассасалар, ўқув юртлари, оммавий ахборот воситалари, ижодий ва спорт жамоалари, ёшлар ва хотин-қизлар ташкилотлари, касаба уюшмалари ва бошқа фуқаролик жамияти институтлари ўртасида тўғридан-тўғри алоқалар йўлга қўйилмоқда.

Тожикистон Президенти фармойиши билан мамлакат пойтахтидаги "Ёшликнинг 50 йиллиги" истироҳат боғи номи "Низомиддин Алишер Навоий" деб қайта номланиши, Самарқанд шаҳрида икки халқнинг буюк вакиллари – Алишер Навоий ва Абдураҳмон Жомийга ёдгорлик ўрнатилиши, Тошкент метрополитенининг станцияларидан бирига атоқли тожик шоири, Мирзо Турсунзода номи берилиши каби ўзгаришлар икки халқ маданий ҳаётида муҳим воқейликдир. Шунингдек, ўзбек тилини Тожикистонда, тожик тилини Ўзбекистонда ўрганиш ва ўргатишни такомиллаштириш, ўқув ва бадиий адабиётлар, даврий ва илмий нашрлар билан алмашув, икки мамлакатнинг мумтоз адабиёт вакиллари ва замонавий муаллифлари асарларини таржима қилишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таълим ва фан соҳасида ўзаро муносабатларни, шу жумладан, икки мамлакат олий ўқув юртлари ва фанлар академиялари ўртасида ҳамкорликни ривожлантириш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Узоқни кўзлаб олиб борилаётган бугунги кундаги ташқи сиёсат самараси ўларок, мамлакатларимиз ўртасидаги муносабатлар сифат жиҳатидан янги босқичга кўтарилди. Сиёсий, савдо иқтисодий, таълим, илм-фан ва туризм каби қатор соҳалардаги имкониятларни кенгайтириш учун қулай имкониятлар йўли очилди. Маълумотларга қараганда Ўзбекистон ва тожикистон ўртасида 1991 йилдан буён икки мамлакат парламенти вакилларининг 20дан ортиқ учрашувлари бўлиб ўтган. Тожикистон республикаси Мажлиси Олий билан Ўзбекистон республикаси Олий Мажлиси ўртасида парламентлараро гуруҳлар тузилган. Икки давлат ҳамкор мамлакатлар сифатида халқаро доирада ҳам ўзаро бир-бирларини қўллаб қувватлаб келмоқда.

---

[13] Тожикистонда ўзбек тили байрами нишонланди.// https://uz/uz/77038

[14] Ш.Э.Ражабова // «Кўп томонлама маданий-гуманитар алоқаларнинг минтақавий ҳамкорликни ривожлантиришдаги ўрни»// ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW // https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

Ўзаро муносабатларимиз янги давр талаблари асосида ривожланмоқда. Ўзбекистон Республикаси билан Тожикистон Республикаси ўртасида 2000 йилда имзоланган Абадий дўстлик тўғрисидаги шартномада икки томонлама муносабатларнинг асосий тамойиллари акс этган.

Ахамиятли томони шундаки, икки томонлама алоқалар Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги минтақавий муносабатларда ҳам муҳим омил саналади.

Халқларимизни бир - бири билан янада жипслаштиришга ёрдам берувчи муҳим омиллардан бири, бу туризм соҳаси ҳисобланади. Таъкидлаш жоизки, минг йиллар давомида халқларимизнинг қон-қонига сингиб, уларнинг маънавий оламида ҳамда маданий хаётида шаклланиб, сайкалланиб келган анъаналарни, тарихий-маданий кадриятларни сақлаб қолиш йўлида мустаҳкам пойдевор яратилмоқда. Давлатимиз раҳбари ҳам сайёҳлик йўналишларининг барча қирраларини қамраб олган «Битта саёҳат – бутун минтақа» қўшма дастурини рўёбга чиқаришга киришиш бўйича таклиф бергани бежиз эмас.15

Халқларимизни бутунжахон эътиборига молик маънавий мерос бирлаштириб туради. Қадимдан икки тилда шох асарлар ва шеърий достонлар, ғазалу-қасидалар битилган, мадрасаю расадхоналар бунёд этилгани ҳам фикримизнинг ёрқин далилидир. Ҳақли равишда ҳар икки давлат умумий маданий мулоқот намуналари фахрланади ва уларни асраб-авайлайди.

Тожикистон билан туризм соҳасида амалга оширилаётган ишлар хсусида тўхталиб ўтишдан аввал мазкур кўҳна ва қадимий маданият ўчоғи ҳақида қисқача тўхталиб ўтсак.

Мамлакатда ўзига хос санъат, шахарсозлик борасидаги юксак махоратни кўришимиз мумкин. Шунингдек, бетакрор меъморий обидалари билан бутун дунёга маълум ва машҳурдир. Тожикистон ҳам Ўзбекистон ҳам мустакилликнинг илк йилларидаги мураккаб иқтисодий ва сиёсий қийинчиликларга қарамай, тарихий-маданий обидаларни асраб-авайлаш, қайта тиклаш ва дунёга намоён этиш аниқ мақсад ва вазифаларини белгилаб олди.

Мутахассисларнинг маълумотларига кўра, ҳозирги кунда, Ўзбекистонда 7400дан ортиқ, Тожикистонда эса 3000 дан зиёд қадимий ва маданий тарихий обидалар мавжуд16.

Ўзбекистон тарихий обидалари сони бўйича дунёда 9-ўринда туради деб маълумот беради Полшанинг “Swiat Elit” журнали17. Юртимизда 7400 га яқин маданий мерос объектилари бўлиб, шундан 209 таси тўртта шаҳар-музейларда жойлашган. Хива шаҳридаги Ичан-қалъа, Бухоро ва Шаҳрисабзнинг тарихий маркази, шунингдек, Самарқанд ЮНЕСКОнинг Жаҳон мероси рўйхатига

---

[15] Ф. Ҳакимов // «Маданий-гуманитар соҳада Марказий Осиё мамлакатлари ҳамкорлигининг янги босқичи» // «Тараққиёт стратегияси» маркази 09.08.2021й. https://strategy.uz/index.php?news=1358

[16] Ўзбекистон — Тожикистон: маданий-гуманитар ҳамкорликнинг асосий йўналишлари // Халқ сўзи 01.06.2021й.

[17]Journal Swiat Elit. "Uzbekistan ranks 9th in the world by the number of historical monuments" 20 sep. 2021 y// «Swiat Elit» журнали: Ўзбекистон тарихий обидалари сони бўйича дунёда 9-ўринда туради// http://old.muslim.uz/index.php/english/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/28765-swiat-elit-zhurnali-zbekiston-tarikhij-obidalari-soni-b-jicha-dunjoda-9-rinda-turadi

киритилди. Бундан ташқари, республикада сайёҳларни қизиқтириши мумкин бўлган 11 та миллий боғ ва қўриқхоналар, 12 та вақтинчалик қўриқхоналар, 106 та музей ва бошқа кўплаб объектлар мавжуд. Тарихий ёдгорликларнинг 2357 тасини меъморий обидалар, 3843 тасини археологик ёдгорликлар, 998 тасини маҳобатли тарихий иншоотлар ташкил қилади. Юртимиз мустақилликка эришишдан олдин бу меъморий ёдгорликлар, обидаларнинг аксарияти бузилган, таъмир қилинмаган, ярим вайрона ҳолатларда эди. Улкан маданий меросни келажак авлодларимиз учун сақлаб қолиш мақсадида Ўзбекистон раҳбарияти, биринчи навбатда, ана шундай иншоотларни, ёдгорликларни қайта қуриш, таъмирлаш, асл тарихий асосда бунёд этишга алоҳида эътибор қаратди.

Натижада, мустақиллик йиллари Ўзбекистонда мингдан ортиқ тарихий ёдгорликлар қайта қурилиб, таъмирдан чиқарилди. Бу ишлар учун бир неча юз миллиард сўмлик маблағ сарфланди. Тарихий меросимиз тикланди, қадриятларимиз қарор топди. Юртимизда амалга оширилган улуғвор ишлар халқаро миқёсда ҳам тан олинди. Мамлакатимиздаги тўртта қадимий шаҳар — Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз халқаро ЮНЕСКО ташкилоти томонидан Бутун жаҳон моддий маданият намуналарига эга бўлган тарихий шаҳарлар рўйхатига киритилди.

Қайд этиш жоизки, туризм саноатини ривожлантиришни жадаллаштириш 2016 йилнинг охирида бошланган. Туризм соҳасида тадбиркорлар учун солиқ имтиёзлари ва преференциялар, ички ва ташқи бозорларда миллий туризм брендини тарғиб қилиш, виза режимини либераллаштириш ва ўзбек валютасининг конвертация қилинишини очиш борасида қатор қарорлар қабул қилинди.

Туризм соҳасини фаол қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш сиёсатини давом эттиришда, 2019 йил 5 январда Ўзбекистон Президенти томонидан “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги фармони имзоланди18. Фармон билан қабул қилинган “2019-2025 йиллар давомида туризмни ривожлантириш концепцияси” да туризм соҳасини янада ривожлантириш бўйича ҳар йиллик алоҳида чора-тадбирлар режасини тасдиқлаган ҳолда, унинг асосий йўналишлари ва мақсадли параметрларининг тегишли давр мобайнида бажарилишига қараб босқичма-босқич амалга оширилиши белгилаб қўйилди.

Тожикистонда ҳам кўҳна ва улуғвор ноёб ёдгорликлари, дурдоналари беҳисоб бўлиб, Саразм, Хисор, Кўлоб, Хўжанд, Хўжа Машҳад мадрасаси, Мухаммад Башоро, Хўжа Накшрон, Мир Саид Али Хамадоний, форс тилидаги кадимий битикларни, қоя суратлари, Будда ҳайкаллари, Ямчун қалъаси, Зонга ибодатхонаси, Карон меъморчилик обидаси ва "Амударё хазинаси" нинг аниқланиши каби қатор ноёб манбаларни мисол килиб келтиришимиз мумкин. Ҳозирги кунда Тожикистоннинг икки қадимий иншооти ЮНЕСКО

[18] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.01.2019 йилдаги ПФ-5611-сон. “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”// https://lex.uz/docs/4143188

бутунжахон мероси рўйхатига киритилган: маданий аҳамиятга эга бўлган қадимий Саразм шахри (милоддан аввалги IV-II асрлар) ва табиий аҳамиятга эга бўлган "Помир тоғлари" миллий боғи.19

Ҳозирги кунда икки давлат ўртасида маданий масалалар бўйича минтақавий Хукуматлараро ташкилот тузиш тўғрисида музокаралар олиб борилмоқда. Ушбу ташкилот зиммасига турли маданий тадбирлар, жумладан, олимларнинг учрашувлари, мумтоз мусиқий кечалар, адабий ва илмий нашрлар ҳамда бошқа турдаги ташаббусларни ташкиллаштириш, назорат қилиш вазифаси юклатилади.

Таъкидлаш жоизки, умумий маданият ва қадриятларга икки халқ ўртасидаги маданий алоқаларни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистоннинг қўшни давлатларга нисбатан амалга ошираётган сиёсати нафақат сиёсий ва иқтисодий секторни ривожлантиришга, балки Марказий Осиё халқлари ўртасидаги маданий алоқаларни чуқурлаштиришга қаратилган20. Жумладан Ўзбекистон-Тожикистон муносабатларида ҳам умумий маданий тамаддун маконини янада ривожлантириш халқларимиз ўртасидаги қардошлик муносабатларини мустаҳкамлаш тенденцияси ётади.

Мазкур маданий сиёсат траекторияси халқларимиз орасидаги кенг кўламли маданий-гуманитар алоқаларнинг равнақ топиши давлатлараро муносабатларни мустаҳкам тутиб турилишида маънавий пойдевор вазифасини ўтайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Abdumajidova Hamida. Active foreign policy of Uzbekistan and its impact on integration process in Central Asia. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. Vol.2, No 3. 2021// file:///C:/Users/User/Downloads/414-Article%20Text-1218-1434-10-20210517.pdf

2. Journal Swiat Elit. "Uzbekistan ranks 9th in the world by the number of historical monuments" 20 sep. 2021 y// «Swiat Elit» журнали: Ўзбекистон тарихий обидалари сони бўйича дунёда 9-ўринда туради// http://old.muslim.uz/index.php/english/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/28765-swiat-elit-zhurnali-zbekiston-tarikhij-obidalari-soni-b-jicha-dunjoda-9-rinda-turadi

3. Sayfullaev, D. B. (2020). CONCEPTUAL BASIS OF THE MODERN WEST AND EAST DIPLOMACY STUDY. Journal of Legal, Ethical and Regulatory Issues, 23(2), 1-10.

4. Тожикистонда ўзбек тили байрами нишонланди.// https://darakchi.uz/uz/77038

5. Ўзбекистон — Тожикистон: маданий-гуманитар ҳамкорликнинг асосий йўналишлари // Халқ сўзи 01.06.2021й.

6. Ўзбекистон — Тожикистон: маданий-гуманитар ҳамкорликнинг

[19] Ўзбекистон — Тожикистон: маданий-гуманитар ҳамкорликнинг асосий йўналишлари // Халк сузи 01.06.2021й. // https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-tozhikiston-madanij-gumanitar-hamkorlikning-asosij-jonalishlari

[20] Sayfullaev, D. B. (2020). CONCEPTUAL BASIS OF THE MODERN WEST AND EAST DIPLOMACY STUDY. *Journal of Legal, Ethical and Regulatory Issues, 23(2),* 1-10.

асосий йўналишлари // Халк сузи 01.06.2021й. // https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-tozhikiston-madanij-gumanitar-hamkorlikning-asosij-jonalishlari

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик аълоқалари қўмитаси.// https://interkomitet.uz/mita-a-ida/millij-madanij-markazlar/?lang=oz

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.01.2019 йилдаги ПФ-5611-сон. "Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"// https://lex.uz/docs/4143188

9. Ўзбекистонда қанча мактаб бор ва уларда неча нафар ўқувчи таълим олади?// 21.02.2019й.https://m.kun.uz/news/2019/02/21/ozbekistonda

10. Ф. Ҳакимов // «Маданий-гуманитар соҳада Марказий Осиё мамлакатлари ҳамкорлигининг янги босқичи» // «Тараққиёт стратегияси» маркази 09.08.2021й. https://strategy.uz/index.php?news=1358

11. Ш.Э.Ражабова // «Кўп томонлама маданий-гуманитар алоқаларнинг минтақавий ҳамкорликни ривожлантиришдаги ўрни»// ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW // https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ БИТИРУВЧИЛАР ЭГАЛЛАШИ ЛОЗИМ БЎЛГАН КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Муродов Эркин Эргашевич,

А.Авлоний номидаги илмий-тадқиқот институти мустақил тадқиқотчиси

Глобаллашув ва информацион асрнинг шиддат билан ривожланаётган пайтида ўрта мактабни битирувчилар 10-20 йил олдинги битирувчиларга қараганда фарқли компетенцияларга эга бўлиши табиий ҳолатга айланди.

Ҳозирги даврда мактаб битирувчилари қандай компетенцияларга эга

бўлиши лозимлиги ҳақида турли қарашлар мавжуд бўлса-да, улар орасида узвий боғлиқлик ва ўхшашликни кўришимиз мумкин. Жумладан, миллий ва халқаро стандартларда ўрта мактаб битирувчилари фанлар бўйича ўзлаштириши ёки билимлари B1 ва B1+ даражада бўлиши белгиланган бўлса, ушбу таянч фанлардан ташқари бошқа компетенциялар масалан, когнитив ва гуманитар компетенциялар: танқидий ва ижодкор фикрлаш, коммуникатив, ўзини-ўзи ривожлантириш, ижтимоий фаол, инсонпарварлик ва бошқа билим ва кўникмаларга эга бўлиши талаб қилинади. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сонли қарори ва Халқ таълими вазирининг 2021 йил 17 декабрдаги 406-сонли

буйруғидан келиб чиқадиган таълим стандартлари ва талаблари[21] билан Европа малакавий доираси (EQF)[22] орасида яқинлик ва ўхшашликларни кўришимиз мумкин. Миссияларининг фарқлилиги туфайли UNESCO ва UNICEFнинг таълим мақсадлари ва талабларида фарқлилик бўлса-да, умумий компетенциявий талаблари ўхшашдир.

Таълим тадқиқотчиларининг илмий ишларида ҳам XXI асрда ўрта мактаб

битирувчиларининг компетенциялари қуйидагиларни ўзида мужассамлаштирмоқда:[23]

Билимлар – анъанавий (математика, она тили, хорижий тил ва б.) ва замонавий (робототехника, тадбиркорлик ва б.);

Кўникма(қобилият)лар – ижодкорлик, танқидий фикрлаш, коммуникатив, ҳамкорлик;

Характер – ҳушёрлик, қизиқувчанлик, жасорат, чидамлилик, ахлоқ, етакчилик;

Метабилиш (metacognition) – ўзини-ўзи акс эттириш (self-reflection) ва қандай ўрганишни ўргатиш таълим жараёни.

Етакчи ташкилотлар ва таълим соҳасининг олимлари томонидан олиб борилган **"XXI аср компетенциялари"** номли тадқиқотда ҳам ўрта мактабни битирувчилар учун асосий компетенцияларга таянч фанлар (асосан, математика, тил, адабиёт, санъат, иқтисод ва тарих), ижодкорлик, муаммоларни ҳал қилиш, инновация, танқидий фикрлаш ва ахборот технологиялари саводхонлиги киришини ва ушбу компетенциялар битирувчи ёшлар ҳаётида муҳим рол ўйнашини илгари суради.[24]

Умуман олганда, битирувчилар учун компетенцияларни билиш аслида уларнинг келгуси ҳаёти билан боғлиқдир. Бугунги шиддат билан ўзгараётган даврда иш берувчилар учун фанларни ёки мавзуларни ёдлаб олган (зубрёжка) битирувчи ёшлар эмас, вазиятларга фарқли ёки танқидий қарай оладиган ва муаммоларни ҳал қила оладиган ижодкор ишчи-мутахассис керак. Фан ва мавзуларни мақсадсиз ёдлаб олиш билан таълим сифати яхши томонга ўзгармаяпди.

Гап шундаки, кўпчилик давлатларида кузатилганидек, Ўзбекистонда ҳам

таълимда systematic reasoning (тизимли мулоҳаза) ёки critical thinking/analysis (танқидий фикрлаш/таҳлил) кўникмалари яхши шакллантирилмайди. Афсуски, кўплаб мактабларимизда дарслар ва педагогик ёндашувлар ўқувчиларни нима учун шунақа деб эмас, балки бу айнан шу ва сен буни ёдлашинг керак деган формулага асосланиб фаолият олиб боради. Албатта, бу фақат таълим соҳаси билан эмас, балки жамият муаммоси билан

---

[21] Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirining buyrugʻi "Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartini tasdiqlash toʻgʻrisida" Toshkent sh., 2021-yil 17- dekabr, 406-son.

[22] The European Qualifications Framework: supporting learning, work and cross-border mobility. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2018.

[23] Maya Bialik, Charles Fadel et al. Skills for the 21st Century: What Should Students Learn? Center for Curriculum Redesign, 2015.

[24] P21 Partnership for 21st Century Learning http://www.battelleforkids.org/networks/p21 (Маълумотга эришилган тарих: 11.12.2021)

ҳам боғлиқдир. Бироқ, ўқитувчи-педагоглар ёш авлодни етиштирувчи ва тарбияловчи энг катта воситадир. Шу боис, уларнинг ёндашуви ўқувчиларнинг шаклланишида катта рол ўйнайди.

Охирги пайтларда бу масалада мамлакатимизда олиб борилаётган тадқиқотларда ҳам катта аҳамият касб этиб бормоқда. Ҳусусан, Халқ таълими вазирлиги ва А.Авлоний номидаги илмий тадқиқот институти томонидан TALIS-2018 доирасида олиб борилган тадқиқотларида ҳам танқидий фикрлашга алоҳида урғу берилган ва уни замонавий шахснинг жуда муҳим ва келажакдаги профессионал кўриниши сифатида эътироф этилган. Унда (диаграмма 1га қаранг) иштирокчи ўқитувчиларнинг 60 фоизи ўқувчиларга танқидий фикрлаш вазифаларини бериши ва 58 фоизи аниқ жавоблар бўлмаган вазифаларни бериши кўрсатиб ўтилган.[25]

Шу билан бирга, бошқа тадқиқотларда кўришимиз мумкинки, Ўзбекистонда умумтаълим мактабларида таянч фанлар билан бирга когнитив компетенцияларини ривожлантириш борасида кучли ва самарали меҳнат ва ислоҳотлар олиб бориш лозим. Жумладан, 2019 йилда UNICEF томонидан чоп этилган “Student Learning at primary grades in Uzbekistan: Outcomes, Challenges, and Opportunities: A summary of Uzbekistan National Learning Achievement Study, Grade IV, 2018” номли тадқиқотида мамлакатимиз таълимига оид муҳим фактларни илгари суради. Ушбу тадқиқотда гарчи бошланғич 4-синф ўқувчилар асос қилиб олинган бўлса-да, ушбу даврдаги ўқувчиларнинг таълим кўрсаткичлари юқори синф хусусан битирувчи ёшдаги ўқувчиларнинг таълим кўрсаткичларига катта таъсир кўрсатади, деб ҳисоблаймиз.


Тадқиқот ўқишни тушуниш бўйича PIRLS 2016, математика ва фан бўйича TIMSS 2015 асосида олиб борилган. PIRLS натижаларига кўра, ўқувчиларнинг 37 фоизи (SD 500 ва 100 шкаласи бўйича) ўртача баллга эриша олмаган, шундан 17 фоизи хатто паст кўрсаткичларга ҳам эриша олмаган. TIMSS натижаларига кўра эса математика бўйича ўқувчиларнинг 10 фоизи илғор кўрсаткичларга эришган, 23 фоизи юқори, 30 фоизи ўрта, 37 фоизи ўрта даража кўрсаткичларга ҳам эриша олмаган, табиий фанлар бўйича 38 фоизи ўртадан паст, 29 фоизи ўрта ва 30 фоизи юқори натижаларни кўрсатган (Диаграмма 1.га қаранг).[26]

Диаграмма 1. Ўзбекистоннинг PIRLS 2016 ва TIMSS 2015 кўрсаткичлари


PIRLS 2016 (ўқиганини тушуниш бўйича)

[25] Раджиев А., Каримов Ф. ва бошқалар. TALIS-2018 халқаро тадқиқотлар талаблари асосида ўтказилган сўровнома ва тадқиқотнинг ҳисоботи. 1-қисм. Тошкент, 2021. – Б. 53.


[26] UNICEF, Student Learning at primary grades in Uzbekistan: Outcomes, Challenges, and Opportunities: A summary of Uzbekistan National Learning Achievement Study, Grade IV, 2018. July 2019, p. 40-43.



TIMSS 2015 (математика бўйича)



TIMSS 2015 (табиий фанлар бўйича)




Ўзбекистоннинг PIRLS 2016 ва TIMSS 2015 кўрсаткичлари таянч фанлар бўйича кўплаб ишларни олиб боришни тақозо этмоқда. Чунки, 60-65 фоиз ўқувчилар ўрта ва ундан паст даражаларда қолмоқда. Бу жуда катта салбий кўрсаткичдир. Ривожланган давлатлар масалан, Ж.Корея ва Сингапурда ўрта ва ундан паст кўрсаткичлар 20-25 фоиз ўқувчини ташкил этмоқда.

UNICEF томонидан ўтказилган ва чоп этилган мазкур тадқиқотнинг яна бир аҳамиятли томони шундаки, унда 4-синф ўқувчиларнинг таянч фанлар

(асосан, математика, она тили (ўқиш) ва табиий фанлар) билан бирга, когнитив компетенцияларини ҳам баҳолаган. Юқоридаги учта йўналишда (ўқиганини тушуниш, математика ва табиий фанлар) когнитив соҳалар қамраб олинган: (а) билим ва тушуниш; (b) қўллай олиши; ва (с) ижодий ва танқидий фикрлаш. Тадқиқот натижаларига кўра, Ўзбекистондаги барча фанлар бўйича 4-синф ўқувчилари билимларни муайян вазиятда қўллаш ёки билимлардан мулоҳаза юритиш ва танқидий фикрлаш учун фойдаланиш билан солиштирганда билимларни ўзлаштириш бўйича ўзларининг устунликларини кўрсатдилар. Ўқувчилар "билим ва тушуниш" когнитив соҳасида ўртача 60 фоиз ёки ундан юқори балл тўпладилар. Бошқа томондан, улар қўллаш билан боғлиқ кўникмалар бўйича тахминан 50 фоиз ва математика билан боғлиқ мулоҳаза ва танқидий фикрлаш соҳаларида 40 фоиздан пастроқ балл тўпладилар (диаграмма 2 га қаранг).[27]

Бунинг аҳамияти шундаки, билиш, тушуниш, қўллаш ва мулоҳаза юритиш билан боғлиқ кўникмалар трансверсал кўникмалар бўлиб, доимий ривожланаётган меҳнат бозорлари ва унинг иш талаблари учун жуда муҳимдир. Ўқувчиларнинг ҳаётда ўз ўринларини топиб кетиш ва янги вазиятларга, ҳолатларга мослашиш учун уларда олган билимларини қўллаш ва мулоҳаза қилиш қобилиятлари бўлиши керак. Аммо, афсуски, 2-диаграммада кўришимиз мумкинки, мамлакатимизда синфларда билимларни қўллай олиш ва мулоҳаза юритиш (фикрлаш/танқидий фикрлаш) кўникмалари анча паст кўрсаткичга эга.

Диаграмма 2. Ўқувчиларнинг ўлчанган умумий қобилиятга асосланган ўртача баллари



Манба: UNICEF, Student Learning at primary grades in Uzbekistan, ўша манба, 45 бет.

2-диаграммада кўришимиз мумкинки, ўқувчиларда билиш ва тушуниш қобилияти юқори кўрсаткичларга эга. Билимларини қўллай олиш ўртача даражада бўлса, фикрлаш/танқидий фикрлаш айниқса, математика бўйича анча паст (38.6) даражада. Бу бизнинг мактабларда кўпроқ назарий билимлар бериш ва ёдлатишга кўпроқ асосланганлигини кўрсатади. Ҳаётий ҳолат ёки

[27] UNICEF, July 2019, юқоридаги манба, p. 45.

вазиятларда олган билимларини қўллай олиш ва шунга монанд мулоҳаза юритиш кўникмалари яхши шакллантирилмайди. Бироқ, юқорида ҳам кўрсатиб ўтганимиздек, битирувчилар замонавий давр талабларидан келиб чиқиб, таянч фанларни билиш ва тушуниш билан бирга, уларни ҳаётда қўллай олиш, турли вазият ва ҳолатларда ижодий ва танқидий ёндашувлардан келиб чиқиб муаммо ва масалаларга ечим топиши керак бўлмоқда.

Мамлакатимизда ҳам охириги пайтларда мазкур масалага алоҳида аҳамият қаратмоқда. Юртимиз мактабларида ўқитиладиган фан ва предметларнинг замонавий талаблардан келиб чиқиб шакллантирилиши ва такомиллаштирилиши кенг муҳокама қилинмоқда. 2022 йилнинг сўнг кунларида 29 декабрда мамлакатимиз раҳбари Президент Ш.Мирзиёев бир гуруҳ ўқитувчи-педагоглар билан учрашувидан олдин мактаб дарсликлари билан танишиб чиқди ва унда таъкидланишича, "янги авлод дарсликлари ўқув-методик комплекслар (ЎМК) асосини 4К тамойили ташкил этади: критик (танқидий) фикрлаш, коллаборация (жамоавий ишлаш), креативлик (ижодкорлик), коммуникация (мулоқот кўникмалари). Ушбу дарсликлар қуруқ маълумотларни ёдлатиш, ёки шунчаки ўқиш/ёзишни ўргатиш билан чекланмайди. Улар орқали ўқувчилар нафақат фанларни, балки XXI асрда зарур бўлган ҳаётий кўникмаларни ҳам ўрганади".[28]

---

[28] Янги дарсликларнинг ўзига хос хусусиятлари маълум қилинди, 29 декабрь 2022, https://kun.uz/news/2022/12/29/yangi-darsliklarning-oziga-xos-xususiyatlari-malum-qilindi

2-SHO‘BA. TA’LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVASIYALAR

ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ЭЛЕКТРОН ДАРСЛИКЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Козим Эшқуватов,
Физика-математика фанлари номзоди, доцент

Янги педагогик технология билан замонавий ахборот технологиясини уйғунлаштириб олиб борилиши ўқув жараёнининг самарали бўлишини таъминлайди. Компьютер технологиялари ҳар бир соҳада, хусусан таълим сохасида ҳам унумли қўлланилмоқда. Шу асосда Сирдарё вилоят педагогика марказида ҳам компьютер технологиялари асосида машғулотлар ташкил этиш йўлга қўйилган. Марказ методик кенгашида педагогик ва ахборот коммуникация технологиялари асосида таълим самарадорлигини оширишнинг янги шакл ва воситалари ўрганилиб, барча профессор-ўқитувчиларнинг амалий фаолиятларида қўлланишга тавсиялар ишлаб чиқилмоқда. Ҳар ўқув йилида педагогик технологилар асосида маъруза матнлари, ўқув-услубий мажмуалар, лаборатория ва амалий машғулот ишланмалари тайёрланиб келинмоада. Тингловчиларнинг талабларига мос ҳолда машғулотлар электрон таълим захиралари воситаси асосида ташкил этилмоқда.

Профессор-ўқитувчилар электрон дарслик ва ўқув қўлланмалар яратиш борасида фаол изланишлар олиб боришмокда.

Марказ кафедраларида педагогик ва ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш бўйича орттирилган тажрибаларини ўрганиш ва оммалаштириш мақсадида ҳар ўқув йилининг май ва ноябр ойларида “Таълим самарадорлигини ошириш" ойлиги ўтказилади ва ёш ўқитувчилар учун услубий маслахатлар берилади.

Электрон дарсликлар махсус фаннинг мазмуни ва моҳиятнга диққатни жалб этган ҳолда кўп сондаги маълумотларни қараб чиқиш ва кўпроқ амалий машғулотларни бажаришга имкон яратади. Ўрганишнинг барча босқичларида ўз-ўзини текшириб кўриш учун кенг имкониятлар мавжуд.

Электрон дарслик тажрибали ўқитувчи вазифасинн, чекланмаган тушунтиришларни, саноқсиз такрорлашларни, эслатишларни тақдим этган ҳолда бажарилади. Электрон таълим захираларини яратишда қуйидаги тузилмага эътибор қаратиш лозим: курс муаллифи ҳақида маълумотлар курс ҳақида маълумот-кириш, модул шаклидаги асосий матн, мустақил тест орқали билимини синаш учун саволлар, маълумотнома материаллар, адабиётлар рўйхата, электрон кутубхона, ўзаро мулоқот воситалари (электрон почта, телеконференция-форум, чат), амалий ва лаборатория машғулотлари, ижодий топшириқлар (курсдан кейинги топшириқлар, муаммоли ҳолатлар блоки, маълумотлар омбори (рефератлар, лойихалар, тақдимотлар), тингловчиларнинг Web ишлари, Web - сайтга жойлаштирилган тез учрайдиган

савол-жавоблар блоки, якуний бахолаш (тест саволлари), мониторинг блоки, анкеталар пакети.

Электрон дарсликлар куйидаги сифатларга эга бўлмоғи лозим:

-яхши гиперматин ва баён этиш логик тузилмасига; фойдаланувчи учун қулай навигация тизимига; интернет ва замонавий компьютерларнинг мультимедиа ва анимация имкониятларидан фойдаланишга; билимни назорат қилиш тизимига; курсларни унча катта бўлмаган блокларга ажратилганлиги; автоном маълумотнома материалларига; интернет тизимидаги электрон кутубхоналарга, ахборот манбаларига мурожаатга; ўқув дарслигининг мундарижага эга бўлишига; осон кириш, тез юкланишга; ихтиёрий танланган мавзуга ўтиш (масалан олдинги мавзуга ўтиш, кейинги мавзуга ўташ, дастурда ишлаш ҳақида маълумот олиш, дастурдан чиқиш ва бошқалар); ўқитувчи билан самарали тескари алоқага (электрон почта, Web конференция, IRC-технология (chat)) IRC (Internet Relay Chat) - ҳақиқий вақт режимида Интернет орқали гаплашишга.

Юқоридагилар ёрдамида тингловчилар керакли мавзусини танлаши, олдинги ва навбатдаги мавзуга мундарижа орқали ўтиши, олдинги ва навбатдаги мавзу буйича мавжуд мультимедиа ва анимацияларни кўриши, бирор мавзуга белги ўрнатиши ва унга электрон дарсликнинг бошқа жойидан зудликда ўтиш, дарс матнидан сўз қидириш ҳақида маълумот олиш ва дастурдан чиқиш каби бир қатор ишлар кўламини бажариши мумкин.

Электрон дарслик воситасида ўқитишда қуйидаги қулай имкониятлар яратилади: компьютерли қўллаб-қувватлашлардан фойдаланган ҳолда, катта миқдордаги топшириқларни бажаришга улгурадилар, ечимлар ва уларнинг график талқинини таҳлил қилиш учун сарфланадиган вақтни тежайдилар; компьютер олдида мустақил иш шаклида машғулот ўтказиш имконини беради; талабалар билими тез ва самарали назоратдан ўтказилади; ўқитувчига назарий ва амалий машғулотларда ўзининг хоҳиши бўйича хажм жиҳатидан кичик, аммо таркиби бўйича ўта муҳим бўлган материалларни етказишга, талабаларнинг аудитория машғулотлари доирасидан ташқари ўрганиш мумкин бўлган масалаларни ечишда мустақил шуғулланишларига шароит яратилади; ўқитувчи назорат ишларини текширишдан озод бўлади; уй топшириқлари ва назорат ишлари қисмига оид ишлашни индивидуаллаштириш мумкин.

Компьютерли ўқитиш технологиясининг асосий хусусиятлари ва афзаллик жиҳатлари қуйидагилардан иборат:

-ушбу технология талабаларни мустақил фикрлаши ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришга йўналтиради;

-ўқитувчи таълим жараёнида маслахатчи сифатида қатнашади;

-ўқитиш жараёнида ахборот воситалари ва захиралари фаол интеграцияси таъминланади;

-ўқишга қизиқиш ортади; таълим олишнинг қулайлиги ва натижавийлигини таъминлайди; талабаларда мустақил ишлаш ва изланиш малакалари шаклланади.

Хулоса қилиб айтганда, юқорида келтирилган маълумотлар таълим самарадорлигини оширишда компьютердан ўринли ҳамда унумли фойдаланиш имкониятлари мавжудлигини тажрибаларимиз кўрсатмоқда. Демак, компьютерли ўқитиш технологиясини таълим жараёнига олиб кириш давр талаби. Ўқитувчи бундай технологияни пухта билиши, ўрганиладиган материалларнинг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда уни тўғри танлай олиши лозим. Шундагина талабаларнинг фанга қизиқиш даражаси янада юқори бўлади. Вақт тежалган ҳолда мустақил ишлаш имконияти ортади.

AXBOROT-METODIK QO‘LLAB-QUVVATLASHNING TUSHUNCHASI VA TASNIFI

Xujakulov Sherzod Amankulovich,
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi,
timlandiya@gmail.com

Mazkur maqolada pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojalantirishda axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash tushunchasi, uning tasnifi tegishli manbalar asosida keng yoritilgan hamda mualliflik qarashlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: qo‘llab-quvvatlash, axborot qo‘llab-quvvatlash, metodik qo‘llab-quvvatlash, axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash, tasnif, tahlil.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagoglarni individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzishi va amalga oshirish jarayonida shakillangan ko‘nimalari asnosida axborotlarni qabul qilish, saralash, ijodiy qayta ishlash, samarali uzatish va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdagi hissasi bilan baholanadi. Bu jarayonda axborot va telekommunikasiya texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ta’lim muhitining jozibadorligi, samaradorligi, unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda interfaollik va kommunikativlikni rag‘batlantiradi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda “qo‘llab-quvvatlash” atamasiga nisbatan pedagoglarning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish, faoliyatini boshqarish, kasbiy rivojlanishiga ko‘mak ko‘rsatish va qulay sharoit yaratish nazarda tutiladi. Shuningdek, mualliflar tomonidan tushunchaning mazmun-mohiyatini ifodalovchi farqli yondashuvlar ham ilgari surilgan. Quyida mazkur atamaning izohiga doir fikrlarimizni keltiramiz.

Jumladan, V.I.Slobodchikov va Y.I.Isayevlar [1; 36-b.] inson faoliyatida nimani qo‘llab-quvvatlash zarur, degan savolga, avvalo uning subyektivligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish muhimligini bildiradilar. Ya’ni, shaxsning o‘z faoliyati, hayotiy qadriyatlariga munosabatini o‘zgartirishga bo‘lgan layoqati hamda individualligi(insonning o‘zligida qolishiga imkon beruvchi o‘ziga xosligi, ajralib turishi, betakrorligi)ni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash zaruriyati birlamchidir

Manbalar tahlili ko‘pchilik davlatlarda ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan samarali foydalanishlari, jumladan. Amerika Qo‘shma Shtatlarida maktabda pedagogik-psixologik maslahat berish, Rossiyada qo‘llab-quvvatlash,

kuzatuv, Buyuk Britaniyada pastorlik ishi, vasiylik, kasb tanlashda ko‘maklashish, Niderlandiyada o‘quvchilarga o‘quv jarayonida hamda kasbga yo‘naltirishda pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish, Avstraliyada shaxsda ijobiy o‘zgarishlarni vujudga keltirishda hamkor bo‘lish shaklida amalga oshirilishiga guvoh bo‘ldik.

Ta’lim muhiti samaradorligini oshirish, uni modernizatsilash, o‘quvchilarning bilim olishi va muayyan kompetensiyalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarining o‘rni beqiyos ekanligi shubhaga o‘rin qldirmaydi. Shu o‘rinda ta’lim jarayonlarida qo‘llaniladigan axbotot texnologiyalarini shartli ravishda ikkiga, ya’ni bilimlarni uzatish va o‘qitishni qo‘llab-quvvatlovchi guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Ta’lim muhitida axborot texnologiyalarini qo‘llash sohalari cheklanmagan bo‘lib, umumiy, ya’ni muayyan fanga bog‘lanmagan “3R: kashf qilish, rivojlantirish, amalga oshirish”[29] [2] hamda xususiy, ya’ni aniq fanga bog‘langan “axborot berish, bilimlarni uzatish, baholash, ta’lim tashkilotini yoki xodimlarni boshqarish” [3; 49-b.] nuqtai nazaridan talqinlash mumkin.

Ta‘limni jarayonlarini axborot qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish asnosida o‘qitishning bevosita aloqaga yoki hududga bog‘liq bo‘lmagan yangi shakllarini hosil qilishga shart-sharoit yaratiladi. Bu esa ta’lim oluvchilarda 21-asr uchun muhim hisoblangan ko‘nikmalar: mustaqil ta’lim olish, samarali muloqotga kirishish, axborotlarni topish, saralash, qayta ishlash, ijodiy yondashish, to‘g‘ri uzatish, jamoada ishlar, tanqidiy tafakkur, muammolarni tushunish va hal qilishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Axborot kompetentligiga yetarlicha ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘zlari mustaqil ravishda ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish yoki uning muammolariga bag‘ishlangan veb-sayt, multimedia mahsulotlarini yaratish, kanal, blog yuritish kabi faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin. Shu asosda, o‘zlari dars beradigan o‘quvchilari emas, balki auditoriyalarini ancha kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Metodik qo‘llab-quvvatlash esa metodik ishlar mazmuni, vazifalari, funksiyalari va shakllarini sezilarli darajada mukammallashtirishni talab qiladi. Chunki, har bir pedagog zimmasida bo‘lgan yuksak ijtimoiy vazifa, missiya faqatgina kasbiy rivojlanish emas, balki o‘quvchilarni har taraflama barkamol, hayotiy vaziyatlarga tayyorlash kabi muammolar yechimini an’anaviy metodik ishlar shakli bilan kutilgan darajada ta’minlab bo‘lmaydi. Aytish mumkinki, bosh vosita metodik yordamga ehtiyoji mavjud yoki yo‘qligiga qaramasdan uni birdek amalga oshirish, umumiy muammolarni bartaraf etishdan ko‘ra, o‘qituvchining mustaqilligi, o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini namoyon qilishi, muammolarini tushunishi bilan bog‘liq vaziyatlarni hal qilish va ko‘zlangan natijalarga erishishiga yo‘naltirilishi darkor.

Demak, qo‘llab-quvvatlash pedagog faoliyati yoki ta’lim jarayonining muayyan bir davri uchun avvaldan mo‘ljallanmasligi hamda muammoli vaziyatlardan chiqish uchun o‘qituvchining murojaatiga ko‘ra tashkil etilishi asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayonda metodik yordam olish zaruriyati uchun mas’uliyat to‘liq pedagogning zimmasiga yuklatiladi. Ya’ni, o‘zi mustaqil qaror qabul qilishi

---

[29] I.V.Robert tomonidan kiritilgan “3P: раскрытие, развитие, реализация” tushunchasini ifodalaydi.

kerak bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchida refleksiv ko‘nikmaning rivojlanganligi, kasbiga, faoliyatiga ongli munosabatda bo‘lishi, rivojlanish nuqtalarini belgilay olishi, o‘zaro ta’sirga kirishish imkoniyatlarini sifat ko‘rsatkichi etib belgilash muhimligini anglatadi. Agar yetuk olimlar R.X.Djurayev va X.I.Ibragimovlar fikrlariga tayanadigan bo‘lsak, “...murakkab vazifalarni hal etish uchun pedagoglarning o‘z ish faoliyatidan qoniqmaslik sabablarini ularning o‘zlaridan qidirishga o‘rgatish, o‘ziga tanqidiy qarashni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish...” [4; 5-b.] dolzarb vazifaga aylanadi.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashning ko‘lami nihoyatda keng hamda salmoqli vazifalarga ega. Shu nuqati nazardan jarayonni ishtirokchilarning munosabatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘lish mumkin (1-rasm).


Jarayonda pedagog xodimning ishtirokiga nisbatan:

bevosita – tinglovchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot orqali amalga oshiriladi;

bilvosita – axborot-kommunikasiya vositalari va resurslaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi.

Jarayonni amalga oshirish vaqtiga nisbatan:

bashoratlovchi – tinglovchilarga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy muammoli pedagogik vaziyatlar ularning haqiqiy faoliyatlarida paydo bo‘lmasdan avval beriladi. Bu tarqatma materiallar yoki yuzaga keltirilgan pedagogik vaziyatlar asosida pedagoglar tomonidan muammoni hal qilish yo‘llari ishlab chiqiladi;



1-rasm. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo'llab-quvvatlash jarayonining ishtirokchilar munosabatiga ko'ra tasnifi

tezkor – tinglovchi bilan suhbat yoki so'rovnomalar asosida ularning faoliyatida muammo yoki murakkabliklar paydo bo'lishi bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, tinglovchining murojaati, ta'lim tashkilotlari faoliyatini o'rgnish yoki axborot makonidagi munosabatlar ham bu zaruriyatni aniqlashga asos bo'lishi mumkin;

ogohlantiruvchi – pedagoglar aniq muammo bilan to'qnash kelganda va u davom etayotganda amalga oshiriladi. Undan maqsad, muayyan pedagogik vaziyatlarda keskinlikni yumshatish, taxminiy nojo'ya holatlar va noxush oqibatlarini tahlil qilish va ijobiy yechim topishga sharoit yaratiladi.

Jarayonni amalga oshirish muddatiga nisbatan:

qisqa muddatli – pedagogning kasbiy faoliyatida paydo bo'lgan muammolarni ichki imkoiyati, salohiyat, mahorati va tajribasi yetarli bo'lgan hollarda o'zi hal qila olishiga amin bo'lgan hollarda amalga oshiriladi;

uzoq muddatli – pedagogning o'zi mustaqil ravishda kasbiy muammolarini hal qila olish salohiyatiga ega bo'lmasa, unga uzoq muddatli qo'llab-quvvatlash ehtiyoji, shuningdek, kasbiy mahoratida bo'shliqlar mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi;

ba'zan – pedagogning kasbiy faoliyatida sodir bo'ladigan muammolar yechimiga kelishini qo'llab-quvvatlash zaruriyatga ko'ra vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi.

Xulosa qilish mumkinki, uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida axborot-metodik qo'llab-quvvatlashning obyekti sifatida pedagog xodimlar qaraladigan bo'lsa, predmeti bo'lib ularning muayyan pedagogik vaziyatlar va shaxsiy-kasbiy muammolarini anglashi hamda mustaqil ravishda ularni hal etishi, faolligi tushuniladi. Ya'ni, bu jarayonda o'qituvchi faqatgina kasbiy rivojlantirish obyekti emas, balki subyekti (muammoga munosabati, mustaqil qarorga kelishi va hal qilishi, harakatlari, irodasi va b.) sifatida ham namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Слободчиков В.И. Психология человека. Введение в психологию субъективности: учебное пособие / В.И.Слободчиков, Е.И.Исаев. – 2-е изд., исправ. и доп. – М., изд-во ПСТГУ, 2013. – 360 с.
2. Роберт И.В. Современные информационные технологи в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования. – М., изд-во ИИО РАО, 2010. – 140 с.
3. Бутко Е.Я. Информационные технологии в управлении персоналом образовательного учреждения // Государственный советник. – Москва, 2015. – № 4. – С. 48-52.
4. Jo'rayev R.X., Ibragimov X.I. Pedagogik jamoaning innovasion faoliyati // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. – № 2. – B. 4-8.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTERNET TARMOG‘INING O‘RNI

Dexkanova Lutfinisa Abdullayevna,
GulDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ta’lim rivojining bu ko‘rinishi hali hech bir davlatda ham, hech qaysi davrda ham bugungidek ko‘rinishga yetgan emas. Bu borada olib borilayotgan vazifalar va ishlardan yaqqol sezish mumkinki, sifatli ta’lim o‘z samarasini bugundanoq bera boshlamoqda. Jamiyat rivoj topib borishining ham ta’lim samaradorligini oshirish borasidagi yangiliklar bilan bog‘lab ko‘rsatish mumkin. Dunyo hamjamiyatida internet tizimi keng yoyilmoqda bir vaqtlar kamyuter atamasini eshitganodam u haqda tushunchaga ega bo‘lolmas edi. Hozirda esa kampyuterlarsiz hayotni tasavvur etish qiyin. Ayniqsa internetni, undan olinayotgan ma’lumotlarni hisob-kitob qilib bo‘lmaydi. Barcha insoniyatning bilimlari, tafakkuri, izlanishlari jamlanib borayotgan bu tarmoq kun sayin jadallashib bormoqda. Internetdan olinayotgan ma’lumotlarning aksariyati ta’lim sohasida, biroq qolgan bazalar bilan hech kim ning ishi yo‘q desak yanglishamiz. Internet o‘z o‘rni bilan ishlatilgandagina samara beradi. Ko‘p holatlarda yoshlarimizni bu o‘rgamchak to‘ri domiga ilinib qolayotgani ham sir emas. Vaholangki, har bir insonning o‘z tafakkuri bor. Bu texnologiyaning ravnaqi kunsayin ildamlab borayotgan bo‘lsada, undan oqilona foydalanayotgan kishilar afsuski ozchilikni tashkil etadi. Nimaniki taqiqlasak, unga bo‘lgan qiziqish ortib borishi aniq bo‘lsada, biz bu btarmoqni cheklashga intilamiz. Bizning fikrimizcha, bu borada erkinlashuv muhum. Chunki erkinlikda bo‘lgan gul ham boshqacha o‘sadi. Faqat yoshlarni bu borada taqiqlashimiz o‘rinli emas. Avvalambor taqiq emas, tushuntirish olib boorish lozim. Shundagina bolalar bunday ba’zadan oqilona foydalanishni tushunib yetishadi. Davr rivojlanib borsada, biz buning imkoniyatlarini cheklab qo‘ysak, natijada bu rivojning hech kimga keragi bo‘lmay qoladi.

Ildamlanib borayotgan dunyo ma’lumotlar omboridan ma’lumot olishni bilmaydigan kishilar kam qoldi. Faqat undan oqilona foydalanish lozim. Aytaylik, bir inson kerakli ma’lumotlarni izlab topish va uni kampyuterga yuklashni bilmasa, undan foydalana olmasa bu tizim nimaga kerak?

Internetdan olingan ma’lumotlarni qay tarzda va qanday qilib ishlatish lozim?

Olinajak har qanday ma’lumotlarni keragini kerakli joyda ishlata olgan kishi mahoratli hisoblanadi. Biz sizga internetdan olingan ma’lumotni qanday qilib bolalarga berishimiz mumkinligi yoki undan balalar qanday qilib foydalanishi haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz:

Darslarni tashkil etishda video lavhalarni o‘rni juda katta. Agar darslarni qiziqarli va shiddatli tashkil etish lozim bo‘lsa, o‘quvchilar eshitganlaridan ko‘ra ko‘rganlariga ko‘proq ishonishi nazarda tutilib video lavhalarni taqdim etilishi maqsadli bo‘ladi. Deylik, O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi o‘tilishi lozim. Bunda adib hayotiga mos video lavhalar, asarlari haqidagi video lavhalar, kino qilib olingan asarlarining kino lavhalarini (darsga mos ravishda kichikroq va mantiqiy bo‘lishi lozim) o‘quvchilarga taqdim qilib, shu jarayonning o‘ziga munosabat bildirishi topshirilsa, dars anchagina qiziqarli va “jonli” bo‘lishi kutiladi. Bu ma’lumotlarni

internetdan toppish va uni yuklab olishni ko‘rsatish ham mumkin. Shu bilan birgalikda o‘qituvchi ham bularni lishi lozim.

Akademik litsey va kasb hunar kollejlari o‘quvchilariga o‘tilayotgan darslarda kimyoviy elementlar, ko‘rinishlari va tarkibi; tabiat xodisalari - bugunda va o‘tmishda bo‘lib o‘tgan jarayonlar; tibbiy jarayonlar-operatsiya jarayoni, qon olish va qon quyish; turli texnikalar va stanoklarning ishlashi, ishlatilishi va tuzilishi; vulqonlarning otilishi, lavalarning oqishi va shu bilan ro‘y beradigan xodisalar; konlarning qazilishi, texnikalarning ishlashi, ko‘rinishi va jarayoni; adabiyot darslari bo‘lsa, turli asarlarning video lavhalari, ona tili darslarida esa estetik did bilan tuzilgan senariy asosida tayyorlangan video lavhalarning taqdim qilinishi yaxshi samara beradi. Bu borada ham internet tizimining o‘rni beqiyos.

Dars qanchalik qiziqarli o‘tayotgan bo‘lsa ham, o‘quvchilar bir xillikdan zerikishadi. Mashg‘ulotlar paytida turli o‘yinlar ham yaxshi samara beradi, ayniqsa, dars metodi to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, guruhning faollashuvi oshadi. Bunda pedagog oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishi osonlashadi. Dars nafaqat qiziqarli, balki samarali, mavzuni to‘liq o‘zlashtirishi, o‘quvchilarning bilimini oshirishi, yangiliklarga boy bo‘lishi, tarbiyaviy ahamiyatning bo‘lishi lozim. Yuqoridagi bazani internetdan topish oson, biroq buning uchun ham bu tizimni qayerdan toppish, qanday toppish lozimligi haqida ham tushuncha bo‘lishi kerak.

Dars jarayonlarida video lavhalarni taqdim qilish o‘quvchilarni darsga qiziqishlarini kuchaytirish bilan birgalikda e’tiborini ham tortadi. Shunday vaziyatlarda bu ba’za qayerdan olinganligi, qanday olinishi haqida to‘xtalib ketish zarur. O‘quvchilar aksar hollarda ko‘rgan narsalarini eslab qolishadilar va ularni shunday talqin etishadilar. Bunda o‘qituvchi juda ehtiyotkor bo‘lmog‘i lozim. Aks holatda noto‘g‘ri ko‘rsatilgan video lavhalar o‘quvchilar dunyoqarashini boshqa tomonga yo‘naltirib qo‘yishlari mumkin. Har bir darsda qo‘llanayotgan video lavhalarni qayta-qayta ko‘rib chiqib, keyin taqdim etilishi ham nazardan chetda qolmasin. Bola ongi, ayniqsa, yuqori sinflarda jadal rivojlanishda bo‘ladi. Shu boisdan ehtiyotkorlikni ko‘proq talab etadi. Video lavhalarni yuklab olish jarayonida boshqa ma’lumotlarda ham duch kelib qolish mumkin. Bu borada bolaga to‘g‘ri tanlov tushunchasini berib o‘tish maqsadli.

Bulardan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarida bunday lavhalarni, masalan, M.Yusuf ijodini o‘tish jarayonidagi shoirning shaxsan o‘zi tomonidan aytilgan she’rlari va fikrlari ko‘rsatilib berilganda o‘quvchilarni shu shoirga o‘xshashni yoki qahramonga o‘xshashni istab qolish qolatlarini ham ko‘rish mumkin. Bu esa o‘qituvchi darsning qaysi sifatini berayotganligi bilan bog‘liq. Ijodkorning o‘zidan eshitgan she’ri o‘zinikidan, nafaqat o‘zinikidan, balki o‘qituvchisinikidan ham yaxshiroq ta’sir etadi. Bunda o‘quvchilar, birinchidan, she’rlarini shoirlarga xos o‘qishga harakat qilsa, ikkinchidan, shoirlarning o‘zlari haqidagi munosabatini va ularning ijodlari haqidagi haqiqatlarni ijodkorning o‘zidan eshitgani ma’qil. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, ijodkorning o‘zidan eshitilgan fakrlar “jonli” muloqotga yaqin turadi. Shu bois o‘quvchilarni darsga qiziqishlari ortadi va kelgusi darslarni ham intiqlik bilan kutishadi. Faqat, o‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar bilimini oshirishga qaratilgan maqsadlarni to‘g‘ri belgilagan bo‘lsa bas.

Koʻrinib turibdiki, oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini shakllantirishda ham bunday texnoligiyaning imkoniyatlari va u bergan ma'lumotlar bazasi oʻz samarasini beradi. Internet tizimida oʻtiladigan darslar, va aloqalar ham jadallashib bormoqda.

Qaysidir inson hayotini "hal qilish" borasida olib borilgan jarayonlarni, uning oqibatlarini ham koʻrib, xulosa chiqarib olishlariga ham imkoniyat bor. Tibbiyot sohasidagi internet ma'lumotlari ham ancha keng tarqalgan. Bu xususda olinajak bazalar ham oʻquvchilarni keyingi faoliyat olib borishlari uchun moʻljallangan boʻlishi lozim. Shundagina ularni ham samarasi ortadi. Deylik, qon olish jarayoni. Jarayonda ninani ushlash va ishlatilishi, tomirning topilishi va ninani sanchilishi, qonni maxsus idishga quyilishi va quyilgan qonni keyingi bosqichga olib oʻtilishi koʻrsatildi. Bu holatda oʻquvchilarning koʻzlari oʻrganadi, amaliyotga chiqishganida hadiksiramaydi, darsga qiziqishi ortadi, dars oʻtilishi faollashadi, oʻqituvchining ishi osonlashadi. Bu ma'lumotlar ombori qayerda joylashganligi ham koʻrsatilib oʻtiladi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, internet ma'lumot olishda va almashishda yaxhi samara beradi, faqat undan oqilona foydalanishni bilsak bas.

MAKTAB TA'LIMI TIZIMI XODIMLARINING BOSHQARUV HAMDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QOʻLLASH ASOSIDA MUAMMO VA EHTIYOJLARINI ANIQLASH (MALAKA OSHIRISH MISOLIDA)

Elyor Alkarov Maxmudovich, Otamurodov Golibjon Ruzimurodovich, Bakhodir Khurammov Sapparovich,

Raqamli ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot boʻlimi boshligʻi mralkarov@gmail.com,

Raqamli ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot boʻlimi yetakchi ilmiy xodimi foniy_02_03@mail.ru,

Raqamli ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot boʻlimi katta ilmiy xodimi bbbxurramov@gmail.com,

Annotatsiya. Maqolada xalq ta'limi xodimlari uchun yaratilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining hozirgi kundagi holati, oʻrganilgan tahlillar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayoni mazmunini va uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizim takomillashtirish boʻyicha amaliy natijalar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: uzluksiz, tizim, mexanizm, kasbiy rivojlanish, uzluksiz malaka oshirish

Abstract. The article describes the current state of the system of continuous professional development created for public education workers, the content of the process of continuous professional development based on the analysis studied, as well as the practical results of improving the system of continuous professional development.

Key words: continuous, system, mechanism, professional development, continuous professional development.

Аннотация. В статье описывается современное состояние системы

непрерывного профессионального развития, созданной для работников народного образования, содержание процесса непрерывного профессионального развития на основе изученного анализа, а также практические результаты совершенствования системы непрерывного профессионального развития.

Ключевые слова: непрерывное, система, механизм, профессиональное развитие, постоянное профессиональное развитие.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalq ta'limi xodimlarini malaka oshirish tizimida ham innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash va yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan pedagoglarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotda tezkor o'zlashtirish tizimi yaratish dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelinmoqda.

Ushbu muammolar yechimi sifatida xalq ta'lim pedagoglarining uzluksiy kabiy malakasini oshirib borishga qulaylik yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida hukumatimiz tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Farmon, farmoyish va qarorlar qabul qilinib, ijrosida belgilangan vazifalar amaliyotga joriy etilib kelinmoqda. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarorida "xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida har bir xodimning malaka oshirish jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta'minlovchi "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi (http://onlinedu.uz) faoliyatini yuritish va takomillashtirib borish" vazifasi belgilangan. Ushbu platforma 2021-yilning 1-martidan boshlab amailyotga joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvarida 25-sonli qarorida esa xalq ta'limi xodimlarining kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirish belgilagan berilgan bo'lib, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga ta'limning kredit-modul tizimini joriy etildi. Shuningdek, xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining tuzilmasi, xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi to'g'risida nizom, xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish bilan bog'liq xarajatlarini Davlat byudjeti hisobidan qoplab berish va Reyestrini yuritish tartibi belgilandi.

Ushbu qarorlarning qabul qilinishi xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi tizimini yo'lga qo'yish, ularning "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida doimiy ravishda o'z kasb saviyalarini takomillashtirib borish va sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Tabiiyki, ushbu tizimning joriy etilishi, malaka oshirish bilan bog'liq muammolarning yechimi bo'la oldimi, pedagoglarning uzluksiz kasbiy ko'nikma va malakalarini oshirib borishi uchun yetarlimi, platformaga imkoniyatlari foydalanuvchi talabiga to'liq javob bera oladimi degan savollar paydo bo'lishiga olib keladi.

Darhaqiqat, har bir jamiyatga talqin etilayotgan yangiliklar o'ziga yarasha

foydali jihati bilan birgalikda, bir qator muammolarni yuzaga kelishi, ushbu tizimni doimiy takomillashtirib borishni talab etadi.

A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti “Raqamli ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot bo‘limi tomonidan uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimini va “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasini rivojlantirish hamda takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Jumladan:

Birinchidan: uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimitizimni takomillashtirish borasida bir qator muammolar aniqlandi:

- Bugungi kunda tizim xodimlari malakasini oshirishda ikki xil yondashuv mavjud: maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) xodimlari davriy ravishda, ya’ni
- 5 yilda bir marotaba, umumta’lim tashkilotlari xodimlari har yili malaka oshiradilar (MTT xodimlari 144 soatlik, umumta’lim tashkilotlari xodimlari 30-36 soatlik o‘quv reja va dasturlar asosida malaka oshiradilar).
- Umumta’lim tashkilotlari xodimlari faqat kasbiy faoliyatlaridan (masalan, o‘qitadigan fanlari yoki lavozimlaridan) kelib chiqqan holda tuzilgan dasturlar asosida o‘qitilmoqda. Tabaqalashtirilgan tarzda o‘qitish yo‘lga qo‘yilmagan.
- Umumta’lim tashkilotlari xodimlarining har yili malakasini oshirish belgilangani bois, ular uchun har yili o‘quv dasturlarini qaytadan ko‘rib chiqish va yangilash zarurati mavjud, biroq mazkur faoliyat bilan muntazam va tizimli ravishda shug‘ullanadigan mutaxassislar jamlangan tarkibiy bo‘linma mavjud emas.
- Malaka oshirgan xodimlarning mehnat faoliyatlari natijalarini baholash orqali kurs samaradorligini aniqlash mexanizmini ishlab chiqilmagan.
- “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasidagi malaka oshirish kurslarining kontentini har yili yangilab borish lozim, biroq buning uchun kontentlarni yaratish bilan doimiy tarzda shug‘ullanadigan alohida tarkibiy bo‘linma (“Kontentlar fabrikasi”) mavjud emas.
- Bugungi kunga kelib “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi ko‘p ming sonli foydalanuvchilarga (2022-yilda 450 mingdan ziyod xodim mazkur platformada ro‘yxatga olindi va 230 mingdan ziyod xodim mazkur platformada malaka oshirdi) ega bo‘lgan o‘qishni boshqarish tizimi (LMS)ga aylanganini e’tiborga olgan holda uni doimiy ravishda rivojlantirib boradigan dasturchilar (coders) faoliyat ko‘rsatadigan tarkibiy bo‘linma mavjud emas.
- A.Avloniy nomidagi MTI va hududiy Pedagogika markazlarida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar ham har yili malaka oshirishlari lozim, biroq ularning malaka oshiradigan ta’lim tashkiloti belgilanmagan.
- Hududiy Pedagogika markazlarida tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha zamon talablariga mos tarzda jihozlangan laboratoriya yoki fan kabinetlari mavjud emas.
- A.Avloniy nomidagi MTI va hududiy Pedagogika markazlaridagi uslubchi va mutaxassis shtatlarining lavozim maoshlari (1 380 000 so‘mdan 1 600 000 so‘mgacha) past bo‘lgani uchun, mazkur shtatlarni malakali kadrlar bilan

to‘ldirish muammosini keltirib chiqarmoqda.

- “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasining Android va iOS tizimlar uchun mobil ilovasini yaratish zarurati mavjud.
- Malaka toifasi uchun o‘tkaziladigan test sinovlari mazmunini shakllantirishda malaka oshirish kurslari o‘quv dasturlari mazmunini e’tiborga olish.

Ikkinchidan: “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini takomillashtirish:

- Ishdan ajralgan holda malaka oshirish shakli kirish va chiqish buyruqlarini raqamlashtirish mexanizmini ishlab chiqish;
- Pedagogika markazlari o‘quv bo‘limi tomonidan yaratilayotgan guruhlarni
admin tomonidan boshqarish tizimini yaratish;
- Ishdan ajralgan holda malaka oshirish (oflayn) kurslari tinglovchilariga
to‘g‘ridan-to‘g‘ri sertifikat rasmiylashtirish mexanizmini yaratish;
- Videodarsni bir marta majburiy ko‘rish funksiyasini yaratish;
- Platformaning statistikani ko‘rish oynasi (menejer qismi)dan “Diagnostika test” va “So‘rovnoma” funksiyalarini muallif qismiga o‘tkazish;
- O‘qituvchilarning fan toifasini qo‘shish va statistik ma’lumotlarni olish imkoniyati yaratish;
- Ro‘yxatdan o‘tish qismiga qayta tayyorlov va ikkinchi mutaxassislik (direktor va direktor o‘rinbosarlari uchun OTM diplomini kiritish) haqidagi ma’lumotlarni kiritish imkoniyatini yaratish hamda egallab turgan lavozim bo‘yicha malaka oshirganidan so‘ng platforma avtomatik ravishda ikkinchi fan (lavozim) bo‘yicha malaka oshirish imkoniyatini yaratish;
- Tinglovchilar safidan chiqarilganlar bo‘yicha monitoring ishlarini olib borish mexanizmini yaratish;
- Platformani sertifikatlar qismidan fanlar bo‘yicha ma’lumot olish imkoniyatini yaratish;
- 2022-yil noyabr-dekabr oylarida platformadan foydalanuvchilar sonining ortishini inobatga olib, ishchi platforma kodlari va algoritmlarini optimallashtirish (bir vaqtning o‘zida platformadan 1200-1500 nafar tinglovchi foydalanish imkoniyatlarini yaratish);
- Kurslarni navbatma navbat ochish, yangi foydalanuvchilar uchun yangi kurslarni taqdim etish mexanizmi;
- Nazorat 2. Akkauntlarni IP va qurilmalar parametrlari bo‘yicha nazorat qilish mexanizmi;
- Hududdan boshqa hududga o‘tkazilgan, raqami o‘zgargan maktablarning ID kodlarini o‘zgartirish orqali o‘qituvchilarini ham o‘tkazish imkoniyatini yaratish;
- Platformadan ro‘yxatdan o‘tib, ma’lumotlarini to‘liq kiritgan tinglovchilarni faol holatga o‘tkazish jarayonlarini avtomatlashtirish, One ID yoki ERP tizimiga integratsiya qilish;
- Testlarni random qilib berish;
- Platformaning Statistika qismiga oflayn va onlayn ko‘rinishda ta’lim

oluvchilar bo‘yicha alohida statistik ma’lumotlarni ko‘rsatish, ularning diagnostika test natijalarini alohida chiqarish imkoniyatini yaratish;

- Platformaning statistika qismidan yillar bo‘yicha ma’lumot olish va ko‘rish imkoniyatini yaratish;
- Muqobil malaka oshirish shakllari bo‘yicha statistik ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratish;
- So‘rovnoma natijalarini lavozim, viloyat, tuman bo‘yicha chiqarish (excelda diagrammalari bilan yuklab olish);
- Yangi turdagi maktablar yaratish imkonini qo‘shish va ularni statistik

ma’lumotlarda ko‘rsatish (umumta’lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, xususiy maktablar, maxsus maktablar, SSV, Sport vazirligi va Badiiy akademiya tasarrufidagi maktablar). Xususiy maktab o‘qituvchilariga shartnoma asosida

malaka oshirishga ruxsat berish mexanizmi ;

- Serverni DevOps mutaxassisi ishtirokida optimallashtirish ishlarini amalga


oshirish (bunda, dasturiy ta’minotning ortiqcha bosim bilan ishlaydigan qismlari aniqlanadi va kamchiliklar bartaraf etiladi);

- Hududlar (viloyat, tuman (shahar), umumta’lim muassasa) kesimida malaka oshirish kontentini alohida ochish qismini ishlab chiqish;
- Tyutorlar tomonidan bir vaqtning o‘zida cheksiz sondagi vebinar mashg‘ulotlarini tashkil etish va ijtimoiy tarmoqlarga translyatsiya qilish mexanizimini yaratish (hozirda bir vaqtning o‘zidan bitta vebinar tashkil etish imkoniyati bor);
- Tinglovchi tomonidan dars mashg‘ulotlarini mustaqil o‘zlashtirishini ta’minlovchi interaktiv topshiriqlar kiritish imkoniyatatini yaratish (masalan, har bir kurs yakunida mavzularga doir amaliy sohasiga oid esse yozish, har bir tinglovchi 5 tadan esseni ko‘rib fikr bildirish va esseni baholash);
- Statistika ma’lumotlarini saralash (A dan Ya gacha / Ya dan A gacha) imkoniyatini yaratish; Muqobil kurslar uchun, Diagnostika uchun, Maktablar turi bo‘yicha statistik ma’lumotlarni ko‘rish
- O‘qituvchilarning ehtiyojlari, ulardagi aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha maqsadli, muammoli va mualliflik kurslarini yaratish;
- Admin malaka oshirish kurslari kontentlarining pasport raqamini tasdiqlaganidan so‘ng muallifga ruxsat berish funksiyasini yaratish.

Uchinchidan: intervyu, fokus guruhlarda ishlash, so‘rovnomalar asosida xalq ta’limi tizimi rahbar va pedagog xodimlarining boshqaruv hamda kasbiy kompetentligini bo‘yicha muammo va ehtiyojlarini aniqlash;

- 3000 ortiq Pedagogika markazlari kurs tinglovchilarining amaldagi onlayn va oflayn uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimi haqida fikrlari va takomillashtirish bo‘yicha takliflari suhbat, seminar treninglar va suhbat asosida o‘rganildi;
- “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platforma orqali onlayn tarzda 50 mingdan xalq ta’limi tizimi rahbar va pedagog xodimlaridan avvalgi (davriylikka asoslangan) va amaldagi (uzluksiz kasbiy rivojlantirish) tizimlar bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi;

- **YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi**, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligi (PIIMA) tomonidan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatlarini oshirish bo‘yicha yondashuvlarni moslashtirish va ommalashtirish” loyihasi doirasida 2022-yilning iyun-iyun oylari Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida xalq ta’limi bo‘limiga qarashli maktab o‘qituvchilarning va hududiy malaka oshirish markazida tashkil etilgan haftalik kurs tinglovchilarining kasbiy ehtiyojlarini o‘rganish, kelgusida uzluksiz kasbiy malaka oshirish ta’limida kasbiy kompetensiyangizni rivojlantirish o‘quv modullari mazmunini hamda yangi uzluksiz kasbiy ta’lim modelida kasbiy malakalarini oshirish bo‘yicha tajriba va taasurotlarini o‘rganish maqsadida tadqiqot(intervyu, fokus guruhlarda ishlash, so‘rovnomalar)lar olib borildi.



Tanlab olingan hududlar umumta’lim maktablarida jami **75 400 nafar** rahbar va pedagog xodimlar hamda tuman xalq ta’lim bo‘limi metodistlari ish faoliyat yuritmoqda. Tadqiqotda turli guruhga mansub, ya’ni toifasi bo‘yicha, maktabning joylashuv o‘rniga ko‘ra, maktablarda ta’lim tiliga ko‘ra, erkak-ayol o‘qituvchilar soniga, tajribasiga ko‘ra, intervyu, fokus guruhlar random tanlash yo‘li bilan **24 nafar**(70,8% **(17 nafar)** ayol va 29,2% **(7 nafar)** erkak) direktorlar, **21 nafar**(53,4% **(11 nafar)** ayol va 46,6% **(10 nafar)** erkak) fan metodistlari va fokus guruhlarda **188 nafar** (71,3% **(134 nafar)** ayol 28,7% **(54 nafar)** erkak pedagog xodimlar tanlab olindi.

Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, fokus guruhlarda **188 nafar** ishtirokchidan **52 nafari 25 dan 35 yoshgacha** bo‘lgan tajribaga ega, **66 nafari esa 36 yoshdan 45 yoshgacha** bo‘lgan, **41 nafari 46 yoshdan 55 yoshgacha** bo‘lgan va qolgan **29 nafari esa 56 yoshdan yuqori** bo‘lgan yoshga ega. Ishtirokchilarning staji, jinsi,

toifasi va dars beradigan fani bo‘yicha ma’lumotlar o‘rganildi.

Fokus guruhlarda olib borilgan suhbat natijalarini tahlil qilish oflayn va onlayn malaka oshirish kurslarining sifat samaradorligi, o‘quvlarning tashkil etilishi, qulayliklari, afzalliklari, yutuq va kamchiliklari xususida tahliliy xulosalar olindi va ushbu olingan tahlillar asosida tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktab ta’limi tizimi xodimlarining boshqaruv hamda kasbiy kompetentligi bo‘yicha ehtiyojlarini aniqlash, uzluksiz kasbiy malaka oshirish bo‘yicha muammolarni o‘rganish va ularni tahlil qilish asosida tinglovchilarning ehtiyojlariga asosan o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishi, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha malakasini doimiy oshirish, jahon tajribasi va ilm-fan yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor bo‘lib borishga xizmat qiluvchi malaka oshirish tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 25-sonli Qarori.
5. Алкаров Э.М., Ахборот-коммуникация технологиялари асосида педагог кадрлар узлуксиз касбий ривожланишини бошқариш самарадорлигини ошириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. – Тошкент, 2021.
6. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических ВУЗах. Монография. – Тошкент: Фан. 2005.–155 с.
7. Андреев А.А. Дистанционное обучение в системе непрерывного профессионального образования. Диссер. на соис. уч. ст. доктора педагогических наук.
8. Anderson T., Analysis of a global online debate and the development of an interaction analysis model for examining social construction of knowledge in computer conferencing. Technical writing and communication. Nyu-York, 1997 y. -P. 397-401.

Foydalanilgan internet resurslari

1. https://www.lex.uz - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. https://kun.uz/news/2021/03/10/endi-xalq-talimi-xodimlari-har-yili-malaka-oshirishadi-rektor-bilan-suhbat.
3. https://m.kun.uz/uz/news/2021/07/24/oqituvchilar-istagan-vaqtda-istagan-joyda-malaka-oshirishlari-mumkin-bu-qanday-amalga-oshiriladi
4. https://onlinedu.uz/.
5. https://e-books.tsue.uz/pdf-ahborot-tehnologiyalari-moduli-bo'yicha-maruzalar-matni-va-amaliy-mashgulot-ishlanmalar-majmuasi.
6. http://www.iet.mesi.ru/dis/oglo.htm.

Применение числовых и логических тестов на уроках математики

Дадаев Хайрулла Сайдуллаевич
ФГБОУ Центр международного сотрудничества Министерства просвещения РФ, учитель, real_optimist@mail.ru

Статья посвящена возможностям использования числовых и логических тестов при обучении математике в общеобразовательной школе. Приведены примеры числовых и логических тестов, перечислены оцениваемые компетенции на примере личного опыта участия в конкурсе «Лидеры России». Обозначена актуальность проведения подобных тестов для выявления и развития необходимых компетенций у школьников.
Ключевые слова: числовой, логический, тест, математика.
The article is devoted to the possibilities of using numerical and mixed tests in teaching mathematics in a secondary school. Examples of numerical and experimental tests, assessed skills are given. The relevance of conducting tests for conducting and developing ordinary competencies among schoolchildren is indicated.
Key words: numerical, random, test, mathematics.

Всероссийский конкурс управленцев «Лидеры России» является одним из нескольких десятков проектов, конкурсов и олимпиад, объединенных на базе общей платформы «Россия – страна возможностей», созданной по инициативе Президента Российской Федерации В. В. Путина в 2018 году.

Являясь флагманским проектом президентской платформы, конкурс «Лидеры России» нацелен на поиск, развитие и поддержку руководителей, идущих в ногу со временем, с высоким уровнем компетенций в сфере управления и лидерских качеств [1].

На одном из этапов конкурса для оценки интеллектуальных способностей участников используются в том числе числовой, логический и вербальный тесты, созданные экспертами специально в целях проверки способностей участников конкурса обрабатывать числовую и словесную информацию, возможностей применения ими логики и анализа представленной информации [2]. Именно на данном этапе отсеивается большинство участников конкурса «Лидеры России».

В рамках данной статьи рассмотрим числовые и логические тесты, используемые организаторами конкурса. Во время прохождения тестов нет возможности вернуться и перерешать предыдущие задания. При этом уровень сложности логических тестов, как правило, увеличивается. Концентрация и спокойная обстановка являются основными условиями ожидаемого положительного результата.

Информация числовых тестов предлагается для анализа в виде графиков, таблиц, различного вида цифровых последовательностей и т. п. Для успешного прохождения теста необходимы базовые математические знания о пропорциях, долях и процентах. На выполнение числового теста выделяется время в среднем по 60 секунд на вопрос.

Логические тесты конкурса предназначены для оценки логического интеллекта и навыков работы с абстрактной информацией. Предлагается, например, продолжить определенную последовательность, состоящую из абстрактных фигур (треугольники, квадраты, круги и т. д.) с линиями и точками внутри. Для успешного прохождения теста требуются внимательность, умение сгруппировывать указанные фигуры по их общим признакам, хорошая скорость реакции. Сложность вопросов к концу теста возрастает, в том числе за счет увеличения количества элементов логической последовательности. На решение логического теста выделяется время в среднем по 45 секунд на вопрос.

Примеры числовых тестов, разработанных для второго сезона конкурса «Лидеры России» (2018-2019 гг.) [3, 4]:

Пример 1 числового теста.



Пример 2 числового теста.

Страны – лидеры по производству электроэнергии в 2006 году

Страна	Выработка млрд кВт за 1 час
США	4 255
Китай	2 875
Япония	1 150
Россия	980
Индия	725
Германия	635
Канада	585

Во сколько раз нужно увеличить производство Германии, чтобы производить столько же, сколько производят США и Китай? Ответ округлите до *десятых*.

- в 12,3 раза
- в 11,2 раза
- в 8,9 раза
- в 9,6 раза
- в 6,7 раза

Пример 3 числового теста

До электрички 15 минут пешком. Сколько займет дорога в будний день из Москвы в парк "Патриот", если отправиться из дома в 09:30, при условии что пересадка на автобус в Голицыно занимает 8 минут?

График движения общественного транспорта

	Электричка	
	Москва	Голицыно
	Отправление	Прибытие
Ежедневно	6:33	7:32
Ежедневно	7:40	8:45
По рабочим	10:07	11:09
Ежедневно	11:28	12:30
По выходным	12:01	13:03
Ежедневно	13:59	15:03
Ежедневно	15:52	16:45

	Автобус	
	Голицыно	Парк "Патириот"
	Отправление	Прибытие
Ежедневно	9:15	9:46
Ежедневно	10:15	10:45
Ежедневно	11:30	12:02
Ежедневно	12:30	13:03
Ежедневно	13:30	14:00
Ежедневно	14:30	15:01
Ежедневно	16:30	16:59

Варианты ответов:

- ☐ 1ч 58м
- ☐ 2ч 24м
- ☐ 2ч 32м
- ☐ 2ч 17м

Next

Примеры логических тестов, разработанных для третьего сезона конкурса «Лидеры России» (2019-2020 гг.) [4]:


Пример 1 логического теста.



Найдите последовательность, в которой расположены фигуры. Выберите фигуру из списка ниже, которая продолжит данную последовательность.



Пример 2 логического теста.



Основным фактором, влияющим на результаты прохождения тестов, является ограниченное время выполнения заданий. Сами по себе задания не трудные, и без учета фактора времени практически каждый сможет их решить, но в условиях цейтнота тесты представляют собой достаточно сложное испытание. При этом большая часть времени уходит на поиск

(ориентирование) и выбор необходимой для решения информации.

Автор статьи участвовал в трех последних сезонах конкурса «Лидеры

России»:

во втором сезоне (2018-2019 гг.) дошел до второго дистанционного блока тестов;

в третьем сезоне (2019-2020 гг.) вышел в полуфинал конкурса, проводившийся в Уральском федеральном округе;

в четвертом сезоне (2021-2022 гг.) пробился в региональный финал конкурса в Уральском федеральном округе по треку «Государственное управление».

Личный опыт участия в конкурсе управленцев «Лидеры России» повысил интерес к тестовым заданиям, в т. ч. логическим и числовым. Так появилась идея использования тестирования не только для оценки знаний учащихся, но и применения тестов в качестве метода стимулирования к получению знаний, развития их умственной деятельности.

Происходящая реформа образования требует использования принципиально новых педагогических технологий. Успех деятельности в условиях рынка определяется умением принимать нестандартные решения, решительностью, энергичностью, предприимчивостью. Эти качества трудно сформировать без индивидуализации и дифференциации обучения, без учета интересов, склонностей и способностей учащихся. Сравнительно новым направлением совершенствования контроля знаний и умений учащихся в школах России стала тестовая технология.

В системе образования России имеется богатый опыт совершенствования системы контроля знаний учащихся. Тестовой методике контроля знаний учащихся посвящены работы психологов З.И.Калмыковой, Н.Ф. Талызиной, Л.М.Фридмана и др.,педагогов Ю.К. Бабанского, М.Н. Скаткина, Е.С.Перовского и др., методистов-математиков В.Г.Дорофеева,

Ю.М. Колягина, А.Г Мордковича, А.С. Шепетова и др. Начиная с 90-х годов, в учебно-методической литературе появился целый ряд публикаций, посвященных использованию тестов достижений в средней школе и сами тесты. В настоящее время в нашей стране появилось несколько центров, в которых достаточно профессионально занимаются работой с тестовыми методиками. По мнению П. П. Блонского огромная заслуга тестов состоит в том, что они позволяют обычный ответ ученика «Так мне кажется» заменить словами «Я это знаю» или «Я это не знаю».

Хочется подчеркнуть важность и педагогическую ценность этого метода, дающего возможность статистически точно анализировать процесс получения образования, искоренять недочёты и видеть дальнейшие перспективы его развития [5].

Традиционно на уроках в общеобразовательной школе тесты используются в качестве первичного закрепления материала при освоении новых тем, а также для самоконтроля и самопроверки школьников. Таким образом реализуются обучающая, диагностическая и ориентирующая

функции тестирования.

В рамках как школьного, так и внешкольного обучения имеется

возможность проведения тестирования для развития мотивации к учебе, познанию, т. е. реализации развивающей функции тестирования. Разработка соответствующих развивающих тестов базируется на основных принципах, таких как достоверность, значимость, системность и достаточность.

Рассмотрим несколько простейших примеров тестовых заданий для учеников младшего школьного возраста.


1. Найти число в последней ячейке таблицы, логически продолжив ряд:

4	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
61	**52**	**63**	**94**	**46**	**?**


Варианты ответов: **78, 81, 18, 36**

Верный ответ: 18.

2. Найти закономерность в последовательности и выбрать нужную фигуру:



Варианты ответов:



1 2 3 4

Верный ответ: 3.

На примере приведенных тестовых заданий легко можно понять структуру тестов, состоящую из вводной инструкции, самого теста, вариантов ответов и верного ответа.

Тестовые задания могут использоваться как на обычных уроках, чтобы процесс обучения школьников не был однообразным и монотонным, так и на промежуточном и итоговом контроле, в целях оптимизации мониторинга знаний учащихся, а также при диагностике результатов обучения. Данные принципы используются и при проведении тестов на занятиях математического кружка в школе.

Такой процесс обучения, применяемый на занятиях в школе, обычно нравится учащимся, они легко и быстро откликаются на тестовые задания, которые показывают уровень осознанного творческого логического мышления и умственной деятельности.

Применение тестовых заданий повышает способность школьников анализировать представленную информацию, стимулирует их к поиску оптимального пути решения. Прохождение тестов затрагивает основные мыслительные процессы, такие как анализ, аналогия, логика, умозаключение и т. п. Это в свою очередь способствует повышению интереса учащихся к математике, вниманию, концентрации, развитию аналитических способностей. При регулярном проведении тестовых испытаний с ограниченным временем школьники привыкают самостоятельно распределять собственные силы и время, эффективно использовать свои способности.

Сложность тестовых заданий и время их выполнения могут быть вариативны и увеличиваться в зависимости от возраста учащегося, его индивидуальных способностей. Количество вариантов ответов, сложность графических заданий также увеличивается с возрастом тестируемых. При этом самостоятельная разработка собственных уникальных задач по тестированию учащихся является для преподавателя инструментом роста профессиональных компетенций и методологической коммуникации с коллегами.

Многолетний опыт использования тестов на занятиях по математике показывает, что школьники учатся самостоятельно использовать мыслительные операции на практике, углублять свои знания и умения. У них развивается концентрация внимания, усидчивость, трудолюбие, умение гибко переключаться с одной задачи на другую. Данные факторы способны помочь в выстраивании стройной системы знаний и умений, формировании мотивации учащихся, а также их познавательной активности и любознательности.

Кроме того, адаптация школьников к процедуре тестирования – это подготовка к успешной сдаче ими экзаменов в тестовой форме при окончании 9-х и 11-х классов.

В каждом человеке еще в детстве закладываются способности к анализу информации, будучи ребенком, он познает мир, обучается. Эти способности необходимо постоянно тренировать. Преподаватели математики могут помочь в этом школьникам, целенаправленно развивая их логическое мышление,

память и внимательность.

Система российского образования богата опытом использования тестирования знаний учащихся. Процедура тестирования широко используется в настоящее время в системе оценки знаний школьников, повышая качество знаний учащихся и уровень преподавания. Задача современного учителя математики в рамках обучения, развития и воспитания – научить школьников выходить за рамки шаблонного мышления и принимать нестандартные решения с учетом их интересов и способностей.

Литература

1. «Россия – страна возможностей». *Официальный сайт*. URL: https://rsv.ru/about-us/ (дата обращения 07.04.2023).

2. Конкурс управленцев «Лидеры России». *Официальный сайт*. URL: https://xn--d1achcanypala0j.xn--p1ai/#about (дата обращения 07.04.2023).

3. Седова Яна. *Тинькофф журнал*. «Как я участвовала в конкурсе управленцев «Лидеры России». Что это за конкурс и зачем он был мне нужен». URL: https://journal.tinkoff.ru/lidery-rossii/?ysclid=l870byifwx541055840 (дата обращения 07.04.2023).

4. Статья «Как подготовиться к конкурсу Лидеры России 2021». *HR lider*. URL: https://hrlider.ru/posts/kak-podgotovitsya-k-konkursu-lidery-ro/?ysclid=l86zqdensq597254188 (дата обращения 07.04.2023).

5. Статья «Применение тестов при обучении математике для контроля знаний, умений и навыков обучающихся». Ильиных Г.Г. URL: https://urok.1sept.ru/articles/638582 (дата обращения 07.04.2023)

MALAKA OSHIRISH TIZIMIGA SUN'IY INTELLEKTNI TADBIQ ETISH

Nizamov Akmal Shoxobiddinovich, Mavlyanov Muminjon Akramovich

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi AKT va texnik ta'minot bo'limi boshlig'i, informatika fani o'qituvchisi;

Guliston Davlat Pedagogika Instituti tyutori

Annotatsiya. Mazkur maqolada suni'y intellektning malaka oshirish tizimidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda malaka oshirish tizimiga katta e'tibor berilmoqda, xususan tizimni tubdan takomillashtirish yuzasidan keyingi yillarda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Sir emaski, malaka oshirish tizimida har bir malaka oshiriluvchilarga indivudal yondashish kerak shunda ularga berilayotgan ma'lumot va dars, sifat jixatidan biz ko'zlagan maqsadlarga erishiladi. Biz taklif qiloyatgan loyiha shundan iboratki, har bir tinglovchining umumiy va kasbiy kompetentligini aniqlash uchun ularning bilim darjasi va aqliy salohiyati haqida ma'lumot to'plab borish va shu ma'lumotlar asosida ularga keyingi ta'lim berish yo'lini aniqlab olishdir. Bunda

bizga PYTHON dasturlash tili yordamga keladi. Bu dasturlash tilida tayyorlangan dastur orqali har bir tinglovchi haqida ma'lumotga ham ega bo'lamiz va bu tinglovchini yutuq va kamchiliklarini aniqlab olamiz. Sun'iy intellekt bizga tinglovchiga qaysi mavzulariga e'tibor berish kerak ekanligi haqida ma'lumot beradi. Bu dastur orqali nafaqat ma'lum davr malaka kursi mobaynida balkim, uzoq davr uchun ta'limiy dasturlar ishlab chiqish mumkin.

Loyiha afzalligi shundaki, bunda inson faktori kamayadi tinglovchi o'z ustida tinimsiz ishlaydi va kerakli natijaga erishadi.

Misol: istalgan tinglovchini hafta davomida o'zlashtirishini yaratilgan modelga kiritib boramiz va sun'iy intellekt tinglovchini tashxisini o'zi chiqaradi.

Sun'iy intellekt modellarini yaratishda PANDAS kutubxonasi juda ham as qotadi.

PYTHON dasturlash tilining PANDAS kutubxonasini import qilib olamiz:

```
[2] import pandas as pd
```

```
[9] data = {
        "O'zlashtirishi":{'Dushanba':39.7, 'Seshanba':38.8, 'Chorshanba':36.5, 'Payshanba':35.2, 'Juma':39.9, 'Shanba': 34.2},
        'Xatolar':{'Dushanba':18.8, 'Seshanba':18.5, 'Chorshanba':17.7, 'Payshanba':16.5, 'Juma':18.9, 'Shanba':17.7 }
    }
    df =pd.DataFrame(data)
```

```
df
```

	O'zlashtirishi	Xatolar
Dushanba	39.7	18.8
Seshanba	38.8	18.5
Chorshanba	36.5	17.7
Payshanba	35.2	16.5
Juma	39.9	18.9
Shanba	34.2	17.7

Bu yerda, yuqoridagi rasm sun'iy intellektda yaratilgan model, pastki qismda esa, tayyor dastur.

	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba
O'zlashtirishi	39.7	38.8	36.5	35.2	39.9	34.2
Xatolar	18.8	18.5	17.7	16.5	18.9	17.7

Navbatdagi qadamlarda tinglovchi haqida keyingi ma'lumotlar kiritiladi:

```
Fanlar = [
    "Matematika",
    "Informatika",
    "Dasturlash",
    "Ijtimoiy tarmoqlar",
    "Murakkab masalalar",
    "IQ savollar",
    "Dasturlash",
    "Kompyuter savodxonligi",

]
baholar = [
    "A'lo",
    "yaxshi",
    "A'lo",
    "o'rta",
    "yaxshi",
    "yaxshi",
    "yaxshi",
    "A'lo",
```

```
]
javoblar = [
    95,
    80,
    90,
    68,
    79,
    79,
    82,
    97,

]
xatolar = [
    5,
    20,
    10,
    32,
    21,
    21,
    18,
    3,
```

```
data = {
    "Fanlar":Fanlar,
    "Baholar":baholar,
    "Javoblar":javoblar,
    "Xatolar":xatolar
}
df = pd.DataFrame(data)
df
```

	Fanlar	Baholar	Javoblar	Xatolar
0	Matematika	A'lo	95	5
1	Informatika	yaxshi	80	20
2	Dasturlash	A'lo	90	10
3	Ijtimoiy tarmoqlar	o'rta	68	32
4	Murakkab masalalar	yaxshi	79	21
5	IQ savollar	yaxshi	79	21
6	Dasturlash	yaxshi	82	18
7	Kompyuter savodxonligi	A'lo	97	3

Shundan so‘ng biz yaratgan model tinglovchi haqida to‘liq tashxis qo‘yadi va unga kerakli ma’lumotlarni beradi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda shunga o‘xshash modellar o‘z samaradorligi bilan o‘z o‘rniga ega bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Narzullayev “Python dasturlash asoslari” Akademnashr 2021 yil
2. www.mohirdev.uz
3. www.https://pyblog.uz/

BOʻLAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Esonova Malohat Akilovna,
Qoʻqon davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi, dotsent

Annotatsiya: Maqolada boʻlajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari hamda boʻlajak tarbiyachilarning maktabgacha ta'lim tizimida tutgan oʻrni, maktabgacha ta'lim boʻyicha kasbiy faoliyatning umumiy tamoyillari,innovatsion metod va usullarni ta'lim tizimiga tadbiq etish toʻgʻrisida fikr yurutilgan.

Kalit soʻzlar: kasbiy kompetensiyalar, innovatsiyalar, kasbiy faoliyat, ta'lim, bola lompetensiyasi, umumiy tamoyillar.

Аннотация: В статье обсуждаются проблемы развития профессиональных компетенций будущих воспитателей и роль будущих воспитателей в системе дошкольного образования, общие принципы профессиональной деятельности в дошкольном образовании, применение инновационных методов и способов в системе образования.

Ключевые слова: профессиональные компетенции, инновации, профессиональная деятельность, образование, детская компетентность, общие принципы.

Annotation: The article discusses the problems of developing the professional competencies of future educators and the role of future educators in the system of preschool education, the general principles of professional activity in preschool education, the use of innovative methods and methods in the education system.

Key words: professional competencies, innovations, professional activity, education, children's competence, general principles.

Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega boʻlishiga erishish, ularning oʻz qobiliyatini va iste'dodini roʻyobga chiqarishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Sh.M. Mirziyoyev.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularda oʻz fikrini erkin bayon eta olish, toʻgʻri ovqatlanish, oʻz-oʻzini anglash va muhofaza qilish, yoshga doir zaruriy bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi, barkamol avlod tarbiyasini toʻgʻri shakllantirish yoʻllari va samarali usullarini mohirona qoʻllash, bolalarda tengdoshlari bilan aloqa oʻrnata olish, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy hamda ijtimoiy bilimlarni egallashiga pedagogik jihatdan toʻgʻri tashkil etilgan muhitni yaratib bera olish masalalari haqida boʻlajak tarbiyachilarga har tomonlama bilimlar berish bugungi yangi Oʻzbekiston oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Boʻlajak tarbiyachilarning maktabgacha ta'lim tizimida tutgan oʻrni, maktabgacha ta'lim boʻyicha kasbiy faoliyatning umumiy tamoyillari, maktabgacha pedagogikaning pedagogika nazariyasi va tarixi fani bilan uzviyligi, maktabgacha pedagogikaning rivojlanish tamoyillari toʻgʻrisida, maktabgacha pedagogika tarixi,

yangi O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini bilishi, maktabgacha pedagogikaning nazariy hamda amaliy bilimlarini egallashi, maktabgacha ta’lim larida bolalarga aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiya berish, maktabgacha pedagogikadan o‘z kasbiy faoliyatini rejalashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishida, maktabgacha ta’limning asosiy tamoyillari, maktabgacha ta’lim pedagogikasiga qo‘yiladigan asosiy talablar, maktabgacha ta’limning mazmuni, ilmiy-tadqiqot metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish, maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash, maktabgacha ta’limning uzviyligi va uzluksizligi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada tarbiya jarayonini tashkil etish malakalariga ega bo‘lishida aynan maktabgacha ta’lim pedagogikasi fan asoslarini puxta egallashlari zarur.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagogik kadrlar bilan tayyorlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish bolalarni har tomonlama intellektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirsh uchun shart-sharotilar yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrda qabul qilingan PQ-3261-sonli “Maktabgacha ta’lim tizmini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida qarori” 1-ilova. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l haritasi” hamda 2-ilova. Maktabgacha ta’lim tizimini tanqidiy o‘rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha komissiya tarkibi. Kabi davlat miqyosidagi qaror va qonunlarda o‘z aksini topmoqda.

Pespublikamiz Maktabgacha ta’lim y o‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida har bir mustaqil fan o‘zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Pedagogika ham fan sifatida shakllanib, o‘zinimg predmetiga ega bo‘ldi. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyin edi.

Mutafakkir Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot: yo najot, yo halokat: yo saodat, yo falokat masalasidir”. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat ham mavjud bo‘lgan. Insonni dunyoga kelishi, faqat tug‘ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug‘ilgandan keyin o‘z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko‘tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o‘z o‘rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, ya’ni tarbiya olishi kerak. Bu jarayonda katta avlod o‘zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim hamda malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi, ya’ni yangi tug‘ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga yetishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan. Bu tarbiya deb atalmish ijtimoiy hodisa orqali amalga oshirilgan. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan hamda o‘zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta’lim-tarbiya tashkilotlarini yaratish, yosh avlodlarni o‘qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish hamda

hayotga tadbiq qilish jarayonida pedagogika fani paydo bo‘la boshladi. Pedagogika ta’lim-tarbiyaning maqsadi hamda vazifalari, davlat ta’lim standartlari, ta’lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman, uning qonuniyatlari haqida bilim, ma’lumot beradigan fanga aylandi. Pedagogika atamasi ham qadimiy bo‘lib, “bola yetaklovchi” degan ma’noni bildiruvchi yunoncha “paydogogos” so‘zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o‘z xo‘jayini (quldor)ning bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini, ya’ni qullarni “pedagog” (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o‘qitilgan va pedagoglikni o‘ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan. Inson yaratilishi, paydo bo‘lishi zahotiyoq ilm va tarbiyaviy sifatlar uning yashashi, hayot kechirishi uchun eng zaruriy shart va vositalar ekanligini anglab boradi. Shuning uchun insoniyat jamiyatning ilk ko‘rinishlaridanoq tarbiya bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarga ehtiyoj tug‘ildi, desak biz tarbiyani faqat bir tomonini, ya’ni boshqalarni yana ham xususiylashtirib, agar yoshlarni tarbiyalash, desak tarbiya tushunchasiga juda ham tor qaralgan bo‘ladi. Chunki tarbiya eng avvalo har bir insonni o‘ziga qaratilgandir. Har bir kishi doimo ham aqliy, tarbiyaviy, jismonan takomillashib, shakllanib boradi. Ayrim kishilar bu fikrga qo‘shilmasliklari mumkin. Bunda jamiyatdagi o‘rta, katta avlodning tarbiyasida kamchiliklar, etishmovchiliklar bor ekan-da, degan xulosa chiharmasligi kerak. Negaki, olamning moddiy-ma’naviy tuzilishi, qurilishi, uning rivoji, insonning moddiy - ma’naviy yashash sharoiti, imkoniyatlari, uning aqliy, axloqiy, jismoniy holati bilan o‘zviy bog‘liq. Shuning uchun tabiatning inson yashashi, mavjudligi, baxtiyorligini ta’minlash imkoniyatlari, uning aqliy-axloqiy, jismoniy rivoji, o‘sishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Tabiatdagi, jamiyatdgi muammolar insoniyatni ma’naviy-aqliy rivojlanishiga yo‘naltirib unga o‘zining yangi-yangi xazinalarini ochib beraveradi. Yuqorida sanab o‘tilgan ikki sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. Komil inson sifatlarini tarbiya sohasidagi ilmlarni xulosalab, mujassamlashtirilsa, ular asosan uchta:

1. Ezgu niyat, fikr;
2. Ezgu so‘z, xushmuomalalik;
3. Ezgu ish, ezgu faoliyatdan iboratdir.

Mana shu yuqoridagi uch sifat o‘qitishning, ta’lim-tarbiyaning bosh maqsadidan iboratdir. Bu bosh maqsad insonlarda, yoshlarda, mutaxassislarda komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy, axloqiy-amaliy o‘quv, malaka, ko‘nikmalar bilan qurollantira borish, mutaxassislarda har bir sohaga mos ilm, bilim, ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat bo‘lgan pedagogika fanining zamonaviy fan asoslarini kengayganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3.Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qoʻyiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, roʻyxat raqami 3032.

4.“Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yigʻilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

5.Oʻzbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya hamda sportni rivojlantirish davlat dasturi Konseppiyasi. Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 27-maydagi qaroriga ilova.

6.Esonova Maloxatxon Akilovna MAKTABGACHA PEDAGOGIKA. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 202210.

7.Malikovna, Nazirova Guzal, and Mamadjanova Muyassar Nurmatovna. "Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 415-417.

8.Babaeva D.R., “Nutq oʻstirish nazariyasi va metodikasi” Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirligi xuzuridagi ”Intellektual mulk agentligi” T2020 yil. (elektron darslik).

9.Berdieva A. Jismoniy rivojlanishida muammolari boʻlgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash. Maktabgacha ta’lim j., 2007. 5-son. -10-11 b.

10.Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta’lim j., 2007. 6-son. -14 b.

11. Turgʻunov, S. T., et al. "Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari." Oʻzbekiston Respublikasi OʻzPFITI» nashriyoti (2014).

“ILK QADAM” DAVLAT OʻQUV DASTURI ASOSIDA MTT FAOLIYAT MARKAZLARIDA TA’LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

Nazirova Go‘zal Malikovna,
Qoʻqon davlat pedagogika instituti dotsenti
Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, oʻz tashabbusi, topogʻonligini namoyon qilish imkoniyati tugʻiladi. Bolalar oldiga umumiy zo`r berishning talab etuvchi vazifa qoʻyilganda birgalikda qaygʻurishadi, jamoatchilik xissi shakllanadi.Maqolada “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi asosida MTT faoliyat markazlarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish toʻgʻrisida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar va iboralar: Birgalikdagi faoliyat, faol ta’sir etish, tashabbus, “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi, faoliyat markazlari, ta’lim jarayonlari.

Аннотация: Очень важно воспитывать детей в коллективе: в совместной деятельности дети активно влияют друг на друга, у них есть возможность проявить свою инициативу и творчество. Когда перед детьми

стоит задача, требующая совместных усилий, они вместе скорбят, формируется чувство общности. В статье рассматривается организация воспитательных процессов в центрах развития ДОО на основе государственной учебной программы «Илк кадам».

Ключевые слова: деятельность в коллективе, активное влияние, инициатива, государственная образовательная программа «Илк кадам», центры развития, образовательные процессы.

Annotation: It is very important to educate children in a team: in joint activities, children actively influence each other, they have the opportunity to show their initiative and creativity. When children are faced with a task that requires joint efforts, they mourn together, a sense of community is formed. The article discusses the organization of educational processes in the centers for the development of preschool educational institutions on the basis of the state curriculum "Ilk Kadam".

Key words: activities in a team, active influence, initiative, state educational program "Ilk qadam", development centers, educational processes.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, o‘z tashabbusi, topog‘onligini namoyon qilish imkoniyati tug‘iladi. Bolalar oldiga umumiy zo‘r berishning talab etuvchi vazifa qo‘yilganda birgalikda qayg‘urishadi, jamoatchilik xissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o‘yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o‘qishda paydo bo‘lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do‘stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg‘ulotda ta’lim berish orqali bolalarda maktabdagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik xissi, o‘zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to‘g‘ri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab ta’limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang‘ich sinflarda dastur materialni yaxshi o‘zlashtirib olishlarini ta’minlovchi bilim va malakalar mashg‘ulotlar jarayonida hosil qilinadi. Mashg‘ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish, malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqeadagi asosiy g‘oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi.

Mashg‘ulotlarda ta’lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo‘r berishni talab etadi, ya’ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib bola ma’lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg‘ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e’tiborga olish zarur: mashg‘ulotning vaqtini, kun tartibidagi o‘rnini dasturning har xil bo‘limlarini to‘g‘ri almashtirib turishni oldindan o‘ylab, aniq belgilab olish zarur.

- Mashg‘ulotning bolalarni maktabga tayyorlashdagi ahamiyati va mashg‘ulot jadvali tuzish talablari.

Mashg‘ulot jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari hosil qilinadi,

tarbiyachining so‘zini tinglash, o‘rtoqlari bilan gaplashmaslik har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o‘rganib boriladi. Mashg‘ulotga tayyorlanish mazmuni ham mavjud bo‘lib, ushbu mazmunga Quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Mashg‘ulotni rejalashtirish.
- Kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash.
- Bolalarni mashg‘ulotga tayyorlash.

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachi mashg‘ulotni bir bo‘limidan bitta emas, balki butun bir mashg‘ulotni sistemasini rejalashtirib olib borilsa ijobiy natijani qo‘lga kiritladi. Tarbiyachi mashg‘ulotlar jarayonida metodik qo’llanmalardan foydalanib mashg‘ulot o‘tishi tavsiya etiladi. Har bir bog‘chada metodik xonalar mavjuddir. Unda bolalar bogchasi ta’lim-tarbiya dasturining,

hamda hamma bulimlari buyicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi.

Mashg‘ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyushtirish, asosiy qism,

yakunlovchi qism.

Bolalar mashg‘ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o‘ylanib olinishi kerak. Bolalar o‘quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachining e’tibor bilan tinglab, o‘yindan mashg‘ulotga osonlik bilan o‘tadilar.

Bolalarni uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni yig‘ib, ularning mashg‘ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko‘rinishi, joy-joyiga to‘g‘ri o‘tirishganligi, diqqatini to‘plaganini sinab ko‘radi. Mashg‘ulot muvaffaqiyatli o‘tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg‘otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo‘llashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg‘ulotga qiziqish uyg‘otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo‘g‘irchoq biznikiga mehmonga kelibdi», - deb mashg‘ulotni boshlash mumkin. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to‘g‘risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg‘ulot mana shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg‘ulot bo‘lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo‘yadi. Bu bolalarning bo‘lajak mashg‘ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o‘tadi va ularga rasmlarni ko‘rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko‘rganini eslashni taqlif etadi. Bolalar bu kunni zo‘r qiziqish bilan kutishadi.

Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg‘ulotning zarurligi va

majburiyligini tushunishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur.

Asosiy qism. Mashg‘ulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo‘ladigan jamoachilik munosabatlarini alohida munosabat bilan qo‘shib olib boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun

tarbiyachi har xil metod va usullarni qo‘llaydi.

Mashg‘ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkil eta bilish kerak. Bu bolalar oldiga qo‘yilgan aqliy vazifaga bog‘liq. Bolalarga qanday ishlar

olib borish zarurligi ko‘rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e’tibor bilan eshitib o‘tirishga o‘rgatish kerak, zarurat tug‘ilsagina takrorlash mumkin. Bog‘chadagi bolalar o‘qish, yozishni bilmaganlari uchun o‘tilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan qochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi. Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to‘ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg‘otadi va shu narsa to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtiradi. Mashg‘ulotni dastur maqsadi hamda bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo‘llaniladi. Bolalar o‘zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo‘lgan material so‘z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so‘z bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, son-sanoqga o‘rgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday qilishi, qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishni tushuntirib berishi talab etiladi).

Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o‘z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, son-sanoq mashg‘ulotida bolalar sanash material bilan o‘zlari mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshirig‘iga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko‘paytirishadi. Buning uchun o‘yinchoqlardan ham foydalanish mumkin.

Mashg‘ulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishni o‘z vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Agar mashg‘ulot yakka tartibda olib boriladigan bo‘lsa (rasm, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish-yasash, konstruktsiyalash), bolalar ishni har xil vaqtda bajarganliklari uchun tarbiyachi mashg‘ulot tugashiga bir necha daqiqa qolganda mashg‘ulotni tugatish kerakligi to‘g‘risida ularni ogohlantiradi.

Mashg‘ulotni tugatayotib, tarbiyachi o‘tkazilgan mashg‘ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda baholaydi, bolalarning mashg‘ulotda qatnashganini gapiradi, ba’zan kelgusi mashg‘ulotda nimalar o‘tishlarini aytadi. Bolalarning o‘quv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to‘g‘ri baholashga bog‘liq.

Tarbiyachi MTTda asosiy shaxs hisoblanadi. Bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ko‘proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi. Tarbiyachining o‘ziga xos xususiyati - uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi - bolaning ruhiyatini, yosh va o‘ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

Bolalar bog‘chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon boiishini oldindan ko‘ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Tarbiyachi o‘z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan

normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi, Tarbiyachi har bir boladagi o‘ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o‘ziga xos xususiyatlarni (zararli bo’lsa) yo‘qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo‘yadi. Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo‘lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha ta’lim yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta’siri juda katta boiadi. Chunki, bu davrdagi har bir taassurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma’naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo‘r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo‘lish - fikrlar manbayi, pedagogik innovatsiyalar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib boimaydi. Mashg‘ulotda tarbiyachi o‘z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta’sir etishini pedagog bilishi zarur, Bolaga qattiqroq va qat’iy gapirish mumkin, ammo bunda so‘z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta’sir etishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining innovatsion madaniyatining asosiy strukturaviy komponentlariga pedagogning metodologik madaniyati, uning axborot madaniyati, innovatsion faoliyatini kiritish mumkin, zero mazkur tushunchalar va mazmuni strukturasi taxlili ularning uzaro alokadorligini kursatadi. Bu aloqadorlik ularning pedagogik kasbiy amaliyotining motivatsion, intellektual va faoliyatli-amaliy sohalarini tavsiflashi; tarbiyachi o‘z kasbiy faoliyati asosi va uni amalga oshirish darajasi sifatida innovatsiyalarning ahamiyatini anglab yetishning ko‘rsatkichi sanalishida namoyon bo‘ladi.

Ekskursiyaning asosiy maqsadi – bolalarga berilayotgan ta’limiy va tarbiyaviy ma’lumotlarning hayotimizdagi faoliyatda aks etishini obyektlarga sayr qilish jarayonida ko‘rsatib berish. MTTda ekskursiyalar reja asosida amalga oshiriladi. Ekskursiyani ishlab chiqishda ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xarakterdagi bir qator vazifalarni belgilash va hal qilish muhimdir.

Ekskursiyalarning rivojlantiruvchi komponenti sezuvchanlik qobiliyatlari (obyektlarning turli xil belgilarini ko‘rish qobiliyati: rang va uning soyalari, fazoviy joylashuvi, xilma-xil shakllari, to‘qimalari va boshqalar) kabi fikrlash jarayonlari (tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, tabiat va murakkablik darajasi, tasavvur va ijodkorlik bilan har xil bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish qobiliyati.

Ekskursiyani ishlab chiqishda ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xarakterdagi kompleks vazifalarni belgilash va hal qilish muhimdir. Hal qilinayotgan pedagogik vazifalarning mohiyati bo‘yicha ekskursiyalar tasnifini ajratish mumkin: tabiiy, tarixiy, ekologik, qishloq xo‘jaligi obyektlariga, estetik ekskursiya.

Ekskursiyaning tarkibi: kirish suhbati, jamoaviy kuzatuv, bolalarni individual ravishda mustaqil kuzatish, material to‘plash, to‘plangan materiallar bilan o‘ynayotgan bolalar, yakuniy qism, bu vaqtda o‘qituvchi ekskursiyani

umumlashtiradi va tabiatni hurmat qilish zarurligini eslatadi.

Sensorli tasvirlarni anglash uchun tabiatning kuzatilgan obyektlarini chizmalar yoki piktogrammalar yordamida mahkamlash katta ahamiyatga ega, ayniqsa, ular o‘zgartirilgan bo‘lsa, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tadi. Bu holda

o‘zgaruvchan tabiat obyektlari vaqt parametriga muvofiq qayd etiladigan taqvimlar tomonidan katta yordam ko‘rsatiladi. Kuzatuvlar ketma-ketligi yozilgan taqvim o‘zgarishlarning mohiyati, ularning o‘tishi shartlari va ular sodir bo‘lgan vaqt haqida izchil va batafsil fikr beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.

4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

5. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya hamda sportni rivojlantirish davlat dasturi Konseppiyasi. Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 27-maydagi qaroriga ilova.

6. Esonova Maloxatxon Akilovna MAKTABGACHA PEDAGOGIKA. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 202210.

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Azizova Ziroat Bahodirovna,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Maqolada bola shaxsining liderlik salohiyatini rivojlantirishdagi dolzarb ehtiyojlar, uning ijtimoiy faolligini oshirish va ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ

В статье предоставлена информация о текущих потребностях в разработке лидерских потенциал ребенка, его социальной деятельности и педагогические условия, которые помогают успешной реализации этого процесса.

Jamiyatining rivojlanishining zamonaviy sharoitida har bir insonning muvaffaqiyati raqobat muhitida ishlash qobiliyatiga bog‘liq: sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga tezda javob berish, ma’lumotlarni tahlil qilish va voqealarning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilish, tegishli qarorlar qabul qilish va ularga muvofiq harakat qilish va hokazo. Ijtimoiy faollikni, liderlik maqsadliligini

rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalikdan boshlanishi kerak. Aynan shu davrda kelajakdagi shaxsning poydevori qo‘yiladi, odamlarga turli xil munosabatlar, turli xil faoliyat turlari va o‘z-o‘zidan rivojlanadi. Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogik amaliyot shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslanishi kerak, bu nuqtai nazardan bola pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida qaraladi, bu erda intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishga katta e'tibor beriladi. o‘sib borayotgan shaxsning rivojlanishi. Bola faoliyatining namoyon bo‘lish mexanizmlarini va bolalarning etakchilik salohiyatini rivojlantirish jarayonini o‘rganish shaxsning faolligini shakllantirishga, uning jamiyatda o‘zini o‘zi anglashiga yordam berishning samarali usullari va vositalarini topish uchun juda muhimdir. hozirgi va kelajakdagi muhit.

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari kreativ ta’lim texnologiyalari amaliyotiga kiritilgan. Shaxslararo munosabatlar, mehr-shavqat, bag‘rikenglik, o‘zaro sadoqat tuyg‘ulari, shukronalik xususiyatlarini rivojlantirishning kognitiv, kreativ, ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, sog‘lom tafakkurni rivojlantirishning falsafiy-metodologik, ma’naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirish, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirishbo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yaponiya, Germaniya kabi mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarda shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, o‘z mavqeiga ega bo‘lish jihatlari, ijodkorlikni namoyon etuvchi ijtimoiylashuv xususiyatlarni rivojlantirish maqsadida maktabgacha yoshdagi bolalarni liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda yangi texnologiyalarni puxta egallagan, yuqori ilmiy salohiyata ega, kasbiy kompetentli lider mutaxassislarga ehtiyoj katta. Ushbu ehtiyojni faqat ta’lim sohasidagi ilmiy bilishning har tomonlama rivojlangan va sotsiologik asoslangan metodologiyasi asosida to‘ldirish mumkin. Jamoaviy ta’lim jarayonida bolailarga differensial yondashuv – didaktikaning muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, uni amalga oshirish uchun tizimga xos bo‘lgan ko‘plab qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish kerak. Pedagoglarining bu boradagi faoliyati mazmuni o‘zgartirilsa, bunday muammolarni bartaraf etishga qo‘shgan hissasi oshadi.

Differensial ta’lim g‘oyalarini amalga oshirishda quyidagi muammolarga duch kelish mumkin:

uslubiy ta’minlash darajasining pastligi;

MTTlarida differentsial ta’lim muammosini kompleks ravishda hal etishga qodir salohiyatli kadrlarning yetarli emasligi va hokazo.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim metodikasini takomillashtirish masalalari D.A.Abdurahimova, M.K.Abduhakimova, N.Sh.Abdullaeva, Z.Azizova, N.X.Begmatova, D.G.Babaeva, G.A.Berdaliyeva, N.Djamilova, G.Djanpeisova, D.Zaynutdinova, Sh.Shodmonova, F.R.Qodirova, N.Qayumova, N.Egamberdieva kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va ijtimoiylashuvning nazariy-metodik asoslari M.G. Davletshin, R.I.Sunnatova, D.M. Mirzakamolova,

ta’lim olishning psixofiziologik jihatlari va yetuklik K.B.Qodirov, A.Rasulov, Z.Abdurahmonovalar tomonidan o‘rganilgan.

MDH olimlari N.N. Abashina, N.F. Gubanova, N.V. Lamexova, L.L. Lashkova, O.V. Malaxova, E.Yu. Tishina, V.S. Pchelina, N.M. Shklyaeva va boshqalar tomonidan maktabgacha ta’lim-tarbiya mazmunini monitoring qilish, maktabgacha ta’lim metodikasining xususiyatlari tadqiq etilgan.

Hozirgi vaqtda liderilik muammolari ham xorijiy va mahalliy siyosatshunoslar, sotsiologlar, huquqshunoslar, o‘qituvchilar, psixologlar tomonidan o‘rganiladi.

O‘tmishda Konfutsiy, Aristotel, Platon, N. Makiavelli, Sh. Monteskyo, G. Lebon, G. Tard, M. Veber, G. Lassuell, G. Moska, V. Pareto, Z. Freyd, N.

Mixaylovskiy kabi taniqli olimlar tomonidan juda keng o‘rganilgan.

Rus olimlarining bu muammo bo‘yicha tadqiqot ishlari G. K. Ashina, I. V. Volkova, I. R. Koltunova, L. I. Kravchenko, R. L. Krichevskiy, E. S. Kuzmina, B. P. Parygina, A. V. Petrovskiy tomonidan turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq bir qator izlanishlar

mavjud bo‘lsada, ammo maktabgacha yoshdagi bolalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari asosida bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan hamda ushbu muammo alohida tadqiqot predmeti sifatida tanlanmagan.

"Liderlik" tushunchasi psixologik va pedagogik adabiyotlarda kichik guruhdagi dinamik jarayonlar bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. Lider yuqori avtoritar shaxs sifatida belgilanadi, guruh uchun muhim bo‘lgan vaziyatlarda mas'uliyatli qarorlar qabul qiladi; birgalikdagi faoliyatni tashkil etishda va guruhdagi munosabatlarni amalga oshirishda markaziy rolni aks ettiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Liderlik xususiyati guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida ta’sir qilish, bo‘ysunish sifatida qaralsada, liderlik qobiliyati mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, muayyan maqsadlarga intilish, rivojlanishning qiymat maydonini aniqlash; tanlangan yo‘nalishda natijaga erishish uchun izdoshlarni safarbar qilish jarayoni va izdoshlarni natijaga erishishga imkon beradigan motivator sifatida muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarida bolalar liderligining asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish, bolalikdan liderlikning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlikning asosiy shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish imkonini beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha mualliflarning ta’kidlashicha, bolalar jamoasida, kattalarda bo‘lgani kabi, munosabatlarning tasviri juda murakkab va noaniq. Maktabgacha yoshdagi bolalar ba’zi tengdoshlariga hamdardlik bilan munosabatda bo‘lishadi va ularga intilishadi, boshqalari esa aksincha ulardan qochishadi. Ba’zi bolalar o‘zlarining turli ko‘nikmalari, tashkiliy qobiliyatlarini erkin namoyon qiladilar, boshqalari esa tortinchoq bo‘ladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning liderlik qobiliyatini shakllantirishda

differensial yondashuvdan foydalanish kutilgan natijani beradi.

Bolalarning bir-biriga tabaqalashtirilgan munosabatining mavjudligi inson muloqotining selektivligi bilan izohlanadi. Asab tizimining o'ziga xos xususiyatlari, xarakteri, shaxsiy tajribasi, qiziqish va ehtiyojlarning rivojlanish darajasi va boshqalar bilan ajralib turadigan har bir shaxsning o'ziga xosligi bolalar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarning o'ziga xosligini belgilaydi. Bolalar o'rtasidagi munosabatlar shaxslararo o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi. O'zaro ta'sirning dinamik tomoni, ya'ni uning jarayonining o'zi aloqa vazifasini bajaradi va o'zaro ta'sirning samarali tomoni munosabat sifatida ishlaydi. Muloqotning uzluksizligi tufayli munosabatlarda doimiy o'zgarishlar yuz beradi; mavjud munosabatlar (masalan, hukmronlik va bo'ysunish) aloqa mohiyatini belgilab, shu

bilan shaxslararo o'zaro ta'sir siklini shakllantirish mumkin.

Shunday qilib, bola shaxsining liderlik salohiyatini rivojlantirishdagi dolzarb ehtiyojlar, uning ijtimoiy faolligini oshirish va ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlarning yetarli darajada nazariy va amaliy rivojlanishi o'rtasida ziddiyat mavjudligi, belgilangan qarama-qarshiliklar tadqiqot muammosini shakllantirishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Fleyk-Xobson K., Robinon Ye.B., Skin P. Razvitie rebenka i yego ot-nosheniy s okrujayuщimi. M., 1992.

2.Formirovanie vzaimootnosheniy doshkolnikov v detskom sadu /Pod red. V.K.Korытlo. M., 1987.

3.Formirovanie sotsialno-aktivnoy lichnosti v mladshem shkolnom vozraste. Ucheb. posobie dlya uchiteley shkol i studentov fakultetov nachalnых klassov. M., 1993.

4. Papir O.O. Osobennosti obщeniya i vzaimodeystviya detey-liderov v syujetno-rolevoy igre: Avtoref. dis ... kand. ped. nauk. M., 1993

ТАЪЛИМИ МУАММОЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИНИ БЕЛГИЛАШ ОМИЛЛАРИ

Н.М.Одинаева, И. А.Хужамов,

А.Авлоний номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-тадқиқот институти, Ўқув жараёнини ташкил қилиш бўлими бош мутахасиси, мустақил илмий изланувчиси;

Ихтисослаштирилган таълим муассасалари агентлиги "Иқтидорли ёшларни танлаб олиш ва олимпиядаларни ташкил этиш" бўлим бошлиғи, мустақил илмий изланувчиси

Аннотация. Мақоланинг мақсади ривожланиш омилларининг таълимга бўлган таъсирини ўрганиш ва таълим хизматларига бўлган талаб даражаси, таълим сифати ва миқдорининг кўрсаткичлар тўпламига боғлиқлигини асослашдир.

Калит сўзлар: Статистика, демографик омил, таълим хизматлари, талаб, аҳоли сони, аҳоли зичлиги, туғилиш даражаси, тизим модели, миграция, аҳоли саломатлиги.

Дунёда статистик тадқиқотлар базасини шакллантирувчи мамлакатлар асосан мактаб таълими кичик тармоқлар тизимидан фойдаланадилар, бу эса мазкур кўрсаткичларни мамлакатлараро таққослаш ва таҳлиллар олиб бориш имконини беради.

Ҳозирги кунда статистик тадқиқотлар жаҳон иқтисодиётининг кўпгина жабҳаларини қамраб олган бўлиб, савдо, энергетика, транспорт, молия, нашриёт, оммавий ахборот воситалари таълим ёки соғлиқни сақлаш каби турли соҳаларга ўз таъсирини кўрсатмоқда. Замонавий жамиятда статистик тадқиқотларнинг ривожланганлик даражаси мамлакат иқтисодий тараққиёти ва рақобатбардошлигини белгилаб берувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида таълим давлатнинг маънавий, ижтимоий,

иқтисодий ва маданий тараққиётининг асоси бўлган узоқ муддатли ривожланиш устуворликларидан бири сифатида эътироф этилади. Ўзгаришларнинг асосий мақсади-таълим жараёнига аниқ ижобий шахсий мазмун бериб, ўзига хос қобилиятлари, қизиқишлари, индивидуал хусусиятлари билан шахсни ривожлантиришга қаратилган гуманистик парадигмани амалга оширишдир. *Гуманистик парадигма* доирасида фаолият олиб борувчи ҳар бир таълим тизими ижодий ривожланади ва ўқувчи ҳамда ўқитувчининг эркинлиги ва ижодкорлигини ёқлайди Шахснинг ижодий, маънавий ва жисмоний имкониятларини ривожлантириш, ахлоқ ва соғлом турмуш тарзининг мустаҳкам асосларини шакллантириш, индивидуалликни ривожлантириш учун шарт-шароит яратиб, ақл-заковатни бойитиш таълим тизимининг устувор вазифаларидан ҳисобланади.


Замонавий жамият фаол ҳаётий позицияга, юқори касбий ҳаракатчанлик ва коммуникативликка эга, доимий ҳаётга, касбий ўзини-ўзи белгилашга ва ўзини ривожлантиришга қодир бўлган билимли одамларга муҳтож. Ушбу қатлам таълим муассасаларида хусусан, мактабларда шаклланади.

Энг аввола, ўқитувчилар касбига жамоатчилик баҳоси қандай? Педагоглар ўзи танлаган касбидан розими? деган саволлар пайдо бўлади.


OECD мамлакатларидаги мактаб ўқитувчиларининг аксарияти (87 %) ўқитувчилик касбининг жамиятда қадрланиши ҳақидаги гапларга қўшилмайди. Бу муаммо Ўзбекистон учун қандай? 36,3% респондент жамият ўқитувчилар меҳнатини қадрлайди, 22,5% бу фикрга тўлиқ қўшиламан деб ҳисоблайди. OECD мамлакатларида эса 13 % респондент жамият ўқитувчилар фаолиятини қадрлайди деб ҳисоблашини маълум қилган.

1-расм. Касбининг жамиятда юқори баҳоланганлигига рози бўлган ва норози бўлган ўқитувчиларнинг улуши, %.

Ўқитувчи касбининг жамиятда қадрланишига ишонмасликнинг энг юқори даражаси (95% дан ортиқ) Словения, Франция, Хорватия, Словакия, Португалия ўқитувчилари томонидан билдирилган. Ушбу муаммо Вьетнамда бир оз паст кўрсаткич бўлиб, 13% ўқитувчилар ўз меҳнатлари жамият томонидан қадрланмайди деб ҳис қиладилар.



А.Авлоний номидаги миллий-тадқиқот институти олимлари олиб борган тадқиқотларга кўра, 41,2% ўзбекистонлик ўқитувчилари ўз касбларини жамият томонидан қадрланмаган деб ҳисоблашади, аммо айни пайтда улар ўз касбларига содиқ қоладилар ва кейинги 5 йил ичида ўз касбларини ўзгартирмайдилар. Сўров натижаларига кўра, менга ҳозирда ишлаётган мактабимда фаолият юритиш ёқади деб, ўқитувчиларнинг 63,6% мактабда ишлашни давом эттириш ниятида ва шу билан бирга ўз касбининг жамиятда юқори баҳоланишига ишонмоқда (2-расмга қаранг).



2-расм. Ўқитувчилик касби ҳақида ўқитувчиларнинг фикри, %.

Сўровномада иштирок этган респондент (ўқитувчи)ларнинг фикрига кўра, жамиятда обрўси пастлиги ва ижтимоий қадрсизлиги, ўқитувчиларнинг мотивацияси ва фаровонлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бу каби салбий ҳолатларга кўра, ўз ишидан қониқмаслик истиқболда касбни тарк этишга олиб келиш мумкин деб ҳисоблашади. Сўровномада иштирок этган маҳаллий ўқитувчилариниг 19 % айнан шундай ҳолатни қайд қилиб ўтишган. Халқаро миқёсда эса бу кўрсаткич бир оз катта бўлиб, 21% га яқин ўқитувчиларни ташкил қилади. Бу каби ҳолатлар маълум вақтдан сўнг кадрлар

алмашинуви хавфини кучайтириб, истиқболда ўқитувчилар етишмаслиги ва кадрлар танқислиги каби муаммоларни юзага келтиради.

Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш йўналишида таълим стратегияларини белгилаши лозим.

Мактаб ижтимоий институт сифатида шахс потенциалини энг тўлиқ ва кўп қиррали ривожлантиришга ҳисса қўшадиган таълимни ташкил этишга, энг кўп профилли таълимда ривожланадиган ва шаклланадиган ютуқлар, имкониятлар ва истиқболларни баҳолаш ва ўз-ўзини баҳолашга чақиради. Объектив равишда, асосий мактаб битирувчилари касбий ўзини ўзи белгилашга, танлаган мутахассислиги бўйича таълимни давом эттиришга тайёр бўлиши керак бўлган махсус таълим босқичи ажратилади. Бу эса ҳар томонлама ўрганишни талаб қиладиган янги педагогик вазиятни юзага келтиради.

Махсус тайёргарликнинг интеграциялашган, яхлит илмий-методик тизимини ишлаб чиқиш бошланғич яъни дастлабки босқичда бўлиб, фақат умумий масалалар, дидактик ва психологик шарт-шароитлар ва ташкилий асослар кўрсатилган.

Касбий тайёргарликнинг мақсади, унинг натижаси шуни кўрсатадики, касбни эгаллаган ҳар бир шахс ўзининг уч жиҳатига дуч келади: ашёвий, шахсий ва процессуал (технологик). Яъни, касбий тайёргарлик жараёнида мутахассиснинг вазифалар доирасига мувофиқ нималарни билиши кераклиги, бу билимларни ўз касбий фаолиятида қандай қўллаши, билим ва кўникмалар максимал натижа бериши учун қандай шахсий сифатларга эга бўлиши кераклигини аниқлаш билан боғлиқ вазифалар ҳал этилади. Ана шу уч жиҳат нуқтаи назаридан касбий тайёргарлик барча ўқитувчилар фаолиятига хос бўлган (профилидан қатъий назар) умумийликни ва предмет хусусиятларини акс эттирувчи умумийликни ўз ичига олади. Эҳтимол, касбий тайёргарликнинг уч жиҳатининг бирлиги ва ўзаро боғлиқлиги мавжуд бўлса, биз юқори даражали малака ҳақида гапиришимиз мумкин. Бироқ, амалиёт шуни кўрсатадики, бу даражада юыори малака мавжуд эмас, шунинг учун ўқитувчи-педагогларни тайёрлаш масалалари долзарб ҳисобланади.

Жамиатнинг таълим стратегиясига бўлган эҳтиёжи давр тақозасига кўра, ўнлаб йиллар давомида шаклланди ва анъанавий таълим тизимини ўзгартириш талабини келтириб чиқарди. XVIII аср охири XX аср бошларида Европада пайдо бўлган анъанавий шаклларда мавжуд бўлган таълим тизими, гарчи у ривожланган, тараққий этган бўлса-да, у ўзининг ижтимоий-маданий йўналиши бўйича бир хил бўлиб қолди ва ўзининг хусусияти ҳамда жозибасини йўқотди.

Ҳаётнинг янги воқеликларидан таълимнинг орқада қолиши, унинг ижтимоий аҳамиятини қадрсизланишида кузатишимиз мумкин. Иқтисодий ва ижтимоий – маданий тизимнинг ўзига хос хусусиятлари таълим ва касб – ҳунарга йўналтириш хусусиятининг доимий ўзгариши ва янгиланишини талаб этади.

Олдинги шароитларда ананавий тарзда ташкил этилган “тугалланган

таълим” шароитида – инсоннинг умумий ва касбий саводхонлиги муаммоси кескинлашди, иқтисодий, ижтимоий-психологик ва бошқа билимларнинг танқислиги яққол намоён бўлди, олий таълим муассасаларнинг битирувчилари учун ҳаёт йўлини танлаш қийинлашди. Буларнинг барчаси инсон учун зарур бўлган билимларнинг тобора ортиб бораётган ҳажми ва уларни ўзлаштириш учун анъанавий таълим тизимларидаги чекланган шароитлар ўртасидаги зиддиятларнинг кескинлашишига олиб келди. Ёш болалик давридаги тарбия ва таълимдан катта ёшдаги аҳолини қайта тайёрлаш ва малакасини оширишгача бўлган узлуксизлик тамойили бўйича

узлуксиз таълимга ўтиш учун зарур шарт-шароитлар яратилди.

Янги педагогик тушунча ва янги ўқитиш технологияларининг туғилиши бир қатор тарихий ва ижтимоий ўзгаришлар таъсирида содир бўлди. XX аср бошидан буён дунёдаги барча ижтимоий-маданий ўзгаришларнинг энг глобал хусусияти инсон ижтимоий мавжудлигининг барча соҳалари ривожланишига таъсир кўрсатган жадаллашувдир. Ушбу жараённинг оқибати мактабнинг ривожланиши ва маданий-техник муҳитнинг умумий даражаси ўртасидаги номувофиқлик эди.

Олиб борилган тахлиллардан хулоса қилиш мумкинки, бугунги кунда Ўзбекистон ва бошқа мамлакатларда таълим тизимиларида ривожланаётган мактаб муҳити ва бошқарув маданиятига яқиндан қараш имкони бор ва уларни нафақат таълим тизимининг анъанавий қадриятлари нуқтаи назаридан таҳлил қилиш, балки таълим сиёсати доирасида олиб борилаётган чора-тадбирларни, улар ижроси бўйича муносабатларни кузатиш имконини беради.

Жаҳон тажрибасига асосан, ҳар бир мактабда бошқарув гуруҳларининг мавжудлиги Сингапур ва Хитой таълим тизимларининг ўзига хос хусусияти бўлиб, менежмент гуруҳининг мақсади, мактаб ҳаётининг асосий жиҳатлари ҳақида, ўқув жараёнининг барча иштирокчилари томонидан мактабда бўлаётган воқеалар учун жавобгарликни ўз зиммасига олиш, мувозанатли қарорлар қабул қилишдир. Бошқарув гуруҳларини шакллантириш ва янада ривожлантириш мактабни бошқариш жараёнларига кўпроқ мутахассисларни жалб қилиш ва шу орқали қарорлар сифатини яхшилаш орқали таълим сифатини яхшилашга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Р.Х.Джураев, С.Т.Турғунов. Таълим менежменти. Умумий ўрта таълим муассасалари директорлари учун қўлланма. Тошкент, “Ворис-Нашриёт” – 2006.

2. Ш.Қурбонов, Э.Сейтхалилов. Таълим сифатини бошқариш. Т.: “Турон-Иқбол”: 2006. – 592 бет.

3. Шодиев Х, Хабибуллаев И. “Статистика” Т. “Молия-иқтисод” 2013.

4. А.Раджиев, Ф.Каримов, А.Г.Ибрагимов, М.Ахмедов. ТАЛИС-2018 халқаро тадқиқотлари талаблари асосида ўтказилган сўровнома ва тадқиқот ҳисоботининг маълумотлар тўплами 1-2-тўпламлар // А.Авлоний номидаги халқ таълими муаммоларини ўрганиш ва истиқболларини белгилаш илмий-

тадқиқот институти. – Тошкент, 2022 йил.
5. www.uzedu.uz
6. www.stat.uz
7. https://ru. wikipedia. org/wiki
8. https://www.statistics.com

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA TURLI USULLARDAN FOYDALANISH SAMARASI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna
Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslari jarayonida innovatsion usullardan foydalanish yo'llari haqida fikr yuritilgan*

Kalit so‘zlar*: texnologiyalar, tushunchalar, vosita, jarayon, natija*

O‘tgan har kunim - dars, uchratgan har bir insonim muallimimdir.
Arab hikmati

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar faqatgina xalq manfaatlari uchun, uning baxt-saodati uchun xizmat qilayotganining guvohi bo‘lib turibmiz. Ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarning yangi-yangi usullarining qo‘llanilishi darslarning rang-barang qiziqarli tarzda o‘tishiga olib keladi, o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik qarashlarda "Oddiy o‘qituvchi - gapiradi, yaxshi o‘qituvchi - ko‘rsatadi, juda yaxshi o‘qituvchi- motivatsiya qiladi", degan gap bor. Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o‘qituvchisi o‘zining mutaxassisligini, chuqur o‘zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim jarayonida qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi bilan birga innovatsion faoliyat egasi bo‘lishi lozim. Ayni paytda o‘qituvchi har bir darsning muallifi hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi ushbu darsni tayyorlashda ilg‘or o‘qituvchilar tajribasiga tayanadi, uslubiy qo‘llanmalarni o‘rganadi va uni amalda qo‘llaydi.

Matematika darsida o‘quv tarbiya jarayonining barcha elementlari o‘zaro uyg‘unlikda bo‘ladi. Bular maqsad va mazmun, vositalar, metodlar, ta'limni tashkil kilish shakllari bilan uzviy bog‘liq. Boshlang‘ich sinflarda ishlaydigan o‘qituvchi vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglaydigan, o‘z ixtisosligiga doir bilimlarni chuqur biladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan, dunyoviy, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol bo‘lmog‘i lozim. Boshlang‘ich ta'lim asosiy poydevor hisoblanadi. Bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabatinig zarur bo‘lgan o‘qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish

va ularni kundalik hayotda qo‘llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zini tuta bilish, yozma va og‘zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayonida keng qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, boshlang‘ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta'lim metodikasini bilishi hamda o‘qituvchi tinmay o‘z ustida mustaqil ishlashi fandagi barcha yangiliklardan xabardor bo‘lishi ilg‘or metodikalarga ega bo‘lgan tajribali metodist-o‘qituvchilar bilan o‘z tajribalari to‘g‘risida o‘rtoqlasha olishi, samarali o‘qitish metodikalarini namoyish eta olishi lozim. Barcha umumta'lim maktablarining boshlang‘ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, ilg‘or ish tajribalarini o‘rganishni taqozo etadi.

Shuningdek hozirgi kunda matematika fanidan juda ko‘p misol va masalalar to‘plamlari, qiziqarli matematika o‘quv adabiyotlari nashr etilgan. Ushbu fanga taalluqli qoshimcha adabiyotlardan foydalanib, darslarni mustahkamlash qismida foydalanib o tish ham ijobiy samara beradi.

Bugungi kunda darslarni turli xil metodlar bialan boyitib borishimiz mumkin. Bugungi kunda eng dolzarb bo‘lib borayorgan Xalqaro baholash dasturi TIMSS ga tayyorlash ayni davr talabi desak adashmagan bo‘lamiz. Topshiriqlarni esa o‘zimiz tayyorlab borishimizga to‘g‘ri keladi.

Bunda "Tushunchalar tahlili" degan metodimizni bir eslaylik. Bu metod orqali otilgan mavzularni eslab qolishda, yangi mavzuni mustahkamlashda va olgan bilimlarimizni eslab qolishida ayni muddao bo‘ladi desak adashmagan bo‘lamiz. Masalan: o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi, ular bu topshiriqlarga o‘zlarining javoblarini yozishlari kerak.

Tushunchalar	**Tahlil**
Kub	Hamma yoqlari kvadratdan iborat to‘g‘ri burchakli parallelepiped **kub deb** ataladi.
Uchburchak	**Uchburchak** geometrik figuralardan biri bo‘lib, bir to‘g‘ri chiziqda yotmaydigan uchta nuqta va shu nuqtalarni ketma-ket

	tutashtirishdan hosil bo‘lgan figura. Nuqtalar uchburchakning uchlari, kesmalar esa uning tomonlari hisoblanadi. Uchburchak uning uchlarini ko‘rsatish bilan belgilanadi.
Kvadrát	Qarama-qarshi tomonlari o’zaro teng bolgan to’g’ri burchakli to’rtburchak yoki burchaklari to’g’ri burchaklardan iborat bo’lgan romb kvadrat deb ataladi
Aylana	**Aylana** – muayyan nuqtadan teng uzoqlikda yotgan nuqtalar to‘plami. Aylana — faqat chiziq. Oq qog‘oz ustiga dumaloq stakanni qo‘yib, atrofidan qalam yurgizib chiqsak, hosil bo‘lgan ingichka dumaloq chiziq aylana bo‘ladi Aylana chizish uchun sirkuldan ham foydalanish mumkin. Agar sirkul bo‘lmasa, qog‘oz varag‘ini yog‘och taxtacha ustiga qo‘yib, o‘rtasiga bitta knopka qadang, tagiga pishiq ip bog‘lab qo‘ying, ipning ikkinchi uchiga qalam bog‘lang. Qalamning ip bog‘langan joyidan ushlab, tarang torting-da, aylanma chiziq chizib chiqing, shunda aylana hosil bo‘ladi.
Doira	Doira — yassi shakl, uni qirqib tayyorlash mumkin. Hali chizgan aylanangizni atrofidan qaychi bilan qirqib chiqsangiz, doira hosil bo‘ladi.Doira va aylana «egizaklar», «opa-singillar»dir. Ular har doim birga «yurishadi»: aylana chizdingizmi — doira hosil bo‘ladi, doira qirqib oldingizmi — qaychi yurgan yo‘l aylanani bildiradi. Sirkul qo‘yiladigan yoki haligi knopka qadaladigan nuqta aylana va doira markazi hisoblanadi. Limon bo‘lagi va velosiped g‘ildiragi markazini topish oson.

Bu metodni nafaqat matematikada balaki boshqa fanlarda ham ishlatsak bo‘ladi. Bolalarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, mavzularni eslab qolishda bu metodlarni dars davomida foydalanish ularda fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qilgan bo‘lamiz. Har bir metodning o‘ziga xos tomonlari bor, biz undan darslar jarayonida oqilona foydalanishimiz kerak. Bu esa fanimizni yanad qiziqali o‘tishimizga o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga sabab bo‘ladi deb o‘ylayman.

Fikrimni Rudakiyning ushbu gaplari bilan tugatmoqchiman "Bilim odamiing ijodiy maqsadlariga xizmat etmog‘i lozim. Bilim orttirishning o‘zi kifoya emas, uni iloji boricha keng yoymoq va hayotga tatbiq etmoq zarur".

Xulosa sifatida shuni aytishimizmumkinki ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:
1. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Salohitdinova "Pedagogik texnologiya" T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2008.
2. J. G'. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva, G'. Yo'ldoshev "Interfaol ta'lim sifat kafolati" T. 2008.
3. A.Bahramov. "Tabiatshunoslik" 3-sinf darsligi.T-2019 y

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Dilorom Xudayqulovna Alimova
Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida materiallar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aqliy hujum, мetod, uslub, tushuncha, estetik, immunitet.

Abstract: This article contains materials on the use of modern pedagogical technologies in the teaching of natural sciences.

Keywords: Brainstorming, method, style, concept, aesthetics, immunity.

Umumta'lim maktablarining ta'lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni qo'llanilishi dars-mashg'ulotlarning samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Ta'lim mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish, ularning uzviyligini ta'minlash, o'qitishning noan'anaviy usullari, zamonaviy axborot va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, didaktik materiallar va texnik vositalarni qo'llash, fanlararo bog'lanishlarni hisobga olish bularning barchasi o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgandir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslullardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib b o'lishi kerak.

Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish b o'ldi, desak xato b o'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qay g'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda il g'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mash g'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va

tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, y oʻnaltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Bugungi kunda taʼlimda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli oʻyin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi soʻzni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar q oʻllanmoqda. Men oʻz darslarimda turli zamonaviy metodlardan foydalanib darslarimni samaradorligini oshirib bormoqdaman. Bunga misol sifatida tabiiy fanga toʻxtalib oʻtaylik.

Tabiiy fanlar alohida predmet sifatida oʻqitish 1-sinfdan boshlanadi. Oʻquv materiali - «Tabiat jismlari», «Oʻsimlik va hayvonot olami», «Sogʻligimizni saqlaymiz» va «Ekologiya» mavzulariga birlashtirilgan. Tabiiy fanlar boʻyicha dastur kichik yoshdagi maktab oʻquvchilariga faqat jonajon tabiat goʻzalligi va boyliklarinigina emas, balki respublikamizning tabiatini oʻrganishga ham ham imkon beradi. Tabiiy fanlarni oʻqitishda oʻquvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga oʻrgatishda har bir dars mavzuyini bayon qilishga eʼtibor beriladi. Oʻquvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, oʻz bilimi, kuchi va qobiliyatiga boʻlgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs oʻz imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi. Pirovard natijada taʼlim samaradorligi ortadi. Taʼlimning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib oʻtiladigan darslarda oʻquvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi. Darslarimda mavzularni yanada mustahkamlash va esda qolish maqsadida tushunchalar tahlili metodidan foydalanib boraman.

“Tushunchalar tahlili”. Ushbu uslub refleksiv mash gʻulot sifatida, oʻquvchilar tomonidan oʻtilgan mavzuni yodga olish, biron bir mavzu b oʻyicha oʻqituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda oʻz izohlarini berish orqali oʻz bilimlarini tekshirib, baholashga imkoniyat yaratish va oʻqituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha oʻquvchilarni baholay olishga y oʻnaltirilgan. Ayniqsa tabiiy fandan ushbu metodni qoʻllash oʻquvchilar bilimini yanada boyitadi va fanni oʻzlashtirish darajasi yanada oshib boradi.

Darslarida quyidagi usulda foydalanaman.

Tushunchalar	**Tahlili**
Globus	Globus sharining modeli, uning kichik masshtabdagi sharsimon nusxasi. Globusda Yerning geometrik konturlari va maydonlar nisbatini saqlagan holda butun yer yuzasidagi geografik obʼyektlar (quruqlik va suv havzalari, tog, tekislik va b.) qiyofasi muayyan nisbatda juda kichraytirilgan holda tasvirlanadi.
STEAM	Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu — S — science, T — technology, E — engineering, A — art va M — math. Ingliz tilida bu shunday boʻladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, sanʼat va matematika. Ushbu yoʻnalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur boʻlib

	kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.
Tabiat	Bizni o'rab turgan jonli jonsiz narsalarning xammasi tabiat. Tabiatda turli xil o'zgarishlar tabiat xodisalari r o'y beradi.Tabiat 4 faslga b o'linadi. Tabiat har faslda turli xil ranglarda jilolanadi.

Ushbu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Mazkur metodlarni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirishdan iborat. Bu o'quvchilarni yanada faol qatnashish bilan birga mavzuni yodida qolishiga ham sabab b o'ladi. Yana bu Xalqaro baholash dasturiga ham, uning tayorgarlik ishiga ham yordam b o'la oladi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayoniga yangilik olib kirish va joriy etish bugungi boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Demak, har bir o'qituvchi izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'zini o'zi tarbiyalashi, o'z ustida tinmay izlanishi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishi va ta'limda qo'llay olishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar

1. T.G'afforova, E.Shodmonov va boshqalar. O'qish kitobi. 1-sinf. 2019
2. Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova, 3-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma
3. http://www.sadikov.uz/news

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistranti Telefon:+998917793882
munisxonernazarova21@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobilyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: ta'lim, boshlang'ich sinf, ota-ona, mahalla, o'quvchi, o'qituvchi, didaktik , intellektual,interfaol, qobiliyat, texnologiya, klaster.

Hech kimga sir emaski XXI asrda dunyo taraqqiyotining asosi yer osti va yer

usti boyliklari bilan emas, balki intilektual salohiyat orqali baholanmoqda. Bu esa o‘z navbatida barcha mamlakatlarni o‘z taraqqiyotini bilimga asoslangan holda barpo etishga undamoqda. Xususan, O‘zbekistonda ham mustaqillikni dastlabki yillaridanoq ilm-fanni rivojlanishiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. O‘tgan davr mobaynida ilm-fanni rivojlantirishga oid 100 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, buning natijasida bugungi kunda ta’limni rivojlanayotganligi amaliyotda o‘z isbotini topmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat, xususiy va oilaviy bolalar bog‘chalari tubdan yangilanib bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish darajasi bugungi kunda 52 % ga ko‘tarildi. Birgina “2019 – yilning o‘zida esa mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta’limni rivojlantirish uchun o‘tgan yillar davomida 19 ta yangi oliy o‘quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo‘shma ta’lim dasturi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.[30] O‘zbekistondagi bu kabi o‘zgarishlar bilim olishga e’tibor davlat darajasiga ko‘tarilganligini yorqin dalilidir.

Bilim bu kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida olgan ma’lumotlarini inson tafakkurida aks etishidir. Bilimga asoslangan jamiyatning taraqqiyoti esa quyidagi omillar orqali amalga oshiriladi. Bular:

- yuksak turmush sifatini amalga oshiradigan samarali davlat institutlari;
- yuqori sifatli ta’lim
- samarali ilm-fan;
- samarali ilmiy-texnikaviy venchur biznesi;
- yuqori sifatli inson kapitali;
- bilimlar va yuqori texnologiyalarning yaratilishi;
- axborot jamiyati yoki bilimlar jamiyati.

Bugungi kunda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarimiz O‘zbekiston tarixida uchinchi renessans davriga poydevor yaratililishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda yosh, shijoatli, kreativ fikrlaydigan yoshlarga to‘laqonli imkoniyatlar yaratib berilishi Mirzo Ulug‘bek, ibn Sinolardek buyuk siymolarni yetishib chiqishiga ishoradir. Mamlakatimizda ta’limni xalqaro andozalarga javob beradigan tizimga aylantirish uchun Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning 29-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 5712 sonli Farmonni imzolandi.[31]

Yuksak darajadagi aqliy qobiliyatga ega bo‘lgan kishilar qaysi davr, qaysi makonda yashashlaridan qat’iy nazar qadrlanib kelingan va ularning faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Bizga ma’lumki har bir inson yoshligidanoq o‘ziga xos takrorlanmas individual xususiyatlarga ega bo‘lgan holda dunyoga keladi va voyaga

1[30] (The Programme for international Student

[31]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.

etadi. Bazi insonlar yoshligidanoq aqlan zukkoligi, zehni o‘tkirligi bilan ajralib turadilar va kishilarni lol qoldiradigan aql zakovatga ega bo‘ladilar. Tabiat in’omi hisoblangan bunday qobiliyat ayni vaqtda jamiyat boyligi hamdir. Faqat rivojlangan, yuksak taraqqiyotga intilgan jamiyatdagina iste’dodlar shakllantiradi, asrab avaylanadi, uning to‘liq namoyon bo‘lishi uchun barcha moddiy, maishiy, ma’naviy shartsharoitlarni yaratib beriladi. Ana shunday hollardagina iste’dodning o‘z jamiyatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va manaviy jihatdan yanada rivojlanishi uchun qudratli omil bo‘lib xizmat qilishiga erishish mumkin. Shu sababli ham pedagoglarimiz oldida mustaqil fikrlovchi, ijodkor yoshlarni tarbiyalashdek muhim vazifa turibdi.

Bugungi kunda yuksak istedodli, aqlli, yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilarning yetakchilik roli tan olinib qadrlanayotganligi davlatimiz siyosatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shunday ekan kelajagimiz vorislari bo‘lgan yoshlarning aqliy imkoniyatlarini oshirish, ularning qobiliyatlarini imkon darajada ro‘yobga chiqarish davr talabidir.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarda o‘z aksini topmoqda. Mamlakatimizda ta’lim oluvchi-yoshlarning ijodiy g‘oyalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini rivojlantirish maqsadida vazirlar mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta’limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda moliya vazirligining xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishi belgilandi.

Hech kimga sir emaski keyingi o‘n yil ichida ta’limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta’lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma’naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal sur’atlar bilan olib borildi. Shu amaliy ishlarning boshlanishi sifatida Davlatimiz tomonidan yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirishning quyidagi maqsadlari belgilab olindi:

- yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirish va uni
- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati,
-ta’lim tizimini modyernizatsiya qilish,
-intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish:
- intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;
-yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik

tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Garchi yoshlarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish borasida oldimizga qo‘ygan maqsadlarimiz aniq bo‘lsada, bugungi kunda olib borilayotgan intellektual imkoniyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligini talab darajasida deb bo‘lmaydi. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, o‘quvchilarning umumta’lim maktablaridagi tahsili davomida intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik tyexnologiyalarni qo‘llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi. Pedagog har bir o‘quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual imkoniyatini rivojlantirish maqsadidda ta’lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo‘llash kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yo‘naltirilgan tarbiya tizimi esa o‘qituvchidan yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda tarbiya uslubiyotlariga alohida munosabat bilan yondoshishni, uslubiyotni hamda mavjud holatni to‘liq o‘rganishni, jarayonga ijodiy muhitni olib kirishni taqozo etadi. Bunga asosiy sabab:

- intellektual ijodiy ishlar jarayonida to‘liq muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlik tahdidining mavjudligi;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchisi to‘qnashadigan va ba’zan ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurashadigan hayotiy holatlardan biri – ya’ni fikrining o‘ylaganidek ro‘yobga chiqmasligini anglash;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘pincha o‘zining dunyoqarashi, tasavvurining qanday darajada kengligidan kelib chiqib, fikrlaydi hamda bu fikrlashni mavjudlikning ijobiy, yoki salbiy holatlari bilan bog‘lab tahlil qila olmasligidan dalolat beradi. O‘rganishlarimiz natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual imkoniyatini rivojlantirish jarayonini shakllantirishda quyidagi holatlar e’tiborga olinishi kerak degan hulosaga keldik:

1) Intellektual imkoniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni maksimal darajada texnokratik bo‘lishi kerak. Buning uchun esa psixologik hamda pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish kyerak;

2) Intellektual imkoniyatni shakllantirishni ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirilishi ko‘zda tutilayotgan tegishli texnologiyalarni ilmiy asoslash va ishlab chiqish lozim;

3) Intellektual imkoniyatni shakllantiruvchi tarbiya jarayonining dastlabki holatda ijtimoiy-psixologik muhitni aniq tahlil qilish hamda taktik jarayonni mukammal ishlab chiqish kyerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsining shakllanish jarayoniga – jamiyatda qabul qilingan axloq normalari, xulq normalari, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni singdirish tyexnologiyalarini yaratish ko‘pgina jihatdan yakuniy natijani ta’minlashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual qobiliyatini tarbiyalash va ularning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, qiziqarli misol, topshiriq va masalalarni tanlashga alohida e’tibor berish zarur. Darsga doir tanlanadigan misol, topshiriq va masalalar aniq bir sistemani tashkil qilishligi, o‘ziga xos tanlash

usuliga va o‘qitishning aniq bir maqsadiga qaratilishi zarur.

Topshiriqlar sistemasini ishlab chiqish murakkab ishdir. Hozircha metodik adabiyotlarda har bir mavzuga oid topshiriqlar tanlashning ilmiy asoslangan umumiy kriteriyasi, miqdor va sifat jihatdan shakllantirilmagan, ularning mantiqiy taqsimlanish ketma-ketligi ham to‘liq ilmiy va metodik jihatdan ishlab chiqilmagan. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ayrim mavzuga, bobga doir masalalar tanlash ishiga alohida ahamiyat berishi zarur. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tanlangan topshiriqlar sistemasi ma’lum metodik talablarni qanoatlantirishi kerak: Ya’ni

-har bir tanlangan topshiriqlar sistemasining aniq didaktik maqsadini aniqlash.

-ketma-ketlilik tamoyiliga rioya qilish (bunda topshiriqlarining osondan murakkabga qarab yo‘naltirilishi nazarda tutiladi).

Bugun boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga nisbatan qiziqish ortgan. Kasbiy mahoratini davomiy oshirish natijasida ko‘pchilik o‘qituvchilar dars jarayonida turli pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘quv jarayonida kompyuterdan foydalanib quyidagilarga erishishi mumkin:
- ta’lim samarasini oshirish,

-o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatini ko‘tarish,

-turli o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish,

-turli qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan bir vaqtda muloqot qilish,

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ta’lim sifatining oshishida juda qo‘l keladi. Kelajak ustunlari bo‘lgan yosh avlodni vatanga mehr-muhabbatli, xalqqa sadoqatli, oilaparvar, kuchli, baquvvat, ziyoli, go‘zal xulqli qilib tarbiyalash va ilm berishda biz pedagoglar bor kuchimiz va mehnatimizni ayamasligimiz darkor. Zero boshlang‘ich ta’lim-kelajak ostonasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.2019-yil 29-aprel , PF-5712-sonli farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M. ―Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz -T.: ―O‘zbekiston, 2017.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga
murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.

4. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012.

5. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING INNOVATSION METODLARI HAMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich, Yusupov Azizbek Xolmuxamatovich,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Metodlar juda xilma-xildir. Dars jarayonida bu metodlardan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, kelajakda raqobatbardosh, yetuk mutaxassis sifatida kamol topishlariga yordam beradi. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish afzalliklari yoritilib o'tilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang'ich ta'lim, metod, axborot texnologiyalari, kompyuter, dars.*

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish maqsadida bu sohada yangi, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlarni o‘quv jarayoniga samarali joriy etishni taminlash dolzarb vazifalardandir. Barkamol insonni shakllantirishga imkon beruvchi o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirishning muhim vazifasi ta'lim samaradorligini ta'minlashdir. Ta'lim samaradorligi ta'lim mazmunining asosiy maqsad va vazifalarga mosligi, uning ilmiy jihatdan asoslanganligi, izchilligi, turmush bilan bog‘liqligi, shuningdek, ta'lim mazmuniga mos metodlar, shakllar va vositalar majmuasi tanlanishi bilan ta'minlanadi. Bunday natijaga erishish o‘quv jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashni taqozo etadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metodlar o‘quvchilarni juftlika, kichik guruhlarda, ba'zan katta

guruhda o‘zaro hamkorlik, birgalikda mavzularni o‘zlashtirish asosida bilim olishlarini ta'minlaydi. O‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuning xarakteri, murakkabligi, qolaversa, mashg‘ulotni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga tayangan holda o‘quvchilarni juftlikka, kichik guruhlarga ajratib, umumiy yoki alohida-alohida topshiriqlarni beradi. Mohiyatiga ko‘ra interfol metodlar innovatsion xarakterga ega. Shu sababli ulardan qaysi birini o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yoritish, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini ta'minlash, bilimlari

darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’limdir. O‘qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Shuni aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarni tashkil etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarni va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida o‘quvchilarda fanlarga bo‘lgan qiziqishlari ortishi, o‘qish savodxonligi va matematikaga doir masalalarni yechish bo‘yicha chuqur bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilishida keng imkoniyatlar ochadi.

Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda Respublikamizda boshlang‘ich sinfo‘quvchilari soni jami 2129389 nafarni tashkil etadi. Ularga 111866 nafar pedagog saboq berib kelmoqda.Xozirgi kunda davlatimiz tomonidan o‘qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta’minlash, ular faoliyatiga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o‘quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo‘lishi, barcha fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelmoqda. Hozirgi davr o‘qituvchi va o‘quvchi oldiga katta talablar qo‘ymoqda, bu talablarning eng asosiysi -darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga, maktablardagi turli xil o‘quv mashg‘ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarni turli bilim va ko‘nikmalarni egallabolishidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarlibo‘lishiga ko‘mak beradi, buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungidars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o‘ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim. Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e‘tirof etilganligi xech kimga sir emas. Jumladan, ta’lim jarayonida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kompyuter axborot muhitini yaratish hamda ta’lim jarayonida

multimedia, o‘qitishda immitatsiya, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma’lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiriщda ulardabuyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy me‘roslarini o‘rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridanfoydalanish muxim rol o‘ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o‘quvchilar juda ko‘p miqdorda ma’lumotlarni olish, izlash qayta ishlash va o‘zlashtirishimkoniyatiga ega bo‘ladilar. Albatta, ta’lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish. O‘quv mashg‘ulotlarini yangi interfaol usullar, zamonaviy vositalar ya’ni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘tkazish, jumladan, dars mashg‘ulotlarida multimediani qo‘llash, internet tarmog‘idan foydalanish shubhasiz o‘z samarasini beradi. O‘qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- boshlang‘ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;
- ta’limning bunday usuli o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o‘quv materialinio‘zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi;
- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini beradi;
- o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki o‘quvchilar erishgan mantiqva qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi;
- o‘quvchilarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma’lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;
- o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarinikengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lash hamda darsga qiziqishlarinioshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Aytish joizki, multimedia ilovalarini har bir darsda qo‘llash natijasida o‘quvchilarda mustaqil, ijodiyfikrlash yanada rivojlanadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, axborot kommunikativ vositalarining boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llanilishi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi — “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-3931-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishningpedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.– T.: O‘qituvchi, 2004.
5. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A, Pardaev A, Ta’limda innovatsion texnologiyalar – T.: Iste’dod, 2008. – 180b.
6. Kamoldinov M, Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari – T.: Talqin, 2010.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK DASTURLARDAN FOYDALANISH, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich, Yusupov Azizbek Xolmuxamatovich,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompitentligini oshirish va takomillashtirishda pedagogik dasturlardan foydalanish haqida tushunchalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *EdrawMax, kommunikatsiya, dasturiy vosita, soft, UML, shablon.*

Ma’lumki, 2017 yil 14 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoyishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, Harakatlar strategiyasining 4.4-Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish bo‘limida: “–... uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish,...” masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Barcha ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda samaradorlikni hamda mavzu mazmundorligini oshirish maqsadida didaktik vosita hamda elektron manba sifatida qo‘llaniluvchi o‘rgatuvchi multimediali o‘qitish tizimlarini yaratish dasturlari imkoniyatlarini o‘rganish o‘qituvchilarning axborot

texnologiyalari bo‘yicha bilimlarini oshirish hamda ularning kasbiy faoliyatlarida unumdorlikni oshirishga imkon beradi. Mahorat darslarini olib borishda Edraw Max dasturi yordamida zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarga bilim berish uchun turli xil fanlardan didaktik, tarqatma materiallar yaratib umumta’lim maktab o‘quvchilarining bilimini yanada mustahkamlash uchun pedagogik professional dastur sifatida foydalanish mumkin.

Edraw Max dasturidan foydalanish bo‘yicha texnik va operasion tizimga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish.

Edraw Max – keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Edraw Max dasturida nafaqat tashkiliy sxemalar, tarmoq diagrammalari, blok-sxemalarni, balki UML diagrammalarni, tarmoq diagrammalarini, ma’lumotlar bazasi diagrammalarini, dastur strukturalarini, reja diagrammalari hamda ish jarayonlarini yaratish imkoniyati mavjud.Dasturiy vositada bir vaqtning o‘zida bitta oynada yoki bir nechta loyiha bilan ishlash mumkin. Shuningdek, vkladkalar bilan ishlash interfeysini ham qo‘llab quvvatlaydi. Ushbu dasturiy vosita MicrosoftWindows operatsion tizim uchun ishlab chiqarilgan bo‘lib, kompyuterga juda oson o‘rnatiladi.

Yutuqlari: Juda katta grafik imkoniyatlarga ega.

U yordamida turli xildagi bloksxemalar, tashkiliy diagrammalar hamda tarmoq sxemalarini yaratish imkoniyatlari mavjud.Keng masshtabdagi ranglar, shriftlar, formalar, tasvirlar, matnlar, qoliplar va simvollarga ega.Yaratilgan sxemalar va boshqa mahsulotlarni MS Office 2010 dasturiga o‘tkazish imkoniyati mavjud. 5000 dan ortiq yaratilgan vektorli simvollari ham mavjudki, ular yordamida diagramma, grafiklarni chiziq juda ham oson va engil amalga oshiriladi. Dasturdagi mavjud tayyor shablon va misollar asosida turli tipdagi taqdimotlarni va biznes rejalar yaratish imkoniyatlari ham mavjud. Shuningdek, dasturiy vosita bilan ishlashda bir vaqtning o‘zida bir oynada bir nechta loyihalar bilan ham ishlash imkoniyatlari mavjud.

Ushbu dasturiy vositaning mualliflari haqida: «EdrawSoft» - EdrawSoft kompaniyasi diagramma va chizma sxemalar uchun asosiy provayder hisoblanadi. 2004 yilda asos solingan ushbukompaniya webdasturlari uchun turli tipdagi grafik komponentlar hamda diagrammalarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo‘llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta’lim jarayonini ham tez sur‘atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo‘rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o‘rtasidagi raqobat masalasi ham ko‘tarilmoqda. Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so‘zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o‘rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog‘liq masalalar tobora ko‘proq e‘tiborga olinmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev

ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart". Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob'yektlari, sifatli ta'lim va xizmatlar deganidir.

"Raqamli" – atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha echim ishlab chiqiladi. Tadqiqot metodologiyasi Mazkur maqolani yozishda respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadi qo'yilgan bo'lib, unda raqamlitexnologiyalarning ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda ekanligi.

Yurtimizdagi nufuzli xususiy o'quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta'limni yo'lga qo'ydi. Bu jarayonning o'zi ham mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi bosqichboshlanganini anglatadi. Sababi, shu kungacha hali hech bir o'quv markazi bunday tartibga o'ta olmayotgan edi. Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta'limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir.

Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta'sirining ahamiyati, hukumatning zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma'ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning, shuningdek deputatlarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oldin raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda, ya'ni, sanoat, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarda joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotganini e'tiborga olib, raqamli rivojlanish bo'yicha barcha soha rahbarlarining o'rinbosarlari lavozim tarkibiga kiritilmoqda.

Iqtisodiyotda ro'y berayotgan jarayonlar dinamikasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida oliy ta'limini rivojlantirish bo'yicha takliflarni tahlil qilish va ishlab chiqishda ta'lim hamjamiyatining faol pozitsiyasini talab qilmoqda. Ta'lmda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak? Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhiki aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'ng yutuqlarini

o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim. Ikkinchidan, o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash. Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish. To‘rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma’ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimedialitaqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish. Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferentsaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish. Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta’lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz. Biz ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta’lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o‘qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o‘yin bilan klassik ta’limni birlashtirishga tengdir. Natijada o‘qish jarayoni yaxshilanadi, o‘zlashtirish, ta’lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar – bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir. Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta’lim tizimidagi barcha muammolarga echim emas, balki raqamli avlod uchun ma’ruzalar va seminarlarni ma’lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv jarayonida

asosiy rolni saqlab qoladi. O‘qituvchining obro‘si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda o‘qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi o‘zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an’anaviy uslubda o‘qishni xohlamaydilar va o‘qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o‘qitishni davom ettirishlari kerak emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali.
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz /SH. M.Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017.
3. Abdullayev, M., Saidahror, G., & Ayupov, R. (2020). Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari. Arxiv nauchno‘x issledovaniy, 1(23).
4. Taylaqov N.I., Ahmedov A.B. IBM PC kompyuteri. Ilmiy ommabop qo‘llanma. –T.O‘zbekiston, 2001.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich

GulDU doktoranti

Anotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini va kompetensiyalarini oshirishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar tahlil qilingan. Ularning ma’naviy savodxonligini oshirishning kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim-tarbiya, kasbiy kompetensiya,mahorat, integratsiya, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, ma’naviyat.*

Zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonlari bugungi kunda xalqaro mehnat bozorining asosiy talabi hisoblanadi. Sababi, jamiyatda mustaqil fikrlovchi, o‘zini namoyon qila oladigan, o‘ziga ob’yektiv baho beradigan kishilar zarur. Ular jamiyat rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadilar. Bu esa o‘z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga keng joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu asosda, bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, ta’lim bosqichlarining o‘zaro uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini

modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bu o‘rinda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va uning tahliliy ko‘nikmalariga alohida e’tibor berish lozim.

Kasbiy kompetentlik, kasbiy o‘z-o‘zini anglash, kasbiy qadriyatlarni hurmat qilish va kasb-hunarga yo‘naltirish –bu o‘sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug‘ma layoqatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo‘ladigan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan umumlashtiruvchi tushunchalardir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bu – kasbiy masalalarni hal etishda amaliy tajriba va bilim asosida muvaffaqiyatli harakat qilishini ta’minlashdir. Kasbiy kompetensiya va kasbiy o‘zlikni anglash butun umr davom etadigan jarayon hisoblanib, inson orzu qilish, sinash, tanlash ularni amalga oshirish bosqichlaridanoq kasb-hunar tanlaydi, so‘ngra kasb-hunarga kirishadi keyinroq dunyodagi kasb-hunarlarni o‘zgarishiga, o‘zidagi o‘zgarishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini o‘zgarishiga bog‘lik ravishda kasbini yoki mutaxassisligini o‘zgartiradi. Komil inson g‘oyasi ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga molik o‘zida ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, insonni ezgu maqsadlari sari undaydigan oliyjanob g‘oyadir.

Zamonaviy o‘qituvchi obrazida komillik mujassamlashishi lozim. Bugungi kun o‘qituvchisining kasbiy kompitentligini shakllantirish –bu uning kunlik layoqatini, ish faoliyatini samaradorligini oshirishdan iborat. Ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va hal etish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish zaruriyati ta’lim muassasasiga va o‘qituvchilarga qo‘yilgan ijtimoiy talablarning o‘sishi bilan asoslanadi.

Oliy ta’lim sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo‘shliqlarni aniqlash asosida ta’lim berishga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Shu asosida innovatsiyalarni hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi.

O‘quv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlardan yana biri talabalarning o‘quv faoliyatlarini ularning mayllari asosida tashkil etish va o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishdan iborat. Bular sirasiga talabalarda bilishga qiziqishlari, ularda burch hissi hamda ta’lim jarayonida mas’uliyatlilikni shakllantirish metodlari kiradi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda sub’yektlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, erishish zarur bo‘lgan maqsadlar yo‘nalishida ularning faolligini rivojlantirish samaradorligini ko‘p jihatdan mavjud motivlarga va motivlashtirishga bog‘liq bo‘ladi.

Ta'lim sohasi – jamiyatning barcha muammolarini oʻzida aks ettiruvchi ijtimoiy institutdir. Zamonaviy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni boyitib, takomillashtirib borish zarur, oʻquv jarayoni orqali uni insonparvarlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishga ega boʻlgan tarbiyaviy tadbirlarni faollashtirish orqali, pedagogik-psixologik qoʻllab-quvvatlash orqali yuksak ma'naviy, mas'uliyatli, ijodkor, kompetentli fuqarolarni tarbiyalash lozim. Shaxsni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirish hozirgi ta'limning asosiy masalasi boʻlib, buning uchun avvalo oʻqituvchining oʻzida yuksak darajadagi ma'naviy-ma'rifiy kompetentlik boʻlishi shart. Ma'naviyat –insonning oʻz shaxsiy potensialini ochishga qaratilgan, ichki olamining boyish bilan bogʻliq boʻlgan sifatlarning koʻrinishi. Ma'naviyat –mukammallik va ichki olamning muvozanatini oʻzida aks etuvchi shaxs sifatida oʻzini anglashining tavsifidir. Bizning moddiy va ma'naviy farovonligimizni ta'minlovchi asosiy mezon sanaladigan ma'naviyatning yaqqol tasavvurlarini kelajak avlodga yetkazib bermoq zarurdir. Ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish – bu oʻziga va atrofdagilarga qaratilgan xulq-atvorining koʻrinishi sifatida oʻz-oʻzini yaratishi va rivojlantirishi hisoblanadi. Ma'naviy-ma'rifiy kompetentlilikni rivojlantirish shaxsiy rivojlanishi, ma'naviy-ma'rifiy namunaning mavjudligi (ota-ona, ustozlar timsolida), ta'lim dasturiga integratsiyalashgan umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan oʻquv jarayonining tatbiq etilishi asnosida shakllanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish –shaxsning milliy va diniy qadriyatlar manbalarini oʻzlashtirishi, an'anaviy axloqiy me'yorlar va ma'naviy ideallarning oʻziga, atrofdagilarga, davlatga va umuman dunyoga nisbatan munosabati; tashkillashtirilgan ta'lim jarayonida ta'lim vositalari orqali amalga oshiriladi. Ma'naviyatning ruhiy manbalari insonga muhabbat, hayotiy muvaffaqiyat va oliy qadriyatlar asosida yotadi. Oʻqituvchilar faoliyatining ilmiyligi –yangiliklarni izlash, oʻrganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini oʻzlashtirish, shular qatori pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz lozimki, boʻlajak oʻqituvchilarni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning turli usullari bilan tanishtirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy mahorat sirlari bilan qurollantirish hamda pedagogik inovatsiyalar bilan ishlash metodikasini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun boʻlajak oʻqituvchilarda pedagogik jarayonlarni strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, oʻquvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga koʻra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va ular asosida pedagogik jarayon sub'yektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish koʻnikmalarini shakllantirish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Maxamatova, F. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.

2. Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ўқитиш жараёнида муоммоли ўқитиш технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.

3.Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига рухий таъсирлар. Архив Научных Публикаций JSPI.

4. Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.

5. Maxamatova, F. (2020). Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.

6. Maxamatova, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.

DIFFERENTSIASIYALASHGAN TA'LIM – BO'LAJAK MUTAXASSISLARINI UMUMKASBIY TAYYORLASH TIZIMINING ASOSI SIFATIDA

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich

GulDU doktoranti

Annotatsiya. *differentsiasiyalangan ta'limning maqsadi – har bir o'quvchi qobiliyatining maksimal darajada rivojlanishini, bilim olish ehtiyojini qondirish kabilarni ta'minlashdir. O'rganilgan adabiyotlarda ko'plab mualliflar differentsiasiya namoyon bo'lgan holatlarni differentsiasiyalashtirilgan ta'lim shakllari deyishadi, ularning ko'rinishlari umumlashtirilib, turli sathlarda amalga oshiriladi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy faoliyat, tabaqalashtirilgan ta'lim, ta'lim shakllari, differentsiallash, bilim, an'anaviy nazorat, individual.*

Professional ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda asosiy e'tibor professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining differentsiallashgan (tabaqalashtirilgan) ta'limiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Differensiasiya lotincha differentia so'zidan olingan bo'lib, «farq, bo'linma» ma'nolarini anglatadi. Pedagogika lug'atida differentsiasiya tushunchasi quyidagicha talqin etiladi: ta'lim differentsiasiyasi o'quv jarayonini tashkil etish usuli bo'lib, bunda shaxsning individual- tipologik o'ziga xosliklari (layoqat, qiziqish, moyilligi, aqliy faoliyatining xususiyatlari) inobatga olinadi. Differentsiasiya o'quvchilar guruhini shakllantirish bilan ajralib, unda didaktik tizim unsurlari farqlanadi. Differentsiasiyalangan tizim tushunchasi torroq ma'noga ega. Differentsiasiyalangan tizim o'quvchining individual tipologik xususiyatlari hisobga olingan ta'limdir. Differentsiasiyalash zarurati kishilarda mavjud farqlanishlardan kelib chiqadi. Sinf-dars tizimida o'quv jarayonini differensiasiyalamasa uning samaradorligi turlicha bo'ladi. Turli yoshdagi

o‘quvchilar orasida amaliy va nutqiy-mantiqiy tafakkur unsurlari mavjud bo‘lib, ular turli darajada namoyon bo‘ladi. Mantiqiy tafakkurli o‘quvchilarning bir qismi tabiiy fanlarni yaxshi o‘zlashtiradi, gumanitar sohaga qiziqish bildirmaydi. Shu bilan birga obrazli tafakkuri yaxshi rivojlangan, hissiyotli, ammo aniq fanlarni yoqtirmaydigan o‘quvchilar ham bor. Ta’lim differentsiasiyasi o‘quv jarayonini shaxsning individual o‘ziga xosligini inobatga olgan holda tashkil etish imkonini beradi, barcha o‘quvchilarning ta’lim mazmunini o‘zlashtirishini taqozo qiladi. Ta’lim jarayoni differentsiasiya sharoitida o‘quvchini bilim olish ishtiyoqiga maksimal yaqinlashtiradi.

An’anaviy differentsiasiya turlariga hozirda milliy belgilarga ko‘ra ajratish ham kiritiladi, bunda millatiga qarab maxsus ta’lim muassasalari tashkil etish tushuniladi. Masalan, Toshkentda qozoq, tojik va boshqa tillarda, Samarqandda tojik tilida so‘zlashuvchilar uchun kollejlar ochilgan (hozirda ular etnomadaniy komponentli kollejlar deyiladi).

Ta’lim paradigmalarining o‘zgarishi, ta’lim markaziga o‘quvchi shaxsining qo‘yilishi differensiasiyada insonning psixologik xususiyatlari rolining oshishiga, xususan guruhda kuchli va kuchsiz asab tizimi, xotira tipi, ixtiyoriy xotiraning rivojlanish darajasi va boshqa xususiyatli o‘quvchilar guruhining ajralishiga olib keldi.

Differentsiasiyalangan ta’lim shakllari tasnifi u yoki bu o‘quv muassasasidagi differentsiasiya tarkibini tahlil qilish uchun nihoyatda qulay. Shunday qilib mazkur bobimizning ushbu qismida biz chet el va respublikamiz ta’lim muassasalari amaliyotida kuzatilgan differentsiasiyaning namoyon bo‘lishini muayyan tarzda tahlil qilishga harakat qildik. Alohida fanlarni chuqurlashtirib o‘rganuvchi hamda ixtisoslashtirilgan guruhlar differentsiasiyaning o‘quvchilar qiziqishiga ko‘ra keng tarqalgan shaklidir. Bunday guruhlar kasb-hunar kollejlarida qiziqishlari yaqqol namoyon bo‘lgan o‘quvchilar orqali shakllantiriladi.

Ixtisoslashgan guruhlar Oliy ta’lim muassasalariga kirmoqchi bo‘lgan o‘quvchilardan shakllantiriladi. Ular uchun tanlagan ixtisosliklariga yaqin maxsus kurslar va fanlar o‘tiladi. Ixtisoslashgan guruhlarni 1-kursda shakllantirish maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari, o‘quv ishlarini talabalar imkoniyatiga qarab emas, balki qiziqishlariga qarab mo‘ljallash lozim. Bunda ixtisoslashgan guruhlarda asosiy aspekt dasturiy materialni chuqurlashtirishga emas, balki kengaytirilishiga tayanilsa, o‘quvchilar qiziqishi yanada ortadi.

Moslanuvchan tarkibli guruhlarda ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar jamlanadi. Bunday guruhdagilar 14-15 yoshga yetganlarida bilimga qiziqishlari va moyilligi namoyon bo‘ladi va bu davrga kelib guruh shakllangan jamoaga, aqliy faoliyat shakliga ega bo‘ladi.

Elektiv differentsiasiya – o‘quvchilar qiziqishlariga ko‘ra differentsiasiya shakli bo‘lib, ularga bir qator fanlarni tanlov asosida o‘qish imkonini beradi. Tanlov fanlariga bazaviy fanlar kirmaydi. Tanlangan fanlar o‘quvchilarning bilim va qiziqishlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi hamda bu jarayon gumanitar, tabiiy-ilmiy, matematika sohalarda kechishi mumkin. Tanlov fani sifatida valeologiya, psixologiya, din tarixi, san’at tarixi kabilar o‘qitilishi mumkin.

Elektiv differentsiasiyani tashkil etish jarayonida har bir o‘quvchi muayyan miqdordagi fan va maxsus kurslarni tanlashi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalariga kirishga ixtisoslashtirilgan guruhlar – bu differentsiasiyalashtirilgan ta’limning shunday shakliki, uning zamirida o‘quvchining rejalashtirgan kasbi yotadi. Ular 2-3 kurslarda tanlangan oliy ta’lim muassasalariga kirishga tayyorgarlik uchun tashkil etiladi.

Bunday guruhlarga tanlov texnikumlar tomonidan o‘tkaziladi. Kasbga yo‘naltirilgan fanlarni Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari o‘qitishadi. Bunday guruhlarning o‘ziga xosligi bunda o‘quv fanlari doirasiga kasbga yo‘naltirilgan maxsus kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytda o‘quvchilarni umummaxsus xususiyatlari darajasidan kelib chiqib taqsimlash ko‘plab amalga oshirilmoqda, bunda asosan har bir o‘quvchining intellektual rivoji inobatga olinadi va bu bo‘linish guruh ichidagi differentsiasiya deyiladi. Guruh ichidagi differentsiasiyaning eng keng tarqalgan shakli o‘quvchilar tomonidan murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlarning bajarilishidir. Bunda murakkablashtirish o‘tilgan materialni jalb qilish, mavzuning turli qismlari bilan aloqa bog‘lash zaruriyati sababli yuzaga kelishi mumkin. Topshiriq ish turlarini qiyinlashtirish, uni bajarishda ijodkorlikni oshirish hisobidan murakkablashtirilishi mumkin. Masalan, eng sodda shaklda o‘quvchilarga darslikdagi muayyan paragrafni o‘qish, uni aytib berish, asosiy fikrni ta’kidlash taklif etiladi, murakkablashtirilgan shakldagi darajada esa o‘sha paragrafdagi materiallar asosida savollar, reja tuzish, yanada murakkabroq shaklda – paragrafni o‘qib, unga annotasiya va taqriz yozish taklif etiladi. O‘quvchilarning umumiy qobiliyatlari bo‘yicha sinf ichidagi differentsiasiya darajali differentsiasiya hisoblanadi (A.N.Orlov va V.M.Monaxov). Mualliflar bunda o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonida o‘quv materiali mazmunining har doim maksimum darajaga mo‘ljallanganligiga asoslanadi.

Darajali differentsiasiya sharoitida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini nazorat qilish. An’anaviy nazorat prinsiplaridan voz kechish va kollejlarning bugungi holatiga mos bo‘lgan baholash yo‘larini izlash sabablarini ko‘rsatib o‘tamiz.

Avvalo, an’anaviy nazoratning yetarli darajada aniq ma’lumot bilan ta’minlanmaganligi va eng muhim o‘quvchilardagi tayanch tayyorgarlik to‘g‘risida aniq ma’lumot olish mumkin emasligidir. An’anaviy nazoratlar natijasi aniq ma’lumot to‘plab berolmaydi. Bu esa ta’lim jarayonini boshqarishning to‘g‘ri

amalga oshirilishiga, o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqib differentsiasiyalangan

yondashuvga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

An’anaviy nazorat metodida baholash tizimi pedagogik jihatdan noto‘g‘ri yo‘naltirilgan, bu tizim «o‘qib chiqish» prinsipiga tayanadi. Boshqacha aytganda, tayanch nuqtasi «5» baho hisoblanib, o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklar natijasida bu baho pasaytiriladi. Bu birinchidan, bahoning yetarli darajada ma’lumotli va aniq mezonli bo‘lishini ta’minlamaydi. Ikkita o‘quvchining bir xil 3 bahosi mutlaqo ularning bir xil tayyorgarlikka ega ekanligini anglatmaydi. Bu faqat

a’lo baho bilan qiyoslaganda nisbatan sezilarli kamiliklari mavjudligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, bunday baholash tizimi ko‘pchilik o‘qimayotgan talabalar uchun bir qator emosional va psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holatda baho rag‘bat va talabani bilim darajasini ko‘rsatuvchi belgi emas, balki jazoga aylanadi.

Ko‘rib chiqilgan baholash tizimining muqobil varianti «qo‘shib borish»ga asoslangan baholash tizimi hisoblanadi, uning asosida umumta’lim tayyorgarligini minimal darajasi qo‘yiladi. Bu darajaga erishish har bir o‘quvchi uchun majburiy shartdir. Yuqori darajali baho mezonlari minimal daraja bazasida o‘zlashtirish orqali ta’minlanadi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash joizki, nazoratga nisbatan an’anaviy yondashuv darajali differentsiasiya talablariga javob bermaydi. Uni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rib chiqish lozim:

- o‘quvchilarning majburiy tayyorgarlik darajasiga erishganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni ko‘paytirish va tekshiruv to‘laqonligini kuchaytirish;
- tekshirish va baholashni «qo‘shib borish» metodiga yo‘naltirish (baho muayyan tayyorgarlik darajasiga erishganligi uchun qo‘yilishi kerak);
- nazoratning differentsiasiyalovchi kuchini oshirish;
- ta’limni yakuniy natijalarga yo‘naltirish.

Nazoratni qayta tashkil etish yo‘llari turlicha tarzda amalga oshirilishi mumkin. Biroq bir qator umumiy talablar mavjudki, nazorat materallarini ishlab chiqishda bajarilishi lozim.

Bunga munosib tarzda nazorat ham ikki bosqichli bo‘lishi lozim. Xususan, nazoratda ikki prinsipial bosqich – majburiy va yuqori tayyorgarlik darajalariga erishganlikni tekshirish mavjud (Ye.Yu.Kirilova).

Nazoratni tashkil etish usullaridan kelib chiqib ko‘rsatilgan bosqichlar vaqtga qarab taqsimlanishi yoki bitta nazorat ishiga birlashtirilishi mumkin. Masalan, yakuniy nazorat varianti sifatida dastlabki testdan o‘tkazish hisoblanib, natijalar ijobiy bo‘lsa, yuqori tayyorgarlik darajasiga mos topshiriqlarni bajartirish mumkin. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarga bir xil tekshiruv ishi taklif etiladigan, bir-birini to‘ldiruvchi ikki qismdan iborat variant ham mavjud, jumladan birinchi qism majburiy ta’lim darajasiga mos topshiriqlardan, ikkinchi qism yuqori darajadagi murakkablashgan darajadagi topshiriqlardan iborat. Bundan maqsad har bir talaba majburiy darajadan o‘tib, yuqori darajada o‘zini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lsin. Aynan shunday yondashuv baholashning «o‘qib chiqish» metodini «murakkablashtirish» metodi bilan almashtirish imkonini beradi.

Nazorat mazmunini yaratishda, bizningcha, bajarilishi shart bo‘lgan yana bir talab, nazoratning maqsadi majburiy darajani teshirishni to‘ldirishini ta’minlashi lozim. Aynan boshlang‘ich majburiy natijalarni egallaganligi o‘quvchini keyingi bosqichga yo‘naltirishga asos bo‘ladi. Nihoyat, nazoratning yana bir prinsipini biz yuqori daraja masalalari mazmunini tanlash bilan bog‘layapmiz: o‘zlashtirishning yuqori darajasida o‘quvchilardan o‘quv materialini o‘zlashtirishining to‘laqonligi talab etilmaydi, bunda e’tibor o‘zlashtirishning chuqurligiga, bilimdonlikning moslashuvchanligiga qaratiladi.

Yuqori daraja topshirig‘i turli-tuman elementlardan tashkil topib, materialni o‘zlashtirish darajasi turlicha ekanligini ifodalaydi. Ularning yechimi ko‘proq mantiqiy izlanish va texnik yo‘nalishlar shakllanishini taqozo qiladi.

Yana bir tamoyilga rioya qilinsa, maqsadga muvofiqdir, ya’ni yuqori o‘zlashtirish darajasida o‘quvchiga individual xususiyatlaridan kelib chiqib muayyan tanlov imkoniyatini berish zarur. Boshqacha aytganda, tekshirish uchun darajaning ko‘plab miqdordagi topshiriqlarini kiritib, o‘quvchilarga yechish uchun berilgan topshiriqlarni ixtiyoriy tanlash imkoniyati berilishi lozim.

Bizning nazarimizda darajali nazorat uchun muhim bo‘lgan yana ikki jihatga e’tibor qaratamiz. Birinchisi, majburiy tayyorgarlikning o‘quvchilar uchun ochiqligidan iborat. Avvalo, o‘quvchilar, materialni o‘zlashtirishning majburiy talablari nimalardan iboratligini oldinroq bilishlari zarur. Bundan tashqari nazorat chog‘ida bu savoolar ochiq bo‘lmog‘i kerak, ya’ni savollar savollar qaysi darajaga tegishli ekanligini bilinib turishi kerak. Bularning barchasi ta’lim topshiriqlarini o‘quvchilarga ularni idrok eta olishlari uchun tushunarli tarzda taqdim etish imkonini beradi. Bu talablarni fanni o‘rganishning boshida yoki ayrim mavzular boshida e’lon qilgan ma’qul, zero, oldindan ma’lum muhim materialni tekshirish o‘quvchilarga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyolar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Шахов В.И. Формирование педагогического мышления у студентов педвуза: Автореф. дис. … канд.пед.наук. –Киев, 1992. –25 с.
3. Sh.R.O‘raqov, D.Sh.Yusupova. Differentsiasiya va o‘z-o‘zini tarbiyalashda bo‘lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlash tizimining asosi sifatida. “BILIG–ILMIY FAOLIYAT”nashri-2022y.http://bilig.academiascience.org
4. Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса. –Волгоград: ВГПИ, 1995. –117 с.

DIGITAL TECHNOLOGIES, MODERN APPROACHES, AND INNOVATIONS IN EDUCATION

Nazarova Mavluda

Syrdarya regional national center for training pedagogues to new methods.

nazarova.mavluda@bk.ru

“Gamification, Competency-based Learning, and E-Portfolio Assessment”

Do these words mean anything to you? If so, I congratulate you, you are on-trend! If not, that is okay, I will enlighten you.

“There's no one without purpose in a game. That's what Gamification is all about.” (Vineet Raj Kapoor)

There is a simple reason for the increased interest in educational gamification.

Games are enjoyable! Society realized the fun of games could be applied to traditionally mundane or boring learning activities. Gamification is ideal for education because it can make learning more engaging. Moreover, when learning brings enjoyment, it produces excellent results.

The competitive nature is a clear motivator in game-based education. Failure is simply a part of the game. You anticipate failing several times before moving on to the next level. Gamification will be beneficial because it creates an engaging learning environment that young people will be comfortable with.

However, there are some disadvantages to using gamification excessively or incorrectly. "By making play mandatory, gamification might create rule-based experiences that feel just like school." (Kiryakova, G., Angelova, N. & Yordanova, L., 2014).

Education is the passport to the future, for tomorrow belongs to those who prepare for it today. (Malcolm X)

Competency-based education is tailored to each individual's learning style. This means that it is adaptable because it is entirely dependent on a student completing a project or assessment to progress.

It has been shown that giving students more control over their learning makes education more engaging. Control over their learning gives them empowerment and intrinsic motivation to succeed. This type of education emphasizes practical skills such as communication, critical thinking, and problem-solving.

CBE's entire purpose is to focus on what students know rather than moving

through subjects based on timing. "Instead of working at the pace of the instructor, they work at their own pace and have the freedom to choose how they demonstrate mastery". CBE allowed using written papers, portfolios, projects, observed student performance, and computer-marked assignments.

"It is the learning that matters. Creating an E-Portfolio involves skills essential for 21st-century learning – organizing, and planning material, giving and receiving feedback, reflecting, selecting and arranging content to communicate with a particular audience in the most effective way." (Gray, L.)

E-Portfolios are powerful learning aids that encourage motivation in students.

The focus is on the students. By documenting and reflecting on their learning in an electronic portfolio, students can assume a greater level of accountability for their learning. The precise work examples that are used and how they choose to reflect on their learning are both up to them.

For faculty, the E-Portfolio can be an effective tool to better manage, review, reflect, and comment on student work. For students, the E-Portfolio enriches their resumes, both before and after graduation. Students summarize key learning experiences and display their work in the E-Portfolio. Each E-Portfolio includes a

variety of digital artifacts.

Taking everything into consideration it may conclude that the complete replacement of education with gamification is nonsense, because effort, not mastery, should be rewarded. Still, it can be extremely beneficial in developing children's learning. Therefore, education should implement game-based moments in its

curriculum.

Next, in Competency-based education students advance to the next step after demonstrating mastery of the current competency. In this setting, students have a greater sense of ownership over their learning. As a result, education has become more transparent. Students have the option of demonstrating their understanding in a variety of ways. Nevertheless, CBE also has its drawbacks. The main disadvantage is that no clear way to define core competencies or assessment styles exists. Hence, the works on assessment and evaluation should be elaborated before implementing this type of education in mass.

The last, E-portfolios encourage student involvement, drive, and control.

When students have a choice in how they learn, they are more engaged and driven to go beyond acquiring the facts and filling in the knowledge gaps to develop a deep understanding, connect the learning that takes place in many situations, and apply their newfound knowledge to create. Still, one important question needs to be answered. Should the E-Portfolio evaluation be included on the student's official transcript? Because there are some nuances, such as a student may upload assignments that someone else, more knowledgeable and enlightened on the topic, has done for him or her. This is possible because in an E-Portfolio there is no strict rule to sit in front of the camera online regime. Consequently, if education will be built only based on creating an e-portfolio, then getting a diploma for the knowledge and experience of another person cannot be ruled out.

Therefore, while we have looked in detail at each new learning method individually, it is important to note that they are all based on self-education and consequently require self-discipline, motivation, and a clear sense of purpose. That brings the following question into the spotlight. Are we ready for these changes? Unfortunately, we cannot be sure of a positive outcome. Because for many decades, the national education system based on a maternal way of teaching, when the teacher is at the center. She/he tells what to do, what is wrong, and what is right. Whereas, freedom of choice, knowledge gained through trials and errors gives more results and benefits than "a ready-made" effortless one. This means that not all learners will remain motivated and willing to learn for themselves. Nevertheless, it is time to reassess values and make changes to our education system.

Overall, innovations in education are a great thing because time flight and progress are nonstop, hence education is also should keep its fingers on the pulse. Nonetheless, every step should be carefully searched, because it can influence our tomorrow and affect the future generation.

Reference list:

- BRAIN: Broad Research in Artificial Intelligence and Neuroscience Volume 8, 2017
- https://www.ecs.org/wp-content/uploads/CBE-Toolkit-2017.pdf
- https://elearning.tki.org.nz/Teaching/Assessment/e-Portfolios

  Gray, L. (2019). Getting started with e-portfolios. Jisc.
- Jjonatan bautista “Pedagogo egresado de la FFyL-UNAM. Su experiencia profesional se centra en el Diseño instruccional y la Tecnología educative”.

- https://opentextbc.ca/teachinginadigitalage/chapter/6-6-competency-based-learning/
- https://www.youtube.com/watch?v=4qlYGX0H6Ec

QUYOSH ISSIQXONALARIDA KUNLIK O‘RTACHA TEMPERTURANI HISOBLASH

Jumaniyazov Amirbek Umarbekovich,
Sirdaryo viloyati pedagogika markazi fizika va astranomiya fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Quyosh issiqxonalari va ularning issiqlik rejimlari , dunyo tomonlariga nisbatan joylashtirilishi, quyosh issiqxonasida o‘simlik mavjud yoki mavjid emasligini va kelayotgan quyosh nurlanishi hamda atrof-muhit haroratining mazkur quyosh issiqxonasi ichidagi havo muhiti vatuproq sirti haroratlariga ta’sir darajasi o‘rganildi. Hisobiy izlanishlar natijasiga ko‘ra mart oyining o‘rtalari uchun bir qavatli shaffof plyonka to‘siqli issiqxonalar uchun o‘rtacha qiymatlar 0.55 va ikki qavatli shaffof plyonka to‘siqli issiqxonalar uchun 0.6 ni tashkil qiladi. Bir xil tashqi sharoitda $K_{ok}^{o'b}$ning qiymati $K_{ok}^{o'y}$ning qiymatiga nisbatan 1.5 barobar kam bo‘lib, geliissiqxonalar shaffof to‘siqlining dunyo tomonlari bo‘ylab joylashishining $K_{ok}^{o'b}$ va $K_{ok}^{o'y}$ larga ta’siri juda kam ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: Akkumlyatsiya, optik, issiqlik prinsiplari, quyosh nurlanishi, quyosh energiyasi, tempertura, quyoshissiqxonasi, silindr karkas, gelioissiqxona, shaffof yuza.

Hisoblash ishida sinov o‘tkazish uchun quyoshissiqxonasining uzunligi -10 m, kengligi -4 m, silindr yoyining markazdagi balandligi-2,5 m, ekin ekiladigan maydon yuzasi-40 m^2.Issiqxonaning ichki hajmi 86 m^3. Yarim silindr karkas yoyi to‘g‘ri to‘rtburchak metall $40 \cdot 60 \cdot 2,5$ mm^3 o‘lchamida tayyorlangan. Yorug‘likni yaxshi o‘tkazuvchi shaffof polietilen plyonka sifatida S-2 turidan foydalanilgan va uning qalinligi 0,12 mm ga teng. Shaffof yorug‘lik nurini yaxshi o‘tkazuvchi polietilen plyonka to‘siqning tashqi issiqlik almashinuvchi yuzasi sirti 54,33 m^2, shu jumladan: yon sirti 37,124 m^2 va yarim silindr asosining sirti 17,21 m^2. Gelioissiqxona tashqi sirtining ichki ekin maydoni yuzasiga nisbati 1,36 m^2 , gelioissiqxona ichidagi havoli muhit hajmi 86 $м^3$.

Qisqa muddatli issiqlik jamlovchi konteyner gelioissiqxona tuproq sirtidan 45 sm chuqurlikda joylashtirilgan. Bu konteyner to‘g‘ri to‘rt burchak shaklida bo‘lib, temir betondan tayyorlangan, devorining qalinligi 0,1 m va hajmi 4,74m^3. Qisqa muddatli issiqlik jamlovchi konteyner hajmining gelioissiqxona hajmiga nisbati 0,055. Konteynerning ichki qismiga 4-6 sm kattalikdagi daryo toshlari joylashtirilgan. Bu konteyner ichiga joylashtirilgan toshlarning hajmi $2,24 м^3$, jamlovchi muhit massasi -3,36 tonna, toshlar orasidagi o‘rtacha g‘ovaklik - 0,37, solishtirma og‘irligi -1,5 *tonna/m^2*. Quyosh nurlanishi hisobiga issiqxona ichkarisidagi qizigan havoli muhitning me’yordan ortiqcha qismini qisqa muddatli issiqxona jamlagichga haydash uchun $260 W / м^2$ yoki 1940 kg/soat (0,54 m/s) tezlik bilan harakatlantirish kerak bo‘ladi. Havoning o‘rtacha temperaturasi $20\,^0C$ va

atmosfera bosimi 715 mm simob ustuniga teng bo‘lganda, issiqlik tashuvchi havo muhitining erkin chiziqli tezligi - 0,47m/s va zichligi 1,13 $kg/м^3$ teng bo‘ladi.

Quyosh energiyasining tuproqda jamlash masalasi bilan bir qator olimlar shug‘ullanganlar. Ularning ishlarida tuproq ostiga joylashtirilgan qisqa muddatli jamlagichga, gelioissiqxona ichiga o‘rnatilgan quvurlar orqali erkin harakatlanuvchi isigan havo oqimi kiradi va jamlovchi moddalarga o‘zining issiqligini berib yana issiqxona ichiga qaytib chiqadi.

Issiqxona tuprog‘i ostiga joylashtirilgan jamlagich qurilmasining karkasi

temir betondan qilingan bo‘lib to‘g‘ri to‘rt burchak shaklidagi konteynerdan iborat. Konteyner ichiga bir xil kattalikdagi daryo toshlari joylashtirilgan. Bu issiqxona ichidagi issiqlik jamlanish jarayoni quyidagicha yuz beradi. Issiqxona quyosh nurlarining ta’sirida qiziydi va qizigan havo yuqoriga ko‘tariladi. Issiqxona ichidagi havo temperaturasi me’yordan ortganda elektr ventilyator ishga tushadi ventilyatorni elektr energiya bilan quyosh paneli ta’minlaydi va isigan havoni quvur orqali so‘rib olinib tuproq ostiga joylashtirilgan qisqa muddatli jamlagichga beriladi. Bu issiqlik eltuvchi havo jamlovchi elementlar, toshlar va uning atrofiga joylashgan tuproq qatlamlarida yutiladi. Bu jarayonda issiqlik eltuvchining harakati ko‘p jixatdan jamlagichdagi toshlar qatlamining gidrodinamik qarshiligiga bog‘liq bo‘ladi. Issiqlik uzatuvchini harakatga keltiruvchi ventilyator quvvatini hisoblashda oqim tushishini bug‘doysimon qatlamlar uchun qo‘llaymiz

$$\frac{\Delta P}{L} = f_э \cdot \frac{a}{\varepsilon} \cdot \frac{\rho u^2}{2}, \qquad (1)$$

bu erda u – havoning harakatlanish tezligi, m/s^2 ; ρ – havoning zichligi,kg/m^3 L – jamlovchi konteyner uzunligi; d – toshli hajmning o‘rtacha diametri; a – birlik hajmga to‘g‘ri keluvchi nasadka sirti; $f_э$ – qatlamning gidrodinamik qarshilik koeffitsienti; ε – g‘ovaklik koeffitsienti.Qarshilikning gidrodinamik koeffitsienti o‘z navbatida quyidagi qonuniyat bo‘yicha aniqlanadi

$$f_э = \frac{A}{\mathrm{Re}_э} + B, \qquad (2)$$

Bu erda A va V-emperik son bo‘lib, ularning qiymati qatlamning joylashish tartibiga va jamlovchi toshning diametriga bog‘liq bo‘lgan kattalikdir. Reynolds soni umumiy shaklda quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$\mathrm{Re}_э = \frac{4\omega d}{6\nu(1-\varepsilon)}, \qquad (3)$$

(1) ifodaning tarkibiga kiruvchi kattaliklarni tajriba yordamida o‘lchash orqali yoki hisoblash yo‘li bilan aniqlashi mumkin. Agar issiqxona ichidagi qo‘shimcha issiqlik jamlagich ichiga joylangan toshlarning g‘ovakligi ma’lum bo‘lsa ε (birlik hajmga mos keluvchi bo‘sh joyning qismi), unda tuproq ostida joylashtirilgan jamlagichda harakatlanayotgan havo chiziqli tezlik orqali quyidagicha ifoda qilinadi

$$u = \frac{\varpi}{\varepsilon}, \qquad (4)$$

Gidravlik radiusni hisoblashda kanalning ko‘ndalang kesimi yuzini perimetrga nisbati orqali ifoda qilaylik

$$r' = \frac{\varepsilon}{a}, \qquad (5)$$

(3) va (4) formuladagi qiymatlarni (1) ga qo‘yib shakl o‘zgartirib quyidagini olamiz

$$\Delta p = f_э L \frac{u^2 \rho}{2r'}, \qquad (6)$$

$$\Delta p = f_э L \frac{\varpi^2 \rho a}{2\varepsilon^3}, \qquad (7)$$

ifodalarni hosil qilamiz. Nasadkaning sirtidan o‘tuvchi havo uchun

$$a = (1 - \varepsilon)\frac{6}{d}, \qquad (8)$$

yozish mumkin bo‘ladi. Nasadkaning gidrodinamik qarshilik koeffitsienti $Re = 45 - 4000$ bo‘lganda

$$f_э = \frac{2,2}{Re^{0,2}}. \qquad (9)$$

Havo tezligi 0,47 m/s bo‘lganda $Re = 1651$ bo‘ladi. Havoning harakat tezliklarni qiymatlarini o‘zgartirib toshdan o‘tuvchi havoning gidravlik qarshiligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.B.E.Xayriddinov va boshqalar. “Muqobil energiya manbalaridan foydalanish”. Toshkent adabiyot uchqunlari. 2017.

2.T.A.Sadiqov va boshqalar “Gelio teplitsalar va ularning issiqlik rejimlari” Toshkent, Fan. 1977.

3.Y.Yaqubov “Akumlirovaniya E.S. izucheniya izd-ba. Toshkent, Fan, 1981.

4. A.A.Vardiyashvilliy va boshqalar. Noananaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishda energiya tejamkorligi”. Qarshi, 2012.

5. T.A.Sadiqov va boshqalar. “Quyosh energiyasini akumliatsiyalash” Toshkent, Fan. 1986.

6. Geliotexnika xalqaro ilmiy jurnali.

BUYUK MUTAFAKKIRLARINING AXLOQ-ODOB VA OILA HAQIDAGI QARASHLARI

Berdiyeva Feruza Erkin qizi,

Boyovut tumani 6-umum ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Sharqning buyuk faylasufi Abu Nasr Farobiy zabardast alloma sifatida o‘z davrida chuqur hurmat va e’zozga ega bo‘lgan. Mutafakkirning dunyoqarashi tabiiy va ijtimoiy fanlarning eng dolzarb muammolarini yechishga qaratilgan.

U ulug‘ matematik, o‘tkir shifokor, buyuk tabiatshunos, atoqli faylasuf, yuksak didli tarbiyachi va ko‘zga ko‘ringan axloqshunos ham edi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Farobiyning yetmishdan ortiq tilni bilgani haqida rivoyatlar ham bor. Farobiy inson ahloqi haqida gapirar ekan, u axloqni jamoa mehnatisiz tasavvur eta olmaydi. Birgalikda mehnat qilish jamiyatni vujudga keltirganidek, axloqni ham

jamiyat mehnati yaratadi. “... Har bir kishi boshqasiga uning yashashi uchun zarur bo‘lgan narsalarning, - deydi olim, - bir ulushini yetkazib beradigan joyda bir – biriga ko‘maklashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina inson shunday kamolotga yetishishi mumkinki, u o‘z tabiatiga ko‘ra ana shunday kamolotga munosibdir. Bunday jamiyat barcha a’zolarining faoliyati jam bo‘lib, har bir kishi yashash va kamolotga erishish uchun nimaga muhtoj bo‘lsa, shularning hammasini yetkazib beradi. Shu sababli odamlar ko‘payishib, dunyoning kishilar yashaydigan qismida o‘rnashishdi, buning natijasida esa kishilik jamiyatlari paydo bo‘ldi...”. Shunga ko‘ra, u jamiyatni ijtimoiy foydali mehnat faoliyatisiz tasavvur eta olmasdi. Farobiy baxt tushunchasini kishilarning turmushidagi saodatga erishuvi, deb tushunadi. Yaxshilik va yomonlik, burch va vijdon, nomus va adolat kabi kategoriyalaridan farqli o‘laroq, ya’ni umumiylashtirilgan baxt kategoriyasining yangi qirrasi maydonga chiqdi; u boshqa kategoriyalarni o‘z ichiga oladi. Uning fikricha, - “baxtga erishish uchun foydali bo‘lgan hamma narsa va baxtga erishilishida ishga solinadigan hamma narsa ... yaxshilikdir... va baxtga biron – bir darajada to‘sqinlik qiladigan hamma narsa – mutlaqo yomonlik”dir. Farobiy axloqning bilim bilan mushtarakligini asoslab beradi. Uningcha, bilimlar insonni yaxshi axloqi, saxovatli va aql – idrokli qiladi. Inson bilimsiz o‘zi ko‘zlagan maqsadiga erisha olmaydi. Yaxshi inson bo‘lish uchun odamda imkoniyat bo‘lmog‘i zarurligi ko‘rsatiladi: ta’lim va tarbiya olish imkoniyati borligi tufayli ta’lim olish hamda to‘g‘i tarbiya topish kerak. Bunda tarbiya – bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr – qimmatni va odobni amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo‘l, - deb ta’riflanadi. Olim ta’lim – tarbiyani ustoz beradi deydi. Farobiyning “qattiq” va “yumshoq” tarbiya usullaridagi qarashlari hozirgi zamon axloq normasiga ham yaqin turadi. Chunochi, tarbiyalanuvchilar fan va hunar o‘rganishga moyillik bildirsalar, tarbiyachi ularga nasbatan “yumshoq” usulini, agar, maboda o‘zboshimcha va itoatsiz bo‘lsalar, ularga nisbatan “qattiq” usulni qo‘llanishi aytiladi. Lekin Farobiy o‘zining bu sohadagi axloqiy qarashlarini ustoz nuqtai – nazaridan quyidagicha o‘rinli talqin etadi: “Ustozga kelganda, u shogirdlariga qattiq zug‘m qilishga ham, haddan tashqari ko‘p yon berishiga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug‘m shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi;bordi-yu shogird ustozining juda yumshoqligini payqab qolsa, bu hol unda ustozni mensimaslikka va undan hamda u beradigan bilimdan sovushga olib keladi”. Abu Rayhon Beruniy – jahon aql – zakovati, tafakkur ilmi tarixida alohida o‘rni tutgan buyuk mutafakkir. U fanning matematika, astronomiya, astrologiya, jo‘g‘rofiya, geofizika, antropologiya, etnografiya, arxeologiya, filsofiya, minerologiya, ijtimoiy sohalarning yirik bilimdoni edi. Uning ko‘pchilik asarlarida insonning ahloq va odob xususida mukammal fikrlar bayon etilgan. Mutafakkirning “Minerologiya”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “O‘tgan avlodlar obidalari” nomli yirik asarlarida inson shaxsi, uning axloqiy kamoloti, aql – idroki, halovat va lazzat, sabr – toqat va kamtarlik, go‘zallik va did, poklik va jo‘shqinlik kabi tushunchalarga tafakkur ilmining yetuk bilimdoni sifatida ta’rif beradi. O‘z zamonasining qomusiy bilimdoni bo‘lgan Beruniy: “inson jamiyatda o‘z qarindosh – urug‘lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir – birini qo‘llab – quvvatlash hamda har bir kishining

ham o‘zini, ham boshqalarni ta’minlash uchun ishlarni bajarishdir”, degan xulosaga keladi. Beruniy “O‘tgan avlodlar obidalari” asarida ba’zi kishilar xulq – atvorida mavjud bo‘lgan ziqnalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, xushomadgo‘ylik, ikkiyuzlamachilik kabi beiboliklarni ayovsiz qoralaydilar. Bunday odobsizlik va axloqsizliklarga qarama – qarshi oqillar haqida juda ibratli fikrlar aytadi. Olim axloqan mayib, xulqan nogironlik sirlarian tortib, hissiy lazzatni aqlga bo‘yso‘ndirishga erishishga qadar idrokka ega bo‘lganlarni oqil kishilar, jismoniy lazzatni tan oluvchi shaxslarni beg‘am kishilar deb ataydi: “Oqil kishi ana shularning (yuqoridagilarning) hammasini aql – idrok va farosat nigohi bilan his etgandagina ma’naviy mamnuniyat sezadi, holbuki beg‘am odam jismoniy lazzatnigina tan oladi”. Beruniy “ozodalik va orastalik olijanoblikning o‘zagi” bo‘lishi kerakligini uqtiradi; insonning tashqi yoqimli qisfasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning axloqiy qiyofasi bilan bog‘liqligi haqida gapirib, vaqtida “tishni yuvish, ko‘z va qovoqlarni toza tutish, ularga surma qo‘yish, sochni esa zarur bo‘lganda bo‘yash, tirnoqlarni olib turish va silliqlash” kabi hislatlar sihat-salomatlikdan tashqari insonning go‘zalligi va pokligini ham ta’minlaydi, deydi.Ahloq-odob egasi bo‘luvchi inson eng avvalo o‘zining yurish-turishi, muomala-madaniyatida, hayot kechirishida, oila barqarorligida namuna bo‘lish kerakligini uqtiradi: “...Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni ma’naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir”.Ma’lumki, tabiatda, inson hayotida barcha narsalar muayyan o‘lchov asosiga qurilgan. Beruniyning fikricha, har bir odam ana shu o‘lchov, meyor qonuniyatlariga jiddiy amal qilib, maromida harakat qilsagina forovonlik vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi.
3. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O‘qituvchi.
4. Davletshin. M. Umumiy psixologiY. T.:
5. Karimova V. va boshq. PsixologiY. T.: A.Qodiriy nom. xalq merosi nash.
6. Jabborov A. Ma’naviyat psixologiyasi. Qarshi. Universitet
7. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. T.: Zarqalam. b.
8. Nishonova Z. va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. T.: O‘z. yozuv. uyush. nash.

O‘SMIRLIK DAVRI MUAMMOLARINI BARTARAF ETISHDA SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA PSIXOLOGIK TRENINGLARDAN FOYDALANISH

Kudratova Umida Begimovna
Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi 9-maktabning amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: usbu maqolada o‘smirlik davrida kuzatiladigan og‘ishgan xulq

shakllarini korrektsiya qilishda sinfdan tashqari vaqtlarda psixologik treninglardan foydalanish masalasiga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, inqiroz, psixologik xususiyatlar, og‘ishgan xulq, amaliyotchi psixolog, psixologik trening

O‘smirlik davri (12-17 yosh) – bu ota-onalar va o‘qituvchilar hamda bolalar uchun ham murakkab davr hisoblanadi. Bu davrda ota-onalar tomonidan o‘smirlik davrida ro‘y beradigan inqirozga nisbatan noto‘g‘ri yondoshuvi oqibatida o‘z farzandlari bilan munosabatida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu davrdagi o‘ziga xos xususiyatlardan biri – bolaning hayotidagi o‘zgarishlar, bunday o‘zgarishlar o‘smirlarda har xil davrga to‘g‘ri kelishi mumkin – kimdadir ertaroq, kimda esa kechroq kechishi mumkin.

O‘smir o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlarini ba’zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo‘ladi. Bu qiyinchiliklar shundan iboratki, odatlanib qolingan ta’lim va tarbiya usullarini o‘zgartirish, o‘quvchilarga ta’sir qilishning ilgari muvaffaqiyatli deb hisoblangan nazorat qilish usullarini o‘zgartirish zarurligini tushunish juda muhimdir.O‘qituvchi bu vazifalarni samarali amalga oshirishi uchun o‘smirlik yoshining o‘ziga xos jismoniy va psixik taraqqiyot xususiyatlarini yaxshi bilishi lozim.

O‘quvchilardagi psixologik xususiyatlar, rivojlanishida o‘ziga xos tomonlar, ular o‘rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta’lim maktablari amaliyotchi psixologlari tomonidan qator tadbirlar, ya’ni psixotrening va psixokorrektsion ishlar olib boriladi. Amaliyotchi psixolog avvalo bolalarning oilaviy ahvolini o‘rganish, maktab bilan ota-ona o‘rtasida uzviy aloqani o‘rnatish, fan o‘qituvchilari bilan aloqani mustahkamlash, o‘quvchining darsga qatnashini kuzatish, darsdan tashqari faoliyatini nazorat qilish, turli savol-javoblar o‘tkazish orqali tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlash dasturi va rejalarini belgilab olishi lozim. Bundan tashqari psixolog maktab shifokori, tashxis markazi shifokori bilan hamkorlikda bolaning tibbiy varaqasi bilan ham tanishib chiqishi kerak bo‘ladi. Agar bola sog‘lom rivojlangan bo‘lsa-yu, maktab va oila tarbiyasiga bo‘ysunmasa, bunday vaziyatlarda psixolog yordamga kelishi va avvalo bola bilan suhbatlashib, nima uchun uning hulqida bunday o‘zgarishning yuzaga kelganligi, ko‘cha ta’siriga berilishi, salbiy norasmiy guruhlarga a’zo bo‘lib qolishi, darsni sababsiz qoldirishi, past o‘zlashirishi, jamoat ishlarida qatnashmaslik sabablarini aniqlaydi.

Shuningdek, o‘smirlar o‘rtasida kuzatiladigan og‘ishgan xulq shakllarini

korrektsiya qilishda sinfdan tashqari vaqtlarda psixologik treninglardan foydalanish yaxshi samara beradi. Quyida ana shu maqsadda qo‘llaniladigan trening mashg‘ulotlardan namunalar keltirilgan.

“Ideal, zamonaviy va yomon o‘smir”

Maqsad:

- o‘smirlarda ma’naviy sifatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Mashg‘ulot qoidasi: Ishtirokchilar uch guruhga ajraladilar. Birinchi guruh

a’zolari «ideal» o‘smirga xos sifatlarni, ikkinchi guruh zamonaviy va uchinchi guruq yomon sifatlarni yozma qayd etadilar. So‘ngra barcha ishtirokchilar ularning har birini muhokama qiladilar.

“Stress kundaligi”, “Xursandchilik, quvonch kalendari”

Maqsad:

- noxush salbiy kechinmalardan xalos bo‘lish, shunday vaziyatlarda o‘zini-o‘zi boshqarish va adekvat baho berish ko‘nikmasini shakllantirish.

Mashg‘ulot qoidasi: “Stress kundaligi” stress holatining xususiyatlarini qayd etish va o‘z kechinmalarini fiziologik, emotsional va ahloqiy darajalarini tahlil qilish imkonini beradi. Kundalikni muntazam ravishda to‘ldirib borish va o‘zining stress holatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

I.S.Shemetning “Xursandchilik, quvonch kalendari” ijobiy emotsional holatlarning, yutuqlarning dolzarbligini ifodalaydi. Kundalikni quyidagi ko‘rsatma bo‘yicha muntazam ravishda yuritish lozim:

“Bu kundalikda har kungi quvonch, yutuqlar va muvaffaqiyatlarni qayd etib borish kerak. Barcha uncha muhim bo‘lmagan voqealarni ham yozib boring. Kundalikni yuritishda sizga omad tilaymiz”.

“Qochish” mashqi

Maqsad: Hissiy zo‘riqishlardan xalos bo‘lish, o‘ziga nisbatan ishonchni orttirish.

Mashg‘ulotning borishi: O‘zingiz xohlagan vaqtda, o‘zingizga qulay dam olishni odat qiling. Buni sizdan boshqalar bilishi shart emas. Ko‘zlaringizni sekin-asta yuming, hayotdagi yashash tarzingizni ko‘z oldingizga keltiring va u haqda o‘ylang. Bu ertaklardagiday kichik uy yoki uzoq qishloq, unchalik katta bo‘lmagan xona yoki dala hovli bo‘lishi mumkin. Bu yerda siz uchun barcha qulayliklar bor. Balki siznikidek shirin hayot kosmik kemada ham bo‘lmasa kerak. Siz mana shu yerni tanho hokimisiz. Hayotda nimagaki erishgan bo‘lsangiz, hammasi siz bilan, shu hayot sizga yoqadi. Hayotingiz bir maromda. Endi esa ko‘zingizni asta-sekin oching. Musiqa eshiting, olovning yonishini tomosha qiling. O‘qing, yozing, chizing va boshqa o‘zingizga yoqqan ishlarni qiling. Endi o‘ylab ko‘ring, sizda hissiy zo‘riqishga sabab bo‘ladigan hech qanday sabab yo‘q-ku. Kundan-kunga o‘zingizda bo‘ladigan agressiv holatlarni yo‘qotishga harakat qiling.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, o‘smirlik davri muammolarini bartaraf etishda psixologik treninglardan foydalanish sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning samaraliligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tuman (shahar)larda 2010-2011 yillarda doimiy harakatdagi seminarlarni tashkil etish va seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha tavsiyalar.O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika Tashxis Markazi. Toshkent-2010 y.

2. Davletshin M.G., Do‘stmuhammedova SH. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.- Toshkent, 2004 y.

3. To‘laganova G. Tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi.- T.: “Universitet”,

2005y.

www.uzedu.uz

www.tashxis.uz

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ISSIQXONALARDA QUYOSH ENERGIYASIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Niyazov.Sh.K, Bo‘riboyeva.H.G,

GulDU Axborot texnologiyalar fakulteti fizika kafedrasi dotsenti,

GulDU Axborot texnologiyalar fakulteti fizika kafedrasi magistranti

ANNOTASIYA. Qo‘yilgan masalani hal qilishda gelioissiqxona tizimining murakkab shaffof to‘siqlardagi qisman nur yutuvchi qatlamida quyosh energiyasining o‘tishi, yutilishi va uning issiqlikka aylanishining fizik modelidan hamda son qiymatlari tadqiq qilishda issiqlik texnikasining nazariy va amaliy uslublaridan foydalanildi. Bajarilgan hisobiy tadqiqotlar asosida konstruktiv va issiqlik-texnikaviy parametrlari optimallashtirilgan, yarim tsilindr shaklidagi bir va ikki qavatli shaffof plyonka to‘siqli kichik o‘lchamli gelioissiqxonaning tajribaviy pilot nusxasining loyihasi tayyorlandi.

Tayanch so‘zlar: Gelioissiqxona, quyosh nurlanishi, issiqlik-texnikaviy, shaffof plyonka, pilot nusxa, polietilen plyonka, quyosh nurlanishi, yoqilg‘i–energetika, energiya manbalari.

O‘zbekiston Respublikasi hududida issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun qulay ob-havo sharoiti mavjud. Bu hududlarda mavjud issiqxonalarda 1 kg sabzovot mahsulotlarini etishtirish uchun 11-13 kg shartli yonilg‘i sarflanadi, u me’yoriy qiymatdan 1,3 marta yuqoridir. Zamonaviy issiqhonalarda o‘rtacha $1 м^2$ ekin maydoniga yil davomida $4 Гж$ issiqlik yoki $80 кВт \cdot соат$ elektr energiyasi sarflanadi [5]. An’anaviy energetika resurslarining cheklanganligi va organik yoqilg‘ilarning tannarhi ortib borayotganligi hamda ekologik muhit o‘zgarishlari issiqxonalarda muqobil bo‘lgan mahalliy energiya manbalarini qidirish va ulardan unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqardi. Keyingi yillarda dunyoda, shu jumladan Respulikamizda ham muqobil energiya manbalaridan keng miqyosida foydalanishni joriy etishga qaratilgan dasturlar qabul qilingan, ilmiy–tadqiqot va konstruktorlik ishlari olib borilmoqda. Halq xo‘jaligining turli sohalarida yoqilg‘i - energetika resurslarini tejamkorlik bilan ishlatish va atrof - muhitning musaffoligini saqlab qolish hozirgi zamon ilmiy - texnikaviy taraqqiyotining asosiy muammolaridan biridir. Bu muammolarni hal qilishda no‘ananaviy energiya manbalarini izlash va ularni an’anaviy yoqilg‘i–energetika manbalari bilan birga foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekison iqlim sharoitida noan’anaviy energiya manbalari ichida quyosh energiyasi alohida ahamiyatga ega. Bu energiya turi bitmas-tugalmas zahiralarga ega bo‘lib, ekologik tozaligi bilan xarakterlidir.

Energetika resurslarining cheklanganligi va organik yoqilg‘ilarning tannarxi ortib borayotganligi hamda ekalogik muhit o‘zgarishi issiqxonalarda muqobil bo‘lgan energiya manbalaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Magistrlik

dissertatsiya ishi tadbirkorlar, dexqonlar va shaxsiy tomorqa egalari tomonidan qurilagan issiqxonalarda, quyosh energiyasidan samarali foydalanish hisobiga kunduz kuni hosil qilingan ortiqcha issiqlik jamlamasi issiqxona ustiga qo'shimcha shaffof yorug'likni yaxshi o'tkazuvchi ikkinchi qoplamni yopish bilan issiqlik isrofini kamaytirish evaziga hamda issiqxonada ishlatiladigan tuproq osti akummulyatorlarini ishlatish hisobiga erishish mumkin. Bunda issiqxonaning isitishini 1/3 muddatga qisqartiish va mavsum davomida ikki marta xosil etishtirish, hamda organik yoqilg'i sarfini ikki martagacha kamaytirish mumkin. Bu texnologiya Respublikamiz va shu jumladan Sirdaryo viloyati aholisini qish va erta bahorda sabzovot mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirishda muxim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz hududida issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qulay ob-havo sharoiti mavjud. Mamlakatimizdagi issiqxonalarni isitish uchun sarflanadigan yoqilg'i hamma harajatlarining 50-60 % ni tashkil qiladi. Halq xo'jaligining turli sohalarida yoqilg'i - energetika resurslarini tejamkorlik bilan ishlatish va atrof - muhitning musaffoligini saqlab qolish hozirgi zamon ilmiy - texnikaviy taraqqiyotining asosiy muammolaridan biridir. Bu muammolarni hal qilishda no'ananaviy energiya manbalarini izlash va ularni an'anaviy yoqilg'i–energetika manbalari bilan birga foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'zbekison iqlim sharoitida noan'anaviy energiya manbalari ichida quyosh energiyasi alohida ahamiyatga ega.

Xorazm viloyati sharoitida o'rganilayotgan tajribaviy gelioissiqxonani foydalanish natijalarini tahlil qilish asosida:

- qishki isitish mavsumi davomida texnik isitish tizimi bo'lmagan gelioissiqxonalarda ochiq ob-havo sharoitida kunduz paytlari havo muhitining harorati asosan me'yoriy haroratga yaqin, bulutli ob-havoli sharoitda va kechqurunlari esa me'yoriy haroratdan ancha past bo'lishi aniqlandi.

Qishloq xo'jaligida gelioissiqxonalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish gelioissiqxonalar samaradorligini oshirish uchun asosiy bo'lgan quyosh nurlanishi energiyasi va atrof – muhit haroratining har qanday o'zgarishlari sharoitida ularning ichida o'simliklarning normal rivojlanishi uchun me'yoriy harorat rejimlarini ta'minlashga erishish zarur. Issiqxonalar dehqonchiligi amaliyotida bu masalani hal qilishda vaqtga bog'liq ravishda o'zgaruvchan tashqi meteorologik faktorlar ta'sirida shakllanadigan ularning ichki real issiqlik rejimlarini hisoblash uchun ilmiy asoslangan uslublarni ishlab chiqish va uni tadbiq qilish hamda shu asosda ularning konstruktiv va issiqlik-texnikaviy parametrlarini optimallashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ochiq va issiq iqlimli kunlarda quyosh radiatsiyasidan kelayotgan kunduzgi issiqlik issiqxona isrofini to'liq qoplashi mumkin bo'lganda ham issiqxona isitish tizimi ulangan bo'ladi, chunki isitish tizimini davriy ravishda uzish va ulash maqsadga muvofiq emas. Natijada issiqxona ichida qizish vujudga keladi, bu esa o'simliklarni o'sishda va kompleksning texnikaviy – iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qiladi.

Shaxsiy va tadibrkor xo'jaliklarida quriladigan kichik o'lchamli issiqxonalar, issiqxona komplekslaridan farqlanib, quyoshdan hosil bo'lgan kunduzgi ortiqcha

issiqlikni jamlash, issiqxona ustiga qo‘shimcha qoplam yopish bilan issiqlik isrofining miqdorini kamaytirish mumkin. Bunday imkoniyatdan foydalanib issiqxonani isitish mavsumini 1/3 muddatga qisqartirish mumkin. Qolgan vaqtlarda (kechqurun) texnik isitish sistemasidan qisman foydalanish mumkin. Fermer, arenda, shaxsiy, tadbirkorlik xo‘jaliklaridagi issiqxonalarda o‘simlikning rivojlanish samaradorligini oshirish va optimal rivojlanishini amalga oshirish yordamida bir isitish mavsumi davomida 2 marta hosil etishtirish mumkin. Gelio issiqxonalaridagi o‘simliklarning yaxshi rivojlanishi uchun kerak bo‘ladigan (kunduz kunlari $24 \div 25^0 C$ dan yuqori bo‘lmagan, kechqurunlari $15 \div 16^0 C$ kam bo‘lmagan) harorat jarayoni yaratish talab qilinadi, bunday issiqxonalarda mavsum davomida ikki marta hosil olishga imkoniyat yaratadi.

Issiqxonani isitish uchun ketadigan yonilg‘i harajatlari, hamma harajatlarning 50-60 % ini tashkil qiladi. Bu masala respublikamizni energetikasini tejashdagi dolzarb muammolardan biridir. Shu boisdan issiqxonalarda kechadigan issiqlik jarayonlarining sutkaviy nobaqarorligini hisobga olgan holda ularning asosiy parametrlarini optimallashtirish orqali quyosh energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar issiqxonalar sabzavotchiligini rivojlantirish va mazkur sohadagi energiya tejamkorligini ta’minlashning dolzarb masalalaridan biridir. Ammo, yuqorida qayd etib o‘tilgan masalalarini yechishga hozirgi vaqtgacha e’tibor berilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aleksandrov A.D., Boev N.N. Gelioteplitso i ispolzovanii solnechnoy energii v Sredney AziiG‘G‘Trudo‘ Uzbekskogo Gosuniversiteta. Tom 4. Samarkand. 1936.

2. Abdullaev A. Nestatsionarnoe teplovoe rejimo i optimizatsiya osnovnox parametrov plenochnox gelioteplits polutsilindricheskoy formo. Diss…k. t. n. Tashkent – Gulistan. 2007, 187 s.

3.Veynberg V.B. Optika v ustanovkax dlya ispolzovaniya solnechnoy energii. M.: Oborongiz. 1959, 234 s.

4. Sado‘kov T.A. Issledovanie temperaturnogo rejima i teplovox protsessov v solnechnoy teplitse. Avtoref.diss.kand.texn.nauk. Ashxabad. 1966, 31s.

5. Niyazov Sh.K. Issledovanie teplovox rejimov plenochnoy teplitso s solnechnim I nizkotemperaturnom podpochvenno‘m obogrevom. Avtoref. diss.k.t.n. Ashxabad.1981.25s.

6. Yakubov Yu.N. Akkumulirovanie energii solnechnogo izlucheniya.

Tashkent: FAN. 1981. 105 s.

7. Bayramov R.B., Ribakova L.E. Mikroklimat teplits na solnechnom obogreve. Ashxabad: O‘lim. 1983. 84 s.

8. Vilkovisskiy N.E. Teoreticheskoe issledovanie problemi tverdogo akkumulyatora tepla (regeneratora) dlya solnechnix vozduxonagrevateley. Trudi Uzbekskogo Gosuniversiteta. Samarkand. T. 11, 1938, 241-290 s.

9. Adoratskiy V.V. Osnovo‘teorii teplichnix soorujeniy. M.: Selxozgiz.1939,196 s.

10. Fokin I.F. Stroitelnaya teplotexnika ograjdayuhix chastey zdaniy. M.1957.287 s.

MILLIY O‘QUV DASTURINING AHAMIYATI

Davranova Gulsara,
Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi o‘quvchilarining bilim hamda ko‘nikmalarini baholash sho‘basi bosh metodisti

Annotatsiya. *ushbu maqolada bugungi kunda qabul qilingan Milliy dasturning ahamiyati va ta’limdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit sozlar: *Milliy o‘quv dasturi, darslik, loyihasi, o‘quv-metodik majtua, “Onlayn maktab” loyihasi, TIMSS, PIRLS xalqaro tadqiqodlari.*

Аннотация: *в данной статье рассматривается важность принятой сегодня национальной программы и ее значение в образовании.*

Ключевые слова: *национальная учебная программа, учебник, проект, учебно-методический комплекс, проект “Онлайн школа”, TIMSS, PIRLS International Research.*

Annotation: *this article highlights the importance of the national program adopted today and its importance in education.*

Key words: *national curriculum, textbook, project, educational-methodological complex, project "online school", TIMSS, PIRLS International Studies*

Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturining dastlabki loyihasini tasdiqlash va tajriba-sinovdan o‘tkazish maqsadida 1-2-sinflar uchun Milliy o‘quv dasturi va o‘quv-metodik majmualari tajriba-sinovdan o‘tkaziladi.

Maktablarda quyidagi ona tili va o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fan (Science- Atrofimizdagi olam), musiqa madaniyati, texnologiya, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya, rus tili fani (ta’lim o‘zbek va boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), ingliz, nemis, fransuz tili, davlat tili fanlardan tajriba-sinovdan o‘tkazish belgilangan.

Belgilangan 14 ta tayanch tajriba-sinov maktablarining 1-2-sinflarida jami 937 nafar shundan, 1-sinfdan 469 nafar, 2-sinfdan 468 nafar o‘quvchilari tajriba-sinov sinflariga qamrab olinadi.

Mazkur maqsadli o‘quv-seminar kurslari eksperimentator o‘qituvchilar, tayanch maktablari rahbarlarining o‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, fan yo‘nalishi bo‘yicha metodistlar hamda ilmiy rahbarlarga mo‘ljallangan bo‘lib, jami 120 nafar mas’ullar ishtirok etadilar. Maqsadli o‘quv-seminar kurslarida tajriba-sinov jarayonlarida darslarni sifatli tashkil etish yuzasidan Respublika ta’lim markazi mutaxassislari, yetakchi olim, ilmiy xodimlar hamda ilg‘or tajribali amaliyotchi o‘qituvchilardan iborat 26 nafar trenerlar tomonidan Milliy o‘quv dasturi, darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma va o‘quvchilar natijalarini baholash bo‘yicha metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari namunalari, taqdimotlar va o‘quv topshiriqlaridan ishlab chiqilgan didaktik

materiallardan iborat metodik mahsulotlar yuzasidan tushuntirishlar beriladi.

Nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratiladi.

Butun dunyo og'ir sinovni boshidan kechirayotgan bir paytda farzandlarimiz bilimida bo'shliq paydo bo'lmasligi, mavzularni o'z vaqtida samarali o'zlashtirishi uchun "Onlayn maktab" loyihasi tashkil etildi. Unga Respublikamizning tajribali va mohir pedagoglari jalb qilingan. O'quvchilar o'tgan o'quv yilining bir choragini onlayn tarzda o'zlashtirdi, ayni paytda ham ayrim bolalar ta'limni masofadan turib davom ettirmoqda. Maktablarimizda o'quv yili karantin qoidalariga amal qilgan holda boshlandi. Barcha o'quvchilar darsliklar va mashq daftarlari bilan ta'minlandi. Ba'zi o'quvchilar aka-opalari foydalangan kitoblarni ishlatayotgan bo'lsa, ayrim sinf o'quvchilari qayta nashrdan chiqqan yoki yangi chop etilgan darsliklardan foydalanmoqda.

Muxtaram Prezidentimiz ma'ruzasida ta'lim, jumladan, darsliklar xususida shu kunning dolzarb masalalari ko'tarildi. Bu esa, ayniqsa, ta'lim markazi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi, – deydi Respublika ta'lim markazi direktorining birinchi o'rinbosari Aziz Ortiqov. – Yangi o'quv yilida rejaga asosan 1-, 4-, 5-sinflarda jami 558 nomdagi darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar chop etildi, Ularning 346 nomdagisi umumta'lim maktablari,160 nomdagisi imkoniyati cheklangan bolalar uchun bo'lsa, 52 nomdagi multimedia ilovalari esa o'quvchilar bilimini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Umumta'lim maktablari darsliklarining 118 nomdagisi asl nusxasi,228 nomdagisi esa tarjima nusxalaridir. Yangi o'quv yilida o'quvchilar foydalanishi uchun 1–9-sinflarda "Tarbiya", 5-8, 9-sinflarda "Informatika", 4-5-sinflarda "Texnologiya", 8-sinflarda "Ingliz tili", "Nemis tili", "Fransuz tili" darsliklari (majmua shaklida), 10- 11-sinflarda esa "Ona tili"va "O'zbek tili" fanlaridan o'quv-metodik qo'llanmalar yangidan yaratildi. 4-5 –sinflar to'liq to'plamda, 1-sinflarda "Alifbe", 2-3-sinflarda Chet tili mashq daftarlari qayta nashr etildi. 5-sinf uchun yaratilgan "Biologiya" darsligi avval "Botanika" nomi bilan chop etilgan. Eski darslikda faqat o'simliklar dunyosi o'rganilgan, yangi darslikda esa biologiyaning barcha bo'limlariga oid boshlang'ich tushunchalar berilgan. Avvalgi darslik 6 bob, 31 mavzudan iborat bo'lib, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun alohida soat ajratilmagan edi, qayta nashrda esa o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Endilikda mazkur fanning 18 soati nazariy, 16 soati amaliy mashg'ulot tarzida o'tiladi. Darslikda O'zbekistonda uchraydigan dorivor va zaharli o'simliklar, O'zbekiston qizil kitobi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun 5-sinf adabiyot darsliklariga o'zbek va jahon adiblari ijodidan namunalar kiritildi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida darsliklar yaratishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi. Undan kelib chiqqan holda o'zimizga kelajakda amalga oshirishimiz lozim bo'lgan bir qator vazifalarni belgilab oldik. Darhaqiqat, fanlarni o'qitish metodikasi, nazariy va amaliy bilimlar muvofiqligi, dasturlar uzviyligi, darsliklar mazmuni va sifatida talay kamchilik va muammolarimiz bor. Darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni nashrga tayyorlashda ularni mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga qay darajada javob bera olishiga yana-da jiddiy e'tibor

qaratishimiz, amaliyotchi o‘qituvchilar, fan metodistlari hamda salohiyatli olimlar tomonidan chuqur ekspertizadan o‘tkazishimiz lozim. Darsliklar ekspertiza xulosalari asosida uning mualliflari, nashriyot xodimlari hamda fan metodistlari hamkorligida qayta ishlansa, mazmuni va illyustratsiyalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsa yana-da mazmunli va sifatli bo‘ladi. Darsliklarni yana-da takomillashtirish uchun jahon tajribasini kengroq o‘rganish, loyihalarimizga Respublikamizdagi eng tajribali mutaxassislarni, xorijiy ekspertlarni keng jalb qilish maqsadga muvofiq. Darsliklarni tayyorlashda o‘quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari alohida inobatga olinadi. Darslik mazmunida mavjud bo‘lgan takrorlanishlar bartaraf etiladi, xalqaro tajribaga tayangan holda darslikning dizayni va foto-illyustratsiyalariga o‘zgartirish kiritiladi. Yana bir e’tiborli holat shuki, fanlar kesimida fanlararo bog‘liqlik hamda sinflararo uzviylik ta’minlanishiga yana-da jiddiy e’tibor qaratiladi. Darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda ular mazmuniga xalqaro baholash dasturi -TIMSS, PIRLS talablari o‘quvchilar yoshiga mos tarzda yana-da chuqurroq

singdiriladi.

Endilikda barcha umumta’lim maktablarida 1-6-sinflar uchun mo‘ljallangan hamda bir nechta fan: kimyo, geografiya, biologiya va fizika fanlarining boshlang‘ich tushunchalarini o‘zida birlashtirgan Tabiiy fanlar darslari yo‘lga qo‘yiladi.

GLOBAL SHAROITDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH USULLARI, MUAMMO VA YECHIMLARI

X.B. Erkinov, Sh.R.Xasanov,

***Guliston Davlat Universiteti doktoranti* xursandbek.erkinov@mail.ru,**

Mirzaobod tumani 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ta’lim tizimini rivojlantirishda asosiy kuch o‘qituvchiga borib taqaladi. O‘qituvchining mahorati, madaniyati, AKT savodhonligi, bilim darajasi qisqa qilib aytganda hozirgi zamon o‘qituvchisiga qo‘yilgan talablarni bajarishi. Shu sababli bu maqolada o‘qituvchi hozirgi zamonda qanday bo‘lish kerakligi haqida ko‘proq urg‘u berilgan.

Tayanch so‘zlar: Mahorat, savodhonlik, tasavvur, onlayn darslar, texnologiya, noan’anaviy mashg‘ulot.

Hozirda shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda harsohada raqobat ham kuchaymoqda. Shu qatorda ta’lim sohasidaham. Hozirgi zamon o‘qituvchisi bilan 10-15 yil oldingi o‘qituvchilar orasidagi farq yer bilan osmoncha. Keling bu farqlani ko‘rib o‘tsak. Avvallari dars o‘tish usli an’anaviy eskicha usul bo‘lgan. O‘qituvchi darsga kiradi kitobni ochadi mavzuni yozadi va tushuntiradi uyga vazifa beriladi tamom. Hozir yoshlarni bunday usul bilan biron narsaga erisha oladi deb bo‘lmaydi. Hozirgi zamon yoshlari dunyo yangiliklaridan xabardorlar ularni oddiy usullar bilan hayron qoldirib bo‘lmaydi. Shuning uchun hozirgi yoshlarimizni o‘qitishda noan’anviy usullardan, qo‘shimcha yangi ma’lumotlardan qo‘shib mavzularni tushuntirish talab qilinadi. Singapur davlatida geometriyadan biron maavzuni

boshlashdan avval misol uchun piramida mavzusini. O‘qituvchi shunday shart bilan boshlaydi, hammaga piramida yasashni topshiriq beradi, hamma o‘zi tushunganicha piramida yasaydi. Xo‘sh bu nimaga kerak, avvalo o‘quvchida tasavvur uyg‘onishni boshlaydi. Piramidani fazoda tasavvur qilinmasa doskaga chizganingiz bilan tasavvur qilish ancha qiyin aynan shuning uhun o‘quvchida tasavvarni uyg‘otish uchun aynan shu usuldan foydalaniladi. Bu usul hech bir kitobda yoki darslikda yozilmagan bu o‘qituvchining mahorati. Shunday ekan bugungi kun o‘qituvchisi bir joyda qotib qolmasligi yoki darslik bilan chegaralanib qilmasligi lozim, buning uchun izlanish qidirish ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Bir so‘z bilan aytganda zamon bilan hamnafas bo‘lmog‘i lozim. Yaqinda interet tarmog‘ida qiziq bir ma’umotni o‘qib qoldim “Zamonaviy oqituvchiga kerak bo‘ladgan 8 ta asosiy xislat” mavzusida. Keling shu hislatlarni ko‘rib o‘tamiz.

1.Bolalarga hurmat: Bunga to‘xtalib o‘tirmayman chunki o‘qituvchilarimiz bolalarga hurmat bilan yondashishni juda yaxshi bilishadi.

2.Tolerantlik: Xo‘sh bu nima degani, insonlanring ba’ri turlicha. Ba’zida odam o‘zgalarga o‘xshamaganligi uchunham g‘ashimizni keltiradi: bosh kiyimni boshqa kiyadi, o‘zgacha qaraydi. Agar u o‘zini tabiiy tutayotgan va axloq-odob qoidalarini buzmayotgan bo‘lsa, bunga e’tibor berish kerakmi? Odamning shaxsiy fikrga ega bo‘lish huquqi haqida ham shunday deyish mumkin. Gap yagona to‘g‘ri javob berish mumkinbo‘lmagan savollar haqida ekan, kutilmagan va original takliflarni darhol o‘chirib tashlash yaramaydi. Ular standart javoblarga qaraganda ko‘proq mos keladigan bo‘lishi mumkin. Bolalar kattalar kabi “qolipga tushib qolgan fikrlar” bilan o‘ylashmaydi, shuning uchun erkin fikrlashadi. O‘quvchining o‘zgacha bo‘lish huquqini tan olish kerak. Balki yangi Eynshteyn komol topayotgandir.

3.Haqiqiy narsalar bilan hurmatga ega bo‘lishga tayyor turishi: Balandparvoz so‘zlar, buyruq ohangi bilan zamonaviy bolada taassurot uyg‘otish qiyin. Yaxshi o‘qituvchi o‘z fanini yaxshi biladi, uning foydasini tushuntira oladi va materialni qiziq qilib yetkazadi. Qo‘rqitish – befoyda. Hozirgi bolalar avvalgi odamlar qo‘rqqan narsalardan hadiksirashmaydi.

4.Chegarani his qilish: Bu ruhiy chegaralarga (“ko‘ngilga tegmaslik”) ham, shaxsiy bilimlarga ham tegishli. Axir bolalar ba’zi jihatlarda o‘qituvchilarga nisbatan ko‘proq narsalardan boxabar

5.O‘z vazifasini tushunish: O‘qituvchi “Gugl” qidiruv tizimida toppish mumkin bo‘lmagan foydali bilimlarni berish kerak.

6.O‘z-o‘zini tanqid qilish: agar o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, uni qanday rivojlantirish haiqida o‘ylasa, u ko‘p narsaga erishadi.

7. o‘z-o‘ziga shama qilish: Jiddiy bo‘lmaslik va o‘zini hazil qilish qobilyati-zo‘riqishlarga qarshi turishning tarkibiy qismi. Jamiyatdagi hayot uchun ham a’lo xislat. Albatta, xislatlarning bariga ega bo‘lish ham oson emas. Ko‘p hollarda maktabda o‘qituvchilarni tanlab olish imkoniyati mavjud emas. Biroq shunga qaramay, idealga qarab intilish zarur.

Bu 7 ta xislatga ega bo‘lgan o‘qituvchi albatta o‘z maqsadiga osonlik bilan erishadi. Hozirgi pandemiya sharoitida biz o‘qituvchilardan yanayam ma’uliyat

bilan ishlash talab qinadi. Kelajagimiz yosh avlod qo'lida, shunday ekan yosh avlodi savodsiz bo'lib qolishiga yo'l qoymasligimiz lozim. Avvalo har-birimiz online dars o'tishni mukammal darjada yo'lga qo'yishimiz zaruz. To'g'ri hamma o'quvchilarda ham online darsga tayyor emaslar. Har bir o'qituvchi internet tarmoqlaridan 100 foiz foydalanishni bilish zarur. Jonajon maktabimiz bag'riga qaytganimizda ham online darslarni o'zimiz kichik auditoriyada tashlkil qolishimiz zarur. Zamon talabi ham aynan shu narsani taqozo qilmoqda. Ko'rinib qoldiki biz masofaviy ta'limga unchalik tayyor emas ekanmiz. Kuni kecha BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish pandemiya avj olgani sababli dunyo "avlodlar falokati"ga duch kelayotgani haqida bong urdi va maktabda darslarni xavfsiz tarzda qayta tiklash "eng muhimvazifa" bo'lishi kerakligini takidladi.

"Hozir biz avlodlarni "yo'qotish" xavfi bilan yuzma-yuz turibmiz, bu behisob insoniy potensiyalni puchga chiqarishi, o'nlab yillar davom etgan taraqiyyotga putur yetkazishi va tengsizlikni kuchaytirishi mumkin" – dedi BMT Bosh kotibi.

Mana shunday og'ir vaziyatda kelajagimiz bo'lmish yoshlarimizga yanayam jiddiyroq e'tibor berishimiz zarur. Bu qo'llanmalar ham qisqa, ham o'quvchi tushunishiga juda kata yordam beradi. Bu qo'llanmadan o'qituvchi yordamisiz ham tushunishga qisman yordam beradi. Demak biz o'qituvchilar har qanday sharoitga tayyor bo'lishimiz zarur ekan. Ko'plab o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashga o'rganmaganligi, ilg'or tajribalarni, tizimdagi yangiliklarni o'rganib, ish faoliyatida qo'llamasligi ularning zamodan ortda qolishlariga sabab bo'lmoqda. Shunday ekan bugungi kun o'qituvchisi o'z ishiga ijodiy yondashishi, dars mashg'ulotlarida yangi, innovatsion metodlarni qo'llashi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Saidahmad Usmonov "Bugunning o'qituvchisi. Biz uning saviyasidan nega qoniqmayapmiz?".

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.Sharq. 1997.

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ORQALI BO'LAJAK TARBIYACHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Raximova Feruzaxon Muxammadjonovna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik muammolari, innovatsion metod va usullarni ta'lim tizimiga tadbiq etish to'g'risida fikr yurutilgan.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsiyalar, kasbiy faoliyat,

ta’lim, bola lompetensiyasi, umumiy tamoyillar.

Аннотация. В статье обсуждаются проблемы развития профессиональных компетенций будущих воспитателей и роль будущих воспитателей в системе дошкольного образования, общие принципы профессиональной деятельности в дошкольном образовании, применение инновационных методов и способов в системе образования.

Ключевые слова: Обучение направленное на личность, компетенции, инновации, профессиональная деятельность, образование, детская компетентность, общие принципы.

Annotation: The article discusses the problems of developing the professional competencies of future educators and the role of future educators in the system of preschool education, the general principles of professional activity in preschool education, the use of innovative methods and methods in the education system.

Key words: professional competencies, innovations, professional activity, education, children’s competence, general principles.

Yagona ta’lim-tarbiya jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirish, uning yosh xususiyatlari, qobilyati, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ijodkorligini oshirish, kognitivlik ko‘nikmalarini hosil qilish zarur sanaladi. Shuningdek tarbiyachi MTTda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiyaviy ishlarning eng muhim jihati – jamiyatda yashashga qobiliyatli, mustaqil insonni kamol toptirish maqsadida va ularni keyingi bosqich ya’ni maktab hayotiga sifatli tayyorlashda munosib hissa qo‘shadi. Guruhli holatda tashkil etilgan bolalar bog‘chalari oiladagi tarbiyani qo‘llab-quvvatlashga, bolaning boshqa keyingi hayoti va ta’lim olishi uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratish uchun bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarning o‘rnini to‘ldirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik va psixologik rivojlanish va maktabda o‘qishga sifatli tayyorgarlik darajasi bolalar bog‘chasida tarbiyalangan bolalarda bog‘chaga bormaydigan bollarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Uzluksiz ta’lim tiziminig dastlabki bosqichi bo‘lgan va uning poydevorini tashkil qiluvchi maktabgacha ta’lim tashkilotlari bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini belgilashda asosiy o‘rin tutadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim zamonaviy interaktiv usullardan foydalangan holda bollarni maktabga sifatli tayyorlash, bollarni ijodkorligini oshirish, tasavvuri va dunyoqarashini o‘stirish, o‘zligini anglashni o‘rgatish, o‘zining qadr-qimmatini e’zozlash, o‘z fikrini so‘zda mukammal, aniq ifodalab berish, shaxsiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish tuyg‘ularini tarbiyalashga, har bir bolani axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish o‘rinliki, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o‘ziga xosliklari shundaki, yaratuvchanlik, insonparvarlik, ijodiylik, jamoada ishlay olish, bolajonlik, o‘z kasbini sevishi, uni qadrlagshi kabilarda yorqin namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Mazkur o‘ziga xosliklar ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni

tarbiyalovchi bo‘lajak tarbiyachi faoliyatida o‘z aksini topishi lozim. Go‘daklik chog‘idananoq rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoit yaratish eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tug‘ilganidan boshlab to maktab ta’limiga tayyorlashga qadar bo‘lgan bosqich shaxs rivojlanishining boshqa yosh davrlaridan farqli ravishda keyinchalik bola istalgan sohaga doir maxsus bilim va ko‘nikmalarni egallashi hamda faoliyatning xilma-xil turlarini o‘zlashtirishi uchun asos bo‘ladigan uyg‘un tarzda amalga oshuvining ta’minlashini talab etadi. Chunki maktabgacha yoshda bola jamiyatning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan jismoniy va psixologik sifatlarga ega bo‘lib, inson sifatida shakllanadi. Bola rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan jismoniy va psixologik sifatlar esa ongli ravishda dunyoni anglash, ijodiy fikr yuritish, boshqa kishilar bilan muloqot qilish, o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish kabi o‘ziga xususiyatlari orqali qo‘lga kiritiladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib biz bolalikning o‘ziga xos xususiyatlarini uning ijodkorligi, ta’sirchanligi, oson taklif etilishi, emotsionalligi tufayli bo‘lajak tarbiyachi - pedagog-nafaqat o‘zining intellektual va boshqa maxsus qobiliyatlari, balki shaxsiy xususiyatlari bilan ham pedagogik ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan K.D.Ushinskiyning ta’lim jarayonida hamma narsa bo‘lajak tarbiyachi – pedagog shaxsiga asoslanishi kerak, degan il-or ыarashlar dolzarbdir, chunki ta’lim kuchi faqat inson shaxsining asosiy manbasidan quyiladi

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani tarbiyachining qo‘yilgan talablarga qanchalik muvofiq ekanligini belgilab beradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak mas’uliyatni to‘la anglab yetishi zarur. Faqatgina maktabgacha yoshdagi bola rivojining muhim qadriyat ekanligini tushunishgina emas, balki bola rivojlanishi qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallash va ularda ijodkorlik fazilatlarini rivojlantirishi juda muhimdir. Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojining uni o‘rab turgan atrof-muhit bilan bog‘liqligidir. Mazkur qonuniyat o‘z navbatida maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining quyidagi ikkita muhim funksiyasini belgilab beradi:

1) bo‘lajak tarbiyachi bolalarni muvafaqqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratishi;

2) bo‘lajak tarbiyachi bolalarning hayotiy faoliyati xavfsizligini

ta’minlash va salomatligini mustahkamlashga mas’ulligini anglashi. Zamonaviy pedagog-tarbiyachi ijodiy fikr yuritishi, yangi g‘oyalarni vujudga keltira olishi va jamiyatdagi o‘zgarishlarga bemalol moslashishi kerak. Bo‘lajak tarbiyachining pedagogik faoliyatga kasbiy-ijodiy tayyorgarligining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: o‘z kasbining muhimligini anglash; shaxsda shakllangan insonparvarlik yo‘nalishi; ijtimoiy javobgarlik; aniq maqsadlarni belgilash qobiliyati; innovatsion texnikani egallash va boshqalar.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘lajak tarbiyachisining bolalarni

muvafaqqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish funksiyasi bolani ijodiy faollikka undash, uni rivojlantiruvchi tavsifdagi faoliyatga jalb etishni talab etadi. Bolaning jismoniy va psixologik salomatligini

mustahkamlash haqida g‘amxo‘rlik qilish maktabgacha yoshdagi tarbiyani oqilona tashkil etishning garovi bo‘lib, chunki mazkur yosh davri rivoji bolaning ijtimoiy holati, kayfiyati, emotsional ko‘rinishlarga bevosita bog‘liqdir. Ana shu sababli tarbiyachi bolani o‘rab turgan atrof-muhitga e’tiborli bo‘lishi, bola hayoti va salomatligiga xavf soluvchi eng oddiy holatlarning ham oldini olishi lozim. Ya’ni, tarbiyachi bolalar bog‘chasi maydonchasi, o‘yinchoqlar, mebel jihozlarining bola bo‘yiga mos kelish holatini muntazam nazorat qilib borishi; havo va suv temperaturasini o‘lchash; bolalarni tayyorlash uchun mashg‘ulotlar vaqtini oldindan aniqlashi lozim. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, вщlajak tarbiyachining e’tiborsizligi, befarqligi uning kasbiy layoqatsizligining muhim belgisidir. Demak, tarbiyachi uning eng muhim jihit bu uning kasbiy layoqati va

kampetentligi bilan o‘lchanadi.

Ma’lumki, bo‘lajak tarbiyachilarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida ijodiy faoliyat yuritishga tayyorlashda ijodiy kompetensiya, kompetentlik zamonaviy tadqiqotlar asosiy yo‘nalishlarining markaziy muammosi sifatida qaralmoqda. Ilmiy pedagogik, psixologik barcha fanlar uchun mushtarak bo‘lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqin va izohlari tarkibiga ko‘ra ma’no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tuman terminlarning mohiyati “ijodkorlik”, “ijodiy faollik”, “ijodiy faoliyat”, “samaradorlik”, “natijalilik”, “o‘quvlilik”, “xossa”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor”, “o‘lchov” kabi tushunchalar asosida tavsiflanmoqda. Umumiy qilib aytganda, “Kompetentlik – aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlik xususiyatidir”. Ta’lim va tarbiyani insonparvarlashtirish ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan ekanligi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida belgilab qo‘yilgan. Shunga muvofiq, bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar berish bilan birga ularni kasb-hunarga yo‘naltirishda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqqa yaxshilik qilish, tabiat va insonga mehr-shavqatli, muruvvatli, saxovatli bo‘lish, xalq hunarmandchiligi, milliy va kasbiy an’analar, diniy e’tiqod, ijodkorlik, ijodiy fazilatlar, ijodiy kompetentlik, odamlarning shaxsiy fikrlari va his-tuyg‘ularini hurmat qilishni o‘rgatishdan iborat.Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachini bunday kasbiy kompetensiyalar va shaxsiy sifatlar uyg‘unligi asosida tarbiyalab borish bo‘lajak maktab o‘quvchilarini to‘g‘ri va ongli ravshda ijodiy faoliyatga yo‘naltirishda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Mana shu holatda ijtimoiy va kasbiy burchni anglagan holda kasb tanlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy motiv hisoblanadi. Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini, shu jumladan maktabgacha ta’lim sohasini ham shiddat bilan qamrab olayotgan tezkor va globallashuv jarayoni butun pedagogik jamoatchilikning zimmasiga yangidan yangi vazifalarni yukladi. Shu sababli tarbiyachi shaxsi va faoliyatiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablarning soni har qachongidan ortib bormoqda. Maktbagcha ta’lim bo‘lajak tarbiyachilarini kasbiy-ijodiy layoqati, kompetentligiga quyidagilar kiradi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni sevish; ijtimoiy faollik; bolani ichki

dunyosini tushunish qobiliyati; bolalar bilan muloqot qilish qobiliyati; kamtarlik xushmuomilalik; mehnatsevarlik; qat’iylik; mustahkam xarakter; odillik;

ma’suliyatlilik kabilar shaxsiy sifatlar deb qaralsa, o‘z kasbiga bo‘lga qiziqish; topshirilgan ishga ma’suliyat bilan munosabatda bo‘lish hissi; ahlokiy madaniyat (nutq, hulq-atvor); psixologik kuzatuvchanlik; chidamlilik; pedagogik odob; aniq va tushunarli nutq; o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lish ijodiy faliyat yuritish kabilar kasbiy sifatlar deb qaraladi.

Bo‘lajak tarbiyachining kasbiy bilimlariga quyidagilar kiradi. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarni yosh va o‘ziga hos xususiyatlarini inobatga olish;

-tarbiya jarayonining mazmunini, maqsad va vazifalarini bilish;

-maktabgacha ta’lim pedagogikasi, bolalar psixologiyasi, maxsus metodikalar va gigiena asoslari haqida bilimga ega bo‘lish;

-zamonaviy pedagogik metodologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;

-ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni psixologik va pedagogik xususiyatlarini bilish;

-mashg‘ulotlarni, o‘yinlarni, bolalar faoliyatini (nutqiy, tasviriy, mehnat) o‘tkazish metodikasini bilish;

-ota-onalar bilan ishlash shakllarini va metodikalarini bilish;

«Ilk qadam» davlat dasturi to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish;

-maktabgacha ta’lim bo‘yicha m’yoriy hujjatlar haqida bilimga ega bo‘lish;

-bolalar hayotini saqlash va sog‘liqlarni mustahkamlash qoidalarini bilish;

-bo‘lajak tarbiyachining ijodiy sifatlariga esa pedagogik maxoratni takomillashtirish;

- bolalarga yangi bilimlarni ijodiy yondashgan holda o‘rgatish; bolalar va ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlashda noan’anaviy ish shakllaridan foydalanish; «Ilk qadam» tayanch dasturini tadbiq etishga ijodiy yondashish;

-bolalarga pedagogik ta’sir etish natijalarini ko‘ra bilish; o‘zini bolalarini o‘rniga, xayotga bola ko‘zi bilan qarash qobiliyati;

Bo‘lajak tarbiyachi istiqboldagi faoliyatda yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga ma’suliyatli va sharafli vazifani amalga oshiradi. Tarbiyachining siyosiy-ma’naviy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun halq hamda jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini anglashiga, ta’lim-tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondoshishi, o‘z mahoratini doimo tokamillashtirib borish va ishdagi hamkasblarni o‘sishiga ko‘maklashishiga yordam beradi.

Bo‘lajak tarbiyachi faoliyatida rivojlantiruvchi (tarbiyalovchi va ta’lim beruvchi) vazifalar muhim o‘rin tutadi. Uning o‘zi bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Eng avvalo bu gnostik (bilish) vazifasi sanaladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash uchun bo‘lajak tarbiyachi pedagog ma’lumotli, zarur bilimlarni to‘plashi, ilmiy adabiyot bilan ishlashni bilishi, tajribali pedagoglarning ishlarini kuzatish hamkasblar tajribasini o‘rganishi, tarbiyaviy ta’sir vositalarini qo‘llashni bilishi, bililarni egallashda zarur adabiyotar va axborotlardan xabardor bo‘lishi, ularni mustaqil o‘zlashtirishi, ijodiy izlanishi, kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bmuhimligi bilan belgilanadi. Adabiyotlardan asosiy fan va soha yo‘nalishlarini ajratib ola bilishi, muhokama yoki tadqiqot uchun muammoni aniqlashi, ilmiy adabiyotni ma’lum nuktai nazardan tahlil qilishi, tadqiqot farazi hamda vazifalarini

o‘rtaga quya bilishi, pedagogik jarayonda, ish mazmuni, metodlari, bolalarni rivojlanish hususiyatlarini va shu kabilarni aniqlash maqsadlarida oddiy sinov-tajribalar o‘tkazilishi, muammoli savollar qo‘yishi, asosiysini topishi, materialni taxlil qilishi, keys texnologiyalaridan foydalanish, ijodiy t asavvurni shakllantirish, fikrni mantiqiy bayon qilish va shu kabi ko‘nikmalarni qamrab oluvchi tadqiqotchilik vazifasi uzviy birikib ketadi. Bolalarni tarbiyalash jarayonida bo‘lajak tarbiyachi uchun tadqiqotchilik elementidan yanada ko‘proq bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi, kasbiy qiziqishlarini orttirib borishi, kompetensiyaviy maalakalarni oshirib borishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bo‘lajak tarbiyachi bolalar hulq-atvorlari, uning madaniyati, so‘zlash qobilyati, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish omillarini egallashi, bu borada yangi ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilishni, ularning sabab va oqibatlarini ko‘rishini, pedagoglik ta’sir ko‘rsatish vositalari, ularning bolalar jamoasi va har bir bolaga alohida samaradorligini tahlil qilish, asosli xulosalar chiqarish va shu kabilarni bilishi kerak. Bu vazifalarning amalga oshirilishi bo‘lajak tarbiyachi-pedagogning ijodiy faoliyati uchun zarur bilimlarni jamg‘arilishiga olib keladi.Bo‘lajak tarbiyachilarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda barcha vazifalar qatori rivojlantiruvchi vazifalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘sib kelayotgan avlodga bilim, ko‘nikma va malakalarini berishni ta’minlovchi axborot vazifasida ham aks etadi. Bu vazifalar quyidagi bir qator pedagogik ko‘nikmalar: ifodali nutq vositalaridan foydalanish, materialni aniq mantiqiy, qisqa bayon qilish va tushunilishiga erishish; turli bayon qilish metodlari (ko‘rgazmali-amaliy, ko‘rgazmali, og‘zaki va boshqalar; ta’limning texnika vositalaridan samarali foydalanish) ni qullanish; materialni qismlarga ajratish, savollar qo‘yish; materialni egallash jarayonida bo‘lpjak tarbiyachi bolalarni ijodiy faollashtirish va shu kabi ko‘nikmalarni talab qilishi muhim sanaladi.

Xusosa o‘rnida aytish mumkin-ki, bo‘lajak tarbiyachi - pedagog ijodiy faoliyatining rivojlantiruvchi vazifasi zarur bilim va malakalarni to‘plash, bolalar tomonidan amaliy faoliyat jarayonida zarur bilim, malakalarning egallanishiga yo‘llangan axborot berish hamda undovchi vazifalarni amalga oshirish ko‘nikmalarini talab qiladi. Rivojlantiruvchi vazifa boshqalarini yanada mustahkamlaydi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish

konstruktiv tashkilotchilik vazifasi vazifasi tarbiyachilik jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilganligi bilan farqlanadi.

Bu vazifani bajarish uchun bo‘lajak tarbiyachi-pedagog bir qator ijodiy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.
4.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
5.O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya hamda sportni rivojlantirish davlat dasturi Konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-maydagi qaroriga ilova.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

Sheraliyeva Dilnoza Alikulovna
Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 12-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda muhim e’tibor va talabga ega bo‘lgan mantiqiy tafakkur xususida. Unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni, uning mazmun mohiyati hamda uning matematika darslarida ahamiyati. O‘rganish jarayonida amalda qo‘llangan metod, vosita, shakl hamda usullari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘z: mantiq, tafakkur, boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, mazmun, metod, shakl, vosita, usul, malaka, ko‘nikma, bilim, salohiyat, mantiqiy fikrlash, rivojlantirish.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida bir necha yillardan keyin hozirgi zamon o‘rnini bosa oluvchi yosh avlod tarbiyasiga katta e’tibor qaratish lozim. Boshlang‘ich sinf davri (1-4-sinflar) shaxs shakllanishining dastlabki bosqichini, barcha o‘zini anglash jarayonlarining rivojlanishini ta'minlaydi, o‘rganish qobiliyati va istagini shakllantiradi. Yurtimizda esa bu sohaga yanada kuchli e’tibor qaratilib, ushbu soha rivoji uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda esa Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston - maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi". Ushbu fikrlar ham so‘zimiz isboti bo‘la oladi. Fikrlash uch turga bo‘linadi va ifodalanadi: vizual-samarali fikrlash, vizual-majoziy fikrlash va og‘zaki-mantiqiy fikrlash. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va bosqichlarning muntazam o‘zgarishi bilan belgilanadi, bunda har bir oldingisi keyingisini tayyorlaydi. Tafakkurning yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan eski shakllar yo‘qolmaydi, ular saqlanib qoladi va rivojlanadi. Maktab ta'limi shunday tuzilganki, og‘zaki-mantiqiy fikrlash asosan rivojlanadi.

Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, dalillarga asoslangan fikrlash asoslari boshlang‘ich maktabda qo‘yiladi. Bu erda mantiqiy, mavhum fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha ishning asosiy maqsadi bolalar mantiqiy fikrlash texnikasini o‘zlashtirib olishlari, ularga boshlang‘ich sifatida taklif qilingan hukmlardan xulosa chiqarishni o‘rganishlari, shuning uchun ular boshqa bilimlarni jalb qilmasdan, bu hukmlarning mazmuni bilan cheklanishlari mumkin.

Tafakkurning vazifasi ob'ektlar o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berish,

aloqalarni ochish va ularni tasodifiy tasodiflardan ajratishdir. Fikrlash tushunchalardan foydalanadi va ular bilan ishlaydi va umumlashtirish va rejalashtirish funktsiyalarini o‘z zimmasiga oladi. Yechiladigan vazifalarning tabiatiga ko‘ra, fikrlashning quyidagi turlari ajratiladi: nazariy va amaliy. Nazariy tafakkur kontseptual va obrazli tafakkurni, amaliy tafakkur esa vizual-samarali va vizual-majoziy fikrlashni o‘z ichiga oladi. Xuddi shu yoshdagi bolalarda fikrlashning rivojlanish darajasi mutlaqo boshqacha. Binobarin, o‘qituvchilar va psixologlar kichik yoshdagi o‘quvchilarda fikrlashni rivojlantirish jarayoniga tabaqalashtirilgan yondashishlari kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirish jarayoniga kelsak, psixologlar bu erda ikkita asosiy bosqichni ajratib ko‘rsatishadi. Birinchi bosqichda (1-2-sinflar) ularning fikrlashlari maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlaridan deyarli farq qilmaydi: o‘quv materialini tahlil qilish asosan vizual-samarali va vizual-majoziy rejada amalga oshiriladi. O‘quvchilar narsa va hodisalar haqida tashqi individual xususiyatlariga ko‘ra yuzaki, bir yoqlama gapiradilar. Ularning xulosalari idrok etishda berilgan vizual asoslarga asoslanadi va xulosalar mantiqiy dalillarga emas, balki hukmlarning idrok etilgan ma'lumotlar bilan bevosita bog‘liqligiga asoslanadi. Bu yoshdagi tushunchalar va umumlashmalar ob'ektlarning tashqi xususiyatlari bilan kuchli bog‘liq bo‘lib, sirtda yotadigan xususiyatlarga asoslanadi.

Uchinchi sinfga kelib fikrlash sifat jihatidan yangi, ikkinchi bosqichga o‘tadi, bu esa o‘qituvchidan o‘rganilayotgan materialning alohida elementlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan bog‘lanishlarni batafsil ko‘rsatishni talab qiladi. Bu davrda bolalar tushunchalarning individual xususiyatlari o‘rtasidagi umumiy munosabatlarni o‘rganadilar, ular analitik-sintetik faoliyat turini shakllantiradilar, modellashtirish harakatlarini o‘zlashtiradilar. Bu og‘zaki-mantiqiy fikrlashning shakllanishi boshlanishini belgilaydi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim qismidir. O‘quvchilarning o‘z qobiliyatini to‘la namoyon etishiga, tashabbuskorligi, mustaqilligi, ijodkorligini rivojlantirishga ko‘maklashish zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich maktabda allaqachon o‘quvchilar mantiqiy operatsiyalarning asosiy elementlarini (taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, tahlil qilish va boshqalar) o‘zlashtirishlari kerak, bu ularga qo‘shimcha dalillar keltirish, xulosalar chiqarish, bir-biri bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lgan bayonotlar, xulosalar chiqarish imkonini beradi. , o‘z mulohazalarini asoslab beradilar va pirovardida mustaqil ravishda bilim oladilar. Bu ko‘proq darajada amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan fan aynan matematikadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bola maktabga borishni boshlaganda, uning aqliy rivojlanishi juda yuqori daraja bilan tavsiflanadi. “Bolaning har bir yosh davri qaysidir ruhiy jarayonning yetakchi ahamiyati bilan tavsiflanadi. Erta bolalikda idrokning shakllanishi yetakchi rol o‘ynaydi, maktabgacha yoshdagi davrda - xotira, kichik yoshdagi o‘quvchilarda esa fikrlashning rivojlanishi asosiy rol o‘ynaydi.

Atrofdagi hayotdagi munosabatlarni topish, to‘g‘ri tushunchalarni ishlab chiqish, o‘rganilgan nazariy pozitsiyalarni amaliyotda qo‘llash, aqliy

operatsiyalar (umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash, sintez va boshqalar) yordamida tahlil qilish. Bularning barchasi kichik yoshdagi o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri yaratilgan pedagogik sharoitlar maktab o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

O‘quvchining mantiqiy tafakkurini shakllantirishga yordam beradigan pedagogik shartlar:

1. Darslarda bolalarni fikrlashga undaydigan topshiriqlar. Bunday topshiriqlar nafaqat matematika darslarida, balki hamma darslarda ham bo‘lsa yaxshi bo‘ladi va o‘qituvchilar darslar orasida mantiqiy besh daqiqalik o‘tkazishi. Aynan shu daqiqalarda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini boyituvchi va uni ishga soluvchi topshiriqlar berilishi kerak.

2. O‘qituvchi va tengdoshlari bilan muloqot - maktabda va darsdan keyin soat. Javob, masalani yechish yo‘llari haqida fikr yuritar ekan, o‘quvchilar turli yechimlarni taklif qiladilar, o‘qituvchi esa ulardan o‘z javobining to‘g‘riligini asoslab, isbotlashni so‘raydi. Shunday qilib, kichik yoshdagi o‘quvchilar mulohaza yuritishni, turli hukmlarni solishtirishni va xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigida so‘zlagan nutqi 2020-yil 8-dekabr.

2. Zankov, L.V. Tanlangan pedagogik ishlar/ L.V.Zankov; kirish. Art. Sh.A.Amonashvili. - M. : Novaya shk., 1996. - 432 b.

4. Ailamazyan, A.M. Ishbilarmonlik o‘yinlari va ulardan psixologik tadqiqotlarda foydalanish/A.M.Ailamazyan, M.M.Lebedeva//Psixologiya savollari. - 1983. - 143-150. 32-bet

TA’LIM RIVOJIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Xudoyqulova Maqsuda Ko‘chimovna,

Oqoltin tumani 10-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Ma’lumki, har qanday texnologiya ta’limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslanadi. Ta’lim jarayonining faol sub’yektlari o‘qituvchi va o‘quvchilar bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari shundan iboratki, ma’lum mavzu bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi. O‘qituvchining faol, samarali faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining metodik dars ishlanmasidan farqli ravishda, ta’limning pedagogik texnologiyasi ta’lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o‘quv materialini o‘zlashtirishga sharoit yaratadi.

O‘qituvchi bilan o‘quvchi orasidagi munosabat erishilgan yutuqlardan zavqlanish, o‘quv faoliyatiga mas’uliyatli yondashish hamda o‘zaro hamkorlikda ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishga undashi kerak. Bu esa pedagogik ta’sirni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro aloqa vositasi “ko‘prik” ni vujudga keltiradi.

Ma’lumki, pedagogik texnologiya – ta’lim jarayonida oldindan rejalashtirilgan va to‘laligicha loyihalashtirilgan, muayyan vaqtga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq ta’lim oluvchi shaxsiga qaratilgan, faollashtirilgan usullar va zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalangan holda o‘quv maqsadiga erishishni kafolatlaydigan ta’lim berish jarayonidir.

Texnologiyalarni qo‘llaganda, o‘quvchi bilimini kuzatish, ularning rivojlanish yo‘llari va usullarini aniqlash, mosini tanlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullarining o‘zaro bir-biriga o‘tishi dialektikasini chuqur tahlil qilish ishlariga ahamiyat berishimiz kerak.

Maktab tizimida ona tili fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari o‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili, uning umumiy o‘rta ta’lim maktablarda o‘qitilishi davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy ahamiyatga ega. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko‘ra to‘g‘ri, o‘rinli va samarali foydalanish malaka va ko‘nikmalarni singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir.

O‘zbek tili darslarida har bir mavzuni axborot kommunikatsiya va ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib o‘tish katta ahamiyatga ega. Davlat ta’lim standartlarida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish bosh maqsad qilib belgilangan. Buning uchun dars jarayonida elektron darslik, qo‘llanma, dars ishlanma, o‘quv film, videodarslar, slaydlar va ko‘rgazmali materiallar bo‘lishi lozim. Dars jarayonida faqat o‘tilayotgan mavzuga oid materiallardan – elektron dars ishlanmasi, multimediali vositalar yoki videofilm, o‘quv filmlari, didaktik materiallardan foydalanish ta’lim sifati hamda samaradorligini ta’minlaydi. O‘quvchi darsni ma’ruza shaklida eshitishdan ko‘ra, slaydlar orqali ko‘rib, ba’zi mashqlarni bevosita kompyuterda bajarsa,

o‘zlashtirishi osonlashadi.

Hozirgi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo‘llarini o‘rgatish, ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiya usllarini samarali qo‘llashdan iborat. O‘zbek tili darslarida ta’limning interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirib, guruhlarda va hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi. Dars jarayonida ta’limiy o‘yinlarni samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarda tezkorlik, topqirlik, sezgirlik, bilim olishga va fanga bo‘lgan qiziqishlari yanada oshadi.

Ta’lim jarayonida yoshlar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi har bir murabbiy o‘quvchilarni barkamol inson qilib etishtirish uchun ularning xalq insonparvarligi chashmalaridan, umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo‘lishlariga e’tibor berib, urf-odatlarimizni, milliy qadriyatlarimizni, buyuk mutafakkirlarimizning ma’naviy merosini yaxshi bilishi va ularni darslarga tadbiq etishi lozim. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. O‘qituvchi dars jarayonida pedagogik texnologiya asosida o‘quvchilarning ongidagi qiziqishlarga tayanib, ijodiy

kamolotiga yordam berish natijasida darslarni tashkil etishlari lozim. Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, ta’limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar. O‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyalari; ta’limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta’lim texnologiyalari kabilarni kiritish mumkin.

O‘z kelajagini o‘ylagan har bir davlat jamiyat hayotidagi shaxsga taalluqli barcha ijtimoiy ta’sirlarni insonning rivojlanishi uchun, uning o‘zligini anglashi va namoyon qila olishi uchun maqsadli ravishda yo‘naltira olgan bo‘lishi kerak. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalar qo‘llanganda, o‘quvchilar qiziqishining ortishiga, bilimlarning ko‘nikmaga aylanishiga, bilim sifat-samaradorligining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Axborot kommunikatsion texnologiya va usullarning o‘zbek tili darslarida keng qo‘llaniladi. FSMU texnologiyasi munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o‘quvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda o‘rgatadi. Men ona tili darslarida ushbu texnologiyualarni qo‘llab yaxshi natijalarga erishib kelmoqdaman. Maqsad – ushbu texnologiya o‘quvchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi. F- fikringizni bayon eting. S- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating. M- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring. U-

fikringizni umumlashtiring.

Bu kabi texnologiyalarni qo‘llashda, dars va mashg‘ulotda qaysi darajadagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni nazarda tutilganiga bog‘liqdir. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarining muammoli ta’lim yo‘nalishi keng qamrovli bo‘lib, o‘quvchilarni o‘ylashga, muhim xulosalar chiqarishga qaratilgan. Ma’lumki, ona tili fanining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishda so‘z, gap, uning tuzilishi haqida bilim bersa, adabiyot fani ko‘proq og‘zaki bayon qilish, ifodali o‘qish, asar mohiyatini so‘zlash, ijodiy insholar yozish kabi maqsadlarni nazarda tutadi.

Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar o‘rtasida fikr almashish bo‘lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to‘xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro‘yobga chiqadi. Sunday ekan, o‘z fikrini va his-tuyg‘u, kechinmalarini yozma va ogzaki shaklda erkin, bemalol ifodalay oladigan shaxsni tarbiyalash davlat tili ta’limining ustuvor vazifasidir. Bu vazifani to‘la-to‘kis ado etishda, ayniqsa, fanlararo aloqa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, filologiya fanlari integratsiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Lekin o‘quvchilarni davlat tilida o‘z fikrini og `zaki va yozma shaklda, nutq madaniyatiga amal qilgan holda to‘liq

mukammal bayon eta olishga tayyorlab borish nafaqat o'zbek tili o'qituvchilari, balki boshqa fan o'qituvchilarining ham muhim vazifasidir. Chunki bugungi maktab bitiruvchilari ertaga biror soha mutaxassisi bo'lib yetishadi va xalq xo'jaligi turli sohalarida faoliyat yuritadilar.

STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA QO'LLASH

To'raqulova Malohat Bahodir qizi, Ismatova Manzura Usmonqul qizi
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola STEAM texnologiyasining ahamiyati, uning afzalliklari va yutuqlari haqida yozilgan. STEAM texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llash, qanday metodlardan foydalinish kerakligi ushbu texnologiyani besh muhim markaz bilan bog'lab bolalar ongiga muxrlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. STEAM ta'lim texnologiyasini afzalligi shundaki u nazariya bilan amaliyotni uzviy bog'laydi.

Kalit so'zlar: STEAM, STEM, texnologiya, dastur, konsepsiya.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida ta'lim tizimiga STEAM texnologiyasi olib kirildi. STEAM texnologiyasi birinchi bo'lib AQSHda o'ylab topilgan bo'lib bu texnalogiya bolalarni fikrlashga va boshqa sohalardagi bilimlarini jamlagan holda foydalanishga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Ta'lim texnologiyasi o'ylab chiqilgan davrda STEM ko'rinishida bo'lgan keyinchalik esa ART-san'at qo'shilgan va STEAM ko'rinishiga kelgan.

S-Science-tabiiy fan
T-Technology-texnologiya
E-Enginering-muhandislik
A-Art-san'at
M-mathematic-matematika

S-Science-tabiiy fan hisoblanib bolalarni tabiatga bo'lgan qiziqishlari, tabiatdan oqilona foydalanish kabilarni boshqa yo'nalishlar bilan bog'lab o'rganadi;

T-texnology-texnaloyiga bolalarni texnalogiyalar ishlab chiqishga ya'ni yangi yangi texnalogiyalar yaratishga o'rgatuvchi yo'nalish;

E-enginering-muhandislik bu yo'nalishda esa sodir bo'layotgan har qanday voqea hodisalarni tushunish tanqidiy fikrlashga o'rgatadi;

A-Art-san'at yo'nalishi loyihalar tuzishda chizmalar chizish loyihalarni ko'rinishi tasvirlashni o'rgatuvchi yo'nalish;

M-mathematic-matematika yo'nalishi loyihani tasvirlashda yoki yaratishda amalda qo'llashda muhim hisoblanuvchi yondashuv hisoblanadi. STEAM ta'lim texnologiyasi bolalarni jamoa bolib ishlashga va 5 ta yo'nalishni bir biriga bog'lagan holda mashg'ulotni olib borishga undaydi.

2014-yilda Quddusda konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiyada 4 ta quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

1. Bolalarni STEAMGA jalb qilish;

STEAM ta'limiga bolalar kichik yoshidan yani maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab jalb qilish zarur.

2. Fan tili ingliz tili;

Har qanday bilim olaman degan farzand ingliz tilini bilmog'i lozim.

3.Qizlarni ham STEAMGA jalb qilinishi zarur;

Negaki qizlar o'g'il bolalar o'ylamagan bajara olmaydigan ishlarni bajara oladi. Nozik turdagi texnalogiyalar yarata oladi.

4.Science is fun (ilm fan qiziqarli bo'lishi kerak). Ilm fan jarayoni qancha qiziqarli bo'lsa bolalar shuncha ko'p e'tibor qaratadi va ilm olishga harakat kuchayadi.

STEAM ta'lim yondashuviga kundan kunga talab ortib bormoqda. So'nggi ma'lumotlarda keltirilishicha 2011-yildan buyon STEAM yondashuviga bo'lgan talab 17% ga oshdi. Oddiy kasblarga esa 9.8% ga talab oshgan. STEAM ta'lim jarayoni faqat nazariy bilim bilan kifoyalanibgina qolmay amaliy bajarib ko'radilar. Shunda bolalarda qiziqish yanada uyg'onadi. So'nggi yillarda yurtimizda maktabgacha ta'limga juda katta e'tibor berilmoqda buning yaqqol misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish kabilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida qabul qilinmoqda. Ushbu qaror maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, STEAM ta'lim texnologiyasi maktabgacha ta'limdan qo'llana boshlashi zarur. Bunda bolalarda kreativlik, qiziquvchanlik, jamoa bolib ishlash va keng qamrovli fikrlash maktabgacha ta'lim yoshidan rivojlana boshlaydi. Bola hali so'zlasha olmasdan turib yurishni boshlamasidan oldin jarayonni tushunish, anglash kabi jarayonlar ro'y beradi. O'sib borish jarayonida bolalar hayotida kichik-kichik muammolar ro'y bergan vaqtda ham bolalar bu muammoni hal eta oladigan bo'lib o'sadi. STEAM ta'lim tizimidan maktabgacha ta'limda asosan mavzularni integratsiyalashgan holda o'tish orqali foydalaniladi. Ayni damda bizning tavsiyamiz STEAM texnologiyasidan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi besh muhim markaz orqali foydalaniladi. Bular quyidagilardir:

1.Qurish-yasash, matematika

2.Ilm-fan va tabiat

3.Til va nutq

4.Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish

5. San'at

Ushbu markazlar orqali STEAM ta'lim jarayoni olib boriladi. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

-o‘zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
-tanqidiy fikrlash;
-qatiy qaror qilish;
-muammolarni qo‘rqmasdan hal eta olish;
-ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
-odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.

Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo‘ladi.

STEAM ta’lim jarayoni doimiy mashg‘ulotlaridan qiziqarli o‘tishining sababi STEAMda ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi. An’anaviy ta’lim bilan STEAM ta’limini solishtirib o‘tadigan bo‘lsak an’anaviy ta’lim bilimlarni o‘rgatadi fikrlashni rivojlantiradi. STEAM ta’limi esa haqiqiy ko‘niklar orqali olib boriladi.

STEAM ta’limning afzallik tomonlari bo‘lgani kabi kamchiligi ham mavjud. Bu yondashuv yozuv, musiqa, adabiyot kabi yo‘nalishlarga e’tiborning yetishmasligi uning kamchiligi hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilarga ushbu yo‘nalishda o‘qitish bo‘yicha mahalliy tarbiyachilardan tashqari soha bo‘yicha olimlar ham jalb etilsa yanada maqsadga erishish osonlashadi deb o‘ylayman.

Hozirgi kunda mamlakatimizga STEAMni ommalashtirish uchun Kanada va Buyuk Britaniya davlatlaridan kadrlar jalb qilingan bo‘lib, mamlakatimizdagi Prezident maktablari o‘quvchilari STEAM texnologiyasi asosida o‘qitilmoqda. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasi asosida o‘qitishga bolalarimizni kichik yoshligidan boshlab tayyorlab borishimiz kerak bo‘ladi. Ilk qadam davlat

dasturida noyabr oyi uchun kichik guruhlar mavzularini ko‘rib chiqamiz.

1-hafta: “Transpor bilan tanishuv” mavzusini olaylik dastlab bolalarimizga transport va ularning turlari, transportning vazifasi transportni ishlab chiqarish haqida ma’lumot beramiz. Mavzuni suhbat asosida mustakamlab olganimizdan so‘ng qurish, yasash konstuksiyalash markaziga o‘tib legodan transport yasash topshirig‘ini beramiz. Dastlab kuzatib turamiz bolalarimiz mustaqil ravishda qanday va qanaqa transport yasashdi? Yasay olishdimi? Qiynalgan bolakayga ozroq ko‘maklashib yuboramiz. Ilm-fan va tabiat markazida o‘tirgan bolakaylar ham mashina yasash bosqichlarini o‘rganib oladilar buning uchun ularga ozroq buzib qo‘yilgan transport beriladi. Kuzatib turiladi mustaqil qila olishsa rag‘batlantiriladi, bola qo‘liga yana boshqa mashina beriladi. Undan so‘ng esa mashina yasashni o‘rgatadigan videoroliklar namoyish etiladi. Shu tariqa ham bolada qiziqish uyg‘otishimiz ham ushbu ishga nisbatan ko‘nikma hosil qildirishimiz mumkin.

2-hafta: “Svetofor” haqida savol javob qilinganidan so‘ng tarbiyachi tomonidan svetaforning yaratilish tarixi, ahamiyati, vazifalari so‘zlab beriladi. So‘ngra svetaforni ishlashini ko‘rsatib beradigan videorolik yoki multfilm namoyish etiladi. Undan so‘ng bolajonlarimizga tasavvuridagi svetaforni chizish va bo‘yash topshirig‘i beriladi. Bu ham bolajonlardagi kreativlikni yuzaga chiqarish uchun qilinadigan jarayon hisoblanadi. Undan keyin esa karton qog‘ozdan yoki

plastilindan svetaforni iloji boricha mustaqil bolajonlar o'zlari yasashlariga topshiriq beramiz. Ushbu vazifalar bolajonlarni mavzuni yaxshi tushunib olishlari bilan birga o'zlaridagi imkoniyatlarni ochib berishlariga yordam beradi.

3-hafta: "Tez yordam va o't o'chirish yordami" Ushbu mavzuda bolajonlar asosan tez yordam va o't o'chirish xodimlari mehnati bilan tanishtiriladi. O't o'chirish mashinasining ishlashi, o't o'chirish jarayonlari bilan yaxshilab tanishib oladilar. So'ngra sujjetli ro'lli markazga o'tib mavzu yaxshiroq tushunarli bo'lishi uchun tarbiyachi yordamida ro'l ijro etiladi. Kerak bo'ladigan jixozlar baklashka, uycha, bolajonlar va hokazo. Undan keyin esa bolajonlarimizga ushbu mashinalarni suratlarini chizish topshirig'i beriladi. Mavzu yakunida esa tez yordamni chaqirish va yong'in chiqganida nima qilish kerakligi albatta tayinlab o'tiladi.

4-hafta: Bizning xayrli(ezgu) ishlarimiz. Ushbu mavzu bo'yicha dastlab tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashadi xayrli ish nimaligi, uni kimlar qilishini tushuntirib beradi. So'ngra ulardan o'zlari bajargan xayrli ishlarni so'raydi. Ularga topshiriq beriladi. Yig'layotgan bolani tinchlantirish uchun o'yinchoq yasash. Ularga lego, plastilin, slaym, rangli qog'oz singarilarni beramiz. Bir chekkada o'zimiz ishni bajarilish jarayonini kuzatamiz. Eng muhimi bolalar mustaqil nimani yasamoqchiligini, uni kimga taqdim qilishini va u uchun nimalar kerakligini to'g'ri aniqlab olishlarida ishidan bittasi yoki ikkitasi nimanidir boshidan oxirigacha o'zi yasar bora bora bu jarayonlar bolarga odatga aylanadi. Ushbu vazifalar bolalarda ijodkorlikni shakllantirib beradi. Bu jarayonda tarbiyachining zukkoligi, ijodkorligi birinchi darajalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ilk qadam davlat dasturi.
2. R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. Pedagogika. O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T,: 2008.

AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIMDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR ORQALI DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

D.B.Jonibekov,

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi o'qituvchisi, GulDU doktoranti, malakaoshirishdoniyor@gmail.com

ANNOTATSIYA. Maqolada axborotlashtirilgan ta'limda pedagogik dasturiy vositalar orqali didaktik materiallar yaratish metodikasi bo'ycha ma'lumotlar keltirilgan. Pedagogik dasturiy vositalar orqali didaktik materiallar yaratish metodikasi Crossword Forge dasturi va google form bulutli texnologiyasi misolida qarab chiqilgan. Crossword Forge dasturida o'quv mashg'ulotlari uchun turli xildagi boshqotirmalar yaratish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Google form bulutli texnologiyasida so'rov yoki anketa joylashtirilgan alohida veb-sahifasi yordamida testlar, ariza formasi, elektron pochta manzillarini to'plash sahifasi, ovoz berish va boshqa turdagi didaktik materiallarni tayyorlash bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: dastur, didaktik material, pedagogik dasturiy vosita,

Crossword Forge, google form, boshqotirma, test.

Jahonda fan-texnika taraqqiyoti, har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uning kelajagini belgilab borishda insonlar intellektual salohiyati muhimligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga dunyo bo‘yicha ilm-fan rivojining bugungi holati, ayniqsa, bu borada yoshlarga bilim berish keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta’lim oluvchilar oldida ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlashdek vazifani qo‘ymoqda. Xususan, umumiy o‘rta ta’limda intellektual salohiyatni shakllantirish, aniqlash jarayonini samarali tashkil etishda fundamental, aniq va tabiiy fanlar qamrovida zamonaviy axborot texnologiyalarni amaliy qo‘llash hamda ulardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar keng imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik dasturiy vositalar o‘quvchilarning kreativ fikrlash, ijodkorlik, xotira, tashabbuskorlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda juda ko‘plab pedagogik dasturiy vositalar yaratilgan. Bunday dasturlar qatoriga Crossword Forge dasturini keltirish mumkin.


Crossword Forge - bu o‘zingizning krossvordlaringizni yaratish uchun ajoyib dastur. O‘zingizning jumboqlaringizni osongina yarating.

Crossword Forge dasturi krossvordlar tuzishga mo‘ljallangan dasturlarning oldingi versiyalariga qaraganda 25 barobar tezroq tuzish imkoniyatiga ega.


Agar siz chindan ham krossvordni yaxshi ko‘rsangiz, bu siz uchun krossvordlarning qiziqarli dunyosini kashf qilishning ajoyib vaqtidir. Yana Crossword Forge kabi professional dasturdan yaxshiroq nima bor.


Do‘stlaringiz va oilangizni tekshiring. Gazeta va jurnallardan olingan krossvordlar monotonlik va takrorlanish bilan tugaydi. Crossword Forge yordamida turli darajadagi qiyinchiliklarga ega bo‘lgan o‘z so‘z jumboqlarini yarating. Bu ilovada tezkor krossvordlarga ega bo‘lgan samarali imkoniyatlar mavjud bo‘lib, uning yordamida siz do‘stlaringiz va oilangizni sinab ko‘rishingiz mumkin.

Crossword Forge -da mavjud bo‘lgan variantlar orasida krossvordda aniq so‘zni topishga yordam beradigan turli tilli lug‘atlarga kirish qobiliyatini, krossvordlarni taqdim etish uchun turli xil grafik jihatlarni tanlash qobiliyatini va uni chop etish va eksport qilish funksiyalarini ta’kidlash kerak. Tayyor boshqotirmani Text, PDF, rasm yoki veb ko‘rinishda eksport qilish mumkin.



Crossword Forge bolalar, o‘quvchilar va kattalar uchun so‘z qidirish o‘yinlari kabi boshqa o‘yinlarni yaratish imkoniyatini beradi.





Across

2. Fizikaning harakat qonunlarini o'rganadigan bo'limi nima [DINAMIKA]
4. Kuch birligi nima? [NYUTON]

Down

1. Kuchni qaysi asbob bilan o'lchaymiz? [DINAMOMETR]
3. Jismlarning o'zaro ta'sirini tavsiflaydigan kattalik nima? [KUCH]


Crossword Forgeni yuklab oling va turli ko‘rinishda va mazmunli krossvordlarni o‘zingiz yaratishdan zavqlaning!

Yuklab olish uchun: https://www.softsalad.ru/software/znaniya/razvivayushchie-programmy/crossword-forge/download


GoogleForm – bu Google Drive bulutli xotirasiga ulangan xizmatlardan biridir. U bilan ishlash uchun sizga faqat Gmail pochtasi kerak bo‘ladi.

- Ilova brauzer orqali ishlaydi. Unda siz istalgan miqdordagi shakllarni bepul yaratishingiz mumkin.
- Forma - bu so‘rov yoki anketa joylashtirilgan alohida veb-sahifa. Uning yordami bilan:
- testlar;
- Ariza formasi;
- Elektron pochta manzillarini to‘plash sahifasi;
- Ovoz berish va boshqalar.


Avvalo, Google Docx xizmat sahifasiga o‘ting https://docs.google.com/document/u/0/. Agar kerak bo‘lsa, tizimga kiring.




Google formda test yaratish ketma-ketligini ko‘rib chiqamiz




Ta’lim shablonidan **«test»** shaklini tanlang:




- So‘rov turi tanlanadi(masalan, ***Один из список***)
- Test savoli yoki so‘rov mazmuni (***Вопрос без заголовку***) kiritiladi.
- Tanlov variantlari kiritiladi (***Вариант 1***) va keragicha variantlar qo‘shib boriladi.



Ответи bo‘limiga kirilib testni yoki so‘rov formasining to‘g‘ri variant belgilanadi, ball kiritiladi va **Готово** tugmasi bosiladi.




Keying so‘rov formasini yaratish uchun **добавит вопрос** tugmasi bosiladi.




Test tuzib 

bo‘lingach tugmasi bosiladi.

Havola nushalanib olingach, o‘quvchilarga jo‘natiladi (electron pochta, telegram guruh va hakozo).



Natijalar ответи bo‘limiga keladi va diagramma hamda **google таблицы** faylida natija olinishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020-yil 29-dekabr).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori.

3. Djaylavov A. Ta’lim sohasida interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish texnologiyalari (malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun uslubiy qo‘llanma). - A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2016.

4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.

Elektron ta’lim resurslari

1. https://www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari Milliy bazasi.

2. http://www.rtm.uz - Respublika ta’lim markazi sayti.

3. www.ziyonet.uz - ZiyoNET ta’lim axborot tarmog‘i.

4. https://www.google.com/intl/en-GB/forms/about/

TABIIY FANLARNI O‘QTISHDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Mamatkulova Nigora Sherbekovna,

Sirdaryo VPYMO”MM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim shakllari va ularning ahamiyati, zamonaviy ta’lim shakllaridan hisoblangan STEAM ta’limning rivojlanishi, imkoniyatlari, yutuqlari haqida keng mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika

Аннотация. В данной статье широко обсуждаются современные формы обучения и их значение, развитие, возможности и достижения STEAM-образования, которые рассматриваются как современные формы обучения.
Ключевые слова: STEAM, наука, технология, техника, искусство, математика.
Abstract. In this article, modern forms of education and their importance, the development, opportunities, and achievements of STEAM education, which are considered as modern forms of education, are widely discussed.
Keywords: STEAM, science, technology, engineering, art, mathematics

Zamonaviy ta’limni tashkil etishda qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bog‘liq bo‘ladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta e`tibor qaratish lozim.Yurtboshimiz ta’kidlaganidek yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo‘naltirishimiz kerak.

Mashg‘ulotlarni tashkil etishda kasb, hunar egalari taklif etilsa, ular o‘z kasblari haqida nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘rsatib bersa, bu bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Kelajakda kasb tanlashda, o‘z yo‘nalishini topib oladilar.

STEAM beshta fanning har birini alohida o‘rganish o‘rniga, ularni yagona o‘quv tizimiga birlashtiradi. STEAM ta’limida beshta sohani yagona ta’lim tizimida integratsiyalashuviga asoslangan.

Asosiy maqsad fanlarni "yodlash" emas, balki o‘quvchilarning mantiqiy ijodiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-texnik kasb tanlash motivatsiyasini oshirish, innovatsion yechimlarni moslashtirish va topish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

STEAM – ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyon qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi.

Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish STEAM – dasturi bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

STEAM – mashg‘ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo‘lganidan bolalar mashg‘ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o‘tganligini sezmay qoladilar.


Boshlang‘ich sinf darslarida STEAM texnologiyasidan foydalanish yo‘llari bo‘yicha quyidagicha namunalarni keltiramiz.

TABIATNI QANDAY O‘RGANAMIZ mavzusida STEAM texnologiyasidan foydalanish;

Retseptorlar nimaga xizmat qiladi? Ma’lumki, tevarak-atrofimizdagi muhit

xilma-xil. Undagi tovushlar, hidlar, harorat rang-barang bo‘ladi. Atrof-muhit bilan odam organizmi bir-biriga muttasil bog‘liq. Bu bog‘lanish sezgi organlari orqali ta’minlanadi, ya’ni tashqi muhitning barcha omillari sezgi organlariga ta’sir etadi va ularning bosh miyadagi markazlariga qabul qilinadi. Shuning uchun Sezgi organlari bizga atrofimizdagi borliq haqida axborot beradi. Ular mo‘ljalni to‘g‘ri olishimizga yordam beradi va xavf-xatardan ogoh etadi. Nima deb o‘ylaysiz, inson uchun sezgi organlaridan eng muhimi qaysi? Deylik, olamda hech bir tovushni eshitmaysiz, ko‘zingiz ko‘rmaydi, sho‘r va achchiqni ajrata olmaysiz, atir hidini bilmaysiz, issiq va sovuqni sezmaysiz. Bundan qanday holatlarga tushish mumkin?

Sezgi organlarining vazifalarini tushuntiring.



Sezgi organlarini bosh miya boshqaradi. Tevarak olamdan olinayotgan barcha ma’lumotlar bosh miyaga yuboriladi. Har bir sezgi a’zosi uchun bosh miyaning biror qismi javob beradi. Miya yuborilgan ma’lumotlarni tahlil qiladi va bajarishga buyruq beradi. O‘quvchilar darslikda berilgan ma’lumotlar bilan tanishadilar. Sezgi organlarini asrash va parvarishlash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

S – TABIIY FANLAR “nima?, qachon? qayerda?” metodi

Ko‘z, til, burun, quloq, barmoqlar sezgi organlardir. Bu sezgi organlari qachon qanday holatda ishlatiladi? O‘quvchilar har bir sezgi organi bajaradigan funksiyani amalda ko‘rsatadilar va ularning qanday vazifani bajarishini tushuntirib beradilar hamda do‘stlari bilan muhokama qiladilar.

Ko‘rish odamning mehnat faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Ko‘rish orqali inson o‘qishni, yozishni, mehnatning boshqa turlarini o‘rganadi. Inson hayotda ba’zi voqealarni ko‘rganidan ko‘ra eshitganida to‘liqroq tushunchaga ega bo‘ladi. Masalan, karnay-surnay ovozi. Insonlarning umri tovushlar dunyosining uzluksiz ta’siri ostida o‘tadi.

Inson terisi og‘riqni, haroratni va bosimni seza oladi.

T – TEXNOLOGIYA

Ikkita qalam olib, ularning uchlarini biriktirish uchun avval bitta ko‘z bilan, keyin ikkita ko‘z bilan qaraydilar. Tajribani bajarib bo‘lganlaridan so‘ng ikkita ko‘z bilan ko‘rish oson, bitta ko‘z bilan ko‘rish qiyin ekanini tushunib, o‘z fikrlarini bildiradilar.

E - MUHANDISLIK

Sezgi organlarida sezishni ta’minlovchi retseptorlar joylashganini, ular ma’lumot qabul qilishini aytadilar. Shuningdek, quloq eshitish, burun hid bilish, til ta’m bilish uchun xizmat qilishi, teri esa paypaslash yoki ushlash orqali jismlarning qattiqligi, yumshoqligi kabilarni his qilishini tushuntiradilar.

A – SAN’AT

Har bir barmog‘ingizni siyohli bo‘yoqqa botirib, oq qog‘ozga bosing. Oq qog‘ozda hosil bo‘lgan barmoq izlari tasvirini taqqoslang. Barmoq izlaringiz qanday shaklda?

Bunda o‘quvchida tahlil qilish, solishtirish va farqlarni taqqoslash ko‘nikmalari shakllanadi.

M – MATEMATIKA

Sezgi organlarini sanab bering. O‘quvchilar narsalarning shakli, hidi, ta’mi haqida sezgi organlari orqali ma’lumot olinishi to‘g‘risida gapiradilar. Shaklni ko‘z, hidni burun, ta’mni til yordamida aniqlanishi haqida fikr bildiradilar.

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil fikrlashga, g‘oyalarni ilgari surishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tabiiy fanlar Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining1-sinfi uchun darslik Toshkent – 2021.

2. Tabiiy fanlar 3 [Matn]: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / Z. B. Sangirova [va boshq.]. – Toshkent:Respublika ta’lim markazi, 2022. – 136 b.

3. Internet materiallari: http://go.mail.ru/search?. “Ta’lim texnologiyalari".

MAKTAB O‘QUVCHILARI UCHUN LOYIHAGA ASOSLANGAN TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Qarshiyeva Mahbuba Abduvali qizi,

Guliston shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi

qarshiyevamahbubaa@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada maktab o‘quvchilari tomonidan loyiha ishi tayyorlash, loyihadan ko‘zlangan maqsad, amalga oshirish bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Loyiha ishining turlari, ma’lumot olish metodi, ma’lumotlarni qayd etish usullari, loyiha mahsuloti yuzasidan hisobot tayyorlash, faoliyatning natijasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: loyiha ishi, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy ko‘nikma, refleksiya kommunikativ kompetensiya, innovatsion loyiha.

Аннотация. В статье даны сведения о том, как учащиеся могут правильно подготовить проектную работу, а также цель проектной работы и этапы её достижения. В материале приводится информация о методе работы над проектом, методах информирования, методах регистрации данных, отчёте готового проекта и результатах деятельности.

Abstract. The article discusses the students’ preparation of project work, the project's goal, and the stages of its implementation. There is information about the different types of project work, the methods for gathering information, the methods for recording data, the preparation of a report on the project product, and the outcome of the activity.

Loyihaga asoslangan ta’lim o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning

bilimlarini mustahkamlaydi va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Loyiha ishini yaratishda guruh bo‘lib ishlash o‘quvchilarning faolligini oshiradi va o‘quv natijalarini yaxshilashga olib keladi.

Loyihaga asoslangan ta’lim maktablarda va boshqa ta’lim muassasalarida har xil va turli darajalarda fanlar yo‘nalishida amalga oshiriladi. Bu turdagi amaliy jarayonlar ta’lim sifatining oshishi, o‘quvchilarning hayotiy bilimlarni egallashiga olib keladi. Maktabda o‘qitiladigan har bitta fan o‘quvchining hayotida muhim rol o‘ynaydi. Biroq bugunga qadar ishlab chiqarish jarayoniga asos bo‘lgan ayrim fanlardagina loyiha ishi qilingan. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim tizimining ham tobora takomillashayotgani, zamonaviy va xalqaro tajribalar asosida tashkil etilayotgani samarali natijani ta’minlamoqda. Hozirgi kunda barcha fan yo‘nalishlarida loyiha ishlarini amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan.

Loyiha ishini bajarish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Maqsadni belgilash. Har qanday loyiha muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘ladi. O‘quvchi o‘zining qiziqishiga asoslanib, hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni topishi kerak.

2.Rejalashtirish. O‘quvchi loyiha maqsadiga erishish uchun vazifalarni va ularni amalga oshirish muddatini belgilaydi.

3.Faoliyat. Loyiha mahsulotini yaratish va natijaga erishishga alohida e’tibor qaratiladi. Unda rejalashtirish bosqichida belgilangan ishlarni bajarish juda muhimdir.

4.Refleksiya. O‘quvchi maqsadga erishdimi yoki yo‘qmi, uning o‘zi va bajargan ishi haqida xulosa chiqarishi muhimdir, bu esa kelgusida samaraliroq ishlashga imkon yaratadi.

Loyiha – bu kompleks faoliyat bo‘lib, bunda o‘quvchi:

-muammoni mustaqil ravishda aniqlaydi;

-ishni amalga oshirish yuzasidan vazifalarni belgilaydi;

-belgilangan maqsadga erishishga olib keladigan faoliyatni amalga oshiradi;

-natijni qo‘lga kiritadi va olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi, o‘z ishining sifatini baholaydi.

Loyiha ishi o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirib, faollikka undaydi. Uning bir qancha afzalliklari bor. Jumladan, mustaqil ravishda ma’lumot izlaydi, muayyan muammoni mustaqil ravishda hal qilishni o‘ranadi, o‘z bilimini amalda qanday qo‘llashni anglaydi, qaysi mavzuni o‘rganishni o‘zi belgilashi mumkin, ijtimoiy ko‘nikma va kompetensiyalar rivojlanadi.

Loyiha ishining turlari:

Loyiha yo‘nalishiga ko‘ra:

- ✓ ijtimoiy loyiha;
- ✓ ekologik loyiha;
- ✓ individual loyiha.

Loyihaning maqsadli vazifasiga ko‘ra:

- ✓ muammoni hal qilish;
- ✓ innovatsion loyiha;
- ✓ marketing loyihasi.

Maktab o‘quvchilari loyiha ishini bajarishidan ko‘zlangan maqsad:

- ijtimoiy muammo va hodisalarni o‘rganish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- o‘quvchining bilimlari, shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;
- dolzarb muammoni hal qilish;
- ilgari mavjud bo‘lmagan yoki muayyan hududda keng qo‘llanilmaydigan foydali mahsulotni yaratish;
- muayyan mavzuga, mahalliy yoki global muammoga boshqa insonlarning e’tiborini jalb qilish.

O‘qituvchi loyiha ishini bajarayotgan o‘quvchilarga tajribaga ega kishi sifatida to‘g‘ri yo‘nalish berishi, yo‘naltiruvchi savollar berish orqali tanlangan usul va yechimlarning kamchiliklarini ko‘rishga ko‘mak berishi kerak. Bunda o‘qituvchi yo‘l boshlovchi bo‘lishi emas, bolalarga bu yo‘lni mustaqil ravishda bosib o‘tishiga imkon yaratishi va ularga ishonch bildirishi lozim.

O‘quvchilar har bir qadamni mustaqil ravishda amalga oshiradi, mavzuni tanlaydi, loyiha ustida ishlashni rejalashtiradi, natijaga erishish uchun rejadagi faoliyatlarni amalga oshiradi.

Loyihaga asoslangan ta’limda ma’lumot olish metodlari:

- kuzatish;
- tajriba;
- o‘lchash;
- taqqoslash;
- intervyu;
- tahlil qilish.

Loyiha ishini bajarish jarayonida ma’lumotlarni qayd etish usullari:

- diagramma, grafik, sxema;
- jadval;
- xarita;
- fotosurat, audio va video materiallar;
- model va prototiplar.

Loyiha ishini bajarish davomida o‘quvchilarda tadqiqotchilik, mulohaza yuritish, ijtimoiy kommunikativlik, o‘zini o‘zi boshqarish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi. Loyiha ishini kuzatish va baholashda o‘qituvchidan tashqari tashqi va ichki ekspert, ota-onalar va tengdoshlar ishtirok etishi mumkin. Loyiha mahsuloti (yakuniy mahsulot)–loyihada olingan ma’lumotlar tahlilining amaliy natijasidir.



O‘quvchi loyiha ishi yuzasidan amalga oshirilgan vazifalarni ish daftariga yozib boradi, hisobot tayyorlaydi va unda quyidagilar aks etadi:

-loyiha ishining maqsadi;

-maqsadga erishish jarayoni, metodlar, ishni bajarish tartibi;

-loyiha mahsuloti va loyiha natijasi;

-o‘quvchining xulosasi.

O‘quvchilarga loyiha ishiga qo‘yilgan talablarni oldindan loyiha ustida ish boshlaganda yetkazish zarur.

Loyiha ishini tayyorlashda o‘qituvchilarning o‘zi bu jarayonga tayyor bo‘lishi, fanlararo o‘rganishni yo‘lga qo‘yishi kashfiyotlar yaratilishining asosiy omili sanaladi. An’anaviy ta’limdan farq qiladigan bu jarayonda o‘quvchining o‘ziga ishonchi ortadi va har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tadi. Eng foydali, muhim tomoni shundaki, o‘quvchi atrof muhitga o‘zgacha nazar bilan boqadi, mustaqil yechimlar qidiradi, yangi taklif va g‘oyalarni ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Pedagogik texnologiya va mahorat”. Toshkent. 2006.
2. “Yangi pedagogik texnologiya asoslari”. Toshkent. 2007.
3. True Education site. *What is project-based learning.*
4. "Sog‘lom avlod tarbiyalashning sirlari". Toshkent. 2016.
5. "Ta’lim-tarbiya nazariyasi" Toshkent – 2021.

O‘QUV JARAYONINI TASHKIL QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

S.Q.Eshqobilov,

A.Avloniy nomidagi MTI, katta o‘qituvchisi

seshkobilov@umail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quv jarayonini samarali tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, didaktik materiallarni onlayn yaratish tizimlari va ularning imkoniyatlari haqida so‘z boradi.*

O‘quv jarayonini samarali tashkil qilishda ta’lim mazmuniga mos bo‘lgan raqamli texnologiyalardan o‘qitish vositasi sifatida ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning turli samarali strategiya va yondashuvlari muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn test topshiriqlari va so‘rovnomalar asosida darslarni olib borish o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Shunday ekan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faol rivojlanishi, har bir sohada raqamlashtirish jadallashib borayotgan bir paytda ta’lim jarayoniga tobora ko‘proq yangi o‘qitish usullarini yaratish va joriy etishni nazarda tutadi. Kompyuterlar, smartfonlar va Internet bizning kundalik va professional hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Hozirgi davrda an’anaviy o‘qitish usullari bilan o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish birmuncha qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Shu munosabat bilan ta’lim tizimi zamonaviy talablarga moslashishi, axborot texnologiyalari yutuqlari, o‘qitishning faol usullaridan foydalangan holda yangi o‘qitish usullarini shakllantirishi va rivojlantirishi zarur.

Ta’lim jarayoniga o‘yin usullarini joriy etish amaliy malakalarni, fikrlash va

mantiqni rivojlantiradi, shuningdek, materialni o‘rganish samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, o‘yin elementlari o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga jalb qilish darajasini oshiradi. Internet tarmog‘i imkoniyatlaridan o‘quvchilar smartfonlari yordamida samarali interaktiv ta’lim muhitini tashkil etish mumkin.

So‘rovnoma va test topshiriqlarni tayyorlashda matn muxarrirlari, topshiriqlar yaratishda foydalaniladigan maxsus darsturlar va online tizimlardan foydalanishimiz mumkin. Bugungi kunda barcha sohalarini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalardan samarali foydalanish jarayonida internet tarmog‘i imkoniyatlaridan muhim ahamiyat kasb etadi. So‘rovnoma va test topshiriqlari bir necha usulda taqdim etilishi mumkin, jumladan: qog‘oz ko‘rinishida, komputerda oflayn rejimda va internet tarmog‘ida so‘rovnoma havola (link)lar.

Online so‘rovnoma yaratish tizimlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanishimiz mumkin:

Fan yo‘nalishida o‘quvchilar bilimlarini aniqlash

Seminar va o‘quvlarda teskari aloqa tizimini yaratish

Tinglovchilar ehtiyojlarini aniqlash

Interaktiv topshiriqlar tayyorlash

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

o‘rgatuvchi dasturlar – o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;

test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;

mashq qildirgichlar – avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

Internet tarmog‘ida online so‘rovnoma yoki test topshiriqlarini yaratishga mo‘ljallangan ko‘pgina tizimlar mavjud bo‘lib, buning uchun qidiruv tizimlariga “online so‘rovnoma”, “online survey” kabi kalit so‘zlar orqali osongina topib olishimiz mumkin.

Online so‘rovnoma tizimlaridan foydalanishning ustunlik taraflari:

- Tezkorlik;
- Tahlil qilish osonligi;
- Shaffoflik;
- Tinglovchilar uchun foydalanish osonligi;
- Moslashuvchanligi;
- Tanlash imkoniyati;

So‘rovnoma shaklini oson o‘zgartirish imkoniyati.

Onlayn so‘rovnoma va test topshiriqlarini tayyorlashda tizimlariga Kahoot (kahoot.it), Quizizz (quizizz.com), strawpoll (strawpoll.com), LearningApps (LearningApps.org), mentimeter.com va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin.

Kahoot o‘yinga asoslangan o‘quv platformasi bo‘lib, maktablar va boshqa ta’lim muassasalarida ta’lim texnologiyasi sifatida foydalaniladi. Uning o‘quv o‘yinlari "kahoots" foydalanuvchi tomonidan yaratilgan ko‘p tanlovli viktorinalar bo‘lib, ularga veb-brauzer yoki Kahoot ilovasi orqali kirish mumkin. O‘quvchilar bilimini tekshirish, formativ baholash, o‘quvchilar o‘rtasida viktorinalar o‘tkazishda foydalanish mumkin.

Ushbu platforma istalgan mavzuda va istalgan tilda topshiriqlaringizni tuzish imkonini beradi, yoki ilovaning boshqa foydalanuvchilari tomonidan ilgari yaratilgan millionlab vazifalarni o‘z ichiga olgan kutubxonada tayyor tematik test yoki so‘rovni tanlashingiz mumkin. O‘qitishda qator afzalliklarga ega bo‘lgan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘quv jarayonini yangicha tashkil etish imkonini beradi, uning amaliy yo‘nalishini oshiradi va o‘quvchilarning intellektual salohiyatni rivojlantiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda AKT vositalaridan samarali foydalanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.

TA’LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSIYALAR

Karimova Shohsanam Ilhom qizi, Rajabaliyeva Mukarram Abdujalilovna, G‘afforova Sayyora Suvonqulovna

shohsanamilhomovna@gmail.com, rajabaliyevamukarram@gmail.com

ANNOTATSIYA**.** Maqolada umumta’lim maktablarida aralash ta’lim metodikasini ishlab chiqish va ulardan foydalanish aralash ta’lim metodlari turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Aralash ta’lim (blended learining), mixed modern struction, texnologiya, zamonaviy metodlar online, offline, mustaqil ta’lim.*

KIRISH

Internet texnologiyalarining rivojlanishi internetda o‘qish va o‘qitish jarayonini amalga oshirishga imkon yaratdi. Onlayn ta’lim masofaviy shaklda talabalarga ta’lim olish imkoniyatini berdi va bundan tashqari o‘qituvchilar endilikda o‘z kurslarida tanqidiy fikrlashni, hamkorlik va muammolarni hal qilishni, o‘quvchilarni rag‘batlantirishni onlayn ilovalarni boshqarish orqali amalga oshirmoqda. Biroq o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yuzma-yuz muloqotning yo‘qligi o‘quvchilarning yetarli darajada pedagogik bilimga ega bo‘lmaslikka to‘siq yaratadi. Masalan, o‘zinio‘zi boshqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan talaba onlayn ta’limda topshiriqlarni bajarishda vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rossiyada dastlab «aralashtirilgan ta'lim» atamasi aniq ta'rifga ega emas edi.

Adabiyotda bir vaqtning o'zida o'xshash ma'noga ega bo'lgan bir nechta atamalar ishlatilgan: «aralashtirilgan ta'lim» (blended learning), «gibrid ta'lim»(hybrid learning), shuningdek, «texnologiya-vositachi ta'lim» (technology-mediatedin struction) va «aralash rejimdagi ta'lim» (mixed-modein struction). Online ta'limning kamchiliklarini yengillashtirish uchun yangi yondashuv aralash ta'lim (*Blended Learning*) paydo bo'ldi. Aralash ta'lim ko'p qirrali ta'lim tizimi bo'lib, o'quv tajribasini samaralashtiradi va mazmunli ta'lim natijalarini oshiradi. Aralash ta'lim an'anaviy, masofaviy va ineraktiv ta'limning birgalikda olib borilishidir. Shu ma'noda, ko'pchilik tadqiqotchilar orasida aralash ta'lim ommalashdi. Ammo 2006-yilda «Aralash ta'lim qo'llanmasi» nashr etilishi bilan vaziyat o'zgardi. Aynan u yerda aralash ta'limning aniq ta'rifi yuzma-yuz o'qitish bilan kompyuter boshqariladigan ta'limning kombinatsiyasi sifatida berilgan edi. «Aralash ta'limni aniqlash» ma'ruzasida aralash ta'lim tushunchasi "internet va electron ommaviy axborot vositalarini, o'qituvchi va talabalarning sinfda jismoniy ishtirokini talab qiladigan shakllar bilan birlashtirish orqali taqdim etilgan imkoniyatlar qatori"deb ta'riflaydi.

Respublikamiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'qitish tizimini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqoza etmoqda. Elektron ta'lim jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun aralash ta'lim (Blended Learning) asosida ta'lim tizimi tashkil etishni yo'lga qo'yish ta'lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta'lim ananaviy va elektron ta'lim tizimida o'qitish ishlarini takomillashtrish, ommalashtirish, aralash ta'lim bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o'rganish aralash ta'lim milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim olishning internet texnologiyalariga asoslanganligini inobatga olgan holda, aralash ta'limni qo'llash metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan hisoblanadi. Aralash ta'lim zamonaviy ta'limning nisbatan yangi va tobora ommalashib borayotgan shakli sanalib, onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga soslangan o'qitish shaklidir. Elektron ta'lim qanchalik qulay bo'lmasin, ana'naviy ta'lim natijasida olinadigan nutq va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarning rivojlanish darajasini bera olmaydi. Shunga qaramay elektron ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan samarali natija bermoqda. Buning natijasida an'anaviy ta'limning elektron ta'lim bilan irgalikdagi, ya'ni aralashgan holdagi turi samarali natija berishi yaqqol ko'rinmoqda. Aralash ta'lim an'anaviy,masofaviy va ineraktiv ta'limning birgalikda olb borilishidir. An'anaviy ta'lim insonlarda muloqot qobiliyatini rivojlantirib, ijtimoiylashrtirsa, elektron ta'lim bilim olish jarayonini tezlashtiriradi.

MUHOKAMA

Ushbu metodni 2007-yilda Amerika maktabining kimyo o'qituvchilari Jonatan Bergman va Aaron Sams ixtiro qilgan. Keyinchalik boshqa fan o'qituvchilari ham undan foydalana boshladilar. O'quvchilar uyda internetga kirish

imkoniga ega bo‘lgan o‘zlarining electron qurilmalari yordamida onlayn o‘quv muhitida ishlaydilar, yangi material bilan tanishadilar yoki o‘rganilayotgan materialni mustahkamlaydilar. Darsda o‘rganilganlar mustahkamlanadi va olingan bilimlar yangilanadi, ular seminar, rolli o‘yin, loyiha faoliyati va boshqa interaktiv shakllarda o‘tkazilishi mumkin.Yangi material bilan ishlashda, Moodle kabi LMS (ta’limni boshqarish tizimlari) dan foydalanish o‘qituvchiga o‘quvchilarning yangi materialni tushunishlarini darhol tekshirish imkonini beradi. Buning uchun faqat tegishli vazifalarni yaratish va ularni LMSga yuklash talab etiladi. Uyda yangi materialni o‘zlashtirish muvaffaqiyati haqida ma’lumot har bir talaba o‘qituvchiga dars ssenariysini tezda tuzatishga imkon beradi. Masalan, o‘qituvchi yangi materialni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan o‘quvchilar uchun rolli o‘yin tashkil qilishi va ayni shu vaqt ichida uyda yangi material bilan tanishmagan yoki uni tushunmagan talabalar guruhi bilan ham ishlashi mumkin.

▶ Amalga oshirish uchun texnik talablar: O‘quvchilar uyda Internetga ulangan elektron qurilmalarga ega.

▶ Afzalligi: butun sinfni yangi material bilan frontal ravishda tanishtirish zaruratini yo‘q qiladi, LMS dan foydalanganda talabalarning darsga tayyorligini hisobga olgan holda dars qurish imkonini beradi.

▶ Kamchiliklari: O‘qituvchi bolalar uchun test topshiriqlarini tayyorlashi kerak.

▶O‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar: darslarni interfaol shaklda o‘tkazish qobiliyati va LMS bilan ishlash qobiliyati.

▶ Amalga oshirishning murakkabligi: bitta o‘qituvchi o‘z fanidan amalga oshirishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, elektron ta’lim jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun blended learning (aralash ta’lim) asosida ta’lim tizimi tashkil etishni yo’lga qo’yish ta’lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta’lim ananaviy va masofali ta’lim tizimida o’qitish ishlarini takomillashtrish, ommalashtirish, aralash ta’lim bo’yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o’rganish aralash ta’lim milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абрамова Я.К. Смешанное обучение как инновационная образовательная технология // Перспективы развития информационных технологий. 2014. №17. С. 115-119.

2. Богоряд Н.В., Лысунец Т.Б. Изменение роли преподавателя в концепции смешанного обучения // В мире научных открытий. 2014. №3(51). С. 76-81.

3. Н.А.Муслимов, М.Ҳ.Усмонбоева, Д.М.Сайфуров, А.Б.Тўраев. Инновацион таълим технологиялари. Тошкент, 2015.

4. Н.Боймуродов. Амалий психология. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2008.

5. Каримов, Ў. К. Г. К. ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ АХБОРОТЛАШУВ.

6. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). THE IMPORTANCE OF

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS. *Журнал естественных наук, 1*(1).

7. Каримов, У., & Каримова, Г. (2018). ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ. In *Перспективные информационные.*

TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ETNOMADANIYAT OMILI

O.Shirinov

Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi

Shaxs rivojlanishini ta'minlash teologik, falsafiy, psixologik, etnografik, tibbiy, huquqiy, antropologik, iqtisodiy, sotsiologik ta'limotlarning asosini tashkil etadi. Mazkur yo'nalishda tadqiqotchilar tomonidan talaygina tarixiy manbalar jamlangan, empirik tadqiqotlarning xulosalari tarzida asarlar yozilgan[32]. Milliy tarbiyaning manfaatini himoyalash maqsadida komparativ (qiyosiy-tarixiy) metod asosida ularni o'rganib, tarbiyaviy faoliyatda qo'llash mumkin. Bu o'z navbatida alohida sub'yektning xulq namunasida, ijtimoiy guruh a'zolarining hamjihatligida (inoqligida) ifodalanib, jamiyat hayotining ma'naviy poydevori ta'minlanadi. Shu tariqa etnomadaniyatga qadriyatli munosabatda bo'lishni shakllanirish va rivojlantirish masalasi ta'lim-tarbiyaning oldida turgan bosh vazifa bo'lib qolmoqda.

Tarbiyaviy faoliyatning xulosaviy ko'rinishida ta'lim oluvchi shaxsida yangi sifat va fazilatlar mujassamlashib, xulq ko'rinshida ifodalanadi. Agarda, ijtimoiy rollarni bajarish davomida har bir inson tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanib, bobo, buvi, ota, ona, aka, opa, qaynona, qaynota, ustoz, qo'shni yoki yaqin qarindosh kabi mavqe'larda amal qilishini inobatga olsak. Bu jarayonga har bir xalq tarixiy tajribasidan kelib chiqqan holda munosabatda bo'lishi mumkinki. Agarda, I.M.Jabborovning o'zbek xalqi tarkibidag uchta yirik etnik guruh (subetnos) mavjud bo'lganligini[33] inobatga olsak. Etnomadaniyatga qadriyatli munosabatga bo'lishni shakllantirishda bu o'ziga xoslik inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Agarda, harakat to'rtta fazadan iborat bo'lsa, har qanday o'zaro ta'sir ikkita ko'rsatkich asosida kechadi: a) insonni diqqati boshqa birovlarning qiziqishlariga qaratilgan bo'ladi; b) diqqatni o'zining qiziqishlariga yo'naltirilganligi[34]. Sub'yektda qaysi sifat va fazilatlarni shakllantirish muhimligini, jamiyatda turli shakl va ko'rinishlarda ifodalangan ijtimoiy-psixologik jarayon belgilab beradi[35]. "Gar inson ekansan, xalq manfaati yo'lida harakat qil, toki xalq o'z xohish-istagi bilan sening

---

[32] Шипилина Л.А. Методология и методы психолого-педагогических исследований: учеб. пособие для аспирантов и магистрантов по направлению «Педагогика». - М.: Флинта, 2011. - 204 с., Шнайдер Л.Б., Вальцев С.В. Социально-психологические особенности национального менталитета. - М.: Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: МОДЭК, 2009. - 207 с.

[33] Жабборов И.М. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Т.: Ўқитувчи. 2003. 27- бет.

[34] Дроздова Н.В. Социальная психология. – Минск: МГЭУ им. А.Д.Сахарова, 2012. – С.37.

[35] Андреева Г. М. Социальная психология. – М., 2000., Майерс Д. Социальная психология. – СПб., 1998.

xizmatingda bo‘lsin[36]” deganda Majid Xavofiy ham ijtimoiy-psixologik jarayonlarni nazarda tutgan. Aniqrog‘i, yuzaga kelgan muammoni sababi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillarning mazmunini aniqlanishi natijasida, bu holat boshqa takrorllanmasligini ta’minlash uchun jamiyat ijtimoiy buyurtmachi sifatida ta’lim-tarbiya institutiga qator vazifalarni bajarishni belgilab beradi.

Tarbiyaviy faoliyat, murakkab tuzilishga ega bo‘lib, uni tizimli tarzda olib borilgandagina quyidagilarni shakllantirishga erishish mumkin:

axloqiy me’yorlarni turlari, maishiy va ijtimoiy hayot tarzida amal qiluvchi qoidalarni o‘zlashtirishga;

dunyoqarashni shakllantirib, anglangan hayotiy qadriyatlarni egallash yo‘llarini o‘zlashtirishga;

ijtimoiy faollikka, atrof-muhit va insonni o‘ziga nisbatan e’tiborli bo‘lishn o‘zlashtirishga;

mehr ko‘rsatish, ijobiy hissiyotlarni namoyon etib, salbiy hissiyotlarni yashirish tarzini egallashni o‘zlashtirishga;

bilim olish va undan foydalanishni o‘zlashtirishga;

axborot texnologiyalaridan vosita sifatida foydalanashni o‘zlashtirishga;

diniy, milliy, kasbiy, etnoslararo, ijtimoiy tolerant[37] va intolerant[38] bo‘lishni o‘zlashtirishga;

ijtimoiy va kasbiy muloqotga kirishishni o‘zlashtirishga;

hamkorlikda faoliyat yuritishni o‘zlashtirishga;

ijtimoiy rollarni egallashni o‘zlashtirishga;

ijtimoiy, kasbiy mas’uliyatni mohiyatini o‘zlashtirishga;

funktsional savodli bo‘lib, maqsadni tanlash va unga erishish yo‘llarini o‘zlashtirishga;

kasb tanlash, kasbiy muhitga moslashishni o‘zlashtirish kabilarga.

Tarbiyaviy faoliyatning natijasi namunaviy xulq namuasini o‘zida mujassam etgan shaxsni, fidoiy kasb sohibini shakllantirish uchun zarur hisoblanib, uni mazmundorligini ta’minlashda tarbiyaviy faoliyat, ta’limiy faoliyat bilan sintezlashadi. Sintezlashuv natijasida jamiyat uchun yuksak maqsad va e’tiqod sohibi, bilimli va aqlli, yuksak did, his-tuyg‘ularini boshqaraoladigan, o‘ziga, atrofdagilar va turli predmetlarga maishiy va madaniy me’yorlar darajasida munosabatda bo‘ladigan. Bir so‘z bilan aytganda - individual tarzda ma’naviy xossalarni o‘zida mujassam etgan shaxslarni tarbiyalash maqsadi ta’lim va tarbiyani vazifalari jihatidan institutlashuvini ta’minlaydi.

Ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat masalasi tarixiy-ilmiy va zamonaviy-ilmiy

---

[36] Мутафаккирлар ахлоқ ва адолат ҳақида. Мажид Хавофий Равзати хулд рисоласидан. – Тошкент: Адолат, 1995. 12-бет.

[37] Этимологик жиҳатдан толерант тушунчаси лотин (tolerare) тилидан олинган бўлиб, чидамли, бардошли деган маъноларни англатади. Ҳар бир миллий маданиятда уни эквиваленти мавжуд бўлиб, ўзбек тилида сабр тушунчаси толерант тушунчасига эквиватент ҳисобланади.

[38] Ўзига ижобий муносабатда бўлишнинг шаклланганлиги. Мазкур биринчи навбатда ўз ҳис-туйғулари, шахсий қадр-қиммат ва шарфни англаганликда, салбий эмоциялар ва ҳисларни баратарф этиш устида ишлашда ўз аксини топади.

ahamiyat kasb etib, “inson faoliyati bilim va ish-harakat bilan belgilanadi[39]”. Uning tarixiy-ilmiy ahmiyatini tarixiy davrlarda dunyonining turli hududida yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar, olimu fuzalolar tomonidan komil inson (barkamol inson) namunasi haqida o‘z qarashlarini bayon etagnliklarini, uni tarbiyalashda ta’sir ko‘rsatadigan omillar (masalan yoga va tasavvufda psixotexnika) haqida munosabat bildirganliklarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Masalani zamonaviy-ilmiy ahamiyatini esa, ijtimoiy munosabatlarda “akmetexnologiya”, “innovatsiyaviy taraqqiyot”, “intellektlashuv”, “intellektual ta’minot”, “intellektual resurs”, “innovatsiyaviy faoliyat”, “xizmat ko‘rsatishda mijoztsentrlashtirilgan yondashuv”, “tahliliy faoliyat”, “texnologiyalashuv”, “zamonaviy to‘qnashuv”, “axborot xuruji”, “ishlab chiqarishning antrotsentristiklashuvi”, “alfa trening”, “beta trening”, “biotrening”, “iste’molichi va ishlab chiqaruvchining manfaatlari”, “tarmoqdagi murabbiy”, yoshi keksalarga nisbatan qo‘llaniladagina “uchinchi yosh” kabi tushunchalarni shiddat bilan qo‘llanilishida. Ya’ni, bilimlar tizimi takomillashib, inson va uning hayot tarziga oid bo‘lgan stereotiplarni o‘zgarib borilayotganligi bilan izohlash mumkin. Har ikkala yondashuvning zamirida inson psixologiyasiga ta’luqli bo‘lgan g‘oyalar metodologiya tariqasida mujassamlashgan bo‘lib, natijada nafaqat insonga (insonshunoslikka), balki bizni ihota etgan muhitga (noosferaga) oid bo‘lgan bilimlarga talab ortib bormoqdaki, psixologik bilimlar bundan mustasno emas. Ta’lim-tarbiya taraqqiyotni ta’minlovchi muhim omil hisoblanilsa, jamiyat hayotini ta’minlash va islohotlarni amalga oshirishda darajalarda (sohaviyligi, tarixiyligi kabi belgilari bo‘yicha) ishtirok etsa. Bu o‘z navbatida ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat takomillashuv xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi va unda ijtimoiy insntitut sifatida ta’lim dominantlik qiladi. Ta’lim, jamiyatning har bir sohasini tizim tarzida amal qilishi va rivojlanish dinamikasini ta’minlash uchun amal qilib, yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etish, takomillashtirish, ularni diagnostikasini amalga oshirish, prognoz qilish, sohaga qaratilgan tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni zararlantirishning usul va vositalaridpn foydalanish tartibini aniqlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

2.Jabborov I.M. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – T.: O‘qituvchi. 2003. 27- bet.

3.Drozdova N.V. Sotsialnaya psixologiya. – Minsk: MGEU im. A.D.Saxarova, 2012. – S.37.

4.Andreeva G. M. Sotsialnaya psixologiya. – M., 2000., Mayers D. Sotsialnaya psixologiya. – SPb., 1998.

5.Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. Majid Xavofiy Ravzati huld risolasidan. – Toshkent: Adolat, 1995. 12-bet.

Etimologik jihatdan tolerant tushunchasi lotin (tolerare) tilidan olingan bo‘lib, chidamli, bardoshli degan ma’nolarni anglatadi. Har bir milliy madaniyatda uni ekvivalenti mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida sabr tushunchasi tolerant tushunchasiga

[39] Мутафаккирлар ахлоқ ва адолат ҳақида. Жалолиддин Давоний Ахлоқи Жалолий рисоласидан. – Тошкент: Адолат, 1995. 28-бет.

ekvivatent hisoblanadi.

O‘ziga ijobiy munosabatda bo‘lishning shakllanganligi. Mazkur birinchi navbatda o‘z his-tuyg‘ulari, shaxsiy qadr-qimmat va sharfni anglaganlikda, salbiy emotsiyalar va hislarni baratarf etish ustida ishlashda o‘z aksini topadi.

MALAKA OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kozim Eshquvatov,
Sirdaryo viloyati pedagogika markazi, dotsenti

Ta’lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. Ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirnsh yo‘llari izlanmoqda, ta’limda yangi axborot texnologiyalarning joriy etish masalasi ommalashmoqda. Bu esa, pedagoglarning o‘z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. O‘quv jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etishishi, o‘qituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki o‘qituvchining roli va vazifalarini o‘zgartiradi.

Darsda kompyuterdan foydalanish o‘qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir tinglovchi individual yondashish imkonini beradi. Axborot- kommunikatsiya texnologiya (AKT)lari imkoniyatlari orqali tinglovchi juda ko‘p ma’lumotlarni olish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Ma’ruza, amaliyot va laboratoriya mashg‘ulotlarini AKTlar yordamida tashkil etishda fanga tegishli har bir mavzu bo‘yicha fan o‘qituvchisi tomonidan alohida dars ishlanmasi (senariy) ishlab chiqilishi lozim. Ishlanma asosida o‘qituvchi tomonidan rejadagi barcha mavzularga oid bayon etilishi lozim bo‘lgan nazariy va amaliy ma’lumotlar hamda laboratoriya mashg‘ulotlariga tegishli topshiriqlar to‘plamini elektron taqdimot shakli tayyorlanadi.

Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoproektorlar orqali tinglovchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Taqdimotda qo‘shimcha adabiyotlardagi rasmlarni, aniq jarayonlarni aks etgiruvchi tasvirlar, internetdagi ma’lumotlardan katta elektron ekranda ko‘rsatib tushunchalar berilsa, axborot ta’lim resurs portallaridan foydalanilsa, tinglovchilarning bilim va malakalari yanada boyitiladi, shuningdek darsga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi. Shundan sung fan o‘qituvchisi darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mavzuni tinglovchi (o‘quvchi)larga AKT vositalaridan qanday va qaysi vaqtda foydalana olishligini texnologik xarita (o‘qituvchi faoliyatining algoritmi)ni dars ishlanmasida rejalashtirilishi kerak bo‘ladi.

Fan o‘qituvchisiga fanga oid mukammal mustaqil ta’lim olishga mo‘ljallangan elektron o‘quv adabiyoti (darslik) yuzaga keladi, elektron multimediali darslik nafaqat matnli va ko‘rgazmali balki,ovozli, animatsiyali ham bo‘lishi mumkin. Tajribalardan ma’lumki, matnni o‘qish orqali tinglovchi (o‘quvchi) - 12%ni, ko‘rgazmali bo‘lsa 25%dan yuqori, matnli, ko‘rgazmali va ovozli bo‘lsa 75% vaundan yuqori darajada o‘zlashtirishga erishiladi.

Bularning hammasi ta’lim mazmunining samaradorligini oshirish maqsadida

respublika ta’lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, o‘quv rejalariga kiritilgan fanlarni yangi interfaol usul va vositalaridan foydalangan holda o‘tkazishga, jumladan, masofadan turib o‘qitish, kompyuterlashtirilgan anjumanlar o‘tkazish, elektron darsliklarni yaratish va ularni o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llashga qaratilgan tadbirlardir.

O‘quv jarayonida ma’ruza, amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlaridan AKTning imkoniyatlaridansamarali foydalanish bo‘yicha modelni va ayrim dasturiy ta’minot hamda texnologiyalari imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

Elektron o‘quv-majmualar

- Elektron darslik
- Elektron o‘quv qo‘llanma
- Elektron ma’lumotnoma
- Elektron entsklopediya
- Elektron masalalar to‘plami
- Elektron laboratoriya
- Elektron testlar
- Davriy elektron o‘quv nashrlar

O‘quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi, sifati va unumdorligi oshishn, zamonaviy o‘quv manbalari elektron o‘quv darsliklarini keng qo‘llash ularni kutubxonalarini tashkil etish, ta’limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etish hamda umumjahon elektron o‘quv tizimnga kirshi imkoniyati oshiradi.

XONLIKLAR DAVRIDA TA’LIM, FAN VA MADANIYAT

Rayimkulov Akmal,

Guliston davlat universiteti Tarix fakulteti magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *O‘rta Osiyo xonliklari Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ta’lim shakllarining tuzilishi va faoliyatini tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Madrasalar, maktablar va qoriqxonalar ta’lim olib borilish bosqichlari, xonliklar maktablarining farqliklari, madrasalardagi o‘quv davrlari hamda tolibi ilmlarga yaratilgan shart-sharoitlar, foydalanilgan adabiyotlar to‘g‘risida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlari: *fors-arab-o‘zbek tillari, xalq ta’limining tuzilishi va faoliyati, maktabdor, qorixona, mulla, o‘qituvchi, mudarris, boshlang‘ich ta’lim.*

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari va Buxoro amirligining xalq ta’limi, fan va madaniyati haqida gap borganda shu narsani alohida ta’kidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g‘oyasi markaziy o‘rinni egallar edi.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo‘lgan umumiy o‘xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o‘xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o‘xshashdirlar.

Birinchidan, O‘rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy

taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o‘rinlarda turgan bo‘lsa, XVI-XVII asrlardan

e’tiboran bu hududda tushkunlik boshlanadi**.**

Ikkinchidan, har uchala davlat birliklari o‘zlari alohida mustaqil faoliyat ko‘rsatsalarda davlat idora ishlari o‘zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo‘qonda fors-o‘zbek, Xivada o‘zbek tili rasman davlat tili bo‘lib hisoblanardi. Turmushda, adabiy ijodda o‘zbek va fors tillari keng qo‘llanilar edi.

Uchinchidan, an’anaga ko‘ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro‘si saqlanib qolgandi.

Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida xalq ta’limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo‘lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qoriqxonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o‘quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o‘rtasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o‘qitish uchun maxsus maktab bor edi. Masalan, “Ansob as-solatin va tavorixi al-havoqin” nomli asarda yozilishcha, “Musulmonqul mingboshining buyrug‘i bilan yosh Xudoyorxon va qipchoqlar bolalarini o‘qitish uchun o‘rdada maktab qurilib, unga maktabdor etib Mullo Sodiq tayinlangan”[40].

Lekin bu maktab hozir Qo‘qonda mavjud bo‘lgan Xudoyorxon o‘rdasida emas, balki 1845-yilda bo‘lgan xon o‘rdasida joylashgan edi. Keyinchalik bu o‘rda buzilib ketgan.

Odatda, maktablarda asosan o‘qish va yozish, arifmetika va adabiyot

o‘qitilar edi. Qorixonalarda esa asosan ko‘zi ojizlar o‘qib, Qur’on, doston va she’r-u g‘azallar yodlar edilar. Maktablar qizlar uchun alohida, o‘g‘il bolalar uchun alohida bo‘lgan. Masalan, mashhur shoira Dilshod Qo‘qonda maktab ochgan. U o‘zining maktabdorlik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi: “Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste’dodli shoiralar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga o‘rtacha 20 tadan 30 tagacha o‘quvchilarim bo‘lib, sakkiz yuz to‘qsonta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi she’riyatga qobiliyatli bo‘lib, shoira va o‘z davrining aqlli va dono odamlari edi”[41].

Qo‘qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan maktablar soni ko‘proq bo‘lgan. Bu esa qo‘qonliklarning aksariyat ko‘pchiligi savodli bo‘lib, o‘qish va yozishga usta bo‘lganligidan dalolat beradi.

O‘qituvchilar o‘z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari barcha o‘quv yurtlari, turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad hisobiga ishlar edi. Ularning odatida masjidlar birinchi o‘rinda turardi, chunki deyarli barcha masjidlarda maktablar ochilgan.

1841-yilgi ma’lumotlarga qaraganda, Qo‘qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o‘qigan. Bu madrasani ikkita bosh mudarris boshqargan: Eshon Mavloniy va Mahzumi Buxoriy. Bular hurmatli insonlar bo‘lib, katta ilmga

---

[40] Mirza Olim Toshkandiydir. “Ansob as-salotin va tavorixi al-havoqin”, 75-bet.

[41] Muxtorov A. Дильшод и его место в истории общественной мыс таджикиского народо в XIX-начале XX вв., 301-стр.

ega edilar.

Madrasalar Qo‘qon xonligining boshqa shaharlarida ham bor edi, ammo ular Qo‘qondagidek salobatli va katta emasdi. O‘qishni bitirganlarning ayrimlari bilimini takomillashtirish va oshirish uchun Buxoro va Samarqand madrasalariga ham borib o‘qishardi.

Har bir maktabdor domlaning ham o‘zicha o‘qitish usullari bo‘lgan.

Ularning ba’zilari bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e’tibor bergan holda kichik yoshdagi o‘quvchilarga husnixat va og‘zaki hisobni o‘rgatsa, katta yoshdagi o‘quvchilarga esa Qur’onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o‘nlab hayotiy kitoblarni ham o‘qishni o‘rgatar edi.

Demak, dastlabki boshlang‘ich ta’limdan so‘ng Qur’on xatm qilinib, “Chor kitob”, keyin esa “So‘fi Olloyor” ibtido qilingan. So‘ngra “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma” singari donishmandlik ruhidagi kitoblar o‘qitilgan. O‘quvchilarga “Odobnoma” dasturlari asosida dars berilgan. Xalq og‘zida yurgan axloqiy, falsafiy ruhdagi maqollar, masallar, majmualar, rivoyatlar, hikoyatlardan esa tarbiya vositasi sifatida foydalanilgan.

Madrasalarda o‘quv dasturi asosan uch bosqichda: boshlang‘ich (adno), o‘rta (avsat) va yuqori (a'lo) bosqichlarda olib borilib, unda uchta til (arab, fors va turkiy) mukammal o‘rgatilgan. Madrasalarda Qur’on ilmi (o‘qish usullari, qiroat, tavsif), fiqh (shariat qonunlari), xandasa, ilmi nujum, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo‘g‘rofiya, tarix, tabobat fanlari o‘qitilgan. Talabalar arab va fors tillari orqali Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Hofiz Sheroziy devoni, Mirzo Abdulqodir Bedil devoni, Mir Alisher Navoiyning “Chor devon”i, Fuzuliy g‘azaliyoti hamda sharqda milliy ta’lim sohasida darslik va qo‘llanma sifatida foydalanib kelinayotgan “Maslak ul-muttaqin”, “Avvali ilm”, “Mu’zi Vazanjoniy”, “Avomil”, “Harakat”, “Qofiya”, “Sharqi muloyi Jomiy”, “Risolai Shamsiya” kabi risolalar bilan tanishish imkoniga ham ega bo‘lganlar. Bu esa madrasalarda ta’lim jarayonida badiiy adabiyotning mumtoz namunalari keng o‘rin oganligini, dunyoni, tafakkurni shakllantirish borasida badiiy asarlarga alohida ahamiyat berilganligini ko‘rsatadi.

Madrasalarda bilim olish mumkinligi, bu yerda ham diniy, ham dunyoviy fanlar bo‘yicha dunyoga tanilgan mutafakkirlar, olimlar bor bo‘lganligi uchun ham Turkistonda turli mamlakatlardan ko‘plab talabalar kelib o‘qiganlar[1].

Qo‘qon xonlari davrida turli mansablarda xizmat qilgan Muhiddinxo‘ja 1861-yili Qo‘qondagi madrasalardan birida o‘qigan. Keyinchalik u N.Likoshinga so‘zlab berganligiga qaraganda, mudarrislar talabalarning madrasadan tashqariga chiqib maishat qilganlarini yoqtirmagan. Talabalar vaqtlarini ertalabdan kechgacha domlalarining tushuntirishlarini eshitib, kitob o‘qish va hattotlik mashqlari bilan o‘tkazardilar.

Payshanba kunlari domlalar uylariga ketganlar, talabalar esa bo‘sh vaqtlarini o‘yinlar bilan band etganlar. Juma kunlari o‘qish bo‘lmagan. Talabalar ba’zan bozorga borib maddohlarning hikoya va diniy rivoyatlarini eshitar edilar. Talabalarning ko‘pchiligi esa Qo‘qon xoni boradigan va olimlar yig‘iladigan Jome’ masjidiga borishni orzu qilganlar. Bu yerda juma namozidan keyin olimlar

bilan birgalikda Qur’on va shariat haqida munozaralar o‘tkazilgan. Bunda ko‘plab mashhur din arboblari, olimlar, yosh mutaxassislar ham madaniyat taraqqiyotida biroz tushkunlik yuz bergan bo‘lsada, ajdodlarimiz: falsafa, tabiiy fanlar, tibbi-yotshunoslik, jo‘g‘rofiya, tarix, badiiy ijod va adabiyotning barcha sohalarida qalam tebratdilar.

Xorazm madrasalarida ham boshqa joylardagi kabi haftaning 4 kuni: shanba, yakshanba, dushanba, seshanba rasmiy o‘qish kunlari hisoblangan. Haftada ikki kun ya’ni chorshanba va payshanba kunlari mustaqil mutolaa kunlari, juma kuni esa dam olish kuni bo’lgan. Madrasalarda bir o‘qish yili 7 oy davom etadi. O‘qish yili mezon oyining birinchi kuni 21-sentabrda boshlanib, hamal oyining birinchi kunida 21-martda tugallangan. Qolgan oylar ta’til kunlari hisoblanib, talabalar bu vaqtda xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanganlar.

ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШДА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМ ВА УНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ (ОТМ мисолида)

Л.Рахимова

Аннотация.

Маълумки, ўқув жараёнида қўлланиладиган педагогик ва ахборот технологиялари бир неча турларга бўлиниб, улардан энг муҳими - компьютер техникаси воситалари ёрдамида ўқитишдир. Шундан келиб чиқиб, электрон дарслик, виртуал стендларга қўйилган талабларни инобатга олган ҳолда, маърузалар, лаборатория ишлари, амалий машғулотларни электрон вариантда ишлаб чиқиб, фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Мақолада олий таълим муассасаларида таълим самарадорлигини оптималлаштиришда электрон таълим технологиялари ва уларнинг психологик жиҳатлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар. Технология, ахборот, инновация, коммуникация, билим, кўникма, ресурс, жараён, схема, модел.

Электронное обучение и его психологические аспекты в оптимизации эффективности образования (на примере вузов)

Аннотация.

Известно, что педагогические и информационные технологии, используемые в образовательном процессе, делятся на несколько видов, важнейшим из которых является обучение с помощью компьютерной техники. Исходя из этого, с учетом требований к электронным учебникам и виртуальным стендам целесообразно разрабатывать и использовать лекции, лабораторные работы, практические занятия в электронном варианте.

В статье освещаются технологии электронного обучения и их психологические аспекты в оптимизации эффективности обучения в высших учебных заведениях.

Ключевые слова. Технология, информация, инновация, коммуникация, знание, умение, ресурс, процесс, схема, модель.

E-learning and its psychological aspects in optimizing the effectiveness of education (on the example of universities)

Annotation.

It is known that pedagogical and information technologies used in the educational process are divided into several types, the most important of which is learning with the help of computer technology. Based on this, taking into account the requirements for electronic textbooks and virtual stands, it is advisable to develop and use lectures, laboratory work, and practical exercises in electronic form.

The article highlights e-learning technologies and their psychological aspects in optimizing the effectiveness of training in higher education institutions.

Keywords. Technology, information, innovation, communication, knowledge, skill, resource, process, scheme, model.

Кириш

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонининг мақсад ва талабларидан келиб чиққан ҳолда ҳозирги кунда узлуксиз таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар миллий таълим-тарбия тизимини такомиллаштиришга, замон талаблари билан уйғунлаштирилган, жаҳон андозалари даражасига мос “Миллий модел”ни ҳаётга тадбиқ қилишга, маънавиятимизни янада юксалтиришга қаратилган [1]. Шунингдек, таълим тизими, фан ва ишлаб чиқариш ўртасида пухта ўзаро ҳамкорлик ва фойдали алоқаларни ривожлантириш орқали кадрлар тайёрлашнинг мавжуд тизимидаги жиддий камчиликларни йўқотишга алоҳида эътибор берилмоқда.

Мамлакатимизда олиб борилаётган туб ислоҳотлар, фан-техника ва технологияларнинг ривожланиши ҳамда ахборотлашган жамиятга ўтиш талаблари таълим стратегиясини ўзгаришига олиб келмоқда. Узлуксиз таълим олишнинг янги шакллари, жумладан замонавий ўқитиш технологияларига асосланган тармоқли, ахборотли, масофавий ва инновацион таълим технологиялари вужудга келди.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Электрон таълим тизимларининг психологлар Г.М.Андреева, Н.Н.Богомолова, У.В.Шороховаларнинг тадқиқотларида ўрганилган. Шунингдек, Б.Д.Раригин, А.И.Антонов, Н.Н.Обозовлар анъанавий таълим ва электрон таълимнинг афзаликлари ва камчиликлари юзасидан тадқиқотлар олиб борганлар.

Юртимиз психологлари М.Г.Давлетшин, Э.Ғозиев, Ғ.Б.Шоумаров,

В.М.Каромова ва бошқалар ўз тадқиқотларида замонавий миллий хусусиятларнинг ёшлар онгига сингдирилиши ва унинг психологик хусусиятларига оид диққатга сазовор илмий фикрларни баён қиладилар.

Тадқиқот методологияси

Олий таълим муассасаларининг салоҳиятига таянган ҳолда ахборот-

коммуникация технологиялари асосида узлуксиз таълим тизимини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади. Дарс жараёни самарадорлигини ошириш ҳозирги замон педагогикасининг долзарб масаласига айланиб бормоқда. Техника, технология ва ишлаб чиқаришнинг жадал суръатлар билан ривожланиб бориши олий таълим муассасаларида таълим олаётган талаба ёшлар олдига шу ривожланишга мос бўлган билим ва кўникмаларга эга бўлишларини тақозо қилмоқда. Талаба ёшларга техника ва технологияларнинг янги ютуқларини ўзлаштириш кўникмаларини ҳосил қилиш учун уларни ўқитиш усулларини тубдан янги поғонага кўтариш зарурати давр талаби бўлиб қолмоқда. Бу муҳим вазифани ҳал этишда кундалик турмушда жадал суръатлар билан кириб келаётган замонавий педагогик ва ахборот - коммуникацион технологиялари, электрон таълим ресурсларидан кенг фойдаланиш муҳим рол ўйнаши муқаррардир.

Ҳозирги кунда синовдан ўтган махсус ахборот воситаларидан компьютер техникалари, аудио ва видео воситалари қаторига келиб қўшилган электрон таълим ресурслари, виртуал стендлар, анимацияли дастурлар воситасида дарс машғулотларини олиб бориш талабалар томонидан дарс машғулотларини ўзлаштиришларига самарали натижалар кўрсатмоқда. Электрон таълим ресурслари ёрдамида дарсларни ташкил этиш жараёнида талабаларнинг олаётган билимларини нафақат эшитиш, балки кўриш сезгилари орқали ҳам қабул қилишлари ва тушунчаларнинг ғоя ва мазмунини чуқур англаб

етишларига самарали ёрдам беради.

Тадқиқотчилар томонидан турли электрон таълим воситалари ёрдамида мавзуларнинг ёритилишни жорий этиб борилаётганлиги, бунда талабаларнинг билим савияларининг ортиб бораётганлигидан хулоса қилиш мумкинки, бу усулларнинг янада такомиллаштирилиши, юқори поғонага олиб чиқиш каби заруратлар олдиндан кўриб, шу йўсинда таълим ва тарбия жараёнини ташкил этиш ҳар бир раҳбар ҳамда педагогнинг долзаб вазифаси бўлиши талаб этилади.

Таҳлил ва натижалар

Бизнинг фикримизча, электрон таълим воситаларидан фойдаланишда қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиш керак бўлади:

- ўқув материалларга қўйиладиган услубий талабларни ишлаб чиқиш;
- анимацион дастурлардан фойдаланиш давомийлигини 25–30 минутдан оширмаслик;
- намойиш этилаётган мавзуга доир тушунчалар ўқитувчи ва талабалар томонидан икки томонлама алоқа тарзида муҳокама этиб борилиши;
- намойиш этилиб борилаётган лавҳаларнинг талаба томонидан мустақил

равишда қайта ишлаб, янги тушунчаларни шакллантириб боришига эришиш;

- ўқитиш натижаларини баҳолаш меъзонларини аниқлаш.

Маълумки, ўқув жараёнида қўлланиладиган педагогик ва ахборот

технологиялари бир неча турларга бўлиниб, улардан энг муҳими - компьютер техникаси воситалари ёрдамида ўқитишдир. Шундан келиб чиқиб, электрон дарслик, виртуал стендларга қўйилган талабларни инобатга олган ҳолда, маърузалар, лаборатория ишлари, амалий машғулотларни электрон вариантда ишлаб чиқиб, фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Замонавий ахборот технологияларининг таълим соҳасига кириб бориши ўқитувчиларга таълимнинг мазмуни, усуллари ва ташкилий шаклларини сифат жиҳатидан ўзгартиришга имкон беради. Таълимдаги ушбу технологияларнинг мақсади ахборот жамиятида талабаларнинг интеллектуал имкониятларини ошириш, шунингдек, таълим тизимининг барча босқичларида инсонпарварлаштириш, ўқув жараёнини индивидуаллаштириш ва таълим сифатини оширишдан иборат.

Ахборот технологиялари деганда объект, жараён ёки ҳодиса ҳолати тўғрисида янги сифатли маълумот олиш учун маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш ва узатиш воситалари ва усуллари тўпламидан фойдаланадиган жараён тушунилади. Ўқув жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланишни таҳлил қилиб, ушбу муаммога бир нечта нуқтаи назарларни ажратиш мумкин. Ижобий жиҳатлар орасида кенг ахборот ресурсларига очиқ кириш имконияти, фикр-мулоҳазаларнинг мавжудлиги билан мустақил ўрганиш имконияти мавжуд. Компьютер ёрдамида талаба ўзини ижодий ёндашувни талаб қиладиган турли хил муҳитда топишга қодир. Интернетдан фойдаланиш ўқув услубини ўзгартиришга ёрдам беради, талаба муаммонинг турли нуқтаи назарлари билан танишганда, у ўз фикрини шакллантиради. Шу билан бирга, янги таълим технологияларининг имкониятларини ортиқча баҳоламаслик керак. Компьютер ўйинларининг тарқалиши, компьютердан ўқув воситаси сифатида фойдаланиш, талабаларни ўқув жараёни доирасида интернетда ишлашга жалб қилиш, янги алоқа усулларининг пайдо бўлиши, янги ўқув методологияси ва компьютер телекоммуникация базасига асосланган технология сифатида масофавий таълимни ривожлантириш - буларнинг барчаси инсоннинг психикаси ва шахсий хусусиятларига маълум таъсир кўрсатади.

Ўтган асрнинг 70-йиллари ўрталарида психология фанида янги йўналиш - компьютерлаштириш психологияси пайдо бўлди, бу О.К.Тихомиров томонидан илгари сурилган компьютерлар ва бошқа информатика воситалари орқали инсоннинг ақлий фаолиятини ўзгартириш концепциясига асосланади. Ушбу йўналишнинг вазифаларига қуйидагилар киради:

- компьютерлар воситачилигида инсон фаолиятининг ҳар хил турларини ташкил этиш қонуниятлари ва тамойилларини ўрганиш; компьютерлардан фойдаланиш шароитида ақлий акс эттириш ва ақлий ривожланиш қонунларини ўрганиш; компьютерлаштиришнинг шахсга ва шахснинг компьютерлаштиришга таъсири ва бошқалар. О.К.Тихомиров ва унинг шогирдлари томонидан бошланган “Инсон — компьютер” тизимини яратиш вазифаси бугунги кунда ҳам амалга оширилмоқда.

Ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш

йўналишларини ва уларни мамлакатимизда ҳам, чет элларда ҳам таълим мақсадларида қўллаш тажрибасини таҳлил қилиш қуйидаги соҳаларда уларнинг имкониятларидан фойдаланишнинг асосий йўналишларини аниқлашга имкон беради:

- Мултимедиа технологияси, телекоммуникация тармоқлари ресурслари,

“Виртуал ҳақиқат” технологиясидан фойдаланиш асосида ўқув маълумотлари билан ишлаш бўйича турли хил ўқув фаолиятини ташкил этиш;

- талаба фаолиятини ҳақиқатга имкон қадар яқинлаштирадиган ўқув стимуляторларини яратиш жараёнларини стимуляция қилиш ва моделлаштириш;

- ҳақиқий дунёга нисбатан ўрганилаётган жараёнлар ёки қонуниятларнинг динамикасини рағбатлантирадиган, сўнгра талаба томонидан таҳлил қилинадиган ва уларнинг ривожланиш тенденцияларини аниқлайдиган схемалар ёки моделлар сифатида ҳаракат қиладиган виртуал оламларни ишлаб чиқиш;

- ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда талабаларнинг ёш тоифасига мос келадиган ўқув фаолиятининг асосий турларини амалга ошириш соҳасидаги билим, кўникма ва малакаларни белгилаш жараёнини автоматлаштириш.

Ахборот технологиялари орасида интернет технологиялари алоҳида аҳамиятга эга. Фойдаланувчиларни Интернетга киришга ундайдиган асосий мотивлар қаторига қуйидагилар киради: бизнес, когнитив, коммуникатив, рекреатсион ва ўйин, шунингдек ҳамкорлик, ўзини ўзи англаш ва ўзини ўзи тасдиқлаш мотивлари.

Хулоса ва таклифлар

Замонавий ўқитувчилар ва профессорлар муваффақиятли фойдаланадиган яна бир имконият - бу талабаларнинг ижодий салоҳиятини ривожлантириш ва рағбатлантиришдир. Интернетда энг яхши диплом ва курс ишлари, иншолар, ўқув курси бўйича ишлар тўпламлари, гиперматнли тезислар нашр этилиши нафақат талабаларга тадқиқот ўтказишга имкон беради, балки ўқитувчига ўрганилаётган курс бўйича материаллар банкини шакллантиришга ёрдам беради.

Тармоқ технологиялари асосида ўқув материалларининг мутлақо янги тури пайдо - интернет дарсликлар мавжуд бўлиб, унинг кўлами жуда катта: анъанавий ва масофавий ўқитиш, мустақил иш ва бошқалардан иборат. Ягона интерфейс билан жиҳозланган бундай интернет-дарсликлар нафақат битта ўқув курси учун қўлланма, балки доимий равишда ривожланиб борадиган ўқув ва маълумот муҳитига айланиши мумкин.

Замонавий ахборот технологияларининг таълим жараёнига катта таъсирини ҳисобга олган ҳолда, кўплаб ўқитувчилар уларни тобора кўпроқ ўзларининг услубий тизимига киритмоқдалар. Бироқ, таълимни ахборотлаштириш жараёни бир зумда содир бўлиши мумкин эмас, ҳар қандай ислоҳотга кўра, у босқичма-босқич ва узлуксиз давом этади. Шуни ҳам ёдда тутиш керакки, компьютер технологияларидан фойдаланган ҳолда ўқув

жараёнининг самарадорлигини таъминлаш учун зарур шароитлар яратилган бўлиши керак.

Хулоса қилиб айтганда замонавий электрон таълим воситалари микро ва макро дунёдаги, мураккаб қурилмалар ва биологик тизимлардаги ҳодиса ва жараёнларни компьютер графикаси ва моделлапггиришидан фойдаланиш асосида ўргатиш, жуда катта ёки жуда кичик тезликда содир бўладиган физик, кимёвий ва биологик жараёнларни қулай вақт ўлчамида тақдим этиш каби янги дидактик масалаларни ечишга ёрдам беради. Ўқув машғулотларининг талабаларни кундалик фанлар мажмуаси ва улар бўйича берилган топшириқлар мажмуаси билан ҳисоблашишга тўғри келадиган қилиб ташкил этилиши кўплаб муаммоларни келтириб чиқаради. Таълим самарадорлигини оптималлаштиришда электрон таълим ва унинг психологик жиҳатларига эътиборни қаратиш таълим тизимида энг яхши ечим ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 7-сон.

2. Абдуқодиров А.А., Хаитов А.Ғ., Шодиев Р.Р. “Ахборот технологиялари”. Т. “Ўқитувчи”. 2002.

3. Махмудова М. А., Насирова Ш.Н. Компьютер дастурлари воситасида ўқувчиларнинг билим эгаллашга қизиқишларини ривожлантириш “Муаллим ҳем узлюксиз билимлендириў” Илмий-методикалық журнал № 5 2019 жыл. Нукус – 2019, 25-27 бет.

4. Виштак О.В. Электрон Ўқув материалларини яратиш мезонлари / О.В. Виштак // Педагогика. - 2003. - Но 8. - С. 19-22.

БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРНИ КРЕАТИВЛИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Абдусатторова Умида Абдусамат қизи

ГулДУ доктaранти

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада бўлажак тарбиячиларни креатив компетентлигини ривожлантиришга оид тажриба синов-натижалари, шахсга хос креативлик сифатлари, креатив компетентликни ривожлантириш омиллари, йўллари ҳамда креатив ўқитишнинг метод ва стратегиялари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: бўлажак тарбиячи, тажриба-синов ишлари, креатив компетентлик, креативлик сифатлари, креатив метод ва стратегиялар.

Креативлик тушунчасининг лугавий маъноси инглиз тилида "create " -яратиш, "creative" яратувчи, ижодкор маъноларини англатади. Жамият хаётининг кайси сохасида кулланилишига караб турли соха вакиллари томонидан турлича таърифлар берилганлигини куришимиз мумкин. Масалан, педагогик нуктаи назардан ёндашганда, креативлик педагогнинг янги гояларни ишлаб чикаришга тайёрликни тавсифловчи хамда мустакил омил

сифатида иктидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий кобилияти маъносини ифодалайди.

Психологик нуктаи назардан ёндашганда, креативлик инсон шахсининг ижодкорликка булган кобилияти, ижодкорлик истеъдод даражаси, индивиднинг анъанавийлик ёки одат тусига кирган фикрлаш схемасидан узок булган, принципиал янги гояларни яратишга тайёрликни характерловчи, шунингдек, муаммоларни узгача тарзда бартараф этиш, иктидорнинг мустакил фактори сифатида кабул килинган ижодий кобилиятларидир.

Умуман олганда, бугунги кунда ижодкорлик, яратувчанлик, янгилик яратишга каратилган фаолият креатив фаолият деб тушунилади. Креатив шахс эса, узининг фикрлаши, дунёкараши, доимо янгиликларга интилиши, уз устида тинимсиз ишлаши, муаммога бошка шахсларга караганда ноодатий

Ривожланишнинг инновацион йўлини танлаш, юқори технологияларни яратиш ва амалга ошириш, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида билим ва маълумотларнинг ўсиб бораётган ўрни юқори малакали мутахассисларга катта талаб қўймоқда. Бу таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясининг янги шаклларини талаб қилади ва рақобатбардош мутахассислар тайёрлашга қодир бўлган янги авлод тарбиячиларини шакллантиришни устувор йўналишлардан бири сифатида бэлгилайди.

Олий таълим муассасалари ва улардаги ўқув-тарбия жараёнини модэрнизациялаш, педагог мутахассислар тайёрлаш тизими сифатини ошириш, бўлажак тарбиячиларни замонавий касбий компетенсиялар билан қуроллантириш, уларда касбий фаолиятга нисбатан акмеологик мотивацияни шакллантириш педагогларнинг креатив компетентлигини ривожлантириш жараёнидаги муҳим вазифалардан саналади

Гулистон давлат университетида олиб борилган тажриба-синов ишлари жараёнида бўлажак тарбиячиларнинг креатив компетентлиги даражаси ва бу ҳақидаги мавжуд тушунчаларини аниқлашга имкон бэрувчи анкета сўрови, педагогик кузатув ҳамда суҳбатлар ташкил этилди. Тажриба-синов ишларига Гулистон давлат университети Педагогика факултетининг Мактабгача таьлим йўналиши 124 нафар 1-3-курс талабалари жалб этилди.

Ўтказилган тажриба-синов ишларида С.Медникнинг анкета сўрови ва Пол Торренснинг "Ижодкорлик қобилиятларини ўрганиш тести"дан фойдаланилди. Анкета сўровлари ва тест натижалари таҳлил қилинганда қуйидаги ҳолатлар аниқланди:

Сўралган респондэнтларнинг 20% юқори даражада креативликни намоён қилдилар. Улар мунтазам равишда турли ташаббусларни илгари сурадилар, креатив жиҳатдан ўта фаол, изланувчандирлар.

Респондэнтларнинг 34% эса ўрта даражада креативликни намоён этишди. Уларнинг креативлик қобилияти доимий намоён бўлмайди. Креатив компетентлигини ривожлантириш зарур.

Паст даражада креативликка эга респондэнтлар эса 46%ни ташкил этди.


Улар ташаббусни илгари суришга интилади, лекин креативлик қобилияти етарлича намоён бўлмайди.

Натижаларни таҳлил этиш асосида бўлажак тарбиячиларни креативлигини ижобий дэб баҳолай олмаймиз. Чунки, педагогик кузатиш ва анкета сўровларимиздан маълум бўлдики, талабаларнинг 70-80% креатив компетентликка эга бўлиш имкониятига эга бўлгани ҳолда, атиги 20-34% талабаларгина креатив компетентлик сифатларини намоён эта олдилар.

Юқоридагилар асосида таъкидлаш лозимки, бўлажак тарбиячиларда креатив компетентлик борасида етарли даражада билим, кўникма ва малака шаклланмаган, уларнинг креатив компетентлигини ривожлантиришга йўналтирилган педагогик жараён ўзига хос хусусиятларга эга.

Шу боис педагоглар олдида турган асосий вазифа-бу ёшларда креативлик, унинг ўзига хос сифатлари тўғрисида назарий билимларни бэриш, улар асосида талабаларнинг креатив компетентлигини ривожлантиришдан иборат. Мазкур вазифани ижобий ҳал этишда таълим жараёни, шу жумладан фанларни ўқитишда фаол таълим технологияларидан фойдаланиш, машғулотларни ноанъанавий шакл, метод ва воситалари ёрдамида қизиқарли ва мазмунли ташкил этиш кутилган самаралами бэради.

Шахсга хос креативлик сифатлари муайян босқичларда изчил ривожлантирилиб борилади. Шахснинг креативлик сифатларига эга бўлиши унинг индивидуал қобилиятлари, табиий ва ижтимоий қувватини ўз касбий фаолиятини сифатли, самарали ташкил этишга йўналтиради. Қуйида шахсга хос креативлик сифатларидан намуналар келтириб ўтамиз:



Шунга кўра, тадқиқотларда шахс (жумладан, педагоглар)да креативлик

сифатларини муваффақиятли ривожлантиришнинг тўртта йўли кўрсатилган:

- Креатив фикрлаш кўникмасини шакллантириш;
- Амалий креатив ҳаракат кўникмаларини ривожлантириш;
- Креатив фаолият жараёнларни ташкил этиш;
- Креатив маҳсулот (ишланма)лардан фойдаланиш[4].

Бўлажак тарбиячилар ўзларининг креатив фикрлаш қобилиятларини қулай муҳитда тўла намоён қилишлари мумкин. Агар бўлажак тарбиячиларда муваффақияцизликка учраш ва қўрқув ҳисси мавжуд бўлса ёки танқидга учрасалар бундай вазиятда уларда креатив фикрлаш кўникмаларини самарали шакллантириш ёки ривожлантириш мумкин бўлмайди. Бўлажак педагогларда креативликни одатга айлантириш орқалигина креатив фикрлаш кўникмасини муваффақиятли шакллантириш мумкин. Бу жараёнда улар томонидан мавзу мазмунининг пухта англаниши ва креатив фикрлаш кўникмаларини баҳолашда қўлланиладиган метод ва воситалар муҳим аҳамият касб этади.

Бўлажак тарбиячиларда креатив фикрлаш кўникмаларини шакллантиришда педагог алоҳида ўрин тутади. Бу жараёнда "педагогнинг роли аудиторияда креативлик муҳитини яратишдан иборат. Ваҳоланки, педагог гуруҳда бўлажак тарбиячилар ўзини эркин сеза оладиган ва ўз фикрлари, ғоялари билан бўлиша оладиган муҳит яратиши лозим. Бўлажак тарбиячилар инсон онгида юз бэраётган жараёнларни янада фаоллаштириш учун ўрнатилган қонун қоидалар, стандартлардан чэтга чиқиб, турли саволлар бэришда эркин ҳаракат қилишлари керак. Педагог бўлажак тарбиячилардаги креативликни ноодатий ғояларни ўртага ташлаш ва уларни вербал ва новербал тарзда рағбатлантириш орқали қўллаб-қувватлайди. Педагогнинг бўлажак тарбиячилар бэраётган креатив ғояларига нисбатан тўғри муносабати уларнинг мумкин бўлган ва мумкин бўлмаган шартларни англашида муҳим аҳамиятга эга. Мазкур элементларнинг барчаси педагог-талаба муносабатининг муҳим қисми бўлиб, бўлажак тарбиячилар муваффақиятини таъминлайди. Креатив муҳитда таълим олаётган бўлажак тарбиячиларда аста-секин креатив вазифаларни бажаришга нисбатан қизиқиш ортади, шунингдэк, креатив тафаккурга эга педагогни кузатиш натижасида креатив фикрлашга мойил бўлади. Креативлик характеридаги ўқув-билиш муҳити бўлажак тарбиячиларда таълим жараёнида катта аҳамиятга эга бўлган танқидий ва креатив фикрлаш кўникмасининг ривожланишига олиб келади.

Бўлажак тарбиячиларнинг креатив тафаккурга эга бўлишлари уларда ижодий муҳитнинг қанчалик таркиб топтирилганлигига боғлиқ. Тўлақонли креативлик характерига эга таълим муҳитини яратиш пухта ўйланган режага таянади.

Педагоглар агарда ўзларининг креатив ўқитиш метод ва стратегияларини қўллаш (яъни кенг кўламда ўйлаш ва креатив фикрлаш жараёнини ташкил этиш) да катта самарадорликка эришишни истасалар, буни бўлажак тарбиячилар онгига сингдиришлари ва ўз вазифаларини сидқидилдан бажаришлари лозим. Қолаверса, "креатив характерга эга муҳитдагина бўлажак тарбиячилар ўрганаётган мавзунинг мазмуни, ўқув ахборотлар ўртасидаги

ўзаро алоқани тушуниш имкониятига эга бўлади ва бу ҳақида фикрлашни бошлашади.

Муайян омиллар педагогларда креативлик сифатлари, малакаларини ривожлантиришга тўсқинлик қилади. Шу сабабли педагогик жараёнда педагоглар ушбу омилларни бартараф этишга эътибор қаратишлари лозим. Қуйидаги омиллар шахсда креативликни ривожлантиришга тўсқинлик қилади:



Креатив муҳитда педагог бўлажак тарбиячилар диққат-эътиборини жалб этиш мақсадида бирор бир янгиликдан фойдаланади. Қизиқувчанлик ва шубҳани уйғотувчи маълумот, бўлажак тарбиячиларни ўзига жалб этиб, уларда ўқишга бўлган интилишни кучайтиради.

Олий таълим муассасаларида ҳам педагоглар бўлажак тарбиячиларда креатив фикрлаш кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантиришда уларнинг жамоа бўлиб, кичик ёки катта гуруҳларда ишлашлари учун зарур шарт-шароитни яратиб бэра олишлари зарур. Зеро, катта ва кичик гуруҳларда ишлаш жараёнида билдирилган ҳар қандай фикрни креатив жиҳатдан ривожлантириш имконияти юзага келади.

Педагог креативлик дарсларида жамоа туйғусининг аҳамиятини англаган ҳолда, доимий равишда гуруҳларни ўзгартириб, бўлажак тарбиячиларда жамоа бўлиб ишлаш, бошқалар қобилияти ва маҳоратини ҳурмат қилиш кўникмасини шакллантиради. Ваҳоланки, якка тартибда ишлаш маълум вазиятларда самара бэрса, креативлик дарсларида кичик гуруҳларда ишлаш мақсадга мувофиқдир, чунки креативлик кўникмаси ижтимоий феномендир; А.Ж.Роунинг фикрига кўра, креатив қарашлар жамоа бўлиб ишлаш жараёнида ва креатив ҳамкорлик натижасида шаклланади.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, олий таълим тизимига креатив компетентли ёндашувнинг жорий этилиши таълим мақсади, мазмуни, ўқитиш шакли, ўқитиш усуллари, педагогик технологиялари, назорат усулларини ҳамда дидактик муносабатларида жиддий ўзгаришларни амалга оширишни талаб этади. Шунга кўра, олий таълим муассасаларида таълимни ташкил этишнинг мавжуд шакллари бўлган маъруза, амалий, семинар ва лаборатория машғулотларини мазмун жиҳатидан ўзгартириш назарда тутилади. Маъруза дарсларини муаммоли таълим шаклида, семинар дарсларни креатив тафаккурни ва амалий машғулотларда тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантиришга қаратилган бўлишлиги мақсадга мувофиқ дэб ҳисоблаймиз.

Фойдаланган адабиётлар

1. Шарипов Ш.С. Касб-ҳунар таълимида Талабалар ижодкорлик қобилиятларини узлуксиз ривожлантириш. Монография. -Т.: Фан, 2005. - 140 б.

2.Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления хттп://псйцаби.нет/тестй/577-тест-креативности-торренса-диагностика-творчэского-мйшления.

3.Н.А.Муслимов ва бошқалар Бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик компетентлигини шакллантириш назарияси ва технологияси *МетодиК қўлланма* ТОШКЕНТ – 2014 23-бэт

4.Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б Педагогик компетентлик ва креативлик асослари /. – Тошкент, 2015. – 120 бет.

THE ADVANTAGES OF INFORMATION TECHNOLOGY IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE

Z.Karimova

Gulistan state Universiety The department of distance education

Annotation. This paper firstly discusses the role of information technology in teaching English language. The problem of learning languages is very important today. Georgia is integrating into the world community and the problem of learning English for the purpose of communication is especially urgent today. To know English is absolutely necessary for every educated person, for every good specialist

Annotatsiya. Ushbu maqolada birinchi navbatda ingliz tilini o‘qitishda axborot texnologiyalarining o‘rni muhokama qilinadi. Tillarni o‘rganish muammosi bugun juda muhim. Gruziya jahon hamjamiyatiga integratsiyalashgan va bugungi kunda ingliz tilini o‘rganish masalasi aloqa uchun juda muhimdir. Ingliz tilini bilish har bir o‘qimishli shaxs uchun, har bir yaxshi mutaxassis uchun juda muhimdir.

Анотация. В этой статье сначала обсуждается роль информационных технологий в преподавании английского языка. На сегодняшний день ппроблема изучения языков очень актуальна. интегрируется в мировое сообщество, и проблема изучения английского языка для общения особенно

актуальна сегодня. Знание английского языка абсолютно необходимо каждому образованному человеку, каждому хорошему специалисту.

Keywords: Language, Methods, Information Technology, Internet, Distance Learning

The problem of learning languages is very important today. Foreign languages are socially demanded, especially at the present time, when the progress in science and technology has led to an explosion of knowledge and has contributed to an overflow of information. Foreign languages are needed as the main and most efficient means of information exchange of the people of our planet.

Georgia is integrating into the world community and the problem of learning English for the purpose of communication is especially urgent today. To know English is absolutely necessary for every educated person, for every good specialist.

Learning an English language is not an easy thing. It is a long and slow process that takes a lot of time and patience. Reading books in the original, listening to the English channels, communicating with the English speaking people will help a lot. When learning a foreign language you learn the culture and history of the native speakers. Towards the end of the late 1800s, a revolution in language teaching philosophy took place that is seen by many as the dawn of modern foreign language teaching. Different methods appeared. e.g. Grammar Translation Method, The direct method, Audio- Lingual Method and others. Grammar Translation Method in terms of its inability to create communicative competence in students, began to experiment with new ways of teaching language. Basically, teachers began attempting to teach foreign languages in a way that was more similar to first language acquisition. It incorporated techniques designed to address all the areas that the Grammar Translation did not - namely oral communication, more spontaneous use of the language, and developing the ability to think in the target language. The direct method, sometimes also called natural method, is a method that refrains from using the learners' native language and just uses the target language. This method places great stress on correct pronunciation and the target language from outset. It advocates teaching of oral skills at the expense of every traditional aim of language teaching. Audio-Lingual Method is also very popular. With the advent and popularity of audio tapes, this approach ushered in the first recordings wherein the language learner could actually hear and mimic native speakers on reel-to- reel audio tapes, often used with earphones in a language lab setting. Lessons often began with a

sample dialogue to be recited and memorized.

Information technology may assist in the facilitation of learning or serve as the

actual educational structure allowing learning to occur. Information technology

benefits both traditional education institutions and online educational models in fundamental ways. For example, multimedia presentations, knowledge-management software, video conferencing, cloud computing and collaborative document editing are notable information technology services benefiting education.

Advancements in information and communication technology have not only

benefited education, but also continue to shape the way the field itself develops. With more powerful software and applications, along with mobile devices such as tablet computers, personal digital assistants (PDAs) and laptops becoming more prevalent in the classroom, information technology offers many benefits to all aspects of education.

Nowadays using of information technology at the English lessons is also very important. Our article is about how English language can be learned at classrooms
on the bases of information technologies.

Information technology provides teachers an endless choice of multimedia, software, applications and devices with which to create more exciting, interactive lessons. The traditional English lecture-based lesson, while effective to a point, does not stimulate every type of learner. By adding a dimension to their lessons, English teachers have the opportunity to engage more students and lead a more involved, energetic class.

Digital ink is a major advance in information technology making it easier for faculty and students to complete tasks. Teachers can enter grades and assignment updates on¬line, rather than in a paper grade-book. Libraries with a digital database in place of a traditional card catalog make their resources available for students to search anywhere with an Internet connection. Staff members can find and send transcript information and other records quickly by accessing a digital filing system, saving time and paper.

As modern devices like tablet computers, laptops and projectors develop more of a presence at the English lessons. It becomes more important for educators, students and parents to understand the role of information technology in studying English today. New technology is not only a subject in and of itself, but can also be applied to any subject, enhancing the learning experience and equipping students to join an increasingly global workforce.

Information and communication technology opens the doors for better distance learning programs, allowing those in disadvantaged areas to have access to the same education as the privileged. Because this technology makes information accessible from nearly any location with a mobile device or laptop, courses can be more flexible, meaning those with full schedules who may not have the time or opportunity to further their education can choose to enroll in courses on-line and complete assignments on their own time.

Interactive audio and video allow real time communication using phones and computer at the English lessons. Voice over Internet Protocol enables a person's voice to be transmitted through an Internet connection. Voice and multimedia presentations can also be delivered to a dispersed class with questions and answers taking place in real¬time.

Information technology has widened access to education. By the mid-1990s, many universities had begun using computers to provide classes remotely. Since then, rising numbers of adults have used online education to earn college credits.

Information technology makes education available to a wider range of

learners. Teachers who use classroom computers for project-based or differentiated instruction reach students with different learning styles. Teachers also use computers to provide adapted lessons for students with disabilities. Online education assists adult learners as well, by allowing people with full-time jobs and family responsibilities to obtain professional certifications or college degrees.

Multimedia presentation software empowers both educators and learners to organize, present and consume information in novel ways. For example, at the English lessons different presentations may be made according to the theme with the help of computer and overhead projector. In addition, advanced multimedia software can empower educators to design audio-visual narrative themes involving the student's actual participation (learning video games). Adobe Flash offers industry-standard products assisting developers in creating such applications.

With advancements in information technology like multimedia applications and interactive software, teachers can increase literacy and understanding in any subject.

Lessons with audio and video components that directly engage students reach more types of learners in comparison with traditional lecture methods of teaching, encouraging more students to participate in class and raising their level of understanding. New technology also helps disabled or disadvantaged students participate in subjects they were once unable to join, thanks to assistive programs and devices.

The ability to collaboratively edit documents from various locations is another benefit of information technology in education. For example, students and educators utilizing cloud computing to store their homework can also modify the document's access settings to allow multiple editors and contributors to participate in an assignment. This empowers educators to design work assignments for teams of students working together and, in so doing, cultivate a teamwork ethos preparing them for the workplace.

Now information technology has made it easy to study as well as teach in groups or in clusters. At the English lessons with online we can be unite together to do the desired task. There different programs, games and they help learn English language. Efficient postal systems, the telephone (fixed and mobile), and various recording and playback systems based on computer technology all have a part to play in educational broadcasting in the new millennium. The Internet and its Web sites are now familiar to many students in developed countries and among educational elites elsewhere, but it remains of little significance to very many more, who lack the most basic means for subsistence.

In conclusion, we may say that information technology is indivisible part of education in the twenty-first century. When used correctly in the classroom, technology can allow students to experience situations and circumstances that the students of 20 years ago could only dream about. Through technology, books and figures can suddenly become alive and applicable to the real world. In addition, information technology provides an even greater avenue for interaction between teacher and students. At the English lessons different videos, exercises, games,

listening drills may be done. Information technology makes learning English available to a wider range of learners as well.

References

Byrne, Donn, (1997).Teaching Oral English, New Edition. - Longman.

Harmer, Jeremy, (1991). How to Teach English. - Longman.

Heaton, J. B., (1991)Writing English Language Tests, New Edition. - Longma.

Lowes, Ricky, and Target, Francesca, (1998). Helping Students to Learn. - London: Richmond Publishing.

BUGUNGI KUNDAGI PEDAGOGNING KREATIV YONDASHUVI

Bayrbekov Abdulla Kadirkulovich

Guldu o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, elektronlashtirish, elektron kutubxona, kompyuter tarmoqlaridan samarali foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompiyuter, axborot, elektron tizim, kutubxona, raqamlashtirish.

Annotation. This article shows ways to effectively use information technologies, digitization, electronicization, electronic library, computer networks in the educational process.

Key words: computer, information, electronic system, library, digitization.

Аннотация. В данной статье показаны пути эффективного использования информационных технологий, оцифровки, электронизации, электронной библиотеки, компьютерных сетей в образовательном процессе.

Ключевые слова: компьютер, информация, электронная система, библиотека, оцифровка

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat

bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim.

O'qituvchi – bu ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy figurasi ekan, uning shaxsini va kasbiy faoliyatini, kreativligini baholash qolaversa o'kituvchining o'z faoliyatini o'zi baholashi muhim ahamiyat kasb etadi hamda bu muammo pedagog olimlarni qiynayotgan dolzarb nazariy bahs mavzusidir. O'qituvchining ish faoliyatini baholash kriteriyalarini aniqlashga doir turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar o'qituvchi faoliyatini baholash kriteriyasini jamiyatimizning umumiy

maqsadidan kelib chiqqan holda uning «o‘kuvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishiga» qarab baholash lozimligini ta’kidlaydi. Ikkinchi olimlar jamiyatning maqsadini ta’lim tizimida amalga oshirish lozim degan fikr bilan o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ya’ni ta’limning natiyjaliligi asosida o‘qituvchining kasbiy sifatlariga tavsif berishligini ta’kidlaydi.

Kreativ ukituvchi xar tomonlama ta’lim-tarbiya jarayonini tugri tashkil etishi bilan birga, uzlarining imidjiga xam e’tibor berishi lozim. Pedagogik imidj orkali insonlarning kizikishlarini orttirgan xolda, uzini namoyon kila olish, uziga ogdira olish va e’tiborni karata olish dars jarayonini samaradorligini oshiradi. Pedagoglarda fakatgina iste’dodining uzi etarli emas, balki ukuvchilarga yoka olishni xam bilishi kreativlikka kiradi

O‘qituvchi shaxsining shakllanishi murakkab va turli xil ziddiyatlarga ega jarayon bo‘lib, bu o‘qituvchining o‘z fani yuzasidan bilimlarni egallashi va o‘zlashtirishlari emas, balki uning uzini har tomonlama, etik va axloqiy, kasbiy-pedagogik sifatlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishidir. Uning shakllanish jarayoni pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining turli xil ta’siri, ijtimoiy muhit, pedagogika fanining amaliyotining, umuman jamiyatning ijtimoiy talablaroiga bog‘liqdir. Tatqiqotlar va amaliyot o‘qituvchi shaxsining asosiy sifatlariga g‘oyaviy ishonchi, ijtimooiy- siyosiy faolligi, ma’naviy-axloqiy sifatlari va uz mehnatiga ijodiy yondoshish ekanligini kursatmoqda. O‘quvchi va talabalar orasida uz nufuziga, avtoritetiga ega o‘qituvchi o‘kuvchi jamoasiga etalon, namuna bo‘lib hisoblanadi, o‘quvchilar unga uxshashga, uning fikrlari, qiziqishlari, qarashlari, hatti-harakatlari, o‘zini jamoa oldida tutishi, hatto kiyinish manerasigachaga unga tahlid qilishga, uning darajasiga etishga harakat qiladi, u dars beradigan fanga ijobiy munosabati shakllanadi.

O‘qituvchining faoliyati asosan o‘chta ob’ektga yo‘naltirilgandir.

Birinchidan, shaxs sifatida o‘qituvchi faoliyatining o‘z-o‘ziga yo‘naltirilganligi. Bunda o‘qituvchining:

- «Men» obrazi nazarda tutiladi, ya’ni o‘qituvchi o‘zining qanday inson ekanligini anglab yetadi. Masalan, «Men juda qattiqqo‘lman, shuning uchun bolalarga nisbatan e’tiborli va to‘zimli bo‘lishim kerak», - singari o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lishi.

- mustaqil bo‘lishi, ya’ni u o‘z kuchi va bilimiga ishonishi va uni takomillashtirib

borishi lozim.

- psixologik va fiziologik salomatligi, o‘z-o‘zini himoya qila olishi. Bunda masalan, o‘qituvchining darsda his-hayojonlarini bartaraf etishi, darsni yuqori kayfiyat Bilan olib borishi, har qanday sharoitda ham asab tolalarini saqlagan holda o‘zining komfort holatini buzmaslik va h.k.

- o‘z qadriga etishi, ya’ni o‘zi va o‘z kuchiga ishongan holda mohir o‘qituvchi ekanligini anglashi.

- o‘z mahoratini doimiy ravihda oshirib borishi.

Ikkichidan, o‘qituvchi faoliyatining boshqa shaxslarga, jumladan, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganligidir. Bunda o‘qituvchining:

- o‘quvchilarga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lishi;
- o‘quvchilarning ishonchiga kirishi;
- o‘quvchilarga turli hil vaziyatlarda yordam berishi;
- o‘quvchilarni qullab-qo‘vvatlashi;
- bir-birini tushuna bilishi;
- o‘quvchining fikrlarini to‘liq yoritishiga sharoit yaratishi;
- o‘z qobiliyatlari, imkoniyatlari va o‘zligini anglashiga yordam berishi;
- hokimlik qilishi, ya’ni o‘quvchilarni boshqara olishi;
- muloqotga kirisha olishi.

Uchinchidan, o‘qituvchining o‘z faoliyatiga yo‘naltirilganligi. Bunda o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyati jarayonida pedagogik jamoa orasida:

- o‘z ijtimoiy mavqega ega bo‘lishi;
- o‘z tarafdorlariga ega bo‘lishi;
- o‘z bilimi va tafakkurini oshirib borib, yangilik sari intilishi;
- samarali natijalarga erishishi;

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘**tkirlikni belgilab beradi, “Ukuvchilar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi** o‘**qituvchilar ham** o‘**zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi.**

Xulosa kilib aytganda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimiz ta’lim tizimida izchil davom ettirilayotgan islohotlarning yuqori natijadorligini ta’minlash har birimizning – hammamizning faol sa’y-harakatimizga bog‘liq ekanini unutmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurazakov M.M. Informatika o‘qitish texnologiyasi. - Maxachqal'a: DGPU, 2005. –65 b.

2. Gein A.G. Informatika 7-9 sinflar: Darslik uchun uslubiy qo‘llanma A.G. Gein va boshqalar "Informatika 7-9" - M.: Bustard, 2003.

3. Dvoretskaya, A.V. Kompyuter o‘qitish vositalarining asosiy turlari. A.V. Butler. // xalq ta'limi. - 2006. - 2-son.

3-SHO‘BA. XALQ TA’LIMI XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

UMUMIYLIK VA XUSUSIYLIK DIALEKTIKASIDA NOMUTANOSIBLIK

Uralov Azamat Begnarovich,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nomutanosiblik jarayonlari bilan bog‘liq holda tilning sinxron tizimida paydo bo‘ladigan turli struktur birliklar lingvistik model(andoza, qolip) bilan uzviy bog‘liqdir, chunki til mohiyat, imkoniyat sifatida har bir muayyan sinxron bosqichda sanoqli modellardan tuzilgan bo‘ladi, bular morfemikada sodda va qo‘shma affikslar, so‘z yasalishida sodda yasama so‘z, qo‘shma so‘z, sintaksisda sodda va qo‘shma gap kabi birliklarning modeli, tuzilishi, struktur sxemasidir. Ana shu modelga xos mohiyat nutq jarayonida invariant (umumiy) birlikning varianti (konkret ko‘rinishi) tarzida namoyon bo‘ladi.

Morfema nutqda turli variantlarga ega bo‘ladi. Morfemalarning ishlatilishi turli nutq uslublariga qarab o‘zgarishi kuzatiladi. Bunday o‘zgarishlar tilning o‘ziga xos jozibasini belgilaydi. Jonli til va adabiy til bir-biridan farq qilgani holda ularda kechayotgan o‘zgarishlar ham turlicha. Shuning uchun ham she’riy matnlarda uchraydigan ayrim o‘zgarishlar qofiya talabi bilan yoki barmoq vaznini talabi bilan ro‘y beradi. Bundan tashqari mumtoz she’riyatda ohangdorlikni oshirish uchun ham morfemalarning varianti ishlatiladi. Bu she’riyatga qo‘yilgan talabdan yuzaga kelishi mumkin. Masalan: *ko‘nglima, ko‘nglima, ko‘nglim.*

Yana bir ko‘rinish tarixiy taraqqiyot tufayli yuzaga kelishi kuzatiladi. Bunda morfemalar o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib qolishi, taraqqiyot natijasida o‘zgarishi, nutq va shevaning ta’sir etishi orqali ro‘y beradi. Bunday o‘zgarish ko‘proq holda tarixan sodir bo‘ladi. Singarmonizm hodisasi orqali bu jarayon yanada ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Ko‘pchilik olimlar tomonidan hozirgi tilda singarmonizm hodisasi yo‘q deb hisoblansa-da, tarixan bu hodisaning mavjud bo‘lganligi ko‘plab morfemalarning tarixiy variantlarida boshqa shakllari ham bo‘lganligini kuzatamiz. Bu esa morfemalarning turli variantlarda va shakllarda teng ishlatilganligiga guvoh bo‘ladi. Tarixiy taraqqiyot bugungi kun morfemalarini shakllanishida asos bo‘lgani kabi, turli variantlarning ishlatilishi uchun ham manba sanaladi. Chunonchi, *ko‘zum, so‘zum…* kabi so‘zlar tarkibida kelgan egalik affikslarining bugungi invarianti *-(i)m* shaklida to‘xtagan.

Agar variant shevaga xos bo‘lsa, dialektal hisoblanadi va uning varianti qaysi lahjaga tegishli bo‘lsa, faqat shu dialektga mos ko‘rinish tusini oladi. Ayrim shevalarda variantlarning almashtirib ishlatilishi ham kuzatiladi. Bu holatni kelishik shakllarida ko‘plab kuzatamiz. Masalan, *Chechamga ayting uyga bo‘laman* gapida jo‘nalish kelishigining varianti sifatida o‘rin-payt kelishigining ishlatilishi masalaga oydinlik kiritadi (sheva variantida).

So‘z tarkibida variantlarning qo‘llanishi fonetik hodisalar bilan ham bog‘liq. Bunda tarkib asosga moslashadi yoki asos morfemaga moslashadi. Bunday jarayon

fonetik hodisa asosida yuzaga keladi. Muntazam bir variantda qo‘llanadigan morfema asosga qo‘shilib o‘z tarkibini o‘zgartiradi. Oxir-oqibat bu variantlar o‘z invariantiga ega bo‘ladi. Masalan *-ni* shakli fonetik variantda men asosiga qo‘shilib *-i* shakliga tushib qoladi (yoki asos tarkibidan bir “n” tushib qoladi). Boshqacha qilib aytganda, morfema tarkibida fonetik o‘zgarish ro‘y beradi. Biz morfemalar tarkibida qanday o‘zgarish ro‘y berishidan qat’iy nazar ularni invariantini qabul qilaveramiz.

Misol tariqasida barcha uslublarda keng tarqalgan qaratqich kelishigi invarianti *(-ning*) (invariant – fransuzcha, “o‘zgarmas*”* degan ma’noni bildiradi. Bizning tilimizda *“ma’qul variant, to‘g‘ri variant, adabiy til uchun tanlangan varianti”* degan ma’noni ifodalaydi[42]. shaklining variantlarini ko‘rish mumkin:

1. Poetik variant: *ko‘ngli**n** yarasi, tog‘in erkasi, gulin mevasi;*
2. Tarixiy variant: *Yerda qoldi, o, tanim man**im**, O‘zbekiston vatanim man**im;***
3. Dialektal variant: *kitob**ting** juzi, ko‘zim**ding** qarosi, bolam**ding** bolasi;*
4. Fonetik variant: *men**ing** uyim, sen**ing** ko‘chang*;
5. Invariant: *maktab**ning** hovlisi, ukam**ning** kitobi.*

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, paradigma tarkibiga kirish huquqi faqatgina invariantga beriladi. Shu sababli variantlar orasidan invariant tanlab olinadi. Yuqoridagi 5 variantdan kelishik paradigmasiga kirish faqat invariant shakligagina nasib etgan.

Bir necha variantlarga ega bo‘lgan affiks morfemalarning har bir alohida ko‘rinishi alohida allomorf hisoblanadi. Ular uchun umumiy bo‘lgan invariant morfema deb baholanib, u bir-biriga nisbatan olinuvchi allomorflar yig‘indisini o‘zida aks ettiradi: *-gaz (-qaz, -kaz, -g‘az), -giz (-kiz, -qiz, -g‘iz, -g‘uz)* kabi[43].

Modellashtirish obyektning eng muhim, asosiy, invariant belgilarini o‘zida mujassam etishi zarur. Ayni obyekt – lingvistik birliklarning nafaqat tashqi, balki, eng muhimi, uning ma’no-vazifa qiymati (funksional semantik tomoni) ham alohida ahamiyatga ega lingvistik birlik alohida belgi (ishora, ramz) sanalar ekan, uning ham ifodalovchisi (tashqi tomoni), ham ifodalanuvchisi (mazmun tomoni) nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, sinxron bosqichda o‘zaro muayyan mutanosiblikka kirishib, til tizimida biror paradigmaning a’zosi bo‘lib, sintagmatik yo‘nalishda yaxlit bir belgi-birlik maqomiga ega bo‘ladi.

Fe’lning hozirgi zamon paradigmasidan hozirgi davrda asosiy element sifatida o‘rin olgan *-moqda* qo‘shma affiksi (bormoqda, kelmoqda) boshqa hozirgi zamon shakllari kabi “harakatning nutq vaqtidan oldin boshlanganligi va nutq momentida ham tugamaganligini bildiradi…. Harakatning davomiyligi (tugamaganligi) ma’nosi hozir zamon shakllarining barchasiga xos”[44]. Shu bilan birga, ular ma’no yoki qo‘llanishdagi xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Chunonchi, “Hozirgi zamon fe’lining *-moqda* affiksi bilan yasaluvchi shakl kitobiy uslubga xos. Bu obrazli ifodalarda tantanali, ko‘tarinki nutqlarda qo‘llanadi: *Kech kuz. Oltinday sap-sariq barglar daraxt shoxlaridan chirt-chirt uzilib yerga tushmoqda* (Sh. Sharipov) va boshqalar.

[42] Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.; 1985. – B. 38.
[43] Tojiyev Y. O‘zbek tili morfemikasi. – T.; 1992. – B. 23.
[44] O‘zbek tili grammatikasi, II tomlik, I tom. – T.; 1975. – B. 498.

-*moqda* affiksi bilan yasalgan fe'l shakli -*yap* affiksi bilan yasaluvchi shakl bilan almashtirilsa, voqea oddiy bayon tusini oladi.

-*moqda* affiksi bilan yasaluvchi shaklning birligi va ikkinchi shaxsga nisbatan uchinchi shaxsda, birinchi va ikkinchi shaxsning birligiga nisbatan koʻpligida qoʻllanishining sababi ham uning yuqorida aytilgan xususiyatidan kelib chiqadi"[45].

Tarixan qaralganda, fe'lning hozirgi zamon shakllari aslida mustaqil soʻzning – fe'lning zamon paradigmasiga tortilishi – agglyutinatsiya usulining mahsulidir. Fe'lning *-yap, -yotib, -yotir* shakllari *boʻlayotibdi, borayotir* kabi holatlarda (*borayotibdi* > *borayapti*) fe'lning zamon koʻrsatkichlariga aylangan.

Fe'lning *-moq* harakat nomi shakli va *-da* oʻrin-payt shakli qay tarzda hozirgi zamon paradigmasidan oʻrin olgan? Tarixiy manbalarning koʻrsatishicha, *-moqda* shakli *-makta turur* analitik shaklining keyingi davrlarda qisqarishidan hosil boʻlgan. Masalan, "Oʻgʻuznoma" yodgorligida bu shakl *-guda turur-* shakli bilan yonma-yon (parallel) qoʻllangan: *ichӓgӱ̆sin yemakta turur* ("пожирает внутренности") -*cherikning tapuklarida… yuruguda turur* ("движется впереди войска")[46].

Demak, *-moqda* fe'l shakli modeli hozirgi mavqeini egallaguncha uzoq davrlar osha kesimlik shakli (*turur* shakli)ning predikativ pozitsiyadagi vazifasi susayib, qisqarishga uchrashi va *-moqda* shaklining zamon kategoriyasidan oʻrin olishga imkon yaratgan shakldir: *kelmakda turur* > *kelmoqdadir* > *kelmoq*da kabi jarayon va bosqichlarni bosib oʻtgan.

Demak, koʻrinadiki, muayyan lingvistik modelning shakllanishi til tizimidagi nomutanosiblik (ma'no-vazifa-uslubiy xususiyatlar): ma'nolarning qorishiqligi, koʻp vazifalilik, ma'nodoshlik, shakllarning qoʻllanishdagi raqobat (bir shaklning tobora koʻproq imtiyozga ega boʻlishi, boshqa shaklning arxaiklashuvi) kabi omillar bilan bogʻliq.

Ayni shu kabi kuzatuvlarni til tizimidagi har qaysi modelning shakllanishi va amal qilish tarixini belgilash va izohlashdan ham boshlash mumkin. Lingvistik modelning obyektdagi xilma-xil xususiyatlarini uning funksional – amal qilish, qoʻllanilish, nimaga moʻljallanganlik xususiyatlari belgilaydi[47]. Tildagi modellarning shakllari qanchalik xilma xil boʻlmasin, ularni amal qilish vaziyati va ishlatilishi tizimda mutanosibdir. Bordi-yu ishlatilishi bilan bogʻliq obyekt notoʻgʻri tanlangan boʻlsa, turli nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Bunday modellardan foydalanish nutq uslublarida alohida qayd etiladi.

Til birliklarini modellashtirishda bir qancha usullarni qoʻllash mumkin: "dinamik-semiotik" usul yoki "sintetik" usul hamda "bevosita tashkil etuvchilarni belgilash" yoki "analitik usul"[48].

"Dinamik-semiotik" ("generativ") hamda "analitik" ("taksonomik") tasvirlash va tavsiflash oʻrtasidagi asosiy farq quyidagicha belgilanadi: "analitik" yondoshuvda material (obyekt) sifatida tayyor birliklar (sodda, qoʻshma birliklar)

---

[45] Oʻzbek tili grammatikasi, II tomlik, I tom. – T.; 1975. – B. 499.
[46] Щербак А.М. К истории узбекского литературного языка древнего периода / Академику В.А. Гордлевскому к его 75-летию. – М.; 1953. – С. 320.
[47] Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М.; 1966. – С. 79-99.
[48] Булыгина Т.В. Проблемы теории морфологических моделей. – М.; 1977. – С. 72.

olinib, ularning tarkibidagi morfemalar aniqlanadi hamda tashkil etuvchilararo formal-mazmuniy munosabat, muvofiqlashuv tomonlari koʻrsatiladi. Aniqlangan morfemalarning ifoda sathi hamda mazmun sathi mutanosib holatda aks etishi lozim.

“Sintetik” yondoshuvda esa, aksincha, oldindan tayyor birliklar, soʻz va uning shakllari olinmaydi, balki invariant (abstrakt, mavhum) birliklar, qoidalar toʻplami olinadi. Tegishli qoidalar, soʻz tuzish, soʻz yasash qoidalari tadbiq etilgandan soʻng, xususiyliklardan umumiylik hosil boʻlishi – obyektni aks ettiruvchi tabiiy namoyon boʻluvchi birliklarni aniqlash tilshunosning bevosita vazifasi boʻlib, bu birliklarning til voqeligiga xos boʻlgan modellarga birlashuvi asosiy shart hisoblanadi[49]. Shu bois mavjud birliklar doirasida aniqlangan qoidalar modellar bilan solishtirilib, lisoniy tushuncha hosil qilinadi. Bunday tushunchalar til voqeligiga mos tarzda bayon etish uchun tayyor modellardir. Tushuncha maʼnoning yuzaga kelishi maqomida modellashadi. Aks holda til shakllarga boy va tushunarsiz holatga kelib qoladi. Tilda modelning mavjudligi uning serjilo va harakatchanligini taminlaydi hamda qoliplashtirib turadi.

Turkiy tillarda, oʻzbek tilida qoʻshma affikslardan kengaygan shakllar hosil boʻlishi ham keng tarqalgan jarayonlardan biridir. Masalan, eski oʻzbek tili manbalarida *-(a)yin* (borayin), *-(i)bon* (boribon), *-moqlik* (bormoqlik) yaxlit qoʻshma affiks sanalgan. Keyinchalik ikki qism (komponent)da maʼnoning susayishi (semantik omil), buning oqibatida urgʻusiz boʻgʻinga aylanishi va hatto nutq jarayonida tushib qolish (fonologik omil) natijasida yuqorida qayd etilgan birliklarda semantik-fonetik yaxlitlik yoʻqoladi va ular ikki birlikka: asosiy (borayin shaklida boray, boribon shaklida borib, bormoqlik shaklida bormoq) shaklga aylanadi; *-(i)n, -on, -lik* shakllari esa maʼno-vazifani kuchaytiruvchi fakultativ birlikka aylanadi.

Shunga oʻxshash, lekin boshqacha holat *qarilik-qarichilik, yuzakilik-yuzakichilik* kabi misollarda ham koʻrinadi. Bu juftlikdagi ikkinchi qismda kelayotgan *-chi-* qismining maʼnosi kuchsizlangan “xiralashgan” boʻlib, asosdan anglashilgan maʼnoni kuchaytirish, taʼkidlash kabi maʼnonigina ifodalab, doimiy boʻlmagan, fakultativ qism maqomidadir.

Turkiy tillar, oʻzbek tilida morfemalarning oʻrinlashish tartibi ham oʻziga xos boʻlib, ular muayyan tur morfosintagmalar hosil qiladi. Ularning birikuvi sintagmatik birliklar – soʻz birikmasi va gap tuzilishiga oʻxshash boʻlib, izomorfizm xususiyatiga ega: aniq maʼno ifodalovchi birliklar prepozitsiyada joylashsa, nisbatan mavhum maʼno ifodalovchi birliklar postpozitsiyada joylashadi: bu qonuniyatga binoan oʻzak morfema soʻz yasovchi morfemalardan oldin, oʻz navbatida, soʻz yasovchi morfemalar funksional soʻz yasovchilardan, funksional soʻz yasovchilar esa soʻz oʻzrartiruvchi affikslardan oldin joylashadi[50]. Demak, bu oʻrinlashishda aniq maʼno ifodalovchi morfemalar soʻz boshidan oxiriga qarab oʻzaro nisbatda “aniqlik-mavhumlik” oppozitsiyasi asosida joylasha boradi. Shu jihatdan oʻrinlashgan morfemalarning eng soʻnggisi nisbatan kuchliroq va muhimroqdir. Bunday model oʻzbek tilini oʻziga xosligi uchun asosiy belgi hisoblanadi.

---

[49] Булыгина Т.В. Проблемы теории морфологических моделей. – М.; 1977. – С. 72-73.

[50] Баскаков Н.А. Историко-типологическая морфология тюркских языков. – М.; 1979. – С. 71.

Nomutanosiblik asosida morfemikada hosil bo‘lgan qo‘shma affikslar,

kengaygan shakllar, analitik va sintetik formantlarda tarixan “ikkilik” – binarlik zidligi turlicha ko‘rinish olgan. Qo‘shma affikslar ikki va undan ortiq tashkil etuvchining funksional-semantik yaxlitlashishidan paydo bo‘lgan (*dehqon+chilik, yog‘in+garchilik*); kengaygan shakllar esa qo‘shma affiks qismlarining yangi birliklarga aylanish jarayonini o‘tkazgan (*boribon – bor+ibon – borib+on: -on* morfemasi go‘yo morfologik qayta bo‘lingan); sintetik formantlarda asos va affiks birikmasi “so‘z bo‘lib kela olish” qobiliyatiga ega emas (*boryapman – boryap-* qismi tilda mustaqil qo‘llana olish xususiyatini ko‘rsatish qobiliyatidan mahrum). Bu holat ayrim analitik formantlarda ham kuzatilish mumkin: *yiqila yozdi* birikmasidagi *-a yoz-* formanti ham mustaqil sintagmatik qo‘llanish qobiliyatiga ega emas.

Analitik formantlarda tashkil etuvchi qismlardan ikkinchi qism ma’nosi dolzarb (aktual) bo‘lib, birinchi qism o‘z ma’no qiymatini yo‘qotgan bo‘lsa-da, asos va ko‘makchi morfemani biriktirish, tutashtirishdek funksional qiymatini saqlab qolgan: *-a qol-: kela qol; -a tur: ko‘ra tur; -(i)b chiq: o‘qib chiq* qo‘shilmalarida ravishdoshning *-a, -(i)b* shakllari analitik formantda asosiy semantik qiymatini yo‘qotish darajasiga yetgan.

Ushbu tip shakllarni modellashtirish, birinchi navbatda, ular tarkibidagi tashkil etuvchi qismlarni funksional-semantik qiymati, so‘ng esa ularning tashqi tomoni – fonetik-fonologik, morfonologik belgilarini umumlashtirish, invariant birliklarni aniqlash asosida amalga oshiriladi. Shu sababdan, model tushunchasini til strukturasi nazariyasi, tor ma’noda til amal qilishining mexanizmi yoki tuzilma (struktura)ning semiotik o‘xshashi (analogi) kabi tavsiflash mumkin[51].

Deskriptiv tilshunoslikda binarlik prinsipi asosida so‘z va morfemalarning alohidalik (diskretlik) xususiyati belgilandi. Struktur tilshunoslik asoschilaridan biri L. Blumfildning qayd etishicha, murakkab morfologik qurilishga ega bo‘lgan tillarda konstruksiyalar ierarxiyasini kuzatish mumkin: kompleks tuzilgan – ko‘p morfemali so‘zda uning tarkibiy qismlari, affikslar, modifikatorlar muayyan tartibda qo‘shiladi, ko‘p qavatli qurilmalarning qismlarga bo‘linishi oddiy, binar tamoyil asosida borishi kerak. Bu binarlik ma’lum til va modellar doirasida aniq bir model ko‘rinishini aks ettirishi zarur[52].

Struktur tilshunoslikning boshqa bir yirik vakili Y. Naydaning yozishicha, bevosita tashkil etuvchi qismlarning qatlamlanishi tartibini belgilashda til tizimidagi asosiy modellarni doimo e’tiborda tutish lozim[53]. Binar tuzilmalar paradigmatik qatorlar – invariant birliklarni aniqlab bersa, bu tuzilmalar tarkibidagi elementlarning nutqiy voqelanish – sintagmatik joylashuvi asosiy qism (yadro) va yo‘ldosh qism (deskriptiv yo‘nalishda), markaziy va marginal pozitsiyalarning zidligi (Y.Kurilovich), doimiy qism (konstanta) hamda o‘zgaruvchi qism (glossematiklarda) kabi belgilanishi mumkin[54].

Demak, ko‘p morfemali so‘zlarning paradigmatik xususiyatlari, paradigma a’zolarining sintagmatik voqelanishi til tizimida asrlar osha shakllangan ma’lum

[51] Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. – М.; 1974. – С. 257.
[52] Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. – М.; 1973. – С. 200.
[53] Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. М.; 1973. –С. 200.
[54] Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. М.; 1973. – С. 207.

modellarning hosilasi hisoblanadi. Til tizimining turli sathlarida doimiy tarzda yuz beruvchi funksional-semantik siljishlar, fonomorfologik oʻzgarishlar morfemalararo chegaraning oʻzgarishi, qayta belgilanishiga olib keladi. Natijada nomutanosiblik yangi morfemalar, yangi til birliklarining hosil boʻlishiga imkon yaratadi. Bu oʻrinda morfemalar tizimida amal qiluvchi funksional-semantik chegaralarni toʻgʻri belgilash katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA MASOFAVIY TA’LIMNING MOHIYATI

Mardonkulov Jasur Amirddinovich,
Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazi, p.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya. Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta’lim olishning masofaviy ta’lim shakli ta’lim muhitini yaratish, ta’lim tizimida xorijiy davlatlar oʻqitish texnologiyalaridan foydalanish, oʻqitish imkoniyatlaridan oʻqituvchilar foydalanishlari metodik jihatdan oʻqituvchi va tinglovchining oʻzaro muloqotini oshiradi.

Kalit soʻzlar: masofaviy ta’lim, uzluksiz kasbiy ta’lim, metodika, oʻqitish texnologiyasi, metodik tayyorgarlik, innovatsiya.

СУТЬ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мардонкулов Жасур Амирддинович - Джизакский областной национальный центр подготовки педагогов по новым методикам, п.ф.ф.д., (PhD)

Аннотация. Создание образовательной среды в форме дистанционного обучения в условиях непрерывного профессионального развития, использование в системе образования педагогических технологий зарубежных стран, использование педагогами педагогических возможностей методологически повышает взаимодействие педагога и слушателя.

Ключевые слова: дистанционное образование, непрерывное профессиональное образование, методика, технология обучения, методическая подготовка, инновации.

THE ESSENCE OF DISTANCE EDUCATION IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM

Mardonkulov Jasur Amirddinovich - Jizzakh region national center for training pedagogues in new methods, p.f.f.d., (PhD).

Annotation. Creating an educational environment in the form of distance learning in continuous professional development, using teaching technologies of foreign countries in the educational system, teachers’ use of teaching opportunities methodologically increases the interaction between the teacher and the listener.

Key words: distance education, continuous professional education, methodology, teaching technology, methodological training, innovation.

Oʻzbekistonda ham mustaqillik yillarida ta’limni tashkil etishga innovasion yondashish natijasida uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida deyarli

har bir dars, oʻquv mashgʻulotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tashkil etish an'anasi bir qadar shakllandi. Ayni vaqtda bu boradagi tajribani yanada boyitishga nisbatan ehtiyoj mavjud. Shu sababli pedagoglarda bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qoʻllab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-sonli qarorida uzluksiz kasbiy rivojlantirish shakillari keltirilgan[1]. Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta'lim olishning quyidagi shakillaridan foydalaniladi: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish; ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish; masofaviy ta'lim; dual ta'lim; mustaqil ta'lim; malaka oshirishning muqobil shakillari. Qarorda malaka oshirning masofaviy shaklini tashkil etish belgilangan. Masofaviy ta'lim oʻquv rejalari va dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalarni axborot-komminikatsiya texnologiyalari hamda internet jahon axborot tarmogidan foydalangan holda masofadan turib olishni nazarda tutadi. Masofadan oʻqitish shakli boʻyicha malaka oshirishda dars mashgʻulotlari professor-oʻqituvchining tinglovchilar bilan internet jahon axborot tarmogʻi orqali interaktiv dasturiy tizimlardan foydalangan holda real vaqt rejimida jonli muloqat tarzida amalga oshiriladi. Mashgʻulotlarning bir qismi tinglovchilar bilan kontakt-sessiyalar tarzida auditoriyada yuzma-yuz muloqatda amalga oshiriladi[2].

Masofali oʻqitish zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda axborot kommunikatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda yetakchi xorijiy mamlakatlar masofadan oʻqitish borasida boy tajriba toʻplangan.

Masofaviy ta'lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikasiya vositalari (video, audio, komp'yuter, mul'timedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini koʻrsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdagi an'anaviy hamda innovasion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yoʻnaltirilgan ta'lim

Masofaviy ta'lim texnologiyasi 1969-yilda Angliya prem'erministri G.Vil'son tashabbusiga koʻra shakllantirilgan deb hisoblanadi. Ammo masofadan oʻqitish ancha oldinroq, ya'ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan. 1858 yildan boshlab London universitetida barcha xohlovchilarga ularning mustaqil bilim olishlari, barcha ixtisosliklar va barcha sohalardagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan. 1938 yildan buyon Sirtqi ta'lim boʻyicha Xalqaro kengash, 1982 yildan boshlab, Masofaviy ta'lim boʻyicha Xalqaro Kengash nomi bilan mashhur xalqaro ta'lim tashkilotlari sifatida faoliyat koʻrsatmoqda. Ochiq universitetlardagi oʻqish xarajatlari an'anaviy institutlarda oʻqitishga qaraganda 8-10 marta arzon. M: Angliyada turgʻun oʻqishga 3000, masofaviy oʻqitish orqali bilim olishga esa atiga

300 funt sterling to‘lanadi. Binolarga xizmat ko‘rsatish, jihozlar va laboratoriya uchun xarajatlar, o‘qituvchi, ma’muriyatlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar shtati qisqaradi. Ta’lim oluvchilarga filiallar tarmog‘i, telestudiya va komp'yuter tarmog‘i orqali maslahatlar beriladi. Angliyada o‘quvchilarni tayyorlash dasturi 130 ta kursni o‘z ichiga qamrab oladi, ularning ko‘plari fanlararo bog‘lanish xususiyatiga ega[3].

O‘qitishning bu shakli ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarning birbirlari hamda o‘qitish vositalari bilan o‘zaro ta’sirining maqsadga yo‘naltirilgan interfaol jarayonidan iborat bo‘lib, bunda ta’lim jarayoni ularning fazoviy joylashishiga bog‘liq bo‘lmaydi. Ta’lim jarayoni kichik tizimlardan iborat, ya’ni o‘qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari, nazorat, o‘quvmoddiy, moliyaviy-iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy va marketing kabi elementlarni qamrab olgan o‘ziga xos pedagogik tizimda kichadi[4].

Uzluksiz ta’lim tizimining xar bir bo‘g‘inida fanlarni o‘qitish bo‘yicha uslubiy taxlil o‘tkazilishi, ularda ro‘y bergan yoki yo‘l qo‘yilgan asosiy kamchiliklar va ularni oldini olish va bartaraf etishning uslubiy shartlari ko‘rsatilishi lozim. Fanlarni o‘qitish bo‘yicha uslubiy taxlilda tavsiya etilayotgan pedagogik texnologiyalardan amalda foydalanish bo‘yicha quyidagi natijadorlikni beradi: o‘quvchilarni fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarining kengayishi va mustaxkamlanishi; o‘quvchilarda mustaqil ishlarni bajarish orqali ularga mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish; o‘quvchilarning abstrak tafakkurini va tasavvurini rivojlantirish, nazariyada va amliyotda uchraydigan hisoblash malaka va ko‘nikmalarini, mustaqil fikrlashining rivojlantirishini ta’minlovchi pedagogik texnologiyalar orqali o‘quvchilarning malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish xamda mustaqil fikrlashini o‘stirish uchun zarur bo‘lgan xislatlarni barqaror toptirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4963-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-sonli qarori.

3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B./

Innovasion ta’lim texnologiyalari /– T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

4. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari /O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakul'teti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2014.

5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2014.

СОЗДАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ КРОССВОРДОВ В ПРОГРАММЕ «HOT POTATOES» КАК ИННОВАЦИОННОЕ СРЕДСТВО В ОБУЧЕНИИ

Ханкельдиева Нигора Матлябовна,
старший преподаватель кафедры Точных и естественных наук Ферганского областного национального центра обучения педагогов новым методикам, nigoraxankeldiyeva1970@gmail.com

Ушбу мақолада «Hot Potatoes» дастурининг имкониятларидан бири – интерактив кроссвордларни тайёрлаш ва ўқув жараёнида фойдаланиш масалалари кўрилган.

Таянч тушунчалар: кроссворд, интерактив, креатив, ресурслар, жараён, дастур, мультимедиа.

В данной статье рассмотрена одна из возможностей программы «Hot Potatoes» - создание и применение интерактивных кроссвордов в школьном процессе обучения.

Основные термины: кроссворд, интерактивность, креативность, ресурсы, процесс, программа, мультимедиа.

This article is devoted to opportunities of the program “Hot Potatoes”- the ways of making and using interactive crosswords in educational sphere of school.

Key words: crossword, interactive, creative, resources, procedure, program, multimedia.

Развитие продуктивной учебной деятельности, автономии и креативности учащегося требует, чтобы преподаватель был сам автономным, креативным и способным к гибкости, профессиональной адаптированности и постоянному творческому поиску. Современные продуктивные технологии в области обучения ориентированы на «ученика-исследователя», рефлексивного пользователя.

В учебном процессе предлагаю активно использовать ИКТ-технологию, благодаря которой удаётся вовлекать учащихся в интерактивную деятельность на уроках, поставить каждого ученика в центр учебного процесса, сделать его активным субъектом деятельности учения, организовать его творческое взаимодействие с другими учащимися, дать возможность реализоваться как личности, придать учебному процессу

реальную практическую направленность.

На уроках предлагаю с учащимися практиковать создание кроссвордов. Кроссворд - это самопроверка, занимательный тест. Детские кроссворды, например, помогают ребятам зрительно запомнить написание каких-то слов, пополнить словарный запас, а также подготовиться к школьному уроку.

Кроме того, дети сами с удовольствием составляют такие задания, нужно лишь объяснить им несложные правила.


Для работы потребуется компьютер с установленной программой «Hot Potatoes». Это популярный среди педагогов пакет программного обеспечения учебного процесса. Программу можно установить с сайта http://hotpot.uvic.ca/




За урок (45 минут) дети могут сформировать кроссворд, состоящий из 6-10 слов.


В помощь учителям и учащимся предлагаю подробную пошаговую инструкцию для составления кроссворда по зоологии на тему «Дикие звери», этой инструкцией также могут воспользоваться и учителя других предметов. Данный кроссворд можно использовать на уроках, на внеклассных занятиях как процесс усвоения и повторения пройденного материала.

Инструкция по работе с программой HotPotatos6 (JCross)

- Запустите программу (Пуск – Программы - HotPotatos6 – выбрать JCross).
- Введите имя кроссворда.
- Для формирования сетки щёлкните по кнопке , в открывшемся окне введите слова, составляющие основу кроссворда (каждое отдельной строкой).
- После ввода всех слов, щелкните кнопку «Создать сетку», сетка кроссворда будет сформирована автоматически.



- Нажмите кнопку «Определения», в открывшемся окне введённые вами
слова будут разделены на две группы (по горизонтали и по вертикали), щёлкните по слову, в нижнем окошке введите для него определение, нажмите ОК, расположенную справа.
- Проделайте эту процедуру для каждого слова, в конце нажмите ОК внизу окна.



- Настроим внешний вид кроссворда, для этого нужно щёлкнуть по кнопке , откроется окно «Файл конфигурации».
- Вводим следующую информацию (на разных вкладках этого окна).
- Сохраним результаты работы: Файл - Сохранить как (выбрать в папке «Документы» папку своего класса, ввести имя файла).
- Создадим web-страницу (Файл - Создать Веб-страницу), сохраним её с тем же именем в своей папке и просмотрим в браузере.

Главные достоинства составления кроссвордов в программе «Hot Potatoes»:

- сравнительная простота использования, позволяющая создавать интерактивные обучающие приложения самостоятельно, не будучи специалистом в области ИКТ;
- бесплатный доступ к скачиванию и использованию;
- разнообразие создаваемых учебных заданий, возможность использования в заданиях мультимедийных файлов;
- хорошее методическое обеспечение, представленное в сети Интернет;
- возможность использования созданных приложений в режиме оффлайн (без подключения к Интернету, что очень актуально для большинства наших преподавателей).

МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ИЖОДИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Каримов Равшанбек Ризоматович,
мустақил изланувчи, Чирчиқ давлат педагогика университети

Аннотация. Ижодий компетенцияларни ривожланиши инсон мавжудлигининг нормасидир. Ҳар бир инсон ижодий қобилиятга эга, аммо жамиятга керак бўлмагунча ва шахс уни амалга ошириш имкониятига эга бўлмагунча ижодий “генетик хазина” ўз-ўзидан очилмайди.

Мақолада ижодий қобилият, интеллектуал ва махсус қобилиятлар, интеллектуал ва маънавий фаолият, ижодий компетенция тўғрисида сўз юритилади.

Калит сўзлар. қобилият, компетенция, ижодкорлик, интеллект, маънавий фаолият, мотивация, ижодий иш, технология.

Фан-техника тараққиёти жадал суръатлар билан ривожланиб боргани сари илмий-техник ижодкорлик тобора кўпроқ илм ва меҳнат талаб қилувчи жараёнга айланиб бормоқда. Замонавий шароитларда самарали техник ечимларни ишлаб чиқиш учун нафақат ахборот ва маълумотлардан, балки энг янги билимлардан ҳам фойдаланиш зарурати юзага келмоқда. Ушбу омиллардан янги ахборот технологиялари воситасида фойдаланиш ақлий меҳнат сарфининг тежамкор технологиясини ишлаб чиқиш, яъни илмий-техникав ахборотлар, энг янги маълумотлар билан тезкор танишиб бориш, уларни қидириш ва таҳлил қилишнинг самарали усулларини жорий қилиш, амалга оширилган вазифани қайта ишлашни бартараф қилиш имконини беради. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли Қарорида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиққан ҳолда таълим кластери шароитида мактаб ўқувчиларини ижодий компетенцияларини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш самарали йўналишлардан бири ҳисобланади.

Ижодий компетенцияларнинг тарбия ва ўз-ўзини тарбиялаш воситаси сифатида шахсни шакллантиришнинг педагогик назарияси А.И.Леонтьев, Н.Ф.Талызина, П.Я.Гальперинлар томонидан ишлаб чиқилган. Улар ўз тадқиқотларида асосий эътиборни ўқув фаолиятининг мақсадга йўналтирувчи асосларини аниқлаш, тескари алоқа каби омилларга қаратганлар. Бу ишларда фаолият, фаолият субъекти омили эътибордан четда қолдирилган бўлиб, уларни педагогик амалиётга жорий этиш бир қанча мураккабликларни келтириб чиқаран [2].

Таълим жараёнида ижодий компетенция муаммоларини Т.В.Кудрявцев [3], ижодий масала ва муаммоларини В.Г.Разумовский [4]лар таҳлил қилганлар. П.Н.Андрианов [5] ўқувчилар техник ижодкорлиги мисолида ижодий компетенцияларни ғояни идрок этиш ва асослаш; топшириқни техник жиҳатдан ишлаб чиқиш; топшириқ (объект) устида ишлаш; объектни ишда

синаб кўриш ва ижодий ечим натижасини баҳолаш каби босқичларга бўлиб кўрсатади. Бироқ, ўқувчиларнинг ижодий компетенцияси нисбатан соддароқ жараён бўлганлиги сабабли келтирилган босқичларни бевосита тадбиқ қилиб бўлмайди.

Ижодий фаолиятнинг ижодий бўлмаган фаолиятдан фарқи унинг натижасининг "ўзига хослиги" бўлиб, бундан ташқари, қўшимча қийматга –

муаллиф ҳиссасига ҳам эга.

Шунингдек, ижодкорлик - кенг маънода - шахснинг ривожланишига, бизнинг ҳолатда, прогрессив, самарали ривожланишга олиб келадиган ўзаро таъсирдир. Шахс ижодий компетенциясининг ривожланиши умуман ижодий қобилиятни ривожлантиришни, шунингдек, шахснинг ақл, тасаввур, ижодкорлик каби бошқа хусусиятлари ва қобилиятларини ривожлантиришни назарда тутади.

А.Маслоунинг фикрига кўра, ижодкорлик ҳар бир кишига туғма хос бўлган, лекин муҳит таъсирида кўпчилик томонидан йўқолган ижодий йўналишдир. Шунинг учун, қулай муҳитни тўғри, ўйланган ҳолда яратиш билан, қўлланилиши ва ривожланиши мумкин бўлган ижодкорлик шаклланади. Ижодий компетенцияларни ривожланиши инсон мавжудлигининг нормасидир. Ҳар бир инсон ижодий қобилиятга эга, аммо жамиятга керак бўлмагунча ва шахс уни амалга ошириш имкониятига эга бўлмагунча ижодий "генетик хазина" ўз-ўзидан очилмайди.

Ижодий қобилият - бу ижодий компетенция намоён бўлишининг шартидир. Худди шу шартларга ўртача даражадан юқори бўлган умумий интеллектуал ва махсус қобилиятларнинг мавжудлиги, шунингдек, бажарилаётган вазифага иштиёқ киради.

Ижодкорлик инсоннинг интеллектуал ва маънавий фаолиятида амалга оширилади. Интеллект "янги сўз", яъни янгича ташкил этилган маълумот беради. Маънавий фаолият эса "фикрлар авлоди" дир. Шунинг учун шахс шаклланишининг барча босқичларида интеллектуал ва маънавий фаолиятни рағбатлантириш ва ташкил этиш зарур. Ихтисослашув ижодкорлик учун рағбат беради. Шу билан бирга, нафақат шахснинг қобилиятларини ривожлантириш, балки ижодкорлик учун мотивацияни яратиш ва ижодий иш технологиясини ўзлаштириш ижодий компетенцияни такомиллаштиради. Ташқи муҳитнинг роли шахсни ижодий жараённинг табиийлигига ишонтириш ва уни ўргатишда, шахсни ижодий меҳнат технологиялари билан таъминлашда камаяди.

Ўқувчининг ижодий компетенцияларининг асоси - маданият даражаси

ҳисобланади.

Маданият:

а) аниқ инсон фаолияти тизимлари;

б) маънавий қадриятлар йиғиндиси;

в) инсоннинг ижодий моҳиятини ўз-ўзини англаш жараёнини тушунишга асосланади.

Ўқувчиларнинг ижодий компетенцияларини ривожлантиришда улар

билан мулоқот ва муносабатларни ташкил этиш, ўқувчиларда мақсадга мувофиқ ҳаракат қилиш, оқилона фикрлаш ва ўзини атроф-муҳитда самарали ифода этиш кўникмаларини шакллантиришга кўмаклашиш, ташаббускорлик, мустақиллик, очиқлик, самимийлик, ўзини намоён қилиш каби фазилатларни ва малака талабларига мувофиқ бажарилаётган иш турларининг сифати учун юқори даражадаги масъулиятни шакллантириш муҳим аҳамиятга эга.

Мактаб ўқувчилари билан ишлашда, ҳар қандай дарсда ижодий компетенцияларни ривожлантириш керак. Шунда мавзу зерикарли эмас, балки тушунарли бўлади ва болалар янги нарсаларни кашф қилиш, ўзларини такомиллаштириш ва биринчи навбатда, қобилиятларини ҳайратланарли жараёнга жалб қиладилар. Ижодкорлик билан шуғулланаётганда, бола дарсда эканлигини унутади, ўзини қизиқарли, ностандарт нарсанинг иштирокчисидек ҳис қилади ва ўзини ижодкор сифатида исботлашни хоҳлайди, дарсга қизиқиш билан боради, диалог ёки нутқда қатнашади. Ижодкорлик ҳукмрон бўлган бундай дарсларда сифатнинг юқори бўлади, чунки ўқитувчи шахснинг муваффақият ҳолатини олдиндан айтиб беради ва ташкил қилади.

Шунингдек, ижодкорлик - кенг маънода - шахснинг ривожланишига олиб келадиган ўзаро таъсирдир. Бизнинг ҳолатда, прогрессив, самарали ривожланишга. Ижодий компетенцияларни ривожлантириш шартлари ва усуллари қуйидагилардан иборат:

1. Синфдаги муҳит: ишонч, хайрихоҳлик, ўқитувчининг меҳнатга муносабати.

2. Санитария-гигиена меъёрларига риоя қилиш.

3. Дарсга мос келмайдиган материалнинг бўлмаслиги.

4. Ўқитувчи маданияти: кийим-кечак, нутқ, вазминлик, назокат, ўқувчиларга эътибор, синф кайфиятига кўра қайта ташкил этиш, ўзига жалб этиш, фақат ўз иштиёқи намунаси билан янги ютуқларга илҳомлантириш.

5. Мавзуга сингиб кетиш.

6. Материалнинг ижодий тақдимоти.

7. Рационализация, муваффақият, ижодкорлик, самарадорлик, ҳамкорлик, ғайрат, ташаббус, мустақиллик, содир бўлган нарсадан ҳайрат ва қувонч каби ижодий салоҳиятни юзага чиқаришга қаратилган ностандарт вазифалар.

8. Ижодий ишларни ҳар хил турдаги топшириқлар билан гуруҳларга ажратиш ва уларни бир-бирлари билан таққослаш ва баҳолаш.

9.Болаларнинг жамоада ўз-ўзини англаш усуллари.

10. Муваффақиятли вазиятни яратиш.

Мактаб ўқувчиларини ижодий компетенцияларини ривожлантиришда боланинг таълим жараёнига чуқур киритилиши, шахсга йўналтирилган педагогика, унинг интерфаол таълим шакллари, фаоллик ёндашуви муҳим аҳамиятга эга бўлиб, унда ўқувчининг фикри ва тасаввури, ҳис-туйғулари, шахсияти намоён бўлади. Болалар шеърлар, эртаклар ёзишдан, кичик китоблар ясашдан, газеталар тайёрлашдан, ҳатто шоир ва ёзувчиларнинг таржимаи ҳолларини қидиришдан, тақдимотлар яратишдан, турли манбалардан

маълумот олишни ўрганишдан қўрқмайдилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида. 187-сон. 2017 йил 6 апрель.

2. Зойиров К.А. Политехнические основқ формирования конструкторско-
технологических знаний и умений будуших учителей труда (с применением
компьютерной техники). Дисс....канд.пед.наук.-Т.,1993. 138 с.

3. Кудрявцев В.Т. Формирование творческих способностей человека: проблемы методологии. // Современные проблемы теории творчества/ Под ред. Г.Я.Буша. -М.: НПО "Поиск", 1992. с. 41-55.

4. Разумовский В.Г. Ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ўстириш. -Т.:"Ўқитувчи", 1978. 285 б.

5. Андрианов П.Н. Мактаб ўқувчилари техник ижодкорлигини ривожлантириш // Ўқувчиларнинг техник ижодкорлиги. Тузувчи П.Н.Андрианов. - Т .:"Ўқитувчи", 1989.128 б.

6. Маслоу А. «Мотивация и личность» 2002 г.

BOSHLANG'ICH O'QUVCHILARNING CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna,

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilish, yozuvni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o'qitish usullarini, yozuvga o'rgatishning gigenik shartlarini, o'quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini xulosalar berib borish va yaxshilash ,o'rganish jarayonini foydali va samarali usullari va namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: chiroyli yozuv, tez yozish, gigienik talab.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug'i asosida pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ'ib qilishni rivojlantirishda o'quvchilarni mas'ulayatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib yoshlar bo'lib etishishlariga katta hissamizni qo'shishimizga turtki va ma'suliyat talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o'qitish

usullarini, yozuvga o‘rgatishning gigenik shartlarini, o‘quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur. O‘qituvchining namunaviy yozuvi – bolalarda to‘g‘ri yozuvni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yozishga o‘rgatish ko‘pincha taqlid qilish orqali amalga oshadi. O‘qituvchining birinchi o‘quv yilida sinf taxtasi yoki o‘quvchi daftariga yozganlari asl nusxa sifatida ko‘riladi, chunki o‘quvchilar undan o‘z daftariga ko‘chirib oladilar. Shuning uchun o‘qituvchining husnixati to‘g‘ri va chiroyli bo‘lishi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuvi esa o‘quvchining daftaridagi harflarning joylashishiga mos holda bo‘lishi kerak. Amaliyotning ko‘rsatishicha, agar o‘qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa (to‘ldirmasa), bolalar ham undan namuna olib qatorning oxirigacha yozishmaydi, qog‘ozni bekorga sarf etishadi va so‘zlarni keyingi qatorga to‘g‘ri ko‘chirish yo‘llani o‘rgana olmaydilar, shubhali hollarda qator oxirigacha ko‘chirmaydigan bo‘lishadi. O‘qituvchi o‘z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo‘lishi uchun uzluksiz shug‘ullanib borishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi shart. Shunday fikrlar bor, agar muntazam yozib borilsa, yozuv yaxshilanib boradi. Lekin buning aksi ham bo‘lishi mumkin: inson qanchalik ko‘p yozsa, uning yozuvi shunchalik tushunarsiz bo‘lib borar ekan. O‘qituvchi to‘g‘ri husnixatda yozishni o‘rganib olishi lozim.O‘qituvchi faqat nazariy jihatdangina emas,balki har bir harf uchun yo‘lga qo‘yilgan amaliy proporsional bog‘liqlikni ham bilishi darkor. Shu bilan bir vaqtda lozim bo‘lgan mashqlar orqali qo‘l kaftini va barmoqlar harakatini engillatish va rivojlantirish kerak bo‘ladi. O‘qituvchi sinf taxtasida yozish usullarini ham egallab olishi lozim. Sinf taxtasida yozish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Masalan, harflarni grafik yozish, uning uzoqdan qanday ko‘rinishini hisobga olmasdan yozish, barcha asosiy va birlashtiruvchi unsurlarni bir xil qolipda yozish kabi . Faqatgina yaxshi yozuvga ega bo‘lgan holdagina o‘qituvchi bolalarga namuna bo‘la oladi va ulardan yaxshi natijalar olishi mumkin. O‘quvchilar harflarning tuzilishini, uni chizishdagi ketma-ketligini yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun o‘qituvchi bularning hammasini sinf taxtasida ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatishi lozim. Tajribalarning ko‘rsatishicha, o‘quvchi chiroyli va to‘g‘ri yozuvda sinf taxtasiga bo‘rda aniq va chiroyli yozadigan o‘qituvchining o‘quvchilari chiroyli va to‘g‘ri yozadilar.

Sinf taxtasida yozish malakalariga quyidagilar kiradi:

1-navbatda qo‘l harakatini rivojlantirish; simmetriyani his qilish va taxtaning qaysi qismida yozilgan harf, so‘z va fraza yozilganini tezda topishni; bir qarashda topishni o‘rgatish lozim. Bundan so‘ng bo‘r bilan yozishni u bilan ishlash texnikasini o‘rganib olish lozim. Bo‘r bilan yozishda ingichka va qalin shtrixlarni yozishni, shuningdek, ingichka chiziqdan bosib yozishga o‘tish va h.z. malakalarni

egallashi lozim. Yozuvda sinf taxtasi va bo‘rning sifati katta ahamiyatga ega.

1. O‘qituvchi bolalarning daftaridagi xato-kamchiliklarni o‘z o‘rnida aniq ko‘rsatmasligi natijasida bolaning yozishiga nisbatan e’tiborsizlik yuzaga keladi.

2. Aniq va to‘g‘ri husnixatda yozishga nafaqat husnixat darsida, balki, barcha dars turlarida va sinfdan tashqari yozuv ishlarida, yozma ariza, ular tomonidan tayyorlanadigan ko‘rgazmalar (devoriy gazetalar, jadvallar, shiorlar va h.z.) amal qilish kerak. Orfografik - to‘g‘ri, aniq va tushunarli qilib yozishni talab etish

jarayonida o‘qituvchi o‘quvchining pala-partish yozuvini va ikki varaq qog‘ozga yozgan yozma ishini ham nazorat qilib borishi lozim. Har bir o‘quvchining daftari tartibli bo‘lishiga erishish kerak.

3. Husnixatga o‘rgatish izchil va ketma-ketlik xarakteriga ega bo‘lishi lozim. O‘rgatish jarayonida o‘qituvchining dastur materialini, o‘quvchini soddaroq shakliy ko‘rinishga ega bo‘lgan harflardan, murakkabroq ko‘rinishga ega harflarga o‘tkazishga va yirik hamda sekin yozuvdan, mayda va tez yozuvga o‘tkazishda e’tibor beriladi. Husnixat mashqlari o‘zaro bog‘liqlikda muntazam uyushtiriladi. Shuni yodda tutishi kerakki, bolani sekin yozuvda harfni to‘g‘ri èzishni o‘rganib olmaguncha tez yozuvga o‘tkazish mumkin emas. Shuning uchun ham dasturda tez yozish ko‘nikmalari 3-4-sinflarda shakllantiriladi.

4. Ayrim o‘quvchilarning yozuvidagi individual farqlarni kuzatib borish mumkin. Bu farq o‘ta qiya yozilishda va hokazolarda kuzatiladi.

Yozuv gigiyena va qoidalari.

1-sinfda o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini chuqur singdirish uchun “Partada qanday o‘tirish kerak?” degan mavzuda suhbatlar tashkil qilish, hamda o‘tirish qoidasiga oid rasm albatta bo‘lishi shart. Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagicha qoidalarni eslatib turishi zarur.

1. To‘g‘ri o‘tiring. Boshingizni sal oldinga eging. Ko‘kragingizni partaning chetiga tiramang.
2. Boshingizni to‘g‘ri tuting.
3. Ko‘zingiz bilan daftar orasidagi masofani to‘g‘ri saqlang.
4. Tirsaklaringizni partaga yengil qo‘ying.
5. Oyoqlaringizni partaning oyoq qo‘yiladigan yeriga qo‘yib o‘tiring. Yozish vaqtida yorug‘likning qaysi tushayotganiga alohida ahamiyat berish zarur. Sinf xonasining yorug‘ bo‘lishi ko‘zning yaxshi ishlashi uchun eng zarur shartdir. Agar sinfda yorug‘lik normal tushib turmasa, sinf xonasi qorong‘iroq bo‘lsa, yoki aksincha, juda yorug‘ bo‘lsa, ko‘z tez charchaydi va yozuv sifati bo‘ziladi.

Ayniqsa, 1-sinf o‘quvchilariga alohida e’tibor berish lozim, chunki ularning gavda tuzilishi va muskullari hali rivojlanmagan bo‘lib, bir holatda o‘zoq o‘tirish ularni charchatib qo‘yadi. Shuning uchun bu davrda yoshlarini hisobga olib yozuv mashqlarini bir necha qismlarga bo‘lib, bolalardagi charchash hollarini hisobga olib, jismoniy mashqlar va turli o‘yinlar o‘tkazib turish talab etiladi.

O‘quvchilarda yozuv malakalarini hosil qilishdan avval ularni sifatli yozuv qurollari bilan to‘liq ta’minlash talab etiladi. Yozuvlarning chiroyli bo‘lishi ko‘p jihatdan yozuv quroliga bog‘liqdir.

O‘quvchilarning yozuv qurollarini muntazam tekshirib borish har bir

o‘qituvchining muhim vazifasidir.

O‘qituvchi – yozayotganda avtoruchka uch barmoq, bosh, ko‘rsatkich, o‘rta barmoq bilan ushlanadi. O‘qituvchi o‘zi ko‘rsatadi, o‘quvchilar takrorlaydilar.

Ko‘rsatkich barmoq bilan ruchkaning uchigacha bo‘lgan masofa 1,5-2 sm gacha teng bo‘lishi lizim.

O‘quvchilarni yozuv malakalarini Shakllantirish doska ya’ni xattaxta ham muhim rol o‘ynaydi. Doska sinf xonasiga moslab osib qo‘yilishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun xattaxta poldan 85 sm yuqorida o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Xattaxtalar yozuv darslari uchun moslashtirib kataklarga ajratilgan bo‘lishi lozim.

Doskadagi chiziqlar daftardagi chiziqlardan 10 marta katta bo‘lishi kerak. Kichik harflar yoziladigan chiziqlar daftarda orasi 4 mm bo‘lsa, xattaxtada 4 sm bo‘lishi lozim.

Bo‘r yumshoq, nam bo‘lmasligi kerak. Bo‘r 15x15 mm li kvadrat Shaklida bo‘lib, o‘zunligi 50 mm dan oshmasligi, 30 mm dan kam bo‘lmasligi kerak.

O‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatishda ko‘p jihatdan aytib o‘tilgan omillar

ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarda chiroyli yozuvga o‘rgatishda quyidagi eng asosiy yozuv usullaridan foydalanilmoqda.

Yozuvdagi individuallik o‘ziga xoslikni 4-sinflarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar jarayonida aniqlash mumkin, chunki bu davrda o‘quvchilar mustaqil ravishda bir chiziqli daftarga yozishga o‘tgani bo‘ladi. O‘quvchida aniq va ravon yozuv hosil bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘quvchining butun diqqatini harfning grafik shakliga, boshqa harf bilan qo‘shilib ketmasligiga, har biri bir-biridan o‘ziga ko‘rsatilgan o‘lchamga e’tiborini qaratishi lozim. 5. O‘quvchilarning husnihat bilan to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish, husnixatga o‘rgatish ishlarini tizimli tarzda olib borish talab etiladi. Buning uchun ham o‘quvchilar to‘g‘ri yozuvning har kungi ko‘nikmasi bilan cheklanib qolmay, uzluksiz ravishda nazorat-tekshiruv ishlarini olib borishlari zarur bo‘ladi. O‘quvchilar nazorat vaqtini oldindan bilganlari ma’qul, chunki bungacha ruchkadagi kamchilikni va daftarni tayyorlab qo‘yishga vaqt ajratadilar. Yozib bo‘lgach, bolalar o‘z ishlarini o‘rtoqlari bilan almashadilar va o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qiladilar. Eng yaxshi ishlar o‘quvchi burchagiga ilib qo‘yiladi. Nazorat paytida husnixat qoidalariga rioya etgan holda yozilganiga, harflarning to‘g‘ri yozilganligiga, matnning oson o‘qilishiga, yozuv bir tekisligiga, matnni o‘qish uchun va qog‘ozni tejashni rejalay olishga e’tibor berish lozim. Muntazam ravishda nafaqat ona tili darslaridagi yozma ishlarini, balki o‘quvchining boshqa o‘quv fanlaridagi yozuvini ham tekshirib borish lozim. Nazorat-tekshiruv ishlarini bir-biri bilan solishtira olishi uchun o‘quvchilarning ishlarini maxsus joyga ilib qo‘yiladi. Buning uchun nazorat - tekshiruv ishlarini alohida qog‘ozga yozish kerak va u uncha katta bo‘lmagan matn asaosida bo‘lishi kerak. Yozuv malakasini yaxshilanganligini solishtirib borish uchun har bir o‘quvchining nazorat - tekshiruv ishlarini saqlab qo‘yish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki husnixatga o‘rgatishning vazifasi harf, so‘z,

gap va matnni to‘g‘ri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni o‘rganish jarayonida o‘quvchi tovushning shakli bo‘lgan harfni, so‘z va gapni kitobdan va doskadan to‘g‘ri, husnixat qoidalariga rioya qilib ko‘chirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yo‘l qo‘ygan grafik kamchilik hamda xatolarini o‘qituvchi rahbarligida o‘zi tuzata olishi kerak. Bu davrda eshitib yozish ko‘nikmalari ham rivojlantirib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Gulomov, K. Tursunova, D. Po‘latova “Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish” Uslubiy qo‘llanma Toshkent “Turon Iqbol 2013.
2. G‘ulomov M. ”Husnixat” 1-sinflar uchun-T. :O‘zbekiston 2002.
3. G‘ulomov M. ”Husnixat”2-sinflar uchun-T. :Cho‘lpon 2003.
4. Munavvarxon Yo‘ldosheva. “O‘quvchi yozuvi nega xunuklashadi?” Ma’rifat gazetasi 2018-yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISHNING KUNDALIK HAYOTIDAGI TASHKILIY SHAKLLARI

Abdullayeva Nigora Raximovna, Abduraxmonova Mohitabonu Faxriddin qizi

Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti katta qituvchisi,

Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Annotatsiya. ushbu makolada bolalarda maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar hayotini tashkil etish har tomonlama tarbiyalash vazifalariga kompleks yondashish asosida, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli va metodlari birligi asosida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: bolalar, tarbiya, vazifalar, metodlar, shakli, sog‘lomlashtirish, fiziologlar, psixologlar, pedagoglar, prinsiplar, rivojlantirish, jamoatchilik.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar hayotini tashkil etish har tomonlama tarbiyalash vazifalariga kompleks yondashish asosida, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli va metodlari birligi asosida quriladi. Hayotning tashkil etish-bu hayot faoliyatining asosiy jarayonlarini turli yosh guruhlaridagi bolalarning yakka, kichik guruhlar va umumiy guruhlar shaklidagi faoliyati va ta’limini maqsadga muvofiq joriy etish, birga qo‘shib olib borish, shuningdek har bir bolani har tomonlama va garmonik tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishdir.

Hozirgi paytda maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘quv tarbiya jarayoni sifatini oshirish va bolalar hayotini tashkil etish zarurati vujudga keldi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiyaviy va sog‘lomlashtirish ishining barcha bosqichlarida bolalarning yosh guruhlaridagi hayotini tashkil etish takomillashib kelgan va bunga fiziologlar, psixologlar, pedagoglar:

- E.I.Tixeyeva, E.A.Flerina, A.P.Usova, N.M.Shelovanov, N.M.Aksarinalarning tadqiqotlari asos bo‘lgan. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning quyidagi umumiy prinsiplarini ishlab chiqqan:

1. Bolalarning har bir yosh guruhlardagi birgalikda hayot tarzi. Bu prinsip asosida guruhdagi barcha bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni jamoatchilik ruhida tarbiyalash uchun bir xil sharoitni ta’minlash ko‘zda tutiladi.
2. Guruhlarni komplektlashning yosh prinsipi bolalarning har bir guruhida

bir yoki ikki yoshning bo‘lishni taqozo etadi va ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya jarayonini ta’minlaydi.

3. Guruh bolalarini har tomonlama faoliyati va muloqoti uchun zarur moddiy muhitini yaratish. Bu prinsipga ko‘ra guruhlar xonalarini va uchastkalarini pedagogik gigiyenik va estetik talablarining yagona birligi asosida jihozlash va obodonlashtirish amalga oshiriladi.

4. Kun tartibining doimiyligi va yosh xususiyatiga bog‘liqligi. Ilk va maktabgacha tarbiya yoshida asosiy hayotiy faoliyatri bir xil emas. Ilk yoshdagi birinchi va ikkinchi guruh bolalarining o‘z xatti-harakatini idora etishdagi ixtiyoriy qobiliyatining yo‘qligi nochorligi ular hayotini tashkil etishda har bir bolaga parvarish uchun ko‘p vaqt ajratish zaruratini keltirib chiqaradi. Kun tartibini bajarishda o‘z-o‘zini tashkil eta olish ko‘nikmasi tufayli mashg‘ulotga, o‘yinga, mehnatga vaqt qoladi.

5. Turli faoliyat ko‘rinishlarini (o‘yin, mehnat, ta’lim) joriy etish: ularning kun tartibidagi o‘rni, bolalarning rivojlanish darajasiga ko‘ra bu faoliyat turlarini qo‘shib va navbatlashtirib turish, bola shaxsining shakllanishidagi roli.

6. Yosh guruhlarida bolalar hayotini ular hayoti va sog‘ligini muhofaza etishga yo‘naltirilgan holda tashkil etish. Mazkur prinsip asosida yasli guruhlari uchun xonalar ajratiladi, mebel va jihozlar tanlanadi, qo‘llanma va materiallar joylashtiriladi, ovqat tayyorlanadi, chiniqish sistemasi va harakat faoliyati rejimi joriy etiladi.

7. Bolalar hayotini tashkil etishda estetik talablarga rioya qilish ulardan faqat xonalarni jihozlashda foydalanishni emas, balki pedagogik jarayonda foydalanishni ham ko‘zda tutadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelishi bilan bolaning ijtimoiy ahvoli ham o‘zgaradi. U oilada cheklangan miqdordagi odamlar bilan muloqotda bo‘lar, ko‘proq oila a’zolari diqqat markazida bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida esa u bolalar jamoasi a’zosiga, boshqa bolalar tengdoshiga aylanadi. Shu tufayli bolaga psixologik jihatdan o‘zini qayta qurishga o‘z xulqini o‘zgartirishga, notanish katta kishilar va tengdoshlari bilan aloqaga kirishga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi bola faoliyati va xulqida shakllangan odatlarning buzilishiga olib keladi, undan yangi sharoitlarga biologik va ijtimoiy jihatdan moslashishni talab qiladi.

Biologik va ijtimoiy moslashishilar o‘zaro bog‘liq va ular bir-birini taqozo etadi. Bolalarning o‘zlashish imkoniyatlari o‘rtasida katta farq mavjud ular ayniqsa maktabgacha ta’lim tashkilotida bo‘lishning daslabki kunlarida yorqin namoyon bo‘ladi. Juz’iy ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlarni ko‘proq 9-10 oylikdan 1,6 yoshgacha va 3 yoshda 3,5 yoshgacha bo‘lgan bolalar qiyinroq kechiradilar. Yengil moslashishdan nutqiy faollikning susayishida, xatti-harakatdagi ba’zi buzulishlarda, uyquning va ishtahaning yomonlashuvida namoyon bo‘ladigan qisqa muddatli salbiy ruhiy holat kuzatiladi. Odatda, bu holatlar maktabgacha ta’lim tashkilotida bo‘lishning dastlabki ikki haftasi davomida kechadi.

O‘rta darajadagi moslashish xatti-harakatdagi birmuncha katta va uzoq davom etadigan siljishlarda ifodalanib, u faqat oyning oxirida normallashadi. Bola qisqa vaqt ichida ozadi nutqi buziladi, asoratlarsiz tugaydigan yengil 7-10 kun davom

etadigan kasalliklar vujudga keladi.

Og‘ir moslashishda bolaning ko‘nikishi uzoq va murakkab kechadi, ba’zan bir necha oyga cho‘ziladi. U tez-tez qaytalanib turadigan, asoratli kechadigan kasalliklar, xatti-harakatlarning barqaror buzilishi, qator holatlarda asabiy holatlar birgalikda voqea bo‘ladi. Jismoniy rivojlanishning susayishi, nutq va ruhiyatda o‘sishning kechishi kuzatiladi.

Moslashish davrining qiyinchiliklari, moslashishga oid siljishlarning ifodalanganlik darajasi tarbiyaning ilgarigi sharoit bilan ham uzviy bog‘liqki, uning ta’siri ostida bolaning oliy asab faoliyati tizimi shakllanadi.

Bolani ijtimoiy tarbiya sistemasiga olib kirish bosqichma-bosqich amalga

oshiriladi. Tayyorlov maktabgacha ta’lim tashkilotidagi pediatriya xizmati, ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotining kuch-g‘ayrati bola organizmini yangi sharoitdagi hayotga, tayyorlashga uning biologik moslashishini yengillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Bunga quyidagicha erishiladi:

a) bola kun rejimini maktabgacha ta’lim tashkilotida rejimiga o‘ta yaqinlashtirish bilan;

b) uni rejim jarayonlariga faol qatnashtirish bilan;

v) chiniqtiruvchi usullardan keng ravishda kompleks foydalanish bilan;

g) bola organizmi ish qobiliyatini o‘stirish uchun zarur harakat faolligini oshirish bilan.

Ota-onalarning pedagogik savodxonligi va ularning tarbiyachilar bilan aloqa o‘rnatishi ushbu talablarni amalga oshirishning shartidir. Ota-onalar yakka suhbatlar, eslatishlar orqali bola hayotining tayyorlov davrida tashkil etishga oid tavsiyalar oladilar. Bolani maktabgacha ta’lim tashkilotidagi yangi sharoitlar talablariga o‘rgatish izchil tarzda amalga oshiriladi. Bir hafta davomida bola maktabgacha ta’lim tashkilotida 2-3 soatdan ko‘p bo‘lmaydi. Bu vaqt uning ruhiy holatiga qarab asta-sekin ko‘paytirib boriladi.

Bolalarni qabul qilishda maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlari bolalar hayotini ularning ahvoli, alohida o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishlari uchun uzoq vaqt talab etiladi.

Moslashish davrida (2-3 hafta) bola emlanmaydi, barcha mavjud odatlari, xatto salbiy odatlari ham saqlab qolinadi, uyidagi o‘yinchoklardan foydalanishga ruxsat etiladi. Ijtimoiy moslashishning ko‘pchilik bolalarda murakkab kechishi va cho‘zilib ketishining asosiy sababi bola qoshida yaqin kishilarining yo‘qligi va odamlar bilan muomala tajribasining kamligidir (N.D.Vatutina). Shuning uchun bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotidagi dastlabki kunlarida uning yonida onasining ham bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi, u notanish sharoitni o‘zgartirishga, tarbiyachi bilan aloqa o‘rnatishga, so‘ng u bilan hamkorlik qilishga yordam beradi.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish, bolalarning bog‘chada 9-12 soat bo‘lishi kun tartibida belgilab qo‘yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bolalarning bog‘chadagi vaqti qiziqarli, sermazmun o‘tishni ta’minlaydi. Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chehra bilan kutib oladi, ota-onalari bilan

xushmuomala, xayrixoh munosabatda bo‘ladi.

Nonushtadan keyin dasturda ko‘rsatilgan vaqt mobaynida mashg‘ulot o‘tkaziladi. Mashg‘ulotgacha va mashg‘ulot o‘rtasi o‘yinlar tashkil etiladi. Qanday o‘yin o‘tkazilishi mashg‘ulotning mazmuni va xususiyatiga bog‘liq. Bolalar o‘tirib shug‘ullanadigan mashg‘ulotdan oldin harakatli o‘yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg‘ulotdan oldin tinch o‘yinlar o‘ynashadi. Mashg‘ulotdan keyin sayr o‘tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi. Harakatli o‘yinlar o‘tkazadi, mustaqil o‘yin o‘tkazishni taklif etadi. Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, didaktik o‘yinlar, ijodiy o‘yin turlari bilan shug‘ullanishlari uchun katta e’tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyushtiriladi. Sport o‘yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o‘xshashlar bolalarning harakat faolligini o‘stirishga ham katta ahamiyat beriladi.

Bolalarning sayrdan qaytishlari, yechinib yuvinishlari, tushki ovqat va kunduzgi uyqu ham juda uyushqoqlik bilan o‘tishi kerak.

Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni uyg‘otib, faoliyatga kirishlarini ta’minlaydi va kechki nonushta tashkil etiladi. Keyin musiqaviy yoki jismoniy tarbiya mashg‘uloti o‘tkazilishi mumkin. Kechki sayrga quyidagilar kiradi: hamma ijodiy, didaktik o‘yinlar, tinch harakatli o‘yinlar, kuzatish, qo‘l mehnati, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati, ko‘ngil ochishlar (haftada bir marta). Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talab har bir bolaning mazmunli va qiziqarli faoliyat bilan shug‘ullanishini, ularning har tomonlama rivojlanishi va baxtli bolaligini ta’minlashdir.

Ta’lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o‘rtiasidagi o‘zaro ta’sir xususiyatiga, o‘tkazish joyiga, shuningdek kun tartibida egallagan o‘ringa qarab bir-biridan farq qiladi.

Bolalar bog‘chasida ta’limning frontal (umumiy), guruhli va yakka tartibdagi shakllardan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta’lim berish ishlari ekskursiya, dedaktik o‘yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg‘ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o‘yinlariga rahbarlik qilish jarayonida va

shunga o‘xshashlarda amalga oshirib boriladi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlangich bo‘g‘ini bo‘lib,

bola shaxsini ta’lim-tarbiyasiga qo‘llanadigan Davlat talablariga muvofiq sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Belgilangan maqsadni amalga oshirishda bolalar bog‘chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning o‘ziga hosligini hisobga olish shart. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotining raxbari mudiradan tortib hattoki enagagacha bolalar bog‘chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning mazmuni, maqsad va vazifalari, bolalarning yosh guruhlarida tarbiyalash va ta’lim berish mohiyatini chuqur anglab yetishi kerak. Bu borada ko‘proq mas’uliyat guruh tarbiyachilari zimmasiga yuklanadi. Har bir guruh tarbiyachisi maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy va tashkiliy shakllari to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Guruh tarbiyachilari mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy va yetakchi shakli sifatida quyidagilarni ham nazarda tutishi shart:

- Mashg‘ulot maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga ta’lim berishning asosiy shakli;
- Mashg‘ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishi;
- Mashg‘ulot maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiyligi: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma’lum o‘rin va vaqt ajratilgan.
- Mashg‘ulotning tarbiyachi rahbarligida o‘tkazilishi, tarbiyachi mashg‘ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qilishi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab, mustahkamlashi, bolalarning amaliy mashg‘ulotlarini tashki etishi;
- Mashg‘ulotning o‘quv materialini mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib borilishi va h.k.

Shunday qilib, mashg‘ulotlar mazmuni ham ta’limiy ham tarbiyaviy vazifalarni ular birligida va o‘zaro harakatda hal etishga yo‘naltirilgandir. Har bir mashg‘ulotdagi o‘quv mazmunining hajmi uncha katta bo‘lmaydi. U turli yosh guruhlardagi bolalarning xotira va qobiliyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Masalan, kuzatish chog‘ida yangi ob’yektlar bilan tanishtirishda kichik tarbiya yoshi guruhdagi bolalar 2-3 yorqin belgini eslab qolish, o‘rta tarbiya yoshi guruhiga mansub bolalar 3-4 tagacha katta tarbiya yoshi guruhdagilar esa 5-6 tagacha belgini eslab qolishga qodirdirlar.

Guruh tarbiyachisi maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni tashkil etishning kundalik hayotdagi tashkiliy shakllari haqida ham ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Bu borada bolalarga ta’lim berishni kun davomida amalga oshirilishini nazarda tutishi shart.

Tarbiyachi kundalik hayotdagi tashkiliy shakl orqali bolalarning:

- bilimlarini boyitadi, madaniy-gigiyenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi,
- sanoq-hisob harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son,70-modda.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini tahminlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan davlat talablari-T.:Kvinta print. 2012 y.n

4. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi

5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova SH.Q., Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОЙ ПОДГОТОВКИ НА ОСНОВЕ ПОТРЕБНОСТЕЙ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛЛАСОВ

М.Абдухоликова

старший преподаватель НЦПУНМ Кашкадарьинский обл. кафедры дошкольного, начального и специального образования

Аннотация: *В данной статье даны рекомендации по развитию профессиональной компетентности учителей начальных классов путем совершенствования системы непрерывного обучения исходя из потребностей в системе подготовки педагогов народного образования.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq ta'limi pedagog xodimlarining malakasini oshirish tizimida ehtiyojlarga asoslangan uzluksiz malaka oshirsh tizimini takomillashtirish orqali boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat bo'lgan tavsiyalar berilgan.*

Abstract: *In this article, recommendations are given to develop the professional competence of primary education teachers by improving the system of continuous training based on needs in the system of training of public education pedagogues.*

В нашей стране с первых лет провозглашения независимости огромное внимание уделяется вопросам всемерного развития талантов и повышения культурного уровня подрастающего поколения.

Анализ развития процесса информатизации образования показывает, что его рациональная организация в целях дальнейшего научно-технического, социально-экономического и духовного развития общества представляет собой актуальную научно-организационную и социальную проблему. Создание необходимых условий для регулярного повышения квалификации и работоспособности педагогических кадров, совершенствование системы повышения квалификации на основе принципа «обучение на протяжении всей жизни».

Проведенное исследование и накопленный педагогической опыт позволяют утверждать, что важна потребность в постоянном повышении качества образования и профессиональной компетентности педагогов, какой бы современной она ни была, а то, насколько её использование служит достижению образовательных целей.

Растущая потребность в высококвалифицированных кадрах в мире порождает потребность в постоянном повышении качества образования и профессиональной компетентности педагогов, что является основным фактором ее повышения. В связи с этой необходимостью во всех развивающихся странах осуществляются процессы трансформации системы периодической переподготовки и повышения квалификации педагогов в систему непрерывного повышения квалификации.

В целях организации непрерывного повышения квалификации педагогических кадров и развития профессиональной компетентности

учителей проводится ряд научных исследований по совершенствованию системы непрерывного обучения исходя из потребностей. Эти исследования направлены на решение проблем самостоятельного развития профессиональных знаний и умений педагогов и совершенствования их необходимых компетенций.

Уровень развития профессиональной компетентности педагога зависит от учета системных особенностей, научности и эффективности образовательного процесса.

Высокий уровень развития учащихся может быть достигнут только посредством развивающего обучения, при котором учащиеся усваивают не только знания, но и методы обучения. Способ познания есть средство субъективного познания, без которого не может быть реализована творческая деятельность обучающихся.

В развивающей системе знания получаются в процессе активной самостоятельной познавательной деятельности обучающихся, основной задачей преподавателя является управление деятельностью обучаемого, в отличие от традиционной системы, которая заключается в передаче готовых знаний обучающимся вне зависимости от их потребности и деятельность.

Модернизируя организационные механизмы непрерывного профессионального развития работников народного образования в нашей стране, внедряя различные формы переподготовки и повышения квалификации, для них создаются широкие возможности для повышения их профессионального потенциала. На сегодняшний день более 100 000 учителей начальных классов внедряются в «систему непрерывного повышения квалификации», которая обеспечивает необходимые условия для регулярного повышения квалификации и эффективности деятельности, совершенствования системы квалификации на основе принципа «обучения на протяжении всей жизни». В связи с этим важно совершенствовать систему непрерывного обучения исходя из потребностей в целях развития профессиональной компетентности учителей начального образования.

Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-5712 от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» и № ПФ-6108 от 6 ноября, 2020 «Образование и наука в новый период развития Узбекистана Постановление Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года № PQ-4884 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования», от 25 января 2021 года ПК-4963 «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в сфере народного образования и внедрению системы непрерывного профессионального развития» и Постановление ПК№ 5140 от 8 июня 2021 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров по рабочим профессиям», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 17 января 2022 года № 25 «Об утверждении положения о порядке организации системы непрерывного профессионального развития работников народного образования» настоящая

статья в определенной степени выполняет задачи, указанные в иных нормативных правовых документах, относящихся к данной деятельности, прослужит основой в решения следующих вопросов:
- превращение процесса подготовки работников народного образования в систему, обеспечивающую непрерывное обучение по принципу «обучение на протяжении всей жизни»;
- на основе диагностики профессиональных потребностей работников народного образования, разработки их индивидуальной программы развития и реализации на практике порядка повышения их квалификации в соответствии с программой;
- поэтапное внедрение кредитно-модульной системы в процесс повышения квалификации работников народного образования;
- наладить систему непрерывного профессионального развития работников народного образования, запустить специальную электронную платформу «Непрерывное профессиональное образование», обеспечивающую возможность мониторинга процессов повышения квалификации каждого работника и ведения личного кабинета;
- создание образовательной среды, обеспечивающей широкие возможности для непрерывного профессионального развития сотрудников;
- развивать навыки самостоятельного мышления и творческого мышления путем привития навыков самостоятельного мышления и развития способностей сотрудников и передачи новых знаний;
- повышение уровня компетентности и совершенствование профессиональных навыков работников на основе траектории индивидуального профессионального развития;
- формирование практических навыков работы с передовыми педагогическими и информационными технологиями;
- поощрять профессиональное развитие, инициативу, стремление к научным исследованиям и творческие способности работников как основной источник повышения качества общего среднего образования.

Фактор формирования творческой активности учителей начальных классов в непрерывном профессиональном развитии проявляется в оптимизации и ускорении учебного процесса, научной организации учебной деятельности учащихся, организации их совместной научной деятельности. В современных условиях основой времени стало совершенствование механизма развития интеллектуального потенциала педагогов в системе народного образования, развитие инфраструктуры для его реализации. Сегодня во всем мире пропагандируются гуманистические многопараметрические концепции умственно-интеллектуального развития работников народного образования.

Следовательно, этот процесс создает необходимость дальнейшего совершенствования системы обучения на практике, расширения инновационных процессов, диверсификации образовательных услуг, внедрения управления качеством, исходя из профессиональных потребностей, моделирования индивидуальной деятельности, проектирования, реализации

многокомпонентных подходов, обеспечивающих преемственность и согласованность. В результате комплексных реформ, проводимых в нашей республике, укреплена материально-техническая база, нормативно-правовое, научно-методическое обеспечение системы повышения квалификации работников народного образования, вводятся методы непрерывного повышения квалификации педагогов.

В дополнение к выполненным работам возникает необходимость совершенствования практических занятий по учебным модулям за счет полного использования возможностей педагога-сотрудника и гармонизации видов обучения в учебных курсах. С этой точки зрения, как одну из важных задач, которая должна быть решена безотлагательно перед системой повышения квалификации, предусматривается уделить особое внимание организации практических занятий в учебном процессе, добиться в результате:

- их проектирования и практической разработки, назначения и использования различных методов;
- превращение слушателей в активного, самостоятельного, устремленного, конкурентоспособного субъекта;
- формирование активной жизненной и профессиональной позиции педагога, изменение мировоззрения;
- направленность на систематическое повышение компетентности путем формирования компенсаторных стадий развития.

Эти новшества и изменения прослужат выполнить следующие задачи:

- необходимость совершенствования системы непрерывного обучения исходя из потребностей в целях развития профессиональной компетентности учителей начальных классов;
- изучить этапы и проблемы подготовки учителей начальных классов на курсах непрерывного повышения квалификации работников народного образования и предложить пути их решения;
- определение содержания, инновационных методов и средств развития профессиональной компетентности учителей начальных классов на основе непрерывного профессионального развития на протяжении всей их жизни;
- совершенствование механизма оценки компетентности учителей начальных классов на курсах непрерывного повышения квалификации;

Начальное образование на курсах повышения квалификации разработать технологию создания учебно-методического и методического обеспечения и научных предложений и рекомендаций на основе образовательных технологий, развивающих профессиональную компетентность педагогов без отрыва от работы.

С учетом потребностей личности, государства и общества особое внимание уделяется созданию новой системы повышения квалификации и переподготовки кадров в соответствии с формированием рынка образовательных услуг, стимулирующей развитие и обновление профессиональных знания и навыки учителей.

Поэтому здесь можно сделать вывод, что эффективность системы

подготовки, переподготовки и повышения квалификации учителей определяется потребностной организацией этой системы, или, другими словами, программы повышения квалификации должны создаваться на основе нуждаться.

Список литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» № ПФ-5712.
2. Указ № ПФ-6108 Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сферы образования и науки в новый период развития Узбекистана».
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 11 мая 2022 года «Об утверждении Национальной программы развития народного образования на 2022-2026 годы» № ПФ-134.
4. Постановление Президента Республики Узбекистан PQ-4884 от 6 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования».
5. Постановление Президента Республики Узбекистан от 25 января 2021 года №PQ-4963 «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в сфере народного образования и внедрению системы непрерывного повышения квалификации».

6. Раджиев А.Б. Повышение эффективности управления переподготовкой и повышением квалификации менеджеров в системе народного образования (на примере директоров общеобразовательных школ): автореф. - Т.: 2020.
7. Толипова Ж.О. Педагогические технологии являются фактором создания дружелюбной среды. - Т.: ЮНИСЕФ, 2005.
8. Шодиева М. В. Совершенствование технологий непрерывного профессионального развития учителей начальных классов на основе акмеологического подхода: диссертация подготовлена на соискание ученой степени доктора педагогических наук. - Ташкент. 2023.

PEDAGOGIK NIZOLAR VA ULLARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Abdunazarova Dinora Shokirjon qizi,
Sayxunobod tuman 20-umumta’lim musiqa madaniyati va boshlang‘ich ta’limi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Pedagogik nizo bu - pedagog va o‘quvchi, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o‘rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to‘qnashuvi, o‘zaro qaramaqarshilik o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi kelishmovchilik, tortishuv va mojarodir Konfliktda tomonlarning biri tomonidan ikkinchi tomondagi odamni hulqini, fikrini, hislarini o‘zgartirishini talab qiladi. Shuningdek, har qanday qarama-qarshilikni ham konflikt deb atab bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar-Pedagog, nizo, o‘quvchi, ota-ona, guruh.
Key words - teacher, conflict, student, parents, group.
Ключевые слова - учитель, конфликт, ученик, родители, группа.

A.Navoiyning fikricha gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi. Muallim esa, bir guruh bolalarga ilmu - adab o‘rgatadi. Bu jarayonda muallim ko‘p aziyat chekadi, mashaqqatlarni o‘z boshidan kechiradi. SHu bois shogirdlar ustoz olidda umurbod qarzdor ekanliklarini his etishlari darkor. SHogird podsholik martabasiga erishsa ham, muallimga qulluq qilsa arziydi deydi. Hazrat A. Navoiy bolalarga yaxshilik qilish, o‘qituvchilik sha’ni, qadr qimmati, o‘qituvchilik ma’suliyati, o‘qituvchilik vijdoni, talabchan va adolatli bo‘lishi o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi halololigi, pokligi, rostgo‘yligi kabilar o‘qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o‘zlashtirishi bo‘lajak o‘qituvchi uchun katta amaliyot ahamiyat kasb etadi. Otabobolarimiz doimo yaxshi niyat yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar. O‘zlaridan yaxshinom qoldirishga intilganlar. Pedagogik nizo psixologik nuqtai-nazardan olib qaraganda pedagogika va psixologiya fanlari bir-biriga o‘zviy bog‘liqdir. Ularning har ikkisi, bitta umumiy jarayonni-insonni psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. SHuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. SHaxs shakllanishida u yashayotgan muxit kishilar jamiyatning roli juda kattadir

Masalan, odamlar har xil dunyoqarashga, ma’lum masalalar bo‘yicha turlicha fikrga ega bo‘lishlari, lekin bu ularni osoyishta ishlashlariga xalal bermasligi mumkin. Lekin, shaxsni yoki guruhni manfaatlariga, qiziqishlariga, mavqelariga, shaxsiy g‘ururlariga tegishli qaramaqarshiliklar konfliktlarni yuzaga keltiradi. Konfliktlar jamoada tarang munosabatlarni yuzaga keltiradi, xodimlar e’tiborini asosiy ishdan chalg‘itadi, odamlar e’tibori ko‘proq munosabatlarni oydinlashtirishga qaratiladi, natijada odamlar asabiy holatda bo‘ladilar. Shuningdek, konfliktlar nafaqat buzuvchi kuchga ega bo‘ladilar, balki bunyod qiluvchi ham bo‘lishlari mumkin. Ba’zan konfliktlarni hal qilinishi tufayli mehnat sharoitlari, texnologiyasi, boshqaruv munosabatlari yaxshilanishi mumkin. Yana konfliktlarning ijobiy roli-konflikt qatnashchilarini o‘z-o‘zini anglashini rivojlanishida, ma’lum qadriyatlarni shakllanishida ham ko‘rinishi mumkin.

Konfliktlarni yuzaga keltiruvchi sabablarni 5 ta guruhga bo‘lib ko‘rsatish mumkin: axborot, struktura, qadriyatlar, munosabatlar va xulqatvor.

Ko‘p qadriyatlar zaminida axborotlarni bir tomonga ma’qul bo‘lib, ikkinchi tomonga ma’qul bo‘lmasligi yotadi. Bu axborotlar aniq yoki to‘liq bo‘lmasligi, suhbatdoshlarni bir-biriga qarama-qarshi qiladigan mishmishlar bo‘lishi, axborot manbalarini ishonchli emasligi, qonunchilik masalalarini, qonun-qoidalarini munozarali ekanligi.

Struktura bilan bog‘liq bo‘lgan holda konfliktni yuzaga kelishi deganda jamoadagi formal va noformal guruhlarning mavjudligi, ijtimoiy mavqe, xokimiyat va mas’uliyat, turlicha ijtimoiy me’yorlar rag‘batlantirish va tozalash, resurslarni, mahsulotlarni, daromadni taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar tushuniladi.

Qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan omillar- bu ulug‘laydigan yoki inkor qiladigan tamoyillardir. Bu ijtimoiy, guruhiy va shaxsiy e’tiqodlar tizimi, ideologik, ma’naviy, diniy, ahloqiy, siyosiy, kasbiy qadriyatlar va ehtiyojlardir.

Munosabatlar omili- bu o‘zaro munosabatdan qoniqishni his qilish yoki his qilmaslik bilan bog‘liq. Bunda munosabatlar asosini hisobga olish muhim (ixtiyoriy yoki majburiy), uning mohiyatini (tobe bo‘lmagan, tobe bo‘lgan yoki o‘zaro tobe bo‘lgan), munosabatlarning davomiyligi, qadriyatlarga munosabati, xulqi, shaxsiy va kasbiy maqsadlari bo‘yicha mutanosiblik, tomonlarning munosabatlarga qo‘shayotgan hissasi (umidlar, pul, vaqt, hislar, kuchquvvat, obro‘), ma’lumot, hayotiy, kasbiy darajadagi farqni hisobga olish kerak.

Xulqiy omil konfliktga olib keladi, agar manfaatlar zarar ko‘rsa, kamsitilsa, xavf solinsa (jismoniy, moliyaviy, hissiy yoki ijtimoiy), salbiy hissiy holatni yuzaga keltiruvchi vaziyat vujudga kelsa, agar inson xatti-harakatlarida xudbinlik, mas’uliyatsizlik, adolatsizlik namoyon bo‘lsa.

Nizolar quyidagi turlarga bo‘linadi: Shaxsni ichidagi, shaxslararo, shaxs va guruh o‘rtasidagi, guruhlararo.

Shaxsni ichidagi nizolar xodimlarni shaxsiy ehtiyojlari va qadriyatlari bilan ishlab chiqarish talablari o‘rtasidagi nomutanosiblik, xodimni ish bilan me’yordan kam yoki ko‘p yuklanishi, qarama-qarshi talablarni qo‘yilishi oqibatida kelib chiqadi.

Shaxslararo nizolar xarakterni to‘g‘ri kelmasligi, kapitalni, resurslarni, ishchi kuchini cheklanganligi, jihozlarni etishmasligi, vakant lavozimlarni mavjudligi natijasida kelib chiqadi.

Guruh va shaxs o‘rtasidagi nizolar guruhda shakllangan ahloq va mehnat me’yorlariga alohida shaxs tomonidan qarshilik ko‘rsatilishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday nizo rahbarni rahbarlik qilish uslubini jamoa a’zolarini etuklik darajasiga mos emasligi, rahbar va xodimlarni soha bo‘yicha mutaxassislik darajasini nomutanosibligi, rahbarni xarakterini, ahloqiy qiyofasini guruh tomonidan qabul qilinmasligi natijasida kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008
2. Djalalova D.X. Osnovno‘e tendentsii razvitiya sovremennoy yaponskoy shkolo‘. Avtoreferat dis.k.p.n. 2004
3. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. T.:TIB-KITOB, 2009
4. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Toshkent.: Ilm-Ziyo, 2012
5. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya-iqtisod” nashriyoti, 2009
6. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015
7. Mutalipova M., Imomov M. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017

8. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi G‘ Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013
9. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003
10. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005

FANDA METODIK O‘YINLARNI QO‘LLASH

Alimkulova Gulchehra Ne’matovna,
Oqoltin tumani 10 -maktabning ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Bazi o‘quvchilar hamisha ustozlarining gaplariga quloq tutadilar va ular bergan bilim bilan bemalol bellashishlari ham mumkin. Ota-onalarining gaplarini ikki qilsa qiladilarki, ustozlarining fikrlariga ergashishadi. Bu esa pedagoglik kasbimizdagi sharafli nuqta hisoblanadi.

Bugun o‘quvchi anchagina injiq desak xato bo‘lmas deb o‘ylaymiz. Shu boisdan aytishimiz mumkinki, o‘yinqaroq hamdir. O‘yinqaroq bolani ilm yo‘liga, tarbiya yo‘liga boshlash har bir pedagogning asosiy burchidir. Bu jarayonlarda ta’limning tarbiya bilan olib borilishi ham bir ijobiy ko‘rsatgich hisoblansa, metodik o‘yinlarni ham o‘ziga xos o‘rni bor. Chunki o‘yinqaroq bolani har doim ham yangi mavzuga qiziqtirish qiyin albatta. Har bir pedagog oldiga qo‘ygan maqsadlaridan kelib chiqqan holda dars o‘tish usulini tanlaydi. Bu imkoniyat tufayli turli natijalarga ham erishishadilar. Shulardan bir nechtasini e’tiboringizga havola etishni lozim deb topdik. Chunki, bolani o‘yinlar bilan qiziqtirib olish juda oson bo‘lishi bilan bir qatorda, zamonaviy darsga qo‘yilgan talablarni ham bajargan bo‘lamiz. Shu qarashlarning misoli sifatida quyidagi metodik o‘yinlarni
bir ko‘rib chiqsak.

Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni bir oz so‘ndirar edi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talaba (yoki o‘quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Bunday darslar oralig‘ida turli xotira mashqlarini ham o‘tkazib turish mumkin. Ulardan birini quyidagicha tashkil qilish mumkin:

Dastlab sinf bir necha guruhlarga bo‘linishi lozim. Birinchi guruhdagi o‘quvchilar orasidan bitta o‘quvchi tanlab olinadi va ikkinchi guruh o‘quvchilari o‘zlarini turli hatti-harakatlari bilan uni chalg‘itishadi. 4-5 nafar ishtirokchilar turli

hatti-harakat qilganlaridan keyin birinchi guruh ishtirokchisi ularni qaytarib berishi lozim. Masalan, ikkinchi guruh ishtirokchilaridan biri qo‘llarini ko‘tarib tushirishi, ikkinchisi boshini qimirlatib, yo‘talib olishi, uchinchi ishtirokchi esa, kitoblarini bir-bir varoqlab olishi mumkin, to‘rtinchi ishtirokchi doskaga chiqib nimanidir yozib keyin joyiga borib o‘tirishi lozim. Shundan so‘ng birinchi guruhdan tanlab olingan 1-a’zo ikkinchi guruhdagi yuqorida keltirilgan 4 nafar o‘quvchini hatti-harakatini takrorlab beradi. Agar harakatlar to‘g‘ri topilsa, a’lo baho oladi. Bu mashq bilan o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirish bilan birgalikda xotirasini ham mustahkamlaydi. Bu o‘yinni o‘quvchilar zerikib qolishganida darsga jalb qilish maqsadida o‘tkazish o‘rinlidir.

Quti ichida qutilar metodik o‘yini. Bu o‘yin darsni tashkil etish uchun 5 dona kata-kichik qutilar kerak bo‘ladi. Eng katta quti ichiga kichikroq qutini, uni ichiga undan kichikrog‘ini, eng ichiga eng kichkinasini solib qo‘yamiz. Savollar ham quti ichiga kirishi bilan murakkablashib boradi. Eng ichkaridagi quti savoli ancha murakkab bo‘lib, undan foydalanish faqat liderlarga xos bo‘lishi nazarda tutilgan. Sababi shundaki, agarkatta quti ishidagi savolga javob bo‘lmasa, uning ichidagi quti savoli o‘qilmaydi va o‘yin shu joyida to‘xtatiladi. Bu o‘yinni o‘ynash uchun o‘quvchilar ko‘proq mikro guruh bo‘lib olishlari lozim. O‘yinning uchinchi qutisiga kelib qolingan bo‘lsa va o‘yin to‘xtatilishi lozim bo‘lsa, bu holatda o‘quvchilar kelib qolgan quti raqamiga mos ravishda ballar qo‘yiladi. Masalan, 3-quti 3 ball.

Qizig‘i shundaki, bu qutilarning har biri bir-birining ichiga joylashtirilgan bo‘ladi va sinf o‘quvchilariga mos tarzda tuzib chiqiladi. O‘yinni o‘tkazilish tartibida o‘z ixtiyori bilan savollarga javob berish mumkin bo‘lgan holatlar ham bo‘ladi. Bunda javob berish uchun chiqqan o‘quvchi o‘z ixtiyori bilan, ya’ni 5 ballni qo‘lga kiritish maqsadida qutilar ichidagi savollarga javob berib ko‘rishi

mumkin. Bunda savollar biroz soddalashtiriladi.

O‘yinning asosiy samarasini mikro guruhlarda his qilish osondir.

Mevalar bazmi metodik o‘yini. O‘quvchilar avval kichik guruhlarga bo‘lib olinadi. Agar 4 guruhga bo‘linishgan bo‘lishsa, yozuv taxtasiga dastlab kattakon daraxt, undan so‘ng esa 4 ta savat rasmi chizib qo‘yiladi. Har bir guruh o‘z mevalarini belgilab olishadi: aytaylik, 1-guruh olmani, 2-guruh behi, 3- guruh nok, 4-guruh shaftolini tanlashdi. Aralash holatda qo‘yilgan mevalar ichidan har bir guruh a’zosi o‘z mevasini borib olishadi va savolga javob berishadi. Agar savollarga javob bera olmasa, mevani qaytarib daraxtga joylashtiradilar. Har bir guruh o‘quvchilari navbatma-navbat chiqishib, o‘z mevalarini terib olishlari kerak. Mevalar daraxtidagi aralash mevalarning soni har bir guruh uchun teng bo‘lishi lozim.

Bolalar bu o‘yinga qiziqish bilan qaraydi, sababi har bir ochiq qolayotga sovol guruhni bir pog‘ana pastga tushirib qo‘yadi. Javob berilmagan savolni daraxtga ilib ketishgach, keyingi navbati kelgunicha guruh kutib o‘tiradi. Qaysi guruh o‘quvchilari birinchi bo‘lib o‘z mevalarini yig‘ib savatchasiga solib bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘lishadi.

Ta’rif kim haqida metodik o‘yini. Bironta asar o‘tilgan bo‘lsa, uning

qahramonlariga ta’rif berilishi mumkin. Yoki uzoq o‘tilgan asarlar yuzasidan ham bu o‘yinni o‘tkazish mumkin. O‘yin o‘tkazilishini umumiy yoki guruhlarda tashkil etish mumkin. Bir guruh a’zosi bir qahramonga ta’rif beradi. Qolganlar esa bu qahramon kim ekanligini topadi. Topilgan qahramonlar ismini yozib olishadi dars oxirida kim qaysi qahramonni qanday darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlab olish mumkin.

Ma’noli matn tuzish metodik o‘yini. O‘yinni o‘ynash uchun ikki o‘quvchi yetarli. Guruh bo‘lib o‘ynalsa ham bo‘ladi. Deylik, bir o‘quvchi bir matn tanlaydi. Tanlangan matnni mavzusini aytadi va mavzu yuzasidan tayyorlanishi lozim bo‘lgan matn uchun 1-gapni e’lon qiladi. Shundan so‘ng o‘yinning asosiy qismi boshlanadi. 2-o‘quvchi mavzu yuzasidan aytilgan 1-gapni davom ettirib, matnni to‘ldirishi lozim. Matn 3-4 gapdan iborat bo‘lgach, 1-o‘quvchi chalg‘itish uchun matnga bir gap qo‘shadi. 2-o‘quvchi esa qo‘shilgan gapga mantiqan to‘g‘ri tushadigan keying gapni aytadi va bir necha gap tuzadi. O‘yin shu tariqa og‘zaki tarzda davom etadi. Noto‘g‘ri tuzilgan matnlar o‘yin oxirida tahlil qilinadi va o‘quvchilar baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent – 2008.

2. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari Toshkent – 2001.

3. Yuldasheva N. va boshqalar. O‘qituvchilar malakasini oshirishning takomillashtirilgan tizimi bo‘yicha ona tili va adabiyot malaka oshirish kursi o‘quv majmuasi. Toshkent – 2017.

4. Uralov A. Ta’limiy metodik o‘yinlar. Guliston – 2014.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN TA’LIM SOHASIDAGI HAMKORLIKLARI

Biybalayev Islombek Abdunazarovich,

Guliston davlat universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining O‘zbekiston bilan ta’lim sohasidagi hamkorliklari va ushbu hamkorlikning O‘zbekiston ta’lim sohasidagi samaradorligi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, hamkorlik, samaradorlik, ilm, imkoniyat.*

Abstract: *This article discusses the cooperation of Central Asian countries with Uzbekistan in the field of education and the effectiveness of this cooperation in the field of education in Uzbekistan.*

Asosiy qism.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida qadimdan fan va ta’lim sohasida hamkorlik aloqalari juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Uzoq yillar davomida bu mintaqada yashagan xalqlar bir-birining yurtiga borib ta’lim olishi, fan sohasidagi yutuqlar bilan o‘rtoqlashish imkoniyatlaridan foydalanib kelishgan. Mintaqa bag‘rida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Turkiston, Toshkent va

boshqa shahrlar uzoq yillar davomida fan va ta’limning markazlari bo‘lib kelgan. Bu shaharlardagi madrassalarda mintaqada yashagan barcha xalqlar vakillarini uchratishimiz mumkin bo‘lgan. Bu kabi jihatlar XX asr boshlarigacha davom etgan.

Keyinchalik suniy omillar sabab bu jihat anchagina to‘xtab qoldi.

Markaziy Osiyo Respublikalari Sobiq Ittifoq parchalanib mustaqil bo‘lgach, boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, fan va ta’limda ham hamkorlik a’loqalarini yo‘lga qo‘yishga harakat qildi. Davlatlar o‘rtasida imzolangan diplomatik shartnomalar bandlarida ta’lim va fanga doir bir qancha bo‘limlari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Markaziy Osiyoning o‘rtasida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning ilk kunlaridan fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Bu sohani yakka holda rivojlantirib bo‘lmasligini to‘g‘ri tushungan davlat rahbari qo‘shni respublikalar bilan o‘zaro keng hamkorlik a’loqalarini yo‘lga qo‘yishga harakat qildi.

Qozog‘iston Respublikasi mustaqillikning ilk kunlaridanoq ta’lim sohasida O‘zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik a’loqalari o‘rnatilishiga kirishdi. 1992-yilda ular o‘rtasida imzolangan do‘stlik va hamkorlik shartnomasining 17-bandida bevosita ta’lim sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan edi. Bu shartnomaning amaliy ijrosi sifatida o‘sha yilning kuzida bir guruh o‘zbek olimlari Qozog‘iston Respublikasida bo‘lib, o‘zaro tajriba almashinib qaytishdi. Bu safar davomida ikki davlat olimlari o‘rtasida kelajakda ilmiy-amaliy izlanishlar sohasida birgalikda amalga oshiradigan ishlar belgilab olindi.

1993-yilda bir guruh qozog‘istonlik ilm-fan vakillari O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurishdi. Qozoq olimlari O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligi sohasida erishgan yutuqlarini o‘rganib, o‘z yurtida ham amaliyotda sinab ko‘rishini aytishdi. Bu hamkorlik a’loqalari ayniqsa 1994-yilda ikki davlat o‘rtasida madaniyat kunlarining o‘tkazilishi bo‘yicha 11 moddadan iborat qaror bilan yanada mustahkamlandi. Bu qarorning 8-moddadasida ikki davlat o‘rtasida hamkorlik qilishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro faoliyatining aniq turlari va shakllari madaniyat, ta’lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik a’loqalarni yanada rivojlantirish belgilab qo‘yilgan edi. Qozog‘iston Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida fan sohasidagi hamkorlik aloqalari XXI asrga kelganda ham rivojlanib bordi. Ta’lim sohasidagi hamkorlik a’loqalarning rivojlanishida 2018-yilda O‘zbekistonda Respublikasi va Qozog‘iston Respublikalari oliy ta’lim muassasalarining taqdimotli ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Xususan, bu tadbirlar Samarqand davlat universitetida ham bo‘lib, unda Qozog‘istonning o‘ndan ortiq universitetlari hodimlari ishtirok etishgan. Shu bilan bir qatorda Qozoq talabalari O‘zbekiston Respublikasining bir qator oliy talim muassasalarida tahsil olishayotganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Bular Toshkent Arxitektura qurilish instutitda, Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika institutida kunduzgi va sirtqi ta’limda ko‘plab yoshlarni ko‘rishimiz mumkin. Bizning ham yoshlar Qozog‘iston Respublikasining Silkway, Turkiston xalqlar do‘stligi Universiteti, Abay, Muxtor Avezov nomli nufuzli Universitetlarida tahsil olishadi.

O‘zbekiston Qirg‘iziston bilan ta’lim va fan sohasidagi hamkorlik

a’loqalarining o‘rnatilishi mustaqilikning ilk yillariga to‘g‘ri keladi. Ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy ijtimoiy diplomatik a’loqalarning yo‘lga qo‘yilishi o‘z navabatida ta’lim va fan sohasidagi a’loqa munosabatlar yanada jonlanishiga turtki bo‘lgan. O‘tgan o‘ttiz yil davomida ikki davlat o‘rtasida fan va ta’lim sohasida o‘nga yaqin kelishuvlarga erishilgan. Birgina 1998-yilda bir guruh Qirg‘iziston Respublikasi olimlari ilmiy safar bilan Toshkent, Navoiy va Samarqand viloyatlariga tashrif buyurishdilar. Safar davomida qirg‘iz olimlari Navoiy kon metallurgiya kombinatida ham bo‘lib, bu yerda o‘z malakalarini ham oshirdi. Qirg‘iziston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi olimlari o‘rtasida uchrashuvlar XXI asrda ham bo‘lib turdi. Xususan 2002-yilda O‘zbekiston Respublikasining bir qancha arxeologlari Qirg‘izistonning O‘sh va Jalolobod viloyatlarida ilmiy safarda bo‘lib qaytishgan. Bu safardan ko‘zlangan maqsad mazkur hududlarda qadimgi odam qoldiqlarini topish bo‘lgan. O‘zbek olimlarining bu ilmiy izlanishlariga qirg‘izistonlik tadqiqotchilar ham o‘z xissalarini qo‘shishgan. Bundan tashqari o‘zbek yoshlarining Qirg‘iziston Respublikasi universitetlarida, o‘z navbatida ko‘plab qirg‘iz yoshlarining O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishi ikki o‘rtadagi a’loqalarning rivojlanishiga katta turtki bo‘lmoqda. Birgina 1994-yilda ikki davlat hukumatlari o‘rtasida tashkil etilgan Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh shahridagi Qirg‘iz-O‘zbek Universiteti to‘g‘risidagi shartnoma bunga misol bo‘la oladi. Shu yildan boshlab yoshlarimiz qo‘shni davlatdagi oliy o‘quv yurtlariga kira boshladi. Bugungi kunda esa bu ko‘rsatkich kundan-kunga kengayib bormoqda. 2021-yilning o‘zida O‘shdagi O‘sh-O‘zbek Universititida 4225 nafar o‘zbek yoshlari ta’lim olishmoqda. Shulardan 1836 nafari kunduzgi ta’limda, 2389 nafari esa sirtqi ta’limda tahsil olib kelmoqda. Bu ko‘rsatkich 2017-yilda 58 nafarni tashkil etar edi. Shu o‘rinda Qirg‘iziston Respublikasi yoshlari ham O‘zbekiston Respublikasida o‘qishmoqda.

Tojikiston bilan O‘zbekistoning fan sohasidagi hamkorlik a’loqalari uzoq yillarga borib taqaladi. Lekin, bu a’loqalarning davlat miqyosida rivojlanishi mustaqillikdan keyingi yillariga to‘g‘ri keladi. Ikki davlat olimlarining o‘zaro tajriba almashinishi ayniqsa, 1998-yildan keyin samarali bo‘lgan. Shu yilning o‘zida ellikka yaqin tojik olimlarining O‘zbekiston Respublikasiga kelishi va bu yerdagi qishloq xojaligi, konchilik, qorako‘lchilk va boshqa sohadagi yutuqlar bilan tanishib ketishi fan sohasidagi hamkorlikni yangi darajaga ko‘tardi. O‘zbekiston Respublikasiga kelgan tojik olimlariga javob tariqasida bir guruh O‘zbekistonlik ilm-fan vakillari 1998-yilning 18-20-dekabr kunlari Tojikiston Respublikasida bo‘lib qaytishgan. Bu ilmiy safar davomida o‘zbek va tojik olimlari o‘zaro bilim va tajriba almashishgan. Ikki davlat o‘rtasidagi ilm-fan va ta’lim sohasidagi hamkorlik 2017-yildan keyin yanada rivojlangan. Bunga ikki davlat rahbarlarining o‘zaro tashriflari turtki bergan. Ikki davlat o‘rtasida o‘tkazilgan madaniyat kunlari fan va ta’lim sohasidagi a’loqalarni rivojlanishiga yo‘l ochib bergan. Bugungi kunda ikki davlat ta’lim sohasida juda katta yangliklarga qo‘l urishmoqda. Misol tariqasida 2017-2018-yillarda 44 nafar O‘zbek talabalari tashkil etgan bo‘lsa 2019-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra yuzdan ortiq O‘zbekistonlik talabalar Tojikiston Respublikasi oliy ta’lim

muassasalarida tahsil olmoqda. Shu bilan bir qatorda qo'shni xalq yoshlari ham O'zbekiston Respublikasida tahsil olib kelishmoqda. Toshkent davlat arxitektura institutida, Samarqand davlat universitetida, Guluston davlat universitetlarida tahsil olmoqdalar.

Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasidagi ta'lim va fan sohasidagi hamkorlik a'loqalari ham mustaqillikning ilk davrlariga borib taqaladi. 1996-yil 16-yanvarda Chorjoyda Turkmaniston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida "Ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida" bitim imzolandi. Bu bitimning 2-moddasida "Ahdlashuvchi tomonlarning har biri ikkinchi tomonning fuqarolariga ta'lim olishda o'z fuqarolari bilan teng huquqni va uning erkinligini kafolatlaydi, ona tilida ta'lim olish uchun shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashadi" degan jumlalar keltirilgan. 1996-yildan keyingi davrda ikki davlat o'rtasida ilm-fan sohasida ham hamkorlik jadal suratlar bilan taraqqiy qildi. Xususan, 2000-yilda bir guruh o'zbekistonlik tarixchi olimlar Turkmaniston Respublikasiga borib ma'lum muddat o'sha yerda o'z tadqiqotlarini olib bordilar. 2001-yilda esa M.Turkamov boshchiligidagi bir guruh Turkman tadqiqotchilari O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurdilar. Fan bilan birgalikda ta'lim sohasida ham aloqalar ancha rivojlandi. Fikrimiz isboti o'laroq hozirgi kunda Respubilkamizga o'qish uchun tashrif buyurayotgan xorijlik talabalarning katta qismi Turkmaniston davlati yoshlari hisoblanadi. Ular asosan O'zbekistonning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Samarqand viloyatlarida o'qishadi. Buxora davlat universitetida 32 nafar, Buxora tibbiyot instutida 18 nafar Turkman yoshlari o'qishmoqda. Bu talabalar tahsil olayotgan sohalarini mukkamal egallab o'z ona diyorlariga borib, egallagan bilimlarini amaliyotga joriy etishlarini va ikki qardosh davlat o'rtasidagi ta'lim sohasidagi islohotlardan mamnun ekanliklarini takidlashmoqdalar. Bundan tashqari Nukus davlat Universitetida ham ko'plab Turkman yoshlarini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston mintaqa davlatlari bilan fan va ta'lim sohasidagi ishlari kundan-kunga yaxshi rivojlanib bormoqda. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, o'tgan 30 yil davomida Markaziy Osiyo davlatlarining ilm-fan va ta'lim sohasidagi a'loqalari anchagina ijobiy ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.https://uzbekistan.lv/uz/ozbekiston-qozogiston-yaqin-qoshnichilik-va-ozaro-ishonchga-asoslangan-hamkorlik/
2. https://lex.uz/ru/docs/-2565040
3. https://daryo.uz.ozbekistonda-qozogiston-talim-kunlari-otkaziladi/
4. https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=16442.
5. https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=16442.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI TA'LIM TIZIMIDA QANDAY MUAMMOLAR BOR EDI?

Biybalayev Islombek Abdunazarovich,
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola STEAM texnologiyasining ahamiyati, uning

afzalliklari va yutuqlari haqida yozilgan. STEAM texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llash, qanday metodlardan foydalinish kerakligi ushbu texnologiyani besh muhim markaz bilan bog'lab bolalar ongiga muxrlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. STEAM ta'lim texnologiyasini afzalligi shundaki u nazariya bilan amaliyotni uzviy bog'laydi.

Kalit so'zlar: STEAM, STEM, texnologiya, dastur, konsepsiya.

Markaziy Osiyo davlatlari uzoq vaqt davomida Sobiq Ittifoq ta'siri ostida bo'lib keldi. 1922-yilda tuzilgan SSSR 1991-yilning 8-dekabrida amalda tugatildi. O'tgan shuncha vaqt davomida Markaziy Osiyoning besh respublikasi har tomonlama Moskva ta'siri ostida bo'lib kelgan. Shunday ekan siyosiy qaramlik bilan birgalikda ta'lim tizmi ham markazdan belgilab berilgan rejaga muvofiq amalga oshirilib kelingan.

1991-yilda mintaqaning besh davlati birin-ketin mustaqillikka erisha boshladi. Siyosiy jihatdan mustaqil bo'lgan bu davlatlar oldida juda ko'p muammolar ko'ndalang bo'lib turar edi. Davlat rahbarlari birinchilardan bo'lib boshqa sohalar kabi ta'lim sohasining ham zamon ruhiga mos, milliy mentalitetdan kelib chiqqan holda qaytadan isloh qilishga o'z e`tiborlarini qaratdi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, ta'lim sohasini isloh qilish mintaqaning barcha davlatlarida birdek ketmagan. Chunki bu davlatlardagi siyosiy vaziyat ham bunga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Endi e`tiborimizni mustaqillikka endigina erishgan Markaziy Osiyo davlatlarida ta'lim tizmining holatiga qarataylik. So'z yuritilayotgan vaqtda mintaqa davlatlari ta'lim tizimi Sobiq Ittifoqning tegishli muassasalari tamonidan ishlab chiqilgan tizim asosida olib borilar edi. Bolaga ta'lim berish dastlab bog'chadan boshlanib, bu muassasada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olishgan. Keyingi bosqich maktab bo'lib, bu bosqichda bolalar 11 yil yoki 8 yillik ta'lim olishgan. Nima uchun aynan bolalarga 11 yoki 8 yil ta'lim berilgan degan savol tug'ilishi tabiiy holat. Ayrim bolalar 8 yil ta'lim olgandan keyin kasb-hunarga yo'naltirilgan, qolgan bolalar bo'lsa maktabda ta'lim olishni davom ettirgan. Lekin har doim ham o'quvchilar 8 yillik ta'limdan keyin o'z xohishlariga ko'ra kasb-hunarga yo'naltirilavermagan. Maktabdan keyingi ta'lim inistitutlarda olib borilgan. Bunda talabalarga 5 yillik (ayrim institutlarda ta'lim olish muddati farqlanishi mumkin) ta'lim berilgan. Bu vaqt davomida talaba o'z mutaxassisligi bo'yicha kerakli bilimlarni olib, keyingi faoliyatni xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida olib borishi mumkin bo'lgan. Talabalarning ma'lim bir qisimi ta'lim olishni davom ettirib oliygohlarda o'z mehnat faoliyatini ham olib borish imkoniyatiga ham ega bo'lgan.

Yuqorida Markaziy Osiyo Respublikalarining SSSR ta'siri ostida bo'lgan vaqtlardagi ta'lim tizimining umumiy holatini ko'rib chiqdik. Tashqi ko'rinishidan bu tizim juda mukammal ishlanganga o'xshaydi. Haqiqatdan ham shunday bo'lgan. Lekin har doim ham Ittifoq respublikalarida belgilab qo'yilgan tartiblarga amal qilinmagan. Ta'lim tizimida ham zamondan ortda qolish holatlari XX asr 70-yillari oxirlariga kelganda yaqqol namoyon bo'la boshlagan. Ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazalari ham talab darajasida bo'lmagan. Bundan tashqari yana ko'plab kamchiliklarini sanab o'tishimiz mumkin.

Sobiq Ittifoq parchalangandn keyin mintaqa respublikalari oldida ikkita yo‘l bor edi. Bu yo‘llardan biri ta’lim SSSR tizimini saqlab qolish, yo bo‘lmasa zamon ruhiga mos yangi tizimni qabul qilish edi. Siyosiy vaziyatni to‘g‘ri tushungan mintaqaning bir qancha davlatlari ta’lim tizimida islohot qilishni asta-sekin amalga oshirishni maqul ko‘rgan bo‘lsa, Tojikistondagi siyosiy beqarorlik bu tizimni isloh qilishni ortga surishga sabab bo‘ldi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari ta’lim tizimi bo‘yicha rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidan ortda qola boshlandi. Bu davrda rivojlangan davlatlarda ta’lim tizimi zamon ruhiga mos ravishda o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda edi. Misol sifatida Yevropa va AQSH ta’lim muassasalarida zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy qilinayotgan bir vaqtda Markaziy Osiyo davlatlari ta’limida bu texnologiyalar faqat nazariy jihatdan o‘rgatilar edi. Bu holat nafaqat Mrakaziy Osiyo davlatlarida, Ittifoqning boshqa davlatlarida ham shu ko‘rinishda edi. Mustaqillikka erishgandan keyin ham bu respublikalar zamonaviy texnologiyalarni ta’limga birdaniga joriy qila olmas edi. Sababi davlatlarning iqtisodiy holati havas qilar darajada bo‘lmagan.

Endi asosiy e’tiborimizni Markaziy Osiyoning mustaqillikka erishgan ilk

yillaridagi ta’lim muassasalarining holatiga qaratamiz. Dastlab mintaqaning shimoliy qismida joylashgan Qozog‘istondagi ta’lim muassasalarining holati bilan tanishib chiqamiz. 1991-yilda Qozog‘iston mustaqilikka erishgan davrida mamlakatda ta’lim muassalarining umumiy soni 17 783 tani tashkil qilgan. Bu sondan ko‘rinib turibdiki ta’lim muassasalari respublika aholisi soniga nisbatan bo‘lganda yaxshi ko‘rsatkichni tashkil qilgan. 17 783 tadan 8 881 tasi maktabgacha ta’lim muassasasi, 8 841 tasi maktab va 61 tasi bo‘lsa oliy ta’lim muassasasi bo‘lgan.

Qozog‘istonda 1991-yilda mavjud 8 881 ta maktabgacha ta’lim muassasasida 1 067 814 nafar bolalar tarbiyalangan. Bu davrda davlatda bog‘cha yoshidagi bolalarning umumiy soni 2 300 000 nafardan ko‘p bo‘lgan. Shundan kelib chiqib, Qozog‘istonda maktabgacha ta’lim muassasalarida shu yoshdagi bolalarning 43 % tarbiyalangan. Bu sonlar bilan birgalikda muassasalarning holatiga ham e`tibor qaratsak. Mavjud 8881 ta maktabgacha ta’lim muassasasining 40 % dan ortiqrog‘i talab darajasida bo‘lmagan. Bu bog‘chalarning moddiy-texnik bazasi qoniqarsiz holatda bo‘lgan. Yana 20 % bo‘lsa belgilangan me`yorga bazo‘r javob bera olgan. Talab darajasidagi maktabgacha ta’lim muassasalari davlatning katta shaharlari markazlarida, shimoliy hududlarda joylashgan. Bu ta’lim muassasalarining ko‘pchiligida rusiy zabon aholining farzandlari tarbiya olishgan.

So‘z yuritilayotgan davrda Qozog‘iston maktablarining umumiy soni 8841 tani tashkil qilgan bo‘lsada, ularning yarimidan ortig‘i belgilangan talabga javob bermagan. Maktablarning ko‘pchilik qismi juda ta’mirtalab holatida bo‘lgan. Bunday maktablar asosan ovul va qishloqlarda joylashgan. Maktablarning ko‘pchiligining moddiy-texnik bazasi talab darajasiga javob bermagan. Bunda ham markazda joylashgan maktablarning holati talab darajasida bo‘lgan. Rus tilida ta’lim beriladigan maktablar, qozoq va boshqa tillarda ta’lim beriladigan maktablardan holati ancha yaxshi bo‘lgan.

Qozog‘istonda 1991-yilda 61 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat yuritgan

bo‘lsa, ularning ham holati turlicha bo‘lgan. Oliy ta’lim tizimida ham ta’lim berilishi rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda past ko‘rsatkich qayd qilgan. Ko‘plab muassasalarning holati talab darajasida bo‘lmagan. Oliy ta’limda ham rus tili boshqa tillarga qaraganda ancha ustunlik qilgan.

Mustaqillikka endigina erishgan Qozog‘iston oldida yuqorida sanab o‘tgan kamchiliklarni bartaraf qilish vazifasi turar edi. Qozog‘iston hukumati bu sohani isloh qilishni mustaqilikning ilk yillaridan boshladi.

Qozog‘istonga qo‘shni bo‘lgan Qirg‘iziston ham 1991-yil 31-avgustda mustaqil bo‘ldi. Mustaqillika erishgan vaqtda mamlakatda 3369 ta ta’lim muassasasi faoliyat yuritgan. Bu muassasalarning ko‘pchiligi avariya holatida bo‘lgan. Mavjud 3369 ta ta’lim muassasasidan 1600 tasi makatabgacha ta’lim muassasasi, 1759 tasi maktab va 10 tasi oliy va o‘rta ta’lim muassasasi bo‘lgan.

Mustaqillikka erishgan Qirg‘izistonda makatabgacha ta’lim muasasasalarini holati havasi qilar darajada bo‘lmagan. Mavjud 1600 ta maktabgacha ta’lim muassasasining yarimidan ko‘prog‘i talab darajasida bo‘lmagan. Ko‘plarining binolari avariya holatida bo‘lib, istish va kanalizatsiya tizimi bilan ta’minlanmagan. Bu holatdagi maktabgacha ta’lim muassasalarining ko‘pchiligi respublikaning qishloq hududlarida joylashgan. Davlatning katta shahar markazlarida joylashgan muassasalarining holati anchagina yaxshi bo‘lgan. Misol sifatida Bishkek shahrida joylashgan 220 dan ziyod makatabgacha ta’lim muasasasidan atigi 32 tasining holati qoniqarsiz bo‘lgan. Lekin shahar markazlarida joylashgan maktabgacha ta’lim muassasalarida rus tilida tarbiya berish holatlari ko‘p uchragan.

Respublikada mavjud 1 759 ta makatabning 40 % talab darajasida bo‘lgan. Qolgan 60 % bo‘lsa belgilangan standart talablariga mos kelmagan. Talab darajasida bo‘lmagan maktablarning kattagina qismi asosan qishloq va shahar chekkasi hududlariga to‘g‘ri kelgan.

Mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalari soni 10 tani tashkil qilgan bo‘lsa-da, ularning atigi 3 tasining holati qoniqarli darajada bo‘lgan. Qolgan 7 tasining moddiy-texnik bazasi anchagina kambag‘al bo‘lgan. Ayrim muassasalarning binolari talab darajasida bo‘lmagan.

Tojikistonda ta’lim muassasalarining holati 1991-yilda mintaqaning boshqa respubliklaridagidan deyarli katta farq qilmagan. Mamlakatdagi mavjud 4401 ta ta’lim muassasasidan 944 tasi maktabgacha ta’lim muassasasi, 3443 tasi maktab va 14 tasi oliy ta’lim muasasasi bo‘lgan.

Mamlakatdagi mavjud 944 ta bog‘chada jami 141 500 nafar bola tarbiyalangan. Bu o‘sha vaqtdagi davlatdagi jami bog‘cha yoshidagi bolalarning 30 % ni tashkil qilgan. Bu raqamlardan ko‘rinib turibdiki, Tojikistonda Sobiq Ittifoq davrida ham maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarning katta qismi uy sharoitioda tarbiyalangan. Mavjud bog‘chalarning ham katta qismining moddiy-texnik bazasi talab darajasida bo‘lmagan.

Tojikistonda 1991-yilda mavjud 3 443 ta maktabda jami 1 325 400 nafar bola ta’lim olgan. Tojikistonda ham boshqa respubliklarda bo‘lgani kabi maktablarning kattagina qismi talabga javob bermagan. Bu holat ayniqsa respublikaning to‘g‘li qishloq hududlariga to‘g‘ri keladi. Davlatning katta shaharlaridagi maktablarining

ko‘pchiligida ta’lim rus tilida olib borilgan.

Mamlakatdagi 14 ta oliy ta’lim muassasalarining ko‘pchiligining holati yaxshi darajada bo‘lmagan. Dushanbe shahrida joylashgan 1947-yilda tashkil etilgan Tojikiston davlat milliy universitetini moddiy-texnik bazasini Ittifoqning markaziy shaharlarida joylashgan universitetlar bilan taqqoslaganimizda ancha katta tafovutga duch kelishimiz mumkin.

Turkmaniston Markaziy Osiyoning janubi-g‘arbida joylashgan bo‘lib, kattagina qismini cho‘llar tashkil qiladi. Turkmaniston ham mustaqillikning dastlabki davridan ta’lim tizimini isloh qilish harakatlarini boshlagan. Ushbu davrda Turkmanistonda jami 2726 ta ta’lim muasasasi faoliyat yuritgan. Shundan 920 tasi maktabgacha ta’lim muassasasi, 1880 tasi maktab, 6 ta oliy ta’lim muassasasidan iborat bo‘lgan.

Turkmanistonda ham maktabgacha ta’lim muassasalarining ko‘pchilik qismining holati talab darajasida bo‘lmagan. 920 ta makatabgacha ta’lim muassasasining atigi 35 % har tamonlama belgilangan tartibga javob bergan.

Qolgan qismi bo‘lsa talab darajasida bo‘lmagan.

Davlatda 1991-yilda mavjud 1800 ta maktabning 55 % talab darajasida bo‘lgan. 1991-yilda maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning umumiy soni 890 ming nafarni tashkil qilgan. 55 ming nafar o‘qituvchi maktablarda faoliyat yuritgan. Turkmanistondagi mavjud 1800 ta maktabning 180 tasi rus tilida o‘qitishga mo‘ljallangan bo‘lsa, 90 nafari o‘zbek tilida dars berilgan. Bundan tashqari turkman tilida dars beriladigan maktablarda ham rus tilining o‘tishga katta e`tibor qaratilgan.

Turkmanistonda 1991-yilda mavjud bo‘lgan 6 ta oliy ta’lim muassasasining holati ham mintaqaning boshqa davlatlaridagi inistitutlardan farqlanmagan. Bu oliy ta’lim muasasalarida o‘qitladigan fanlar, ularning moddiy bazasi talab darajasidan past bo‘lgan.

Markaziy Osiyoning o‘rtasida joylashgan O‘zbekistonda ham 1991-yilda ta’lim muassalarining umumiy holati qolgan to‘rt respublikanikidan keskin farq qilmagan. O‘zbekistondagi ta’lim muassasalarining ham moddiy-texnik bazasi Ittifoqning markaziy hududlari bilan taqqoslaganimizda katta farqni ko‘rishimiz mumkin.

Barcha respublikalarda ta’lim muassasalarining kattagina qismining moddiy-texnik holati talab darajasida bo‘lmagan. Shu bilan birgalikda ta’lim muassasalarida ishlayotgan pedagog xodimlarning ham ko‘pchiligining bilim saviyasi yetarli darajada emasdi.

Mintaqa davlatlari maktablarida o‘qitiladigan darsliklarida ham keskin farq bo‘lgan. Mahalliy tildagi darsliklarga qaraganda rus tilida yozligan darsliklar anchagina sifatli bo‘lgan. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha adabiyotlarning kattagina qismi rus tilida bo‘lgan. Bu esa rus tilini bilmagan ko‘plab yoshlarga bir qator muammolarni keltirib chiqargan. Chunki Markaziy Osiyo davlatlarida aholining barcha qatlami ham rus tilini yaxshi bilmagan. Rus tilini asosan shahar va uning atrofida yashovchi aholi yaxshi bilgan. Qishloqlardan shaharga kelayotgan yoshlarning kattagina qismi rus tilini unchalik ham yaxshi bilmagan.

Xullas, 1991-yilda mustaqilikka erishgan mintaqaning besh respublikasi oldida

yuqorida sanab o‘tgan muammolar turar edi. Hukumat tepasiga kelgan rahbarlar ta’lim tizimini isloh qilmay turib katta maqsadlarga erishib bo‘lmasligini yaxshi tushungan. Shuning uchun ham ular mustaqillikning ilk kunlaridan bu sohada islohot qilish uchun harakatlarni boshlab yubordi.

STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASINI MAKTABGACHA TA’LIMDA QO‘LLASH

*To‘raqulova Malohat Bahodir qizi, Ismatova Manzura Usmonqul qizi***,**
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola STEAM texnologiyasining ahamiyati, uning afzalliklari va yutuqlari haqida yozilgan. STEAM texnologiyasini maktabgacha ta’limda qo‘llash, qanday metodlardan foydalinish kerakligi ushbu texnologiyani besh muhim markaz bilan bog‘lab bolalar ongiga muxrlash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. STEAM ta’lim texnologiyasini afzalligi shundaki u nazariya bilan amaliyotni uzviy bog‘laydi.

Kalit so‘zlar: STEAM, STEM, texnologiya, dastur, konsepsiya.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida ta’lim tizimiga STEAM texnologiyasi olib kirildi. STEAM texnologiyasi birinchi bo‘lib AQSHda o‘ylab topilgan bo‘lib bu texnalogiya bolalarni fikrlashga va boshqa sohalardagi bilimlarini jamlagan holda foydalanishga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Ta’lim texnologiyasi o‘ylab chiqilgan davrda STEM ko‘rinishida bo‘lgan keyinchalik esa ART-san’at qo‘shilgan va STEAM ko‘rinishiga kelgan.

S-Science-tabiiy fan

T-Technology-texnologiya

E-Enginering-muhandislik

A-Art-san’at

M-mathematic-matematika

S-Science-tabiiy fan hisoblanib bolalarni tabiatga bo‘lgan qiziqishlari, tabiatdan oqilona foydalanish kabilarni boshqa yo‘nalishlar bilan bog‘lab o‘rganadi;

T-texnology-texnaloyiga bolalarni texnalogiyalar ishlab chiqishga ya’ni yangi yangi texnalogiyalar yaratishga o‘rgatuvchi yo‘nalish;

E-enginering-muhandislik bu yo‘nalishda esa sodir bo‘layotgan har qanday voqea hodisalarni tushunish tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi;

A-Art-san’at yo‘nalishi loyihalar tuzishda chizmalar chizish loyihalarni ko‘rinishi tasvirlashni o‘rgatuvchi yo‘nalish;

M-mathematic-matematika yo‘nalishi loyihani tasvirlashda yoki yaratishda amalda qo‘llashda muhim hisoblanuvchi yondashuv hisoblanadi. STEAM ta’lim texnologiyasi bolalarni jamoa bolib ishlashga va 5 ta yo‘nalishni bir biriga bog‘lagan holda mashg‘ulotni olib borishga undaydi.

2014-yilda Quddusda konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ushbu konferensiyada 4 ta

quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

1. Bolalarni STEAMGA jalb qilish;

STEAM ta’limiga bolalar kichik yoshidan yani maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab jalb qilish zarur.

2. Fan tili ingliz tili;

Har qanday bilim olaman degan farzand ingliz tilini bilmog‘i lozim.

3.Qizlarni ham STEAMGA jalb qilinishi zarur;

Negaki qizlar o‘g‘il bolalar o‘ylamagan bajara olmaydigan ishlarni bajara oladi. Nozik turdagi texnalogiyalar yarata oladi.

4.Science is fun (ilm fan qiziqarli bo‘lishi kerak). Ilm fan jarayoni qancha qiziqarli bo‘lsa bolalar shuncha ko‘p e’tibor qaratadi va ilm olishga harakat kuchayadi.

STEAM ta’lim yondashuviga kundan kunga talab ortib bormoqda. So‘nggi ma’lumotlarda keltirilishicha 2011-yildan buyon STEAM yondashuviga bo‘lgan talab 17% ga oshdi. Oddiy kasblarga esa 9.8% ga talab oshgan. STEAM ta’lim jarayoni faqat nazariy bilim bilan kifoyalanibgina qolmay amaliy bajarib ko‘radilar. Shunda bolalarda qiziqish yanada uyg‘onadi. So‘nggi yillarda yurtimizda maktabgacha ta’limga juda katta e’tibor berilmoqda buning yaqqol misoli sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish kabilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida qabul qilinmoqda. Ushbu qaror maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, STEAM ta’lim texnologiyasi maktabgacha ta’limdan qo‘llana boshlashi zarur. Bunda bolalarda kreativlik, qiziquvchanlik, jamoa bolib ishlash va keng qamrovli fikrlash maktabgacha ta’lim yoshidan rivojlana boshlaydi. Bola hali so‘zlasha olmasdan turib yurishni boshlamasidan oldin jarayonni tushunish, anglash kabi jarayonlar ro‘y beradi. O‘sib borish jarayonida bolalar hayotida kichik-kichik muammolar ro‘y bergan vaqtda ham bolalar bu muammoni hal eta oladigan bo‘lib o‘sadi. STEAM ta’lim tizimidan maktabgacha ta’limda asosan mavzularni integratsiyalashgan holda o‘tish orqali foydalaniladi. Ayni damda bizning tavsiyamiz STEAM texnologiyasidan maktabgacha ta’lim tashkilotidagi besh muhim markaz orqali foydalaniladi. Bular quyidagilardir:

1.Qurish-yasash, matematika

2.Ilm-fan va tabiat

3.Til va nutq

4.Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish

5. San’at

Ushbu markazlar orqali STEAM ta’lim jarayoni olib boriladi. Dastur asosida

tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

-o‘zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;

-tanqidiy fikrlash;

-qatiy qaror qilish;

-muammolarni qo‘rqmasdan hal eta olish;

-ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;

-odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.

Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo‘ladi.

STEAM ta’lim jarayoni doimiy mashg‘ulotlaridan qiziqarli o‘tishining sababi STEAMda ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi. An’anaviy ta’lim bilan STEAM ta’limini solishtirib o‘tadigan bo‘lsak an’anaviy ta’lim bilimlarni o‘rgatadi fikrlashni rivojlantiradi. STEAM ta’limi esa haqiqiy ko‘niklar orqali olib boriladi.

STEAM ta’limning afzallik tomonlari bo‘lgani kabi kamchiligi ham mavjud. Bu yondashuv yozuv, musiqa, adabiyot kabi yo‘nalishlarga e’tiborning yetishmasligi uning kamchiligi hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilarga ushbu yo‘nalishda o‘qitish bo‘yicha mahalliy tarbiyachilardan tashqari soha bo‘yicha olimlar ham jalb etilsa yanada maqsadga erishish osonlashadi deb o‘ylayman.

Hozirgi kunda mamlakatimizga STEAMni ommalashtirish uchun Kanada va Buyuk Britaniya davlatlaridan kadrlar jalb qilingan bo‘lib, mamlakatimizdagi Prezident maktablari o‘quvchilari STEAM texnologiyasi asosida o‘qitilmoqda. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasi asosida o‘qitishga bolalarimizni kichik yoshligidan boshlab tayyorlab borishimiz kerak bo‘ladi. Ilk qadam davlat dasturida noyabr oyi uchun kichik guruhlar mavzularini ko‘rib chiqamiz.

1-hafta: “Transpor bilan tanishuv” mavzusini olaylik dastlab bolalarimizga transport va ularning turlari, transportning vazifasi transportni ishlab chiqarish haqida ma’lumot beramiz. Mavzuni suhbat asosida mustakamlab olganimizdan so‘ng qurish, yasash konstuksiyalash markaziga o‘tib legodan transport yasash topshirig‘ini beramiz. Dastlab kuzatib turamiz bolalarimiz mustaqil ravishda qanday va qanaqa transport yasashdi? Yasay olishdimi? Qiynalgan bolakayga ozroq ko‘maklashib yuboramiz. Ilm-fan va tabiat markazida o‘tirgan bolakaylar ham mashina yasash bosqichlarini o‘rganib oladilar buning uchun ularga ozroq buzib qo‘yilgan transport beriladi. Kuzatib turiladi mustaqil qila olishsa rag‘batlantiriladi, bola qo‘liga yana boshqa mashina beriladi. Undan so‘ng esa mashina yasashni o‘rgatadigan videoroliklar namoyish etiladi. Shu tariqa ham bolada qiziqish uyg‘otishimiz ham ushbu ishga nisbatan ko‘nikma hosil qildirishimiz mumkin.

2-hafta: “Svetofor” haqida savol javob qilinganidan so‘ng tarbiyachi tomonidan svetaforning yaratilish tarixi, ahamiyati, vazifalari so‘zlab beriladi. So‘ngra svetaforni ishlashini ko‘rsatib beradigan videorolik yoki multfilm namoyish etiladi. Undan so‘ng bolajonlarimizga tasavvuridagi svetaforni chizish va bo‘yash

topshirig‘i beriladi. Bu ham bolajonlardagi kreativlikni yuzaga chiqarish uchun qilinadigan jarayon hisoblanadi. Undan keyin esa karton qog‘ozdan yoki plastilindan svetaforni iloji boricha mustaqil bolajonlar o‘zlari yasashlariga topshiriq beramiz. Ushbu vazifalar bolajonlarni mavzuni yaxshi tushunib olishlari bilan birga o‘zlaridagi imkoniyatlarni ochib berishlariga yordam beradi.

3-hafta: “Tez yordam va o‘t o‘chirish yordami” Ushbu mavzuda bolajonlar asosan tez yordam va o‘t o‘chirish xodimlari mehnati bilan tanishtiriladi. O‘t o‘chirish mashinasining ishlashi, o‘t o‘chirish jarayonlari bilan yaxshilab tanishib oladilar. So‘ngra sujjetli ro‘lli markazga o‘tib mavzu yaxshiroq tushunarli bo‘lishi uchun tarbiyachi yordamida ro‘l ijro etiladi. Kerak bo‘ladigan jixozlar baklashka, uycha, bolajonlar va hokazo. Undan keyin esa bolajonlarimizga ushbu mashinalarni suratlarini chizish topshirig‘i beriladi. Mavzu yakunida esa tez yordamni chaqirish va yong‘in chiqganida nima qilish kerakligi albatta tayinlab o‘tiladi.

4-hafta: Bizning xayrli(ezgu) ishlarimiz. Ushbu mavzu bo‘yicha dastlab tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashadi xayrli ish nimaligi, uni kimlar qilishini tushuntirib beradi. So‘ngra ulardan o‘zlari bajargan xayrli ishlarni so‘raydi. Ularga topshiriq beriladi. Yig‘layotgan bolani tinchlantirish uchun o‘yinchoq yasash. Ularga lego, plastilin, slaym, rangli qog‘oz singarilarni beramiz. Bir chekkada o‘zimiz ishni bajarilish jarayonini kuzatamiz. Eng muhimi bolalar mustaqil nimani yasamoqchiligini, uni kimga taqdim qilishini va u uchun nimalar kerakligini to‘g‘ri aniqlab olishlarida ishidan bittasi yoki ikkitasi nimanidir boshidan oxirigacha o‘zi yasar bora bora bu jarayonlar bolarga odatga aylanadi. Ushbu vazifalar bolalarda ijodkorlikni shakllantirib beradi. Bu jarayonda tarbiyachining zukkoligi, ijodkorligi birinchi darajalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ilk qadam davlat dasturi.
2. R. Mavlonova, O. To‘rayeva, K. Xoliqberdiyev. Pedagogika. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T,: 2008-y.

PIRLS – O‘QISH SAVODXONLIGI DARAJASINI O‘RGANISH BO‘YICHA XALQARO TADQIQOT TOPSHIRIQLARI MAQSADI VA MAZMUNI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna,
Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasini o‘rganish bo‘yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS, IEA

Аннотация. В этой статье был проанализирован общий обзор цели и содержания оценивания по изучению грамотности чтения у детей начальных классов в рамках международного исследования PIRLS-Прогресс в

международном исследовании грамотности чтения.
Ключевые слова: Грамотность чтения, критическое мышление, PIRLS, IEA
Abstract. In this article, the general overview about the aim and the content of the assessment for studying reading literacy of the primary class children in the scope of the PIRLS- Progress in International Reading Literacy Study has been analyzed.
Key words: Reading literacy, critical thinking, PIRLS, IEA

PIRLS - o‘qish savodxonligi darajasini o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadqiqot

Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA- (International Association for the Evaluation of Educational Achievement)ning asosiy tadqiqotlaridan biridir. Boston kolleji qoshidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o‘quv markazi tomonidan boshqariladigan va 2001-yildan beri har besh yilda bir marta o‘tkaziladigan PIRLS to‘rtinchi sinfda o‘qish savodxonligini baholashning global standarti sifatida tan olingan.

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston ham ilk bora qatnashdi. 2001-yildan beri har besh yilda bir marotaba o‘tkazib kelinayotgan ushbu tadqiqotlarda mamlakatimiz ilk marotaba, dunyoning 60 dan ortiq davlatlari qatorida ishtirok etmoqda. Mazkur tadqiqotlarda respublikamizdagi **180 ta** maktabda tahsil oluvchi **5 948** nafar 4-sinf o‘quvchilari hamda ularning ota onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari ishtirok etishshdi. Tadqiqotda ishtirok etuvchi maktablar va o‘quvchilar tasodifiylik tamoyillari asosida tanlandi. 2021 yil 5-14 aprel kunlari O‘zbekiston maktablaridagi 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha (PIRLS) xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishdi.

Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqot o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinfida to‘rt yil mobaynida qay darajada bilimga ega bo‘lganliklarini aniqlab, butun dunyo bo‘ylab qiyosiy tahlil o‘tkazadi.

Shuningdek, PIRLS, yosh o‘quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta’lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya’ni badiiy tajriba orttirish, ma’lumot olish va undan foydalanish ko‘nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Endi shu tadqiqotlarga tayyorlash jarayonida foydalangan bitta mavzu yuzsidan to‘xtalib o‘tsak.

DONO DEHQON BOBO

(Ertak) Bekmirza Mahmudov

Qadimda bir Dehqonbobo bo‘lgan ekan. Uning bir tanobcha yeri bo‘lib, qishin-yozin shu yerda ishlar ekan. U yeriga nima eksa, hosili shunday mo‘l bo‘larkanki, ko‘rganlar hayron qolisharkan.

Kunlardan bir kun podshoh Dehqonboboning ta’rifini eshitib qolibdi. Navkarlariga Dehqonboboni saroyga olib kelishlarini buyuribdi.

Dehqonbobo shoh huzuriga kelibdi. Shunda shoh undan:

– Seni tadbirkor dehqon deb eshitdim. Qani aytchi, dunyoda nima barakali?-deb so‘rabdi. Dehqonbobo biroz o‘ylab:

-Shohim, dunyoda eng barakali narsa urug‘, — debdi.

– Qanaqa urug‘?

– Oddiy urug‘! Bahorda yerga tushgan bir dona bug‘doy yozda bir hovuch don, bitta chigit bir g‘alvir paxta, jo‘xorining bir donasi ming dona bo‘lib yetiladi. Menimcha, dunyoda bundan barakali narsa bo‘lmasa kerak.

Shoh dono dehqonning javobiga qoyil qolibdi. Darhol xazinadan o‘n tilla keltirib, unga berishlarini aytibdi. Shunda Dehqonbobo:

– Shohim, menga bir g‘alvir urug‘lik bug‘doy bersangiz bas,-debdi.

Bu gapni eshitgan shoh Dehqonboboning asl dehqonga xos fazilatiga yana qoyil qolibdi.

Dehqonboboga bir g‘alvir bug‘doy va o‘n tilla mukofot beribdi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Dehqonbobo nima uchun ozgina yeridan ko‘p hosil olar ekan?

____

2. Dehqonning yeri qancha edi?

A) Uch tanobcha
B) To‘rt tanobcha
C) Ikki tanobcha
D) Bir tanobcha

3. Podshoh Dehqonbobo haqidda nimalarni eshitib qoldi?

____

4. Dehqonbobo shoh huzuriga kelibdi. Shunda shoh undan nimani so‘rabdi?

____

5. Shoh dunyoda nima barakali deb savol berganda dehqon unga nima deb javob berdi?

____

6. Bir dona bug‘doy, bir dona chigit, bir dona jo‘xoridan qanday mahsulotlarni olsak bo‘lar ekan?

____

7. Shoh dono dehqonning javobiga qoyil qolib unga qancha miqdorda tilla berishni ixtiyor etibdi?

8. Shoh dehqonga o‘n tilla mukofot berilsin deganida dehqon undan nima berishini so‘radi?

A) Bir xumcha tillla
B) Qimmatbaho sovg‘alar
C) Bir g‘alvir bug‘doy
D) Bir qop jo‘xori

9. Shoh Dehqonboboning asl dehqonga xos fazilatiga qoyil qolib unga nimalarni hadya qildi.

10. Mavzuga siz yana nima deb sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz?

JAVOBLAR TASNIFI

DONO DEHQON BOBO

1	Dehqonbobo nima uchun ozgina yeridan ko‘p hosil olar ekan? Maqsad: Badiiy matnlar orqali o‘qish savodxonligini oshirish. Jarayon: Berilgan matndan xulosalar chiqarish. Javob qabul qilinadi. Agar dehqonning yerini gullab yashnashiga doir misollar keltirilgan bo‘lsa. Misol uchun: chunki yerga mehr berib yozu- qish tinmay ishlar ekan. Javob qabul qilinmaydi: agar dehqonning yerini unib o‘sishiga doir ma’lumot bo‘lmasa. Misol uchun: Uning yeri juda jo‘r edi.
2	D
3	Podshoh Dehqonbobo haqida nimalarni eshitib qoldi? Javob qabul qilinadi: agar dehqonboboning mehnatkashligini aks ettiruvchi misollar keltirilsa. Javob qabul qilinadi: Dehqonbobo yeriga nima eksa, hosili shunday mo‘l bo‘larkanki, ko‘rganlar hayron qolisharkan. Podshoh Dehqonboboning ta’rifini eshitib qolib, navkarlariga Dehqonboboni saroyga olib kelishlarini buyuribdi. Javob qisman qabul qilinadi: agar dehqonboboning mehnatkashligini aks ettiruvch so‘zlar bo‘lsa. Misol uchun: Dehqonboboning mehnatkashligini eshitgan podshohi olam uni saroyga taklif etibdi.
4	Dehqonbobo shoh huzuriga kelibdi. Shunda shoh undan nimani so‘rabdi? Dehqonbobo shoh huzuriga kelibdi. Shunda shoh undan:

	—Seni tadbirkor dehqon deb eshitdim. Qani aytchi, dunyoda nima barakali?-deb so‘rabdi.
5	Shoh dunyoda nima barakali deb savol berganda dehqon unga nima deb javob berdi? Javob qabul qilinadi: Shohim, dunyoda eng barakali narsa- urug‘. Javob qabul qilinmaydi:boshqa javoblar
6	Bir dona bug‘doy, bir dona chigit, bir dona jo‘xoridan qanday mahsulotlarni olsak bo‘lar ekan? Javob qabul qilinadi: Masalan:- -Oddiy urug‘! Bahorda yerga tushgan bir dona bug‘doy yozda bir hovuch don, bitta chigit bir g‘alvir paxta, jo‘xorining bir donasi ming dona bo‘lib yetiladi. Menimcha, dunyoda bundan barakali narsa bo‘lmasa kerak. Javob qisman qabul qilinadi: ulardan paxta, bug‘doy va jo‘xori olinadi.
7	Shoh dono dehqonning javobiga qoyil qolib unga qancha miqdorda tilla berishni ixtiyor etibdi? Maqsad: Badiiy matnlar orqali o‘qish savodxonligini oshirish. Jarayon: Berilgan matndan aniq manbani topish. Javob qabul qilinadi. Shoh dono dehqonning javobiga qoyil qolibdi. Darhol xazinadan o‘n tilla keltirib, unga berishlarini aytibdi Javob qisman qabul qilinadi: uning xizmatiga tilla beribdi.
8	C
9	Shoh Dehqonboboning asl dehqonga xos fazilatiga qoyil qolib unga nimalarni hadya qildi? Shoh Dehqonboboning asl dehqonga xos fazilatiga yana qoyil qolibdi va Dehqonboboga bir g‘alvir bug‘doy va o‘n tilla mukofot beribdi.
10	Mavzuga siz yana nima deb sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz? Agar ushbu mavzuga boshq sarlavha topish kerak bo‘lsa men unga ”Aqlli Dehqonbobo” deb nomlagan bo‘lar edim.

“Dono dehqon bobo ” deb nomlangan ertakni o‘qish siz uchun qanchalik yoqimli bo‘ldi? Faqat bitta javobni belgilang.

Menga juda yoqdi-------------------

Menga biroz yoqdi------------------

Menga unchalik yoqmadi --------

Menga umuman yoqmadi--------

Ushbu tartibdagi savollarni berishimiz o‘quvchilarni mavzuni yanada qunt

bilan o‘qib tushunishga, fikrlar qobiliyatini rivojlanishiga ularni bilimli va nutqini ravon bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki sh savodxonligi darslarida ham badiiy matn ustida ishlash jarayonida samarali ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday darslarni tashkil etishda o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlik ko‘rishlari, har bir matnning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishlari lozim. Bu kabi innovatsion darslarda PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos test va topshiriqlarni tuzish hamda ulardan unumli foydalanish mumkin deb o‘ylayman

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash.

2. http://www.pedagog.uz - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti.

3. M.Umarova va boshqalar. 3-sinf. O‘qish darsligi. Toshkent-2019 y.

O‘QUVCHILARDA SAVODGA O‘RGATISH JARAYONLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Djurayeva Marg‘uba,

Toshkent viloyati Bekobod tumani 54-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishdan iboratdir. Chunki savodga o‘rgatish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanishni zamonning o‘zi talab etmoqda.

Kalit so‘zlar: Milliy dastur, ijodiy tafakkur, interfaol metodlar, “Ortiqchasini top”, “4 taraf” metodlari.

Bugungi davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lgan axborot texnologiyalarining tez sur’atlar bilan o‘sishi va rivojlanishi bilan uning imkoniyatlaridan keng foydalanib, ta’lim jarayoniga o‘zgacha yondashish va uni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki, XXI asr - yuksak texnologiyalar asri hisoblanib, bugungi zamon yoshlarimiz nafaqat davr ruhiga monand, balki elektron olamdagi taraqqiyotga ham mos ravishda qadam tashlamoqdalar. Shu nuqtayi nazardan ham yosh avlodga ta’lim berish jarayoniga yangicha yondashishlar talab etilmoqda. Dars mashg‘ulotlari jarayonida ustozlarning o‘rni ham alohida ahamiyatga egadir. O‘qituvchi asosan o‘quvchini ta’lim olishga va ilg‘ or texnologiyalardan foydalanishga yo‘nal-tiruvchi vazifasini amalga oshirmoqda. Davr bilan birga qadam tashlayotgan va o‘z oldiga ta’lim va tarbiya berishdek sharafli va muqaddas vazifani oliy maqsad qilib olgan o‘qituvchi darsning asosiy qismini axborot va pedagogik texnologiyalar orqali jonlantirishga bel bog‘lamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur”i asosida Savodxonlik darslarida o‘qitishning kompleks

chora-tadbirlarini, ya'ni mukammal kamol topgan, bilimli, zukko, iqtidorli, zamon bilan hamnafas mustaqil fikrlovchi yosh avlodni yetkazib chiqarishga, mamlakatimizning jahon hamjamyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan yangi dasturi yaratilmoqda. Darhaqiqat, mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda ta'lim berishning ilg'or uslublaridan foydalanib, yoshlarning ona tili va adabiyotiga bo'lgan qiziqishini va intilishini yanada yuqori darajaga ko'tarish, ayni damda o'zbek tilimizni jahon tillari safiga olib chiqadigan, shu bilan bir vaqtda o'z ona tilimizda yaratilgan durdona asarlarni chet tillariga tarjima qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashdek muhim vazifa oldimizda turibdi. Pedagogik texnologiya o'z oldiga ta'lim shaklini soddalashtirishni va riv ojlantirishni maqsad qilib qo'yadi. Maqsad esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishdan iboratdir. Chunki savodga o'rgatish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanishni zamonning o'zi talab etmoqda. Har bir darsni turli va eng zamonaviy saralab olingan o'qitish usullarini qo'llagan holda tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini faollashtirishga, berilgan bilimlarini mukammal o'zlashtirishga olib keladi. Bunda asosan hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarning o'rni beqiyosdir.

XXI axborot asrida o'quvchilarni oldida turgan asosiy vazifa ona tili darslarida o'quvchilar foydalanishi uchun zarur bo'lgan ilg'or ta'lim vosi talari asosida – ijodiy tafakkur sohibini yaratishn i yo'lga qo'yishdir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida foydalaniladigan ilg'or pedagogik texnologiyalarning har biri ta'limining bosh maqsadini amalga oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Demak, har bir fan o'qituvchisi o'zi uchun va o'quvchi uchun savodga o'rgatishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar tizimini yaratmog'i zarur.

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko' rgazmali qurollar ishlab


chiqish zarur bo'ladi. Ulardan o'z vaqtida va o'z o'rnida foyd alanishga harakat qilish dars sifatini va samara-dorligini ta'minlaydi. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun bir qator texnologiyalardan foydalaniladi. Darslarda o'rgatilgan manba-lardan, savollar yoki testlardan unumli foydalaniladi. Ta'lim har doim takomillashib va yangilanib boradi. Shunga muvofiq ta'limning yangi usullari ustida izlanish talab etiladi. Chunki o'quvchilarga doimo bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki- uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samarador-ligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayot gan baho biz uchun ahamiyatlidir.

Quyida "Ortiqchasini top", "4 taraf" medodlarini ko'rib chiqamiz.

"Ortiqchasini top"

Ushbu metodning maqsadi: o'quvchilarni izlanishga, fikrlashga va diqqatni jamlashga hamda mavzudagi kalit so'zlarni topishga undash va o'quvchi ruhiyatini


ko‘tarishga ta’sir etadi.





“4 taraf”

Ushbu metodning maqsadi : o‘quvchini fikrlashga, izlanishga va muommoni izchil va tizimli yechishga undash. Bu metodda har bir o‘quvchi savol hamda amaliy topshiriqlarga o‘zi mustaqil izlanib, javob yozadi. Uyga vazifa yoki yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida qo‘llanilganda yaxshi natija beradi.





Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ta’lim va tarbiya berishning sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Saydahmedov.N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T:. Moliya.2003. 172-b.
2.Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T:. “Fan” nashriyoti.2006.
3.Ishmuhammedov R., Abduqodirov A, Pardayev A “Ta’ limda innovatsion texnologiyalar”. T:. “Iste’dod”. 2008.
4. Yunusova Mohira Azimovna Jizzax shahar 17 -umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish usullari va darsni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiya

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARINI OLIB BORISH

Ilyosova Nilufar Abbosxonovna,
Boyovut tumani 6-umum ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Bugungi kunda umumta'lim maktablarining eng zarur hayotiy vazifalardan biri o'quvchi-yoshlarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltira olishdir. Bu sohada ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish juda ham muhim hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqilligidan keyingi yillar davomida bu sohaga jiddiy e'tibor berila boshlandi, ta'lim sohasi rivoji uchun yetuk mutaxassislar, olimlar jalb etildi, ular tomonidan ilmiy-amaliy qo'llanmalar, darsliklar, metodik tavsiyanomalar yozilib, o'quvchiyoshlarni kasbga yo'llash ishlari bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi. Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy ahloqiylikni shakillantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta'lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir. Kasb-hunar egallashni ahamiyati to'g'risida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) asarlarida ham ko'ramiz.

Uning fikricha bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni o'rgatish lozim. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada o'zlashtirib bo'lgandan so'ng o'z kasb-hunaridan hayotda foydalanish, yani halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerak. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni berganlar, chunonchi ta'lim-so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham o'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi. Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi.

Beruniy bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina otasi uni uylantirib qo'ymoqi lozim, deb hisoblaydi. Yusuf Xos Hojibning o'sha davrda kosib hunarmandlarga naqadar hayrihohligi o'zo'zidan emasdi. Chunonchi, davlatning tinch osoyishtaligi, jahonda tutgan mavqei, boyligi, xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog'liq edi. Zero, kasb-hunar ta'limning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining

o'lchov birligi sanalardi. Yusuf Xos Hojib jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o'ringa ega bo'lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib beradi3.

Shunday ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodni kasb hunarga yo'naltirish, to'g'ri kasb egallashga yo'naltirish masalasi faqat hozirgi kunda emas balki azaldan hayotiy ahamiyatli, dolzarb muammolardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Farzandlarimizni erta yo'shligidan boshlab qiziqishlari, moyillik va qobiliyatlarini e'tiborga olib ularni kasb hunarga to'g'ri yo'naltirsak, nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning ravnaqiga samarali ijobiy ta'sir qiladi. Yoshlarini kasbga yo'naltirish ishlariga ilmiy jihatdan qaraganda dastlabki bosqich bo'lib, bu muhit va jamiyat bilan hamkorligida uzoq vaqt davom etadigan murakkab psixologik jarayondir. Boshqacha aytganda, nafaqat umumiy va maxsus qobiliyatlar, shaxs xususiyatlari, balki, shu bilan birga, shaxsga moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ta'sir etuvchi tashqi muhit ham kasb tanlashga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu jarayonlarda har bir o'smirda bo'lajak kasbga ongli va to'g'ri, muayyan sohaga nisbatan ozmi-ko'pmi ijtimoiy, ijobiy munosabatlar shakllanadi. Shu sababli o'quvchining kasb tanlashga tayyorligi deganda, kasbni to'g'ri tanlashga imkon beradigan kasbiy ta'limning muvaffaqqiyatini ta'minlaydigan, qulay imkoniyatlarni yuzaga keltiradigan shaxs rivojlanishining muayyan bosqichi yoki holati tushuniladi. Bu esa kasbga yo'naltirish faoliyatining maqsadi asosan o'quvchi yoshlarning bo'lajak kasbini ongli va mustaqil ravishda to'g'ri tanlashlariga qaratilgan bo'lishi kerak, degan fikrga kelishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish
2. Axliddinov R.Sh. Maktabni boshqarish san'ati

GELIOISSIQXONALAR VA ULARDAN O'ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Jumaniyozova To'tijon Madaminovna,
Xorazm viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi fizika va astranomiya fani o'qituvchisi

ANNOTASIYA. Qo'yilgan masalani hal qilishda gelioissiqxona tizimining murakkab shaffof to'siqlardagi qisman nur yutuvchi qatlamida quyosh energiyasining o'tishi, yutilishi va uning issiqlikka aylanishining fizik modelidan hamda son qiymatlari tadqiq qilishda issiqlik texnikasining nazariy va amaliy uslublaridan foydalanildi. Bajarilgan hisobiy tadqiqotlar asosida konstruktiv va issiqlik-texnikaviy parametrlari optimallashtirilgan, yarim tsilindr shaklidagi bir va ikki qavatli shaffof plyonka to'siqli kichik o'lchamli gelioissiqxonaning tajribaviy pilot nusxasining loyihasi tayyorlandi.

Tayanch so'zlar: Gelioissiqxona, quyosh nurlanishi, issiqlik-texnikaviy, shaffof plyonka, pilot nusxa, polietilen plyonka, quyosh nurlanishi, yoqilg'i–

energetika, energiya manbalari.

O‘zbekiston Respublikasi hududida issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun qulay ob-havo sharoiti mavjud. Bu hududlarda mavjud issiqxonalarda 1 kg sabzovot mahsulotlarini etishtirish uchun 11-13 kg shartli yonilg‘i sarflanadi, u me’yoriy qiymatdan 1,3 marta yuqoridir. Zamonaviy issiqhonalarda o‘rtacha $1 м^2$ ekin maydoniga yil davomida $4 Гж$ issiqlik yoki $80 кВт \cdot соат$ elektr energiyasi sarflanadi [5]. An’anaviy energetika resurslarining cheklanganligi va organik yoqilg‘ilarning tannarhi ortib borayotganligi hamda ekologik muhit o‘zgarishlari issiqxonalarda muqobil bo‘lgan mahalliy energiya manbalarini qidirish va ulardan unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqardi. Keyingi yillarda dunyoda, shu jumladan Respulikamizda ham muqobil energiya manbalaridan keng miqyosida foydalanishni joriy etishga qaratilgan dasturlar qabul qilingan, ilmiy–tadqiqot va konstruktorlik ishlari olib borilmoqda. Halq xo‘jaligining turli sohalarida yoqilg‘i - energetika resurslarini tejamkorlik bilan ishlatish va atrof - muhitning musaffoligini saqlab qolish hozirgi zamon ilmiy - texnikaviy taraqqiyotining asosiy muammolaridan biridir. Bu muammolarni hal qilishda no‘ananaviy energiya manbalarini izlash va ularni an’anaviy yoqilg‘i–energetika manbalari bilan birga foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekison iqlim sharoitida noan’anaviy energiya manbalari ichida quyosh energiyasi alohida ahamiyatga ega. Bu energiya turi bitmas-tugalmas zahiralarga ega bo‘lib, ekologik tozaligi bilan xarakterlidir.

Energetika resurslarining cheklanganligi va organik yoqilg‘ilarning tannarxi ortib borayotganligi hamda ekalogik muhit o‘zgarishi issiqxonalarda muqobil bo‘lgan energiya manbalaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Magistrlik dissertatsiya ishi tadbirkorlar, dexqonlar va shaxsiy tomorqa egalari tomonidan qurilagan issiqxonalarda, quyosh energiyasidan samarali foydalanish hisobiga kunduz kuni hosil qilingan ortiqcha issiqlik jamlamasi issiqxona ustiga qo‘shimcha shaffof yorug‘likni yaxshi o‘tkazuvchi ikkinchi qoplamni yopish bilan issiqlik isrofini kamaytirish evaziga hamda issiqxonada ishlatiladigan tuproq osti akummulyatorlarini ishlatish hisobiga erishish mumkin. Bunda issiqxonaning isitishini 1/3 muddatga qisqartiish va mavsum davomida ikki marta xosil etishtirish, hamda organik yoqilg‘i sarfini ikki martagacha kamaytirish mumkin. Bu texnologiya Respublikamiz va shu jumladan Sirdaryo viloyati aholisini qish va erta bahorda sabzovot mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirishda muxim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz hududida issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun qulay ob-havo sharoiti mavjud. Mamlakatimizdagi issiqxonalarni isitish uchun sarflanadigan yoqilg‘i hamma harajatlarining 50-60 % ni tashkil qiladi. Halq xo‘jaligining turli sohalarida yoqilg‘i - energetika resurslarini tejamkorlik bilan ishlatish va atrof - muhitning musaffoligini saqlab qolish hozirgi zamon ilmiy - texnikaviy taraqqiyotining asosiy muammolaridan biridir. Bu muammolarni hal qilishda no‘ananaviy energiya manbalarini izlash va ularni an’anaviy yoqilg‘i–energetika manbalari bilan birga foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekison iqlim sharoitida noan’anaviy energiya manbalari ichida quyosh energiyasi alohida ahamiyatga ega.

Xorazm viloyati sharoitida o‘rganilayotgan tajribaviy gelioissiqxonani foydalanish natijalarini tahlil qilish asosida:

- qishki isitish mavsumi davomida texnik isitish tizimi bo‘lmagan gelioissiqxonalarda ochiq ob-havo sharoitida kunduz paytlari havo muhitining harorati asosan me’yoriy haroratga yaqin, bulutli ob-havoli sharoitda va kechqurunlari esa me’yoriy haroratdan ancha past bo‘lishi aniqlandi.

Qishloq xo‘jaligida gelioissiqxonalar va ulardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish gelioissiqxonalar samaradorligini oshirish uchun asosiy bo‘lgan quyosh nurlanishi energiyasi va atrof – muhit haroratining har qanday o‘zgarishlari sharoitida ularning ichida o‘simliklarning normal rivojlanishi uchun me’yoriy harorat rejimlarini ta’minlashga erishish zarur. Issiqxonalar dehqonchiligi amaliyotida bu masalani hal qilishda vaqtga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchan tashqi meteorologik faktorlar ta’sirida shakllanadigan ularning ichki real issiqlik rejimlarini hisoblash uchun ilmiy asoslangan uslublarni ishlab chiqish va uni tadbiq qilish hamda shu asosda ularning konstruktiv va issiqlik-texnikaviy parametrlarini optimallashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ochiq va issiq iqlimli kunlarda quyosh radiatsiyasidan kelayotgan kunduzgi issiqlik issiqxona isrofini to‘liq qoplashi mumkin bo‘lganda ham issiqxona isitish tizimi ulangan bo‘ladi, chunki isitish tizimini davriy ravishda uzish va ulash maqsadga muvofiq emas. Natijada issiqxona ichida qizish vujudga keladi, bu esa o‘simliklarni o‘sishda va kompleksning texnikaviy – iqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir qiladi.

Shaxsiy va tadibrkor xo‘jaliklarida quriladigan kichik o‘lchamli issiqxonalar, issiqxona komplekslaridan farqlanib, quyoshdan hosil bo‘lgan kunduzgi ortiqcha issiqlikni jamlash, issiqxona ustiga qo‘shimcha qoplam yopish bilan issiqlik isrofining miqdorini kamaytirish mumkin. Bunday imkoniyatdan foydalanib issiqxonani isitish mavsumini 1/3 muddatga qisqartirish mumkin. Qolgan vaqtlarda (kechqurun) texnik isitish sistemasidan qisman foydalanish mumkin. Fermer, arenda, shaxsiy, tadbirkorlik xo‘jaliklaridagi issiqxonalarda o‘simlikning rivojlanish samaradorligini oshirish va optimal rivojlanishini amalga oshirish yordamida bir isitish mavsumi davomida 2 marta hosil etishtirish mumkin. Gelio issiqxonalaridagi o‘simliklarning yaxshi rivojlanishi uchun kerak bo‘ladigan (kunduz kunlari $24 \div 25\,^0C$ dan yuqori bo‘lmagan, kechqurunlari $15 \div 16\,^0C$ kam bo‘lmagan) harorat jarayoni yaratish talab qilinadi, bunday issiqxonalarda mavsum davomida ikki marta hosil olishga imkoniyat yaratadi.

Issiqxonani isitish uchun ketadigan yonilg‘i harajatlari, hamma harajatlarning 50-60 % ini tashkil qiladi. Bu masala respublikamizni energetikasini tejashdagi dolzarb muammolardan biridir. Shu boisdan issiqxonalarda kechadigan issiqlik jarayonlarining sutkaviy nobaqarorligini hisobga olgan holda ularning asosiy parametrlarini optimallashtirish orqali quyosh energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar issiqxonalar sabzavotchiligini rivojlantirish va mazkur sohadagi energiya tejamkorligini ta’minlashning dolzarb masalalaridan biridir. Ammo, yuqorida qayd etib o‘tilgan masalalarini yechishga hozirgi vaqtgacha e’tibor berilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aleksandrov A.D., Boev N.N. Gelioteplitsi i ispolzovanii solnechnoy energii v Sredney AziiG'G'Trudo' Uzbekskogo Gosuniversiteta. Tom 4. Samarkand. 1936. 85-93 s.

2. Abdullaev A. Nestatsionarnie teplovie rejimi i optimizatsiya osnovnix parametrov plenochnix gelioteplits polutsilindricheskoy formi. Diss…k. t. n. Tashkent – Gulistan. 2007, 187 s.

3.Veynberg V.B. Optika v ustanovkax dlya ispolzovaniya solnechnoy energii. M.: Oborongiz. 1959, 234 s.

4. Sado'kov T.A. Issledovanie temperaturnogo rejima i teplovo'x protsessov v solnechnoy teplitse. Avtoref.diss.kand.texn.nauk. Ashxabad. 1966, 31s.

5. Niyazov Sh.K. Issledovanie teplovix rejimov plenochnoy teplitso' s solnechnim I nizkotemperaturno'm podpochvennim obogrevom. Avtoref. diss.k.t.n. Ashxabad.1981.25s.

6. Yakubov Yu.N. Akkumulirovanie energii solnechnogo izlucheniya. Tashkent: FAN. 1981. 105 s.

7. Bayramov R.B., Ribakova L.E. Mikroklimat teplits na solnechnom obogreve. Ashxabad: O'lim. 1983. 84 s.

8. Vilkovisskiy N.E. Teoreticheskoe issledovanie problemi tverdogo akkumulyatora tepla (regeneratora) dlya solnechnix vozduxonagrevateley. Trudi Uzbekskogo Gosuniversiteta. Samarkand. T. 11, 1938, 241-290 s.

9. Adoratskiy V.V. Osnovo' teorii teplichnix soorujeniy. M.: Selxozgiz. 1939, 196 s.

10. Fokin I.F. Stroitelnaya teplotexnika ograjdayuhix chastey zdaniy. M. 1957. 287 s.

11. Geliotexnika xalqaro ilmiy jurnali.

O'QUVCHILAR BILIMLARI VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNING TURLI STRATEGIYALARI

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna,

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada formativ baholash o'rganish uchun va o'rganish davomidagi baholash, natijalar bo'yicha doimiy xulosalar berib borish va yaxshilash, o'rganish jarayonini foydali va samarali usullari va namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Milliy o'quv dasturi (MO'D) Ta'limni baholashning milliy tizimi (TBMT) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan summativ (xulosalovchi) baholash.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda, xalq ta'limi tizimida Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (MO'D) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Ushbu dasturdagi (MO'D) muhim qadamlardan biri baholash komponentining ham kiritilganligi hisoblanadi. Ushbu

yo‘riqnoma-uslubiy tavsiya Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi baholash komponentini amaliyotga to‘g‘ri va samarali joriy etish bo‘yicha asosiy yondashuvlar, yo‘nalish hamda shu jarayon ishtirokchilarning vazifalarini belgilaydi, muhim ko‘rsatmalar beradi. Ta’limni baholashning milliy tizimi (TBMT) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan summativ (xulosalovchi) baholashlar, ya’ni turli darajadagi imtihonlardan tortib, kundalik darslardagi baholashlargacha (formativ baholash) bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bunda baholash va o‘qitish alohida emasligini, baholash bu o‘qitish jarayonining bir qismi ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, baholash faqat o‘qish davrining natijalarini o‘lchash uchun emas, balki o‘quv yilining har kuni uchun o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini yaxshilashda muhim ekanligi tushuntirilgan.

Milliy o‘quv dasturining asosiy maqsadi XXI asr ko‘nikmalariga ega, mustaqil, ijtimoiy faol, raqobatbardosh bitiruvchilarni yetishtirib chiqarish bo‘lsa, Ta’limni baholashning milliy tizimi (TBMT) bu jarayonni haqiqatga aylantirishda muhim “kalit” vazifasini bajarishi ko‘zda tutilgan. TBMT umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilari, metodistlar va tegishli mutaxassislar tomonidan to‘g‘ri va samarali qo‘llanilsa, o‘quvchilarning natijalarini yaxshilashda, ta’lim-tarbiya berish sifatini oshirishda, xalqaro baholash tadqiqotlarida (PISA, PIRLS, TIMSS va boshqalar) yuqori natija ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Nima uchun baholash kerak? Baholashning maqsadlari. Ta’limni baholashning milliy tizimi (TBMT) - bu barcha o‘quvchilarni baholashda qo‘llaniladigan tamoyillarni o‘z ichiga olgan umumiy tizim hisoblanadi. Bu tamoyillar baholash jarayonlarining izchil bo‘lishini ta’minlash, ta’limni rag‘batlantirish, ta’lim olish va o‘qitishni doimiy yaxshilanishiga hissa qo‘shish uchun yo‘l-yo‘riqlar beradi. Baholash - bu sinfda o‘qitish va o‘qitish strategiyalarining samaradorligini aniqlash, o‘quvchining taraqqiyotni kuzatish va o‘qitish muvaffaqiyatini baholash vositasi.

Baholash – ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil etishdan iborat jarayondir.

Nega baholashimiz kerak? − o‘quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun; − natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun; − ta’lim oluvchilarning qiziqishlarini bilish uchun; − yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun; − ta’lim beruvchi o‘z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun; − yalpi o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun; − ta’lim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun; − tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma’lumot berish uchun.

Baholashning maqsadi – o‘qitishning asl natijalari bilan kutilganlarining mosligini aniqlashdir. Baholash natijasida, ta’lim oluvchilarning o‘rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo‘llay olish, tahlil qilish va o‘z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi.

Baholash jarayonining umumiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

a) o‘quvchilarning o‘quv faoliyati rivojlanishi to‘g‘risida tegishli ma’lumotlarni to‘plash;

b) ularning qiziqishlarini, o‘qitishning asl natijalari bilan kutilganlarining mosligini aniqlash;

c) ta’lim sifati va o‘quvchilarning o‘quv natijalari to‘g‘risida xulosalar chiqarish;

d) ularning o‘quv jarayonini yaxshilash to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

e) ta’lim va tarbiya sifatini oshirish. Baholash bugungi ta’lim tizimining asosiy va ajralmas qismidir. Baholash o‘quvchining shaxsiy rivojlanish tizimi va o‘zlashtirish trayektoriyasini aniqlash, oldingi va keyingi o‘quv natijalarini taqqoslash imkonini beradi.

Baholash – ta’lim jarayoning ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil etishdan iborat jarayondir.

Formativ baholashda foydali yondashuvlar (1-ilova)

1. O‘quvchilar bajargan ishlarni tahlil qilish.

O‘qituvchilar o‘quvchilar bajargan vazifani tekshirganda, quyidagilarni bilib olishi mumkin:

- O‘quvchining mavzuga doir ayni vaqtdagi bilimi, munosabati va qobiliyati;
- Ularning kuchli va kuchsiz tomonlari hamda o‘rganish uslubi;
- Qo‘shimcha yoki alohida ko‘makka muhtojligi.

2. Yumaloq shakldagi Robin jadvali

4-5 o‘quvchidan iborat har bir guruh jadval va markerlar bilan mashg‘ulotni boshlashadi. Guruh jadvalda berilgan ochiq savollarga javob yozadi. Har bir guruh barcha jadvallar bilan ishlaydi, javoblar esa sinf darajasida muhokama qilinadi.

3. Strategik savol berish.

Samarali formativ baholash strategiyalarida o‘quvchilar Nima uchun? va Qanday? kabi yuqori darajali savollarga javob berishi ko‘zda tutiladi.

4. Uch tomonlama xulosalar berish.

Bu turli mulohaza yuritish usullari va detallarga e’tibor berishni o‘z ichiga oladi. Savolga yoki mavzuga oid so‘rovga javob berishda, o‘quvchilar 3 xil shakldagi xulosalar yozishi so‘raladi:

- 10-15 so‘zdan iborat
- 30-50 so‘zdan iborat
- 75-100 so‘zdan iborat

5. O‘yla - Juftlikda ishla - Ulash.

O‘qituvchi biror muammoni o‘rtaga tashlaydi va o‘quvchilar o‘zlarining javoblarini yozadilar. Keyin o‘quvchilar o‘z javoblarini muhokama qilish uchun juftliklarda ishlashadi.

6. 3-2-1 Ortga qarab sanash

O‘quvchilarga yozish uchun kartochkalar beriladi yoki og‘zaki javob berishlari mumkinligi aytiladi. Keyin ular quyidagi 3 ta fikrga javob berishlari so‘raladi.

- Oldin bilmagan 3 ta narsangiz
- Bu mavzuga doir sizni ajablantirgan 2 ta narsa

- O‘rganganlaringiz ichidan qilishni boshlamoqchi bo‘lgan 1ta narsa

7. Sinf so‘rovnomalari

So‘rovnomalar o‘quvchilarni tez va to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi. Anonim so‘rovnomalar omma oldida gapirishga qiynaladigan uyatchan o‘quvchilar uchun, ayniqsa, juda mos.

8. Chiqish/Tan olish biletlari

Tan olish biletlaridan dars boshida o‘quvchilar uyga vazifa va o‘tgan mavzular bo‘yicha savollarga berayotganda foydalanish mumkin.

Chiqish biletlari esa o‘quvchilar o‘sha kungi darsdan chiqayotganlarida darsga doir mulohaza va takliflari uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchi, o‘qituvchi, ta’lim yo‘nalishi, ta’lim muassasasi, ta’lim dasturi yoki butun boshli bir ta’lim tizimining faoliyatiga baho berish uchun ishlatiladi. Ushbu ma’lumotni olganidan so‘ng o‘qituvchilar har bir o‘quvchining yutuqlari, shuningdek guruh/sinfning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o‘qitish shakllari, usullari va metodlarini o‘zgartirishlari mumkin.

Baholashda asosiy e’tibor o‘quvchida ko‘nikmalarning qay darajada shakllanganligiga emas, o‘quvchi tomonidan o‘quv adabiyotidagi kontentni qay darajada o‘zlashtirganligiga (yod olish/esda saqlab qolish) qaratiladi. Yuqoridagi kabi yutuq va kamchiliklar o‘rganiladi va TBMTning asosiy yondashuv va yo‘nalishlari, baholash mexanizmi ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.

3. Andrade, H. (2008). Self-assessment through rubrics. Educational leadership, 65(4), 60-63.

4. Andrade, H. G. (2001). The effects of instructional rubrics on learning to write. Current issues in education, 4.

5. Brookhart, S. M. (2013). How to create and use rubrics for formative assessment and grading. Ascd.

6. Brookhart, S. M. (2018). Appropriate criteria: key to effective rubrics. In Frontiers in Education (Vol. 3, p. 22). Frontiers Media SA.

7. Dixson, D. D., & Worrell, F. C. (2016). Formative and summative assessment in the classroom. Theory into practice, 55(2), 153-159.

8. Jalilov, K. (2020) Baholash nazariyasi asoslari (testologiya, pedagogika o‘lchovlar). Toshkent Akademnashr.

ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Musurmanov Ulug‘bek Amirkulovich,

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy axborot kommunikatsion

texnologiyalaridan va dasturiy vositalardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini tasjkil etish haqida fikr yuritilgan. Asosiy e’tibor axborot va kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan dars jarayonida sifatli foydalanishga qaratilgan.

Аннотация. В статье рассматривается организация уроков с использованием современных информационно-коммуникационных технологий и программных средств. Основное внимание уделяется качественному использованию информационно-коммуникационных технологий в ходе урока.

Abstract. The article discusses the organization of lessons using modern information and communication technologies and software. The main attention is paid to the qualitative use of information and communication technologies during the lesson.

Respublikamizda yangi zamonaviy ta’lim tizimi yaratilib, unda ta’lim mazmuni uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, talaba-yoshlarni ongida dastur asosida o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb bilimlar tizimini shakllantirish va talaba-yoshlarning aqliy rivojlanish qobiliyatlarini yuqori darajaga ko‘tarish kabi masalalar dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofaviy ta’lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o‘zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o‘qitishni jadallashtirish singari vazifalarni amalga oshirish lozimligini, ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish, elektron darsliklar yaratish, dars jarayonlarini virtuallashtirish, o‘qitishda virtual va multimedia vositalardan foydalanish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Bizga ma’lumki, informatika va axborot texnologiyalari fani ta’lim tizimida talaba-yoshlarning bilim doirasi, dunyoqarashini, tasavvurlash qobiliyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Chunki informatika va axborot texnologiyalari fani boshqa ko‘plab fanlarlarni o‘rganishda, yangi texnika va texnologiyalarni, axborot vositalarini o‘zlashtirishda keng qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqtda informatika va axborot texnologiyalari darslarida dasturiy vosita va matematik paketlarning o‘rni va roli ancha sezilarli va samaraliroqdir. Talaba-yoshlarda Excel, Scratch va Python dasturlari yordamida murakkab matematik masalalarni yechishni osonlashtirish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali masalalalarni echishga o‘rgatishning qiziqarli va juda oddiy jarayoniga aylantirish mumkin.

Excel, Scratch va Python dasturida oddiy hisoblashlardan tortib murakkab hisoblashlarni bajarish, oddiy ifodalarni qiymatlarini hisoblash, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlarga doir masalalarni echish, funksiyalarning qiymatlar jadvali va grafigini hosil qilish, tenglama va tenglamalar sistemasini sonli va grafik usullarda echish, tekisliklar va fazoviy sirtlarni hosil qilish kabi ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi.

Multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida

axborotning an’anaviy va original turlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir. Multimedia hozirda juda tez gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- an’anaviy axborot turlari, ya’ni matn, jadval, turli xil bezaklar va original axborot turlari, ya’ni nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya (ob’yektlarning fazodagi harakati) ko‘rinishidagi axborot turlarini bir dasturiy mahsulotda mujassamlashtirilganligi;
- video va audio axborotlarini kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uning markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma’lumotlarni uzatish shinasining o‘tkazish qobiliyati, operativ va video-xotira, katta hajmli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari buyicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda dasturiy vositalar asosida integrallashgan darslarni tashkil etishning samaradorlik darajasini aniqlashda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- talaba-yoshlarning o‘quv jarayonida kompyuterlardan foydalanishda mustaqil qarorlar qabul qilish va har bir harakatga ijodiy yondoshish yo‘llari;
- integrallashgan dars jarayonida namoyish etilayotgan o‘quv ma’lumotlarni talaba-yoshlar tomonidan qabul qilinish darajasi va ularni mustaqil ish va ijodiy faoliyatlarda tadbiq etish qobiliyatlari;
- ma’lumotlarni bayon qilish, tekshirish va modellashtirishda virtual muhitlardan foydalanish imkoniyati va zaruriyati;
- integrasiyallashgan darslarda ma’lumotlarning etarliligi, ishonchliligi va ko‘rgazmaliligi;
- informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonida

integrasiyallashgan usullarni qo‘llash uchun uslubiy ko‘rsatmalar, qo‘llanmalar va tavsiyanomalar yaratish.

Ta’limni axborotlashtirish esa quyidagilarga imkon beradi:

- Ta’lim tizimini avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazalari yordamida boshqarish, axborot vositalari va texnologiyalari bilan ta’minlash;
- ta’lim va tarbiyaning mazmuni, metodlari va mazmuniy shakllarini tanlash metodologiyasini takominlashtirish;
- ta’lim oluvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularda mustaqil axborot izlash, tajribalar o‘tkazish, tadqiqotlar olib borish qobilyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodikalarni yaratish;

Xulosa qilib aytish mumkin, ta’lim jarayonidagi eng muhim vositalar yuqorida ta’rif berilgan kompyuter vositalari hisoblanadi. Bu vositalar dars jarayonini ko‘rgazmali qilishga, o‘quv materialining o‘zlashtirilishini yengillashtirishga va ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. “Yuz marta gapirgandan ko‘ra, bir marta ko‘rgan afzal” degan xalq iborasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ko‘rgazmalilik, tushunarlilik va misol-namunalardan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bu iboraga javob beradi. Talaba-yoshlar dars jarayonida dasturiy vositalardan foydalangan holda kompyuterdan samarali

foydalanilsa darsni yaxshi oʻzlashtiradi va ular toʻgrisida aniq tasavvur hosil qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1.Abduqodirov A.A, Toshtemirov D.E “Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish metodikasi”. Monografiya. Guliston. Universitet, 2019.

2. D.E.Toshtemirov, M.B.Niyozov, J.D.Saidov “Ta’limda axborot texnologiyalari” oʻquv qoʻllanma: Toshkent. 2020.

3. Internet ma’lumotlar.

SIRDARYO VILOYATIDA MANZARALI EKZOTIK KATALPA DARAXTILARINI SHAHAR EKOLOGIYASIDAGI AHAMIYATI

Xudoyberdiyev Norbek Erkin oʻgʻli,

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya: Oʻzbekistonda yil sayin bunyodkorlik ishlari koʻlami oshmoqda, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi oʻzgarmoqda, keng miqyosda rekonstruksiya ishlari oʻtkazilmoqda. Landshaftli qurilishda qoʻllaniladigan yashil oʻsimliklar assortimentining asosiy qismi manzarali daraxtlarga ajratilmoqda, chunki manzarali daraxtlar, manzarali koʻrinishga ega boʻlib, davomiy gullashi bilan ajralib turadi. Daraxtlarni parvarishlash ham oson. Manzarali Daraxtlar orasida doim yashil va uzoq davomiy gullaydigan turlarga koʻproq e’tibor ajratilmoqda.

Kalit soʻzlar: “Yashil makon”, Catalpa Bignoniaceae, *estetik*, *kataliz, vegetative, substrat.*

Bugungi kunda butun dunyoda har tomonlama globallashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib bormoqdaki, Oʻzbekiston ham bu jarayonlar oqimidan mustasno emas. Xalqaro siyosiy doiradagina emas, balki ichki siyosiy muhitda ham farovon va barqaror jamiyat qurish. Respublikamizda aholi yashash joylari, dam olish maskanlari, korxona va tashkilotlar hududlarini koʻkalamzorlashtirish manzarali, atrof muhitga ijobiy ta’sir qiluvchi, xom-ashyo tariqasida yuqori samara beradigan manzarali daraxtlarni koʻpaytirishga katta e’tibor berilmoqda.

2021-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Yashil makon” umummilliy loyihasini e’lon qilgan edi. Loyiha doirasida respublikmiz hududida 200 mln tup manzarali daraxt va butalar ekish rejalashtirilgan. Bu manzarali daraxtlar havodagi karbanat angidiritni yutib, oʻrniga kislarod ishlab chiqaradi. Ular atrof-muhitni shovqinlardan himoya qiladi.

Inson paydo boʻlibdiki u tabiat ne’matlaridan, uning goʻzalligidan bahramand

boʻlib kelmoqda. Demak inson va tabiat bir-biri bilan chambarchas bogʻliq. Ibtidoiy odamlar oʻz goʻshasi atrofida oʻsuvchi egulik va kasalliklarga da’vo boʻluvchi oʻsimliklarni qidirib topishga harakat qilishgan. Tabiatning yam-yashil libosga oʻralishi uning qoʻynida ochilib turgan rang-barang gullar, barg shoxlari, ularning tana tuzilishlaridagi oʻzgarishlar bilan hamohang. Gulzorlar rang-barangligi hamda xushboʻy hidlari bilan insonni oʻziga rom qilib, sehrlab oʻziga

tortadi. Gullarga bo‘lgan intilish, qiziqish insonga xos bo‘lib, avlodlardan o‘tib kelayotgan tabiatga bo‘lgan tug‘ma muhabbat belgisidir. Go‘zal manzaralar, gulzorlar inson kayfiyatini ko‘taradi, ruhan tetik qiladi va estetik did bag‘ishlaydi. Qolaversa bu go‘zalliklardan zavqlana bilish uni chuqurroq tuyish va unga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish insonning madaniyati hamda estetik mezoni belgisidir. Tabiatning bitmas-tuganmas boyliklaridan biri o‘simliklardir. O‘simliklar haqida so‘z yuritar ekanmiz, ko‘z oldimizda tabiatning rang-barang, so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan ajoyib manzaralari namoyon bo‘ladi. Tevarak atrofga sinchiklab razm solsangiz, o‘simliklar hayotimizda juda katta rol o‘ynashi, boy energiya manbai ekanligini sezasiz. Dunyoni qaysi qismida, xoh shimolda, xoh janubda, xoh sharq, xoh g‘arbda bo‘lmasin, xullas, hamma minglab katta va kichik daraxtlarni, o‘n minglab yer yuzasidagi suv ostida o‘sadigan turli-tuman mayda zamburug‘larni, suv o‘tlarini va boshqa bir qancha o‘simliklarni, maysa va giyohlarni ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda bu o‘simliklarning hammasidan ham foydalanilmasada, lekin ularning ko‘pchiligi xalq xo‘jaligida muvaffaqiyatli suratda qo‘llanilmoqda. Yerda hayotni o‘simliklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ularning inson, atrof-muhitning sanitar-gigiyenik holatini yaxshilashdagi ahamiyati xilma-xil va judayam kattadir. O‘simliklar shamolning kuchini, shovqinini pasaytiradi, issiqlik rejimini boshqarib turadi, havoni turli xil chiqindilar va changdan tozalaydi. Bularning hammasi sog‘lomlashtirish ahamiyatiga egadir. Yashil ko‘kalamzorlar shahar aholisi va aholi yashaydigan punktlarda dam olish uchun eng yaxshi muhit hisoblanadi. Shahar arxitekturasida ham manzarali o‘simliklarning roli kattabo‘lib, aholi yashaydigan punktlarda mikroiqlimning shakllanishida manzarali o‘simliklarning ahamiyati sezilarli darajadadir. Yilning har qaysi faslida havo harorati, yog‘in miqdori, havo va tuproqning namligi, shamol rejimi, atmosfera bosimi, havoning ochiqligi – bularning hammasi shu joyning iqlimini tavsiflaydi.

Manzarali o‘simliklar faqat estetik ahamiyatga ega bo‘lib qolmasdan, balki asab jihatidan ham ahamiyatga egadir. Rang-baranglik, gullarning hidi, barglarningshitirlagan ovozi-bularning hammasi inson kayfiyatiga va asab tizimiga ijobiy ta’sir qiladi.

O‘zbekiston iqlimi issiq o‘lka ekanligi bois, manzarali o‘simliklarsiz aholi uchun qulay sharoit yaratib bo‘lmaydi. O‘simliklar atrof-muhitning sanitariya-gigena holatini yaxshilaydi, shamol kuchini pasaytiradi, shovqinni kamaytiradi, havoni tozalaydi, haroratni mo‘tadillashtiradi. O‘rtacha kattalikdagi bitta daraxt bir kecha-kunduzda uch kishi uchun zarur bo‘lgan kislorod ishlab chiqaradi.

Aholi yashaydigan joylarni ko‘kalamzorlashtirish ishlari orasida asosiy o‘rinni manzarali daraxtlar ekish ishlari egallaydi. Skver, bolalar sport maydonchalari, maktab atrofidagi maydonchalar, bolalar bog‘chalari, binolarga kirish joylaridagi manzarali o‘simliklar ekish judayam rivojlangan. Agar oldingi vaqtda qisqa vaqt ichida tez o‘suvchi, sharoitimizga mos keladigan turlarni ekib yashil maydonchalarni ko‘paytirish masalalari turgan bo‘lsa, hozirga kelib esa zamon talabiga qarab yuqori manzarali bargli va ignabargli daraxtlar chiroyli gullaydigan butalar etishtirilmoqda, ekilmoqda. Shu boisdan manzarali o‘simliklar qatoriga kiruvchi spartium o‘simligi o‘rganildi. Spartium yorug‘sevar, namlikka,

qurg‘oqchilikka, shamolga, sovuqqa, shahar sharoitiga ham chidamli o‘simlikdir. Spartium yorug‘lik kuchli tushib turadigan issiq joylarni xush ko‘radi. U asosan dekorativ o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Spartium doimiy yashil dekorativ illyuziya bag‘ishlaydi.

Ana Shunday o‘simliklardan biri Catalpa Bignoniaceae oilasida joylashgan bezak daraxtlari va butalarining bir turi. Ko‘pchilik uchun, bu o‘simlik o‘n yil avvalgi ekzotik mo‘jizalar edi, lekin bugungi kunda u janubiy Rossiyaning ko‘plab hududlarida, Ukrainada Belorussiyada faol ravishda o‘stirilmoqda. Catalpa - Ikki jinslari vakillari uchun tabiiy muhit. Katalpa barglari, gullari va urug‘ po‘stlog‘ining rasmlari va tavsiflari turli xil daraxt turlarini tanib olishga yordam beradi. Katalpa daraxtining eng taniqli xususiyati ularning uzun, ingichka urug ‘ po‘stlog‘i kuzda paydo bo‘lib, qishgacha yoki hatto bahorgacha saqlanib qoladi. Katalpa – bu dunyoning iliq mintaqalarida o‘sadigan gullaydigan daraxtlarning jinsi. Ikki tur Shimoliy katalpa va Janubiy katalpa vatani Shimoliy Amerikada. Katalpa daraxtining boshqa keng tarqalgan turi bu Xitoy katalpasi (Catalpa ovata), vatani Xitoy. O‘simliklar eng katta taqsimoti Xitoy, Yaponiya va Hindistonda joylashgan. U yovvoyi tabiatda o‘sadi va Amerikadagi barcha Osiyo mamlakatlarida yetishtiriladi. Aslida, katalale dekorativ maqsadlarda o‘stiriladi, ammo an’anaviy tibbiyotda ishlatiladi, qimmatbaho yog‘ochni olish uchun ishlatiladi, u hashamatli mebel ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Katalpalarni yetishtirish bilan shug‘ullanadigan ko‘plab bog‘bonlar ko‘pincha shu kabi daraxtlar juftligini olish uchun vaqt keldi deb o‘ylashadi. Axir ular yil davomida uy va bog‘uchastkalarini bezashadi va hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Bunday hollarda siz faqat gul do‘konlari va yarmarkalaridagi so‘qmoqlar sotib olishingiz mumkin yoki sizning eringizda o‘sayotgan bir nechta qo‘shimcha o‘simliklarni olishga harakat qilishingiz mumkin.

Siz katalizni ikki shaklda targ‘ib qilishingiz mumkin: **vegetativ tarzda**, ya’ni,

payvandlash orqali yoki **urug‘lardan foydalanish**. Quyidagi ro‘yxatga ko‘ra, ekish substratini tayyorlang va o‘simliklarni ko‘paytirishni boshlang.

Katalada urug‘i va qalamchalari uchun tuproqga ekish:

- Bir qism daryo qum.
- Besh yuz gramm chernozem.
- Ikki yuz ellik gramm torf.
- Gumus etti yuz ellik gramm.

Katalpa juda ko‘p namlikka muhtoj. Bir nusxada haftasiga taxminan 20 litr suv kerak bo‘ladi. Quruq mavsumda siz ikki marta tez-tez namlashingiz kerak. Yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lsa, sug‘orish sonini oyiga 2 marta kamaytiring. Kundalik yomg‘ir bo‘lsa ham, kamida oyiga bir marta daraxtlarni qo‘shimcha sug‘orishingiz kerak. Bu turg‘un namlikning oldini oladi. Daraxtlar chirigan organik moddalar, mineral aralashmalar bilan oziqlanadi. Bahor va yozda oyiga taxminan 2 marta, ildizlar ostida sigir go‘ngining suyuq eritmasidan bir chelak quyishingiz mumkin. Aprel oyida azotli o‘g‘itlarni qo‘llash tavsiya etiladi, kurtaklarni qo‘yishdan oldin fosfor va kaliy tuzlari aralashmasini qo‘shing. Dastlabki yillarda faqat muzlagan va kasal shoxlari kesiladi.. Buni mart oyining oxirida qiling. To‘liq skelet kurtaklari

paydo bo‘lishi bilan toj shakllanishi boshlanishi mumkin. Odatda katalpalar tanasini 120-180 sm gacha balandlikda ochib, shoxlarini kerakli shaklga mos ravishda kesib, dekorativ ko‘rinishga ega bo‘ladi. Siz haddan tashqari g‘ayratli bo‘lolmaysiz, chunki o‘simliklar juda sekin tiklanadi. Har bir sug‘orishdan so‘ng, begona o‘tlardan yalang‘ochlash bilan birlashtirib, tuynuk atrofidagi tuproqni bo‘shatish tavsiya etiladi.

Katalpa o‘zini manzarali ko‘rinishi, chiroyli ko‘rinishi bilan insonlarga yaxshi kayfiyat, tuman va shahar ko‘chalariga ko‘rkamlik bag‘ishlaydi. Shu sababli bu manzarali o‘simlik ob’yekti hisoblanadi. So‘ngi yillarda O‘zbekizton hududiga navlarini moslashtirish va etishtirish bunga sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarori, 25.11.2021 yildagi 1563-IV-son
3. Raximova T. U., Raximova T. Manzarali o‘simliklar. – Toshkent: O‘z. MU, 1998.
4. E.Berdiyev, Sh.Gulomxodjayeva . Manzarali daraxtlarni kopaytirish. Toshkent– 2020.
5. A.K. Qayumov, E.T. Berdiyev. , Dendrologiya. – Тошкент-2012.
6. http://members.yandex.ru, ru.wikipedia.org, kiev.ua.

O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR

Shavkat Norqulov Turg‘unboyevich,
Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti dekani

Annotatsiya: O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi o‘qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etilishini ta’minlovchi omil sifatida qaraladi. Bugunda o‘qituvchining kompetentligi qaysi mezonlar bilan belgilanishini o‘rganish muhim bo‘lmoqda. Maqolada kompetensiya va kompetentlik tushunchalari, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rsatib berilgan. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarning turlari izohlangan. Pedagogik kompetentlik shakllanish bosqichlari tavsiflab berilgan hamda xorijiy tajribalar muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kompetensiya, professionallik, strategiya, kasbiy pedagogik kompetensiyalar, etalonga mos mezonlar.

KIRISH

Kompetentli pedagog - ukim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir.

Har qanday o‘qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga

oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularningodamlarda mavjudligini anglatsa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatishdarajasini anglatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:

- Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi.

- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'riladi[3].

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son harori bilan tasdiqlanganUmumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartida kompetensiya tushunchasigamavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflangan[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'hshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilari bilimlarniamalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq.

- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy

qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kompetensiyaning har bir turi ko‘nikmalar, bilimlar, ko‘nikmalar to‘plamini o‘zichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Xizmat vazifalarinibajarishda uning xatti-harakatlari ko‘rsatkichlariga e’tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Kompetentlik qanday shakllanadi? O‘qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta’limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang‘ich kompetensiya darajasini to‘ldiradi.

Bularning barchasi formula shaklida taqdim etilishi mumkin: **Kompetentlik =Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman.**

Amerika pedagogikasi tajribasiga ko‘ra kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzdaamalga oshiriladigan jarayondir. Uni quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

1. Maxsus ma’lumot olish.
2. Amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
3. Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o‘tish.
4. Kasbiy tajribaga ega bo‘lish.
5. O‘z sohasida professionallikka erishish.
6. Tajriba to‘plash, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi.

Rossiya tajribasiga ko‘ra o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘nalishlaridatashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni murakkab, ko‘p darajali jarayon sifatida izohlashda bir qator xususiyatlarni innovatsiyaga xos xususiyatlar deb hisoblash lozim: dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi, innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, boshqaruvchanlik, ijtimoiy mo‘ljallanganlik, insonlarning qiziqishi bo‘yicha tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarning sub’yekt tomonidan qabul qilinishi kabilar.

Dialektiklik – bu innovatsiyalarning rivojlanish jarayoni bo‘lib, uning me’yoriy asoslarini sekin-asta, bosqichma-bosqich yangilab borish jarayoni bilan tavsiflanadi. Innovatsiyalar mavjud urf-odat, an’analar bilan ijodiy ziddiyatlarni vujudga keltiradi va ular asosida amalga oshiriladi hamda rivojlantiriladi. Bu tizimning uzluksizligi muassasaning innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichini belgilaydi.

Innovatsiyaning davriyligi – o‘qituvchilarda an’anaviy ta’lim berish yo‘nalishidagi tushunchalarni bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yangi kasbiy bilim va tushunchalar bilan maqsadga muvofiq holda, asta-sekin almashinib borishini tasdiqlaydi.

Innovatsiyaning asoslangan darajasi – o‘qituvchilarda yangi sifatli o‘zgarishlarning miqdori bilan ifodalanadi. O‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan ta’lim usullaridan innovatsiya qancha ko‘p farq qilsa, uning o‘zgartirish salohiyati va asoslanganlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Innovatsiyaning ixtilofligi shundaki, ixtiyoriy yangilikni kiritish o‘ziga xos xususiyatlarga bog‘liq bo‘lmagan holda ixtilofli vaziyatlar vujudga keltirishi mumkin, chunki innovatsion ta’lim usullarini o‘zlashtirishning murakkabligiga bog‘liq holda, ta’lim muassasasida odat tusiga kirgan o‘zaro ta’sir va munosabatlarni o‘zgartiradi.

Innovatsiyalarning ahamiyatliligi – bunda innovatsion jarayon davrida ta’lim muassasasi rahbarida o‘qituvchilarning yangiliklarga bo‘lgan munosabatlarini ob’yektiv baholash imkoniyati tug‘iladi, jamoada ichki munosabatning o‘zgarishi, keskinlashuvi vujudga keladi va o‘z navbatida mazkurjarayonga mos keluvchi innovatsion ta’lim loyihalarini ishlab chiqish imkoniyati tug‘iladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa shuki, kompetentlikni shakllantirish bosqishma-bosqish va uzluksiz jarayondir. U oliy ta’lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom yetadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida" 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.
2. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(5), 1229-1232.
3. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-qunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘qrisida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.
4. Тожибоева, Г. Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. *Science and World*, *1*(77), 32-33.
5. Avlaev Orif Umirovich, & Abdujalilova Shoira Abdumajitovna. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(4), 3983-3991.
6. Эрназарова Г. О., & Исламова М. Ш. (2019). Совершенствование подготовки к профессии учащихся профессиональных колледжей на основе акмеологического подхода. *Pedagogy & Psychology Theory and practice International Scientific Journal*, *6*(26), 52-55.
7. Золотых, Н. В., & Хайтметов, Р. К. (2020). Условия формирования компетентности будущего педагога в личностно-развивающей воспитательной деятельности. *Academic Research in Educational Sciences, 1*(2), 113-119.

Тажибоева, Г. Р. (2020). Социальные проблемы и переспективы интеграционого обучения. *Журнал научных и прикладных исследований*,

EKOLOGIK MADANIYATNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

*Ortiqova Dildora Begmirzayevna***,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ta'lim muassasalarini boshqaruv yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA. Ekologik madaniyat ham umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi, uning muhim koʻrsatkichi hisoblanadi. Usiz insonni toʻla ma'noda madaniyatli, ma'naviyatli deb boʻlmaydi.

Kalit soʻzlar: Zardushtiylik, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog, ekotizim, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat.

Аннотация. Экологическая культура также является составной частью общечеловеческой культуры и является ее важным показателем. Без него человека нельзя назвать культурным, одухотворенным в полном смысле этого слова.

Ключевые слова: зороастризм, эколог-агрохимик, эколог-технолог, экосистема.

Annotation. Ecological culture is also an integral part of universal culture and is an important indicator of it. Without it, a person cannot be called cultured, spiritualized in the full sense of the word.

Keywords: Zoroastrianism, ecologist-agrochemist, ecologist-technologist, ecosystem.

KIRISH.

Oʻzbek xalqi tabiatga tarixan uzoq davrlardan beri mehr bilan qarashga, uni asrab-avaylashga oʻrganib kelgan. Bu milliy bayram, qadimiy an'ana, urf-odatlari yaqqol koʻrinadi. Xususan, Oʻrta Osiyo xalqlarining har yili nishonlanadigan Navroʻz bayrami asrlar davomida ona Yerga va tabiatga mehr-muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish, uni ardoqlash tuygʻularini tarbiyalagan, mehnat tarbiyasi va ma'naviy tarbiyada muhim rol oʻynagan. Tabiat bilan insonning oʻzaro chambarchas aloqasini, ularning bir butunligini ifodalovchi bu bayram dehqonchilik bayramigina emas, balki tom ma'noda ekologik bayram hamdir. Odamlarning tabiatga, ayniqsa, uning yorqin tashqi ifodasi boʻlmish oʻsimlik olamiga boʻlgan munosabati va mehrini belgilovchi tabiat bayramlaridan yana "Hosil bayrami" va "Suv xotin bayrami"ni koʻrsatib oʻtish mumkin.

Xalqning sof ekologik mazmunga ega udumlaridan yana biri "Taganak" dir. Bu udumga koʻra, togʻ va togʻ etagida yashovchi kishilar erta bahorda yigʻilishib shodhurramlik bilan uzoq yoʻlga otlanadilar va togʻu-toshdagi buloqlar koʻzini ochib, jilgʻalar yoʻlini shox-shabbalardan, loyqadan tozalaydilar, daraxtlarning qurigan shoxlarini kesadilar. Insonlarni tabiatni muhofaza qilishga da'vat qiluvchi sof ekologik mazmun kasb etuvchi yana bir manba oʻzbek xalqining mustahkam diniy e'tiqodi va tarixan shakllangan milliy tarbiya asoslaridir.Bunga mazmuni juda keng "uvol" tushunchasiga yaqqol misol. Har qanday moddiy ne'matdan isrofgarchilik bilan foydalanish, tabiat resurslari – yer osti boyliklari, suv, yer, oʻsimlik va hayvonlarni nest-nobud qilish uvol va gunoh hisoblanig kelingan.

Binobarin, “uvol” tushunchasi tor ma’noda non, suv, tuz, o‘tdan tejab-tergab foydalanishni ifoda etsa, keng ma’noda butun tabiat boyliklaridan, noz-ne’matlaridan oqilona foydalanishni aks ettiradi. Chunonchi, suvni isrof qilish, mevali daraxtlarni kesish, yovvoyi hayvonlarni ehtiyotsiz nobud qilish kabilar ham uvoldir. Ekologik tarbiyani farzand tug‘ilgan kundan boshlamoq vujudimizni quvvatlantirmoq fikrimizni nurlantirmoq axloqimizni go‘zallatmoq zehnimizni ravshanlantirmoq demakdir. Ekologik tarbiyani kim va qanday olib boradi? Birinchi tarbiya ota-ona zimmasidadir. Ikkinchi tarbiya bog‘cha maktab oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar bilim yurtlarida hamda hozirda faoliyat ko‘rsatayotgan madrasalarda amalga oshadi. Bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit muhit kishilarning faoliyati katta o‘rin tutadi va bu sohada oila maktab sharoiti ham ham katta e’tiborga molikdir.

Ekologik tarbiya ham tarbiyaning asosiy qismi bo‘lib bolaning axloqiga xulqatvoriga kuchli tas’ir qiladi. Ekologik talim-tarbiya va umumiy tarbiya bir-biri bilan bog‘liq bir butun jarayondir. Tabiatni muhofaza qilish uni asrash unga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lish uchun sog‘lom fikr yaxshi axloq ilm-ma’rifatga qiziquvchi inson bo‘lish talab qilinadi.

Boladagi fikriy taraqqiyot oilagagina emas, balki maktabdagi o‘qituvchilar faoliyatiga ham bog‘liq. Shuning uchun ularga go‘zal tarzda tarbiya bermoq boshlang‘ich tarbiya xususida imkoni boricha tirishmoq juda ham zarurdir. Bolaga uni qo‘rqitadigan fojiali salbiy mazmundagi hikoya ertak cho‘pchaklarni so‘zlamoq juda zararlidir. Ularni asab tizimini ehtiyot qilib yumshoq muomala qilish zarurdir.

Yer yuzasi atrof muhitni muhofaza qilish uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat va majmualarini qayta tiklashga oid muammolarini anglash va ularni echimini topishga doir to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish kompotensiyasi ularni tanlangan kasblarga qarab ekologik ta’lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va ma’suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim

va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari:

1) axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo‘lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligini nazarda tutadi;

2) ekologik ma’suliyatlilik shaxsda munosabat va ma’sullikni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o‘ylamay tabiatga ko‘rsatgan salbiy ta’siri oqibatlarini anglash va bunday ta’sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi;

3) ekologik irodaviylik shaxsning o‘zi va o‘zgalarning atrof – muhitdagi hattiharakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat’iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog‘liq. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya’ni global, mintaqaviy va

lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho‘llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo‘gliq.

NATIJALAR. Ekologik ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash bog‘chalar, maktablar, lisey, kollejlar, oliygohlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq.

Aholining boshqa tabaqalarida esa O‘zbekiston ekologik partiyasi va boshqa ko‘ngillilar, tashkilotlar tomonidan targ‘ibot ishlari yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Ekologik ta’limning nazariy asosi - atrof muhit muhofazasiga oid ta’limni bog‘cha, maktab, katta-kichik o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlarida ma’lum o‘quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Yig‘ilgan tajribalar umumlashtirilib bir pedagogik shaklga keltirilib o‘quv dasturi darsliklari tuzilishi lozim.

Oliy va o‘rta maxsus ta’limga ega bo‘lgan tarbiyachi, ekologik metodist, ekologik pedagog, ekologik instruktor, injener-ekolog, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog kabi mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Ekologik ma’naviyatli shaxs tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil qilishi, tabiatga munosabatni oldindan rejalashtirishi, atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga nisbatan ziyrak bo‘lishi, tabiatga qiziquvchan bo‘lishi, tabiat go‘zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat’iyatli bo‘lishi, tabiatga zarar yetkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko‘rsatishi, tabiatni asrash uchun yangi g‘oyalar, ekologik bilimlarni targ‘ib qilishi, ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi, mehnat malakalarini egallashi, o‘z-o‘zini nazorat qila olishi, tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me’yor darajasini belgilashni bila olishi, vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muxabbat hissiyotiga ega bo‘lishi, o‘zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g‘ururlanishi, uni ardoqlashi lozim, tabiat boyliklaridan bugungi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda barqaror foydalana olishi, atrof - muhitni obod qilishga intilish, uni ozoda va xushmanzara holda saqlashi, tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini maqsadli ishlatishda jonbozlik namoyon eta olishi, atrof - muhit, obyekt va boshqa narsa-hodisalarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi, o‘zining ekologik bilimlarini muntazam ravishda tabiatni asrab-avaylashga oid qadriyatlarimizga tatbiq qilishi lozim. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o‘rni faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi demokratik, huquqiy davlat qurish yo‘lidagi ekologik bilimlarni targ‘ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko‘tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklar ham mavjud. Insoniyat qadimgi zamonlardanoq tabiatning bir qismi ekanligini anglab, u o‘zining harakatlari bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqariladiganligini his qilib kelgan. Lekin insoniyat tabiatdan foydalanib uni qayta tiklanishiga e’tibor qaratilishini kech bo‘lsa-da, tushunib yetdi. Insonlar madaniyati shakllanib rivojlana borar ekan, tabiat in’omlari bo‘lmish o‘simlik va hayvonot dunyosi turlarini bir qanchasini madaniylashtirib, o‘zlari uchun foydalanishni amalga oshirish jarayoni

hozirda ham davom etayotgan jarayondir.

MUHOKAMA. Atrof-muhit sofligi, uning rang-barangligi-yu xilma-xilligini saqlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va uni boshqarish asosan tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va uning joylardagi tashkilotlari faoliyatiga bog'liq bo'libgina qolmay, joylardagi davlat hokimiyati organlarining ham burchidir. Ularning atrof-muhit muhofazasiga oid Qonun va hukumatimiz qarorlarini bajarishda ma'lum bir sustkashliklarga yo'l qo'yilmoqda. Sabab esa, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qaysidir yillarda ekilgan daraxtlarni parvarishlash, ularning qurigan turlari o'rniga qayta ko'chat ekish yo'li bilan tiklash ishlari qoniqarli darajada emas. Chunki mahsulot hosildorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ixotazorlarning zarurligini tasavvur etolmagan holda ayrim fermerlar tomonidan ixota daraxtzorlarini kesish hollari davom etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda hozirgi kunda qo'llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, tabiatdan noto'g'ri foydalanganlarga tabiat solig'ini qo'llash hamda jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni rivojlantirishda ekologik ta'limtarbiyaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Bu bilan respublikamizda ishlab chiqarishni va insonning tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga solish imkoniyati tug'iladi. Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo'lgan farzandlik burchidir. Yosh avlodning ekologik tarbiyasi bugungi kun-dolzarb masalasi ekan, biz, avvalo, ekologiyaning foydasini, uni asrab-avaylashni bolalarga yoshlikdan o'rgatib borishimiz zarur. Ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiya va ta'lim muassasalariga bevosita bog'liqdir. Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar.

Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va

ko'kalamzorlashtirish hissi sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash, hojatxonalarni ariq, soy, bo'loq suvlaridan uzoqroq joyda kovlash, yong'in chiqmasligi chorasini ko'rish, turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtda emas, balki qurib qolganlaridan foydalanish, nihollarni sindirib, payxon qilmaslik, qushlarning uyasini buzmaslik kabi xattiharakatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi», «Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan», «Pishib etilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo'ladi. Chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor» –deb pandu-nasihatlar qilganlar. Agar diniy qarashlarning qadimiy tarixiga nazar solsak, ularda tabiat unsurlarining, hayvon va boshqa jonivorlarning muqaddaslashtirilgani hamda sig'inilgani uchratamiz. Zardushtiylik dining muqaddas kitobi "Avesto" da borliqning moddiy asosi hisoblangan to'rtta unsur, tuproq, suv, havo muqaddaslashtirilgan, olovga esa sajda qilingan.

Xulosa. O‘rnida ta’kidlash joizki, mamlakimizning har bir fuqarosi ekotizimning yaxshilanishiga munosib hissa qo‘shish uchun ekologik qoidalarga qat’iy amal qilsagina, kelajak avlod uchun ulkan tabiiy nemat hadya etgan bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Atrof muhitning joriy holati tahlili, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar O‘zbekiston Respublikasida aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblangan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini (325eying o‘rinlarda Konsepsiya) ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi.

So‘nggi yillarda respublikada ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘lig‘iga zararli ta’sirining oldini olish, shuningdek, hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida texnik va texnologik jarayonlar oqibatida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishga yangi yondashuvlarni joriy qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Калинин В. Б. Концепции и проблемы // Экология и жизнь. - 1996. С. 62
2. Ясвин В.А. Формирование экологической культуры школьников в разделе «Человек и его здоровье» средствами спецкурса «Экология человека»: автореф: дис. ... канд. пед. наук. - М., 2007. – С. 6
3. Ситаров В.А., Пустовойтов В.В. Социальная экология. – М.: Академия, 2000. – С. 34.
4. Abdullaeva, M. T., & Usmanova, T. E. (2022). Fundamentals of ornamental plant protection. *Eurasian Journal of Academic Research*, *2*(1), 104-104.
5. Abdullaeva, M. T., & Ibragimova, S. S. (2022, January). The role of ecological education in the development of ecological culture in our youth. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

XALQ TA’LIMI XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

N.R.Po‘latova,

***Yangiyer shahar 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi.* Pulatovanilu9@gmail.com**

Annotatsiya. Malaka oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida o‘qitish ,“Ustoz-shogird” usuli bo‘yicha o‘qitish, Mustaqil o‘qib bilim orttirish,Masofaviy ta’lim, Stajirovka shaklida tajriba orttirish.

Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirishning ishdan ajralgan holda, malaka oshirish institutlari bazasida o‘qitishning afzalliklari: Har yili o‘rtacha 85 000 nafar xodimning malakasi oshiriladi. Xodim uni ta’lim olishdan chalg‘itadigan barcha holatlardan ozod bo‘lgan muhitda o‘qiydi. Bir oy davomida turli hududlardan kelgan hamkasblari bilan tajriba almashadi. Ilg‘or pedagogikinnovatsiyalarni ham o‘zlashtiradi Ishlab chiqarishdan ajralgan halda malaka oshirishning o‘ziga xos noqulayliklari: Bir oy davomida doimiy yashash joyi va oilasidan yiroqda yashaydi. Faoliyatning faqat bir turi o‘qish bilan shug‘ullanish pedagog xodimga ma’lum darajada noqulayliklar tug‘diradi. U ta’lim berayotgan o‘quvchilarga bir oy davomida boshqa pedagogning tayinlanishi o‘quvchilar uchun ham ma’lum darajada o‘ng‘aysizliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Malaka oshirish kurslarida o‘quv dasturi mazmuni tegishli ta’lim muassasasi tomonidan shakllantiriladi va malaka oshiradigan xodimlarning talab va ehtiyojlari e’tiborga olinmaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish, shu jumladan mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari. Malaka oshirish tizimidagi bugungi kunda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun: Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini davriylikdan uzluksizlik tamoyiliga o‘tkazish, malaka oshirishni majburiylikdan ehtiyojlarga asoslangan ixtiyoriylik tamoyiliga o‘tkazish, malaka oshirish kurslarining o‘quv rejasi va dasturini alohida o‘quv modullaridan iborat tarzda shakllantirish. Kurslarni kredit - moduli tizimi asasida tashkil kilish, mazkur jarayonlarni boshqarish uchun zamonaviy AKT imkoniyatlaridan unumli foydalanish.Xalq ta’limi xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini yo‘lga qo‘yish uchun: - xodimlarning kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda, individual ta’lim dasturlarini shakllantirish imkoniyatini taqdim etish - mustaqil tanlangan o‘quv modullarini o‘zlashtirish natijasida, yig‘ilgan kreditlar asosida ularning o‘zlashtirishini baxolash imkoniyatini yaratish - davriylikdan voz kechgan holda xalq ta’limi xodimlarining har yili ma’lum bir hajimda (kamida 36 soat) malaka oshirishining majburiyligini belgilab qo‘yish - xalq ta’limi xodimlarining har yili malaka oshirishini ko‘zda tutuvchi, kredit – modul tizimiga asoslangan uzluksiz rivojlanish tizimini shakllanitirish - xodimga malaka oshirish dasturini o‘z kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirishdan tashqari mazkur dasturni o‘zlashtirishda malaka oshirishning turli (ta’lim muassasasida o‘qish, masofadan o‘qish, mustaqil malaka oshirish) shakllaridan o‘ziga qulay tarzda foydalanish imkoniyatini berish. Uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish uchun: malaka oshirish ta’limi mazmunini mustaqil o‘zlashtirishga mo‘ljallangan mustaqil birliklarga (modullarga) ajratish, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalari professor - o‘qituvchilari ushbu modullar mazmuniga mos uzluksiz kasbiy rivojlanish kontentini yaratishlari lozim. Zamonaviy axborot texnalogiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda tayyorlangan ma’lumotlarni tinglovchi sifatida qayd etilgan xodimlarga yetkazib berish, tinglovchilarning ehtiyojlarini e’tiborga olish imkoniyatlari kengaytiriladi, tinglovchilar talabiga ko‘ra bir fan modulini ikkinchi fan modul bilan almashtirish va umuman malaka oshirish dasturini davlat talablari doirasida tinglovchilar xohlagan fan modullaridan shakllantirish imkoniyati kengayadi. Xar bir xodimning

o‘z shaxsiy dasturi bo‘yicha malaka oshirishini monitoring qiluvchi va malaka oshirish natijalarini o‘zida jamlab boruvchi maxsus dasturiy platforma ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi talab qilinadi.Mustaqil malaka oshirish va bilim olishga undovchi motivlarni yaratish: maktabda ta’lim olish va uning sifatiga bo‘lgan qat’iy talabni kuchaytirish, o‘quvchilar va ularning ota onalari o‘qituvchining ta’lim berish sifati bilan doimiy qiziqishi hayotiy ehtiyojga aylantirishlari, o‘zining ustida muntazam ishlayotgan o‘qituvchi muntazam rag‘batlantirilib borilishi, uzluksiz kaybiy rivojlanishga e’tiborsiz o‘qituvchilarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, kasbiy litsenziyalash yoki kasbiy sertifikatlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish. Mazkur jarayon o‘qituvchidan avvalgi faoliyati davrida amalga oshirgan ishlarini portfolio shaklida namoish qilish, dars beradigan fani va uni o‘qitish metodikasi, shuningdek, pedagogika va psixologiyada turli (suhbat, yozma ish, test shaklidagi) layoqat sinovlaridan o‘tishni taqozo qiladi. Ushbu sinovlardan muvoffaqiyatli o‘tgan o‘qituvchi navbatdagi davr uchun pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini qo‘lga kiritadi. Bu esa o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanish sari yetaklaydi. Malaka oshirish ta’limining hozigacha amalda bo‘lgan funksiyalari: To‘ldiruvchi, Innovatsion, Moslashtiruvchi.Har qanday ta’lim jarayoni samarali bo‘lishi uchun u ta’lim oladigan shaxsning qiziqishi ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim: Pedagog xodim malaka oshirish kursida yangilik olish, o‘qitishning yangi metodlar, texnologiyalarini o‘zlashtirish, kasbiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida boradi. Kasbiy ehtiyoj har bir pedagogda turlicha bo‘ladi. Bitta auditoriyada jamlangan 25 nafar pedagog kadrga o‘tiladigan mavzu kim uchundir qiziqarli bo‘lishi, kiningdir ehtiyojiga mos kelishi, qolganlarga esa umuman hech narsa bermasligi mumkin. Bunday tarzda o‘tilgan malaka oshirish kursi tinglovchilarni bir xil darajada qoniqtira olmaydi. Bunga chek qo‘yish uchun xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirishga doir talab va ehtiyojlarini o‘rganish lozim. Ularning har biri uchun individual kasbiy rivojlanish traektoriyasini tuzish va malaka oshirish o‘quvlarini ana shu asosida tashkil etish lozim. Malaka oshirishda kredit-modul tizimi: Pedagog kadrlar ehtiyojlariga asoslangan kasbiy rivojlanish ta’limi natijalarini baholash yangicha yondoshuvni tashkil qiladi. Amaldagi tartibga binoan tinglovchi malaka oshirishni tugatganidan so‘ng test sinovlaridan yakuniy baholash tizimidan o‘tadi. Baholashning ushbu shakllari yagona o‘quv reja va hamda o‘quv dasturi asosida tashkil qilingan malaka oshirish kurslari uchun qo‘llaniladi. Biroq turli individual traektoriya va o‘quv reja – dasturlari asosida o‘qigan tinglovchilar erishgan natijalari yagona baholash vositasi – test va malaka ishi himoyasi bilan baholab bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Xalq talimi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimidagi ta’lim olish natijalari baholashda kredit – modul tizimini joriy etish belgilanmoqda. Unga ko‘ra, xodim tomonidan bir yilda yig‘ilishi lozim bo‘lgan kreditlar (akademik soatlar) ning eng kam hajmi nazarda tutilmoqda. Har bir xodim “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasi orqali unga taqdim etilgan o‘quv modullarini o‘zlashtirishgach, platforma tomonidan baholanadi va yig‘ilgan kreditlar xodimning shaxsiy kabinetida jamlanadi. Kreditlarning belgilangan

miqdorini yiqqan xodim shu yil uchun malaka oshirish kursini to‘la o‘tagan hisoblanadi. Baholashning kredit – modul tizimini joriy etish xodimlarning muqobil malaka oshirish shakllarida ham olgan natijalari baholash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek xodimning Coursera kabi internet tarmog‘idagi elektron resurslaridan foydalanib, o‘z saviyasini oshirishi Respublika va xalqaro olimpiadalarga o‘quvchilar tayyorlagani, chet ellardagi nufuzli ilmiy jurnallarda maqola chop etgani Ilmiy daraja olish uchun dissertatsiya himoya qilish kabi hollarni ham kreditlarda baholash belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. 2020 yil 6-noyabrda qabul qilgan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 6-noyabr 2020.
2. A.Xoluqulov. Pedagogik mahorat. T-2011
3.Ishmuhammedov M, Yo‘ldoshev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T-1998

KO‘P TARKIBLI YUPQA QATLAMLAR SIRTIDAN IONLARNI BIR VA IKKI KARRALI SOCHILISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

Sadullayev Sh.R., Jabbarova Y.J., Karimov M.K.

UrDU fizika kafedrasi o‘qituvchisi; UrDU magistranti; UrDU magistranti

Annotatsiya. Odatda sirtni bombardimon qilayotgan ionlarning tushish burchagining qiymatini ortishi bilan ko‘p karrali to‘qnashuv jarayoni kamayib, bir va ikki karrali sochilish jarayoni ko‘p kuzatiladi va ushbu maqolada ko‘p tarkibli yupqa qatlamlar sirtidan ionlarni bir va ikki karrali sochilish jarayonini modellashtirish usullari keltirilgan.


Tayanch so‘zlar: Sochilish jarayoni, energiya, sochilgan ionlar, neon xolati, ta’sir potensiyali, ekranlash effekti.

Sirtni bombardimon qilayotgan ionlarning tushish burchagining qiymatini ortishi bilan ko‘p karrali to‘qnashuv jarayoni kamayib, bir va ikki karrali sochilish jarayoni ko‘p kuzatiladi. Ekranlash effekti yo‘qoladi va sochilish burchagi 180^0 gacha yetishi mumkin. Mo‘ljal masofasining bir qiymatida ion bir va ikki karrali sochiladi va u energiyasi bo‘yicha bir-biridan farq qiluvchi ikkita qiymatga ega bo‘ladi. Shuning uchun energetik spektrda bir va ikki karrali sochilishga mos keluvchi ikkita cho‘qqi kuzatiladi. Agar sochilgan ionlar energiyasini boshlang‘ich energiyaga nisbatini sochilish burchagiga bog‘liqligini kuzatsak oval(tuxumsimon) ko‘rinishda bo‘ladi . Ushbu bog‘liqlikni ko‘p tarkibli moddalar uchun qo‘llash imkoniyatini ko‘rib chiqamiz.

Biz InGaP(001) sirtidan ionlarning bir va ikki karrali sochilish jarayonlarini o‘rgandik. Ushbu modda tarkibida uchta element-indiy, galliy va fosfor mavjud. Ular ushbu modda sirtida turli xil sharoitlarda joylashib qolishi mumkin va ulardan ionlarning bir va ikki karrali sochilishlari kuzatiladi.

Ar^+ ionlari uchun yuqorida yatilgan bog‘liqlik 1-rasmda keltirilgan bo‘lib

sirtda In va Ga atomlari joylashganda bir va ikki karrali sochilsh jarayonida o‘zgarish kuzatilmaydi, ya’ni bog‘liqlik neon holatidagidek ko‘rinishda bo‘ladi. Sirtda R atomlar joylashgan holda esa bir karrali sochilish burchagi 52^0 gacha kuzatiladi. Olingan traektoriyalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki ushbu sochilish burchagining qiymatidan keyin ionlarning orqaga sochilish jarayoni kuzatildi. Ikki karrali sochilish kuzatiladigan burchak esa 103^0 gacha davom etadi. Buning asosiy sababi Ar^+ ionlarining massasi R atomining massasidan katta va shu sochilish burchagi qiymatidan katta qiymatlarda ionlarning orqaga sochlishi kuzatila boshladi. Olingan ushbu natijalar shuni ko‘rsatdiki, atom tomonidan hosil qilingan juda kuchli qaytaruvchi maydon(kuchli to‘qnashuv) ionga ta’sir qiladi, natijada u nishonga kirmay katta burchaklarga sochiladi.



1-rasm. Energiyasi Ye_0=1 keV bo‘lgan InGaP(001)<110> sirtida ketma –ket joylashgan Ga va In atomlaridan sochilgan ionlarning energiya nisbatlarini sochilish burchagiga bog‘liqligi.

Ushbu 1 - rasmda Ne^+, Ar^+ va Xe^+ionlarining InGaP(001)<110> sirtida ketma –ket joylashgan Ga va In atomlaridan sochilish jarayonidagi energiya nisbatlarini sochilish burchagiga bog‘liqligi keltirilgan. 1a-rasmda yuqorida aytilgan bog‘liqlik ketma –ket joylashgan Ga va In atomlaridan Ne^+ ionlarining sochilish jarayoniga tegishli. Ushbu holda Ne^+ ionlari dastlab galliy atomi bilan keyin esa indiy atomi bilan ketma-ket to‘qnashgach sochiladi. Bog‘liqlikdan ko‘rinadiki, bir va ikki karrali sochilishga tegishli bo‘lgan egri chiziqlar orasidagi farq ancha katta. Ya’ni galliy atomidan sochilgan ion keyingi to‘qnashuvda indiy atomidan sochiladi. Bu jarayon yengil va katta atom massasiga ega ionlar orasida bo‘lgani uchun bir karrali va ikki karrali sochilish energiyalari orasidagi farq ham katta bo‘ladi.

1b-rasmda yuqorida aytilgan bog‘liqlik Ar^+ ionlari uchun olingan holat. Ushbu grafikni Ne^+ ionlari uchun olingan grafik uchun solishtirsak, farq ancha katta ekanligini kuzatamiz. Hisoblashlar shuni ko‘rsatdiki, bir va ikki karrali sochilgan argon ionlari neon holatidagi bir va ikki karrali sochilishga nisbatan ancha ko‘proq

energiya yo‘qotishar ekan. Demak, bombardimon qilayotgan ionning massasi ortishi bilan bir va ikki karrali sochilish energiyalarida farq ortar ekan.

1s-rasmda esa ushbu bog‘liqlik Xe^{+} ionlari uchun keltirilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bir karrali sochilish 58^{0} gacha, ikki karrali sochilish 142^{0} gacha kuzatilar ekan. Ushu bu qiymatlardan katta qiymatlarda ksenon ionlari orqaga sochilishi kuzatildi.

Sochilish jarayoni o‘zaro ta’sir potensialining turiga bog‘liq bo‘lib, u istalgan masofalarga mos bitta analitik formulaga ega emas. Shuning uchun potensialni aniqlash uchun bir qancha usullar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning har biri faqat eng yaqin kelish masofasining qiymatlarining cheklangan oralig‘ida amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Parilis E S, Kishinevsky L M, Turaev N Yu, Baklitzky B E, Umarov F F, Verleger V Kh, Nizhnaya S L, Bitensky I S, Atomic collisions on solid surfaces. (North-Holland, Amsterdam, 1993).

2. U.B.Sharopov, K.Kaur, M.K.Kurbanov, D.Sh.Saidov, Sh.R.Nurmatov, M.M.Sharipov, B.E.Egamberdiev. Thin Solid Films, 2021, 735, p. 138902

3. U.B. Sharopov, K. Kaur, M.K. Kurbanov, D.Sh. Saidov, E.T. Juraev, M.M. Sharipov, Silicon, 2021

4. M.K. Karimov, U.O. Kutliev, S.B. Bobojonova, K.U. Otabaeva, Physics and Chemistry of Solid State, 2021, 22(4), pp. 742–745

5. M. T. Robinson and O. S. Oen, Phys. Rev. 132, 2385 (1963).

6. Ziegler J F, Biersack J P, Littmark U, The stopping and range of ions in solids, 321 (NY: Pergamon Press: 1985).

7. L. M. Kishinevsky, Izv. Acad. Nauk SSSR Ser. Fiz. 26, 1410 (1962)

YOSHLARDA MUTOLAA MADANIYATINING BADIIY-ESTETIK SAVIYASINI YUKSALTIRISH

Xamidova Firuza Abdurashidovna,
Boyovut tuman 6-umum ta’lim maktabi boshlang‘ich sinif o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Kitob – eng odil do‘st, beminnat muallim, bebaho xazina. Dunyodagi eng zo‘r kashfiyot ham kitobdir. Kitob bo‘lmaganda buyuk kashfiyotlarning qay biri ixtiro qilingan bo‘lar edi? Kitobga yo‘ldosh inson hayotning har qanday sinovini tafakkur bilan yengib o‘ta oladi.

U ong va qalbimiz ehtiyojini qondiribgina qolmay, ruhimizni ham tarbiyalab boradi, bizni shaxs sifatida shakllantiradi. Kitobxonning ma’naviyatida bo‘shliq bo‘lmaydi. Mutolaa insonni hamisha ma’nan yuksaltirgan. . XXI asrga kelib ulkan axborot oqimi yuzaga keldiki, uni tezda qabul qilish, tez tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish mahorati zarur bo‘lib qoldi. “Axborot oqimi kuchayib borayotgan, virtual dunyo turli-tuman axborotlar bilan to‘lib toshgan bugungi kunda barcha fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy tafakkurini tarbiyalash, ularda mutolaa madaniyatini, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ushbu madaniyatni doimiy va muntazam ko‘nikmaga aylantirish har qachongidan ko‘ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”

Mutolaa jamiyatda juda katta ijtimoiy rol o‘ynaydi. Ya’ni axborot yig‘ish, intellektual mulkni tarqatish, madaniy munosabat, kommunikativ, bilim-ilm, ta’lim-ta’lim, kasbiy bilim, amaliyot, ko‘ngil ochuvchi, siyosiy bahs munozara va hk. Shu bilan birga har birining ahamiyati katta. vaqt o‘tishi bilan ular o‘zgarib turadi. Demak, hozirgi paytda S. Xoll aytganidek, axborotli jamiyatda “mutolaa dunyosidagi inqilob” davrini boshlanganligi sababli mutolaani ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy rolini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. XX asr barcha o‘tgan asrlarga qaraganda ko‘proq mutolaa nazariyalarida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ular mutolaa madaniyatini o‘rganishning maqsad va vazifalarida, uning mazmuni va usullarida o‘z ifodasini topib, bir-birini to‘ldirlar. Shu bilan birga, ayrim qoidalardan foydalanish turli mamlakatlar madaniyatlarida mavjud bo‘lgan milliy amaliyotga mos keladi. O‘tgan asrlardagi qarashlarning nazariy va amaliy xilma-xilligi, hozirgi paytda mutolaaning yagona nazariyasi bo‘lishi mumkin emas degan fikrga olib keladi. Shu bilan birga, kitobni mutolaa qilish va tarqatish amaliyotida amalga oshirilgan ularning individual qoidalarini birlashtirish, umuman pedagogika fanlarini boyitadi. Shuni ta’kidlash kerakki, jamiyat qog‘ozdagi matnning yangi vositasi – ekran monitoridagi mutolaaning bu qadar tez tarqalishiga tayyor emas, bu narsa ilm-fanda, ta’limda ham aks etib bormoqda. Demak, endilikda mutolaa nazariyasi va mutolaa amaliyotining kontseptual qayta ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Axborotlashtirish, ijtimoiy hayot sur’atlarining tezlashishi mutolaa texnikasini, shu jumladan so‘zlarni tanib olish, shuningdek uni ravonligi, tezkorligi va egiluvchanligini o‘rganish zaruriyatini tug‘diradi. Axborot bilan ishlash usullari va “ishbilarmonlik”, “professional yo‘naltirilgan”, mutolaa sub’yektlari paydo bo‘ldi. Mutolaaning funktsional-pragmatik maqsadi insonning kasbiy maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda va kasbiy hayotga ta’sir o‘tkazish istagida aks ettiradi. Bunday manbalar asosan ilmiy, ilmiy-ommabop, o‘quv, maxsus, ma’lumotnoma va boshqa sanoat ishlab chiqarish mavzularidagi adabiyotlardir.

XX asrning ikkinchi yarmida, taxminan asrning 90-yillari oxirida Rossiyada, AQShda, Yaponiyada va G‘arbiy Evropada axborot jamiyatini shakllantirishga qaratilgan harakat davrida mutolaaning funktsional va pragmatik maqsadi yangicha mazmun bilan boyidi. “Axborot dunyosidagi “ko‘chki” va axborotni saqlash va tarqatish sohasidagi ziddiyatlarni hal qilish borabarida “axborot madaniyati”, “kompyuter savodxonligi” kabi yangi tushunchalarni shakllantirishiga olib keldi” Turli ommaviy axborot vositalarida matnlarni qidirish va idrok etish uchun yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish odamlardan faol axborot xatti-harakatlarini rivojlantirishni talab qildi. Bu esa axborot manbalarini ongli ravishda tanlashda, egallashda namoyon bo‘ladi. Ularni qayta ishlash usullari, axborot resurslaridan foydalanish kompleksi, axborot tashuvchisi sifatida o‘z-o‘zini anglashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat tarakkiyoti. –T.: Fan. 2004.

2. Umarov A.A., Kovalenko A.P. Psixologiya chtatelya i chtenie. Uchebnoe posobie. –T.: Izd-vo Natsionalnoy biblioteki im. A.Navoi, 2004.

3. Firsov V.R. Suhnostnie funktsii bibliotechnoy deyatelnosti:

Kulturovedcheskiy podxod. Nauchni e i texnicheskie biblioteki.

TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich,
Guliston davlat pedagogika instituti "Aniq va tabiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi Abdumajid85@inbox.uz

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni o'qitilishning yo'llari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e'tibor dars jarayonida zamonaviy dasturiy vositalaridan hamda internet tarmog'idan foydalanishga qaratilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются способы проведения уроков с использованием современных информационных технологий в учебном процессе. Основное внимание уделяется использованию современных программных средств и Интернета в ходе урока.

Abstract. The article discusses the ways of conducting lessons using modern information technologies in the educational process. The main attention is paid to the use of modern software and the Internet during the lesson.

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu

yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapdi. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etedigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

(Sh.Mirziyoyev)

Hozirgi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh, qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga o'tkazish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish xamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi natijasida Respublikamizda yangi zamonaviy ta'lim tizimi yaratilib, unda ta'lim mazmuni uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, talaba-yoshlarni ongida dastur asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb bilimlar tizimini shakllantirish va talaba-yoshlarning aqliy rivojlanish qobiliyatlarini yuqori darajaga ko'tarish kabi masalalar dolzarb bo'lib hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o'zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitishni jadallashtirish singari vazifalarni amalga oshirish lozimligini, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish, elektron darsliklar yaratish, dars jarayonlarini

virtuallashtirish, o‘qitishda virtual va multimedia vositalardan foydalanish, ta’limning virtual bazasini yaratishning uslubiy va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Axborotlashgan jamiyat haqida olimlar turlicha fikr yuritadilar. Masalan: yapon olimlarining hisoblashicha, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbaidan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotni qayta ishlashni axborotlashtirishning yuqori darajasini ta’minlashga imkon beradi. Jamiyatni rivojlantirishda harakatlantiruvchi kuch moddiy mahsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo‘lmog‘i lozim.

Axborotlashtirilgan jamiyat - jamiyatning ko‘pchilik a’zolari axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo‘lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyatdir.

Axborotlashgan jamiyatga kompyuter va telekommunikatsiya axborot texnologiyalari negizida yangi axborotni qayta ishlash sanoati yuzaga keladi.

Zamonaviy axborot texnologiyasi, kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Hozirda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi turli xil axborotdan unumli foydalanishga qaratilgan axborot jamiyatining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Bu jamiyatda ko‘pchilik axborot, uning oliy shakli bo‘lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, ishlov berish va amalga oshirish bilan band bo‘ladilar. Axborot jamiyatida kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotga ishlov berishni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta’minlashga imkon beradi. Bu jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o‘zgaradi. Jami faoliyat mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste’mol etishga yo‘naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborot jamiyatida tafakkur, bilimlar ishlab chiqariladi va iste’mol etiladiki, bu holatlar aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Har bir insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladiki, natijada bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj yanada oshadi. Ushbu jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida eng muhim tushunchalardan biri axborot zahiralari hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar dars jarayonini tashkil etishda dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim tizimida shakllangan yangicha yondashuvdan tashkil etishdan iborat bo‘lib, tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun samarali bo‘lish birga uning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion texnologiya o‘qitish jarayonida shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma’lum bo‘lgan zamonaviy texnologiyadir.

Xulosa qilib aytish mumkin, axborot kommunikatsiya vositalari zamonaviy dasturlar orqali informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish tajribasi g‘oyaviy-tarbiyaviy, darsning samaradorligini oshirilishiga va didaktik jihatdan boshqa ko‘rgazmali vositalardan ko‘ra ancha qulay va afzal ekanligini isbotlaydi.

Har bir ta'lim vositasi talab darajasida ishlab chiqilib, o'z o'rnida va samarali foydalanilsa, ta'lim jarayonida mazmunni o'zlashtirishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuhammedov R, Yuldashev M "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". Toshkent -2013.
2. Abduqodirov A.A, Toshtemirov D.E "Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish metodikasi". Monografiya. Guliston:Universitet, 2019.
3. D.E.Toshtemirov, M.B.Niyozov, J.D.Saidov "Ta'limda axborot texnologiyalari" o'quv qo'llanma: Toshkent-2020.
4. Internet ma'lumotlar.

MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANINI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI HAMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich,

Guliston davlat pedagogika instituti "Aniq va tabiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Abdumajid85@inbox.uz.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari hamda innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda talaba-yoshlarga media savodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishning yo'llari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e'tibor axborot va kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan dars jarayonida sifatli

foydalanishga qaratilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются способы обучения студентов медиаграмотности и информационной культуре с использованием современных информационных технологий и инновационных технологий. Основное внимание уделяется качественному использованию информационно-коммуникационных технологий в ходе урока.

Abstract. The article discusses ways of teaching media literacy and information culture to students using modern information technologies and innovative technologies. The main attention is paid to the qualitative use of information and communication technologies during the lesson.

"Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"

Sh.M.Mirziyoyev.

Hozirgi kunda axborot va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelish bilan birga, ta'lim jarayonini yangi sifatiy ko'rsatkichlariga erishishish, boshqarish jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini ham yaratadi. Ta'lim jarayonida kompyuter

texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta’lim tamoyillari, mohiyati, kontseptsiyalari va g‘oyalari o‘zgaradi. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari ta’lim-tarbiya jarayonida talaba-yoshlar bilimini oshirish va mustahkamlash uchun yangi metodlar va yondoshuvlardan foydalanishni ko‘zda tutadi. Bunda jamiyatni axborotlashtirish jarayonining rivojlanayotgan sharoitda talaba-yoshlani mustaqil hayotga tayyorlash, ularning iste’dod, qobiliyat, intilish va qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan masalalar muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talaba-yoshlar kompyuter va axborot texnologiyalarini mukammal o‘rgangan, o‘zlashtirgan va amaliyotga tatbiq eta oladigan bo‘lishi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, dars jarayonida fanlarni bir-biri bilan bog‘lab o‘tish, o‘tilgan mavzuni osonroq tushunishga va ularni o‘zlashtirishga olib keladi.

Talaba-yoshlarning yangi ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishi, didaktik materiallarni o‘quv–tarbiya jarayoniga joriy etishi bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanib, u axborot tarmog‘ini shakllantirish, axborot resurslarini yaratish va axborot va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashni talab etadi.

Innovatsion texnologiyalar dars jarayonini tashkil etishda dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim tizimida shakllangan yangicha yondashuvdan tashkil etishdan iborat bo‘lib, tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun samarali bo‘lish birga uning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion texnologiya o‘qitish jarayonida shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma’lum bo‘lgan zamonaviy texnologiyadir.

Media savodxonlik va axborot madaniyati fanini o‘qitish jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib borishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talaba-yoshlarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

Innovatsion texnologiyalar media savodxonlik va axborot madaniyati fanini o‘qitish jarayoniga hamda professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlar faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan, interfaol usullardan to‘liq foydalaniladi.

Interfaol usullar – bu jamoa bo‘lib fikrlashdan iborat, ya’ni u pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

O‘quv jarayonida axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish sifati o‘quv materiallarini talaba-yoshlarga yetkazish tizimi kabi komponentalardan iborat omillar bilan aniqlanadi. O‘quv jarayonini sifat va

samaradorligini oshiruvchi axborot ta’lim muhiti sifatli hisoblanadi, agar u axborotlashgan ta’lim tizimi maqsadi va me’yoriga mos kelsa. Tajribadan shu narsa ma’lumki, agar ta’limni tashkillashtirish va boshqarish tizimi yangi axborot–boshqarish modellari bilan yetarli darajada ta’minlanmas ekan, u holda ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiyalari vositalari va metodlaridan foydalanish orqali o‘qitishning real jarayoniga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri unchalik sezilmaydi.

Media savodxonlik va axborot madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish dars mavzusining muammoli masalalariga diqqatni qaratish imkonini beradi. Darslarida innovatsion texnologiyalardan o‘z o‘rnida samarali foydalanilishi, mashg‘ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi. Shu bilan birga ta’limni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishi media savodxonlik va axborot madaniyati fanini fani o‘qituvchisidan kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishni, axborot resurslaridan foydalangan holda fanga oid ma’lumotlarni talaba-yoshlarni qanoatlantiradigan darajada yetkazib berish malakasini, ijtimoiy tarmoqlardan yetarli darajada foydalanish ko‘nikmasini talab etiladi, hamda talaba-yoshlarning mustaqillik va o‘zini boshqarish hamda rivojlanishiga yordam beradi, talaba-yoshlarning hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi.

Bizga ma’lumki, media savodxonlik va axborot madaniyati fani ta’lim tizimida talaba-yoshlarning bilim doirasi, dunyoqarashini, tasavvurlash qobiliyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Chunki media savodxonlik va axborot madaniyati fani boshqa ko‘plab fanlarlarni o‘rganishda, yangi texnika va texnologiyalarni, axborot vositalarini o‘zlashtirishda keng qo‘llaniladi.

Albatta, bu muammoni samarali yechish ba’zi bir ob’yektiv va sub’yektiv

faktorlarga bog‘liq bo‘lib, keyinchalik bu faktorlar o‘z-o‘zidan ta’lim tizimini boshqarish bo‘yicha zarur bo‘lgan aniq, yetarli va o‘z vaqtidagi axborotlar bilan to‘ldirilishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuhammedov R, Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2013.

2. Abduqodirov A.A, Toshtemirov D.E “Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish metodikasi”. Monografiya. Guliston:Universitet, 2019.

3. D.E.Toshtemirov, M.B.Niyozov, J.D.Saidov. “Ta’limda axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanma: Toshkent. 2020.

4. Internet ma’lumotlar.

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGLARINI KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Xalquziyeva Dilnoza Baxodirovna,

Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarini

kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari hamda bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha ta’lim tizimida tutgan o‘rni, maktabgacha ta’lim bo‘yicha kasbiy faoliyatning umumiy tamoyillari, innovatsion metod va usullarni ta’lim tizimiga tadbiq etish to‘g‘risida fikr yurutilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiyalar, innovatsiyalar, kasbiy faoliyat, ta’lim, bola lompetensiyasi, umumiy tamoyillar.

Аннотация. В статье обсуждаются проблемы развития творческих навыков будущих воспитателей и роль будущих воспитателей в системе дошкольного образования, общие принципы профессиональной деятельности в дошкольном образовании, применение инновационных методов и способов в системе образования.

Ключевые слова: профессиональные компетенции, инновации, профессиональная деятельность, образование, детская компетентность, общие принципы.

Annotation. The article discusses the problems of developing the professional competencies of future educators and the role of future educators in the system of preschool education, the general principles of professional activity in preschool education, the use of innovative methods and methods in the education system.

Key words: professional competencies, innovations, professional activity, education, children’s competence, general principles.

Pedagogning maktabgacha ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini belgilashda 3ta sohani inobatga olish lozim: shaxs, faoliyat bo‘yicha hamda refleksiv.

Shaxs sifatida tayyorgarlik – bu pedagogik tafakkur (gnostik, ya’ni aqliy qobiliyatlar - ilmiy ma’lumotlarni farqlash malakalari, amaliy faoliyatda ilmiy bilimlarni to‘g‘ri qo‘llash, pedagogik vazifalarni malakali xal etish); pedagogik maqsadni belgilash (tashkilotchilik qobiliyatlari - o‘qitish va takrorlash uchun optimal sharoit yaratish malakalari, mashg‘ulotning kerakli shakllarini tanlash, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv jarayonini kerakli inventar jihozlari bilan ta’minlash; o‘z mehnatini tashkil etish, har qanday tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish (ertaliklar, adabiy kechalar va boshqalar); pedagogik yo‘naltirilganlik (kommunikativ qobiliyatlar: ma’lum bir ta’lim olayotganlar kategoriyasi uchun hammabop shaklda ma’lumotni taqdim etish qobiliyati, vaziyatga qarab ma’lumotni berish usul va uslublarini to‘g‘rilash, birovni ishontira olish qobiliyati, “pedagog-pedagog”, “pedagog-ota-ona”, “pedagog-menedjer”, “pedagog-bola” darajalarida kasbiy muloqotni savodli tuzish; bolalar jamoasida ijobiy psixologik mikroiqlimni yaratish va boshqalar).

Kasbiy tayyorgarlik: pedagogik takt (intellektual mehnat bo‘yicha loyihaviy qobiliyatlar: oddiy standartlar va qaror uslublarini olib tashlab, yangi, ajoyiblarini izlash; ushbu va o‘z o‘zidan ma’lum narsadan yuqorilarini ko‘ra bilish; odatdagi muammolarni asosiy bog‘liqliklarini qamrab olish; qaror qabul qilishning bir nechta turli yo‘llarini aniq ko‘ra bilish hamda hayolan eng samaraligini tanlash; barcha masalalar xal etilib bo‘lingan joyda muammoni sezish va mavjudligi; g‘oyaviy

hosildorlik; bolaning individual rivojlanish o‘quv jarayonini, innovatsion o‘quv rejasini, dasturni, o‘z faoliyatini loyihalashtirish va boshqalar).

Refleksiv tayyorgarlik: pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatlar sezgirlikning 3 turini o‘z ichiga oladi: obyektni his etish: real haqiqat bolalarda qanday aks-sado berayotganiga, bunda qay darajada bolalarning qiziqish va ehtiyojlari namoyon bo‘lishiga, “ularni pedagogik tizimning talablariga mos kelishiga” pedagogning alohida sezgirligi; me’yorni his etish va takt turli pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalari ta’sirida bola shaxsida va faoliyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘lchoviga alohida sezgirlikda namoyon bo‘ladi, umuman qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ular ijobiymi yoki salbiymi, qaysi belgilarga ko‘ra ular haqida so‘zlash mumkin; dahldorlik hissi pedagogning shaxsiy faoliyati kamchiliklariga, tanqidiyligi va o‘quv jarayoniga javobgarlik sezgirligi bilan ta’riflanadi).

Xullas, yuqoridagilar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tadbiq etishda bola va pedagog shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta’lim jarayoni yaxlit subyektining rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog‘liqdir. Pedagogik qobiliyat - pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyat jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san’atidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.

4.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

5.O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya hamda sportni rivojlantirish davlat dasturi Konseppiyasi. Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 27-maydagi qaroriga ilova.

6.Esonova Maloxatxon Akilovna MAKTABGACHA PEDAGOGIKA. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 202210.

7.Malikovna, Nazirova Guzal, and Mamadjanova Muyassar Nurmatovna. "Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT

REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 415-417.

8.Babaeva D.R., "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi xuzuridagi "Intellektual mulk agentligi" T2020 yil. (elektron darslik).

9.Berdieva A. Jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 5-son. -10-11 b.

10.Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son. -14 b.

11. Turg'unov, S. T., et al. "Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari." O'zbekiston Respublikasi

O'zPFITI» nashriyoti (2014).

12. Nazirova, G. M. "qizi Gulomova, DD (2022). CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PEDAGOGUES-EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." International Academic Research Journal Impact Factor 7.1: 6.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SHAXMAT O'YINNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK–PSIXOLOGIK YONDOSHUV

Xoliqov Umidjon Kuchqarovich, Abdualimova Madina Akbar qizi,

tel:999178075. shax75.75 @mail.ru

Guliston davlat Instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi;

Ijtimoiy-gumanitar fakulteti òzbek tili va adabiyot yònalishi 36-22 guruh talabasi, Telefon raqam: +998 91 022 41 40

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarni shaxmatni o'rgatishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarini amalga oshirilganda, boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxmat o'rganish orqali mantiqiy fiklash hamda shaxsiy sifatlarini shaklantiradi, shaxmat o'yinlaridan foydalanish orqali ularning diqqat, idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashini o'stiradi va rivojlantirishiga bag'ishlangan bo'lib, unda shaxmat o'yinini o'rgatshi usullari, yo'llari va samaradorligi haqida.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilar, shaxmat o'yin, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, shaxsiy sifatlarini.

Аннотация. При реализации постановлений Президента Республики Узбекистан по обучению шахматам учащихся начальных классов в статье логическое мышление посредством изучения шахмат также формирует их личностные качества, направленные на развитие и развитие их внимания, восприятия, мышления, памяти и логического мышления посредством использования шахматных игр, в которых рассказывается о методах, способах и эффективности обучения игре в шахматы.

Ключевые слова: ученики начальных классов, игра в шахматы, восприятие, мышление, память, логика, внимание, личностные качества.

Hozirgi kunda Respublikamiz sportini rivojlantirish sohasida tubdan

o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashdagi o‘rnini hisobga olgan holda sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o‘quv hamda moddiy-texnik bazasini yaratish hamda aholining sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘lida maqsadli davlat miqyosidagi dasturlar ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilmoqda. Sport – bu millatning o‘zligini anglashda, uning aniq maqsadlar sari jipslashuvi va birlashuvida, o‘zidagi bor salohiyatini hamda qudratini jahon uzra namoyon bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2021-yil 14-yanvarda "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" Prezident qarori qabul qilindi.

Shu qaror, 150 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchilarini tajriba tariqasida shaxmatga o‘qitishni tashkil qilish amaliyoti kengaytirilib, yana qo‘shimcha 150 ta maktab (shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda (Toshkent viloyatidan tashqari) 10 tadan, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 15 tadan maktab) shaxmatga ixtisoslashtiriladi;tegishli 1 000 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida 2, 3 va 4-sinf o‘quvchilarini "Jismoniy tarbiya" fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi hamda ularga metodik yordam ko‘rsatiladi qolgan barcha maktablarning 2, 3 va 4-sinf o‘quvchilari "Jismoniy tarbiya" fani doirasida shaxmatga o‘qitilish belgilandi.

Umum ta’lim muassasalarida shaxmat kursini o‘qitishdan maqsadi – o‘quvchilarning shaxsiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish xamda ularda umumiy madaniyat, mantiqiy, mustaqil, sog‘lom fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Shaxmat – umumiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta’limning bir turi hisoblanib, psixologik jarayonlarini rivojlantiruvchi, insonni aqliy, ijodiy va tarbiyaviy komolotga erishishiga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxmat o‘quvchilarni yanada ma’nan yetuk qilib tarbiyalashda qo‘shimcha tarbiya vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxmat o‘quv kursi o‘qitilishi matematika, psixologiya, pedagogika va jismoniy tarbiya bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu fanlarni o‘zlashtirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu o‘quv dasturi asosida yillik taqvim-reja ishlab chiqiladi va ta’lim muassasalarining o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Taqvim-reja tuzishda oraliq va yakuniy nazorat ishlarining to‘g‘ri taqsimlanishi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni rejalashtirishda iqlimiy o‘zgarishlar, maktabning ichki imkoniyatini inobatga olish lozim. Jumladan, taqvim mavzuiy rejani tuzishda o‘quv dasturida boblarga ajratilgan (mavzularga berilgan) umumiy soat hajmidan chiqmay, o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasini inobatga olgan holda taqsimlashi kerak. Taqvim mavzuiy-rejada berilgan soatlarni ko‘paytirsa, (*) belgini qo‘yishi hamda dastur soatlarini taqsimotiga kiritilgan o‘zgarishlar yuzasidan maktab pedagogik kengash yig‘ilishida muhokama etib, qaror qismi bilan rasmiylashtiriladi.

O‘quv dasturda o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan

talablar keltirilgan. Bu o‘z o‘rnida o‘quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi.

Mazkur o‘quv dasturi darsliklarning davriylik nashr etilishi asosida amaliyotga joriy etiladi.

Boshlang‘ich ta’limda tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda rivojlanish o‘quv vazifasi birinchi o‘ringa chiqariladi. Bu kichik maktab o‘quvchilarining shaxsiyatini shakllantirishga va ularning ijodiy qobiliyatlarini to‘liq ochib berishga yordam beradi.

Bolalarga shaxmat asoslarini o‘rgatish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish bizga

o‘qishni qiziqarli tashkil qilish imkonini beradi, bolalarni majburlashsiz o‘qitishga imkon beradi, bilimlarga doimiy qiziqishni saqlaydi va o‘qishning turli shakllaridan foydalanadi. Darslarning asosiy mohiyati o‘quvchilarni kuzatishi, taqqoslashi, tasniflashi, guruhlashi, xulosalar chiqarishi, naqshlarni topishi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatdir.Boshlang‘ich ta’limda shaxmat to‘garakda ishlash uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi, Uni yangi sifat darajasiga ko‘taradi, bolalarda ko‘plab aqliy jarayonlar va idrok, e’tibor, tasavvur, xotira, tafakkur va ixtiyoriy xatti-harakatlarni boshqarishning boshlang‘ich shakllari kabi fazilatlarni rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida shaxmat o‘yinlaridan foydalanish orqali ularning idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashini o‘stiradi va rivojlantiradi.

Shaxmat o‘ynash orqali bolalar fikrini o‘stirish g‘oyasi bizning bir fikr. Professor V.Alimasov yozganidek: “Sergak fikrlargina kishilarni sergak yashashga o‘rgatadi”. Shaxmat o‘yini fikrlashga undovchi, chorlovchi o‘yin, san’at, sportdir. Bu universal o‘yinni o‘rganish, u bilan shug‘ullanish va uni bolalarga o‘rgatish barchamizni faqat mustaqil fikrlashga va mustaqil fikr orqali sergak yashashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi "Shaxmatni yanada shaklantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-4954-sonqarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 5 avgustdagi Shaxmatni yanada ommalashtirish va shaklantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" PQ-347-son qarori.

3. У Холиқов O‘rta Osiyo ta’lim va innovatsiyalar jurnali 1 (2), 28-37Бошланғич синф ўқувчиларда шахмат ўргатиш орқали мантиқий фикрлаш ва шахсий сифатларини баҳолашнинг иннавоцион усуллари

4. UK Khalikov Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23 PEDAGOGICAL VALUE OF DEVELOPING PLAYING CHESS AMONG PRIMARY SCHOOLCHILDREN

5. Xaylayev Mamatqul. “Shaxmat alifbosi”. Uslubiy qo‘llanma “Tafakkur”, 2015. 12 b.

UZBEKISTAN-TAJIKISTAN: COOPERATION BETWEEN THE TWO COUNTRIES IN THE FIELD OF EDUCATION, SCIENCE AND TOURISM

Baxtiyor Usmonov,
Doctoral student of Gulistan State University
Guliston, Uzbekistan
E-mail: usmonovbaxtiyorbotirovich@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: new reforms, strategic partnership, mutual cooperation, interstate relations, cultural-humanitarian relations, culture, spirituality and enlightenment, art, mutual tourism relations, diplomacy, Uzbek-Tajik ties, age-old neighborliness.

Abstract: From a historical point of view, the peoples of the Central Asian countries, especially the Uzbeks and Tajiks, have a long common history belonging to a single region. The people of the countries have similar traditions, common history, and belong to the same religion. Uzbeks and Tajiks live on the borders of the two countries. Although this is the result of the national demarcation in 1924, border peoples are considered citizens of two countries and have established close fraternal and even family relations. Uzbekistan and Tajikistan are connected by a common history and common spiritual values. The two peoples drank water from the same river and were connected by ties of kinship. Literally, it is called a people speaking two languages. Age-old neighborliness, mutual respect and traditions serve as a solid basis of relations between the two countries.

ЎЗБЕКИСТОН-ТОЖИКИСТОН: ИККИ ДАВЛАТ ЎРТАСИДА ТАЪЛИМ, ИЛМ-ФАН ВА ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ

Baxtiyor B. Usmonov
Guliston davlat universiteti doktoranti
Guliston, O‘zbekiston
E-mail: usmonovbaxtiyorbotirovich@gmail.com

Мақола ҳақида.

Калит сузлар: янгича ислоҳотлар, стратегик шериклик, ўзаро ҳамкорлик, давлатлараро муносабатлар, маданий-гуманитар алоқалар, маданият, маънавият ва маърифат, санъат, ўзаро туризм муносабатлари, дипломатия, ўзбек-тожик ришталари, азалий қўшничилик.

Аннотация: Тарихий нуқтайи назардан Марказий Осиё давлатлари халқлари, хусусан ўзбеклар ва тожиклар ҳамиша ягона минтақага тауллуқли азалий умумий тарихга эгадир. Мамлакатлар аҳолиси ўзаро ўхшаш урф-одатларга, умумий тарихга, бир динга мансубдир. Икки давлат чегараларида ўзбеклар ва тожиклар истиқомат қилиб келишади. Гарчи бу 1924 йилдаги миллий чегараланиш оқибатлари ўлароқ чегара халқлари икки давлат фуқаролари ҳисобланишсада ўзаро яқин қардош ва ҳаттоки оилавий муносабатларни ҳам йўлга қўйган халқлардир. Ўзбекистон ва Тожикистонни умумий тарих, узвий маънавий қадриятлар боғлаб туради. Икки халқ азалдан бир дарёдан сув ичган, қариндошлик ришталари билан боғланган. Том маънода икки тилда гаплашувчи бир халқ деб аташади. Азалий қўшнилик,

ўзаро ҳурмат ва анъаналар икки давлат ўртасидаги муносабатларнинг мустаҳкам асоси бўлиб хизмат қиляпти.

УЗБЕКИСТАН-ТАДЖИКИСТАН: СОТРУДНИЧЕСТВО ДВУХ СТРАН В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ТУРИЗМА.

Бахтиёр Б. Усмонов

Докторант

Докторант Гулистанского государственного университета

Гулистон, Узбекистан

Электронная почта: usmonovbaxtiyorbotirovich@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: новые реформы, стратегическое партнерство, взаимное сотрудничество, межгосударственные отношения, культурно-гуманитарные связи, культура, духовность и просвещение, искусство, взаимные туристические связи, дипломатия, узбекско-таджикские связи, исконное добрососедство.

Аннотация: С исторической точки зрения народы стран Центральной Азии, особенно узбеки и таджики, имеют длительную общую историю, принадлежавшую к единому региону. Народы стран имеют схожие традиции, общую историю и принадлежат к одной религии. На границе двух стран проживают узбеки и таджики. Хотя это результат национального размежевания в 1924 году, приграничные народы считаются гражданами двух стран и установили тесные братские и даже родственные отношения. Узбекистан и Таджикистан связаны общей историей и общими духовными ценностями. Два народа пили воду из одной реки и были связаны родственными узами. Буквально его называют народом, говорящим на двух языках. Многовековое добрососедство, взаимоуважение и традиции служат прочной основой отношений двух стран.

Ўзбекистон Марказий Осиё минтақасидаги давлатлар билан фаол, ташаббускор ва конструктив алоқалар олиб бормоқда. Марказий Осиёнинг туб аҳолиси умумий тарихга, ўзаро ўхшаша маданият ва урф-одатларга эга[55]. Ўзбекистон-Тожикистон халқлари азалдан бир дарёдан сув ичиб келаётган икки тилли бир миллат десак адашмаган бўламиз. Чегара ҳудудларда ҳозирга қадар ўзаро қариндошлик аълоқалари билан боғланган ўзбек-тожик халқлари истиқомат қилиб келишмоқда. Бу икки халқ эътиқоди ва дини бир, қон-қариндош халқлардир.

Умумий этник илдизга эга икки халқнинг маданиятларини, турмуш тарзларини, урф-одатларини ва халқ санъатини айрим ҳолларда умуман ажратиб бўлмайди. Икки халқнинг ибтидоий, қадимги ва аксарият ҳолларда ўрта асрларга оид тарихи ўзаро чамбарчас боғлиқдир.

Ўзбекистон ва Тожикистон халқлари ўртасида таълим, илм-фан ва

---

[55] Abdumajidova Hamida . Active foreign policy of Uzbekistan and its impact on integration process in Central Asia. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. Vol.2, No 3. 2021// file:///C:/Users/User/Downloads/414-Article%20Text-1218-1434-10-20210517.pdf

туризм соҳасидаги ҳамкорлик алоқалар сўнги йилларда янги босқичга кўтарилмоқда. Аммо бу соҳадаги алоқалар кўп йиллик тарихга ҳам эга. Ҳаттоки собиқ иттифоқ даврида ҳам илм-фан соҳасида икки давлат ўртасида кадрлар алмашинуви тизими мавжуд эди. Масалан СамДУ битирувчиларидан Султон Умаров, Муҳаммад Осимий, Акобир Адҳамов, Исроил Исмоиловлар Тожикистон ФА академиги бўлганлигини айтиб ўтишимиз мумкин. Ёки тарихнавислик соҳасида Ш. Воҳидов каби олимларнинг ҳар икки давлатда фаолият олиб борганлигини айтиш мумкин. Илм-фан соҳасида бундай мисоллар минглаб топилади.

Бироқ собиқ иттифоқнинг парчаланишидан сўнг ўтган чорак аср давомида илм-фан соҳасидаги аълоқалар бироз сусайиб қолди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг сиёсий иродаси, яқин қўшничилик муносабатларини тиклаш йўлидаги саъй-ҳаракатлари туфайли икки мамлакат ўртасида барча йўналишларда ва жумладан илм-фан соҳасидаги ҳам алоқалар қайта тиклана бошлади.

Сўнгги йилларда ўзаро ҳамкорлик алоқаларида улкан ўзгаришлар кузатилмоқда. 2016 йилнинг сентябридан то ҳозирги кунга қадар икки мамлакат президентлари ўртасида тўрт марта ўзаро учрашув, бир қатор самимий ва муҳим телефон мулоқотлари ўтказилди. Давлат раҳбарлари давлатлар ўртасидаги ўзаро алоқаларни икки қардош халқ манфаатларидан келиб чиқиб, сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш йўлида биргаликда ишлашга тайёр эканини бир неча маротаба қайд этди.

2021 йилдан давлатларимиз пойтахтлари ўртасидаги авиаташувлар, темир йўл қатнови қайта тикланди. Самарқанд – Панжикент А-377 халқаро автомобиль йўли очилди. Ўзбекистон – Тожикистон давлат чегарасида ўтказиш пунктлари ўз ишини тиклади, ўзаро алоқаларни кенгайтириш, савдо битимлари ва шартномаларни тузишга асос бўлган миллий кўргазмалар ва бизнес-форумлар ташкил этилди.

2017 йилда Тожикистон Республикасида Ўзбекистон Республикаси маданияти кунлари ва Ўзбекистон Республикасида Тожикистон Республикаси маданияти кунлари муваффақиятли ўтказилди.

Ўзбекистонда тожик миллатига мансуб қарийб 1,5 миллион фуқаро истиқомат қилади. Таълимнинг барча босқичлари тожик тилида ҳам йўлга қўйилган. Жумладан, 9700 дан ортиқ мактаблар 400 дан ортиғида тожик тилида таълим мавжуд. 245 та таълим муассасаси фақат тожик тилида таълим беради[56]. Юртимиз мактабларида жами 70101 нафар ўқувчи тожик тилида таълим олади. Юртимизнинг 10 ҳудудида тожик миллий маданият марказлари фаолият олиб бормоқда[57].

Самарқанд, Термиз, Фарғона давлат университетларида тожик тилида

---

[56] Ўзбекистонда қанча мактаб бор ва уларда неча нафар ўқувчи таълим олади?// 21.02.2019й.https://m.kun.uz/news/2019/02/21/ozbekistonda

[57] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик аълоқалари қўмитаси.// https://interkomitet.uz/mita-a-ida/millij-madanij-markazlar/?lang=oz

машғулотлар олиб борилади. Шунингдек, Фарғона вилоятининг Сўх туманидаги коллежда ҳам бир қатор мутахассислар тайёрланади.

Бухоро, Жиззах, Қашқадарё, Навоий, Наманган, Самарқанд, Сирдарё, Сурхондарё, Фарғона ва Тошкент вилоятларидаги тожик мактаблари учун тожик тилида дарсликлар чоп этилади.

Делегацияларнинг ўзаро ташрифлари, ижодий сафарлар ташкил этилмоқда, маданият кунлари, концертлар, кўргазмалар, анжуманлар ўтказилмоқда. Тожикистонда ҳам ўзбек тилини ривожлантириш борасида қатор ишлар қилинаётгани, жумладан, республикада таълим жараёни ўзбек тилида олиб борилаётган мактаблар сони 272та, тожик ва ўзбек тилларида фаолият юритадиган умумтаълим муассасалари 597тани ташкил этиши, шунингдек, тожик-ўзбек-рус, тожик-ўзбек-қирғиз ва тожик-ўзбек-туркман тилларидаги мактаблар мавжудлиги қайд этиш жоиз[58].

Бундан ташқари, Тожикистон Республикаси олийгоҳларида ўзбек тили ва адабиёти факультети ҳамда бўлимларининг фаолият юритаётгани, ўзбек тилидаги ўнлаб газета-журналлар, телерадиодастурларнинг эфирга узатилаётгани тожикистонлик ўзбеклар учун ўз она тилидан эркин фойдаланиш борасида яратиб берилган имконият дея баҳолаш мумкин.

Тожикистонда ўзбек тилида фаолият олиб бораётган 10 дан ортик нашрлар мавжуд бўлиб, Душанбеда ўзбек жамияти томонидан «Халқ сўзи» газетаси чоп этилади. Хўжандда «Маънавият» газетаси ва «Шарқнома» журнали ўзбек тилида чоп этилади. Шунингдек, ҳафтада бир марта ОАВда ўзбек тилидаги дастур ва эшиттиришлар олиб борилади[59].

Қайд этилганидек, илмий муассасалар, ўқув юртлари, оммавий ахборот воситалари, ижодий ва спорт жамоалари, ёшлар ва хотин-қизлар ташкилотлари, касаба уюшмалари ва бошқа фуқаролик жамияти институтлари ўртасида тўғридан-тўғри алоқалар йўлга қўйилмоқда.

Тожикистон Президенти фармойиши билан мамлакат пойтахтидаги "Ёшликнинг 50 йиллиги" истироҳат боғи номи "Низомиддин Алишер Навоий" деб қайта номланиши, Самарқанд шаҳрида икки халқнинг буюк вакиллари – Алишер Навоий ва Абдураҳмон Жомийга ёдгорлик ўрнатилиши, Тошкент метрополитенининг станцияларидан бирига атоқли тожик шоири, Мирзо Турсунзода номи берилиши каби ўзгаришлар икки халқ маданий ҳаётида муҳим воқейликдир. Шунингдек, ўзбек тилини Тожикистонда, тожик тилини Ўзбекистонда ўрганиш ва ўргатишни такомиллаштириш, ўқув ва бадиий адабиётлар, даврий ва илмий нашрлар билан алмашув, икки мамлакатнинг мумтоз адабиёт вакиллари ва замонавий муаллифлари асарларини таржима қилишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таълим ва фан соҳасида ўзаро муносабатларни, шу жумладан, икки мамлакат олий ўқув юртлари ва фанлар академиялари ўртасида ҳамкорликни ривожлантириш борасида қатор ишлар

---

[58] Тожикистонда ўзбек тили байрами нишонланди.// https://uz/uz/77038

[59] Ш.Э.Ражабова // «Кўп томонлама маданий-гуманитар алоқаларнинг минтақавий ҳамкорликни ривожлантиришдаги ўрни»// ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW // https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

амалга оширилмоқда.

Узоқни кўзлаб олиб борилаётган бугунги кундаги ташқи сиёсат самараси ўлароқ, мамлакатларимиз ўртасидаги муносабатлар сифат жиҳатидан янги босқичга кўтарилди. Сиёсий, савдо иқтисодий, таълим, илм-фан ва туризм каби қатор соҳалардаги имкониятларни кенгайтириш учун қулай имкониятлар йўли очилди. Маълумотларга қараганда Ўзбекистон ва тожикистон ўртасида 1991 йилдан буён икки мамлакат парламенти вакилларининг 20дан ортиқ учрашувлари бўлиб ўтган. Тожикистон республикаси Мажлиси Олий билан Ўзбекистон республикаси Олий Мажлиси ўртасида парламентлараро гуруҳлар тузилган. Икки давлат ҳамкор мамлакатлар сифатида халқаро доирада ҳам ўзаро бир-бирларини қўллаб қувватлаб келмоқда.

Ўзаро муносабатларимиз янги давр талаблари асосида ривожланмоқда. Ўзбекистон Республикаси билан Тожикистон Республикаси ўртасида 2000 йилда имзоланган Абадий дўстлик тўғрисидаги шартномада икки томонлама муносабатларнинг асосий тамойиллари акс этган.

Ахамиятли томони шундаки, икки томонлама алоқалар Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги минтақавий муносабатларда ҳам муҳим омил саналади.

Халқларимизни бир - бири билан янада жипслаштиришга ёрдам берувчи муҳим омиллардан бири, бу туризм соҳаси ҳисобланади. Таъкидлаш жоизки, минг йиллар давомида халқларимизнинг қон-қонига сингиб, уларнинг маънавий оламида ҳамда маданий хаётида шаклланиб, сайкалланиб келган анъаналарни, тарихий-маданий кадриятларни сақлаб қолиш йўлида мустаҳкам пойдевор яратилмоқда. Давлатимиз раҳбари ҳам сайёҳлик йўналишларининг барча қирраларини қамраб олган **«Битта саёҳат – бутун минтақа»** қўшма дастурини рўёбга чиқаришга киришиш бўйича таклиф бергани бежиз эмас.[60]

Халқларимизни бутунжахон эътиборига молик маънавий мерос бирлаштириб туради. Қадимдан икки тилда шох асарлар ва шеърий достонлар, ғазалу-қасидалар битилган, мадрасаю расадхоналар бунёд этилгани ҳам фикримизнинг ёрқин далилидир. Ҳақли равишда ҳар икки давлат умумий маданий мулоқот намуналари фахрланади ва уларни асраб-авайлайди.

Тожикистон билан туризм соҳасида амалга оширилаётган ишлар хсусида тўхталиб ўтишдан аввал мазкур кўҳна ва қадимий маданият ўчоғи ҳақида қисқача тўхталиб ўтсак.

Мамлакатда ўзига хос санъат, шахарсозлик борасидаги юксак махоратни кўришимиз мумкин. Шунингдек, бетакрор меъморий обидалари билан бутун дунёга маълум ва машҳурдир. Тожикистон ҳам Ўзбекистон ҳам мустакилликнинг илк йилларидаги мураккаб иқтисодий ва сиёсий қийинчиликларга қарамай, тарихий-маданий обидаларни асраб-авайлаш, қайта тиклаш ва дунёга намоён этиш аниқ мақсад ва вазифаларини белгилаб олди.

Мутахассисларнинг маълумотларига кўра, ҳозирги кунда, Ўзбекистонда

[60] Ф. Ҳакимов // «Маданий-гуманитар соҳада Марказий Осиё мамлакатлари ҳамкорлигининг янги босқичи» // «Тараққиёт стратегияси» маркази 09.08.2021й. https://strategy.uz/index.php?news=1358

7400дан ортиқ, Тожикистонда эса 3000 дан зиёд қадимий ва маданий тарихий обидалар мавжуд[61].

Ўзбекистон тарихий обидалари сони бўйича дунёда 9-ўринда туради деб маълумот беради Полшанинг “Swiat Elit”журнали[62]. Юртимизда 7400 га яқин маданий мерос объектилари бўлиб, шундан 209 таси тўртта шаҳар-музейларда жойлашган. Хива шаҳридаги Ичан-қалъа, Бухоро ва Шаҳрисабзнинг тарихий маркази, шунингдек, Самарқанд ЮНЕСКОнинг Жаҳон мероси рўйхатига киритилди. Бундан ташқари, республикада сайёҳларни қизиқтириши мумкин бўлган 11 та миллий боғ ва қўриқхоналар, 12 та вақтинчалик қўриқхоналар, 106 та музей ва бошқа кўплаб объектлар мавжуд. Тарихий ёдгорликларнинг 2357 тасини меъморий обидалар, 3843 тасини археологик ёдгорликлар, 998 тасини маҳобатли тарихий иншоотлар ташкил қилади. Юртимиз мустақилликка эришишдан олдин бу меъморий ёдгорликлар, обидаларнинг аксарияти бузилган, таъмир қилинмаган, ярим вайрона ҳолатларда эди. Улкан маданий меросни келажак авлодларимиз учун сақлаб қолиш мақсадида Ўзбекистон раҳбарияти, биринчи навбатда, ана шундай иншоотларни, ёдгорликларни қайта қуриш, таъмирлаш, асл тарихий асосда бунёд этишга алоҳида эътибор қаратди.

Натижада, мустақиллик йиллари Ўзбекистонда мингдан ортиқ тарихий ёдгорликлар қайта қурилиб, таъмирдан чиқарилди. Бу ишлар учун бир неча юз миллиард сўмлик маблағ сарфланди. Тарихий меросимиз тикланди, қадриятларимиз қарор топди. Юртимизда амалга оширилган улуғвор ишлар халқаро миқёсда ҳам тан олинди. Мамлакатимиздаги тўртта қадимий шаҳар — Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз халқаро ЮНЕСКО ташкилоти томонидан Бутун жаҳон моддий маданият намуналарига эга бўлган тарихий шаҳарлар рўйхатига киритилди.

Қайд этиш жоизки, туризм саноатини ривожлантиришни жадаллаштириш 2016 йилнинг охирида бошланган. Туризм соҳасида тадбиркорлар учун солиқ имтиёзлари ва преференциялар, ички ва ташқи бозорларда миллий туризм брендини тарғиб қилиш, виза режимини либераллаштириш ва ўзбек валютасининг конвертация қилинишини очиш борасида қатор қарорлар қабул қилинди.

Туризм соҳасини фаол қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш сиёсатини давом эттиришда, 2019 йил 5 январда Ўзбекистон Президенти томонидан “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони имзоланди[63]. Фармон билан қабул

---

[61] Ўзбекистон — Тожикистон: маданий-гуманитар ҳамкорликнинг асосий йўналишлари // Халқ сўзи 01.06.2021й.

[62]Journal Swiat Elit. "Uzbekistan ranks 9th in the world by the number of historical monuments" 20 sep. 2021 y// «Swiat Elit» журнали: Ўзбекистон тарихий обидалари сони бўйича дунёда 9-ўринда туради// http://old.muslim.uz/index.php/english/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/28765-swiat-elit-zhurnali-zbekiston-tarikhij-obidalari-soni-b-jicha-dunjoda-9-rinda-turadi

[63] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.01.2019 йилдаги ПФ-5611-сон. “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”// https://lex.uz/docs/4143188

қилинган “2019-2025 йиллар давомида туризмни ривожлантириш концепцияси” да туризм соҳасини янада ривожлантириш бўйича ҳар йиллик алоҳида чора-тадбирлар режасини тасдиқлаган ҳолда, унинг асосий йўналишлари ва мақсадли параметрларининг тегишли давр мобайнида бажарилишига қараб босқичма-босқич амалга оширилиши белгилаб қўйилди.

Тожикистонда ҳам кўҳна ва улуғвор ноёб ёдгорликлари, дурдоналари беҳисоб бўлиб, Саразм, Хисор, Кўлоб, Хўжанд, Хўжа Машҳад мадрасаси, Мухаммад Башоро, Хўжа Накшрон, Мир Саид Али Хамадоний, форс тилидаги кадимий битикларни, қоя суратлари, Будда ҳайкаллари, Ямчун қалъаси, Зонга ибодатхонаси, Карон меъморчилик обидаси ва "Амударё хазинаси"нинг аниқланиши каби қатор ноёб манбаларни мисол килиб келтиришимиз мумкин. Ҳозирги кунда Тожикистоннинг икки қадимий иншооти ЮНЕСКО бутунжахон мероси рўйхатига киритилган: маданий аҳамиятга эга бўлган қадимий Саразм шахри (милоддан аввалги IV-II асрлар) ва табиий аҳамиятга эга бўлган "Помир тоғлари" миллий боғи.[64]

Ҳозирги кунда икки давлат ўртасида маданий масалалар бўйича минтақавий Хукуматлараро ташкилот тузиш тўғрисида музокаралар олиб борилмоқда. Ушбу ташкилот зиммасига турли маданий тадбирлар, жумладан, олимларнинг учрашувлари, мумтоз мусиқий кечалар, адабий ва илмий нашрлар ҳамда бошқа турдаги ташаббусларни ташкиллаштириш, назорат қилиш вазифаси юклатилади.

Таъкидлаш жоизки, умумий маданият ва қадриятларга икки халқ ўртасидаги маданий алоқаларни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистоннинг қўшни давлатларга нисбатан амалга ошираётган сиёсати нафақат сиёсий ва иқтисодий секторни ривожлантиришга, балки Марказий Осиё халқлари ўртасидаги маданий алоқаларни чуқурлаштиришга қаратилган[65]. Жумладан Ўзбекистон-Тожикистон муносабатларида ҳам умумий маданий тамаддун маконини янада ривожлантириш халқларимиз ўртасидаги қардошлик муносабатларини мустаҳкамлаш тенденцияси ётади.

Мазкур маданий сиёсат траекторияси халқларимиз орасидаги кенг кўламли маданий-гуманитар алоқаларнинг равнақ топиши давлатлараро муносабатларни мустаҳкам тутиб турилишида маънавий пойдевор вазифасини ўтайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Abdumajidova Hamida. Active foreign policy of Uzbekistan and its impact on integration process in Central Asia. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. Vol.2, No 3. 2021// file:///C:/Users/User/Downloads/414-Article%20Text-1218-1434-10-

[64] Ўзбекистон — Тожикистон: маданий-гуманитар ҳамкорликнинг асосий йўналишлари // Халк сузи 01.06.2021й. // https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-tozhikiston-madanij-gumanitar-hamkorlikning-asosij-jonalishlari

[65] Sayfullaev, D. B. (2020). CONCEPTUAL BASIS OF THE MODERN WEST AND EAST DIPLOMACY STUDY. *Journal of Legal, Ethical and Regulatory Issues, 23(2),* 1-10.

20210517.pdf

2. Journal Swiat Elit. "Uzbekistan ranks 9th in the world by the number of historical monuments" 20 sep. 2021 y// «Swiat Elit» журнали: Ўзбекистон тарихий обидалари сони бўйича дунёда 9-ўринда туради// http://old.muslim.uz/index.php/english/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/28765-swiat-elit-zhurnali-zbekiston-tarikhij-obidalari-soni-b-jicha-dunjoda-9-rinda-turadi

3. Sayfullaev, D. B. (2020). CONCEPTUAL BASIS OF THE MODERN WEST AND EAST DIPLOMACY STUDY. *Journal of Legal, Ethical and Regulatory Issues, 23(2),* 1-10.

4. Тожикистонда ўзбек тили байрами нишонланди.// https://darakchi.uz/uz/77038

5. Ўзбекистон — Тожикистон: маданий-гуманитар ҳамкорликнинг асосий йўналишлари // Халқ сўзи 01.06.2021й.

6. Ўзбекистон — Тожикистон: маданий-гуманитар ҳамкорликнинг асосий йўналишлари // Халк сузи 01.06.2021й. // https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-tozhikiston-madanij-gumanitar-hamkorlikning-asosij-jonalishlari

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик аълоқалари қўмитаси.// https://interkomitet.uz/mita-a-ida/millij-madanij-markazlar/?lang=oz

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.01.2019 йилдаги ПФ-5611-сон. "Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"// https://lex.uz/docs/4143188

9. Ўзбекистонда қанча мактаб бор ва уларда неча нафар ўқувчи таълим олади?// 21.02.2019й.https://m.kun.uz/news/2019/02/21/ozbekistonda

10. Ф. Ҳакимов // «Маданий-гуманитар соҳада Марказий Осиё мамлакатлари ҳамкорлигининг янги босқичи» // «Тараққиёт стратегияси» маркази 09.08.2021й. https://strategy.uz/index.php?news=1358

11. Ш.Э.Ражабова // «Кўп томонлама маданий-гуманитар алоқаларнинг минтақавий ҳамкорликни ривожлантиришдаги ўрни»// ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW // https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

4-SHO‘BA. O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR

MAKTAB O‘QUV DASTURIGA “SHAXMAT” PREDMETINI KIRITILISHI – INNOVATSION YONDASHUV VOSITASI SIFATIDA

J.N. Yakubov,
Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada maktab o‘quv dasturiga “Shaxmat” predmetini kiritilish zaruriyati innovatsion yondashuv vositasi sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, shaxmatning o‘quvchilarda zaruriy shaxsiy fazilalarni shakllanishi va rivojlantirishdagi roli va ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, “Shaxmat” predmeti o‘quv dasturida nimalarga e’tibor berish kerakligi bayon etilgan.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость внедрения предмета «Шахматы» в школьную программу как средства инновационного подхода, а также показаны роль и значение шахмат в формировании и развитии необходимых личностных качеств у учащихся. Также, разъясняются аспекты на которые следует обратить внимание в учебной программе предмета «Шахматы».

Abstract. The article reveals the necessity to introduce the subject "Chess" into the school curriculum as a means of an innovative approach, and shows the role and importance of chess in the formation and development of the necessary personal qualities in pupils. It also explains the main aspects that should be paid attention to in the curriculum of the subject "Chess".

O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, kelajak avlodning porloq istiqbolini ta’minlash va farzandlarimizni mustaqil Vatanimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo‘la oladigan komil insonlar qilib tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifalardan biri etib belgilangan. Qo‘yilgan ustuvor vazifalarni bajarish, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshiruchi va yaqin kelajakda tarqqiy etgan mamlakatlar bilan iqtisodiyotning turli sohalarida raqobatlasha oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashga bevosita bog‘liq.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida ijtimoiy, siyosiy, texnologik, davlat-boshqaruv, iqtisodiy va ekologik sohalarda yuz berayotgan global o‘zgarishlar mutaxassislarni tayyorlashda quyidagi fazilatlarni rivojlantirish zarurligini taqazo etmoqda. Jumladan: tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va nostandart yechimlarni topish qobiliyati, kasbiy yo‘lni tanlash qobiliyati, hayot davomida o‘rganishga tayyorligini namoyish etish, vatanparvarlik, ongli fuqarolik pozitsiyasi va hakozolar talab etiladi. Qayd etilgan fazilatlarning barchasi maktab ta’limi tizimida va xususan boshlang‘ich sinflarda shakllanadi. Zaruriy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy poydevori maktablarda o‘qitish mazmuni sifatini oshirishga bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda maktablarda o‘quv jarayonini tashkil

etishni turli innovatsion yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu esa o‘z navbatida maktab o‘quv dasturlari qanday bo‘lishi kerakligi, o‘quvchilar qanday natijalarni ko‘rsatishi kerakligi, maktabda o‘z maqsadlariga erishish uchun qanday sharoitlar yaratilishi kerakligi haqidagi talablarni belgilaydigan yangi ta’lim standartlariga mos innovatsion yondashuvlar va usullarini izlashni keltirib chiqarmoqda. Ushbu innovatsion yondashuvlardan biri maktab o‘quv dasturiga “Shaxmat” predmetini kiritilishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan so‘nggi yillarda xalqimizning salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, intellektual salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan sport turi bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning shaxmat turiga aholini, ayniqsa, yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, shaxmatni yoshlar o‘rtasida keng yoyish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3609-son qarori bilan bugungi kunda 150 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida boshlang‘ich sinflar uchun shaxmat bo‘yicha sinflar ochilib, 12 138 nafar o‘quvchi qamrab olingan va bosqichma–bosqich ta’lim jarayoniga kirib bormoqda [1].

2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4954-sonli qarori qabul qilindi [2]. PQ-4954-sonli qaror bilan “Shaxmatni 2025-yilgacha rivojlantirish Davlat dasturi” qabul qilindi hamda 1 000 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida 2, 3 va 4-sinf o‘quvchilarini “Jismoniy tarbiya fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga o‘qitish hamda ularga metodik yordam ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yildi [2].

Shaxmatning asosiy afzalligi shundaki, o‘yin o‘yinchini kelajak haqida o‘ylashga va maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslardan maksimal darajada foydalanishga o‘rgatadi.

Shaxmat – bu hayotning o‘ziga xos modeli bo‘lib, unda o‘quvchi g‘alaba qozonishga (bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirishga), to‘g‘ri xulosalar chiqarishni o‘rganishga yoki vaqtinchalik murosaga rozi bo‘lishga undaydi. O‘yin maqsadlarga erishish, maqsadga erishish usullarini tashkil etish va rejalashtirishga tizimli, algoritmik munosabatni shakllantiradi, xarakterni, yo‘qotishni qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, maqsadga muvofiqlik ruhini kuchaytiradi, raqibni qadrlash va hurmat qilishni o‘rgatadi [3].

Ko‘pgina yetakchi mutaxassislar maktabda keng qamrovli bilimlarni emas, balki mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan model namunalarni berish kerakligini ta’kidlaydilar. Bir qator ko‘rsatkichlarga ko‘ra, shaxmat o‘yini ideal tushuntirish modelidir.

Shaxmat, birinchi navbatda, o‘yin bo‘lib, u orqali o‘quv materiali yaxshiroq va charchoqsiz o‘zlashtiriladi. Shaxmat bolalarni mantiqiy fikrlashga, diqqatni jamlashga, xotirani, qat’iyatlilikni, topqirlikni, vaqtni aniq hisoblash, natijani taqqoslash va bashorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi, xolislik, mas’uliyat, g‘alaba

qozonish irodasi, qat'iyatlilik kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxmatni o'qitishning samarali yondashuvlari va usullarini aniqlash, shaxmatning didaktik imkoniyatlari, psixologik-pedagogik, falsafiy, madaniy-mantiqiy tadqiqotlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga, uning o'quvchilar shaxsini shakllantirishning shaxsiy va ijodiy rivojlanishini, umuman fikrlashini kyengaytirishga imkon beradi.

Maktab o'quv dasturiga shaxmatning kiritilishi o'quvchilarni majbur qilmasdan bilim olishga bo'lgan doimiy qiziqishni saqlab qolish imkonini beradi. Demak, bunday darslarning asosiy mazmuni o'quvchilarning mustaqil ravishda vaziyatni tahlil qilish, strategik va taktik harakatlar qurish, solishtirish, tasniflash, guruhlash, xulosa chiqarish, qonuniyatlarni aniqlashdagi faolligini oshiradi. Bularning barchasi ularning ijodiy qobiliyatlari va mantiqiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi

Maktabning boshlang'ich sinflarida shaxmat o'ynash bolalarda ko'plab aqliy jarayonlarni va idrok, e'tibor, tasavvur, xotira, fikrlash, irodaviy xatti-harakatlarni boshqarishning boshlang'ich shakllari kabi fazilatlarni yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umumta'lim maktablarida shaxmatni o'rgatishdagi yondashuv sportchilarni tayyorlash uchun chop etilgan shaxmat o'yinini o'rgatishning mavjud uslublaridan sezilarli darajada farq qilishi maqsadga muvofiq. Chunki, sportda shaxmat takomillashtirilishi kerak bo'lgan mustaqil faoliyat sifatida qaraladi, buning uchun turli xil mahorat darajasidagi sportchilar uchun ko'plab usullar va o'quv dasturlari ishlab chiqilgan.

Umumta'lim maktabida shaxmatni o'qitishda asosiy e'tibor aqliy faoliyatning har xil turlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan intellektual rivojlanish vositasi va o'ziga xos sport qarama-qarshiligi sifatida qaralishi, shaxmatni o'rgatish o'quv dasturining asosiy mazmunida o'quvchining rivojlanayotgan motivatsion, intellektual va shaxsiy fazilatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 9-avgustdagi PQ-3609-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-son qarori.

3. Maxmudov A.X., Djurayev R.X., Yakubov J.N., Karimov K.A., Usmonova Z.B. Didakticheskie vozmojnosti shaxmat v razvitie tvorcheskogo мышleniya shkolnikov Izdatelstvo «Nodirabegim» Tashkent 2021. – 128 c.

4. A.X.Maxmudov, J.N. Yakubov O'quvchilarda kompetentlikni shaxmatni o'rgatish orqali rivojlantirish didaktikasi "Maktab va hayot" j. Toshkent.

2019-yil №6. 16 B.
5. J.N. Yakubov Cheksiz aql mashqi – shaxmat: kecha, bugun, ertaga “Maktab va hayot” j. Toshkent. 2022-yil №6. 18 B.

BO‘LAJAK MUSIQA MADANIYATI FANI O‘QITUVCHILARIDA KRIATIVLIKNI TARKIB TOPTIRISH YO‘LLARI

S.M.Asqarova,
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarida kriativlikni tarkib toptirish yo‘llari, kreativlikni rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish zarurligi, kreativlikning rivojlanish bosqichi haqida tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В данной статье даны рекомендации о путях развития криативких способностей у будущих учителей музыкальной культуры, на что обратить внимание в развитии творческих способностей, а также этапы развития криаивностей.

Abstract. In this article, recommendations are given about the ways to develop creativity in future teachers of music culture, what to pay attention to in the development of creativity, and the stage of creativity development.

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta’lim sohasining rivojlanishiga bog‘liq. Ta’lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o‘zining “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” asarida “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur..”[1] deb ta’kidlab o‘tganlar.

Malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimida ixtisoslik o‘quv predmetlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki ixtisoslikka oid kasbiy va shaxsiy kompetentlik (bilim, ko‘nikma va malakalar) asosan ixtisoslik o‘quv predmetlarini o‘rganish jarayonida shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga

xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish borasida chora-tadbirlar belgilab berildi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllanadi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh) dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh) gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.[2] Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi. So‘nggi yillarda etakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Pedagogik kreativlik – musiqa madaniyati fani o‘qituvchisining an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiyhal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati O‘qituvchilar darslarda talabalarning erkin fikr yuritishlarini ta’minlay olishlari kerak. Mana shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi.

Bo‘lajak musiqa madaniayti fani o‘qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

- ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- talabaning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- talabalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

- talabaning qiziqishlariga e'tibor qaratish

Kreativ jihatdan rivojlanishda har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak: kreativlikning rivojlanish davri – ma'lum kreativlik sifatlarining rivojlanish yakuniga etgan qandaydir vaqt birligi. [2]

Kreativlikning rivojlanish bosqichi – muayyan kreativlik sifatlarining

rivojlanganlik darajasi Shunga koʻra ma'lum davr va bosqichlarda pedagoglarda

ham kreativlik sifatlari ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.

Kreativ tafakkurga ega boʻlajak musiqa madaniayti fani oʻqituvchilari:

-boshqa boʻlajak pedagoglarning xayoliga kelmagan gʻoyalarni bildiradi;

-oʻzlarini ifoda etishning oʻziga xos uslubini tanlaydi;

-ba'zan mavzu aloqasi yoʻq yoki gʻayrioddiy savollar beradi;

-echimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi;

-gʻoyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal koʻradi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega boʻlgan yoʻnalishlarini tizimli tarzda oʻrganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion toʻsiqlarni bartaraf etishning samarali yoʻllarini belgilash lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan gʻoyalar, konsepsiyalar hamda ilgʻor pedagogik tajribalar asosida oʻqitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli, faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik koʻnikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot komunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. Toshkent: Oʻzbekiston. – 2017. -104 b.

2. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 81-б.

3. Madaminovich, Fozilov Qaxramon. "Problems of Orchestra Performance in The Practice of Training Smugglers." *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)* 8 (2021): 42-45.

4. Askarova, S. "DEFECTS IN THE VOICE OF PUPILS AND WAYS TO ELIMINATE IT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 418-420.

5. Madaminovich, Fozilov Qaxramon. "History Of The Science Of Music Theory And Modern Innovative Technologies In The Teaching Of Science. " *Journal of Positive School Psychology* (2023): 1042-1050.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони, 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сон “Ёшларни маънавий-аҳлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”, 2020 йил 12 августдаги ПҚ-4805-сон “Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг Давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш масалалари бугунги кунда кимё фанлари ва касбга юналтириш ишларининг долзарб ва кечиктириб бўлмас масала эканлигини англатади.

Республикамизда таълим олувчиларнинг дунёқарашини шакллантиришнинг илмий асослари А.Боботаев, Р.Джураев, М.Мухамеджанова, Ш.Самиева, А.Турашбеков, А.Хатамовлар, кимё фанини ўқитиш методикасини такомиллаштириш бўйича М.Ажиева, Ф.Алимова, Н.Анварова, Л.Зайлобов, Ҳ.Мавлонов, Ш.Мамажонов, Ш.Миркомилов, Х.Омонов, Н.Рахматуллаев, М.С.Шарипов, Э.Эшчанов, О.М.Ёриевлар, ўқувчиларни касбга йўналтириш масалалари Р.Бакиева,

С.Сайитов, О.Сманбаев, А.Хаитовлар томонидан тадқиқ этилган.

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДҲ) мамлакатлари олимларидан Е.Астрейко, С.И.Бекетова, А.Бортник, З.Воинкова, Р.Гайсин, И.Н.Голитсина, А.Жохов, М.Захарян, Ф.Зейналова, Н.В.Колкова, И.Н.Сиземскаялар мактаб ўқувчиларининг илмий дунёқарашини шакллантиришнинг педагогик-психологик асослари, Е.Артемева, В.Й.Вивюрский, А.Грабетский, О.Горбунова, О.Зайтсев, Н.Кузменко, В.Лаврова, В.Лунин, Т.Назарова, О.Рижовалар кимёвий билимларни самарали ўзлаштиришнинг методик жиҳатлари, Р.Абдулгалимов, В.Борисов, С.Борисова, И.Гребенев, Т.Кафаров, Й.Масленникова, В.Романова, Д.Тарасовлар ўқувчиларда касбий дунёқарашни шакллантириш масалаларини ўрганишган.

Хорижлик олимлардан Русселл Бертранд (Буюк Британия), А.Сарлссон (Швеция), К.Роджерс (АҚШ), С.Шлети (АҚШ)лар илмий ва фалсафий дунёқараш, таълим олувчиларда касбийй идентификацияни ривожлантириш масалаларини ёритиб беришган.

Абу Наср Ал-Форобий “Касб-ҳунар икки йўл билан: яъни таълим ва

тарбия йўли билан ҳосил қилинади” [1, 85-б] деб таъкидлаган. Таълимнинг юксалиши малакали касб эгалари тайёрлашнинг, Ватан равнақининг мезонидир, “...Янгича мустақиллик йўли, ўзимизнинг йўлимиз таълим-тарбияда буюк бурилишларни тақозо этиши”, таълим сифати ва усулига қараб билим ҳосил бўлишини инобатга олган ҳолда, жаҳон андозаларига мос, рақобатбардош, юқори савияга эга бўлган мутахассислар тайёрлаш [2,3] вазифасини белгилаб беради. Жамиятимиз ривожининг ҳозирги босқичи таълим жараёнидаги сифат кўрсаткичларини, ўқув жараёнини яхшилаш, ўқув дастурларини янада такомиллаштириш, ўқитишнинг замонавий педагогик технологияларини амалга жорий қилиш, компьютер технологияларидан кенг фойдаланишдан иборат аниқ вазифаларнинг бажаришни тақозо этади. Бу вазифаларни бажаришга муносиб ҳисса қўшиш мақсадида, умумтаълим мактаблари ўқувчиларининг касбий дунёқарашини кимёвий билимлар асосида шакллантиришни ривожлантириш бўйича бир қанча тадқиқот ишлари олиб борилди.

Педагогик адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, таълимда мустақил фикрлаш, дунёқарашни шакллантиришнинг умумий назарий масалалари хорижий мамлакатларда Ҳиэберт, Паул Г [4], Счимел, Жефф; Ҳаес, Жосепҳ; Wиллиамс, Тодд; Жаҳриг, Жессе [5], Лопушенко, Александра Яковлевна[6] каби амалиётчи олимлар томонидан тадқиқ этилган.

Мактаб ўқувчиларини касбга йўналтиришга оид, масалан, Ш.Р.Баратов, У.С.Нумаевлар ўсмирларда касб танлашга йўналтириш тизими ва уни ижтимоий – психологик асослари [7], У.С.Жумаев касб танлашга муносабат тизими тадқиқот ва уни асосий вазифалари[8,9], О.А.Сманбаев томонидан эса, қишлоқ мактаблари ўқувчиларини онгли равишда чорвачилик бўйича касб танлашга тайёрлашнинг педагогик асослари [10], А.Хаитов қишлоқ мактаблари ўқувчиларини политехнологик ва касбий таълим асосида меҳнат фаолиятига тайёрлаш [11] масаласини тадқиқ этганлар.

Умумтаълим мактабларида кимёвий билимлар асосида касбий дунёқарашни шакллантириш жараёни таҳлил қилинганда, ўқувчиларнинг фанларни ўзлаштириши давлат таълим стандартлари асосида олиб борилаётганлиги, дарсларни интерфаол методлар ва ахборот технологиялар ҳамда фанларни интеграциясидан фойдаланиш юқори самара бериши ўқувчиларнинг сўровнома жавоблари орқали ўрганилди. Шу билан бирга ўқувчиларни кимёвий билимлар асосида касбга бўлган қизиқишлари ҳам ўрганилди.

Мактабда янги билимларни ўзлаштириш, малака ва кўникмаларни

такрорлаш, мустаҳкамлаш ва амалда қўллаш, назорат – текшириш дарслари ҳамда аралаш дарсларни олиб бориш жараёнида ўқувчиларда касбий дунёқарашни шакллантириш бугунги кун талабида олиб борилмаётганлиги, дарс берадиган ўқитувчилардан олинган сўровномалар асосида аниқланди.

Умумтаълим мактабларида таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларда касбий дунёқарашни шакллантириш, электив таълим курси, инновацион таълимларни қўллаш, ўқувчиларда касбий политехнологик фикрлаш, касбга


юналтиришнинг интерфаол усуллари кабилар бўйича мавжуд аҳвол аниқланди.

Кимё фанини ўқитиш жараёнида ўқувчиларни касбий йўналтириш мазмуни фан ўқитувчиларида шаклланмаганлигини қўйидаги маълумотлар асосида аниқланди:

1. ўқув жараёнини ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда ташкил этиш даражасининг пастлиги;
2. дарсларда интерфаол методлардан фойдаланилмаётганлиги;
3. дарсларда табиий фанлар интеграциясидан фойдаланиб ўқувчиларга мавзуга доир маълумотларни тўлиқ ёритиб берилмаётганлигини кўрсатди.

Таълим тизимида компьютер технологияларини амалда қўллаш, фанларни ўқитишда компьютер дастурлари, электрон дарслик каби замонавий ўқитиш услубларидан деярли фойдаланилмаслиги аниқланди. Фикримизнинг тасдиғи, ўқувчилар ва ўқитувчилар томонидан бу борада сўровномалар асосида 35 % ижобий ва 65 % салбий мазмундаги жавоблар олинди.(1-расм).

Бизнинг фикримизча, касбий дунёқарашни умумтаълим мактабларида шакллантиришимиз лозим. Касбий дунёқараш - бу шахснинг касбий ривожланишига, ҳаёт давомида ўрганишга тайёрликнинг шаклланишига, ўз-ўзини ташкил қилиш қобилиятига ва меҳнат бозорида рақобатбардошликка таъсир кўрсатадиган махсус билимлар, қиймат йўналишлари, тамойиллари, баҳолари ва эътиқодлари тўпламидир. Касбий дунёқарашни шакллантиришнинг



1-расм. Таълим тизимида замонавий технологиялардан фойдаланиш орқали ўқувчиларда касбий дунёқарашни ривожланганлик натижаси

самарадорлиги эса инсоннинг меҳнат жараёни ва ўзининг муаян касбга мойиллиги, иқтидори, қизиқиши, қобилиятлари ҳақида хабардорлигининг кенглиги ва чуқурлиги билан белгиланади.

Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида кимёвий билимлар асосида касбий дунёқарашни шакллантириш йўналишида ташкил этиладиган

педагогик жараёнларда замонавий педагогик технологияларга асосланган интерактив метод ва воситаларни танлаш, улардан самарали фойдаланиш қўйилган мақсадларга эришишни кафолатлайди [12; 130-137-б].

Касбий дунёқараш ўқувчиларда мактабда ўқиш жараёнида шакллантирилади. Касбий дунёқараш касбга оид нарса ва ҳодисаларни инсон онгида бир яхлит акс эттириш билан бир қаторда, у кишиларнинг касбий тафаккурлаш маданиятини, ички маънавий дунёсини шакллантиради ва бойитади. Шунингдек, ростгуйлик, поклик, инсонпарварлик ва бошқа олижаноб фазилатларни, ахлоқий меёрлар, қадриятларни мужассамлаштиради.

Дунёқараш - бу дунёга ва унинг таркибидаги одамга, одамларнинг ўзларини ва ўзларини ўраб турган воқеликка бўлган муносабати, шунингдек, ушбу қарашлардан келиб чиқадиган эътиқодлари, идеаллари, билиш тамойиллари ва фаолиятидир.

Ўқувчиларни кимёвий билимлар асосида касбга йўналтириш жараёни қуйидаги босқичларда амалга оширилди:

1-босқич: Мақсад – ўқувчиларни кимёвий билимлар асосида муайян касб турларига бўлган муносабатини шакллантириш, унинг инсон ҳаётидаги ва жамиятдаги ролини тушуниш; касбларда кимёвий билимларнинг аҳамияти, кимёни инсон ва жамият ҳаётидаги ролини тушунтириш, меҳнатга бўлган онгли муносабатни шакллантириш каби амалий иштирокга асосланган таълим фаолиятига қизиқишни ривожлантириш.

2-босқич: Мақсад - ўқувчиларнинг кимёвий билим, кўникма ва малакаларини ривожлантириш ва кимёвий билимлар асосида касбий фаолиятга қизиқишини ривожлантириш, ўз қобилияти ва имкониятларидан келиб чиққан ҳолда мустақил касб танлаш кўникмасини шакллантириш.

3- босқич: Мақсад – Касбга йўналтирилган кимёвий билимлар асосида ўқув профилини танлаш бўйича қарор қабул даражасини аниқлаш ва шакллантириш, индивидуал маслаҳат, қизиқиш ва қобилиятларга, қадриятларга мос келадиган таълим жараёнини ташкил этиш.

4-босқич: Мақсад - ўқувчиларда кимёвий билимлар асосида касбий компетенцияларни шакллантириш, ўқувчиларда танлаган касблари бўйича истиқбол режасини тузиш, ўқувчиларнинг таълим йўналишини онгли равишда танлашини шакллантириш.

Ўқувчиларнинг ота-оналари билан ишлаш касбий йўналтиришнинг барча босқичларида олиб борилади. Ўқувчиларда кимёвий билимлар асосида касбий дунёқарашни шакллантириш моделига биноан ўқув

жараёнини ташкил этишда бир-бирини тўлдириши лозим бўлган қуйидаги:

а) Кимёвий билим ва кўникмаларнинг (касбий политехнологик фикрлаш кўникмасининг компонентлари сифатидаги) шаклланганлик даражаси ва касбий политехнологик фикрлаш кўникмасининг сифат тавсифларини (тезкорлик, интегративлик, ижод даражаси) баҳолашга имкон берувчи аниқ ўқув фани доирасида махсус ишлаб чиқилган диагностик (ташхисловчи)

топшириқлар;

б) психологияда ишлаб чиқилган касбий политехнологик фикрлаш кўникмаси, политехнологик интеллект, шахс дунёқарашини аниқлаш тестлари;

в) ўқувчиларнинг мустақил иш топшириқларини (Тадқиқот ишида кимёвий билимлар бўйича олинган) бажаришда касбий политехнологик фикрлаш кўникмаси даражасини баҳолашнинг махсус ишлаб чиқилган мезонлари;

г) ўқувчиларнинг (Кимё фани) амалий топшириқлар, лаборатория ишларини бажаришда намоён бўлган касбий политехнологик фикрлаш кўникмасини баҳолашнинг махсус ишлаб чиқилган мезонлари каби услублардан фойдаланилди.

Электив ўқув курси, электрон контент, виртуал лаборатория ишларини ўтказиш, тўгарак фаолияти ва дарс машғулотларида кимёвий билимларнинг назарий ва услубий ёндошувлари ва тамойиллари амалга оширилди, умумий ўрта таълим даражасида кимёвий таълим мазмунини услубий асос тизим-таркибий, интегратив, компетенцияга асосланган, маданий ва шахсий фаолият ёндошувлар асосида ўқув жараёни ташкил этилди.

Юқорида қайд этилганларни эътиборга олиб биз машғулотда қўйилган ўқув мақсадга эришиш ва ўқувчиларда политехнологик фикрлаш кўникмасининг барча компонентларини шакллантиришга имкон берувчи топшириқлар тизимини ишлаб чикдик. Ўқувчиларда кимё фанини ўқитишда политехнологик фикрлаш кўникмасини шакллантиришга йўналтирилган ўргатувчи-ташхисловчи топшириқлар тизимини фанларда ўқув жараёнига жорий этиш бўйича тажриба - синов ишлари 2017 - 2020 йиллар давомида олиб борилди. Биз тажриба-синов ишларини ўқувчиларда касбий дунёқарашни шакллантириш методикасини ривожлантириш бўйича ташкил этилган амалий фаолият учун объект (тажриба майдони) сифатида сифатида Жиззах вилояти Ғаллорол тумани 9,10-сонли умумтаълим мактабларида; Тошкент вилояти Олмалиқ шаҳри 14,15-сонли умумтаълим мактабларида; Навоий вилояти Навоий шаҳри 6,14,16-сонли умумтаълим мактабларида; Самарқанд вилояти Пахтачи тумани 13,14,15-сонли умумтаълим мактабларини танладик.

Мазкур таълим муассасаларида таҳсил олаётган ўқувчиларнинг 448 нафари тажриба-синов ишларига жалб этилди ва улар мақсадли равишда 224 нафар тажриба ва 224 нафар назорат гуруҳларига ажратилди. Ўтказилган тажриба - синов ишларида (ҳар ўқув йилида) умутаълим мактабларидан ўртача

448 нафардан ўқувчилар иштирок этишди. (1-жадвал.)

Педагогик тажрибадан олинган натижаларнинг ишончлилигини аниқлаш, таклиф қилинган усулнинг қанчалик самаралилигини кўрсатиш мақсадида (Х-Пирсон критерийи усули қўлланилди [13; 96-106-б].

1-жадвал.

Тажриба-синов ишларида иштирок этган ўқувчилар


	Таълим муассасалари	2017-2018 ўқув йили		2018-2019 ўқув йили		2019-2020 ўқув йили	
		Тажриба	Назорат	Тажриба	Назорат	Тажриба	Назорат
.	Жиззах вилояти Ғаллорол тумани 9,10-сонли умумтаълим мактаблари	8	8	7	8	9	9
.	Тошкент вилояти Олмалиқ шаҳри 14,15-сонли умумтаълим мактаблари	1	1	0	9	9	9
.	Самарқанд вилояти Пахтачи тумани 13,14,15-сонли умумтаълим мактаблари	6	6	6	6	6	6
.	Навоий вилояти Навоий шаҳри 6,14,16-сонли умумтаълим мактаблари	9	9	9	9	0	0
	Умумий	**24**	**24**	**22**	**22**	**24**	**24**

Ўтказилган тажриба-синов тажриба-синов ишлари (ўқувчиларда кимёвий билимлар асосида касбий дунёқарашни шакллантириш соҳасида ташкил этилган амалий фаолият учун объект (тажриба майдони) сифатида Жиззах вилояти Ғаллорол тумани 9,10-сонли; Тошкент вилояти Олмалиқ шаҳри 14,15-сонли; Навоий вилояти Навоий шаҳри 6,14,16-сонли; Самарқанд вилояти Пахтачи тумани 13,14,15-сонли умумтаълим мактабларида таҳсил олаётган ўқувчилардан ҳар ўқув йилида 448 нафардан тажриба-синов ишларида қатнашди) натижалари қуйидаги жадвалларда келтирилган.

Сўзсиз, фанлар бўйича ўзлаштириш пастлигининг асосий сабабларидан бири бу ўқувчиларда кимё фанини ўқитиш жараёнида политехнологик фикрлаш кўникмаси шаклланиши паст даражалигидадир. Бу эса, улар томонидан политехнологик масалаларни ечиш жараёни тавсифидан кўриниб турибди. Аммо, бундан ташқари бошқа баъзи бир сабаблар ҳам бўлиши мумкин. Уларни аниқлаш мақсадида, тажриба синов иши жараёнида ўқувчиларнинг эрудициясини (билимдонлигини), фанлар бўйича базавий билимларини, топқирликда политехнологик масалаларни ечиш бўйича қобилиятлиги, образлар билан фикрлай олишини аниқлаш учун тест синови, кузатиш, сўров, суҳбат, политехнологик диктант ва бошқа шу каби методлардан фойдаланилди. Уларда қуйидагилар етарли эмасликларни аниқлашга имкон берди: политехнологик фикрлаш, касбий дунёқараш пастлиги; политехнологик фикрлаш кўникмаси шаклланиши пастлиги.

Олинган натижаларни таҳлил этиш асосида биз шундай хулосага келдикки, кимё фанини ўқитишда политехнологик фикрлаш кўникмаси

шаклланишининг паст даражадалиги уларда политехнологик билим, кўникма ва малакалар етарли даражада шаклланмаганлигининг асосий муҳим жиддий сабаблардан бири ҳисобланади.



2-расм. Педагогик тажрибанинг якуний босқич таҳлили диаграммаси

Бундан кўринадики, танланган синфларнинг тажриба гуруҳида олинган натижалар самарали эканлиги келиб чиқади, шунингдек юқоридаги жадваллар қиймати ва диаграмманинг кўриниши, математик ҳисоблашлар натижалари олиб борилган тадқиқот натижалари тажриба гуруҳларида самарали эканлигини кўрсатади.

Таклиф ва хулосалар. Назарий ва эмпирик тадқиқот жараёнида унинг мақсадлари ва вазифаларига мувофиқ қуйидаги хулосалар ва натижалар олинди:

1. Олиб борилган изланишлар ва манбалар таҳлиллари, умумтаълим мактаблари ўқувчиларида ўқитишни такомиллаштиришга оид тадқиқотларда умумтаълим мактаблари ўқувчиларини келгуси ҳаётга тайёрлаш ва уларга ўз билим ва кўникмаларидан амалиётда фойдаланишни ўргатиш, фанларни ўқитиш жараёнида касбга йўналтириш (Кимё фани мисолида) орқали ўқувчиларда касбий дунёқарашни шакллантиришни ривожлантириш масаласи педагогик муаммо сифатида етарли даражада ўрганилмаганлигини кўрсатди.

4. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида кимёвий билимлар асосида

касбий дунёқарашни шакллантириш йўналишида ташкил этиладиган педагогик жараёнларда замонавий педагогик технологияларга асосланган интерактив метод ва воситаларни танлаш, улардан самарали фойдаланиш қўйилган мақсадларга эришишни кафолатлайди. Ишлаб чиқилган ўқув қўлланма, ўқув услубий қўлланма, монография, моделлар ва технологик хариталар белгиланган мақсад ва вазифалар асосида тайёрланганлиги, кўзланган натижаларга эришишни таъминловчи ўзаро боғлиқ бўлган компонентлардан иборат тизим сифатида касбий дунёқарашни шакллантириш ва ривожлантиришга хизмат қилади.

5. Математик-статистик ҳисоблашлар педагогик тажриба-синов ишларида ўқувчиларда кимёвий билимларни ўзлаштириш асосида касбий дунёқарашни шакллантириш даражаси самарадорликка эришишга ёрдам бериши борасидаги фикрнинг ҳаққонийлигини тасдиқлаган.

Ўтказилган тадқиқот натижаларига асосланиб, умумтаълим мактаблари ўқувчиларида касбга йўналтириб ўқитишнинг инновацион технологияларини қўллаш, касбга политехнологик фикрлаш кўникмасини шакллантириш бўйича қуйидаги методик тавсиялар ишлаб чиқилди:

- Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида касбий дунёқарашни шакллантириш, уларни касбга йўналтириш жараёнида, фанлар бўйича инвариант таълим методларни қўллаган ҳолда ўқув машғулотларини ташкил этиш;
- Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида касбий дунёқарашни шакллантириш учун ўқитиш жараёнида ўқувчиларда политехнологик фикрлаш кўникмасини шакллантиришнинг “Устоз-шогирд” тизими асосларини яратиш.
- Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида касбий дунёқарашни шакллантиришда политехнологик фикрлаш кўникмасини ҳосил қилишга оид ўқув-методик адабиётлар, қўлланмалар ва электрон таълим ресурсларини яратиш ҳамда амалда қўллаш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абу Наср Форобий Фозил одамлар шаҳри. –Т.: Халқ мероси, 1999. - 224 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги “Ёшларни маънавий-аҳлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3907-сонли қарори. www.lex.uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг **2020 йил 12 августдаги** “Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4805-сонли қарори. www.lex.uz.

4. Эрлих Г.В. Какая химия должна изучаться в современной школе? // В сб.: Естественнонаучное образование: тенденции развития в России и в мире / Под ред. В.В. Лунина и Н.Е. Кузьменко. – М.: Издательство МГУ, 2011.

5. Hiebert, Paul G. Transforming Worldviews: an anthropological understanding of how people change. Grand Rapids, Mich.: Baker Academic, 2008

6. Lopushenko, Alexandra Yakovlevna, the senior lieutenant of militia, the graduated in a military academy of III course of VII faculty of the St.-Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia. Russia, 198206, St.-Petersburg, Pilyutov-street

7. Боботаев Аскат Пардаевич Формирования научно-материалистического мировозрения личности в общеобразовательной школе/ автореф. дис. ... канд. пед. наук /А.П.Боботоев – Т., 1991. – 26 с.

8. Жумаев У.С.. Касб танлашга муносабат тизими тадқиқот ва уни асосий вазифалари. // Халқ таълими, 2004 й., 2-сон, 43-45 б.
9. Жумаев У.С.. Мотив ва мотивация муаммосининг ўрганилиши хусусида. //. Педагогик махорат, 2002 й., 4 – сон, 33-34-б.
10. Манецкая С.В. Формирование профессионального мировоззрения будущих офицеров запаса в образовательном процессе гражданского морского вуза: дис. … канд. пед. наук / С.В. Манецкая. Великий Новгород, 2012. -258 с.
11. Хаитов Алтыбай Трудовая подготовка сельских школьников на основы взаимосвязи общего политехнического и профессионального образования// пед. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Т.: 1991. - 22 б.
12. Толипов Ў.Қ., Усманбаева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. - Т.: Фан, 2006. – 261 б.
13. Грабарь М.И. Краснянская К.А. Применение математической статистики в педагогических исследованиях. Непараметрические методы. М., «Педагогика», 1977. – С. 96-106.

ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТИНГЛОВЧИЛАРНИНГ КРЕАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Мўминов Мухаммадбобур Амирқул ўғли,
мустақил тадқиқотчи, Чирчиқ давлат педагогика университети

Аннотация. Ҳарбий таълим муассасаларида тингловчиларнинг креатив компетентлигини ривожлантириш ва рўёбга чиқариш учун шарт-шароит яратиш муаммосини ҳал қилишда тингловчиларнинг креатив компетентлигини ривожлантириш муассосини ҳал қилиш зарур.

Мақолада тингловчиларнинг креатив компетентлигининг муҳим таркибий қисмлари, хусусиятлари, амалга ошириш шартлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар. креатив компетентлик, билим, фаолият, кўникма, қизиқиш, мойиллик, қизиқувчанлик, қобилият.

XXI-асрда тингловчилар креатив компетентлигини ривожлантириш зарурати таълимда юзага келган муаммолар билан боғлиқ, улар мактабни тугатгандан сўнг ўзларининг шахсий қобилиятларини амалга оширишлари, креатив қобилиятларини шакллантиришнинг янги усулларини излашлари, олинган билим, кўникма ва малакаларининг тўлиқлиги ва илмийлик характери билан улкан ахборот оқимида ҳаракат қилишлари ҳамда жамиятда ўз ўрнини аниқлашлари зарур.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги

“Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармонида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида мустақил таълим олиш, танқидий ва креатив фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув

жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш, бу борада ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларни кенг жорий этиш зарур.

Ҳарбий таълим муассасаларида тингловчиларнинг креатив компетентлигини ривожлантириш ва рўёбга чиқариш учун шарт-шароит яратиш муаммосини ҳал қилишда тингловчиларнинг креатив компетентлигини ривожлантириш муассосини ҳал қилиш зарур. Тингловчиларнинг креатив компетентлиги унинг ижоди учун зарур бўлган билим, кўникма, малака ва шахсий фазилатлар тизимини ўз ичига олади. Креатив компетентлик тингловчилар фаолиятининг ҳар қандай коммуникатив, ўқув, ташкилий турида мавжуд бўлиши мумкин.

Тингловчиларнинг креатив компетентлигининг муҳим таркибий қисми бу уларнинг ўз билим ва креатив фаолияти асосидаги билим ва кўникмалардир. Ижодкор шахсга мураккаб ва ноаниқ нарсаларга қизиқиш, савол беришга мойиллик, ўз-ўзидан қизиқувчанлик, узоқ вақт давомида бир хил муаммони ҳал қилиш қобилияти каби хусусиятлар хосдир.

Тингловчиларнинг креатив компетентлигини шакллантиришдан мақсад уларда инсонпарварлик дунёқарашини, шахслараро ва маданиятлараро мулоқот қобилиятини шакллантириш, таълим мазмунини ўзгартириш, таълим ва тарбия жараёнларини ташкил этиш орқали реал шароитларига мақсадли мослашиш; ахборот-коммуникация, муаммоли таълим, лойиҳа фаолияти, ривожлантирувчи ва кўп босқичли таълим технология элементларини жорий этиш имкониятидан фойдаланишдан иборат. Бу ўзгартиришлар ғояси ҳарбий таълим муассасалари тингловчиларида ҳаётий, хотира, тасвир, таҳлил қилиш, тасвирлаш кўникмаларини эгаллашга ёрдам беришдан иборат бўлиб, креатив компетентлигини шакллантиришни англатади. Буни амалга ошириш учун қуйидаги шартлар зарур:

• ўқитувчи ва тингловчиларнинг ота-оналари томонидан инсонпарварлик позициясини қабул қилиш;

• тенг ҳуқуқли шерикликни тан олиш (ўқитувчи - тингловчи);

• ўқитувчининг ўз ташаббуси;

• тингловчини қадрли шахс сифатида ўрганиш;

• жамият ва атроф-муҳит билан юқори алоқа даражаси;

• ўзлаштирилган билим ва кўникмалар – тингловчиларнинг билиш ва креатив фаолиятининг асоси;

• ўқитишда тингловчининг интеллектуал ривожланиш даражасини,

шунингдек, унинг ушбу фан бўйича тайёргарлиги, қобилияти ва мойиллигини

ҳисобга олиш ва фарқлашга асосланган фаолиятли ёндашуви;

• турли даражадаги мураккабликдаги вазифалардан фойдаланиш;

• ахборот-коммуникация, муаммоли таълим, лойиҳалаш фаолияти, ривожлантирувчи ва кўп босқичли таълим каби инновацион технологиялардан фойдаланиш;

• ўқув жараёнида тингловчининг мустақиллиги ва ўз фаолияти натижалари учун жавобгарлигини ривожлантиришга йўналтириш;

• фан йўналишлари билан интеграция;

• асосий ва қўшимча таълим интеграцияси.

Ҳарбий таълим муассасаларида тингловчиларнинг креатив компетентлигини шакллантириш бўйича қуйидаги асосий таркибий қисмларни кўрсатиш мумкин:

1. Тингловчиларнинг креатив компетентлигининг шаклланиш даражаси, уларнинг малака ва кўникмаларини диагностика қилиш ва мониторинг.

2. Ҳар бир тингловчининг шахсий ютуқларини сифат жиҳатидан ўсиши ва индивидуал таълим траекторияси бўйича тингловчиларнинг қобилиятларини ривожлантириш истиқболларини ҳисобга олган ҳолда креатив компетентлигини мақсадли даражада узоқ муддатли режалаштириш.

3. Инновацион таълим технологиялари, усуллари, методлари, шаклларидан фойдаланиш орқали тингловчиларнинг креатив компетентлигини шакллантириш учун психологик-педагогик ва ташкилий-технологик шарт-шароитларни яратиш; ўқув жараёнини синф ва дарсдан ташқари ишлар тизими орқали лойиҳалаш.

4. Шахснинг ижодкорлик фазилатларини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган ўз педагогик фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш ва самарадорлигини таҳлил қилиш, акс эттириш асосида кейинги тарбиявий ишларни тузатиш ва режалаштириш.

Яратилган шарт-шароитлар натижасида тингловчиларда креатив компетентлик сифатлари шаклланади:

- ижодкорлик, муаммоли вазиятларни ҳал қилиш қобилияти, зукколик;
- онгнинг мослашувчанлиги ва танқидийлиги, сезги, ўзига хослик ва ўзига ишонч;
- ностандарт вазифаларни қўйиш ва ҳал қилиш қобилияти, таҳлил қилиш, синтез қилиш ва бирлаштириш қобилияти, тажрибани узатиш қобилияти, олдиндан кўриш қобилияти ва бошқалар;
- ҳиссий-иродавий фазилатлар: маънавият, креатив вазиятларда ҳиссий юксалиш, ассоциативлик, тасаввур, фантазия, хаёлпарастлик, янгилик ҳисси, қарама-қаршиликларга сезгирлик, эмоционал жавоб бериш қобилияти (эмпатия);
- фикрлар, ҳис-туйғулар ва ҳаракатларнинг бўшлиги, идрок, нотаниш нарсада танишни кўриш, стереотипларни енгиш қобилияти;
- гипотезаларни шакллантириш, фаразлар ва уларни исботлаш қобилияти;
- юқори даражадаги ўз-ўзини ташкил қилиш, танқидийлик, фикрлаш.

Тингловчи шахсини шакллантириш жараёнида креатив компетентлигини ривожлантириш икки босқичидан ўтади:

- “бошланғич” ижодкорлик - бу инсон ҳаётининг маълум бир соҳасига ихтисослашган бўлмаган умумий креатив қобилият, у ўзини креатив

катталарга тақлид қилиш шаклида намоён қилади.

- “ихтисослашган” ижодкорлик – ижодкорлик қобилияти маълум фаолият соҳаси билан боғлиқ.

Ижодкорликнинг шаклланишини кўрсатадиган натижа асл ижодкорликка ўтишдир. Ҳар қандай ижодкорлик атроф-муҳит омиллари билан белгиланади. Яхши хотира ва юқори даражадаги интеллект келажакда ижодкорлик мавжудлигининг кўрсаткичидир, лекин айни пайтда айтиш мумкинки: “Инсон ижодкор ва зиёли бўлиб туғилмайди”. Ижодкорлик ҳам кичик ва катта бўлиши мумкин: кичик - ностандартнинг намоён бўлиши ва кундалик вазиятларда ўзига хосликнинг намоён бўлиши. Катта ижодкорлик маданият ва умуман жамиятга сезиларли таъсир кўрсатади. Таълим муассасасида тингловчи ижодкорликнинг биринчи босқичидан ўтади ва кичик ижодкорликни ривожлантиради. Ҳарбий таълим муассасаларида тингловчининг креатив фаолиятини ташкил этишга тизимли ёндашиш катта ижодкорликка ўтиш учун шарт-шароит яратади.

Ҳарбий таълим муассасаларида тингловчиларининг таълим ютуқларини тизимли кузатиш, қиёсий таҳлил қилиш ўқув ва ривожланиш жараёнининг самарадорлигини кузатиш, тингловчилар билимидаги камчиликларни бартараф этиш ва шахсий маданиятини ривожлантириш бўйича кейинги чора-тадбирларни ўз вақтида аниқлаш имконини беради. Бу тингловчиларнинг таълим ютуқларининг ижобий натижаларида намоён бўлади.

Тингловчиларнинг креатив компетентлигини шакллантириш натижаси:

• тингловчиларда ижодкорлик, кузатувчанлик, ижодкорлик учун зарур бўлган билим, кўникма, малака ва шахсий фазилатлар тизими мавжудлиги;

• фикрлаш фаоллиги, креатив фаолиятда ташаббускорлик;

• тингловчиларнинг билимларни пассив эгаллашдан уларни янги шароитларда фаол, креатив қўллашга, турли муаммоларни янада чуқуррок ва онглирок ҳал қилишга ўтиш;

• креатив компонент коммуникатив, таълим фаолиятида мавжуд бўлиб, мустақил фаолиятнинг турли шаклларида фаол намоён бўлади.

Дарсда замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш тингловчиларга ўқув тадқиқотлари ва лойиҳаларини амалга оширишда бирламчи тажриба орттириш, ўз мустақил ишларининг натижаларини кейинчалик дарсда қўлланиладиган тақдим этиш қобилиятини шакллантириш имкониятини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. ПФ-5847. 2019 йил 8 октябрь.

2. Кухарев Н.В. На пути к профессиональному совершенству: кн. для учителя. - М. :Просвещение, 1990.-159 с.

3. Нишоналиев У.Н. Педагогик технология: истиқбол ва муаммолар // Таълимда янги педагогик технологиялар: муаммолар, ечимлар. Илмий-амалий конференция материаллари. Т., 1999. 11-20 б.

4. Разумовский В.Г. Ўқувчиларнинг креатив қобилиятларини ўстириш. -Т.: “Ўқитувчи”, 1978. 285 б.

QIROAT QOIDALARI

Shavkat Bazarov,
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish millliy markazi ARM bosh mutaxassisi

Moʻjiza emasdir falakda oftob,
Moʻjiza aslida beminnat kitob.
Jaloliddin Rumiy

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitobxonlarga kitob oʻqish boʻyicha tavsiya va qoidalar keltirilgan boʻlib, kitob oʻqish jarayonida kitobxon muhim jumlalar va iboralarning ostiga chizib borishi, kitobdagi qiziqarli soʻz va maʼlumotlarni kartochkaga yozib borishi, Vatanimiz maʼnaviy hayotida kitoblar juda katta roʻl oʻynashi, shu oʻrinda kitobxon yoshlarimizni kitob oʻqish qoidalari bilan tanishtiradi.

Kitobni qanday oʻqish kerak? Shu ham muammomi, deb oʻylaysiz. Ammo kitob mutolaa qilishning ham oʻziga yarasha qoidalari bor. Turkiyalik olim Mahmud Aʼsad Joʻshon oʻzining “Oʻquv va yozuv malakasi” asarida kitob oʻqishning foydali qoidalari toʻgʻrisida toʻxtalib oʻtadi. Biz oʻquvchilarni ushbu kitob oʻqish qoidalari bilan tanishtirib oʻtishni lozim topdik.

Biror kitob oʻqilar ekan, undan yaxshiroq foydalanishning baʼzi tavsiya va qoidalari mavjud ular quyidagilar:

Kitobni lanj holatda va miya charchaganda oʻqimaslik kerak. Oʻqish uchun qulay vaqtni tanlash lozim. Bu vaqt baʼzilar uchun ertalab, baʼzilar uchun esa kechki payt boʻlishi mumkin, ammo toʻyimli ovqatdan soʻng kitob oʻqish tavsiya etilmaydi. Miya mavzu bilan band boʻlishi zarur. Kitob oʻqiyotib, yarim soatdan keyin biroz dam olish maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa muhim asarlar oʻqilayotganda, qoʻlda albatda qalam boʻlishi kerak.

Chunki muhim jumla va iboralarning ostiga chizib boriladi. Bu narsa oʻqish va izlanishlarda foydali boʻlib, muhim fikrlar va yozuv tartibining esdan chiqmasligiga ham yordam beradi. Sahifalar chekkasiga kichik qaydlarni yozib borish maqsadga muvofiq. Kitobning shu qismi haqidagi fikrlarimiz, eʼtirozlarimiz, qarashlarimiz va bahomiz shunday qayd qilib borilsa, bu kitobdan keyingi foydalanishlarda yoʻl-yoʻriq boʻladi.

Asarning boshlanishi yoki oxiridagi boʻsh bir sahifaga oʻz shaxsiy mulohazalarimizni ilova qilsak, oʻzimiz uchun muhim boʻlgan oʻrinlar, shaxsiy qiziqish uygʻotgan qismlar keyinchalik qidirganimizda oson topiladi.

Maʼlum bir joyda kitobning mazmuni va oʻzimizning u davrdagi bahomizni

yozishimiz, asarning mazmunini unitib, takror-takror qoʻlga olishimizni oldini oladi. Kitobdagi qiziqarli soʻz va maʼlumotlarni kartochkaga yozsa ham boʻladi. Shu tarzda vaqti bilan shaxsiy kichik arxivingizni vujudga keltirasiz. Bu ayniqsa, ilmiy ish qiluvchilarga tavsiya etiladi. Qayd etilgan soʻz, sheʼr va hokazolar

yodlash uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

Kitobda uchragan har bir yangi so‘zning ma’nosini o‘rganish zarurati tug‘ulsa lug‘atga qarash kerak. Shundagina so‘z boyligimiz ortib boradi. Bundan tashqari, so‘zning talaffuzi, imlosi va jumla ichida qo‘llanilish shakliga ham diqqat qilish lozim. Jadval, grafik, rasm va xaritalar tashlab ketilmasligi zarur. Chunki ular xotirada yaxshiroq qoladi.

O‘qilgan asar haqida yakuniy hukm chiqarilishi kerak, ya’ni yozuvchi betarafmi, mavzuni chuqur o‘rganganmi, manbalari ishonchlimi, asarning ahamiyati bormi, kabi savollar ustida fikrlash lozim.

So‘zlashish qobiliyatini rivojlantirish (o‘stirish) uchun adabiy asarlarni baland ovozda, talaffuz, urg‘u va ma’noga ahamiyat bergan holda dona-dona qilib o‘qish tavsiya qilinadiki, bunga ifodali o‘qish so‘zlash deyiladi. U murojaat, teatr va radio so‘zlashuvlari uchun juda muhimdir.

Kitobdan o‘rganilgan xususiyatlarni:

a) avvalgi bilimlar bilan bog‘lagan holda;

b) o‘zimizga o‘rnak misollar topib;

c) bular haqida do‘stlarimiz bilan bahs-munozara yuritib;

d) ularni takrorlab ongimizda chuqur singdirishimiz zarur. Agar mumkin bo‘lsa, ulardan ba’zilarini amaliyotga tadbiq etish va qo‘llash kerak.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, aniq maqsadni ko‘zlagan g‘oya bilan qurollangan jamiyat o‘z maqsadiga yeta oladi, o‘zini buyuk xalq sifatida namoyon qila oladi. Insonning kuch-qudrati uning bilimi, aql zakovati, tafakkur darajasi bilan belgilangani kabi, har bir xalqning kuch-qudrati ma’naviy salohiyati, milliy mafkurasi va olg‘a yetaklaydigan g‘oyalar tizimida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, azaldan Vatanimiz ma’naviy hayotida kitoblar juda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu o‘rinda kitobxonlarimiz, xususan yoshlarimizning kitob o‘qish bilan bog‘liq qoidalarini bilib olishlari foydadan xoli bo‘lmaydi, degan ezgu umiddamiz.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmud A’sad Jo‘shon **“**O‘quv va yozuv malakasi**”** asari;
2. “Universitet ovozi” gazetasi, 2019 yil iyul, № 7;
3. https:\\www.onlinedu.uz;
4. https:\\ziyoNet.uz|ru.

XORIJIY MAMLAKATLARDA TARIX FANINI O‘QITISHGA DOIR KONSEPTUAL VA USLUBIY YONDASHUVLAR

Omonjon Begiyev, Shoxrux Xoliqulov

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi; Ichki ishlar akademiyasi litsey o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarda tarix fanini o‘qitishda doir konseptual va uslubiy yondashuvlar masalalari yoritib beriladi.

Dunyoning turli mamlakatlari maktablarida tarix fanini o‘qitilishi masalasini tahlil qiladigan bo‘lsak, turlicha metodologik yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. Quyidagi davlatlar misolida buni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Rossiya maktablarida tarix darslari 5-sinfdan o‘qitilish boshlanib, quyidagi yo‘nalishda olib boriladi:

- 6-sinflarda qadimgi dunyo tarixiga oid bilimlar beriladi;
- 6-sinflarda o‘rta asrlar tarixiga oid bilimlar beriladi;
- 7-8 sinflarda yangi davr tarixiga oid bilimlar beriladi;
- 9 sinfda 1-jahon urushidan to hozirgi kungacha bo‘lgan davr tarixi haqida ta’lim beriladi;
- Yuqori sinflarda 5 sinfdan 9 sinfgacha o‘tilgan tarix mavzulari umumiy takrorlanadi.

Rossiya maktablarning tarix darslarida vatan tarixini o‘qitishga alohida e’tibor beriladi va buning uchun umumiy o‘quv mavzularining 70 foizi ajratilgan. Rossiyada tarix fanini o‘qitishda asosiy e’tiborli jihat o‘quvchilarni vatanparvarlik tuyg‘usida tarbiyalashga qaratilganligidir. Masalan, Ikkinchi jahon urushining 1941-1945-yillar davri tarixiga alohida e’tibor qaratilib, fashizmga qarshi kurashlarda ko‘rsatilgan jasoratlar, Rossiyaning qo‘shgan hissasiga ko‘proq urg‘u beriladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari maktablarida ham tarix fanini o‘qitishda o‘ziga xos yondoshuv ko‘zga tashlanadi. Vatan tarixini o‘qitishda AQShning mustaqillikka erishishi, bunga hissa qo‘shgan tarixiy shaxslarning jasoratlariga urg‘u beriladi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarida AQShning g‘alabaga qo‘shgan hissasiga alohida urg‘u beriladi. Vatan tarixi darslarida AQShdagi kolloniyal davrlar, oltin izlash vasvasasi, hindu qabilariga nisbatan qilingan tajovukorana siyosatlar tarixiga ehtiyotkorona yondoshiladi yoki qariyb gapirilmaydi. Jahon tarixini o‘qitishda umumiy tavsilotlarga tayangan holda mamlakatlarning qadimgi va o‘rta asrlar tarix ma’lumotlar beriladi. Masalan, Afrika haqida gap ketganda asosan piramidalar tarixi, Yevropa davlatlari tarixi, Markaziy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining Britaniya mustamlakachiligi davrigacha bo‘lgan tarixi haqida ma’lumotlar beriladi. Tarixiy mavzulardan ko‘proq AQShning mustaqillikka erishishi, Prezident boshqaruvining joriy etilishi va o‘tkazilgan ilk saylovlar darslarning diqqat markazida bo‘ladi.

Yevropa davlatlarida ham tarixni o‘qitishda o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Buyuk Britaniyada tarixni o‘qitish ham sub’ektivlikdan xolis emasdir. Kembrij universiteti professori Richard Evans ta’kidlaganidek –Agar biz yoshlarga fuqorolik tuyg‘usini shakllantirishni xohlasak, ularni vatanparvarlik afsonalari bilan boyitishimiz kerak deb yozadi. Buyuk Britaniya maktablari o‘quv dasturlarida mamlakat tarixining g‘alabali oq sahifalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Britaniyada o‘tkazilgan so‘rovnomalarga qaraganda ingliz yoshlari oxirgi vaqtlarda kengroq yorituvchi tarixiy tadqiqotlar va tarixiy jarayonlarga turlicha nuqtai nazardan yondashuvchi mashg‘ulotlar qiziqtirishini ta’kidlashmoqda.

Tarix fanini o‘qitish Germaniyada ham o‘ziga xos yondoshuv kuzatiladi. Germaniya maktablarining tarix darslarida beshinchi sinfidan to‘qqizinchi sinfiga qadar o‘quvchilar tosh asri, Rim imperiyasi, Salib yurishlari, Uyg‘onish va

Ma’rifatparvarlik davrlari haqida ma’lumotlar beriladi. O‘ninchi sinfdan o‘qituvchilar alohida guruhlarda o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab tarixning turli mavzularida chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar olib boriladi. Darslarga qo‘yiladigan mavzularga ko‘ra darslar erkin shaklda va juda chuqurlashmagan ko‘rinishda olib boriladi.

Fransuz tarixchisi Mark Ferro maktablarda tarix darslarini o‘tilishiga doir o‘zining tanqidiy asarlarini yaratib, jumladan XX asrning o‘rtalariga qadar Germaniya maktablarida tarix fani o‘qitishda mavzular yangi davr tarixini o‘qitish bilan boshlanganligi, asosan A. Gitlerning hayoti va faoliyati, hokimyat tepasiga kelishiga oid ma’lumotlarga asosiy urg‘u berilganligini ta’kidlaydi. Fashizm tuzumining ag‘darilganidan so‘ng XX asrning 60-yillariga qadar Ikkinchi Jahon urishi davri tarix darsliklaridan chiqarib tashlangan o‘quvchilarga bu davr haqida gapirilmagan. Hozirgi kunda Germaniya dasturlarida bunday yondoshuvlarga yo‘l qo‘yilmaydi. XX asrnnig 30-yillarida Germaniyada tarixni o‘rganishda maktablarda kino va opera san’atidan ilk bor keng foydalanilgan. 1936-yil Gitler tuzumi aks ettirilgan 500 dan ortiq filmlar o‘rta maktablarda va 330 ta universitetlarda ko‘rsatilib, fashistik g‘oyalarni singdirishda keng foydalanilgan.

Xorijiy mamlakatlarda tarix fanini o‘qitishga doir uslubiy yondashuvlarda ham turli-tumanlik ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Fransiyada tarix fanini o‘qitishda tarixda yuz bergan voqealarni o‘quvchilar tomonidan tarixiy romanlar, chizilgan tarixiy sur’atlardagi voqealarni o‘rganish, tasavvur qilish, tahlil qilish orqali o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Fransuz yozuvchilari Dyuma, Gyugo, Jyul Veri asarlaridagi tarixiy sahnalar darslarda keng foydalaniladi. Birgina komediya janrida nashr qilingan Asteriks haqidagi sarguzashtlar kitobi 30 million nusxada sotilgan. Tarixiy romanlardagi sevgi va muhabbat obrazlari ham ko‘rsatilgan bo‘lsa ham darslarda ikkilanilmasdan o‘qituvchilar tomonidan foydalanishga tavsiya etiladi. E’tiborli tomoni shundaki, zamonaviy fransuz darsliklarida tarixiy voqealarning tavsilotining bayon etilishidan ko‘ra illyustratsiyalar ko‘rinishida aks etirishga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Tarix darslarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shaklantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Taqdim etiladigan illyustratsiyalarda o‘rta asrlar qirollar faoliyati, cherkovlarning jamiyatda tutgan o‘rni, Janna D’ Ark kabi tarixiy qahramonlarning jasoratlaridan misollar keltiriladi.

Ispaniya maktablari tarix darslari o‘quv dasturlarining katta qismi Ispaniya tarixidagi madaniyat va diniy tajribalarni o‘rgatishga bag‘ishlangan mavzular o‘rin olgan. Masalan, Ispaniyada mashhur bo‘lgan Antonio Alvares Peresning–Ensiklopediya, birinchi daraja nomli darsligining yarmidan ko‘pi ma’naviyat tarixiga bag‘ishlangan. Ispan xalqining uch mingdan ortiq xalq bayramlari tarixiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, tarixiy jarayonlarda Ispaniyaning uzoq davrlar davomida erkin davlat qurish yo‘lida olib borgan uzoq kurashlari yuzasidan umumiy ma’lumotlar beriladi.

Ispaniyaning Lotin Amerikasida olib borgan mustamlakachilik yurishlari tarix darslari mavzularidan o‘rin olmaydi. Ispanlarning zafarli g‘alabalari tarix fanlarida keng o‘rin olsada, hech qaerda Ispaniya imperiyasining yo‘qotishlari, hindu qabilalariga yetkazilgan zararlar haqida ma’lumotlar berilmaydi.

Boshqa rivojlangan davlatlar maktablariga nisbatan Yaponlar maktablarda tarixni chuqur o‘rganmasliklari bilan ajralib turadilar. Yaponiyada tarix darslari oltinchi sinfning oxirlaridan boshlab o‘qitila boshlanadi. Ya’ni, yapon maktablarida Jamiyatshunoslik, Tarixiy bo‘lim, Geografiya, Fuqarolik fanlari muhim fanlar sanalib, tarixiy bilimlar shu fanlar kesimida singdirilib o‘qitiladi. Yuqori sinflarda tarix darslari Jahon tarixi va Yaponiya tarixi darslariga bo‘lib o‘rganiladi. Darslarni o‘tishda mavzularning 97 foizi amaliy ko‘rinishda o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘quvchilarning takliflari e’tiborga olinadi. Bitiruvchi sinflarda tarix darslarini o‘tishda asosiy urg‘u xorijiy davlatlar tarixiga yo‘naltirilishi bilan boshqa davlatlardagi o‘quv dasturlaridan farq qiladi.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan Xitoy maktablari tarix darslarida ham yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga asosiy e’tibor qaratiladi. Tarix darsliklarida Xitoy xalqining ingliz, fransuz va yapon ekspantsiyasiga qarshi olib borgan mardonavor kurashlari, xalqning mehnatsevarligi, mamlakatning iqtisodiy o‘sishida bosib o‘tgan yo‘li, Xitoyning bugungi kundagi kuch qudratiga oid ma’lumotlarga keng e’tibor qaratiladi.

Islom davlatlarida tarixni o‘rganish ko‘proq diniy tasavvurlar bilan bog‘lab o‘tiladi. Asosiy manba sifatida Qur’oni Karim kitobi olinadi. To‘rtinchi sinf darsliklaridan boshlab Afrikada yevropaliklar tomonidan qul savdosining yo‘lga qo‘yilishi va arablarning bunga qarshi olib borgan kurashlariga doir tarixiy mavzular o‘rgatiladi. O‘rta asrlardagi arablarning o‘zlari tomonidan olib borgan bosqinchilik yurishlariga o‘quvchilarga gapirilmaydi va buni dinni yoyish yo‘lida olib borilgan faoliyatlar bilan izohlaydilar. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida keltirilgan voqealar ham tarix darslarida muhim o‘rin egallaydi va bu bilan yoshlarni katta hayotga tarbiyalashda keng foydalaniladi.

Umuman olganda xorijiy mamlakatlar tarix darslarining o‘qitilish metodikasida o‘quvchilarda tarixni o‘rganish orqali insonparvarlik, vatanni sevish, o‘z ajdodlarining vatanlari rivojiga qo‘shgan hissalariga hurmat tuyg‘usida bo‘lish va o‘zlarida vorisiylik hissini rivojlantirishga e’tibor qaratish yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013.– 279 b.

2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.

3. Ro‘zieva D. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – Toshkent, 2014.

4. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. – Toshkent: RTM, 2000. - 46 b.

5. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - Toshkent., 2003. - 66 b.

6. Safin D.V., Musina R.G. Ta’lim berish va o‘qishning interfaol usullari. O‘quv qo‘llanma. 1-modul. Interfaol o‘qitishning nazariy asoslari. -Toshkent, 2007.

TIL — MILLAT KO‘ZGUSI

Azizova Soxiba Abdug‘afforovna,
Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 13-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Tilning taraqqiyoti jamiyat, millat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq. Davlat tili maqomi esa uning har tomonlama rivojlanishi, taraqqiy etishiga imkon yaratadi. O‘zbek tilining istiqlol davri taraqqiyoti buning yorqin misoli bo‘la oladi. Bunday istiqbolli rivojlanish islohotlar, o‘zgarishlar, takomillashuvlar tilimizning leksikasida o‘z aksini topmoqda. Olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, moddiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar o‘zbek tilimizning rivoji va taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mana, o‘zbek tilining davlat tili sifatida e’tirof etilganiga ham 34 yil to‘lmoqda. O‘tgan davr mobaynida tilimizning nufuzi va mavqei oshdi, ijtimoiy vazifasi va qo‘llanish doirasi kengaydi. Ish yuritish o‘zbek tilida olib borilmoqda.

Istiqlol sharofati bilan o‘zbek tilida qator asarlar yaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablarida barcha yo‘nalishlar hamda sohalar bo‘yicha yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar nashr qilindi. Ayniqsa, o‘zbek tilshunosligi sohasida yuzlab, balki minglab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, mazkur soha bo‘yicha o‘zining yechimini kutayotgan ayrim nazariy muammolar o‘rganildi. Turli yo‘nalishlarda ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar hamda nomzodlik (PhD) va doktorlik (Dc) dissertatsiyalari himoya qilindi.

2006-2008-yillarda nashr qilingan 80000 dan ortiq so‘zdan iborat “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 2020-yilda Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish Departamenti tashabbusi bilan to‘ldirilgan holda yangidan chop etilib, mamlakatimizdagi vizirlik, agentliklar, qo‘mitalar, idoralar, tashkilotlar, mahalliy hokimliklarga beg‘araz taqdim etildi. Shuningdek, professor E.Begmatovning 15000 dan ortiq ismni o‘z ichiga qamrab olgan “O‘zbek ismlari” lug‘ati nashrdan chiqdi. Mazkur lug‘at hajmi jihatdan O‘rta Osiyo davlatlari o‘rtasida ham hech bir mamlakatnikidan kam bo‘lmagan.

Keyingi besh yil ichida milliy tilimizning istiqboli, ertangi kuni bo‘yicha Hukumatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qator qonun, qaror, farmon va boshqa rasmiy hujjatlar bu boradagi ishlarning yanada jadallashuvida muhim omil bo‘lyapti. Ayniqsa, vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va hokimliklar rahbarlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimlarining ta’sis qilinishi mazkur sohaga oid ishlarni izchillik bilan davom ettirishga imkon yaratdi.

Maslahatchilar tomonidan joylarda davlat tilida ish yuritish, hujjatlar aylanmalari, muhrlar, rasmiy ish qog‘ozlari, geografik ob’yektlarining nomlari, tashqi va ichki yozuvlar, davlat tiliga oid targ‘ibot-tashviqot ishlari, televideniyedagi chiqishlar, ilmiy va ommabop maqolalar tayyorlash, radiodagi eshittirishlar, boshqarmalar, idoralar, tashkilotlar, korxonalar bilan hamkorliklarning yo‘lga qo‘yilishi ayni muddao bo‘ldi.

Birgina Xorazm viloyati misolida 2021-2022-yillarda amalga oshirilgan ishlar haqida aytadigan bo‘lsak, viloyat hokimligi huzuridagi “Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha komissiyasi tomonidan 11 ta tuman, 2 ta shahar, 50 ta shaharcha, 599 ta qishloq, 585 ta aholi punktlari, 529 ta mahalla, 11772 ta ko‘cha, 3 ta daha, 13 ta istirohat bog‘i, 2 ta maydon, 562 ta qabristonlar nomlariga Respublika ekspert xulosalari olinib, ularning barchasi davlat reyestri bazasiga kiritildi.

“Davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari” bo‘yicha komissiyasi tomonidan esa, viloyatdagi barcha idoralar, tashkilotlar, boshqarmalarda davlat tilida ish yuritish, hujjatlar aylanmalari, muhrlar, shtamplar, rasmiy blankalar va boshqa rasmiy hujjatlarning “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun hujjatlariga muvofiq olib borilishi doimiy nazoratga olingan.

“Tashqi reklama va ularni tartibga solish masalalari” bo‘yicha komissiya tomonidan viloyatdagi deyarli barcha tashqi yozuvlar, reklamalar, peshlavhalar va boshqa axborot matnlarining ahvoli muntazam o‘rganib turilibdi. Komissiya jami 1000 dan ortiq o‘zgartirilishi lozim bo‘lgan tashqi yozuvlar aniqlagan bo‘lsa, shulardan 151 ta peshlavha, 226 ta reklama, 107 ta boshqa axborot matnlari ajnabiy tilda yozilgan. Shuningdek, 91 ta peshlavha, 164 ta reklama, 117 boshqa axborot matnlarida xatoliklar topildi. Olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida jami 851 ta tashqi yozuvlarni o‘zbek tilida va xatosiz yozilishiga erishildi.

Yosh niholni qayoqqa egsang egilganidek, til bo‘yicha savodxonlikni ham aslida oiladan, bolalar bog‘chasi, keyin esa maktabdan boshlash kerak. Davlatimiz rahbari joriy yilning 8 oktyabr kuni Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida bugungi kunda Prezident Administratsiyasi tomonidan ishchi guruhi tuzilib, Xalq ta’limi vazirligi tizimida ilg‘or xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rgangan holda, boshlang‘ich sinflar uchun darsliklarning yangidan chop etilayotgani ta’kidladi. Bu ham mamlakatimizda ta’lim tizimiga, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning savodxonligi, tarbiyasi, bilimi uchun bo‘lgan munosabatning oliy namunasidir.

Ayni damlarda butun mamlakatimiz bo‘ylab, jumladan, vazirliklar, agentliklar, qo‘mitalar, viloyatlardagi barcha idoralar, tashkilotlar, korxonalar, tumanlar va shaharlar hokimliklarida 21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan o‘tkazilayotgan tadbirlar ko‘lamining kengligidan bu yilgi bayramning har yilgidan ham boshqacha bo‘lishi ayon bo‘lmoqda. Bu esa Yangi O‘zbekistonning ertangi kuni uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi aniq. Zero, til mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilovchi asosiy omildir.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Bekmurzayeva Noriniso Saitmuratovna,

Xovos tumanidagi 28-maktabning boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim darslarida dars samaradorligini oshirishda didaktik o‘yinlarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, ”3,4,5,6,7,8”, ”DEKODER” (kodni yechuvchi)

metodlari


Didaktik o‘yinlar - bu bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun pedagogika tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o‘yinlar turi. Ular bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos muammolarini hal qilishga qaratilgan, lekin ayni paytda o‘yin faoliyatining ta’lim va rivojlanish ta’sirini ko‘rsatadi. Didaktik o‘yinlar o‘quv xarakteridagi vazifa - o‘quv vazifasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bolani o‘yinga o‘ziga xos bo‘lgan o‘quv vazifasi emas, balki faol bo‘lish, o‘yin harakatlarinibajarish, natijalarga erishish, g‘alaba qozonish imkoniyati jalb qiladi. Maktabgacha ta’limning birinchi pedagogik tizimlaridan biri muallifi Fridrix Fröbel, boshlang‘ich ta’limning vazifasi so‘zning oddiy ma’nosida o‘qitish emas, balki o‘yinni tashkil qilish ekanligiga ishonch hosil qilgan. Fridrix Fröbel tomonidan ishlab chiqilgan didaktik o‘yinlar tizimi turli o‘yinchoqlar, materiallar (to‘p, kublar, to‘plar, silindrlarva boshqalar) bilan o‘yinlarni o‘z ichiga olgan. Ko‘pgina didaktik o‘yinlarning majburiy elementi Froebel tomonidan yozilgan she'rlar, qo‘shiqlar, qofiyali ertaklar edi. Maktabgacha ta’limning birinchi mahalliy pedagogik tizimlaridan biri muallifi E.I.Tixeeva didaktik o‘yinlarga yangi yondashuvni e'lon qildi. Tixeevaning fikriga ko‘ra, ular (didaktik o‘yinlar) o‘qish, suhbat, rasm chizish, qo‘shiq aytish, gimnastikava mehnat bilan bir qatorda bolalar bilan tarbiyalash va ta’lim ishlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Taklif etilayotgan o‘yinlar tashqi sezgilarni, bolaning hissiyotlarini mashq qilishdan tashqariga chiqadi. Ular aqliy operatsiyalarni shakllantirish (taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish), nutqni takomillashtirish (lug‘atni boyitish, ob’yektlarni tasvirlash, topishmoqlar yaratish), masofa, vaqt, makonda harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishni ta’minlaydi. Ushbu vazifalarni hal qilish (xotira, e'tibor, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish) o‘yinlar mazmunini o‘zgartirishni, didaktik materiallarni arsenalini kengaytirishni talab qildi.

Didaktik o‘yinlarning mazmuni tabiat dunyosining barcha boyliklari, ijtimoiy aloqalar, inson tomonidan yaratilgan ob’yektlar bilan atrofdagi hayot edi. Tiheeva didaktik materiallarni, bosma stol o‘yinlarini ishlab chiqdi, ular bugungi kunda ham maktab ta’lim muassasalarida qo‘llaniladi. Sovet pedagogikasida didaktik o‘yinlar tizimi 1960-yillarda sensorli ta’lim standartlarini ishlab chiqish bilan bog‘liqholda yaratilgan. Uning mualliflari taniqli o‘qituvchilar va psixologlar: L.A.Venger, V.N.Avanesova va boshqalar. V.N. Avanesova didaktik o‘yinni tarbiyaviy ishning muhim vositasi deb hisobladi. L.A. Venger sensorli ta’lim uchun didaktik o‘yinlar tizimini ishlab chiqdi, u bolalarni ob’yektlarni, ularning turli xil xususiyatlari va munosabatlarini (rangi, shakli, o‘lchami, kosmosdagi joylashuvi) aniq, to‘liq va ajratib olishga o‘rgatish edi. Yaqinda olimlar Z.M. Boguslavskaya, O.M. Dyachenko, E.O.Smirnova va boshqalar tafakkur jarayonlarining tashabbuskorligi, shakllangan aqliy harakatlarning yangi mazmunga o‘tishi bilan ajralib turadigan bolalar intellektini har tomonlama rivojlantirish uchun o‘yinlar turkumini yaratish yo‘lidan boradi. Bunday o‘yinlarda ko‘pincha qat'iy qoidalar yo‘q, aksincha, bolalar muammoni hal qilish yo‘llarini tanlash zarurati bilan duch kelishadi. Maktab pedagogikasida didaktik o‘yinlarning ob’yektlar bilan o‘yinlarga, ish stoli bosma va og‘zaki o‘yinlarga an’anaviy bo‘linishi rivojlangan. Ob’yektlar bilan o‘yinlar o‘yin

materiallari, mazmuni, tashkil etilishi jihatidan juda xilma-xildir. Didaktik material sifatida o‘yinchoqlar, haqiqiy narsalar, tabiat ob’yektlari qo‘llaniladi. Ob’yektlar bilan o‘yinlar turli xil o‘quv vazifalarini hal qilishga imkon beradi. Stolda chop etilgan o‘yinlar mazmuni, o‘quv vazifalari va dizayni jihatidan xilma-xildir. Ular bolalarningatrofdagi dunyo haqidagi g‘oyalarini aniqlashtirish va kengaytirishga, bilimlarni tizimlashtirishga va fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Stolda bosilgan o‘yinlar keng tarqalgan bo‘lib, tasvirlangan ob’yekt yoki syujet bir necha qismlarga bo‘lingan bo‘linadigan rasmlar, katlama kublar printsipiga muvofiq tashkiletilgan. So‘z o‘yinlari o‘quv muammosini hal qilish jarayoni aqliy rejada, g‘oyalar asosida va vizualizatsiyaga tayanmasdan amalga oshirilishi bilan ajralib turadi.

“3,4,5,6,7,8” metodi

Ushbu metod o‘qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash jarayonida qo‘llaniladi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga matn beriladi. O‘quvchilar matnni o‘qib, muhokama qilishadi va berilgan matnlardan 3,4,5,6,7,8 harfdan iborat so‘zlarni topib, kataklarga yozib cjiqishlari kerak bo‘ladi. Tezkorlik va aniq yozgan guruhlar rag‘batlantiriladi.



“DEKODER”
(kodni yechuvchi) metodi

O‘qituvchi o‘quvchilarning qo‘llariga sonlar ortida yashiringan so‘zlardan iborat varaqachalar tarqatadi. O‘quvchilar tezkorlik bilan so‘zlarni topib, varaqalarga yozishlari kerak bo‘ladi. Bunda ham o‘qish ham savodhonlik darajalari baholanadi.


Darsimiz mavzusi: 13,23,20,19,14,13,13,8,13,6
2,8,17,8,13,28,8 16,14,13,20,13,8.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI MAQSADLI QO‘LLASH SAMARADORLIKNING MUHIM OMILI

Berdiqulova Ra’no Abdunazarovna,
Sirdaryo viloyati Sardoba tumanii 9- maktabning boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya. ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda darslarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarni maqsadli qo‘llash orqali dars samaradorlini muhum omili ekanligi yoritilgan

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, "pedagogik tizim", Ta’limning frontal shakllari

O‘zbekistonda ta’limni modernizatsiya qilish konsepsiyasi maktab ta’limi tizimiga yangi ijtimoiy talablarni ilgari surmoqda.

Asosiy va ikkinchi darajali vazifa-ta’limning zamonaviy sifatini oshirishga

qaratilgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish zarurati. Va bu ta’limning nafaqat o‘qivchilar tomonidan ma’lum miqdordagi bilimlarni o‘zlashtirishga, balki uning shaxsiyatini uning bilim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi.

Yosh o‘qivchi nafaqat kattalar hayotiga tayyorgarlik ko‘radi, nafaqat bilim oladi, balki turli tadbirlarda ishtirok etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim muammolarini hal qilish va bolaning atrofdagi dunyoni mustaqil bilishga tayyorligini shakllantirishga imkon beradi. O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab "pedagogik texnologiyalar"atamasi pedagogik leksikonga qat'iy kirdi. Biroq, "pedagogik texnologiya" atamasini tushunishda va undan foydalanishda hali ham kelishmovchiliklar mavjud.

Pedagogik texnologiya ta’limning eng oqilona yo‘llari haqidagi fan sifatida ham, o‘qitish tamoyillari tizimi sifatida ham, o‘quv jarayonini amalga oshirish texnikasi sifatida ham ko‘rib chiqiladi. "Pedagogik texnologiya" atamasi ba’zan "pedagogik tizim" atamasi bilan sinonim sifatida ishlatiladi, ba’zan esa usullarga tenglashtiriladi. Ushbu kontseptsiyaning mohiyatini aniqroq aniqlash uchun "Pedagogik texnologiyalar" atamaning mavjud talqinlarini tahlil qilishga sabab bo‘ldi.

Albatta, bolaga hamma narsani o‘rgatish, unga hamma narsa haqida tayyor g‘oyalar va bilimlarni berish mumkin emas. Ammo unga mustaqil ravishda bilim olishga, vaziyatni tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga, o‘zi hal qilmagan muammo yoki muammoning echimini topishga o‘rgatish mumkin. O‘quv va tarbiyaviy ishlarning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga e'tibor qaratib, har bir dars o‘quvchilarning bilim qiziqishlari, faoliyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shishiga va shuning uchun ta’lim sifatini oshirishga erishish kerak.

Hozirgi vaqtda ushbu muammoning dolzarbligi bir qator sabablarga ko‘ra katta ahamiyatga ega.Ta’limni modernizatsiya qilish kontseptsiyasiga ko‘ra, jamiyat maktabga ma’lum talablarni qo‘yadi. Asosiy va asosiy vazifa ta’lim sifatini oshirish zarurati bo‘lib, bu ta’lim shakllari va usullarini takomillashtirish, ta’lim texnologiyalarini joriy etish orqali mumkin. Ammo hozirgi vaqtda haqiqiy maktab amaliyotida o‘qish qiyin bo‘lgan bolalar soni ko‘paymoqda, o‘qituvchining alohida e'tiborini talab qiladi. Va bularning barchasi bolaning keyingi intellektual va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Shunday qilib, qarama-qarshiliklar mavjud:

- Ta’limning frontal shakllari va har bir o‘qivchining o‘quv va kognitiv faoliyatining individual usullari;
- Ta’lim mazmuni va maktabga tayyor bo‘lmagan bolalar sonining ko‘payishi o‘rtasida;
- O‘qitishning asosiy tushuntirish va tasviriy usuli va o‘qitishning faol tabiati.

Maqsad: o‘quv jarayoniga ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va joriy etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ish tizimini ochib berish.

Vazifalar:

- Har bir o‘qivchiga tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlikni namoyish etishga imkon beradigan darslarda pedagogik aloqa vaziyatlarini yaratish;
- O‘qivchilarning bilim faoliyatini faollashtirish
- Har bir o‘quvchining sinf ishiga qiziqish muhitini yaratishga ko‘maklashish, darsda muvaffaqiyat holatini yaratish, o‘quv motivatsiyasini oshirish.
- O‘quvchilarni atrofdagi dunyoni mustaqil bilishga kiritish, axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o‘zlashtirish orqali ta’limning faol xususiyatini ta’minlash;
- O‘qivchilarni noto‘g‘ri javob olishdan qo‘rqmasdan vazifalarni bajarishning turli usullaridan foydalangan holda gapirishga undash.

Taxminiy natijalar:

- O‘quv motivatsiyasi, o‘quvchilarning bilim qiziqishi ortadi.
- Atrofdagi dunyoni bilishga chinakam qiziqish paydo bo‘ladi;
- Maktab o‘quvchilari mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi qobiliyatlarni rivojlantiradilar;
- Ta’lim sifati dinamikasini oshirish.

Pedagogik texnologiya-bu o‘qituvchi faoliyatining shunday qurilishi bo‘lib, unda unga kiritilgan barcha harakatlar ma’lum bir ketma-ketlik va yaxlitlikda taqdim etiladi va amalga oshirish kerakli natijaga erishishni o‘z ichiga oladi va bashorat qilingan xususiyatga ega. Ushbu texnologiyalarning afzalliklari quyidagilardan iborat nafaqat talabalarning mustaqil ishlarining roli va ulushini oshirishda, balki diqqat markazida shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va farqlash, o‘quv natijalarini samarali o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi baholashga ko‘maklashish texnologiyalari.

Ta’limning ustuvor yo‘nalishi talabalar tomonidan ma’lum miqdordagi bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish emas, balki maktab o‘quvchilarining mustaqil ravishda o‘rganish, bilim olish va ularni qayta ishlash, kerakli, qat'iy tanlash qobiliyati bo‘lishi kerak, eslab qoling, boshqalar bilan bog‘lang.

Innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi maktab o‘quvchilarining ta’lim sifati, bilim faoliyati va o‘quv motivatsiyasini oshirish uchun sharoit yaratadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish natijasi:

- Men o‘qitadigan fanlar bo‘yicha bilimlarning barqaror sifati (65-75%), o‘quvchilarning sinfda o‘qitishning 100% darajasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigida so‘zlagan nutqi 2020-yil 8-dekabr.

2. Zankov, L.V. Tanlangan pedagogik ishlar/ L.V.Zankov; kirish. Art. Sh.A.Amonashvili. - M. : Novaya shk., 1996. - 432 b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KLASTERLI VA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH

Abdalova Sayyora Rustamovna, Ataboyeva Muyassar Baxromovna
Ilmiy rahbar, 2 kurs magistranti

Annotasiya: Mazkur maqolada bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy va klasterli kompetentligini shakllantirish pedagogik muammo ekanligi, kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar. Psixologik-pedagogik, kompetentlik, ta’lim, competence, «Mahorat», «malaka», Cluster .

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko‘pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida «kompetentlik» degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo‘llanilmoqda. Ta’lim tizimiga kompetentlik yondashuvi xorijiy adabiyotlarda o‘tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan edi. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining kasbiy komptentligini oshirish. Ta’lim samaradorligiga erishishda ta’lim klasteri usullarini qo‘llash ushbu soxa xodimlari faoliyatini yuksaltirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish bugungi kun ta’lim tizimini yuksak saloxiyati, malakali pedagog kadrlarni yetkazib berish masalasi ta’lim klasterini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish kerakligini taqozo etmoqda.

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida xorijiy tillarni,jumladaningliz tilini o‘qitish mazmuni va o‘quv metodik ta’minoti, ta’lim texnologiyalari, shuningdek bo‘lajak o‘qituvchilarning klasterli komptentsiyasini shakllantirish innavatsion texnologiyalar ilg‘or metodlarni rivojlantirish, ta’lim natijalarini baxolashni ob’yektivligini ta’minlovchi vositalarni ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga ingliz tilini o‘qitish sifatini takomilashtirish davlat ta’lim siyosatini ustivor yo‘nalishlari qatorida ilmiy izlanishlar mustaqil yo‘nalishi xamda pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardanbiri sanalib, innovasion texnologiyalar asosida talablariga ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha samarali tizimni yo‘lgaquyish zaruratini belgilaydi.Mamlakatimizda pedagogik ta’lim infrotuzilmasini yaxshilash, soxasidagi xalqaro xamkorlikni kengaytirish, tarbiya va o‘qitish usullari,ta’lim tarbiya va usullari, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qullash ko‘nikmalariga ega, pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash xamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish kabi ijtimoiy axamiyatga ega vazifalarni bajarishga ustivorlik birilmoqda.O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalarinig ingliz tili nutqini rivojlantirish, ularni ushbu tilde erkin muloqot qilish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan klaster ta’lim tizimi yaratilmoqda. Mamlakatimizda bir necha xorjiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo‘yicha ilmiy ishlar olib boorish, til o‘rganish metodikasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. «Kompetentlik» - tushunchasi esa, shaxsning doimo o‘sib boruvchi tasnifi bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish kobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari,

qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

«Kompetentlik» atamasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha noan’anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishish, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to‘g‘risida nazariy bilimlar zarurligini ko‘rsatadi.

Inglizcha «competence» tushunchasining lug‘aviy ma’nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat kiladi. G‘arb mamlakatlarida shakllangan an’anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta’lim tizimi esa — bilim, ko‘nikma va malakalar darajasi bilan o‘lchanadi. Xorijiy mamlakatlarda an’anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o‘ziga xos-xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi. Ushbu standart natijasinigina qayd etadi.

Kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta’lim jarayonlarida mavjud bo‘lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan. «Mahorat», «malaka», «salohiyat» masalalari, faoliyat, shu bilan birgalikda, bir qator faoliyatlarning birikuvi M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, V.V.Krayevskiy, G.P.Vedrovidskiy, V.V.Davidov va boshka pedagogika sohasining olimlari ilmiy asarlari asosini tashkil etgan.

D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo‘lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig‘indisidir», - deb ta’kidlaydilar.

I.V.Grishina kasbiy kompetensiya shaxsning o‘z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta’riflaydi:

" - Ushbu faoliyatga bo‘lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlari, faoliyatdan maqsadi, o‘zining ijtimoiy o‘rnini tasavvur qilishi;

- o‘zining shaxsiy o‘ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va h.)ko‘nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;

- shu asosda o‘zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o‘sishini boshqara bilishi"

A.K.Markova eng ko‘p o‘qituvchi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim. A.K.Markova fikri bo‘yicha o‘qituvchining mehnati kompetentlikka aylanadi qachon-ki o‘qituvchi o‘z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda talabalarni o‘qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa.

Ushbu asoslar bilan birga o'qituvchining kasbiy kompetentligini to'rtga bo'lib o'rganadi:

Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik - bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

Ijtimoiy kompetentlik - bu qo'shimcha faoliyatni olib borish yo'llarini bilish, hamkorlikda bajarish yo'llarini bilish;

Shaxsiy kompetentlik – o'zini rivojlantirish va o'zini ko'rsatish yo'llarini bilish (mutaxassis o'zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma'lumotlar bilan va o'z ustida ishlash).

Individual kompetentlik - bu o'zini boshqarish yo'llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga o'qituvchining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo'lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo'lishi.

Kasbiy kompetensiya tuzilishi va mazmuni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat. Kasbiy kompetensiya - bu bilim, mahorat va tajriba o'zviyligi bo'lib, loyixalash mutaxassis faoliyatini ruyobga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Turli mualliflar tomonidan e'lon qilingan kasbiy kompetensiya muammolari tug'risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, kasb ta'limi o'qituvchilari uchun bu o'ta muhim jihat sanaladi hamda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg'u beriladi.

Ijodiy dunyoqarash va qo'rqmay ijodiy faoliyat ko'rsatish, Hatto u turmush masalalari bo'lsa ham; «talaba» va uning mashg'ulotlari erkin tarzda takomillashib borishini chin dildan istashi va uni tashkil etish maqsadiv talabaning o'sishi va har tomonlama rivojlanishi uchun shaxsiy mas'ullik ana shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva T.M., Karimova N. Mustaqil ta'lim jarayonida kasb ta'limi o'qituvchilarini amaliy kompetentligini shakllantirish. Oliy va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim tizimida mustaqil ta'lim: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Guliston: GulDU. 2012 yil
2. Abdullaeva K.M., Norbutaeva D.A. Kasb ta'limi (xizmatlar soxasi) yo'nalishida mutaxassislik fanlari buyicha yaratilgan o'quv uslubiy majmualardan foydalanib talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.
3. Tafakkur sarchashmalari. Nizomiy nomidagi TDPU. Magistrlarning ilmiy-amaliy maqolalar to'plami. 2012 yil.
4. Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды. - М.: «Педагогика», 1989.
5. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: «Просвещение», 1995
6. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. - М., Изд-во АПН РСФСР, 1956.

JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR PSIXODIAGNOSTIKASI

*Donabayeva Zebuniso Ma’rufjon qizi***,**
Guliston davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. ushbu maqolada jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishi va psixodiagnostikasi xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlanish, aqlyiy rivojlanish, psixika, jismoniy rivojlanish, psixodiagnostika, logoped, maxsus ta’lim.

Аннотация. в данной статье рассматриваются вопросы развития и психодиагностики детей с физическими и психическими отклонениями.

Ключевые слова: развитие, психическое развитие, психика, физическое развитие, психодиагностика, логопед, специальное обучение.

Annotation. this article discusses the development and psychodiagnostics of children with physical and mental disabilities.

Key words: development, mental development, psyche, physical development, psychodiagnostics, speech therapist, special education.

Bugungi kunda jahonda dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va qator nufuzli ilmiy markazlarida, shu bilan birga Dakar dekloratsiyasi asosida qabul qilingan “Ta’lim hamma uchun” reja dasturi [66]asosida jismoniy hamda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni jamiyatimizning to‘laqonli a’zolari saflariga qo‘shilishiga yordam berish, ayni shu vaziyatda ular ta’limini izchil amalga oshirishdek bir jarayonda kompleks tadbirlarni rejalashtirish dolzarb vazifa qilib qo‘yilmoqda. Inson paydo bo‘libdiki, yashash uchun tinimsiz rivojlanishga muhtoj. U o‘sadi, oziqlanadi va tinimsiz harakat qiladi. Bir qator mutaxasislarning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan umumiy axborotining 70% ini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olishadi[67].

Dunyoda ko‘rishda, eshitishda, nutqda, tayanch-harakatlanishida, shu bilan birga aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni jamiyatimizga to‘laqonli moslashuvi, ularning turli motorik rivojlanishi, bilish jarayonlarining diagnostikasini tizimli tarzda tashkil etishni takomillashtirish, shuningdek ularning bilim, ko‘nikma, malakalari hamda rivojlanganlik darajasini aniqlash, maktab ta’limiga muvaffaqqiyatli tayyorlash jarayonida ixtisoslashtirilgan ta’limni tashkil etishning mexanizmlarini takomillashtirishda maxsus texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda yangi avlod maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimida

---

[66] Дакарские рамки действий. Образование для всех: выполнение наших обших обязательсте // Текст, принятый Всемирным форумом по образованиюДакар, Сенегал, 26-28 апреля 2000 г. – Париж, 2000. – 18 с.

[67] O’zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari, vazirlik buyrug’i asosida qabul qilingan № 1-mx, 2018 y., 18 iyun, O’zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan. № 3032. 2018 y.,3 iyul.

rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun qulay va xavfsiz muhitni yaratish boʻyicha barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Kichik yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishda ularning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini uygʻunlashtirishga e’tibor qaratiladi. Maxsus maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-defektologlari maktabgacha ta’lim tizimi maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni bajaradi, shuning uchun ularga koʻnikmalarini rivojlantirish va oʻz xizmatlarini taqdim etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qoʻllab quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni shu oʻrinda YuNISEFning Oʻzbekistondagi vakolatxonasi tomonidan ushbu islohotlar doirasida Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan yaqindan hamkorlik oʻrnatilgan. Shu bilan birga 2018- yilda YuNISEF davlat tomonidan erta va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari [68]ni qayta koʻrib chiqishda vazirlikka texnik yordam koʻrsatdi va uning doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur boʻlgan bosqichlar aniq ishlab chiqildi. Shuningdek, YuNISEF xalqaro tashkiloti bolani har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan yangi “Ilk qadam” maktabgacha ta’limning yangi davlat oʻquv dasturi[69]ni ishlab chiqishda amaliy yordam koʻrsatdi.

Yurtimizda Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilgan vaqtdan beri barqaror rivojlantiririshning 4-maqsadiga muvofiq, 2030-yilgacha umumiy maktabgacha ta’limni ta’minlash uchun qulay siyosiy muhitni va tizimning tarkibiy qismlarini yaratish ustida ishlar olib borilmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2016 yildagi PQ – 2707 – son “2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son qarori Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.[70]

Shu bilan birga, koʻp tarmoqli ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning modellari amalga oshirilmoqda, ularda sogʻlom tarbiyalanuvchilar ham, alohida ehtiyojli bolalar ham qatnashadilar. Ushbu yondashuv asosida inklyuziv (maxsus) ta’limning asosiy tamoyili amalga oshiriladi — bu esa jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni boʻlgan, alohida ehtiyojli bolalar uchun yuqori sifatli ta’lim olish, tengdoshlari qatori ta’lim resurslaridan erkin foydalanish hamda oʻzaro aloqa qilish koʻnikmalariga ega boʻladilar.

Hamma bolalar turli xil, har bir bola noyob. Amaliyot shuni koʻrsatadiki, turli

---

[68] O’zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari, vazirlik buyrug’i asosida qabul qilingan № 1-mx, 2018 y., 18 iyun, O’zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan. № 3032. 2018 y.,3 iyul.

[69] “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o’quv dasturi, O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi hay’ati qarori. 2018 y.,7 iyul. № 4-bayonnoma

[70] “Bola huquqlari to`g`risida”gi Konvensiya asosiy qoidalarining qisqacha bayonidan

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshiradigan, ta’lim munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun juda murakkab vazifa — o‘quv jarayonida pedagog xodimlar bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo‘lgan maktabgacha ta’limni individuallashtirishdan iborat.

Prezidentning 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”[71]gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi Qarori ga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi.

Yangi vazirlik o‘z oldiga maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, mavjud maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ayni vaqtda maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin amalga oshirish, ta’lim va tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intelektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash kabi bir qator vazifalari qo‘yildi.

Rivojlanishida nuqsonli bolalarni diagnostika qilishda ularning umumiy xususiyatlarigagina tayanmasdan, ayni vaqtda uning ijobiy xususiyatlari va potensial imkoniyatlariga tayanish zarur. Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonli bolalarni diagnostika qilish natijalari psixologik pedagogik diagnoz yordamida o‘rgatiladi, u rivojlanish nuqsonining turi bilan chegaralanib qolmaydi. U bola rivojlanishining individual psixofizik xususiyatlari, shuningdek individual korreksion ish dasturlarga tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Psixodiagnostika bola rivojlanishining nuqsonlarini va uning o‘ziga xos psixologo- pedagogik xususiyatlarini aniqlaydi. Boladagi ushbu xususiyatlarni bilish bolaning imkoniyatlariga mos maktabgacha va maktab ta’limi dasturini, ta’lim muassasasi turini, individual tibbiy psixologo-pedagogik dasturni ishlab chiqishga yordam beradi.

Har qanday jamiyatning kuchi fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intelektual salohoyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma’naviy yetukligi va intelektual salohiyati ta’lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun hamisha xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mohiyati, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e’tiqodlari asosida shakllanadi.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida erishilgan yutuqlar mavjud

bo‘lishiga qaramay jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonga ega bolalar hozirga vaqtga qadar mavjud va ular salmoqli darajada. Ular ham hayotni biz kabi ko‘rishni, eshitishni, sezishni va jamiyat a’zolari safida idrok etishni istashadi. Biroq ularning ayrimlari hattoki joyidan ham qo‘zg‘ala olishmaydi, aynan ular jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar hisoblanishadi.

---

[71] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мактабгача таълим муассасаларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 3162-сон Қарори. – Т., 2017 йил, 9 сентябр. 1-3 б.

Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonga ega turli yosh toifalarida bolalarni bir qator fanlarda - difektalogiya, maxsus psixologiya, maxsus pedagogika, amaliy psixologiya kabi bir qancha yoʻnalishlarda oʻrganishimiz mumkin. Maxsus psixologiya hamda maxsus pedagogika - nuqsonli bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan boʻlib, quyidagi qismlardan iborat:

1.Aqli zaif bolalar (oligofrenopsixologiya).

2.Qulogʻi kar zaif eshituvchi bolalar.

3. Koʻzi koʻr va zaif koʻruvchi bolalar.

4. Turli darajada nutqlari buzilgan bolalar.

5. Murakkab nuqsonli bolalar.

6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.

7. Tayanch harakat tizimi buzilgan bolalar.

Har bir kategoriyadagi bolalar psixologo-pedagogik oʻziga xos xususiyatlarga ega. Ularni oʻrganish jarayonida alohida strategiyalarni aniqlab olish zarur hisoblanadi. Shunday qilib birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar natijasida anomal rivojlanishning shakllanishi murakkab sur’atga ega va u har bir bola uchun bir tomondan individual, ikkinchi tomondan esa unga oʻxshash nuqsonlar bilan xarakterlanadi. Ushbu oʻziga xoslik rivojlanish nuqsoning har bir tipiga ta’alluqli boʻlib, bolalardagi psixofizik xususiyatlarini inobatga olib, maxsus ta’lim sharoitlarini aniqlashga yordam beradi.

Oliy ong osti funksiyalar yillar davomida shakllanadi. U nutqiy muloqot bilan tugʻilib, faoliyatning toʻliq ramzi (simvolik faoliyat) bilan tugallanadi. Bolaning psixik rivojlanishi va shaxsini shakllanishi ta’lim va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bogʻliqdir. Shunday qilib, oliy psixik funksiyalar maxsus fanlar orasida murakkab jarayon sifatida koʻriladi. Ularning shakllanishida nutq hal qiluvchi vazifani bajaradi. Fsixofiologik mexanizmlarni tushuntirish uchun P.K.Anoxinning funksional tizimlar haqidagi konsepsiyasi qoʻllaniladi. A.R.Luriyaning koʻrsatishicha, funfsional tizim bola tugʻilish davrida tayyor boʻlmasdan, balki uning psixik funksiyalari predmetlar hamda materiallar bilan oʻzaro munosabatga kirishganida shakllanib boradi. [72]

Funksional tizim – bu bir vazifani bajarish uchun bir qancha anatomik va fiziologik tuzilmalarni birlashtiradigan dinamik tuzilma boʻlib, turli nerv sistemalarida joylashgan. Psixologlar (A.R.Luriya, A.N.Leontyev) doimiy ravishda oliy psixik funksiyalarning fiziologik negizi markaziy nerv sistemasi yoki uning alohida qismlari boʻlib qolmasdan, balki miya qobigʻidagi funksional sistemaning birgalikda ishlashi deb ta’kidlaganlar. Bola hayot faoliyati jarayonida ushbu funksional sistemaning rivojlanishi, sekin-astalik bilan murakkab xarakterga ega boʻlib, funksional bogʻliqlik mustaxkamlanadi. Ushbu ilmiy nizom inson psixikasining rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni oʻzgartiradi. Fiziolog va psixologlarning tadqiqotlaridan shuni koʻrishimiz mumkinki, alohida funksiyalar sistemasining yetilganligi ma’lum bir rivojlanish davrida bir xil emas:ba’zi sistemalar shakllanib boʻlgan, ba’zilari esa endi shakllanadi. Shunga koʻra funksiyalarning rivojlanish tizimi bir xil emas ekan, deb xulosalash mumkin. Har bir

[72] Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar diagnostikasi

funksional sistema xatto alohida zonalari o‘zining rivojlanish dasturiga ega, lekin ular bir butunlikda ish olib borishadi. Shunday qilib, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bosh miyaning alohida qism yoki zonalarida yetuklik natijasi hisoblanmaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning har bir turida o‘ziga xos nuqsonlar darajasining namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Riivojlanishdagi nuqsonlarni diagnostika qilish umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlar asosida tuziladi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni diagnostika qilishda ularning umumiy xususiyatlariga tayanmasdan, balki boladagi ijobiy xususiyatlar va potensial imkoniyatlarga tayanish lozim. Ularni diagnostika qilish natijalari psixologik-pedagogik diagnoz yordamida o‘rganiladi, u rivojlanish nuqsonining turi bilan chegaralanib qolmaydi. U bola rivojlanishining individual psixofizik xususiyatlari, shuningdek individual korreksion ish darturlarga tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z

ichiga oladi.

Psixodiagnostika bola rivojlanishining nuqsonlarni hamda uning o‘ziga xos psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlaydi. Boladagi ushbu xususiyatlarni bilish bolaning imkoniyatlariga mos maktabgacha va maktab ta’lim dasturini, ta’lim muassasasining turini, individual tibbiy psixologo-pedagogik dasturni ishlab chiqishga yordam beradi.

Aynan mana shunday bolalarni maxsus ta’lim tashkilotlarida korreksion-pedagogik ta’sis etish muammolarining yechimi M.Yu.Ayupova, O.P.Gavrilushkina, L.A.Golovchis, G.A.Kashe, S.A.Mironova, L.R.Mo‘minova, D.A.Nazarova, L.P.Noskova, D.A.Nurkeldiyeva, L.I.Plaksina, V.I.Seliverstov, N.A.Checheleva, X.M.Pulatova, T.B.Filecheva, M.P.Xamidova va boshqa tadqiqotchi olimlarning amaliy hamda nazariy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsonga ega bo‘lgan bolalar diagnostikasi.https://hozir.org/psixik-va-jismoniy-rivojlanishida-nuqsonga-ega-bolgan-bolalar.html

2. Muzaffarova. X. Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishida mehnat ta’limining o‘rni. Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI Pedagogika-psixologiya fakulteti Defektologiya-yo‘nalishi o‘qituvchisi

3. https://hozir.org/mavzu-aql-va-jismoniy-rivojlanishda-nuqsoni-bolgan-bolalar-gur.html

4. Дакарские рамки действий. Образование для всех: выполнение наших обших обязательсте // Текст, принятый Всемирным форумом по образованиюДакар, Сенегал, 26-28 апреля 2000 г. – Париж, 2000. – 18 с.

5. O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, vazirlik buyrug‘i asosida qabul qilingan № 1-mx, 2018 y., 18 iyun, O‘zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan.

№ 3032. 2018 y.,3 iyul.

6. O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, vazirlik buyrug‘i asosida qabul

qilingan № 1-mx, 2018 y., 18 iyun, O‘zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan. № 3032. 2018 y.,3 iyul.
7. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi hay’ati qarori. 2018 y.,7 iyul. № 4-bayonnoma.
8. “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya asosiy qoidalarining qisqacha bayonidan.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мактабгача таълим муассасаларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 3162-сон Қарори. – Т., 2017 йил, 9 сентябр. 1-3 б.

BIOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILAR KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA YANGI METODIKALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Umida Bekmatova,
Sirdaryo pedagogika markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi metodikalarni qo‘llsh orqali o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalari, hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish, ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyalarini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetentlik, yangi metodika, darsliklar, Panelli munozara, Kim chaqqon,Moychechak, tajriba.

Annotation. This article discusses the formation of students’ natural-scientific literacy competencies, scientific explanation of phenomena, design and evaluation of scientific research competencies through the use of new methods.

Key words: Competence, new methodology, textbooks, Panel discussion, Who is agile, Chamomile, experience.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование у студентов естественнонаучных грамотных компетенций, научное объяснение явлений, проектирование и оценка научно-исследовательских компетенций за счет использования новых методов.

Ключевые слова: Компетенция, новая методология, учебники, Панельная дискуссия, Кто такой agile, Ромашка, опыт.

2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida Milliy o‘quv

dasturi yaratilganligi va 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab 1- va 2-sinflarda 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o‘quvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalar joriy qilingi va pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy metodikalar bo‘yicha o‘qitish amaliyotini joriy qilish masalalari haqida ko‘rsatmalar berilgan. Shunday ekan, bugungi kun o‘qituvchisi ta’lim jarayonida darslarning sifat va samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarni kreativ, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan yangi metodikalardan foydalanishi lozim. Shu fikrlardan kelib chiqib quyida bir nechta zamonaviy metodikalar haqida fikr yuritamiz:

Panelli munozara

Katta guruhda o‘tkaziladi (20 kishi va undan ortiqroq): Munozara muammosi

o‘qituvchi tomonidan ifodalanadi; Ko‘proq tabiiy fanlar darslarida qo‘llaniladi.

O‘quvchilar 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘linib, auditoriyada doira shaklida joylashadilar;

Har bir guruh a’zolari munozara davomida ularning nuqtai nazarini himoya qiladigan vakilni yoki raisni tanlab oladilar;

Muammo kichik guruhda 15-20 daqiqa davomida muhokama etilib, umumiy nuqtai nazar ishlab chiqiladi;

Guruhlar vakillari doira o‘rtasiga to‘planib, guruhning nuqtai nazarini himoya qilish uchun guruh fikrini bayon etish imkoniga ega bo‘ladilar. Qolgan ishtirokchilar muhokama jarayoni va kichik guruhlar vakillari umumiy nuqtai nazarni qanchalik aniq ifodalayotganlari kuzatadilar. Ular o‘z fikrlarini bayon etishlari mumkin emas, lekin muhokama davomida o‘z mulohazalarini yozib qo‘ygan kichik maktublarni uzatish imkoniga ega bo‘ladilar;

Guruhlar vakillari boshqa a’zolar bilan maslahatlashib olish uchun tanaffus olishlari mumkin;

Panelli muhokama ajratilgan vaqt tugaganidan so‘ng yoki qaror qabul qilinganidan keyin yakunlanadi;


Munozara tugaganidan so‘ng guruhlar vakillari muhokama qanday kechganligi yuzasidan tanqidiy mulohaza yuritadilar, qarorlar esa barcha ishtirokchilar tomonidan qabul qilinadi.

Afzalliklari: Ishtirokchilarga berilgan muammo bo‘yicha fikr almashish va uni hal qilish uchun o‘z nuqtai nazarini bayon etish imkonini beradi. Tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Qiyinchiliklari: “Panelli munozaraning” barcha ishtirokchilari muhokama qilinayotgan muammoni yechishdan manfaatdor bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega, chunki faqat shundagina auditoriya e’tibori begona narsalarga chalg‘ib ketmaydi.

Kim chaqqon? metodi

O‘quvchilar guruhlarga bo‘lib olinadi.Guruhlardan bir nafardan o‘quvchi qatnashadi. 3 daqiqa ichida o‘quvchilar oksidlar, kislotalar, asoslar, tuzlar formulalari yozilgan kartochkalarni ajratishlari kerak. 1-guruh oksidlar, 2- guruh



kislotalar, 3- guruh tuzlar formulalari yozilgan kartochkalarni magnit doskaga yopishtiradi.


Kim ko‘p formula tuzadi? Guruhlarga elementlarning atom massalari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi. O‘quvchilar massalari yozilgan elementlarni aniqlaydi hamda shu elementlardan foydalanib formulalar tuzadi. Bu shartga 5 daqiqa vaqt beriladi. Ko‘p formula tuzgan guruh g‘olib bo‘ladi.

Masalan: 1, 40, 56, 16, 27 (H, Ca, Fe, O, Al)H2O, CaO, Al2O3, FeO, Fe2O3 va hokazo.

”Moychechak” metodi

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga savollar yozilgan gulbarglar tarqatadi va javob berish uchun guruhlarga yuzlanadi. Savollar yozilgan gulbarglarga javob topilib ketilaveriladi. Bunda har bir topilgan javob uchun bittadan gulbarg sovg‘a qilinadi. O‘yin oxirida yutib olingan gulbarglardan ajoyib moychechak hosil qilinadi. Agar savollarga javoblar yaxshi berilmagan bo‘lsa, moychechak to‘liq va chiroyli chiqmaydi. Bunda qaysi guruhning moychechagi qalin va chiroyli chiqqan bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishda olimlarimiz tajribalaridan ham foydalanishimiz mumkin Masalan: XVII asrda italiyalik shifokor Franchesko Redi 3 ta shisha idish olib, ularga go‘sht bo‘laklarini joyladi.



Savol:

1. Nima uchun birinchi idishga pashsha hosil bo‘ldi? Idishdagi qurt qayerdan paydo bo‘ldi?

2. Ikkinchi va uchinchi idishlarda nimaga pashsha hosil bo‘lmadi?

Fikringizni izohlab bering.

Xulosa qilib aytganda bu ma’lumotlar bilan tanishish natijasida zamonaviy metodikalarning uzluksiz rivojlanib, o‘zgarib borayotganligini hisobga olgan holda, har bir pedagog xodim bu sohadagi o‘z nazariy bilimlarini hamda kasbiy pedagogik mahoratini muntazam oshirib borishi zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022 yil 11 maydagi farmoni

2. A. A. Ismailov va b. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholash (Kimyo, biologiya, fizika, geografiya fani o‘qituvchilari,

metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta‘lim inspeksiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –Toshkent, 2019-yil.
3.Tolipova J. Biologiya o‘qitish metodikasi -T.: O‘qituvchi, 2016.
4.http://mahorat.uz/.

BIOLOGIYA FANIDAN O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL VA IJODIY FIKR YURITISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Tursunova Jamila Aliqulovna,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
tursunovajamila173@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘qitishning yangi zamonaviy usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiya, progress, aromorfoz, idioadaptatsiya, umumiy degeneratsiya, pedagogiк jarayon.

Аннотация.В статье рассматриваются новые современные методы обучения, направленные на развитие навыков самостоятельного и творческого мышления учащихся при обучении биологии.

Ключевые слова: Развивающая образовательная технология, прогресс, ароморфоз, идиоадаптация, общая дегенерация, педагогический процесс

Annotation. The article discusses new modern methods of teaching to develop students’ independent and creative thinking skills in the teaching of Biology.

Key words: Developmental educational technology, progress, aromorphosis, idioadaptation, general degeneration, pedagogical process.

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib etilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo‘ladi.

Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘qituvchi, avvalo:

- o‘quvchilarning darsda mustaqil ishlashlari uchun o‘quv topshiriqlarini tanlashi (zarur hollarda tuzishi), biologik ob’yektlar, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida tajriba va kuzatish o‘tkazish yuzasidan ko‘rsatmalar tayyorlashi;
- o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta’limi uchun qo‘shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim;
- o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim-tarbiya jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasini qo‘llash zarur.

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining asosiy g‘oyasi o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish sanaladi. Mazkur texnologiyaning asosiy xususiyatlari:

-o‘quvchilarni o‘z bilish faoliyatining sub’yektiga aylantirib, fikr yuritish mexanizmini shakllantiradi, rivojlantiradi;

-o‘quvchilarning bilish faoliyati empirik va nazariy bilish yaxlitligida tashkil etilib, o‘qitish jarayonida bilimlarni deduktiv usulda o‘rganish ustuvor bo‘ladi;

- o‘qitish jarayonining asosini o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini bajarish orqali vujudga keltiriladigan mustaqil faoliyat tashkil etadi;

-o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bujarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo‘nalish sanaladi. Fikr yuritishning bu ikki tipi bir-birini to‘ldiradi va taqozo etadi.

Tanqidiy fikr yuritish shaxsning voqea va hodisalar haqidagi munosabati va fikrini vujudga keltirib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi: tahliliy fikr yuritish (axborotni tahlil qilish, zarur faktlarni tanlash, taqqoslash, faktlar va hodisalarni chog‘ishtirish).

O‘quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun biologiya o‘qituvchisi har bir darsda avval o‘rganilayotgan ob’yektlar bilan o‘rganilgan ob’yekt o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlaydigan topshiriqlarni berishi kerak.

Jumladan, «Daryo qisqichbaqasining ichki tuzilishi» mavzusini o‘rganganda o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, ularga o‘quv topshiriqlari bilan bir qatorda quyidagi jadvalni to‘ldirish tavsiya etiladi:

Organlar sistemasi	**Oq planariya**	**Yomg‘ir chuvalchangi**	**Chuchuk suv shillig‘i**	**Daryo qisqichbaqasi**
Tana bo‘shlig‘i				
Ovqat hazm qilish				
Qon aylanish				
Nafas olish				
Ayirish				
Nerv sistemasi				
Sezgi organlari				
Ko‘payish				

O‘quvchilar darslikda berilgan o‘quv axborotini tahlil qiladi, organlar sistemasi haqidagi faktlarni tanlaydi, ularni avvalgi ob’yektlar bilan taqqoslab, xulosa chiqaradi. Demak, daryo qichqichbaqasining ichk ituzilishini tahlil qilib, avval o‘rganilgan oq planariya, yomg‘ir chuvalchangi, chuchuk suv shillig‘i bilan taqqoslab o‘rganadi. O‘quv materialining bu tarzda o‘rganilishi o‘quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko‘nikmalarining tarkib topishiga zamin tayyorlaydi.

Bog‘lanishli (assotsiativ) fikr yuritish – avval o‘rganilgan bilimlar, faktlar orasidagi bog‘lan ishlarni aniqlash, tanish ob’yekt va hodisalarning yangi xususiyatlari va sifatlarini topish. Bog‘lanishli fikr yuritish o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kutilmagan, noodatiy vaziyatlarda

qo‘llab, yangi bilim va ko‘nimalarni o‘zlashtirishlariga zamin tayyorlaydi.

O‘qituvchi «Organik olam evolyutsiyasining yo‘nalishlari» mavzusini o‘qitishda o‘quvchilarning 6 chi va 7-chisinf biologiya o‘quv fanlaridan

o‘zlashtirgan bilimlarini faollashtirish maqsadida ularga o‘quv topshiriqlari bilan birga quyidagi jadvalni to‘ldirishlarini tavsiya etadi.

Masalan:

1-topshiriq. Yopiq urug‘lilarning o‘simliklar olamida hukmronligi sababini aniqlang.

2-topshiriq**.** Suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralibyuruvchilar va qushlarning tuzilishini taqqoslang. Ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlang.

Taqqoslanadigan jihatlar	**Suvda hamda quruqlikda yashovchilar**	**Sudralib yuruvchilar**	**Qushlar**
Tana qoplami			
Hazm qilishi			
Qon aylanishi			
Yuragi			
Nafas olishi			
Ayirishi			
Nerv sistemasi			
Sezgi organlari			
Ko‘payishi			

3-topshiriq. Qushlarning hayvonot olamida hukmronligi sababini aniqlang.

O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib bo‘lganlaridan so‘ng, o‘qituvchi biologik progress, aromorfoz, idioadaptatsiya, umumiy degeneratsiya haqida ma’lumot beradi va o‘quvchilardan misol keltirishlarini so‘raydi. O‘quvchilar o‘zlari to‘ldirgan jadvaldan foydalanib, yopiq urug‘lilar va qushlardagi aromorfozlarni aniqlashadi. Shu tarzda o‘quvchilarda bog‘lanishli fikr yuritish ko‘nikmalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Mustaqil fikr yuritish shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli biologiyani o‘qitishning barcha shakllarida, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat berish zarur.

Mustaqil fikr yuritish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-muammoli vaziyatlarni tahlil qilish; farazlarni ilgari surish;

-avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo‘llab, yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash;

-o‘z fikrini dalillash; javobning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish.

Ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalari ijodiy faoliyat tajribalarining asosini tashkil etadi. O‘quvchilar ijodiy faoliyat tajribalarini egallashda aqliy faoliyat usullari bo‘lgan o‘rganilayotgan ob’yektni tahlil qilish, taqqoslash, tarkibiy qismlarga ajratish, sintezlash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tasavvur qilishi, umumlashtirish va xulosa yasashni egallagan bo‘lishlari lozim. Shundagina o‘quvchilari jodiy

faoliyatning asosini tashkil etadigan xususiyatlar: tanish ob’yektlarning yangi xususiyatlari va vazifalarini topishi; tanish vaziyatlardagi muammolarni mustaqil ravishda hal etish; bilim va ko‘nikmalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash orqali muammoni hal etish; o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda ijodiy qo‘llashga o‘rganishi mumkin.

O‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim sharti, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini dalillash va asoslash sanaladi. Shu sababli, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalari, asosan, o‘quv munozaralari va bahslar orqali rivojlantiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bolalarimizga bugungi har xil metod va

texnologiyalar, xorijiy innovasiyalar asosida mustaqil va ijodiy faoliyat olib bora olishga o‘rgatishimiz ertangi kun uchun etuk mutaxassislar tayyorlashimiz uchun zamin bo‘ladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
2. Tolipova J, Isabayeva M. Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi. Ma’ruzalar matni. –Qo‘qon, 2019.
3. www.pedagog.uz.
4. www.talim.uz.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Kilicheva Zulayho,

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar 1-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’lim va ta’limga zamonaviy yondashuv ta’lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil etish lozimligini taqozo etadi. O‘zbekistonda qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlash bugungi kunda pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashishning usullariga bag‘ishlanganO‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida o‘tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta’lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta’limga zamonaviy yondashuv ta’lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv -vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir.

Ta’lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma’lum sohasini qamrab

oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o‘quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo‘yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o‘qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra, ma’lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga tegishli bo‘ladi. Ularning samaradorligi to‘g‘risida fikr yuritilganda o‘qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo‘naltira oladigan, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta’minlash barcha ta’lim muassasalarining oldiga qo‘yilayotgan maqsadga nechog‘lik erishilayotganini ko‘zda tutish kerak. Yoxud o‘qitish metodlari bevosita ta’lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyasidir. Boshlang‘ich sinflarda "O‘qish" darslarida matnlar berilgan bo‘lib, shulardan biri "Alisher Navoiy" matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni "Aqliy hujum" metodi yordamida o‘rganish ko‘zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

1-bosqich. O‘quvchilarni mavzuni tushunishga tayyorlash. O‘tgan mashg‘ulotlarda berilgan nutq usullariga oid ma’lumotlar esga olinadi va takrorlanadi, har bir nutq uslubining o‘ziga xos xususiyatlari yodga olinadi. Chunki matnlarni taqqoslash uchun o‘quvchilarda nutq uslublariga oid ma’lumotlar yetarli bo‘lishi kerak. Nutq uslublariga oid bilimlar yodga olingandan so‘ng har ikki matn o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘qib chiqiladi. O‘quvchilar matn mazmunini tushunishga harakat qiladilar.

2-bosqich. Berilgan matnlarning o‘xshash tomonlarini aniqlash. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savolni beradi? Har ikki matn qaysi jihatdan bir -biriga o‘xshaydi? O‘quvchilar mazkur savolga shunday javob beradilar:

- har ikki matn ham Alisher Navoiy haqida:
- mantning mazmuni bir xil:
- har ikki matndan ham Navoiy ijodi haqida fikr bildirilgan:
- har ikkala matnda ham shoirning ustozlari nomlari keltirilgan:
- Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi aytilgan:
- Navoiyning jahonga tanilgan shoir ekanligi aytilgan
- Forsiy shoirlarning Navoiy ijodiga munosabati ifodalangan.

O‘qituvchi o‘quvchilarning Navoiy ijodiga umumlashtiradi va o‘z munosabatini bildiradi.

3-bosqich. Har ikki matn asosida badiiy va ilmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlash. Bu bosqichda har bir uslubning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Birinchi matnda badiiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo‘llangan: tasviriy ifoda

(zanjirband she’r) ko‘chma ma’noli so‘zlar (she'riyat osmoni, yulduzlarga hira tortdi, shuhratiga soya soldi). Ikkinchi matnda ilmiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo‘llangan: raqamlar (1441 yil tug‘ilgan, XV asr 60-yillar), aniq dalillar Yevropa va Osiyo davlatlarini, Nizomiy Ganjaviy, Sadiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi tarixiy shaxs nomlari, A.Jomiyning Navoiy haqidagi fikri keltirilgan. "Alisher Navoiy" matni shu metod yordamida o‘rganilsa, o‘quvchilar

matn mazmunini yaxshiroq anglaydilar ularning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar matnlarni qiyoslash orqali ularning mohiyatini teran idrok etadilar va interfaol metodlar o‘quvchilarni fikrlashga, darslarda faol qatnashishga, darslardafaol ishtirokchi bo‘lishiga o‘rgatadi. Shunday qilib, yuqoridagi interfaol metodlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashish dasturi amal bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tolipov O. Pedagogika. Toshkent: 2007.
2. Yo‘ldashev O. Pedagogika. Toshkent: 2008.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007.
4. Daminov T, Adambekova T. O‘yin mashg‘ulotlari. Toshkent: 1993.
1. Tolipov O. Pedagogika. Toshkent. 2016.
2. Yo‘ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007.
4. Daminov T, Adambekova T. O‘yin mas 1993.

O‘QISH DARSLARIDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Kulaxmetova Mavlyuda Po‘latovna,

Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqola o‘qish darslarida matn ustida ishlash xususida bo‘lib, unda matn ustida ishlashning mazmun-mohiyati va o‘qish darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik vazifalar haqida ma’lumotlar berilgan.

Аннотация. Статья посвящена работе над текстом на уроках чтения, в которой представлена информация о содержании работы над текстом и дидактических задачах уроков чтения.

Abstract. The article is devoted to the work on the text in the reading lessons, which provides information on the content of the work on the text and the didactic tasks of the reading lessons.

Kalit so‘zlar: o‘qish, matn, didaktik, savodxonlik, kitobxonlik, ta’lim, hikoya, asar, tushunish, anglash, baholash, izohli o‘qish, reproduktiv.

Ключевые слова: чтение, текст, дидактика, грамотность, чтение, образование, рассказ, работа, понимание, понимание, оценка, интерпретирующее чтение, репродуктивное.

Keywords: reading, text, didactics, literacy, reading, education, storytelling, work, comprehension, understanding, appreciation, interpretive reading, reproductive.

Mamlakatimiz ta’limiga qo‘yilayotgan talablar xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash, monitoring qilish orqali ta’lim sifatini

oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ma’lumki, PIRLS tadqiqot dasturi matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo‘lib mazkur tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasi bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqotda munosib natija ko‘rsatish o‘quvchilarimizning qanchalik bilim, malaka va ko‘nikmalarga egaligiga bog‘liq. O‘quvchilarning o‘qish malakalarini shakllantirishda o‘qish darsliklarining ahamiyati katta. Biz o‘quvchilarimizni o‘qish sifatlarini oshirishda har bitta o‘quvchiga alohida ahamiya berib borishimiz zaruar. O‘qituvchi o‘quvchining tovush orttirmay, tovushni tushurib ketmay, so‘zning tarkibini buzmasdan o‘qishiga erishishi kerak bo‘ladi.

Ikkinchidan, tez o‘qish malakasining to‘g‘ri egallanishi ham muhim

ahamiyatga ega. Sababi o‘ta tez ham, o‘ta sekin o‘qish ham matn mazmunini o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi. Ba’zan o‘qituvchilar o‘quvchilarining bir daqiqada qanchalik ko‘p so‘z o‘qiy olishlariga, ya’ni tez o‘qishlarini rag‘batlantirib, bolalarning matnni tusunishlariga ikkinchi darajali masala sifatida qaraydilar. Agar bu kabi kamchiliklar bartaraf etilmasa xalqaro tadqiqot topshiriqlari o‘quvchilarimizga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy hol bo‘lib qoladi

PIRLS xalqaro tadqiqot dastirida o‘quvchi matinni o‘qib va matin ichiga kirib tushunishi kerak, bu jarayonning faol qatnashuvchisi qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkinligini bilib oladi. Berilgan topshiriqlarga to‘g‘ri va aniq javob berishga harakat qiladi. Endi bir mavzu yuzasidan to‘xtalib o‘tsak.

DOG‘DA QOLGAN QARG‘A

(Laos xalq ertagi)

Bir kuni Qarg‘a barglar orasida mudrab yotgan Chigirtkani ko‘rib qolibdi. Endi yeyman deb, cho‘qilamoqchi bo‘lib turganda, Chigirtka ko‘zini ochibdi va boshini ko‘tarib Qarg‘aga:

– Hurmatli Qarg‘a, malol kelmasa, bir-ikkita topishmoq aytsam, unga javob bersangiz, keyin meni yesangiz, – debdi.

Qarg‘a qag‘illab boshini chayqab:

– Yaxshi! Yaxshi! Faqat imillamasdan tezroq ayt topishmog‘ingni, – debdi.

Chigirtka unga:

– Hurmatli Qarg‘a, ayting-chi, dunyoda eng o‘tkir narsa nima? – debdi.

– O‘ylab o‘tirishning hojati yo‘q. Qarr! – xursand bo‘lib ketibdi Qarg‘a. – Bu – yoyning uchi.

– Afsuski, topa olmadingiz, – debdi Chigirtka. – Ayting-chi, dunyoda nima tez yuradi?

– Qarr! Qarr! Ikki g‘ildirakli arava! Ikki g‘ildirakli poyga aravasi! – suyunib qichqira ketibdi Qarg‘a.

– Yo‘q, yana topolmadingiz. Endi ayting-chi, dunyoda eng kuchli nima?

– Yo‘lbars! Qarr, qarr!

– Hecham-da! Eng og‘iri-chi?

– Yer! Bizning yer! – jahli chiqib qag‘illabdi Qarg‘a.

– Yo‘q-yo‘q! Boshqa narsa, – e’tiroz bildiribdi Chigirtka.

Qarg‘a topishmoqni topolmaganidan, Chigirtka juda xursand bo‘libdi. Qarg‘aning esa jahli chiqibdi. Ular qozining huzuriga borishibdi. Avval Qarg‘a qoziga hammasini so‘zlab beribdi. Navbat Chigirtkaga kelibdi. U:-Muhtaram qozi! Qarg‘a meni yemoqchi edi.

Men unga: „Agar topishmoqlarimni topsangiz, yeyavering“, -dedim. Ammo Qarg‘a javob topa olmadi. Axir dunyoda hamma narsadan o‘tkir-aql, tezdan tezi-fikr, eng kuchli narsa-himmat va halollik, og‘irdan og‘iri – jinoyatchining qalbi ekani ma’lum-ku.

Iltimos qilaman, muhtaram zot, endi adolat qilib, kim haq, kim nohaqligini ayting, – debdi.

Qozi biroz o‘ylanib turibdi-da, keyin boshini silkitib debdi:

– Chigirtka haq, Qarg‘a, siz yutqazdingiz. Shunday qilib qarg‘a dog‘da qolibdi.

Mavzu bo‘yicha savollar.

1. Qarg‘a barglar orasida qaysi hashoratni ko‘rib qoldi.

A) Chumoli
B) Pashsha
C) Chigirtka
D) Chivin

2. Mudrab so‘zi qanday ma’noni anglatadi. O‘z fikringizni bayon qilishingizni mumkin

____

3. Qarg‘a chigirtkani yemoqchi bo‘lganida unga qanday shart qo‘ydi?

____

4. Chigirtkaning qarg‘aga bergan birinchi topishmog‘i nima edi?

____

5. Dunyoda nima tez yuradi deb savol berganda Qarg‘a nima deb javob berdi?

A) Ikki g‘ildirakli beloseped
B) Ikki g‘ildirakli arava
C) Samolyot
D) Burgut qushi

6. Aytingchi bolajon dunyoda eng kuchli nima ekan? Agar ertak yodingizda qolgan bo‘lsa shu savolga yozma javob bering.

____

7. Chigirtka qarg‘aga yana qanday savollar bilan murojat qildi?

____

8. Qarg‘a chigirtkaning savollariga nima deb javob berdi?eslashga urunib ko‘ring.

____

9. Qarg‘a bilan chigirtka savol-javobda kelisha olmagandan keyin kimning huzuriga borishdi?

A) Yuzboshini
B) Qo‘rboshini
C) O‘rmon shohini
D) Qozini

10. Chigirtkaning savollariga javob nima edi?

11. Qozi qanday xulosa chiqardi?

12. Qarg‘a nima uchun dog‘da qoldi?

13. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz, yoki siz ushbu ertakkka qaysi maqolni misol qilib keltira olasiz.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda yuqori sifatli o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish va matnni tushunishga o‘rgatish bugungi kunda interaktiv tavsifga ega. O‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish uchun esa nafaqat yaratilgan mashq daftarlar ustida ishlash, balki darslikdagi har bir matn ustida chuqurroq yondashish maqsadga muvofiq.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Tuzuvchilar: A.Ismailov va boshq. Toshkent: “Sharq”, 2019.
2. Matchonov S. va boshqalar. 4-sinf O‘qish kitobi. Toshkent: “Yangiyul polygraph service”, 2020.
3. Ismailov D va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini aniqlash. Toshkent: Sharq, 2019.

BUGUNGI KUN IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMOLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toshtemirova Mohinabonu Bahodir qizi,
GulDU Sirtqi Pedagogika Psixologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Hozirgi davrda ta’lim va madaniyatni tez va uyg‘un rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va oliy boyligi bo‘lmish insonning o‘zini yanada kamol toptirishi manfaatlari yosh avlodlariga ta’lim va tarbiya berishga yangicha, yana ham keng ko‘lamda yondashishni talab qiladi. Psixologiya fanining vazifasi talabalarga voqelik va jamiyatdagi voqea va hodisalarning, jamiyat hayotida umumiy psixologik hodisalar,

holatlar va jarayonlarning mohiyatini tashkil etishga, shaxsning kamolotiga va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o'rgatishdan iborat.

Psixologiyani fan sifatida o'rganish bilan uning qanday fan ekanligi, xususiyatlari va nimalarni o'rganishi haqida bilimlarga erishiladi. Psixologik bilim va malakalarni o'zlashtirish talabalarga atrofdagi odamlarni ular bilan muloqot amaliyotida, munosabatlarda, o'zaro hamkorlik faoliyatida bilish uchun; ularning fikri, maqsadi, kechinmalari, qiziqish va qobiliyatlari, ehtiyoj va motivlari va h.k.larini bilish va qo'llash uchun zarurdir. Psixologik bilim va malakalar talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati, oilaviy hayoti, bolalar tarbiyasi va boshqalarda asqotadi. Va, nihoyat, eng muhimi, psixologik bilimlar talabalarga o'zlarini anglashda, o'z ustilarida ishlashda va qiziqish, ijodiy imkoniyatlarini dolzarblashtirishlarida, barkamol shaxs bo'lib shakllanishlarida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy psixologiya va umuman ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi - barkamol avlod tarbiyasini ta'minlovchi barcha ma'naviy, ruhiy va insoniy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tadbiq etishdir. Bu o'rinda, ayniqsa ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning o'ziga va o'zgalarga ta'sir etishining mexanizmlarini o'rganish eng dolzarb masalalardandir. Taniqli fransuz olimi Serj Moskovisi: "Ijtimoiy psixologiyaning vazifalarini bevosita jamiyat belgilaydi", deb yozgan edi. Demak, fan sifatida ijtimoiy psixologiyaning oldida turgan vazifalari, muammolari bevosita jamiyatdan kelib chiqadi. Xo'sh, bugungi kunda ijtimoiy psixologiya fan sifatida o'z bahs mavzusini o'z predmetini qaysi ob'yektlarga qaratmoqda va bundan kelib chiqib bu fan oldida qanday vazifalar mavjud?

Birinchidan, uning asosiy yo'nalishi kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasini o'rganishdan iboratdir. Har bir shaxs hamisha ma'lum ijtimoiy guruhlar doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi, ko'cha-kuydagi norasmiy guruhdagi do'stlari davrasi, o'quv jamoasi va hokazolardir. Shaxsning yakka va turli guruhlar doirasida o'zini tutishi, xulq-atvori, mavqe, unga o'ziga xos guruhiy ta'sirlar, guruhdagi shaxslararo moslik, liderlik, guruhiy tazyiqqa beriluvchanlik kabi qator hodisalar aslida o'sha guruhlarni boshqarish, o'zaro munosabatlar sharoitini yaratish - bu odamlarni samarali o'zaro muloqotga o'rgatishning zaruriyatidir. Guruhlardagi kishilar o'rtasida o'zaro muloqot, o'zaro bir-biriga ta'sir usullari, odamlarni samarali muloqotga o'rgatish ham guruhlar ijtimoiy psixologiyasining muhim vazifasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy psixologik qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o'zgarishlar davrida o'ta muhim sohadir. Shaxsni ijtimoiy psixologik o'rganish tadqiqotlarining ob'yekti sifatida qaralganda, avvalo uning xulq-atvori, ijtimoiy motivlari, uning yo'nalishlari, xulq-atvor normalari, shaxsning jamiyatda turli ijtimoiy rollari, mavqe, ijtimoiy qo'shilish omillari-ijtimoiylashuvi; shaxsning o'z-o'ziga bahosi, munosabati, hurmati hamda ijtimoiy, tarixiy va madaniy shart-sharoitlarning shaxs ongiga ta'siri, shaxs tiplari o'rganiladi.

Uchinchidan, jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ijtimoiy

psixologiya uchun tadbiqiy ahamiyatga ega. Ijtimoiy psixologiyada ommaviy hodisalar deganda turli kishilar guruhida shaxslararo munosabatlar va o‘zaro ta’sir jarayonlari; milliy etnopsixologiya hamda sinflar psixologiyasi muammolari; milliy madaniyat, urf-odatlar, an’analar, udumlar, aqidalarning shaxs shakllanishidagi roli; olomon psixologiyasiga oid psixologik qonuniyatlar; turli guruhlarda odamlarning bir-birini idrok qilishlari va tushunishlari, o‘zaro ta’sir masalalari tushuniladi. Chunki alohida shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarning tasirini inkor etish masalasiga bir yoqlama yondashish bilan barobardir. Masalan, shaxs uchun u mansub bo‘lgan millat, elat yoki xalqning ruhiyati, uning ongidagi asrlar davomida saqlanib kelayotgan an’analar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari kabilar o‘z muayyan tasir kuchiga ega.

To‘rtinchidan, oila—ijtimoiy psixologiyaning o‘rganish ob’yekti sifatida. Bu yerda oilaga xos psixologik jarayonlar, oila a’zolarining bir-birlariga munosabatlari, nikohdagi o‘zaro moslik masalalari, oilaviy mojarolarning psixologik omillari, oilada bola tarbiyasining ijtimoiy psixologik metodlari o‘rganiladi. Ajratilgan vazifalardan yana biri shuki, hozirgi davrda ijtimoiy psixologiya o‘zi bilan bevosita aloqador bo‘lgan boshqa psixologiya tarmoqlari bilan hamkorlikda keskin o‘zgarishlar davrida har bir inson ongida nima sodir bo‘ladi, u bu o‘zgarishlarni qanday idrok qilmoqda, uning hayotiy mavqeni qanday qilib maqsadga muvofiq tarzda faollashtirish mumkin, degan savollarga ilmiy asoslangan javob topib berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003.
3. “ Psixologiya Uch. T-2. “Prospekt”. Moskva. 2004.
4. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
5. www.psychology.net.ru
6. www.psy.piter.com

OILADA MA’NAVIY TARBIYA-BARKAMOLLIK OMILI

Yunusov Adxam Pardayevich, Aslanova Nigora,

Boyovut tumanidagi 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix va huquq fani o‘qituvchisi; Kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mustaqillik sharofati bilan vatanimizda milliy qadriyatlarimizni e’zozlash, oilani mustahkamlanishiga e’tibor qaratish, oiladagi farzandlar tarbiyasiga, ta’lim olishiga jiddiy yondoshish masalalriga katta ahamiyat berilgan. Oilani qurishda farzand ko‘rish, farzandni barkamol inson qilib

tarbiyalash, kelajakni mevasi sifatida tarbiyalash bosh maqsad qilib qo‘yilgan.

Tarixga nazar tashlasak, muqaddas “Avesto”da, buyuk bobokalonlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu RAyxon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalashda ota-onaning o‘rni beqiyos ekanligi ta’kidlangan. Xususan, Forobiyning falsafiy ta’limotida ma’rifatli eng yaxshi axloqiy fazilatlarning o‘zida

mujassam etgan ota-onagina barkamol, ma’rifatli farzandlarni voyaga yetkazish e’tirof etilgan. Bugungi davr ota-onalarining o‘ziga xos ijobiy fazilatlari ham salbiy jihatlari mavjudki, bu albatta oiladagi farzand tarbiyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qo‘ymaydi. “Ota-ona – qirg‘oq, bola ko‘prik” degan hikmat bor xalqimizda. Farzandni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda ota-onaning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek oilasi ko‘p bo‘lgani bois bola ongida sog‘lom va bilimlarning shakllanishi jarayonida bobolar, momolar, qarindosh urug‘lar ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy udumga binoan, farzand tarbiyasida ota-onadan ham ko‘ra bobo, momo, qo‘ni-qo‘shni va qarindoshlarning ta’siri kuchliroq bo‘ladi. Ular oiladagi ma’naviy muhitning muhim omili hisoblanadi. Bunday ma’naviy tarbiya an’anasi buyuk ajdodlarimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan. Oilada farzand tarbiyasiga to‘xtalib, Abdurauf Fitrat shunday degan edi: “Har bir oilaning saodati va izzati, albatta shu xalqni ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat, oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli, tartibli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”.

Shuning uchun oilada farzandlarni tarbiyalashda ayollarning o‘rni katta ekanligi va hamma vaqt dolzarbligi uqtiriladi. Onaning barcha hislatlari odamiylik fazilatlari farzandlarga o‘tadi va ularning ma’naviyatini zamon ruhi bilan qurollantiradi. Farzand tarbiyalashda ko‘p asrlik milliy-pedagogik ananalardan, umuminsoniy qadriyatlardan keng, oqilona foydalanish masalalariga ham mamlakatimizda katta e’tibor berilmoqda.

Oila qurish har bir insonning tabiiy ehtiyoj, ijtimoiy mas’uliyati ekan, buning uchun kerak bo‘lgan ma’naviy, jismoniy, tibbiy muammolarni bilish, hayotga mustaqil qadam qo‘yish arafasida turgan qizlar va yigitlar uchun fan, texnika asoslarini egallash bilan barobar muhimdir. Inson oila qurishi, farzand ko‘rishi zarur ekan uni tarbiyalash esa yanada muhimroqdir. Ota-bobolarimiz asrlar davomida oila qurishga mas’uliyat bilan yondoshganlar, yoshlar ma’naviyatli bo‘lib tarbiyalanishiga katta e’tibor berganlar. Kelinning yoki kuyovning yetti pushti sog‘-salomatligini, ularning axloq odobini, ota-onasi, qarindosh-urug‘larini surishtirish ham ajoyib an’ana bo‘lgan. Hozirgi davrda ba’zi mamlakatlarda odamlar oila qurishni oddiy holatdek tasavvur etmoqdalar. Yoshlar hayotga yengil-yelpi qarab, ba’zan ota-ona bilan maslahatlashmay oila qurib, bir oz vaqtdan keyin ajratib ketmoqdalar. Buning sababi oilaviy munosabatlarga asos bo‘lgan ma’naviy omillarning zaifligidir. Natijada jamiyatda bir qancha oilalarning buzilib ketishi, tirik yetimlarning ko‘payishi hamda go‘daklar ota-onaning mehridan judo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu nimaga olib keladi? Albatta, ota-onasiz qolib, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan yetimlar soni ko‘’ayishi va shu davr hamda kelajak avlodlar uchun ma’naviy inqirozni kuchayishiga olib keladi.

Respublikamizda amalga oshirilatgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarida ma’naviy omillar ustivorligini ta’minlashga da’vat etilgandir. Barkamol avlodni tarbiyasida ma’naviy tarbiyaning o‘rni naqadar ustivor ekanligi bugungi kunimizda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ana shu ishning mohiyat-

mazmunini tashkil etgan bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning demokratik qadriyatlar asosida kamol to‘ishiga, erkin fuqarolik jamiyati asoslarining mustahkamlanishiga ustivor ma’naviy omil sifatida e’tibor berilmoqda. Bir tomondan jamiyat taraqqiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy, boshqa tomondan oila, oilaviy munosabatlarni milliy va umuminsoniy axloqiy ma’naviyat va qadriyatlar negizida rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Bunda oilaning madaniy darajasi, oila muhitini qaror toptiradigan ma’naviy qadriyatlar va ehtiyojlarning roli nihoyatda kattadir. Jamiyatda yangilanish ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liq holda yuz berar ekan, u jamiyatda, qadriyatlar tizimida, ma’naviy sohada ma’lum bir o‘zgarishlarga olib boradi. Ma’naviy sohadagi o‘zgarishlar ham jamiyat, xalq, davlat, shaxs ehtiyojlari va manfaatlaridan kelib chiqadi. Jamiyatdagi ma’naviy yangilanish – bu ilgari unitib yuborilgan ma’naviy qadriyatlar va marosimlarning zamon talabi va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qayta ishlash, boyitish, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur yangi ma’naviy boyliklar, bilimlarning asosini yaratish, shakllantirish bilan bog‘liq hodisalarni o‘z ichiga oladi. Jamiyatdagi ma’naviy yangilanish bevosita oila jarayonida ham o‘z ifodasini to‘adi. Bularning barchasi hozirgi yosh avlodni barkamollik ruhida, ma’naviy tarbiyaning asosiy omillari sifatida qarashni taqazo etadi. Xalqimizning ma’naviyatini tiklash va rivojlantirishda ma’naviy boyliklarni o‘rganishga, ularni hozirgi zamon talablari asosida yondoshilmoqda.

Xalq ma’naviy boyligi yangi davr, zamon bilan bog‘langan holda, ma’naviyatning yangi qirralarini hayotimizga kiritib kelmoqda. Bu Vatanga bo‘lgan muhabbatda, millatni, Vatanni anglashda, shu ona Vatanning taraqqiy etishi uchun mehnatini ayamaslikda, millatga tegishli ma’naviy boyliklarni tiklash, boyitish, ko‘z qorachig‘idek asrash kabi muhim tomonlarda aks etib kelmoqda. Bularning barchasi yosh avlodning ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalanishiga muhim omil bo‘ladi va kelajak avlodga mas’uliyat yuklaydi. Bu ma’naviy ehtiyojlarni shakllantirish va qondirishda inson oila va jamiyat oldiga juda katta talablar qo‘yiladi. Bular, eng avvalo, insonning o‘zligini anglashi, oila, jamiyat manfaatlari bilan o‘z manfaatlarini uyg‘unligini ko‘ra olishi va birligi, zamon, davr oldida turgan masalalarni chuqur seza olish va tahlil qila olish, jamiyat manfaatlarini qondirishda, ma’naviy qadriyatlarni chuqur bilish muhim mezondir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ma’naviy tarbiya barcha davrlarda

muhim ahamiyat kasb etgan, barkamollik omili bo‘lib xizmat qilgan. Aynan bugungi kunimizda ham, yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyashdek ulug‘vor ishimizda ham uning o‘rni beqiyosdir. Zero, mustaqil vatanimizning kuch-qudrati, kelajagi yoshlarimiz qo‘lidadir. Ularning ma’naviy barkamol bo‘lib yetishishlari ana shu ulug‘vor vazifalarni bajarishda o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov. I.A. Milliy istiqlol g‘oyasi – xalqimizning ishonchi va e’tiqodi. T.: “O‘qituvchi” 2004
2. Fitrat A. “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”. T.: “Ma’naviyat” 1998
3. “Oila” jurnali. №02, 2015 yil
4. B. Shoumarov, I. Haydarov “Oila psixologiyasi”

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Юнусметова Насиба Сатимбековна, Пулатова Шаира Нарзуллаевна,
Старший преподаватель национального центра подготовки педагогов по новым методикам Сырдарьинской области;
Учитель начальних классов средней школы №6 города Гулистана

Аннотация. в статье раскрывается развитие логического творческого мышления учащихся, особенности развивающего образования, система дидактических принципов.

Ключевые слова: педагогика, мышление, ученик, цель, задача, содержание, форма, метод, дидактика, синтез, интеллект, способность.

Обогащение содержания образования достигается путем включения новых учебных дисциплин в учебную программу. Для методов и методов обучения характеризуется многогранностью, процессуальностью, вариативностью и разрешением противоречий (противоречий). Методы, основанные на новых дидактических принципах, способствуют появлению форм умственной деятельности, не имеющих результатов прямого отражения содержания образования, но возникают на основе синтеза, обобщения педагогических воздействий, то есть в результате внутренней работы психологии. В области мышления такой синтез приводит не только к освоению методов умственной деятельности, но и к реальному развитию мышления. Дидактическая основа этого образования обусловлена деятельностью самих учащихся. Учащиеся будут не только решать проблемы, но и обсуждать содержание задачи и пути ее решения, а также отслеживать, сравнивать, группировать, делать выводы и уточнять законы.

С теоретической точки зрения, методика обучения, направленная на умственное развитие учащихся, отражена в концепции «развивающего образования», альтернативной психологической основе традиционного образования, задачам, содержанию, форме, методам и критериям деятельности.

Развивающееся образование построено на иных основаниях, психологическую основу которого составляет следующая концепция. "Педагогика должна управляться не днем вчерашнего дня, а днем завтрашнего развития детей. Только в этом случае он сможет оживить процессы развития, которые сейчас находятся в состоянии близкого развития в учебном процессе".

Особое внимание уделено теории развития образования, которой придано творческое понимание. Изучено влияние различных методов обучения на развитие ребенка, создана дидактическая система начального образования, которая очень эффективна для общего развития учащихся. В основе системы лежат следующие дидактические принципы:

- обучение средней степени сложности; лидирующая роль теоретических знаний;
- частое изучение материалов;
- регулярная системная работа по развитию новых учащихся;

- информированность учащихся в контексте учебного процесса, неопределенность содержания обучения, которая дает школьникам общее представление о мире, основанном на ценностях науки, литературы, искусства, материальной культуры.

Описание задач - представляет материал для приведения умственной

деятельности в состояние загруженности. Учитель организует коллективный поиск, собирает необходимые мнения, осуществляет руководство и призывает учащихся к их поиску.

Как известно, освоение обобщенных методов решения различных проблем является важным способом повышения эффективности эффективного мышления. Поскольку ведущая роль в мышлении зависит от формирования обобщения, то есть установления отношений между элементами проблем, связей и перевода этих отношений в схожие ситуации. Обобщение - инвариантное описание всех сфер деятельности, включая образование. В расширенной форме эта позиция отражена в теории содержательного обобщения. Ведущая педагогическая идея данной теории выдвигает идею о том, что через специально организованные занятия на основе теоретических знаний и теоретического мышления можно сформировать у детей определенные интеллектуальные способности. Основу такого образования составляет принцип содержательного обобщения, согласно которому ребенок должен изучать окружающий мир таким образом, чтобы человеческое образование было определено в истории науки и культуры, точнее, от абстрактного до точного. При анализе определенного явления задача учителя состоит в том, чтобы помочь ребенку выделить его сущность, а затем создать новые конкретные проявления этой сущности. Отсюда следует простой вывод: раскрытие тематических предметных материалов - теоретическое обобщение, отражение событий в системе понятий. В результате специально подготовленных занятий ребенок должен изучить генетическое происхождение изучаемого материала. «Реализация данного принципа в образовании требует от детей увеличения через конкретные объективные действия и установления особой связи вещей, которые служат универсальной основой для одновременных проявлений изучаемой системы». Идея заключается в том, чтобы помочь ребенку обобщить содержательную генетику, которая заключается в том, чтобы подчеркнуть универсальную форму любых событий, определить происхождение содержания понятия. Следующее освоение может быть осуществлено путем перехода от абстрактного к точному. Данный подход направлен на изменение мышления ученика от рационально-эмпирического к научно-диалектическому, продуктивному. Содержательно-генетическое обобщение требует обсуждения фундаментальных понятий научной тематики «клетки», в которых растет «дерево шаджары». Поэтому учебная программа, основанная на этой теории, построена как система научно-теоретических понятий. Новое содержание обучения учащиеся могут осваивать только с помощью специально разработанной методики, основанной на активном подходе к обучению.

Основное для него - это действия, меняющие предмет, выделяя из него индивидуальность путем открытия общности и решения образовательных задач.

Лидером по освоению способа решения учебной задачи является методика организации и стимулирования учебной деятельности ученика. Лидерство - это способ организации и стимулирования учебной деятельности ученика при освоении способа решения учебной задачи. Данный процесс осуществляется при поддержке преподавателя, ставящего определенную учебную задачу для учащихся; при необходимости можно совместно с учащимися определить важный аспект изучаемого предмета и изменить условия его решения; дает ученику стимул самостоятельно искать решение поставленного вопроса, помогает им осознавать и разделять реализуемые действия мышления.

Список литературы

1. Ф.Умарова, А.Уббиева, Ф.Гаибназарова, Н.Жураев "Образование, направленное на развитие личности ученика. "Учебные модули для учителей общеобразовательных школ. Модуль 2, выпуск 2. Т., «Крепмачак-плюс» .2013

2. Д. Элмуратова. Theoretical Basis of Training Future Techers to Innovative Professional Activities. Eastern European Scientific Journal. Б 194-197. Германия. Ausgabe 1-2017.

3. Элмуратова Д. Структурные компоненты подготовки учителей к инновационной профессиональной деятельности Информатизация Каракалпакского Государственного Университета имени Бердака № 4 Б 44-46 .Нукус 2017

4. Элмуратова Д. Основные показатели профессиональной подготовки учителя начального класса к инновационной деятельности. Научная Информатика ТГПУ, научно-теоретический журнал. № 1. Ташкент 2019

5. Элмуратова Д. Особенности подготовки будущих учителей начальных классов от естествознания к профессиональной деятельности. Приключения мышления. Сборник научно-практических статей магистров.

TA’LIM SOHASIDAGI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

Abbasova Sitora Bahtiyor qizi,

Yangiyer shahar 5-maktabning oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Email: sitoraabbasova@mail.uz,

Annotatsiya. Ta’lim sohasidagi raqamli texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning bilim samaradorligiga ta’siri.

Kalit so‘zlar: Axborot. Kundalik.com. AKT. Kreativlik. Kritika. Kommunikatsiya. Raqobatdosh. Raqamli texnologiya. Internet.

XXI asr axborot texnologiyalari internet asri. Bugungi taraqqiyot raqamli

texnologiyalar bilan bog‘liq. Xususan ta’lim sohasiga turli raqamli texnologiyalar kirib kelgani buning isbotidir. Birgina kundalik.com platformasi bir vaqtning o‘zida vaqtni tejaydi bevosita o‘quvchining ota-onasi farzandining darslardagi ishtirokini baholarini nazorat qila oladi. Qolaversa o‘qituvchi uchun vaqt tejamkorligiga erishishishda qulaylik yaratadi. 2020-yilgacha ta’lim tizimida malaka oshirish davriylikka asoslangan edi. Bunda o‘qituvchilar har 3-5 yilda o‘qishga yuborilar edi. Hozirgi aktual tizimda 3 yoki deylik 5 yilda 1 oy bilim olish yetadimi? – Yo‘q. Boisi ta’lim beruvchilar doimiy ravishda o‘z ko‘nikmalarini yangilab borishi muhum rol o‘ynaydi. Mana shularni hisobga olgan holda prezidentning tegishli qarori bilan 2021-yilda uzluksiz malaka oshirish tizimiga o‘tildi. Shu o‘rinda endi o‘qituvchilar o‘zi tanlab onlayn, masofaviy, mustaqil yoki an’anaviy shaklda malaka oshirishlari mumkinligi quvonarli holat. Uzluksiz kasbiy ta’lim platformasida maktab o‘qituvchilari ishdan ajralmagan holatda istagan vaqtida kasbiy malakalarini oshirishi mumkin. Bu o‘z o‘rnida o‘quvchilar bilimining oshishiga hamda o‘qituvchining vaqti, moddiy mablag‘i ham tejalishiga yordam beradi. Biz yashayotgan axborotlashgan jamiyatning ko‘pchilik a’zolari axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bilimlarni saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan banddir. Ta’lim sohasida qadimda axborotlarni kodlash usuli qo‘llanilgan. Shuning bilan bir qatorda bugungi kunda darsliklarga kiritilgan QR-kodlarni joriy etish orqali ovozli va videoli animatsiyalar, gipermatnlar, yangi ma’lumotlar bilan tanishib darsning nazariy qismi yanada kengaymoqda. Ko‘rinib turibdiki hayotimizda raqamli texnologiyalarning o‘rni oshmoqda. Buning uchun ta’limda o‘quvchilar bilan ko‘proq ishlash, ularning darsga qiziqishlarini oshirib, egallagan bilimlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish zarur. Hamda fanlararo aloqani kuchaytirish zarur. Ta’lim jaroyonining moslashuvchanligi, shakllari va usullarini, texnologik bazasini zamonaviy AKT vositalarini joriy etish oqali takomillashtirib borilsa maqsadga muvofiqdir. O‘quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish fanni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. Chunki o‘quvchilar materialni taqdim etishning yangi shakli ochiladi. O‘rganilayotgan bilimning idrik etish samaradorligini oshiradi, bu esa har doim o‘rganishni samaraliroq qiladi; o‘quv materialini yaxshiroq o‘zlashtirish va yaxshi yod olishga yordam beradi. Videoproyektor ushbu ma’lumotni takrorlash imkonini beradi. Kichkina tabiiy namunani namoyish qilish bilan hech qandey taqqoslash mumkin emas. Masalan: o‘quv plakati. Multimedia texnologiyalariga qiziqishning ortishi, bunday texnologiyalarning ta’limga joriy etilishi ko‘plab o‘qituvchilarning multimedia kontenti va ta’lim multimedia mahsulotlarini yaratish vositalarini puxta egallashiga olib keldi. Tez rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy maktabdan kommunikativ, ijodiy va kasbiy bilimlarning rivojlanishini, o‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyojlarini ta’minlaydigan ta’limga yangi yondashuvlarni joriy qilishni talab etadi. Hozirgi kunda ko‘plab turli xil axborot resusrlari yaratilgan bo‘lib, ular o‘quv va ilmiy faoliyat sifatini sezilarli darajada oshiradi. O‘qitishda ko‘pincha multimedia texnologiyalari qo‘llaniladi, ularning doirasi sezilarli darajada kengaydi. Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vositalari rolini multimedialar, kodoskop,

kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon linyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Demak raqamli ta’limda:

- Xohlagan joyida va vaqtida ta’lim olish imkoniyatiga ega;
- Internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- Ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;

Raqamli ta’lim tizimini rivojlanishida wi-fi zonalar va IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng va samarali foydaalanishga alohida e’tibor berilmoqda.Ta’lim jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishda “Interaktiv doska” ning ahamiyati katta. Interaktiv doska – zamonaviy axborot texnologiyalarni o‘zida qamrab oluvchi ta’limning yangi texnik vositasi hisoblanadi. Katta ekrandan axborotlarni qabul qilishlari hisobiga o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati oshadi. O‘quvchilar mustaqil ishlaydilar, sinfdoshlari va o‘qituvchi bilan birga ishlaydilar. Dars jarayonidagi ushbu hamfikrlilik muhiti o‘quvchilarning sinfdoshlari orasidagi mavqei va o‘ziga nisbatan ishonchi ortishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning fanga qiziqishi ortib, o‘quv materiali tez yodda saqlanadi. Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish lozimki boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligida o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va o‘qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarni puxta bilishi boshlang‘ich ta’lim sifat samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. T:2016
2. Sh.Mirziyoyev 2022-yil Oliy majlisga qilgan Murojaatnomasi.
3. Nazarov U.A. Karimov A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – S: SamDAQI nashri, 2014.- B.23
4. https://library.ziyonet.uz/
5. https://ziyouz.uz/
6. https://uz.wikipedia.org/
7. Razzoqov A va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.T:2005.

TA’LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALAR, ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSIYALAR

Karimova Shohsanam Ilhom qizi, Rajabaliyeva Mukarram Abdujalilovna, G‘afforova Sayyora Suvonqulovna,

shohsanamilhomovna@gmail.com, rajabaliyevamukarram@gmail.com, Ssdo97764@gmail.com

ANNOTATSIYA**.** Maqolada umumta’lim maktablarida aralash ta’lim metodikasini ishlab chiqish va ulardan foydalanish aralash ta’lim metodlari turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Aralash ta’lim (blended learining), mixed modern struction, texnalogiya, zamonaviy metodlar online, offline, mustaqil ta’lim.

KIRISH

Internet texnologiyalarining rivojlanishi internetda o‘qish va o‘qitish jarayonini amalga oshirishga imkon yaratdi. Onlayn ta’lim masofaviy shaklda talabalarga ta’lim olish imkoniyatini berdi va bundan tashqari o‘qituvchilar endilikda o‘z kurslarida tanqidiy fikrlashni, hamkorlik va muammolarni hal qilishni, o‘quvchilarni rag‘batlantirishni onlayn ilovalarni boshqarish orqali amalga oshirmoqda. Biroq o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yuzma-yuz muloqotning yo‘qligi o‘quvchilarning yetarli darajada pedagogik bilimga ega bo‘lmaslikka to‘siq yaratadi. Masalan, o‘zinio‘zi boshqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan talaba onlayn ta’limda

topshiriqlarni bajarishda vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Rossiyada dastlab «aralashtirilgan ta’lim» atamasi aniq ta’rifga ega emas edi. Adabiyotda bir vaqtning o‘zida o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan bir nechta atamalar ishlatilgan: «aralashtirilgan ta’lim» (blended learning), «gibrid ta’lim»(hybrid ***learning),*** shuningdek, «texnologiya-vositachi ta’lim» (technology-mediatedin struction) va «aralash rejimdagi ta’lim»(mixed-modein struction).Online ta’limning kamchiliklarini yengillashtirish uchun yangi yondashuv aralash ta’lim (*Blended Learning*) paydo bo‘ldi. Aralash ta’lim ko‘p qirrali ta’lim tizimi bo‘lib,o‘quv tajribasini samaralashtiradi va mazmunli ta’lim natijalarini oshiradi. Aralash ta’lim an’anaviy, masofaviy va ineraktiv ta’limning birgalikda olib borilishidir. Shu ma’noda, ko‘pchilik tadqiqotchilar orasida aralash ta’lim ommalashdi. Ammo 2006 yilda «Aralash ta’lim qo‘llanmasi» nashr etilishi bilan vaziyat o‘zgardi. Aynan u yerda aralash ta’limning aniq ta’rifi yuzma-yuz o‘qitish bilan kompyuter boshqariladigan ta’limning kombinatsiyasi sifatida berilgan edi. «Aralash ta’limni aniqlash» ma’ruzasida aralash ta’lim tushunchasi “internet va electron ommaviy axborot vositalarini, o‘qituvchi va talabalarning sinfda jismoniy ishtirokini talab qiladigan shakllar bilan birlashtirish orqali taqdim etilgan imkoniyatlar qatori” deb ta’riflaydi.

Respublikamiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o’qitish tizimini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqoza etmoqda. Elektron ta’lim jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun aralash ta’lim (Blended Learning) asosida ta’lim tizimi tashkil etishni yo’lga qo’yish ta’lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta’lim ananaviy va elektron ta’lim tizimida o’qitish ishlarini takomillashtrish, ommalashtirish, aralash ta’lim bo’yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o’rganish aralash ta’lim milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim olishning internet texnologiyalariga asoslanganligini inobatga olgan holda, aralash ta’limni qo‘llash metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan hisoblanadi. Aralash ta’lim zamonaviy ta’limning nisbatan yangi va tobora ommalashib borayotgan shakli sanalib, onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga soslangan o‘qitish shaklidir. Elektron ta’lim qanchalik qulay bo‘lmasin, ana’naviy ta’lim

natijasida olinadigan nutq va ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarning rivojlanish darajasini bera olmaydi. Shunga qaramay elektron ta’lim an’anaviy ta’limga nisbatan samarali natija bermoqda. Buning natijasida an’anaviy ta’limning elektron ta’lim bilan irgalikdagi, ya’ni aralashgan holdagi turi samarali natija berishi yaqqol ko‘rinmoqda. Aralash ta’lim an’anaviy, masofaviy va ineraktiv ta’limning birgalikda olb borilishidir. An’anaviy ta’lim insonlarda muloqot qobiliyatini rivojlantirib, ijtimoiylashrtirsa, elektron ta’lim bilim olish jarayonini tezlashtiriradi.

MUHOKAMA

Ushbu metodni 2007-yilda Amerika maktabining kimyo o‘qituvchilari Jonatan Bergman va Aaron Sams ixtiro qilgan. Keyinchalik boshqa fan o‘qituvchilari ham undan foydalana boshladilar. O‘quvchilar uyda internetga kirish imkoniga ega bo‘lgan o‘zlarining electron qurilmalari yordamida onlayn o‘quv muhitida ishlaydilar, yangi material bilan tanishadilar yoki o‘rganilayotgan materialni mustahkamlaydilar. Darsda o‘rganilganlar mustahkamlanadi va olingan bilimlar yangilanadi, ular seminar, rolli o‘yin, loyiha faoliyati va boshqa interaktiv shakllarda o‘tkazilishi mumkin. Yangi material bilan ishlashda, Moodle kabi LMS(ta’limni boshqarish tizimlari) dan foydalanish o‘qituvchiga o‘quvchilarning yangi materialni tushunishlarini darhol tekshirish imkonini beradi. Buning uchun faqat tegishli vazifalarni yaratish va ularni LMSga yuklash talab etiladi. Uyda yangi materialni o‘zlashtirish muvaffaqiyati haqida ma’lumot har bir talaba o‘qituvchiga dars ssenariysini tezda tuzatishga imkon beradi. Masalan, o‘qituvchi yangi materialni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan o‘quvchilar uchun rolli o‘yin tashkil qilishi va ayni shu vaqt ichida uyda yangi material bilan tanishmagan yoki uni tushunmagan talabalar guruhi bilan ham ishlashi mumkin.

▶ Amalga oshirish uchun texnik talablar: O‘quvchilar uyda Internetga ulangan 409lectron qurilmalarga ega.

▶ Afzalligi: butun sinfni yangi material bilan frontal ravishda tanishtirish zaruratini yo‘q qiladi, LMS dan foydalanganda talabalarning darsga tayyorligini hisobga olgan holda dars qurish imkonini beradi**.**

▶ Kamchiliklari: O‘qituvchi bolalar uchun test topshiriqlarini tayyorlashi kerak.

▶ O‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar: darslarni interfaol shaklda o‘tkazish qobiliyati va LMS bilan ishlash qobiliyati.

▶ Amalga oshirishning murakkabligi: bitta o‘qituvchi o‘z fanidan amalga oshirishi mumkin.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, 409lectron ta’lim jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun blended learning (aralash ta’lim) asosida ta’lim tizimi tashkil etishni yo’lga qo’yish ta’lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta’lim ananaviy va masofali ta’lim tizimida o’qitish ishlarini takomillashtrish, ommalashtirish, aralash ta’lim bo’yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o’rganish aralash ta’lim milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абрамова Я.К. Смешанное обучение как инновационная образовательная технология // Перспективы развития информационных технологий. 2014. №17. С. 115-119.
2. Богоряд Н.В., Лысунец Т.Б. Изменение роли преподавателя в концепции смешанного обучения // В мире научных открытий. 2014. №3(51). С. 76-81.
3. Н.А.Муслимов, М.Ҳ.Усмонбоева, Д.М.Сайфуров, А.Б.Тўраев. Инновацион таълим технологиялари. Тошкент, 2015.
4. Н.Боймуродов. Амалий психология. Ўкув қўлланма. Тошкент, 2008.
5. Каримов, Ў. К. Г. К. Илм-фан ва таълим соҳасидаги ахборотлашув.
6. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). The importance of innovative technologies in achieving educational effectiveness.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF TEACHERS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Zebo Karakulova, Aziza Suvankulova, Hasan Rajabov
zebokarakulova82@gmail.com, aziza.suvankulova1991@gmail.com
Presidential School in Gulistan

Abstract. The article discusses the development of the professional competence of teachers. The authors of the study took into account various methodological approaches to competence. The issue of how the growth of professional competence is organized was examined. As a result, the legal framework of Uzbekistan as well as university experiences in enhancing teaching qualifications were researched. In the context of nations like the UK, USA, India, Palestine, Jordan, and Romania foreign experience is presented as an analysis of the process of preparing teachers for professional action. The experience is also displayed in light of the state's standards and the advanced training suggestions made by international organizations.

Keywords: Qualifications, Teacher Activity Groups (TAGs), Online Teacher Community (OTC), Special Interest Groups (SIGs), Cambridge Professional Development Qualifications (PDQ).

Asking teachers to attend seminars, workshops, or courses has always been the primary strategy for assisting them with their ongoing professional development [1]. These training sessions, which can be in person or online, are frequently beneficial and enjoyable. Perhaps you have taken part in such a session or even conducted one yourself. However, training has some drawbacks. For example, it is easy to forget what we have learned during training events because they are typically brief, and we frequently aren't given the opportunity to test out new concepts in our own classrooms until the training event is over. Training is not the only way to support teachers' continuing professional development. It takes time and lots of experimenting before we feel comfortable with less familiar methods of teaching or learning.

One comparatively new way of supporting teachers is to establish

communities of practice or Teacher Activity Groups (TAGs). With the assistance of organizations like the British Council, teachers from all over the globe have created these communities of practice in places such as India, Palestine, Uzbekistan, Jordan, and Romania [2].

A community of practice is made up of a group of educators who encourage one another's professional growth and exchange ideas and opinions [3]. Teachers' jobs, including their instruction and continuing professional development, moved online during the pandemic. These communities of practice can initiate or continue their online activity on the Online Teacher Community (OTC) platform. Teachers using the OTC platform are part of a national community, a global platform-wide community, and a neighborhood online community. Additionally, they have the option of joining Special Interest Groups. (SIGs). Teachers can expand their knowledge and skills in this manner, cooperate and learn from other educators, and become proficient reflective practitioners.

Teachers can participate in a range of activities on the OTC platform. They can:

- discuss teaching issues and challenges in the forums and live sessions
- find solutions to these challenges
- identify strategies that work well in the classroom
- engage with different sources of new ideas through reading, watching videos, using other online resources, and attending webinars and online self-access modules or MOOCs
- share ideas and keep each other up to date on new developments both locally and in the international world of English language teaching
- discuss difficult areas of language and support each other in relevant types of language development
- make plans to use new activities and techniques in their own classrooms, try them out, and report their successes and challenges to the group
- reflect effectively and help each other to reflect on teaching and learning using the Portfolio available on the platform
- create a portfolio for certificates, reflections, or teacher journals.

There are advantages to having an online platform dedicated to teachers and their communities of practice:

- flexibility in terms of time
- it saves time as teachers do not need to travel
- teachers can meet their peers from their region or different corners of the world
- teachers can participate in online webinars delivered by ELT experts on the OTC platform
- teachers develop their digital skills while using the different features of the platform
- teachers can create an online portfolio and keep a record of their certificate, reflections, and resources in a digital format

- reflect effectively and help each other to reflect on teaching and learning using the Portfolio available on the platform
- create a portfolio for certificates, reflections, or teacher journals.


Another opportunity for teachers to grow professionally is attending the Cambridge PDQ course [4]. A solid framework is offered by Cambridge Professional Development Qualifications (PDQs) to aid candidates in their efficient continuing professional development.

They support candidates in:

- critically engaging with pertinent concepts, principles, theories, and best practices from throughout the globe
- implementing novel concepts and techniques in their own teaching and learning contexts
- formatively assess experiences to determine future development
- Improve school leadership and teaching standards to enhance student outcomes.

The planning, activities, and culture of professional development in schools are all intended to be integrated with Cambridge PDQs. Through affordable, long-lasting programs that assist teachers and their students, they support the improvement of schools. They serve as proof to parents, the school's community, and other interested parties that the institution supports staff development.

Research tells us that effective professional development is embedded within the school context, it is a practice based on opportunities for purposeful reflection and it is sustained over a longer period. The Cambridge PDQ is structured this way and is comprised of 150 hours of learning over a twelve-week period. It is based around:



- 50 hours of guided learning, in which you will be presented with educational theory and strategies;
- 50 hours of work-based learning, in which you can try out these new theories and strategies and,
- 50 hours of individual and collaborative learning in which you can reflect on your new learning and your new practice with a mentor and compile a portfolio of evidence for assessment.
- and compile a portfolio of evidence for assessment.

"It has encouraged experimentation of best practices and changes in teaching and leadership practices, enriched professional conversations and professional judgments of staff, and renewed interest in education among staff" Sarpong, R. (Head of Professional Development, International Community School, Kumasi, Ghana).

References

1. Stoll, L., Harris, A., & Handscomb, G. (2012). Great professional development which leads to great pedagogy: nine claims from research Autumn 2012. Available at: https://www.stjosephsrc.co.uk/wp content/uploads/2019/08/research-and-development-network-lit-review-theme-two.pdf
2. BC Uzbekistan (n.d.) Online Teacher Community (OTC) Platform. (online) Available at: https://www.britishcouncil.uz/en/programmes/education/future-english/online-teacher-community
3. Report on Uzbekistan National English Curriculum Reform (2021). Findings and recommendations. Available at: https://www.britishcouncil.uz/sites/default/files/engcurrefom_full_report_april_2021.pdf
4. CAIE (n.d.) Cambridge Teacher Standards and Cambridge School Leader Standards – How and Why the Standards were developed. (online) Available at: https://www.cambridgeinternational.org/Images/508634-standards-guide-factsheet.pdf .

FIZIKA DARSLARIDA NAMOYISH TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH USULARI

Usmanova M.A. Jumaniyazov A.U.

Sirdaryo viloyat Guliston tumani 15-maktab fizika va astranomiya fani o‘qituvchisi; SVPYMO‘MM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ta’lim jarayonida namoyish tajribalarining yangi bilimlar manbai, fizikaviy nazariyalarning fundamental asoslari, o‘qitish usuli, o‘rganilayotgan hodisalarni vizuallashtirish – illustrasiya qilish, o‘quvchilarning fizikaviy tafakkurini rivojlantirish, amaliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish vositalari ekanligi maqolada yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Namoyish tajribalari, eksperimental tajriba, deduktiv xarakter, fizikaviy qonuniyat, jarayon, fizikaviy tushuncha, dars, fizik hodisa.

Fizika eksperimental fandir. Fizika - fani va fizika - o‘quv predmeti o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjud bo‘lganligi sababli, fizikani o‘qitish jarayoni tajribaga asoslangan bir nechta fundamental qoidalar asosida o‘quvchilar uchun yangi fizik tushunchalar va nazariyalarni izchil shakllantirishdan iborat. Bu jarayon davomida tajriba asosida asosiy fizik qonunlarni o‘rnatishning induktiv tabiati va o‘quvchilar uchun qulay bo‘lgan matematik apparatdan foydalanib, shu yo‘l bilan o‘rnatilgan qonunlardan xulosalar chiqarishning deduktiv xarakteri o‘z aksini topadi.

Fizikadan o‘quv jarayonida tajribadan foydalanish bizga quyidagilarga imkon beradi: · o‘rganilayotgan hodisalarni pedagogik jihatdan o‘zgartiriladigan shaklda ko‘rsatish va shu bilan ularni o‘rganish uchun zarur eksperimental bazani yaratish;

· fanda o‘rnatilgan qonun va qonuniyatlarni talabalar uchun qulay shaklda ko‘rsatish va ularning mazmunini o‘quvchilarga tushunarli qilish;

· o‘qitishning ko‘rgazmaliligini oshirish;

· talabalarni fizik hodisalarni o‘rganishning eksperimental usuli bilan tanishtirish;

· o‘rganilayotgan fizik hodisalarning texnika, texnologiya va kundalik hayotda qo‘llanilishini tushuntirish;

· o‘quvchilarning fizika fanini o‘rganishga qiziqishini oshirish;

· bilim va eksperimental ko‘nikmalarni shakllantirish.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda o‘quv eksperimenti ikki turga bo‘linadi: ***ko‘rgazmali (namoyish)va laboratoriya.***

Laboratoriya tajribasining tuzilishi

Laboratoriya eksperimentini o‘qituvchi va talabalar faoliyatining xarakterini to‘liq aks ettiruvchi tashkiliy xususiyatlariga ko‘ra tasniflash qulay. Ushbu tasnifga

ko‘ra o‘quv laboratoriya tajribasining to‘rt turi mavjud:

· frontal laboratoriya ishi;

· ustaxonalar;

· uyda kuzatishlar va tajribalar;

· eksperimental vazifalar.

Ko‘rgazmali eksperiment o‘qitish usuli sifatida illustrativ usullarga mansub. Ko‘rgazmali eksperimentda asosiy boshlovchi o‘qituvchi bo‘lib, u nafaqat o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi, balki tajribalar namoyishini ham o‘tkazadi. Ko‘rgazmali eksperimentning sezilarli kamchiligi bor - o‘quvchilar qurilmalar bilan ishlamaydilar (garchi ularning ba’zilari ko‘rgazmalar tayyorlashda ishtirok etishlari mumkin).

Maktab fizika kursining har bir mavzusidan majburiy ko‘rgazmalar ro‘yxati dasturda mavjud. U, birinchi navbatda, zamonaviy fizikaning eksperimental bazasini tashkil etuvchi tajribalarni o‘z ichiga oladi, ular fundamental deb ataladi, bular, birinchi navbatda, Galiley, Kavendish, Shtern, Ersted, Faraday, Gers, Stoletov va boshqalar. Ulardan ba’zilari maktab sharoitida yetarlicha ishonchlilik bilan namoyish etilishi mumkin, boshqalari esa murakkab va qimmatbaho jihozlarni talab qiladi (Lebedev, Milliken, Rezerford tajribalari) va shuning uchun ularni faqat kino,

televizor yoki kompьyuter texnologiyalari yordamida modellashtirish mumkin.

Bu tajribalarni sahnalashtirish imkon qadar aniq, tushuntirish esa o‘ylangan bo‘lishi va

tajribaning nafaqat fizik mohiyatini, balki uning fizika fanlari tizimidagi o‘rnini ham

aks ettirishi kerak.

O‘rganilgan fizik hodisalar va nazariyalarni texnika, texnologiya va kundalik hayotda qo‘llashnilishini ko‘rsatish. Bunday tajribalarni namoyish qilish nafaqat fizika va texnika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish, balki talabalarni zamonaviy texnologik jamiyat sharoitida hayotga tayyorlash uchun ham zarurdir. Texnik va texnologik xarakterdagi ob’yektlar bilan tanishish fizikani o‘rganish motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, talabalarning ilgari o‘rganilgan jismoniy hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradi.

Jismoniy hodisalar va nazariyalarga kognitiv qiziqishni qo'zg'atish va faollashtirish uchun. Samarali ko'rgazmali eksperiment o'quvchilarning faol kognitiv faoliyatiga turtki bo'lishi mumkin, ayniqsa muammoli xarakterga ega bo'lsa. (Masalan, po'lat ignaning suv yuzasida suzishini namoyish qilish suyuqlikning sirt qatlamining xususiyatlarini o'rganish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatni yaratadi).

Namoyish eksperimentni tashkil etishning boshqa uslubiy talablari quyidagilardan iborat:

1. Talabalar tajriba o'tkazishga tayyor bo'lishlari kerak. Eksperiment g'oyasi, uning borishi va olingan natijalar talabalar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Shu maqsadda o'qituvchi o'rnatish sxemasini, uning barcha tarkibiy qismlarini tushuntirishi, o'lchov vositalariga yoki kuzatilgan ta'sir sodir bo'lgan elementlarga e'tibor berishi kerak.
2. Iloji bo'lsa, tajribalar bir nechta usullarda o'tkazilishi kerak (ayniqsa, bu o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishga hissa qo'shsa).
3. Darsdagi namoyishlar soni juda ko'p bo'lmasligi kerak. Namoyish eksperimenti o'quv materialini o'rganishga hissa qo'shishi va darsdagi asosiy maqsaddan chalg'itmasligi kerak.
4. Agar uskuna imkon bersa, ko'rgazmali tajribalar miqdoriy nisbatlarni o'rnatish bilan amalga oshirilishi kerak (raqamlar oldindan tanlangan va ularning ishlashi uchun qulay bo'lishi kerak!).
5. O'quv materialini o'rgatish jarayonida ko'rgazmali blok o'quvchilar oldida yig'ilishi kerak. Faqat juda murakkab uskunalar ishlatilsa, o'rnatishni oldindan yig'ish mumkin (shuning uchun tayyor stendlardan foydalanmaslik kerak).
6. O'rnatish imkon qadar ishonchli bo'lishi kerak va namoyish qilish texnikasi yaxshi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.
7. O'rnatish muvaffaqiyatsiz bo'lsa, nosozlikni topish va tezda bartaraf etish va ijobiy natijaga erishish uchun tajribani takrorlash kerak. Agar berilgan sharoitda buning iloji bo'lmasa, o'quvchilarga rad etish sababini tushuntirish kerak va keyingi darsda namoyishni takrorlashni unutmaslik lozim.
8. Maktab sharoiti uchun mavjud bo'lgan ko'rgazmali eksperiment tegishli kino kliplar yoki kompьyuter animatsiyalari namoyishi bilan almashtirilmasligi kerak.

Namoyish texnikasi ikkita talabga javob berishi kerak:

· namoyish qilish usuli iloji boricha ilmiy usulga mos kelishi va ishonchli natijalar berishi kerak;

· namoyish davomida o'rnatishning kutilgan va muhim tarkibiy qismlarining maksimal ko'rinishiga erishish kerak.

Ta'lim jarayonida namoyish tajribalari quyidagi funksiyalarni bajaradi: - yangi bilimlar manbai, fizikaviy nazariyalarning fundamental asoslari; - o'qitish usuli; - o'rganilayotgan hodisalarni vizuallashtirish, illustrasiya qilish vositasi; - olingan bilimlarni amaliy qo'llanilishini tushuntirish vositasi; - o'quvchilarning fizikaviy tafakkurini, ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi; - amaliy malaka va ko'nikmalarni tarbiyalash va rivojlantirish vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Bugaev A.I. Metodika prepodavaniya fiziki. Teoreticheskie osnovы. - M.: Prosveщenie, 1981.- 288s.
2. Xoroshavin S.A. Fizicheskiy eksperiment v sredney shkole.-M.: Prosveщenie, 1988. - 175 s.
3. Niyazxonova B.E. Dars jarayonida internet axborot resurslaridan foydalanishning tashkiliy-uslubiy jihatlari.

TIMSS 2023 TADQIQOTIDA INNOVATSION TOPSHIQLAR VA ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

N.N.Tashtemirova,
A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti, tnargiz76@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada joriy yilda oʻtkaziladigan TIMSS 2023 tadqiqoti va undagi innovatsion topshiqlarning asosiy xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, oʻquvchilar tadqiqotda muvafaqqiyatli ishtirok etishlari uchun e'tibor qaratishi lozim boʻlgan jihatlar va tavsiyalar keltirilgan.

В данной статье описаны основные характеристики исследования TIMSS 2023 и его инновационные задачи. Также есть аспекты и рекомендации, на которые следует обратить внимание студентам, чтобы успешно участвовать в исследовании.

This article describes the main characteristics of the TIMSS 2023 study and its innovative objectives. There are also aspects and recommendations that students should pay attention to in order to successfully participate in the study.

2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida joriy yilda 4- va 8-sinf oʻquvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturida Oʻzbekiston ishtirokini ta'minlash vazifasi belgilangan.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) 1995-yildan buyon har toʻrt yilda bir marta toʻrtinchi va sakkizinchi sinf oʻquvchilarining matematika va tabiiy fanlar boʻyicha yutuqlari haqidagi ma'lumotlarini yigʻib kelayotgan uzoq yillik xalqaro baholash hisoblanadi. 70 ga yaqin mamlakat TIMSS trend ma'lumotlaridan global kontekstda oʻz ta'lim tizimlarining samaradorligini kuzatish uchun foydalanadi 1995-yildan beri oʻtkazib kelinayotgan tadqiqotlarda oʻquvchilarning umumiy yutuqlari, oʻquv reja va dasturlarning amalga oshirilishi, oʻquv amaliyotlari, maktab resurslari, shuningdek, uy va maktab sharoitlari toʻgʻrisida ma'lumotlar beradi hamda unda oʻqitish jarayonini monitoring qilish va baholash boʻyicha qimmatli ma'lumotlar toʻplanadi.

2023-yilda IEA va TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi 4-8-sinflarda sakkizinchi TIMSS siklini oʻtkazadi va oʻquvchilarning matematika va tabiiy fanlar boʻyicha qariyb 30 yillik yutuqlari tendentsiyalari haqida ma'lumot beradi. TIMSS tadqiqotlari 2019-yilga qadar qogʻoz va raqamli shakllarda tashkil etib kelingan boʻlsa, 2023-yildagi tadqiqotdan boshlab toʻliq raqamli formatga oʻtkaziladi. Bu esa

o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash bilan bir qatorda, mamlakatning zamon talablariga moslashishlariga hamda AKT tizimi rivojlanishining yanada jadallashuviga turtki bo‘ladi.

TIMSS 2023 baholashlari jozibador yangi topshiriq formatlari va interfaol funksiyalarni, shuningdek, o‘quvchilarni rag‘batlantiradigan va raqamli muhitdan foydalanishga yordam beradigan stsenariy asosidagi muammolarni hal qilish va tadqiqot (PSI) vazifalarini o‘z ichiga oladi.

TIMSS 2023 tadqiqotining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- ✓ O‘quvchilarni jalb qiluvchi innovatsion topshiriq turlari
- ✓ Baholash dizayniga integrallashgan muammolarni hal qilish va so‘rovnoma o‘tkazish topshiriqlari
- ✓ O‘quvchilar jamoasiga mos kelishini ta’minlash uchun guruhga moslashuvchan baholash
- ✓ Jarayon haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli xalqaro xisobot
- ✓ Matematika va tabiiy fanlarni o‘rganish mazmuni bo‘yicha siyosiy qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma’lumotlarni
- ✓ Onlayn ta’minotni o‘z ichiga olgan yetkazib berishning bir nechta usullari va samarali amaliyotlar

TIMSS 2023 tadqiqoti keng ko‘lamli interfaol topshiriq turlari bilan bir qatorda, raqamlashtirilgan muhitdan samarali foydalanish va o‘quvchilarni jalb qilish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, o‘quvchilar muammolarni hal qilish uchun ekrandagi narsalarni harakatlantirish va aylantirish, matn terish, tenglamalar va qo‘lda chizilgan rasmlar bilan ishlash kabi bir qator vazifalarni amalga oshiradilar. Topshiriqlar tarkibiga ilmiy tadqiqotlar va voqea-hodisaloarni namoyish etish uchun rangli grafikaga qo‘shimcha tarzda video yoki animatsiyalar ham kiritilishi mumkin. O‘quvchilar kontekstda berilgan algebraik ifodalardagi o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatni baholaydilar va o‘zlarining fikrlarini matn hamda foydalanuvchi uchun qulay bo‘lgan belgilar palitrasi yordamida izohlaydilar.

TIMSS 2023 tadqiqotida berilgan topshiriqlar haqiqiy va laboratoriya holatlari uchun simulyatsiya yaratib, o‘quvchilarni matematik masalalarni hal qilish, ilmiy tajribalar va tadqiqotlar o‘tkazish uchun jarayon ko‘nikmalari hamda bilimlarini integratsiya va sohada qo‘llashga chorlaydi. TIMSS 2023 uchun yangi muammolarni hal qilish va so‘rovnoma o‘tkazish topshiriqlari ishlab chiqiladi va tadqiqotning baholash dizayniga qo‘shiladi.

Baholash jarayonida olingan ma’lumotlar tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning matematika masalalarini hal qilish, ilmiy izlanishlar, test sinovlari strategiyasi va mashg‘ulotlarga yondashuvlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Ushbu ma’lumotlar TIMSS 2023 tadqiqoti hisobotiga kiritilib, o‘quvchilarning matematika va tabiiy-ilmiy fanlar yutuqlarini yaxshiroq tushunishlariga ko‘maklashadi.

TIMSS 2023 tadqiqoti innovatsion guruhning moslashuvchan dizaynidan foydalangan holda, baholash jarayonini o‘quvchilar jamoasi bilan muvofiqlashtiradi. Barcha mamlakatlar bir xil TIMSS topshiriqlarini qo‘llaydilar.

Raqamli baholash daftarlarining ikkita to‘plami, ya’ni qiyin va o‘rtacha darajadagi topshiriqlardan iborat murakkab to‘plam hamda o‘rtacha va oson darajadagi topshiriqlardan iborat murakkab bo‘lmagan to‘plamlardan iborat bo‘ladi. Barcha mamlakatlarda, davlatning umumiy yutug‘ini inobatga olgan holda, har xil darajalarda qo‘llaniladi. Bu baholashning murakkabligi va o‘quvchilarning yutuqlari o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi va o‘z navbatida

barcha darajalardagi yutuqlarini yaxshiroq o‘rganish imkonini beradi.

TIMSS 2023 tadqiqotida o‘quvchilar, ularning ota-onalari, o‘qituvchilari va maktab direktorlari, shuningdek, o‘quvchilarning maktabda qolaversa uyda matematika va tabiiy fanlarni o‘rganish tajribalari to‘g‘risida anketalarni to‘ldirib, siyosiy muhim ma’lumotlarni to‘plashda davom etadi. Ishtirokchi mamlakatlar mualliflígi asosida tayyorlangan TIMSS 2023 ensiklopediyasi har bir mamlakat to‘g‘risida, shu jumladan ta’lim tizimlarining tarkibiy jihatlari, ta’lim mazmuni va yo‘riqnomasi hamda so‘nggi vaqtlarda amalga oshirilgan hamda rejalashtirilgan islohotlar haqida keng qamrovli ma’lumotlarni taqdim etadi. Ushbu keng ko‘lamli ma’lumotlar to‘plami o‘quvchilar dunyoqarashi va tajribalaridagi xilma-xillikni ochib berishda qo‘llanilishi mumkin. Mamlakatlar esa ta’lim tizimining tuzilishi, o‘quv dasturlari, o‘quv amaliyotlari va o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabatlarini o‘z ichiga olgan siyosiy o‘zgarishlarning shohidi bo‘lishadi.

TIMSS 2023 mamlakatlarga yuqori darajadagi qulaylikni taklif etadi. Baholash onlayn, mahalliy flesh-xotiralar yordamida yoki mahalliy server orqali o‘tkazilishi mumkin. Baholash jarayonlari maktab jihozlaridan foydalangan holda yoki jihozlarni maktablarga tashqaridan olib kelish orqali tashkil etilishi mumkin. Raqamli muhit, tarjima va xalqaro verifikatsiya jarayonlarini soddalashtirish, asosiy taqdiqotlarni o‘tkazishni takomillashtirish, natijalarni qayd etishni avtomatlashtirish hamda qog‘ozga asoslangan faoliyat bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish orqali amaliy samaradorlikni oshiradi.

O‘zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llash, o‘z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega

bo‘ladi.

Tadqiqotda, O‘zbekistonning 4- va 8- sinf o‘quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qay darajada yuqori? Matematika va tabiiy fanlar 4- va 8- sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli fanmi? Oila tomonidan farzandlarga matematikani va tabiiy fanlarni o‘zlashtirishda qanday hissa qo‘shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni qanday tashkil etilgan? O‘zbekiston matematika va tabiiy fanlar o‘qitish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o‘ziga xosligi bormi, agar bor bo‘lsa u nimalarda namoyon bo‘ladi? Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchilar metodlari boshqa mamlakatlar o‘qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qiladi? kabi asosiy masalalar o‘rganiladi va tadqiq etiladi.

Tadqiqotning har to‘rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta’lim tizimining samaradorligini kuzatib borish

imkonini beradi. Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etuvchi mamlakatimizdagi 166 ta maktab 14 ta hudud kesimida reprezentativlik tamoyili asosida tanlab olinadi. Ushbu tamoyil asosida tasodifiy tanlab olingan maktablar o‘zining ta’lim berishdagi tajriba va salohiyati asosida mamlakatning vakili sifatida ta’lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining samarasi, ta’lim sifati va jarayonlarning ta’sirini ko‘rsatib turuvchi obyekt sifatida ishtirok etadilar. TIMSS tadqiqotida maktablarni reprezentativlik tamoyili asosida tanlab olish orqali ta’lim tizimi samaradorligini dunyo mamlakatlari miqyosida solishtirish mumkin bo‘ladi. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlar milliy markazi Axborotnomasining 4-soni TIMSS xalqaro tadqiqoti doirasida foydalanilgan materiallar asosida tuzilgan. Shuningdek, yurtimizning 4- va 8-sinf o‘quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlarni baholash darajasi aniqlab belgilab olish maqsadida, A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti tomonidan ishga tushirilgan ***STesting*** elektron platformasida ***TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlari olib*** borildi. Hozirgi kunda, ***STesting*** elektron platformasida TIMSS tadqiqotida yurtimizdagi 3 000 000 ga yaqin to‘rtinchi va sakkizinchi sinflarda baholashlarni o‘tkazishning odatdagi tajribasi o‘tkazildi. Platformada TIMSS xalqaro tadqiqotiining ochiq bazasidagi 500 dan ortiq topshiriqlar joy olgan bo‘lib, shu kunga qadar TIMSS tadqiqoti bo‘yicha 4 500 000 dan ortiq test-topshiriqlari bajarildi.

Xulosa o‘rnida shu aytish mumkinki, ushbu tadqiqotda ilk bora ishtirok etayotgan mamlakatimiz o‘quvchilarini TIMSS 2023 tadqiqotining innovatsion va interfaol topshiriqlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ularni yechish bilan bir qatorda, raqamlashtirilgan muhitdan samarali foydala olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishlari talab etiladi. Buning uchun joylarda, jumladan maktablarga tadqiqotga tayyorgarlik ishlari izchil olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. TIMSS 2023 Assessment Frameworks Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, and Matthias von Davier, Editors
2. Analysis Report: Establishing a Concordance between PASEC and TIMSS/PIRLS (2022) Lale Khorramdel, Liqun Yin, Pierre Foy, Ji Yoon Jung, Ummugul Bezirhan, and Matthias von Davier
3. https://timssandpirls.bc.edu/

O‘ZBEKISTON TARIXI DARSLARIDA USTRUSHONA XALQLARI MADANIYATI TARIXIDA QOVUNCHI MADANIYATI O‘RNI VA O‘RGANILISH TARIXI

dos. F.E. Toshboyev, Lapasova Maftuna Sanaqul qizi,
Ilmiy rahbar; GulDU tayanch doktoranti
e-mail: Yustitsiya.1991@inbox.uz

Keyingi yillarda o‘tkazilgan qidiruv, qazuv tadqiqotlari natijasida O‘rta Osiyo arxealogiyasi fani olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan kashfiyotlar, jahon xalqlari tarixida takrorlanmas saxifalar ochuvchi yangi, qimmatli ma’lumotlar, qadimgi davr madaniyati, amaliy san’ati, me`morchiligi, xunarmandchiligiga mansub nodir topilmalar osoru atiqalar bilan yanada boyildi. Bu esa O‘rta Osiyo hududida inson istiqomati va ishlab chiqarish faoliyati bir necha ming yillardan buyon qaror topganligi, bu muqaddas qadamjoy dunyo sivilizatsiyasining asosiy va eng qadimgi madaniyat markazlaridan biri bo‘lganligini yana bir bor e`tirof etadi. Lekin bu muvaffaqiyatlar katta geografik mintaqani qamrab oluvchi O‘rta Osiyo xususan, O‘zbekiston arxealogiyasi fanida barcha muammolar izchillik bilan xal etilgan degan ma’noni bildirishga asos bo‘lolmaydi.

Arxealogiya fanidagi shunday kamchilik muammolardan biri O‘rta Osiyo tarixiy-madaniy o‘lkalari, vohalari tarixini arxealogik nuqtai-nazardan o‘rganish rejasidagi qarama-qarshilik va tengsizlikdir. Bunday salbiy voqelik faqat kattakatta madaniy vohalar o‘rtasida, balki bir voha tasarufida joylashgan turli mavzelar o‘rtasida ham sodir bo‘ldi va ayrim hollarda hanuzga qadar davom etmoqda. Agar hozirgi kunda O‘rta Osiyoning arxealogik xaritasiga nazar tashlagudek bo‘lsa haqiqatdan ham qadimgi madaniy o‘lkalar tarixini muntazam o‘rganilishi darajasi qayerda qay tariqa borayotganligini yetakchi o‘rinni egallovchi vohalarni “qoloq” viloyatlarni va albatta xaritadagi “ochilmagan ko‘rik” larni ko‘rish mumkin. Yaqin yillarga qadar, shunday arxealogik tadqiqotlar o‘tkazish va o‘rganish mezonlaridan chetda qolgan regional qatoriga qadimgi Ustrushona davlatning shimoliy, shimoliy g‘arbiy qismi aniqrog‘i hozirgi O‘zbekiston Respublikasining Sirdaryo Jizzax viloyatlari xududidagi tarixiy madaniy vohalar ham kirar edi.

Takidlashimiz joizki hozirgi Sirdaryo va Jizzax hududiy jihatdan jumhuriyatagi eng kichik viloyatlardandir. Qolaversa bu viloyatlarning kattagina qismini qadimgi “qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadi” ndeb naql qilingan Mirzacho‘l egallaydi. Shu sababli bo‘lsa kerak bu o‘lkaning qadim tarixi, arxeologiyasi katta bir davr mobaynida mutaxasislar diqqat e`tiboridan chetda qolgan. O‘rta asrlar O‘rta Osiyoning ikki xil madaniyati turmush tarziga mansub o‘troq dehqon va chorvador ko‘chmanchi xalqlarning moddiy madaniy xususiyatlarini yanada yaqinlashuvi, etnik jihatdan aralashuvning kuchayganligi ijtimoiy-iqtisodiy jabxalarda o‘zaro tasir doirasini kengaygani bilan xarakterlanadi. Aslida bu jarayonlarning boshlang‘ich nuqtasi biz o‘rganayotgan davrdan ancha ilgari eramizdan avvalgi ming yillikning oxirgi asrida Sirdaryoning quyi va o‘rta oqimi xavzasida vujudga kelgan o‘ziga xos cho‘l madaniyati muqaddimasi bilan bog‘liqdir. Keyingi davrlarda O‘rta Osiyoning o‘troq vohalariga kuchli tasir ko‘rsatgan bu madaniyatni P.M. Lenina geografik jihatdan uch qisimga ajratadi.

1. quyi Sirdaryoning chap sohilida, uning eski o‘zaki Kuvandaryo havzasida joylashgan Jeti Osor madaniyat o‘chog‘i.

2. Jeti –Osorning janubi sharqida Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan. Qoratog‘ning shimoliy tizimlari bilan chegaralangan. O‘troq Qoratog‘ madaniyati o‘chog‘i.

3. Toshkent vohasi Angren chirchiq Keled xavzasidan Qurama tog‘I

tizmalarigacha shimoli sharqdan Pekem, Chotqol yuqori talasgacha boʻlgan katta bir hududiy lirpikda tashkil topgan Qovunchi madaniyati oʻchogʻi. Uning takidlashicha ushbu 3ta madaniyat oʻchogʻI qayd etilgan kulopik mahsulotlari umumiy jihatlari boʻyicha bir-biridan farq qilmaydi. Birinchi –yangi eraning boshidan III asrning oxiri yokiIV asr boshigacha ikkinchi eramizning IV-V asrlari; uchinchi –eramizning VI asridan VIII asri boshigacha boʻlgan davrlar Qovunchi madaniyatining uchinchi bosqichi uchun Sugʻdning Toshkent vohasiga koʻrsatgan moddiy manaviy aks tasiri xarakterlidir.Sugʻdning bu tasiri memorchilikni bazi bir tarkibiy qisimlarida terrakota qolip bilan tushiriladigan naqshlar va oz darajada qoʻpollik maxsulotlarida (metall idishlarga taqlid qilib yasalgan kosagul va ekalogiyalardan tashqari) oʻz ifodasini topadi.

P.M. Pevinaning izoh berishicha Jeti Osor madaniyati oʻz shakillanishi va rivojlanishida asosan ikki bosqichni eramizning I-III asrlari bilan, ikkinchi bosqichi IV-VIIIasrlar bilan davrlanadi. Jeti Osor birinchi bosqichda Oʻrta Sirdaryo boʻyi madaniyatini kuchli tasirini ostida qoladi. ikkinchi bosqichda esa aksincha oʻrta Sirdaryo boʻyi madaniyati Jeti –Osor madaniyati tyasirinioʻzida sinab koʻrdi. Bu jarayonni muallif jeti osorliklarni Sirdaryoni yuqori oqimi tomon siljigani Toshkent vohasi qoʻpollik maxsulotlarida yangi shakilli idishlarni dafn inshoatlarida xar xillikni paydo boʻlishi bilan bogʻlaydi. Uning fikricha bu aholi qatlami oʻtroqlashgan va qovunchi madaniyatiga mansub xalqlar bilan aralashib, qoʻshilib ketgan. Aynan ushbu masala boʻyicha fikr bildirgan M.I. Filanovich Oʻrta Sirdaryo boʻyi moddiy-madaniyatdagi sifat oʻzgarishlari Jeti-Osor tarkibiy qismlaridan avvalroq paydo boʻlganini takidlab, bu voqelik Sirdaryo regioni tarixi saxnasida
paydo boʻlgan xioniy kidoriy eftaliy qabilalar bilan bogʻliq ehtimoli borligini aytadi. A.Askarov va B. Axmedovlarning fikricha bu davrda Oʻrta Osiyo xalqlarining etnik shakillanishiga ham muhim chizgilar qilindi.

Tarixiy manbalarga koʻra shimoli sharqdan Yuechjlarning janubi fʽarbga yurishi Inson baktriya davlatini agʻdarilishida muhim roʻl oʻynagan boʻlsa koʻchmanchilarning katta bir qabila ittifoqi Oʻrta Osiyoning shimoli qismlari negizidan yarim oʻtroq va yarim koʻchmanchi kang davlatini barpo etishda (bu milloddan avvalgi III-II asrlar) ishtirok etishgan. Mualiflarning takidlaganlaridek Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻi irqi) dastlab Sirdaryoning oʻrta xavzasi rayonlarida yani Toshkent vohasi va Janubiy Qozogʻistonda aniq bir antropologik tip boʻlib tarkib topgan paytda hu mavzelarda “Qovunchi madaniyati” shakillangan. Bu madaniyatning ijodkorlari Kang davlati aholisi kangarlar boʻlsa ajab emas. Chunki turkiy zabon xalqlarning Movarounnahr va Xorazmning ichki hududlariga yoyilishi ana shu madaniyat izlari bilan bogʻliqligi kuzatilmoqda. Ma’lumki, yangi eraning III-IV asrlarida choʻl xalqlarining “buyuk koʻchish davri” boshlanadi. Vabuning natijasida Oʻrta Osiyoning katta hududiy birliklariga yangi aholi turkumlari kirib kelgan va ommaviy tarzda oʻtroqlashgan.

Shuningdek, bu danrda Szin sulolaviy yilnomasining xabariga koʻra Kangiy oʻz markaziy qarorgohini Sirdayo sohiliudan janubga Sugʻdga koʻchirgan “buyuk koʻchish” Kangiy qarorgohi joyini janubga oʻzgartirilishi vaqti tarix sanasida

kidariy xioniy eftaliylarni shaydo bo‘lgan vaqt bilan hamda O‘rta Sirdaryo xalqlari madaniyatini qo‘shni regionallarga tasirdoirasini kuchayganligi bilan dearli bir vaqtda sodir bo‘lgan jarayonlardir. bu esa mazkurelat va qabilalarni etnik tarkibi qon qardoshlik urug‘doshlik iplari bilan bog‘langanligi ehtimoli borligini bildiradi. Darhaqiqat, arxealogik materiallarni taxlili ham milodiy II-III asrlardan boshlab “Qovunchi madaniyati “ning tasiri dastlab chegaradosh Ustrushona va Farg‘ona vodiysiga keyinroq Sug‘dning markaziy rayonlariga tarqalganligini ko‘rsatadi. MilodiyIV-V asrlarda esa “Qovunchi madaniyati”ga tegishli moddiy madaniy namunalari Buxoro vohasida Qashqadaryoda xatto Surxandaryo yodgorliklarida ko‘plab uchraydi. IV-V asrlarda Buxoro vohasining shimoli g‘arbiy mavzeylarida bu o‘lkaning qadimgi an’anaviy madaniy merosidan tubdab farq qiluvchi “Qonunchi madaniyati”ga o‘xshash yangi arxealogik madaniyat tarkib topdi. Bu arxeologiyada “Qizilqir madaniyati “nomi bilan qayd etildi.[73] O‘rganilish tarixiga e’tibor berganda O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan Jizzax vohasining tog‘ va tog‘ oldi mavzelari qadimdan aholisi zich joylashgan tarixiy madaniy o‘lkalar tarixiga kirgan. Sangzor va Zominsuv daryolari ko‘plab soy va buloqlar xavzasida hosil bo‘lgan vodiylarda lalmikorlikdan tashqari suniy sug‘orish tizimlariga asoslangan dehqonchilik va o‘troq xayot ancha qadimdan boshlangan. Shuningdek, vohaning shimoliy va shimoli-g‘arbiy sarxadlarida yasangan cho‘l-dasht mavze Mirzacho‘lda arxolik va ilk antiq davrdagi ko‘chmanchi chorvadorlar faoliyati arxealogik materiallarda o‘z aksini topgan. Bu mavzelardan neolit va bronza davri jamoalarning moddiy madaniyat namunalari qayd etilganini xisobga olsak bu mo‘jaz tarixiy madaniy o‘lkada inson istiqomati va xo‘jalik yuritish faoliyati ancha qadimdan yo‘lga qo‘yilgani tasdiqlash mumkin bo‘ladi. Qazuv- tadqiqotlari asosida Ustrushonada va uning Jizzax vohasida shahar xayoti va turmush tarzi O‘rta Osiyodagi mavjud qadimgi shahar hamda madaniy vohalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, maxaliy iqlim sharoiti va geografik omillar asosida, taraqqiyotining O‘rta Osiyoga xos yaxlitligining o‘zida mujassam qilgan holda yuzaga kelganligi va shakillanganligi isbotlandi. Jizzax shahrining qadimiyligini isbot talab qilmaydigan haqiqat aksioma sifatida qabul qilish mumkin. So‘zsiz shaharning tarixiy yoshi 2000 yildan oshdi. Eng so‘ngi rasmiy, tarixiy sanani arxealogiya qazuv ishlarini davom ettirib, qaliyatepa, o‘rda, Qo‘rg‘ontepa kabi shahar yodgorliklarini eng qadimiy qatlamlarini ochib taxlil qilgan holda aniqlash mumkin. Bu esa vohada arxealogiya qazuv-tadqiqotlarini davom ettirishni taqazo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Inomov O.U. Qovunchi madaniyati va uning o‘zbek xalqining shakllanishidagi roli. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati. Toshkent, 2019.
2. Masson M. Ye. K istorii gornogo dela na territorii Uzbekistana. Tashkent, 1953; on je. Axangaran. Arxeologo-topograficheskiy ocherk. – Tashkent, 1953.

[73] A.Asqarov. O’zbekiston tarixi. T., “O’qituvchi”, 1994, 16-bet.

3. Pardaev M. Jizzax voxasining VII-VIII asrlardagi kulollik idishlari // IMKU. Vыр. 30. Samarkand, S.145-151.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MATNNI O‘QIB TUSHUNISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH

S.X.Shomurodova, N.X.Shomurodova
A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti yeakchi ilmiy xodimi, Samarqand viloyati Urgut tumani 81-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o‘qish savodxonligining inson hayoti uchun muhimligi, matnni o‘qib tushunish barcha fanlarni o‘zlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi va o‘quvchilar bilimini baholashning yangicha usullari haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada matnni o‘qib tushunish savodxonligini baholashga doir ayrim takliflar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается значение грамотности чтения для жизни человека. Понимание прочитанного является основой для освоения всех предметов, обсуждаются учебник «Родной язык и грамотность чтения» и новые методы оценки знаний учащихся. Также в статье приведены

некоторые предложения по оценке грамотности чтения и понимания текста.

ABSTRACT. In this article, the importance of reading literacy for human life, reading comprehension is the basis for mastering all subjects, the textbook "Mother language and reading literacy" and new methods of assessing students’ knowledge are discussed. Also, the article contains some suggestions for assessing the literacy of reading and understanding the text.

Keyingi yillarda ta’lim tizimiga kirib kelgan xalqaro baholash dasturlari: PIRLS, PISA va TIMSS xalqaro dasturlari o‘qitishni tubdan isloh qilish lozimligini ko‘rsatmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasida birinchi marta Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, endi o‘quvchilar ma’lumotni shunchaki yodlab aytib berishi emas, balki, darslikdagi ma’lumotlar, qoidalarni hayotda qo‘llay olishi, o‘zi mustaqil xulosalar chiqarishi lozimligi ayon bo‘ldi. O‘qish savodxonligining rivojlanishi har bir o‘quvchining o‘sib-ulg‘ayishi, ta’lim olishi va kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgani bois, o‘qish savodxonligini tadqiq etishda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) qariyb 60 yil mobaynida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini muntazam ravishda xalqaro miqyosda baholab, ularning o‘qib o‘rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. O‘qish savodxonligi qamrov doirasi o‘quvchilarning o‘qib tushunishlaridan ko‘zlangan ikki asosiy maqsad, badiiy tajriba orttirish va axborotni olish va undan foydalanish, hamda to‘rtta tushunish jarayonidan (topish, xulosalar chiqarish, uyg‘unlashtirish va baholash) kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash uchun xizmat qiladi.

Milliy o‘quv dasturi asosida boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari uchun

yaratilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida ham asosiy e’tibor o‘quvchining mustaqil fikrlashiga, matnni o‘qib tushunishiga va matn osti ma’nolaridan xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Ilgari faktik ma’lumotga asoslangan ta’limda yod olib qayta aytib berish jarayonida o‘quvchining xotirasi, eslab qolish qobiliyati baholangan. Hozir esa o‘quvchining vaziyatga moslashuvchanligi, mustaqil xulosalar chiqarishi baholanishi lozim. 3-sinf o‘quvchilari uchun ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan birinchi nazorat ishida “**Dub daraxti bilan qo‘ziqorin**” deb nomlangan matn berilgan. Badiiy matnni o‘qib, tegishli savollarga javob berish nazorat ishining asl mohiyatini belgilaydi. Matn quyidagicha: *Yosh dub daraxtining yonginasidan qo‘ziqorin o‘sib chiqibdi, o‘zi semiz, qalpog‘i bir yoqqa qiyshaygan emish.*

– Amaki, necha yoshga kirdingiz? – deb so‘rabdi u dub daraxtidan.

– Beshga qadam qo‘ydim, – debdi dub.

– Men endigina dunyoga keldim. Shunday bo‘lsa ham, sizga yetay deb qolibman-a. Shu o‘sishda ketaversam, keyin nima bo‘ladi? Amaki chetroqqa chiqib tursangiz-chi, menga joy torlik qilib qoladiganga o‘xshaydi, – debdi qo‘ziqorin.

– Hovliqma! Uch-to‘rt kun sabr qil-chi, u yog‘i nima bo‘lishini keyin ko‘ramiz, – debdi dub daraxti.

Bir kun o‘tibdi, ikkinchi kun ham o‘tibdi. Qo‘ziqorin kunlab emas, soatlab o‘saveribdi. Dub daraxti uning bu o‘sishidan tashvishga tushib qolibdi. Lekin

qo‘ziqorin uchinchi kuniga o‘tganda bir yonga qarab egilib ketaveribdi.

– Dub amaki, siz hali ham tik turibsizmi? – debdi qo‘ziqorin.

– Ha, turibman, – debdi dub.

– Men yonboshimga qiyshayib ketyapman, boshimga ham bir balo bo‘lganga o‘xshaydi, – debdi qo‘ziqorin.

Ko‘p o‘tmay qo‘ziqorin yiqilib tushibdi. Dub daraxti bo‘lsa hali ham turganmish.

Badiiy matn o‘quvchi ixtiyoriga havola etilgach, bir qancha savollar so‘ralgan. Bu savollar test xarakterida bo‘lib, to‘g‘ri/noto‘g‘ri kabi javoblilari ham, matndagi gaplarning ma’nolari so‘ralganlari ham bor. Testlarga baho 1 va 2 ballar qo‘yilgan. Demak, bu o‘rinda o‘z-o‘zidan darajali topshiriqlar yuzaga kelmoqda. Murakkabroq savolga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi 2 ball oladi. Masalan, “*Qo‘ziqorin kunlab emas, soatlab o‘saveribdi. Ushbu gap orqali muallif nima demoqchi? Qo‘ziqorin dub daraxtida nega siz hali ham tik turibsizmi deb so‘radi*?” kabi savollar faqatgina faktik ma’lumot emas, balki, o‘quvchidan matnni tushunish, matn parchalari orqali xulosalar chiqara olish ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazadi. Shu sababli ham bunday testlarning to‘g‘ri javoblari yuqoriroq ball bilan baholanadi. Shunga mos tarzda imlo qoidalariga, ma’nodosh so‘zlar kabi grammatik ma’lumotlar talab qilinadigan testlar esa 1 ball miqdorida baholanadi. Bu baholash mexanizmi o‘quvchilarni PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlashda yaxshi samara beradi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan olinadigan xalqaro PIRLS tadqiqotida ikki xil matndan foydalaniladi: badiiy matn va axborot matni. Bu ikki xil matnning biri o‘quvchining badiiy tafakkurini rivojlantirishga, ikkinchisi esa uning bilimlarini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, badiiy matnli

topshiriqlarni baholayotganda o‘quvchining badiiy tafakkurini ham hisobga olish yaxshi samara beradi. Buni yuqorida keltirilgan nazorat ishidagi savollardan ham bilish mumkin.

O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish savodxonligini baholashda quyidagi jihatlar hisobga olinsa, maqsadga muvofiq:

- O‘quvchining imloviy va grammatik qoidalardan xabardorligi;
- Badiiy matndagi holatlarga mustaqil izohlarini bera olishi;
- Axborot matnidagi ma’lumotlarni hayot bilan bog‘lay olishi;
- Matn osti ma’nolarini ilg‘ashi va shu asosda shaxsiy xulosalar chiqarishi.

Albatta, bu jihatlar bir xil ball miqdorida emas, balki muhimlik darajasiga qarab baholanishi lozim bo‘ladi. Masalan, imloviy grammatik qoidalarni bilishni baholashdagi ballar, badiiy matnda mustaqil izohlarni bera olishidagi ballardan yuqori bo‘lmasligi kerak. Albatta, bu qoidalarni hayot bilan kitobdagi bilimlarni bog‘lay olish, matn osti ma’nolarini ilg‘ash va shu asosda shaxsiy xulosalar chiqarish kabi holatlar yuqoriroq baholanishi tabiiy. Bunday baholash o‘quvchi uchun ham ijobiy natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi matnni quruq yodlab olish emas, balki uni tushunish, tahlil qilish, izohlash, matn asosida xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ham ayni o‘qish savodxonligini to‘g‘ri baholashga bog‘liq masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi. Qo‘llanma o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun tuzuvchilar guruhi A.Ismailov va boshqalar. Toshkent: “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”, 2021-yil. 99 bet.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.

3. Doniyarov, M. (2020). Xalqaro baholash tizimida boshlang‘ich ta’limning o‘rni. Журнал начального образования.

4. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

5. Asqarova M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish” Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Namangan: 2020.

O‘QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GEOMETRIK MASALALAR AHAMIYATI

Umarova Matlyuba Yusufjanovna,

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida geometriya fanini

o'qitishning ahamiyati hamda o'quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishda geometrik masalalar yechishning o'rni qisman yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье частично освещается значение преподавания геометрии в общеобразовательных школах, а также роль решения геометрических задач в развитии математической грамотности учащихся.

Annotation. This article partially covers the importance of teaching geometry in secondary schools and the role of solving geometric issues in the development of mathematical literacy of students.

Matematik savoqxonlik - fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishidir.

Shu nuqtai nazarda matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarda matematik bilimlarni amalda qo'llay olish, mantiqiy fikrlash, o'quv-o'rganish, matematik savodxonlikni shakllantirish, ilmiy bilish metodlari bilan tanishtirish lozim. Matematika o'qitishda matematik savodxonlikni shakllantirish quyidagi elementlar asosida amalga oshiriladi: bilimlar aniq bir maqsadga qaratilganini kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish, gipotezalarni qo'yish va ularning to'g'riligini sodda usullar yordamida tekshirish.

Fan sifatida geometriya eng qadimgi zamonlardagi yuz va hajmlarni o'lchash uchun amalda zarur bo'lgan qoidalardan tortib to muntazam va qat'iy mantiqiy sistemaga kirishiga qadar bo'lgan uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Geometriya bilimlarini sistemaga solish, uning ayrim qoida, qonunlari orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga urinish boshqa matematik fanlardagiga qaraganda ko'p asrlar oldin amalga oshirilgan edi. Geometriyaning sistemali kursini Evklid bizning asrimizdan III asr muqaddam yaratdi. Evklidning «Nachalo»si («Boshlang'ich») ikki ming yil davomida mantiqiy jihatdan hech qanday kamchiligi yo'q deb xisoblanib, geometriya darsliklari yozish uchun namuna bo'lib keldi.

Xozirgi vaqtda geometriyaning ilmiy kursi, qat'iy deduktivdir. U ma'lum bir aksiomalar sistemasi, ya'ni isbot qilmasdan qabul qilinadigan qoidalar va bir qancha asosiy yoki dastlabki tushunchalarga asoslangandir. Bu tushunchalarning ma'nosi aksiomalarning o'zida tushuniladi. Geometriyaning bundan keyingi qismi esa sof mantiqiy yo'l bilan ochib beriladi: yangidan berilgan har bir tushuncha ta'riflab beriladi, har bir yangi jumla isbot qilinadi, ya'ni aksiomalarga, ilgari isbot qilingan teorema va ta'riflarga asoslanib, mantiqiy yo'l bilan chiqariladi. Geometriyaning bunday kursi hech qayerda tajriba yoki bevosita amalda ko'rishga ehtiyoj bo'lmaydi.

Agar biror qoidani mantiqiy yo'l bilan chiqarish mumkin bo'lar ekan, bu qoidaning qancha ochiq – oydin bo'lishiga qaramasdan uning isbot etilishini talab qilish hech qanday shubha tug'dirmaydigan abstrakt, formal dalillarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishda geometrik masalalar muhim ahamiyatga ega. Qo'yilishiga va yechilish uslubiga ko'ra bunday

masalalar o‘quvchilarda geometrik tasavvurlarni shakllantiriradi va rivojlantiradi hamda geometrik figuralarning elementlari orasida fikran bog‘lanishlar o‘rnata olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, geometrik masalalar o‘quvchilarda geometrik intuitsiyani, mantiqiy tasavvurni rivojlantiradi.

Geometrik masala ustida sistemali ishlash quyidagi tamoyillarga aynan mos kelishi kerak.

1. Fikrlashning deduktiv usulining shakllanganlik tamoyili. Bu tamoyil aksiomatik metod asosida geometriya kursini ma’lum darajada mustaqil qurish jarayonida o‘quvchilarning geometrik bilimlarni egallashlarini nazarda tutadi. Bu o‘quvchilarga bir tomondan maktab geometriya kursi strukturasi haqida aniq tasavvur hosil qilish, uning deduktiv qurilganligini anglash imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan nazariy material xususida erkin fikrlashga, turli geometrik tushuncha va teoremalar orasida aloqalarni o‘rnatishga imkon yaratadi.
2. O‘quvchilar bilimini abstrakt tushunchalar orasidagi o‘zaro bog‘lanishni aniq faktlar asosida amalga oshirish orqali sistemalashtirish, ya’ni amaliy masalalar yechish orqali nazariy bilimlarni sistemalashtirish tamoyili.
3. Masalani yechish va isbotlashning mantiqiy ketma-ketligini tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishda barcha bosqichlarni hisobga olish tamoyili.

Geometriyani o‘rganayotgan o‘quvchilar, isbotning zarurligini va muhimligini anglashga qodirlar. Zamonaviy metodika bu muammoni o‘quvchilarga isbotlashning namunalari (algoritmlari) ni berish orqali hal etmoqda. Ammo bunday yondashishning boshlang‘ich bosqichda foydali ekanligini rad etmagan holda ta’kidlaymizki, kelgusida o‘quvchilarga namunalarnigina berish yetarli bo‘lmay qoladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar namunalar bilan ishlashda isbotlash yoki masala yechishning barcha bosqichlarini hisobga olmaydilar, natijada uzluksizlik tamoyili buziladi.

Maktabda geometriya fanini o‘qitish texnika ta’limini joriy qilishda ham juda katta rol o‘ynaydi. Geometriya bilimi biror konstruktsiyasining geometrik mazmunini tushunib olishga, mexanizmlarning konkret detallarini tasvirlovchi chizmalarni tez tushunib olishga, bu detallarning o‘lchamlarini aniqlash maqsadida o‘lchash ishlarini bajarishga, yaxshi va puxta chizmalar tayyorlashga va hakozolarga yordam berishi kerak.

O‘quvchilarda bunday qobiliyatlarni tarbiyalash, ayniqsa, bizning mustaqil Vatanimizda muhim o‘rin egallaydi, chunki fan va texnikaning keng miqyosda rivojlanib borishi, hamda keyingi yillarda respublikamizning har bir tuman va viloyatlarida bo‘layotgan ulkan yaratuvchilik va quruvchilik ishlarini amalga oshirilayotgani hamda rejalashtirilayotgani kelajakda injener, arxitektor va konstruktor bo‘lib yetishuvchi o‘quvchilarimizdan shunday qobiliyatga ega bo‘lishni talab etadi.

Maktabda geometriya o‘qitishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarda geometriyadan olgan bilimlarini ijodiy ravishda tatbid qila bilish malakalari xosil qilish lozimki, natijada ularning o‘zlari ishlatadigan asbob va mexanizmlarni yana ham yaxshilash ustida samarali ish olib borishlariga sabab bo‘lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahimberdiyev A.A. Geometriya 8-sinf. Darslik.–T.: “O‘qituvchi”, 2019.

2. Turdiyev N. Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetentsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. (I qism). Toshkent 2015.

OILADA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING ETNOMADANIY JIHATLARI

Velilyayeva Revshen,

Boyovut tuman 6-umum ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATTSIYA. Har bir davlat o‘zining obod turmush tarzini rivojlantirib borar ekan, unda o‘ziga xos estetik xususiyatlar, milliy mentalitet aks etadi. O‘zbek xalqining estetik dunyoqarashida ham sog‘lom turmush tarzi obod jamiyatning ana’analari, milliy bayramlari, tarixiy shaxslarning tavallud ayyomlari bilan uyg‘unlashib ketgan.

Bu narsani biz barcha millat va elatlarning mana shunday ajoyib bayram kunlarni nishonlashida ko‘rishimiz mumkin. “Kishilar bayram chog‘ida, - deb yozadi, Usmon Qoraboev, - chiroyli kiyimlarini kiyishadi, taomlar tayyorlashadi, o‘z qobiliyatlarini namoyish etishadi. O‘sha kuni hamma ko‘tarinki kayfiyatda bo‘ladi” Demak, bunday estetik ko‘rinish obod jamiyatda yashayotgan fuqarolarning faoliyatida yangicha jozibadorlik va ko‘tarinkilikni aks ettiradi.

Mana shunday sog‘lom turmush tarzini yaratishda aholining axloqiy va ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, har bir kishida bu masalaga nisbatan yuksak his-tuyg‘ular va mas’uliyat bilan yondashishni shakllantirish lozim. Bu holat o‘z navbatida, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzining rivojlanishiga, har bir faoliyatda yanada hushyorlikning oshishiga olib keladi. Agar bu ko‘rinish vujudga kelmasa, unda «so‘nggi pushaymon o‘zingga dushman» naqlining qanchalik to‘g‘ri ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilgan bo‘lamiz. Har bir ota-ona o‘z farzandini mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda jismoniy sog‘lomlikkina emas, ma’naviy kamolot darajasi ham katta rol o‘ynashini, obod jamiyatda yashayotganligining estetik mohiyatini ham chuqur anglamog‘i kerak. Barchamiz har tomonlama sog‘lom turmush tarzi, ozod va obod vatanda baxtli bo‘lishni istaymiz-u, ammo u baxtga qanday erishish chora-tadbirlari mavjudligini, ularning ma’naviy tarbiyasi sog‘lom bo‘lishiga vosita bo‘luvchi axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda milliy-ma’naviy qadriyatlarimizning muhimligini o‘ylamaymiz. Mamlakatimizda bugun sog‘lom avlodni voyaga etkazish borasida keng qamrovli islohotlar izchillik bilan davom etayotgan bir davrda obod turmush tarzini yaratish jarayoni o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Chunki har qanday davlatda ham “sog‘lom turmush tarzining axloqiy-estetik asosi jamiyatda farovon hayotning ta’minlanganligi bilan bevosita bog‘liq” bo‘ladi. Farovon hayotda inson baxt-saodatda yashaydi. Ezgu orzu-umidlar qiladi, shu asosda farzand tarbiyalab, ularning kamolini ko‘rishga intiladi

Oila-jamiyat poydevori. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari oilada, biz yashab turgan mahalladan shakllanadi. Yurtimizning ertangi

kuni, tinch va osoyishta hamda obod bo‘lishi eng avvalo mana shu kichik jamiyatda o‘sib-unayotgan farzandlarimizga bog‘liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, o‘sha oila, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi, ertangi kuni tinch va osoyishta bo‘ladi. Xo‘sh, farzandlarimiz tarbiyasida oilaning o‘rni nechog‘lik muhim? Avvalo ota-onalarning o‘zlari farzandlariga yurish-turish, muomila jihatidan farzandlariga o‘rnak bo‘lishlari lozim bo‘ladi. Chunki, oiladagi muhit ota-ona o‘z ma’suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Bolalarning odobli bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabi hisoblanadi. Xalqimiz “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan albatta. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba’zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzandlarimizni intizomga o‘rgatishimiz oilamizning mustahkamligiga asos bo‘ladi. Islom dini ham shu ma’noda ota-onalarni o‘z farzandlariga sog‘lom tarbiya berishga targ‘ib qiladi.

Yuqoridagi fikrlar bugungi kunda jamiyatimizda qaror topayotgan yangicha mezonlar, yashash tamoyillari, milliy mafkuraning hayotiyligi, oxir-oqibatda obod va sog‘lom turmush tarzimizning tabiatini o‘zida gavdalantira olishi, uning ruhiyatiga mos bo‘lishi kerak, degan konseptual xulosani beradi. Boshqa tomondan, sog‘lom turmush tarzi qandaydir yashash tamoyillarining shunchaki majmui emas, shu bilan birga hamisha ichki qonuniyatlar, ziddiyat va qutblarning o‘zaro aloqasini taqozo etadigan murakkab jarayon hamdir. Shu tufayli shakllanayotgan har qanday ehtiyoj va tamoyillar mana shu tarz maydonida sinovdan o‘tadi, mukammallashadi yoki, aksincha, inkor etiladi.

Demak, sog‘lom va obod turmush tarzini dialektik jarayon sifatida tushunish uning tabiati va mohiyatini to‘g‘ri belgilashga olib keladi. Sog‘lom turmush tarzi ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida turgan xalqning iqtisodiy, mahalliy-xududiy tashkil topishi, ruhiy olami va o‘z-o‘zini anglab etishi, boshqa millat-elatlardan farqlanadigan o‘ziga xos hayoti, uning rang-barang shakllari, ijtimoiy

rivoj topganlik faoliyatini aks ettiradi.

Sog‘lom turmush tarzi jarayonining chuqurlashib va mazmunan boyib borishi ob’yektiv ijtimoiy omillar bilan bog‘langandir. Ayniqsa, bular orasida munosib turmush sharoitini yuzaga keltirish alohida o‘rin tutadi. Milliy mafkuraning bosh g‘oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat ekan, bunda xalqning obod turmush darajasini oshirish, farovon hayotini ta’minlash asosiy vazifa ekanligi o‘z-o‘zidan ravshan.

Bugungi kunda farovonlik g‘oyasi milliy siyosatimizning bosh maqsadiga aylandi. Buning uchun obod turmushning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishga chet el sarmoyalarini keng jalb etish, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash kabi katta ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar amalga

oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993.
2. Mirziyoev Sh.M. “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. T.
3. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi.
4. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O‘qituvchi.

ISSUES OF MUSICAL CULTURE DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN

Xayriniso Abduvaliyeva,
Doctoral student of Gulistan State University
Gulistan, Uzbekistan E-mail: xayrinisoumarbek1991@gmail.com

Key words: educational environment, child development, artistic expression, music

Resume: In addition to being an artistic expression, music can be used as a pedagogical resource that supports the intellectual, motor and language development of preschool boys and girls by strengthening cognitive processes such as memory, attention, perception and motivation. This article presents from different theoretical and methodological perspectives how music can be a tool for the development of skills of boys and girls. Also, the article reveals the influence of musical expression in the stages of development of music-preschool children and shows that it is a resource for creating important learning spaces that contribute to the education of preschool children. The article examines how these issues are covered in foreign literature.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSIQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

Xayriniso Abduvaliyeva,
Guliston davlat universiteti doktoranti
Guliston, O‘zbekiston
E-mail: xayrinisoumarbek1991@gmail.com

Kalit so‘zlar: o‘quv muhiti, bolaning rivojlanishi, badiiy ifoda, musiqa

Rezyume; Musiqa badiiy ifoda bo‘lishidan tashqari, xotira, e’tibor, idrok va motivatsiya kabi bilish jarayonlarini kuchaytirish orqali maktabgacha yoshdagi o‘g‘il-qizlarning intellektual, harakat va til rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogik manba sifatida foydalanish mumkin. Ushbu maqolada musiqa qanday qilib o‘g‘il bolalar va qizlarning ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi bo‘lishi mumkinligi turli nazariy va uslubiy nuqtai nazardan taqdim etiladi. Shuningdek, maqolada musiqa-maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish bosqichlarida musiqiy ifodaning ta’sirini ochib beradi va maktabgacha yoshdagi bolalarni

o‘qitishga hissa qo‘shadigan muhim o‘quv maydonlarini yaratish uchun manba ekanligini ko‘rsatiladi. Maqolada ushbu masalalrning xorijiy adabiyotlarda qanday yoritilganligi tadqiq qilinadi.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У ДОШКОЛЬНИКОВ.

Хайринисо. А. Абдувалиева

Докторант Гулистанского государственного университета

Гулистан, Узбекистан

Электронная почта: xayrinisoumarbek1991@gmail.com

Ключевые слова: образовательная среда, развитие ребенка, художественное выражение, музыка.

Резюме: Помимо того, что музыка является художественным выражением, она может использоваться как педагогический ресурс, поддерживающий интеллектуальное, моторное и языковое развитие мальчиков и девочек дошкольного возраста путем усиления когнитивных процессов, таких как память, внимание, восприятие и мотивация. В этой статье с разных теоретических и методологических точек зрения представлено, как музыка может быть инструментом развития навыков мальчиков и девочек. Также в статье раскрывается влияние музыкальной выразительности на этапы развития музыкально-дошкольников и показывается, что она является ресурсом для создания важных учебных пространств, способствующих воспитанию дошкольников. В статье рассматривается, как эти вопросы освещаются в зарубежной литературе.

Musiqa tarbiyaning asosiy bo‘g‘inidir, chunki u bola qalbining ilk lahzalaridanoq uning qalbiga kirib, uni go‘zallik va ezgulikka oshno qiladi.

Platon

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk komil inson qilib tarbiyalashda musiqa va san’atning o‘rni beqiyosdir.

Ajdodlarimiz ham musiqiy tarbiyaning tarbiyaviy kuchiga alohida e’tibor bilan qarashgan. Ajdodlarimiz ham musiqa va san’atni juda qadrlashgan va tarbiyada muhim o’rin tutishini ta’kidlashgan. Tarixda musiqa ilmi bilan shug’ullangan minglab allomalarimizning asarlarini mavjudligi buning yaqqol isbotidir. Xsusan Navoiyning “Majolisun - nafois”da musiqa haqida fikrlar mavjud, Xo’ja Abudal Vafoiy Xorazmiyning "Risolayi musiqa", Jomiyning “Risolayi musiqi”, Zaynulobiddin al-Xusayniyning “Konun-i ilmi va amali musiqiy” risolasi, Najmiddin Kavkabiyning “Risolai musiqiy” va “Risolayi dar bayoni Duvazdohmaqom” asarlarini aytish mumkin. Darvish Ali Changiyning “Tuhfatus - surur” asaridida o’z davrining 350ga yaqin bastakor, xonanda, sozanda va ularning homiylari haqida ham juda ko’p ma’lumot berilgan. Amir Temur saroyida ijod etgan mashhur musiqachi Xo’ja Abdulqodir Marog’iyning 200 dan ortiq asar yaratganligi ma’lum [12, 215-222].

Umuman olganda maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni kelajakda estetik jihatdan yetuk bo‘lishi uchun tasviriy san’at va boshqa fanlar qatori boshlang‘ich musiqiy tarbiya ham sifatli berilmog‘i lozim.

Demak, tarbiyachi kichkintoylarni musiqaga oshno qilishda ta'limning turli usullaridan munosib foydalanishi kerak. Bolalar qo'shiqlarini kichkintoylarga o'rgatishda musiqa rahbari kasbiy malakalarga ega bo'lib mashg'ulotlar jarayonida bolalarni faollashtirish, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan qilib tarbiyalashi lozim.

Chunki bolalar kuy-qo'shiqlari, raqslari kelajakda kichkintoylarni jamiyatimizga sodiq farzandlar qilib tarbiyalashda munosib o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim musiqiy badiiy ifoda. Musiqa - bu nafaqat badiiy ifoda, balki olamning ohangdorligini inson mohiyatining bir qismi sifatida tushunishga intilib, odamlarning rivojlanishiga yordam beradigan pedagogik manbadir. Musiqa orqali ta'lim berish insonning uzviy rivojlanishining ustunlaridan biri sifatida ko'rishga imkonini beradi.

Shuningdek, turli xil ko'nikmalarni rivojlantirish uchun jismoniy va psixologik jarayonlarni musiqiy amaliyot orqali bog'lash - eshitish, fazoviy munosabatlar, nozik vosita ko'nikmalari, vizuomotor muvofiqlashtirish, laterallik (fransuz tilida-*latéralité* tushunchasi moyillik ma'nosida) mexanik xotira, eshitish chaqiruvi, ritm, diqqatni jamlash va his-tuyg'ularni ifodalash [9, 12- 60], ovoz, ritm va musiqiy talqin orqali o'rganish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash [2, 21], orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy badiiy ta'limni rag'batlantirish lozim.

San'at va musiqa orqali bola rivojlanishining o'lchovlari bir vaqtning o'zida hal qilinishi, bir-biri bilan bog'lanishi pedagogik nuqtayi nazardan chuqur tadqiq qilinish lozim deb hisoblaymiz.

Musiqiy madaniyat maktabgacha ta'limdagi pedagogik jarayonlar uchun ustun sifatida qulay mavqega ega bo'lib, bolalarga o'zlarini ifoda etish, muloqot qilish, vakillik qilish, qadrlash, kashf qilish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ular o'zlarining bolalarcha badiiy tajribalari orqali atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini o'zlari uchun yaratadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy madaniyatini rivojlantirishda va metodikasini takomillashtirishda quyidagi tamoyillarni hisobga olish lozim degan bo'lar edik: bizningcha bola avvalo guruh ishini o'zini va boshqalarni qabul qilish imkoniyati sifatida tan oladi, o'yinni o'qitish va ta'lim jarayonlari uchun mukammal vosita sifatida belgilaydi, chunki u orqali bola avvalo o'zi bilan, o'zining jismoniy va ijtimoiy muhiti bilan bog'lanadi. Ayni shu yaxlitlik prinsipi musiqani tarbiyaviy kontekstda ishtirok etishga majbur qiladi, uning doirasida bolalar rivojlanishining ijtimoiy-affektiv, axloqiy, ma'naviy, kommunikativ, kognitiv, jismoniy va estetik o'lchovlari, ularning ijtimoiy munosabatlarini o'zaro bog'lash uchun asos sifatida ko'rib chiqiladi.

Taniqli ispan tadqiqotchisi Nussbaumning fikriga ko'ra "bola muhim o'rganishni keltirib chiqaradigan, muammolarni hal qilishda ijodkorlik va zukkolikni kuchaytiradigan his-tuyg'ularni o'z ichiga olgan holda, boshqalar bilan hamkorlik qilish va muloqot va o'zaro munosabatlarni yaxshilash qobiliyatini rivojlantiradi" [7. 55].

Ma'noli ta'lim muhitini yaratish-taqdim etilgan ushbu istiqbol maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tizimida yaxlitl yangi o'quv muhitlarini yaratish zarurligini ko'taradi, bu yerda ko'p qirrali ta'limga ruxsat

beriladi, maktabgacha ta'lim tizimi turli xil manbalar bilan boyitiladi. Belgilangan ta'lim muhitida o'quv jarayonlari, materiallar, o'quv dasturlari, asosiy shaxslararo munosabatlar, tajribalarning ijtimoiylashuvi, infratuzilma va ta'lim taklifini amalga oshirish uchun umumiy talablarni kafolatlaydigan sharoitlar birga mavjud bo'lgan senariy sifatida rivojlanishi lozim.

Buning uchun ushbu muhitlarni birlashtirishga imkon beradigan aniq vazifalarni bajarish kerak:

- Ijodiy muhitni tashkil etish: devorlarda neytral ranglar bilan olamni, borliqni aks ettirish.
- Materiallar bilan ta'minlash va ta'minlash: zarur elementlar yoki materiallarni tanlash va to'plash, ularni jozibador tarzda tashkil qilish, bu bolalarga qulay foydalanish va ulardan foydalanishga ruxsat berishdan tashqari, qiziqish va tartib odatlarini rag'batlantirishdan iborat.
- Ishtirok etish shakllari va o'zaro ta'sir qilish usullarini ta'minlaydigan o'quv muhitining dinamikasi: ijodkorlik, musiqadan foydalanish, kontekst, tildan foydalanish, pedagogik qo'llab-quvvatlash, materiallar, faoliyat amalga oshiriladigan vaqt va joyni nazarda tutgan holda "madaniy artefaktlar"ni ta'lim maydonida ishtirok etish darajasini aniqlash uchun turli xil va bir nechta usullar bilan birlashtirilishi mumkin.
- Musiqiy madaniyatni shakllantirish: yuqorida ta'kidlaganimizdek, Musiqiy madaniyat maktabgacha ta'limdagi pedagogik jarayonlarda qulay mavqega ega va bolalarga o'zlarini ifoda etish imkoniyatini beradi.

Kolumbiyaning La Sabana Psixologiya Universiteti tadqiqotchilari Cole, Loughlin va Suinalar ta'lim muhiti bolalarning har tomonlama rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shish maqsadida ishlab chiqilishi mumkin, deb hisoblaydi, ularni muhim ta'lim maydonlari deb ataydi, ular bir vaqtning o'zida o'rganish va insonning shaxs sifatida rivojlanishiga imkon beradi. Musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali ta'lim jarayonlarida mavjud muammolar- ta'lim berish, bilimni shakllantirishda ma'lum ma'noda ijobiy yechim bo'la oladi deb hisoblaydilar" [4, 97]., [6, 55].

Shu ma'noda, o'rganish uchun muhim makon ichida bola tezda atrof-muhitga moslashishga muvaffaq bo'ladi, kattalar bilan, shuningdek, tengdoshlari va ularning muhitidagi vaziyatlar yoki ob'yektlar bilan o'zaro munosabatlarning yangi usullarini yaratadi. Yana bir fikr shundaki, bolaning tajribasi u mansub bo'lgan madaniy guruh tomonidan boyitiladi, chunki u kattalar, bola yoki hatto kontekstdagi ob'yektlar bilan o'zaro munosabatda bo'lib, u o'z shaxsiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi.

Bolalarning musiqiy rivojlanishi va o'rganishi uchun tavsiya etiladigan ta'lim strategiyalari.

Agarda bola musiqanini ifoda vositasi-til sifatida ko'rib chiqishga, qo'shimcha ravishda his-tuyg'ularini, kayfiyatini ifodalashga intilsa turli xil fazilatlarga ega bo'lishi mumkin: go'zal, sokin, hayajonli, hazil-mutoyibaga moyil, satirik, qiziquvchan, nafis, taklif qiluvchi, sirli, ta'sirchan, hattoki jangovar fazilatlar shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurlari ularga muammolarini hal qilishni boshlash va o‘zi, atrof-muhit va boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatish uchun resurslar bilan ta’minlash mumkin.

Shu ma’noda, badiiy ta’lim muhim o‘quv maydonlarini yaratish sifatida prognoz qilinishi mumkin, chunki ovoz, ritm va musiqiy talqin orqali odamlarning o‘rganish jarayonlari yaxshilanishi mumkin ” [2, 33].

Bu nuqtai nazarni birinchilardan bo‘lib shvedsariyalik kompozitor, pedagog Emil Jak Dalkroze (1865-1950) o‘rgangan. Emil Jak musiqani ovozli stimulyatsiya bilan birlashtirish ustida ishlagan. Tananing harakati bilan tovush shakllarini yoki ohang, garmoniya va dinamika kabi ritm elementlarini ifodalash, bir vaqtning o‘zida diqqatni, aqlni, sezgirlikni, shuningdek, harakat tajribasi tufayli rivojlangan mushaklar xotirasini rivojlantirishga imkon beradi[15].

Emil Jak musiqani eshtish va his qilishning rivojlanishi chaqaloqlarda emaklash, yurish, sirpanish, yugurish, yurish, sakrash va boshqalar kabi asosiy vosita ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi melodik(ohangdor yoki hushohang musiqa) ohang va garmonik tuyg‘uga yordam beradi. Uning usuli, shuningdek, sezgir rivojlanish va ruhning ifodasi sifatida ham tushuniladi deb hisoblagan. Emil Jak ishlatgan didaktik materiallar daflar, ksilofonlar, uchburchaklar kabi zarbli cholg‘u asboblarini boshqarishga qaratilgan, shuningdek, u paspaslar, halqalar, oynalar, tayoqlar, to‘plar, lentalar, sharlar va boshqalardan foydalangan (Van Der Spar, 1990). Emil Jak musiqaning ta’siri, uning o‘rni umumiy ta’limda juda muhim, chunki u insonning turli istaklariga javob beradi, musiqa yoki ta’sirchan hayot sohalarida ritmning afzalliklariga ishora qiladi deb hisoblagan.

Erta bolalik davridagi musiqiy ta’limga kelsak, u inson ritmlarining ma’lum bir qismi bilan shug‘ullanib, bolaning mushak va asabiy harakatlarida erkinlikni ta’minlaydi va rag‘batlantiradi, blokirovkalarni yengib o‘tishga va tana funktsiyalarini uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Inson rivojlanishining dastlabki yillarida musiqiy ifoda ohangdor emas, balki ritmik elementlarga qaratilsa masalan, harakat qilish, manipulyatsiya qilish, teginish, kuzatish va boshqalar bolaga o‘zi his qilayotgan jarayonga javob berishiga imkon beradi. Tovushlarga javoblar, o‘z navbatida, ularning ifoda vositasiga aylanadi, chunki ritm elementar vosita boshqaruvini va ensomotor muvofiqlashtirishni rivojlantiradi[5].

Bizning tadqiqotlarimiz xulosalariga ko‘ra ikki yoshli bola ritmni afzal ko‘radi, chunki uning motorli ko‘nikmalari unga tovushli ogohlantirishlarga turli yo‘llar bilan javob berishga yordam beradi, u qo‘llarini chaladi, oyoqlarini erga tegizadi, chayqaladi, boshini harakatga keltiradi. tovush elementlarini katta qiziqish bilan va turli usullarda manipulyatsiya qiladi, atrof-muhitdagi turli ohanglar yoki musiqiy asarlarni o‘ziga xos tarzda, barchasi farovonlik namoyon bo‘lishi doirasida jo‘r qiladi. U uch yoshida shovqinlarni, tovushlarni farqlash va ularni keltirib chiqaradigan manbani eslatish qobiliyatini namoyon etadi, qo‘shiq unga o‘yin o‘ynash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi, qo‘shiqlarni o‘zida saqlab qolgan va har qanday vaqtda uyg‘otishi mumkin bo‘lgan to‘liq iboralar bilan izohlaydi.

Uch va to‘rt yil davomida uning pastki ekstremitalarning motorli boshqaruvi,

unga yugurish, sakrash, va hokazolarni amalga oshirishga imkon beradi, bu esa uni taqlid qilish orqali ritmik mashqlarni birgalikda bajarishga olib keladi, onomatopoeik tovushlar bilan qo‘shiqlar orqali ko‘proq ko‘tariladi va bog‘lanadi.

To‘rt yoshda ular qo‘shiqlarni talqin qiladi va aniqroq harakatlar, shu jumladan imo-ishoralar va mimikalar bilan birga keladi, dramatik qo‘shiqlar ayta boshlaydi.

Taxminan besh yoshda bolalarning musiqiy rivojlanishida tana ritmini nazorat qilish, repertuarni boshqarishda katta evolyutsiya sodir bo‘ladi.

Nihoyat, olti yoshida uning ovozini boshqarish qobiliyati kengaydi va u o‘z tana ritmini eshitgan narsasi bilan sinxronlashtiradi.

XX asrning buyuk nemis bastakori va dirijyori Karl Orf (1895-1982) musiqaning bolalar rivojlanishidagi o‘rni haqida fikr yuritgan mualliflardan yana biri bo‘lib, uning tarbiyaviy yondashuvi bola ijodda ishtirok etishi, talqin etishi va yaratishi kerakligini ta’kidlagan. Uning musiqiy o‘rganish jarayonidagi faol usuli, bu tanani asosiy asbob sifatida tan olishga asoslangan, chunki u ko‘plab tembr imkoniyatlaridan foydalangan. Karl Orf bolaning musiqa bilan aloqasini ular uchun mutlaqo tabiiy tekisliklarda topishga qaratadi. Bolalar osonlikcha o‘zlashtira oladigan o‘ziga xos xususiyatlardan foydalanib, o‘zlarini musiqiy tayyorlay oladilar, bolaning ovozini, harakatini va nutqini kengaytirishni maqsad qilish, uning didaktik resurslari so‘z, ritm, ohang, garmoniyaning birgalikdagi ishi bo‘lib, ovozni boshqarishdan tashqari, ularni yig‘ish jarayonlari va ovoz yaratish uchun ritmik va melodik ostinatlardan foydalanadi deb hisoblaydi [8].

O‘z navbatida, venger bastakori Zoltan Kodaly (1882-1967) hissiy stimulyatsiyani dastlabki bosqichlari kelajakdagi musiqiy rivojlanishga bog‘liq deb ta’kidlaydi. Shu ma’noda musiqa manba sifatida u mavjud bo‘lgan madaniyat bilan kuchli bog‘liq bo‘lishi kerak. Zoltan Kodaly ovozni birinchi asbob sifatida ta’kidlagan, chunki "qo‘shiq aytish" musiqiy amaliyot uchun asos bo‘lganligi sababli, u bolalar qo‘shiqlarini boshlang‘ich darajalar uchun juda uzoq bo‘lmagan intervallar bilan tavsiya qilgan.

Bunda tovushlarning aniq sozlanishini talab qilmasdan, so‘zlarning ma’nosiga nisbatan nisbiy yetib borishni talab qilmasdan, kamayib boruvchi kichik uchdan va ular o‘rtasidagi munosabatlardan foydalanishnni tavsiya qilgan.

Musiqiy o‘yinlar bolalarga musiqaning alohida elementlarini keyinchalik tanib olish maqsadida bir vaqtning o‘zida ohang, so‘z va harakatni boshqarish

imkoniyatini ta’minlashi kerakligini ta’kidlagan [3].

Yana bir shvedsariyalik kompozitor Edgar Uillems (1890-1978) tadqiqotlari, musiqiy ta’lim usuli psixologiya va qo‘shiq tamoyillaridan eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun vosita sifatida foydalanishga asoslangan. Musiqa mahoratiga erishish uchun tovushni kamsitishni ko‘tardi, chunki u tembr ob’yektlarning tabiatini tan oladi, davomiylik va intensivlikni boshqarish ritmni boshqarishni kafolatlaydi va balandlik ohangni o‘zlashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, musiqa o‘qituvchisi faoliyatidan musiqa o‘qitish uchun o‘z pozitsiyasiga ko‘ra yot bo‘lgan elementlarni chiqarib tashlaydi, chunki u bolalarni chalg‘itadigan ob’yektga aylanmasligi kerak. Musiqiy his qilish, eshita bilish (musiqiy quloq) bu usul

doirasida nafaqat musiqiy o‘rganish, balki shaxsni shakllantirish uchun asosiy element bo‘lib, eshitishda hissiy, affektiv va aqliy simtomlar ishlashi kerakligini ta’kidlagan. Shuning uchun Edgar Uillems ta’lim jarayonlari hissiy bo‘lishi kerakligini taklif qiladi, chunki eshitish, teginish va ko‘rish musiqa amaliyoti uchun dolzarbdir. Qo‘shiqning manbasiga kelsak, yosh bolalar uchun ikki-besh notadan iborat ohanglarni taklif qiladigan turli balandlikdagi ohangning ishlashini ta’kidlash kerak, sozlashni hissiy va ta’sirchan sezgirlik ta’sir qiladigan jarayon sifatida ko‘rib chiqish kerak [8].

Yapon pedagogi va musiqachisi Shinichi Suzuki (1898-1998), musiqiy intellektning rivojlanishiga asoslanib, o‘quvchiga erta yoshdan boshlab va nisbatan qisqa vaqt ichida yaxshi talqin qilish darajasiga erishish imkonini beradigan instrumental o‘qitish usulini yaratdi. Bu turli populyatsiyalarning integratsiyalashuviga imkon yaratadi, chunki u musiqa bo‘yicha professional tayyorgarlikni talab qilmaydi, aksincha, ko‘proq odamlar uni qadrlaydilar va zavqlanadilar [2].

Umuman olganda, bolalarning musiqa bilan o‘zaro munosabatini tushunish maktabgacha yoshdagi o‘g‘il bolalar va qizlarning ong, idrok va musiqiy ifoda bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil rivojlanish jarayonlari nuqtai nazarini kengaytirish imkoniyatini beradi, chunki musiqa amaliyoti orqali rag‘batlantirish psixologik, jismoniy va intellektual jihatlarni shakllatirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda, ushbu ta’lim strategiyalari ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirishga ishora qiladi, maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy badiiy tilning tarbiyaviy harakatini amalga oshirish uchun aniq uslubiy imkoniyatlarni moslashtiradi. Bunday zavq va zavqlanish o‘rtasida o‘zaro bog‘langan tajribalar miya va tananing boshqa a’zolarini o‘z kelajagini zabt etish uchun vositalar bilan ta’minlashga yordam beradi, individuallik va tashqi dunyodan muvozanatli o‘zaro ta’sirda aloqa alternativlarini yaratadi, Shtayner ta’kidlaganidek (1991). “inson u bilan birga tashqaridan aqliy ravishda o‘rgatilgan narsani majburlash yo‘li bilan tutmaydi, balki faqat o‘zida aqliy bo‘lmagan yo‘l bilan rivojlangan narsani oladi” [13,42].

Ta’limning maqsadi bola bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirayotganini da’vo qilishdan tashqari, o‘qitish, bilim berish, uning evolyutsiyasini hisobga olgan holda aql-idrokning rivojlanishi haqida qayg‘urish, bolaning individualligini tushunish, tuyg‘u, odob va axloq tushunchalarini ham singdirishdan iborat.

Shu ma’noda, ta’lim doimiy qayta tashkil etish jarayonidir, shuning uchun musiqa ta’limning dastlabki yillarida muhim o‘rin egallashga loyiqdir.

Germaniyaning Myunster universitetida o‘tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqa ta’limining barcha afzalliklarini tan olish va o‘rganish muhimdir, bunda bolalarning miyasi musiqani qabul qilganda katta sinaptik qobiliyatga ega bo‘lishi aniqlangan.

Agar uyda radio va televideniedan boshqa tovush odatining turi bo‘lmasa, bolaning qo‘shiq aytishni o‘rganishi dargumon va bolalar qo‘shig‘ini sozlash unga qiyinroq bo‘ladi. Bolaning bokira qulog‘ini sof, yoqimli va rang-barang tovushlar bilan singdirish, o‘z navbatida onomatopeya kabi turli xil tembrlarni ta’minlash va qo‘shiqlarni talqin qilish uchun kunning istalgan vaqtini izlash juda muhim, bu unga

o‘z ovozidan mamnun bo‘lish imkoniyatini beradi. Keyinchalik, maktabgacha yoshda, bolani turli xil vositalar va resurslar bilan ta’minlash muhimdir.

Musiqiy idrok, idrok etish va ifodalash uchun ushbu bo‘shliqlar va imkoniyatlar ostida shuni aniqlash mumkinki, musiqa mashqlari va amaliyotlarida eng ko‘p mavjud bo‘lgan va ular orqali rivojlanishi mumkin bo‘lgan o‘quv repertuarlari quyidagilardan iborat: (1) psixomotriklik, (2) Diqqat, (3) Xotira, (4) Idrok, (5) Raqamli qobiliyat, (6) Abstrakt fikrlash va (7) Og‘zaki qobiliyat (Zorrillo, 2004).

Musiqa, insoniyatning uzviy rivojlanishi uchun muhim manbadir. Umuman olganda, maktabgacha ta’lim muassasalaridan to o‘smirlik davrigacha o‘g‘il-qizlarning kamolotiga san’atning ta’siri shubhasizdir. Shu ma’noda musiqa nafaqat badiiy ifoda, balki o‘z-o‘zini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik manba hamdir. Insonlarning bolaligidanoq, dunyo tovushini tushunishga intilishi inson mohiyatining bir qismi bo‘lib, musiqani insonning uzviy rivojlanishiga yordam beradigan pedagogik manba sifatida ko‘rsatadi.

Shu ma’noda, maktabgacha yoshdagi o‘g‘il-qizlarning bilim olishida talab qilinadigan bilim jarayonlari va umumiy ko‘nikmalarini mustahkamlashda badiiy ta’limning pedagogik manba sifatidagi afzalliklari yaqqol ko‘rinib turibdiki, bu mamlakatimizda ijodkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi davlat siyosatini yaratish zarurligini taqozo etmoqda.

Qayd etilishicha, bugungi kunda O’zbekistonda 159 ta, shu jumladan, Toshkent shahrida 72 ta, hududlarda 87 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud. Shundan- universitet — 28 ta, institut — 47 ta, akademiya — 3 ta, konservatoriya — 1 ta, filial — 26 ta, xorijiy OTM va uning filiallari — 30 ta, nodavlat OTM — 24 tani tashkil etadi. shundan oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi 53 ta OTMdan faqat 23 tasida san’at fakulteti mavjud, 22 tasida maktabgacha ta’lim bo‘yicha mutaxassislar

tayyorlanadi. Bu esa kadrlar muammosi borligini ko‘rsatadi.

Hind yozuvchisi Robindranat Tagor aytgandek san’atning asosiy vazifasi, tushunishni rivojlantirishdir, san’at insonning ichki dunyosini rivojlantirishni rag‘batlantiradi, lekin boshqalarga nisbatan sezgirlikni oshiradi, chunki biz o‘rganmagan narsalarni boshqalarda qadrlay olmaymiz [14].

Boshqa madaniyatlar va boshqa davrlar musiqasini talqin qilish, buni qilayotgan o‘g‘il-qizlarga o‘sha madaniyatlar va ularning dunyosini ko‘rish va idrok qilish usullarini o‘rgatish, ularga hurmat ko‘rsatish yo‘lini topish imkonini beradi.

Shuning uchun maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab kuchli badiiy tayyorgarlik zarurati, musiqiy madaniyatni rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiqotga muhtoj. Maktabgacha ta’limda bolalarni har tomonlama rivojlantirishga imkon beruvchi vosita sifatida musiqiy madaniyat ularning kognitiv va aqliy rivojlanishga, intellektual salohiyatining ortishida, umuman olganda butun jamiyatimiz taraqqiyotida empatik va ijodkor fuqarolar konfiguratsiyasida katta ta’sir qiladi.

So’zimizning xulosasi sifatida muhtaram prezidentimizning “Sharq taronalari” o’n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag’ishlangan tantanali marosimda nutqlarida ta’kidlagan fikrlar bilan yakunlashni joiz deb topdik

“Musiqa san’ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San’at bilan oshno bo’lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo’ladi. Shu ma’noda, musiqa – hech narsa bilan o’lchab, solishtirib bo’lmaydigan beqiyos ilohiy ta’sir kuchiga ega, desak, ayni haqiqatni aytgan bo’lamiz.” [1].

Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya — bu bir aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o‘z iqtidorini namoyon qila olishga, musiqani his qilishga, idrok etishga, musiqaga emotsional javob qaytara olishga o‘rgatishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шавкат Мирзиёев: "Мусиқа – ҳеч нарса билан ўлчаб, солиштириб бўлмайдиган беқиёс илоҳий таъсир кучига эга" “Шарқ тароналари” XII халқаро мусиқа фестивалининг очилишига бағишланган тантанали маросимда нутқ. Электрон манба: https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoev.

2. Campbell, D. (2001). El efecto Mozart para niños. Barcelona: Urano.

3. Cartón, C. y Gallardo, C. (1993) Educación Musical: método Kodály. Valladolid: Castilla Ediciones.

4. Cole, M. (1999). Psicología cultural: una disciplina del pasado y del futuro. Madrid: Morata.

5. Lorete, R. (1980). Expresión musical en preescolar y ciclo preparatorio. Madrid: Narcea.

6. Loughlin, E. y Suina H. (1997). El ambiente de aprendizaje: diseño y organización. Madrid: Morata.

7. Nussbaum, M. (2012). Crear capacidades. Propuesta para el desarrollo humano. Barcelona: Paidós.

8. Pascual, P. (2006). Didáctica de la música para educación preescolar. Madrid: Pearson, Prentice Hall.

9. Reynoso, K. (2010). La educación musical y su impacto en el desarrollo. Revista de Educación y Desarrollo, 12, 53-60.

10. Mahkamova, S. R., & Shahzod, G. (2021). O‘quvchilar tarbiyasida musiqa fanining tutgan o ‘rni. *Scientific progress*, *1*(5).

11. Mahkamova, S. R., & Obidova, S. P. (2021). Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni musiqiy tarbiyalash va ta’lim berish. *Scientific progress*, *1*(3).

12. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). Хазрат Навоийнинг мусиқий тафаккури. *Science and Education*, *1*(Special Issue 4), 215-222.

13. Электрон манба: https://ru.wikipedia.org/wiki/Штейнер,_Рудольф

14. Электрон манба: https://uz.wikipedia.org/wiki/Robindranat_Tagor

15. Электрон манба: https://macca.ru/uz/chto-takoe-ritmika-i-v-chem-ee-polza-dlya-razvitiya-detei-zanyatiya/

ТАЪЛИМ МУАССАССИ РАҲБАРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИ ОЛИБ БОРИШДА КАСБИЙ КОМПЕТНЕТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Халмонов Умид Очилович, мустақил излунувчи

Аннотация: *Мақолада янги Ўзбекистон шароитида таълим самарадорлигига эришишнинг долзарб масалалари тўғрисида фикр юритилган. Хусусан, ўқитувчилар фаолияти ҳамда таълим муассасаси раҳбарларининг бошқарув тизимига қўйилган замонавий инновацион талаблар тўғрисида тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *ўқитувчи, компетентлик, инновация, раҳбар компетентлиги, методист, стратегик, янгиланиш, профессионаллашув.*

Янги Ўзбекистон ва унинг мустаҳкам пойдевори таълим муассасаларида яратилишини Президентимиз Шавкат Мирзиёев “Янги Ўзбекистоннинг остонаси мактабдан бошланиши”га урғу берди.

Бугунги шиддат билан ўзгариб бораётган дунёда рақобатбардош таълим тизимини шакллантиришнинг энг муҳим омилларидан бири замонавий таълим муҳитини яратиш ҳисобланади. Зеро, бундай таълим муҳитининг яратилиши, истиқболда юқори интеллектуал салоҳиятли кадрлар салмоғини ўсиши, мактаб ўқитувчиларининг касбий компетенлиги ва дарс сифатини яхшиланиши ҳамда мактаб раҳбарларининг бошқарув фаолияти самарадорлигининг ортишига хизмат қилади. Бундай замонавий таълим тизимини шакллантириш ва унга янги технологияларни татбиқ этиш бошқарувнинг замонавий усулларини амалда қўллай оладиган раҳбарларга боғлиқ.

Дунё миқёсида таълим барқарор тараққиётни таъминловчи асосий омил сифатида эътироф этилиб, ЮНЕСКО томонидан 2030 йилгача белгиланган халқаро таълим концепциясида “бутун ҳаёт давомида сифатли

таълим олишга имконият яратиш”[74] асосий вазифа сифатида белгиланган.

Мамлакат тараққиётининг замонавий босқичида амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар илм-фан ва инновация соҳасида давлат бошқаруви механизмларини такомиллаштириш, илмий фаолиятга оид давлат дастурларини шакллантиришда шаффофликни ошириш ҳамда иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларда илм-фан ютуқлари ва инновацион технологияларни жорий этиш ишларини жадаллаштириш лозимлигини кўрсатмоқда.

Маълумки, бошкарув фаолияти субъектлар томонидан лавозими йўналишидаги функцияларини бажаришлари жараёнида амалга оширилади[75].

Бинобарин, 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим

---

[74] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

[75] Джўраев Р. Х., Тургунов С. Т. “Умумий ўрта таълим муассасаларини бошқаришда менежментнинг асосий тушунчалари”. - Тошкент: “Фан”, 2006. 29-32-бет.

тўғрисида”ги Қонун Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълими тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чо-ра-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3931-сон қарори, 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5538-сон фармони, 2019 йил 29 апрел-даги ПФ-5712-сон фармони билан тасдиқланган “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси”, 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон фармони, 2021 йил 25 январдаги “Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш ти-зимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4963-сон қарори ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда келтирилган муҳим вазифалар ўқитувчи-педагогларни касбий ривожлантиришда, раҳбарларнинг инновацион бошқарув фаолиятини ташкилий-методологик асослар орқали тадқиқ қилишнинг долзарблигини белгилаб беради.

Бошқарув жараёнини мақсадга мувофиқ равишда амалга ошириш учун раҳбар идора қилишнинг қайси бўғинида бўлишидан қатъит назар муайян қобилиятларга эга бўлиши керак. Раҳбар ўзининг шахсий фазилатлари, мустаҳкам характери, кучли иродаси, барқарор хиссиёти барча нарсаларга ва жабҳаларга нисбатан махсус қобилиятлари билан муайян муассасани бошқара олади. Фан ва техниканинг ривожи, инсонларда онглилик даражасининг юксак кўрсатгичи, ижтимоий тажрибаларнинг таъсирчан кучи, кишиларнинг муайян билимларга эга эканлиги раҳбарнинг комил инсон камолоти поғонасига кўтарилишини тақозо этади.

Фаолият максади объектив бўлиб, ўз ўрнида шахс томонидан белгиланади ва у фаолиятнинг асосий компоненти ҳисобланади. Шунингдек, фаолият субъектни маълум бир ҳаракатга келтирувчи сабабларни аниқлайди ва унда аниқ бир шахснинг фаолияти ва мақсад ифодаланади.

Таълим муассасалари раҳбарлари функционал вазифаларини амалга ошириш жараёни таълим муассасасида ўқитувчиларнинг барча фаолиятларига тегишли бўлган жараён бўлиб, кўзланган натижаларга эришишда ўқитувчилар касбий компетентлилигини ривожлантириш жараёнларини лойихалаштириш, режалаштириш, ташкил этиш, назорат қилиш, таҳлил килиш ва баҳолаш, мазкур жараён иштирокчиларига таъсир кўрсатиш оркали уларнинг

фаолиятини мувофиклаштиришни назарда тутади.

Раҳбарнинг компетентлиги – билимдонлик, касбига мослик, малакалилик, тажрибалилик, масъулиятлиликни раҳбарлик фаолиятига сингдириб бориш. Ўз соҳасини, ишининг устаси бўлиш, соҳасининг сирларини ҳар томонлама чуқур билиш демакдир. Раҳбар компетенциясининг шаклланиши беш босқичдан иборат.

Раҳбар компетенциясининг шаклланиши босқичлари:

- Қобилиятни аниқлаш;
- тарбиялаш ва шакллантириш;

● чиниқтириш (кичик ҳажмдаги топшириқлар бериш);
● ишонч (мустақил раҳбарлик лавозимига тайинланиш);
● раҳбарлик чўққиси.

Таълим муассасаси раҳбарларининг асосий функцияси таълим муассасаси олдига қўйилган максадларга эришишда муассасанинг ҳаётий фаолиятини таъминлаш бўйича бошкарув йўналишидаги масалаларнинг ижобий ечимини топиш, ҳал этиш ҳисобланади[76].

Таълим муассасаси раҳбарининг компетентлиги бир қатор компонентларни ўз ичига олади. Уларни қуйидагилардан иборатдир:

Билимлилик, ташкилотчилик, изланувчанлик, адолатлилик, коммуникативлилик, юксак маънавиятлилик, назоратни ўз вақтида ўрнатиш, ўз ҳиссиётларини жиловлай олиш, педагогик деонтология (касбий одоб-ахлоқ), меҳнатни илмий асосда ташкил этиш истиқболли, инновацион фикрлаш андрогогик маълумот, педагогик маҳоратлилик, фидойилик, раҳбарлик, жараёнларни лойиҳалаштириш, ижодкорлик, педагогик, технологиядан хабардорлик, педагогик квалиметрияни билиш ғоявий сиёсий етуклик талабчанлик дунёқарашнинг кенглиги ўзига ишонч уйғота олиш ташаббускорлик, креативлик, юқори имидж, актёрлик, нотиқлик маҳорати, инновацион бошқарувчанлик, қарор қабул қилиш, қонун доирасида ишлаш, мантиқий фикрлаш, жамоани эргаштира олиш, сабр-тақотлилик, ватанпарварлик, принципиаллик, етакчилик қобилияти, садоқатлилик, касбий рефлекция, меҳнатга ижодий муносабат, ғоялилик, бир сўзлилик, янгиликларни тез қабул қилиш, натижани олдиндан кўриш, масъулиятлилик, қаттиятлилик.

Бошқарув фаолияти олдиндан белгиланган хатти-ҳаракатлар мажмуаси, шунингдек, бошқарув жараёни босқичлари сифатида таълим муассасаси раҳбарининг мақсадга йўналтирилган функцияларининг структураси бошқарув предметлари оркали белгиланади. Демак, бошқарув ўзига хос ҳусусиятларга эга бўлиб, улар мақсадга эришишда ҳаракатлар изчиллиги билан белгиланади. Бу жиҳатлар ўз-ўзидан мақсадга кўра аниқланмайди, балки мақсадга эришишдаги шарт-шароитлар орқали белгиланади

Бошкарув йўналишида зарурий тушунча ва кўникмаларни таълим муассасалари раҳбарлари, педагогик ходимларда шакллантириш долзарб вазифалардан бири эканлиги таълим муассасаларида таълим-тарбия жараёни иштирокчиларининг фаолиятларини такомиллаштириш ва ўқув жараёнининг натижавийлиги ҳисобланган бошқарув самарадорлигини таъминлашнинг энг асосий шартларидан бири ҳисобланган ҳамкорликдаги бошқарув фаолиятини илмий асосда ташкил этиш зарурриятини белгилайди[77].

Таълим самарадорлигининг таъминланмаслик сабабларидан асосийси – мактаб раҳбарларининг таълим муассасасини бошқариш малакасининг етарли эмаслиги оқибатидадир. Бу бора ҳудудий таълим бошқарув органларининг ишлари талаблар даражасида ташкил этилмаган.

---

[76] Йўлдошев Ж. F. “Таълим янгиланиш йўлида”. - Тошкент: “Ўқитувчи”, 2000. 19-бет.
[77] Тўхтабоев А. “Маъмурий менежмент”. - Тошкент: ”Молия”, 2003. 12 бет.

Мактаб ўқитувчиларига методик ёрдам бериш мақсадида қабул қилинган методистлар ўз вазифа ва юкламаларини тўла-тўкис амалга оширмаяптилар. Номига методисту аслида эса мутлақо бошқа топшириқларни бажариш билан овора.

Қолаверса, мактаб раҳбарларининг таълим-тарбия самарадорлигини таъминлаш юзасидан қатъий назоратлари, таълим муассасасини замонавий бошқаришга қўйилган талаблар асосида фаолият олиб боришлари зарурлиги муҳим аҳамият касб этади.

Замонавий ижтимоий-иқтисодий ривожланишлар ва таълим соҳасидаги ислоҳотлар жараёнида амалга оширилаётган янгиликларга мактаб фаолятини мувофиқлаштириб боришда таълим муассасаси раҳбарлари жорий режалар билан чекланиб қолмай, ўз муассасалари келажаги ва ривожланишига таъсир қилувчи омилларни ҳисобга олган ҳолда “стратегик” узоқ (беш, ўн ва ундан кўпроқ) муддатларга мўлжалланган истиқбол режаларни тузиш ҳамда улар асосида фаолият олиб боришлари зарур.

Амалиётда “янгилик”, “янгиланиш”, “янгилик киритиш” тушунчалари кўпинча тенглаштирилади, лекин уларнинг ўртасида баъзи бир фарқлар мавжуд. Янгилик – янги тартиб, янги услуб, янги метод, янги ихтиролар бўлиши мумкин. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлиги асосан инновацион жараёнларда ривожланади. Таълим муассасаларида ўқитувчилар касбий компетентлигини ривожлантириш йўналишларида ташкил этиладиган инновацион жараёнларнинг самарали бошқариш, мазкур жараёнга ўқитувчиларнинг қизиқишларини ривожлантириш ҳамда кўзланган натижаларга эришишда инновацион жараёнларни олдиндан лойиҳалаштириш ва бунга инновацияларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиш зарур бўлади.

Бугун жамият узлуксиз таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари олдида юксак кечиктириб бўлмайдиган талабларни қўймоқда. Ана шундай талабларга жавоб бера оладиган кадрларга шароитлар яратиш ва уларни

қўллаб-қувватлашни жорий этиш лозим.

Ўқитувчиларни муаммога доир масала юзасидан қисқа муддатларда қайта тайёрлашни ташкил этиш ва раҳбарлар томонидан тизимли ва узлуксиз назорат ўрнатиш, талаб қилиш, замонга мос равишда янгиликни ўзлаштиришни истамаётган ўқитувчилардан халос бўлиш вақти етди, деб ўйлаймиз. Таълим муассасалари раҳбарларининг педагогик жамоани инновацион талабалар асосида бошқара олиш қобилиятларини аниқлаш ва бу соҳадаги ташкилийпедагогик қарорлар қабул қилишни орқага сурмаслик муҳимдир.

Жаҳонда таълим, жумладан, мактаб раҳбарлари бошқарув фаолияти йўналишлари, уларнинг касбий компетентлилигини шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштириш юзасидан амалга оширилаётган илмий изланишларда мактаб фаолияти бошқарувининг натижаси қай даражада самарадор эканлигига алоҳида урғу берилган ҳолда, асосий эътибор раҳбарларнинг бошқарув фаолияти сифат ва самарадорлигини

оширишга қаратилмоқда. Таълим ташкилотини илмий-методик бошқариш асослари, фаолиятни объектив баҳолаш, ташкилот регламенти ва унинг ички тартиб-қоидаларига вазифалар тақсимотини мувофиқлаштириш, ташкилот раҳбарларининг касбий компетентлилигини узлуксиз ривожлантириб бориш жараёнларини инновацион тузилишга эга бўлган мураккаб педагогик тизим сифатида лойиҳалаштириш ва унинг мазмунини такомиллаштириш ҳамда бошқарув фаолияти самарадорлигини ошириш жараёнларига стратегик ва тизимли ёндашув технологияларини татбиқ этиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бугунги кундаги тадқиқотлар энг долзарб илмий-амалий муаммоларни ҳал этишга йўналтирилган бўлиб, ушбу изланишлар замонавий раҳбар кадрларни шакллантириш орқали бошқарув соҳасини мукаммаллаштиришга қаратилгандир.

Жамиятдаги касблар ва меҳнат турлари ихтисослашиб борган сари бугунги кун мутахассисларига қўйилаётган талаблар ҳам ўсиб бораётган бир пайтда, замонавий раҳбар профессионаллашувининг алоҳида мавзуга айланиши табиий.

Замонавий раҳбарнинг компетенцияларни шакллантириш нафақат

анъаналар билан, балки янги таълим технологияларини жорий этиш билан бирга, янги фаолиятни самарали амалга оширишни эмас, балки уни лойиҳалаштиришни таъминлайдиган инновацион шакллар, усул ва воситалардан фойдаланган ҳолда амалга оширилиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

2. Джўраев Р. Х., Тургунов С. Т. "Умумий ўрта таълим муассасаларини бошқаришда менежментнинг асосий тушунчалари". - Тошкент: "Фан", 2006. 29-32-бет.

3. Йўлдошев Ж. Ғ. "Таълим янгиланиш йўлида". - Тошкент: "Ўқитувчи", 2000. 19-бет.

4. Тўхтабоев А. "Маъмурий менежмент". - Тошкент: "Молия", 2003. 12 бет.

5. Азизходжаева Н.Н. "Педагогик технология ва педагогик маҳорат". ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003. – 174 б.

6. В.А. Сластенин. Педагогика профессионального образования. М., "Просвешения" 2004.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Омонова М.Д.

Эркин тадқиқотчи, Чирчиқ давлат педагогика университети, Чирчиқ, Ўзбекистон. m.omonova@mail.ru

Аннотация. Олий таълим муассасаларининг асосий мақсадларидан бири нафақат талабаларга билим бериш, балки уларнинг ҳар бирининг қобилиятини юзага чиқариш, ахборот, янги технологиялар оламида ҳаётга тайёр шахсни тарбиялашдир. Атрофда содир бўлаётган воқеаларни танқидий фикрлаш қобилиятисиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Мақолада талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва босқичлари санаб ўтилган.

Калит сўзлар. Фикр, қатъият, ҳамкорлик, эмпатия, алоқа, мантиқий хулоса, баҳолаш.

Замонавий инсоннинг фикрлаш жараёни босма, кўргазмали, аудио ахборотлар билан чамбарчас боғлиқ. Танқидий фикрлаш қобилияти саъй-ҳаракатлардан, далиллар ва исботларни қўллаб-қувватлаш ва қарши чиқишдан иборат. Танқидий фикрлашни ривожлантириш иш жараёнида мартабага ва бизнесда муваффақиятга эришиш учун зарур қадамдир. Танқидий фикрлашни касбий соҳаларда қўллаш усуллари муаммоларни аниқлаш ва самарали ечимларни ишлаб чиқиш учун маълумотларни тезда қайта ишлаш ва тизимлаштириш имконини беради. Олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабаларнинг танқидий фикрлаш қобилиятини ривожлантириш академик ютуқларга, маълумотларни эслаб қолишга ёрдам беради. Талабаларнинг билим салоҳиятидан тўғри фойдаланиш қобилияти ақлий чарчоқни, ақлий ортиқча юкланишни олдини олади.

Танқидий фикрлаш ҳар қандай соҳа ва йўналиш тараққиётининг асоси бўлиб, "Нима учун?", "Қандай қилиб?" ва "Агар… бўлса, унда…" каби савол орқали мақсадга эришилади. Мавжуд кашфиёт ва ихтиролар, бетакрор ижод намуналари замирида шундай изланишлар, янгиликка интилиш истаги мавжуд. Танқидий фикрлаш олинган маълумотларни қайта ишлаш, баҳолаш, таҳлил қилиш ва текшириш билан боғлиқ. Доктор Питер А.Фасионенинг фикрига кўра "танқидий фикрлаш - бу асосли хулосаларни шакллантириш учун нарса ва ҳодисаларни таҳлил қилишда қўлланиладиган ва оқилона баҳолаш, изоҳлаш ҳамда натижаларни вазиятлар ва муаммоларга қўллаш

имконини берадиган ҳукм қилиш тизимидир[78].

Умумий маънода, танқидий фикрлаш субкритик фикрлашдан юқори даражадаги фикрлашни англатади. Педагогикада танқидий фикрлаш билан бир

[78] «Критическое мышление: отчёт об экспертном консенсусе в отношении образовательного оценивания и обучения» (Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. Executive Summary) // Dr. Peter A. Facione (Dean of the College of Arts and Sciences, Santa Clara University), перевод Е.Н.Волкова

қаторда ижодий, мавҳум-мантиқий, ассоциатив, образли, аналитик тафаккурга эътибор берилади ва таълим йўналиши турига қараб, у ёки бу фикрлаш турига урғу берилиши мумкин: мавҳум-мантиқий фикрлаш математика ва тафаккур, тилшунослик, санъатшунослик, маданиятшунослик ва бошқалар учун эса образли ва ассоциатив фикрлаш муҳим аҳамиятга эга бўлади. Таълим жараёнида танқидий фикрлашнинг энг аниқ таърифларидан бири Америка психологияси ва педагогикасида келтирилган. Унга кўра, "танқидий фикрлаш - исталган якуний натижага эришиш эҳтимолини оширадиган билиш техникаси ва стратегияларидан фойдаланишдир"[79].

Олий таълим муассасаларининг асосий мақсадларидан бири нафақат талабаларга билим бериш, балки уларнинг ҳар бирининг қобилиятини юзага чиқариш, ахборот, янги технологиялар оламида ҳаётга тайёр шахсни тарбиялашдир. Атрофда содир бўлаётган воқеаларни танқидий фикрлаш қобилиятисиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Танқидий фикрловчилар:

• муаммоларни ҳал қила олади;

• муаммоларни ҳал қилишда маълум бир қатъият кўрсатади;

• ўзини, импульсивлигини назорат қила олади;

• бошқа ғояларга очиқ;

• бошқа одамлар билан ҳамкорлик қилиш орқали муаммоларни ҳал қила олади;

• суҳбатдошни тинглай олади;

• эмпатик;

• ноҳақликка тоқат қила олади;

• муаммоларни турли нуқтаи назардан кўриб чиқа олади;

• ҳодисалар ўртасида кўплаб алоқаларни ўрнатишга қодир;

• муаммони ҳал қилишнинг бир нечта вариантларини кўриб чиқиши мумкин;

• "Агар шундай бўлса нима қилади?.." деган саволларни беради:

• мантиқий хулосалар чиқара олади;

• ҳис-туйғулари, фикрлари ҳақида ўйлайди ва уларни баҳолайди;

• башорат қилади, уларни асослайди ва аниқ мақсадларни белгилашга қодир;

• ўз билим ва кўникмаларини турли вазиятларда қўллай олади;

• қизиқувчан ва тез-тез "саволлар" беришади;

• ахборотни фаол идрок эта олади.

Талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш методикаси қуйидаги таълим натижаларига эришишни мақсад қилади:

• турли соҳаларда тобора ортиб бораётган билимлар ва доимий янгиланиб турадиган ахборот оқими билан ишлаш ққўникмаси;

• ахборотни бирлаштиришнинг турли усулларидан фойдаланиш;

---

[79] *Халперн Д.* Психология критического мышления.— СПб.: Питер, 2000.— 512с.— с.22.— ISBN 5-314-00122-5, ISBN 0-8058-0295-9

• саволлар бериш, мустақил гипотеза тузиш;
• муаммоларни ҳал қилиш;
• турли тажриба, ғоялар ва тасаввурларни тушуниш асосида ўз фикрини ишлаб чиқиш;
• бошқаларга нисбатан ўз фикрларини (оғзаки ва ёзма) аниқ, ишончли ва тўғри ифодалаш;
• ўз нуқтаи назарини баҳслашиш ва бошқаларнинг нуқтаи назарини ҳисобга олиш;
• мустақил равишда таълим олиш билан шуғулланиш қобилияти (академик мобиллик);
• масъулиятни ўз зиммасига олиш;
• биргаликда қарорлар қабул қилишда иштирок этиш;
• бошқа одамлар билан конструктив муносабатлар ўрнатиш;
• ҳамкорлик қилиш ва гуруҳда ишлаш қобилияти ва бошқалар.

Талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари:
• фанларнинг кўплиги;
• технологиклик;
• ахборотни ўзлаштириш ҳамда рефлексия ва коммуникатив қобилиятларни ривожлантириш;
• матн билан ишлаш ва матн ҳақида мулоқот қилиш кўникмаларининг уйғунлиги;
• матн билан ишлаш усулларини шахснинг мустақил таълим олиш воситаси сифатида қўллаш.

Ходос ва Бутенко бўйича талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш методикаси тўрт босқичдан иборат:
- биринчи босқич билимларни долзарблаштириш, қизиқиш уйғотиш, мавзуга изланувчанлик, ўрганилаётган материал мақсадларини аниқлашни ўз ичига олади;
- иккинчи босқичда янги маълумотларни тушуниш, танқидий ўқиш ва ёзиш амалга оширилади;
- учинчи босқич фикрлаш ёки рефлексия, шахсий фикр ва материалга муносабатни шакллантиришни ўз ичига олади;
- тўртинчи босқичда маълумотни умумлаштириш ва баҳолаш,

муаммолар, уни ҳал қилиш йўллари ва ўз имкониятларини намоён қилишга ўрин ажратилади.

Танқидий фикрлашни ривожлантириш методикасининг белгиланган босқичлари биз учун аҳамиятли, чунки улар ўқув жараёнининг мантиғига ва билимларни ўзлаштириш тузилишига мос келади, улар такрор ишлаб чиқариш, тушуниш, ўзлаштириш ва умумлаштиришни ўз ичига олади[80]. Талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш босқичлари шартли равишда танланган бўлиб, амалда бу босқичлар кесишади, бир-бирига таъсир қилади ва бирликда танқидий фикрлашини ривожлантиради.

[80] Краевский В.В., Хуторской А.В. Таълим асослари: дидактика ва методология. 90-101 б.

Бу тўрт босқич таълим мазмунининг тузилмасини ташкил қилади. Улар ўзаро шундай боғланганки, қайд этилган ижтимоий тажриба турларининг ҳар бири таълим мазмунининг ўзига хос турини ифодалайди, улар:

- табиат, жамият, техника, фикрлаш ва фаолият методлари ҳақида билим. Бу билимларни ўзлаштириш талаба онгида дунёнинг илмий манзарасини шакллантиришни таъминлайди, уни билим ва амалий фаолиятга назарий – методологик ёндашув билан қуроллантиради;

- маълум бўлган фаолият методларини амалга ошириш тажрибаси, бу тажрибани ўзлаштирган шахснинг кўникма ва малакаларида билим билан бирга мужассамланади. Ушбу тажрибанинг мазмунини ташкил этувчи умумий интеллектуал ҳамда амалий кўникма ва малакалар тизими кўплаб аниқ фаолиятнинг асоси бўлиб, ёш авлоднинг халқнинг ижтимоий маданиятини сақлаб қолиш қобилиятини таъминлайди;

- жамият олдида пайдо бўлган янги муаммоларни ҳал қилиш учун ижодий, изланиш фаолияти тажрибаси. У илгари олинган билим ва кўникмаларни янги вазиятларда мустақил равишда амалга оширишни, аввал маълум бўлганлар асосида янги фаолият методларини шакллантиришни талаб қилади. Ижтимоий тажрибанинг бу тури бўлажак ўқитувчининг маданиятни янада ривожлантириш, ўзини педагогик фаолият субъекти сифатида тушуниш, таълим ва тарбия стратегияларини танлаш, лойиҳалаш ва амалга ошириш қобилиятини ривожлантиришни таъминлайди;

- инсон фаолиятининг объектлари ёки воситаларига қадриятли муносабат тажрибаси, унинг атрофдаги дунёга, бошқа одамларга унинг қадриятлар тизимига киритилган шахсий белгиланган объектларни ҳиссий идрок этишни белгилайдиган эҳтиёжлар йиғиндисида намоён бўлиши, қатъиятлилик ва муаммоларни ҳал қилишда мақсадлилик. Таълим мазмунининг бу элементи нафақат ўқитувчининг дунёқараш ғояларини билишини, балки уларнинг ҳақиқатига ишонишни ҳам назарда тутади. Ижтимоий тажрибанинг санаб ўтилган элементларини талабалар томонидан ўзлаштирилиши уни шахсий тажрибага айлантиришга, махсус ташкил этилган таълим фаолияти асосида ижтимоийликни шахсга "ўтказишга" қаратилган[81].

Умуман олганда, замонавий олий таълимнинг ривожланиш шароитида талабаларни танқидий фикрлашга ўргатиш касбий таълим мазмунининг муҳим қисмига айланиши керак. Унинг таълим жараёнига татбиқ этилиши талабаларнинг билиш компетентлигини ривожлантириш учун қулай шароит яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. «Критическое мышление: отчёт об экспертном консенсусе в отношении образовательного оценивания и обучения» (Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. Executive Summary) // Dr. Peter A. Facione (Dean of the College of Arts and Sciences, Santa Clara University), перевод Е.Н.Волкова

[81] Шиянов Е.Н. Педагогика: таълимнинг умумий назарияси.608-610 б.

2. *Халперн Д.* Психология критического мышления.— СПб.: Питер, 2000.— 512с.— с.22.— ISBN 5-314-00122-5, ISBN 0-8058-0295-9

3. Краевский В.В., Хуторской А.В. Таълим асослари: дидактика ва методология. 90-101 б.

4. Шиянов Е.Н. Педагогика: таълимнинг умумий назарияси. 608-610 б.

5. Чатфилд Т. «Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение».

6. Непряхин Н., Пащенко Т., «Критическое мышление: железная логика на все случаи жизни».

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ДИДАКТИК ҚАДРИЯТЛИ КОМПЕТЕНЦИЯ ХУСУСИЯТЛАРИ

Жалилова Нилуфар Тоҳир қизи,
Қори Ниёзий номидаги ЎзПФИТИ таянч докторанти

Аннотация. Мақолада олий педагогик таълимда бўлажак ўқитувчиларнинг компетентлиги ҳамда дидактик қадриятли компетенция хусусиятлари ёритилган.

XXI аср ижтимоий-иқтисодий, маданий муҳити, ривожланган бозор иқтисодиёти шароитида таълимнинг глобаллашуви ҳамда ахборот технологияларининг жадал ривожланиши натижасида педагоглик касбига жамият томонидан қўйилаётган юксак талаблар таълим-тарбия вазифаларини компетентлик даражасида хал этишни такозо этмоқда. Зеро,”мактаб тизимининг сифати ҳеч қаерда ўқитувчиларн тайёрлаш сифатидан ортиқ бўлмайди. Энг яхши тизимлар ўқитувчилар таркибини синчиклаб саралайди ва ўқитади, ўқитувчиларга, айниқса, қийинчиликларга дуч келаётган ёш педагогларга малака оширишга ёрдам беради”[1.,75б]

Малакали мутахассис бўла оладиган компетентли талаба тайёрлашга эришиш – бугунги кун олий таълим олдига қўйилаётган энг муҳим вазифа саналади. Жосе Жинес Моранинг фикрича, компетентли талаба етарлича касбий-шахсий сифатларга эга бўлиши, янги билимларни тезкор эгаллаши, бошқа соҳалар бўйича ҳам билимларга эга бўлиши, самарали муҳокама юритиши; янги имкониятлардан фойдалана билиши, танқидий тафаккурга эга бўлиши, компьютер технологиялари ва интернетдан оқилона фойдаланиши, чет тилларда гапириш ва ёзишни билиши зарур.[2.,7-10б]

Олий педагогик таълим йўналишида “Педагогика” фанидан ДТСда талабаларда қуйидаги компетенцияларни шакллантириш вазифаси илгари сурилмоқда:

1) ижтимоий-маданий, шахсий-интеллектуал кадриятларга асосланиб, жамият эътироф этган маънавий-ахлоқий, ғоявий-мафкуравий қадриятларга оид билим ва тушунчалар билиш ва уларга риоя этиш йўналишларини қамраб олувчи **академик компетентлик**;

2) педагоглик касби билан алоқадор функцияларни ҳал этиш, муаллифлик ўқув-тарбиявий режалари асосида қўйилган вазифаларининг

ижросини таъминлаш лаёқатини жамловчи **касбий компетентлик**;

3) касбий вазифаларни профессионал даражада бошқаришда амалий-фундаментал билим, кўнима, малакаларга эга, рақобатбардошлик талабларига мос **педагогик маҳоратга эгалик компетентлиги**.

Компетентлик тушунчаси ҳақида дастлабки қарашлар Буюк Британиялик психолог олим Джон Равен томонидан илгари сурилган бўлиб, у компетентликка хос хусусиятларни ягона бир тизимга бирлаштиради ҳамда эмоционал-интеллектуал хусусиятга эга компетентлик “мотивациялашган қобилиятлар” асосида намоён бўлишини таъкидлайди. [3.,43б]

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида компетенция “муайян орган ёки мансабдор шахснинг расмий ҳужжатларда белгиланган ваколатлар доираси, ваколат. 2. Шахснинг бирор бир соҳадан хабардорлик, шу соҳани билиш даражаси” эканлиги уқтирилади

Компетенция касб эгасига зарур касбий қонуниятлар, тамойиллар, талаблар, қоидалар, бурч, вазифа ҳамда мажбуриятлар, шунингдек, шахсий деонтологик меёрлар йиғиндисини англатади. Компетентлик еса шахс амалий фаолияти билан боглиқ бўлиб, компетенсия меъёрларини жамият талабаридан келиб чиққан ҳолда креативлик асосида иш тажрибасида намоён этиш маҳоратидир. Компетентликнинг асосий мезони самарали фаолият ва рақобатбардош кадрлар тайёрлаш билан белгиланади. [4.,62б]

Бизнингча, дидактик қадриятларни билиш ва тегишли маълумотларни ўз педагогик фаолиятида таълим мазмуни ва ўқув вазиятларига мос равишда қўллай билишни ифодаловчи талабанинг дидактик-қадриятли компетентликка эга бўлиши талаби бўлажак ўқитувчи эгаллаши зарур бўлган таяч касбий компететентликнинг муҳим компонентлари таркибига киритилиши зарур.

Талабаларда касбий компетентликни ривожлантиришга хизмат қиладиган дидактик қадриятларни аниқлашда шахсий-касбий компетенция, унинг таркибидаги асосий компонент сифатида дидактик компетентлик, қадриятли дидактик компетентлик, компетенциявий ёндашувга асосланган таълим, “қадриятларга асосланган инновацион фаолият” тушунчалари муҳим ўрин тутади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Андреас Шляйхер. Жаҳон микёсидаги таълим. XXI аср мактаб тизимини қандай барпо этмоқ керак? / Сўз боши Ш.Шерматов, Ҳ.Умарова; умумий таҳрир Д.Норбоева. – Т.: “Zamin-nashr” нашриёти, 2022. -344 б. -75-б.

2. Mora, Jose-Gines: “Editorial”. In: European Journal of education, vol.42,2007, No.1, pp-7-10.

3. Равен ДЖ. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие, и реализация/пер с англ. – М.:” Когито -Центр”, 2002. – 396 с. – с 43.

4. Рискулова К.Д. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими: Автореф. Дисс…. пед. фанлар.докт. – Т., 2017.- 62 б.

TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI

Ergasheva Go‘zalxon Ergashaliyevna,
Farg‘ona viloyati pedagogika markazi katta o‘qituvchisi,
e-mail: *gozal7171@umail.uz,*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim tizimiga tatbiq etish ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, unda ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasi aniq misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, metod, metodologiya, ta’lim oluvchilar, yoshlar tarbiyasi, ta’sir, vositalar.

Аннотация. В данной статье обсуждается важность применения современных информационно-коммуникационных технологий в системе образования. Кроме того, на конкретных примерах объясняется методика использования современных информационно-коммуникационных технологий в системе образования.

Ключевые слова: информация, информационно-коммуникационные технологии, метод, методика, учащиеся, воспитание молодежи, влияние, инструменты.

Annotation. This article discusses the importance of using modern information and communication technologies in the education system. In addition, specific examples explain the methodology for using modern information and communication technologies in the education system.

Key words: information, information and communication technologies, method, methodology, students, youth education, influence, tools.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim tizimiga tatbiq etish iqtisodiy samara berishi bilan bir qatorda, o‘quv jarayonida yangi o‘qitish uslublarini qo‘llashga keng imkoniyatlar ochadi. Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik-dasturiy vositalari yaratilishi bilan bog‘liq.

O‘quv materiallarini obrazlar ko‘rinishida taqdim etish metodikasi yordamida ta’lim oluvchilar bilim olish jarayonining barcha tarkibiy qismlariga u yoki bu tarzda ta’sir etishi mumkin. Ayniqsa, bu o‘rinda ta’lim oluvchilarning o‘quv materiallarini qabul qilish, ma’nosini tushunish, yodda saqlab qolish, ularni qayta so‘zlab berish kabi qobiliyatlarini ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari bu uslub ta’lim oluvchilarning o‘qishga nisbatan emotsional yondashishlarini rivojlantiradi va ularning ko‘p vaqt sarf qilmasdan o‘quv materiallarini oson o‘zlashtirishga erishishlarini ta’minlaydi. Bu sifatlarni an’anaviy o‘qitish va noan’anaviy o‘qitish metodikalari bilan taqqoslab ko‘ramiz. An’anaviy o‘qitish metodikasida o‘quv materiallari asosan matn va formulalar ko‘rinishida berilib, o‘quv materiallarini namoyish qilish imkoniyati deyarli mavjud emas. Bunday ko‘rinishda berilayotgan o‘quv materiallarini ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirish asosan ketma-ket

ravishda amalga oshiriladi, shu sababli ularni esda saqlab qolish va o‘zlashtirish juda sust kechadi. Noan’anaviy o‘qitish metodikalarida ta’lim oluvchilarga berilayotgan materiallarni qayta kodlashtirish va o‘zlarining modelini yaratish masalalari yuklanmaydi. Bu o‘qitish metodikasida o‘quv materiallari matn va formula ko‘rinishi bilan bir qatorda, obrazlar ko‘rinishida ham taqdim etiladi. Bu ma’noda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘quv materiallarini obrazli ko‘rinishda taqdim etishda ularga har xil ko‘rinishdagi ranglar, harakat, ovoz kabi elementlarni kiritish ta’lim oluvchilarning o‘quv materiallarini qabul qilish jarayoni samaradorligini oshirish bilan birga berilayotgan materiallarni tahlil qilish, taqqoslash hamda abstraksiyalash (mavhumlashtirish) kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi. O‘quv materiallarini obrazli ko‘rinishda taqdim etish uchun ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, elektron didaktika asosida elektron qo‘llanma, darslik, kurs va virtual stend ko‘rinishida yaratish yuqorida qo‘yilgan masalalarni ijobiy hal etishga olib keladi.

Vatanimizda va ilg‘or xorijiy mamlakatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik asoslari bo‘yicha olib borilgan ilmiy loyihalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari elektron-didaktik (animatsiya) ko‘rinishidagi funksiyalarga asoslanib, ular:

- qulay ko‘rinishda bo‘lgan o‘quv materiallarini tushunib yetishga xizmat qilib, berilgan ma’lumotlar haqida tushuncha va tasavvur hosil qiladi;
- ko‘p ma’lumotlarni olish, ya’ni ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olish imkoniyati yaratadi;
- o‘quv jarayonini yengillashtirishga, ya’ni kam vaqt sarf qilib ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘lishga erishadi;
- o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun qulay bo‘lgan animatsiyalarni ko‘rsatish, mustaqil ishlash uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va guruh-guruh bo‘lib bilim olishni tashkil etish masalalarining yechimini topishga qaratilgan va ular ikki turdagi, ya’ni informatsion va pedagogik yondashishlarni ko‘rishdan iboratdir.

Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uning yangi sohasi, ya’ni ta’limning elektron-didaktik shakli paydo bo‘lishiga asos solib, unda o‘quv fanlarining boblarini ajratib, elektron ko‘rinishda tasvirlash, elektron qo‘llanmaning ma’ruza va amaliy darslar qismini ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish, elektron qo‘llanmani baholash mexanizmini yaratish va tadbiq etish, elektron qo‘llanmalar asosida virtuallikni yaratish va o‘quv jarayonida qo‘llash, elektron qo‘llanmani qo‘llash orqali o‘qitishning umumiy saviyasini

aniqlash kabi imkoniyatlar yaratilishi kuzatilgan.

Ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish va elektron qo‘llanma tayyorlash maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- o‘quv adabiyotlarida ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasining yoritilishini o‘rganib, tahlil qilish;
- o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

- o‘quv jarayonida darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning usul va metodlarini yoritish;

- o‘quv jarayonida darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha elektron qo‘llanma ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, yoshlarni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo‘lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish borasida qo‘llanib kelayotgan usul, vosita, ko‘nikma va malakalar birligi, tajribalar asosida to‘plangan bilim va ma’lumotlar yig‘indisidir. Ta’limga yangicha yondashuv asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim oluvchilarning milliy o‘zligini anglashga, ularning Yangi O‘zbekistonning munosib farzandlari bo‘lib yetishishlariga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 102 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
4. Parpiyev A.P. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari. T.: 2008. 183-184 b.
5. Umarov L.M. Axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish samaradorligini oshirish. Mag.disser.-Q.: 2012.-15-19 b.
6. Xodjiyev M.T., Olimov Q.T. Elektron darslikni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. -T.: Fan, 2005. - 72 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHILARNING KRETIV YONDOSHUVLARI DAVR TALABI

Tolliboyeva Umida Qalandarovna

Sirdaryo viloyati MTTB bo‘lim boshlig‘i

Inson kamolotida maktabgacha ta’limning o‘rni beqiyos. Shu boisdan bugun mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e'tibor qaratilgan holda bu borada barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida

bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendentsiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Shu boisdan maktabgacha ta'lim muassasslarida yangi pedagogik innovatsion ta'lim asosida bo'lajak tarbiyachi lar o'quv faoliyatini tashkil etish malakasini tarkib toptirish hamda ularda kasbiy tayyorgarlik jarayonida mutaxassis kompetentlikni rivojlantirish kunning dolzarb asalalaridan biriga aylangan.

Bo'lajak mutaxassislarning mustaqil bilish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil etish hamda insoniy munosabatlar tizimiga doir

axborotlar ustida ishlash malakasini rivojlantirish.

1. Bo'lajak mutaxassislarni ijodiy-izlanishli faoliyatga qiziqtirish va rag'batlantirish.
2. Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish hamda pedagogik va psixologik kompetentligini shakllantirish.
3. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlash.
4. Bo'lajak mutaxassislarda guruhlarda ijobiy psixologik muhitni yaratish maqsadida innovatsion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish malakalarini tarkib toptirish.
5. O'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, mavjud bilimlarini yoshlarga berish, ularda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantira olishga tayyorlik hissini

kamol toptirish.

Mazkur vazifani amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

1. Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyillari:

a) adaptivlik tamoyili- ta’lim muassasasida o‘zining individual xususiyatlaridan qat'iy nazar har bir o‘quvchi va maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchisi o‘z o‘rnini topa olishi kerak;

b) rivojlanish tamoyili- ta’lim muassasasi nafaqat bilim berishi, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun mas’uldir.

v) psixologik qulaylik tamoyili- ta’lim jarayoni o‘quvchi va maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchisi uchun hissiy qulay hamda yoqimli bo‘lishi kerak, shunda natija ham samarali bo‘ladi, shaxs barkamollikka erishadi.

2. Faoliyatga yo‘naltirilganlik tamoyillari:

a) faoliyatga o‘rgatish tamoyili- faoliyatni o‘zlashtirish, aniq maqsadlar qo‘ya olish, o‘zining hamda boshqalarning hatti-harakatlarini nazorat qilish va baholashni o‘rganish;

b) o‘quv mashg‘ulot vaziyatidagi faoliyatdan aniq hayotiy vaziyatdagi faoliyatga o‘tish tamoyili;

v) hamkorlikdagi o‘quv-biluv faoliyatidan mustaqil faoliyatga o‘tish tamoyili;

g) kreativlik tamoyili- ijod bilan shug‘ullanish ehtiyojini va ijod korlik ko‘nikmasini shakllantirish.

Bo‘lajak mutaxassislarda mutaxassislik kompetentlikni shakllantirishda innovatsion va yangi pedagogik texnologiyalar faoliyatni quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etish lozim:

1. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda interaktiv, hamkorlikda o‘qitish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Interaktiv va hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari har bir maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchisining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishiga, o‘rtoqlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Svirskaya L. Induvidualizatsiya obrozovaniya i innovatsii. MTM pedagoglari uchun metodik qo‘llanma. – M.: Obruch. 2011. – 234 s.

2. Doman G. Doman D. Sizning farzandingizni intellektual qobiliyatini rivojlantirish. Ingliz tilidan N.A. Lunkina tarjimasi. 2011.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’limni rivojlantirish kontsepsiyasi. 2008. Burxonov S., Xudoyorov O‘., Norqulova Q. Matematika. Umumiy o‘rta ta’limmaktablarining 3sinfi uchun darslik. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T.: 2012-yil. 208 bet.

TABIIY FANLAR DARSLARIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Abduxalikova Karamat Sayakulovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 7-IDUM boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga tabiiy fanlar darslarida ekologik tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish omillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, milliy qadriyatlar, "Gul bayrami", "Uzum sayli", "Hosil bayrami "Qovun sayli"

Milliy qadriyatlar jamiyat madaniyatining o'ziga xos tarkibiy qismi sifatida insonnning tabiatga ongli, mas'uliyatli munosabatini mustahkamlaydi, Tabiiy, ijtimoiy amaliyot natijasi sifatida, shakllangan tarixiy – ma'naviy hodisa bo'lib, u shaxs amaliy faoliyatida ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish mezoni hisoblanadi.

Qadimgi bayramlar, jumladan, bahorgi "Navro'z", kuzda "Mehjon", qishda "Sada" kabi yilning to'rt faslida tabiiy ehtiyojlar asosida vujudga kelgan. Masalan "Navro'z" bayramini olsak asrlar davomida ona yerga va tabiatga mehr – muhabbat uyg'otib, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish bilan birga mehnat tarbiyasini o'stirishda ham muhim o'rin egallagan. Bu bayram orqali bolalar tabiatdagi o'zgarishlar haqida bilib oladilar, yerga urug' qadash va daraxtlar ham oqlanishi orqali ham bu tabiat bilan bog'liqligini tushunib boradilar. Hatto bayram urf-odatlari ham o'quvchilarda tabiatni sevishga o'rgatish bilan birga milliy an'analarimizga yo'g'rilgan tarbiya jihatini ham yanada yaqqol namoyon qiladi.

Masalan:

- Navro'zda bemorlar holidan xabar olinadi:
- Navro'zda arazlashganlar yarashadilar;
- Navro'zda turli bahoriy taomlar tayyorlanadi;
- Navro'zda atrof tozalanadi
- Navro'zda daraxtlar oqlanadi

Navro'z koinot va tabiat qonuniyatlarini hisobga olgan holda xalq tomonidan yaratilgan. Quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo'lishi, asta –sekin kunduzning uzaya borishi, bahorning boshlanishi tabiatning jonlanishi "Navro'z" deb qabul qilingan. Navro'z "yangi kun,, , "yasharish "degan ma'nolarni anglatadi.

Bu milliy qadriyatga asoslangan bayram zamiri orqali bolalar tabiatdagi teng kunlik, kunning uzayishi, tabiat bir fasldan boshqa faslga almashishi haqida ma'lumotlarni bilib ko'chat ekish, urug' qadash vaqtini bilib tabiatga munosabatini ongli tarzda o'zgartiradi.

Yana shuni ta'kidlah mumkinki, Navro'z taomlari ko'k somsa, sumalak, xalim kabi taomlarni tayyorlash orqali tabiatda o'sadigan o'simliklar dunyosi haqida bilib ularni inson sog'ligi uchun mihim ekanligini biladilar. Ularni nima uchun aynan bahorda ulardan taomlar tayyorlanishi haqidagi qiziqarli savollarga javob topiish

barobarida o‘simlik dunyosini inson hayotidagi ahamiyatini tushuna boshlaydi. Mima uchun bu ko‘katlar is’temol qilinyapti ular inson tanasiga qanday ijobiy ta’sir etadi. Nega ular aynan ko‘proq bahoraning ilk oylarida tanovvul qilinadi. Shuningdek ota-bobolarimiz ularni shifobaxshligini qanday aniqlay olganlar ular bu o‘simliklar haqida to‘liq ma’lumotlarni bilib oladilar. Hatto shuni ta’kidlash joizki kattalar - onasi, buvisi, singil opalari bilan ko‘katlar terish orqali kattalarga yordam beribgina qolmay, shifobaxsh o‘simliklarni tanib ularni nomini ham bilishga yordam beradi. Bu orqali tabiatga nisbatan mehr –muhabbat hissi yanada kuchayadi. Ular tabiatni asrashga uni muhofaza qilish lozimligini ongli his qiladilar. Bu esa asta-sekin ilk ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Shuningdek yana shularni ta’kidlash mumkinki, fasllarda o‘tkaziladigan turli milliy bayramlar ham o‘quvchilarga ekologik madaniyatini shakllanishig xizmat qiladi. Asrlar davomida avloddan –avlodga o‘tib kelgan va qadriyatga aylangan. Ularni nishonlash bilan bir qatorda ekologik ong va dunyoqarashi boyiydi, tabiat ne’matlarini qadrlash, yil fasllsridagi tabiatda ro‘y beradigan go‘zallik va fusunkorlikdan zavqlanish, mehnatning qadriga yetish va insoniylikni ulug‘lash kabi fazilatlar shakllanadi. Milliy bayramlarimiz ayrimlarini sanab o‘tsak “Gul bayrami”, “Uzum sayl”, ”Hosil bayrami “Qovun sayli” kabilarni misol keltirish mumkin. Bolalar bu bayramlar orqali tabiat nematlariga, gullarga, daraxtlarga ham ilohiy qadriyat sifatida e’tibor berganlar. Mevali daraxtga o‘ziga xos mehr va rizq-ro‘z manbai sifatida qarash, xalqimizning hayotbaxsh unitilmas marosim va qadriyatlari hisoblanadi. Bolalar buvi, momolari tomonidan hovli, tomorqa va bog‘larda yetishtiriladigan mevalarni yerga to‘kilgan hosilini ham uvol bo‘lishini oldini olgan holda o‘rik, sgaftoli, uzum, olcha, olxo‘ri. olma, nok kabi mevalarni qurutib ularni ham iste’mol qilishga tayyorlaganlar. Bu ham kichik yoshdagi bollarimizni bu ishlarni davom ettirishlarini ta’minlagan, ularda iqtisidiy – madaniy ekologik tarbiyani rivojlantirgan.

Xalqimizda “Ko‘chat ek, bog‘ qil”, “O‘zng ko‘karay desang daraxt ko‘kartir”, “Bir tup tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi “, “Birni eksang, o‘nni ek”, ”Yaxshidan bog‘ qoladi”kabi hikmatlar paydo bo‘lganki bular zamirida xalqimiz tajribasiga asoslangan chuqur ma’no yashiringan.

Quyoshni ertalab ozoda holda kutib olish, tongda hovini tozalash, uyni supurish, olov yoqish, olov yordamida oziq- ovqatlarni, turmush anjomlarini zararsizlantirish, turli giyohlar tutatish va ulardan foydalanish ham bizga o‘tmish ajdodlardan meros bo‘lib qolgan va bugungi kunda oilaviy marosim, an’analarga aylangan ijtimoiy –ma’naviy hodisalardir.

O‘zbek xonadoida tongda turib ko‘cha va hovini supurib –sidirish odati mavjud. Millatmiz ma’naviyatida bu o‘ziga xos ekologik harakat xalqimiz tomonidan yuksak e’zozlanib, xonadonga yangi tushirilgan kelinning saranjom-sarishtaligi, farosati, nozik didi shu birgina hovlini qay tarzda ozoda tutishi bilan belgilangan va shu asosda kelinning fazilatlariga baho berilgan. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda o‘zi yashaydigan hudud tabiati ham kata ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, o‘zbek xalqi ma’naviy merosi, tarixi hamda

qadriyatlarida ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy va diniy g‘oyalar, ma’naviy-axloqiy asoslarni ko‘plab topish mumkin. Turli tadbir va suhbatlar orqali tarixiy meros va milliy, nahalliy umuminsoniy qadriyatlar foydalanib, quvchilarda ekologik madaniyatni singdirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ishmuhammedov Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologyalar - Toshkent , 2013-yil

2, 1-sinf Tabiiy fanlar darsligi. Toshkent-2021

БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ МУТАХАССИСИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-МЕТОДИК АСОСЛАРИ

Эрметов Дилмурод Назарматович,

Чирчиқ давлат педагогика университети Туризм факултети тютори

Аннотация. Мақолада бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассисининг касбий компетентлигига оид психологик-педагогик тадқиқотларнинг назарий таҳлили, касбий компетентликнинг таркибий қисмлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар. Модернизация, сифат, билим, кўникма, тажриба, фаолият, компетентлик, ижод, фаолият, ривожланиш, лойиҳалаш, ишлаб чиқариш.

ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

Аннотация. В статье рассматривается теоретический анализ психолого-педагогических исследований профессиональной компетентности будущего специалиста физической культуры и спорта, компоненты профессиональной компетентности.

Ключевые слова. Модернизация, качество, знание, мастерство, опыт, активность, компетентность, творчество, деятельность, разработка, проектирование, производство.

ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF A FUTURE SPECIALIST IN PHYSICAL CULTURE AND SPORT

Annotation. The article deals with the theoretical analysis of psychological and pedagogical studies of the professional competence of a future specialist in physical culture and sports, the components of professional competence.

Keywords. Modernization, quality, knowledge, skill, experience, activity, competence, creativity, activity, development, design, production.

Кириш. Республикамизда соғлом авлод учун олиб борилаётган ишлар ёшларнинг дунёқариши жисмоний ва маънавий қадриятлар билан узвий боғлиқлигини таъминлашга қаратилганини таъкидлаб ўтиш керак. Бу эса

жисмоний тарбия ва спорт мутахассислигини илмий жиҳатдан тадқиқ этиш, уларнинг ижтимоий-тарбиявий аҳамиятга эга эканлигини аҳамиятга олиш энг долзарб муаммолардан биридир.

Ўсиб бораётган авлодни жисмоний жиҳатдан тарбиялаш масалаларига бағишланган жуда кўп тадқиқотлар, номзодлик диссертациялари яратилган. Бироқ бу ишларда бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассисининг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг ташкилий-методик асослари яхлит ҳолда тадқиқ этилмаган. Ёшларнинг жисмоний тайёргарлик ва жисмоний ривожланиш масалалари кўпгина олимлар томонидан ўрганилган, уларда болаларнинг жисмоний ривожланиши ва жисмоний тайёргарлиги, ҳаракат фаоллиги сустлиги аниқланган.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Жисмоний маданият муаммолари билан шуғулланаётган, республикамизда кўзга кўринган олимлардан проффессор Т.Усмонхўжаевнинг ишларини алоҳида таъкидлаш мумкин. Олим асосан, диққатини болаларнинг ҳаракати ўйинларига қаратди, уларни тасниф қилади, тавсифлайди Унинг «болаларни ҳаракат фаолликлари билан боғлиқ тарзда жисмноий камолатга етказишнинг илмий-педагогик асослари» деб номланган докторлик дессертациясида ўсиб келаётган ёш авлоднинг «Жисмоний камолати» тушунчасига оид Ўзбекистоннинг аниқ шароитларини ҳисобга олган ҳолда янги котсептуал ёндашувлар ишлаб чиқилган. Болалар ва ўсмирларнинг ҳаракат фаоллигини оширишга ёрдам берадиган омиллар: миллий ҳаракатли ўйинлар, миллий машқлар элементлари, беллашувлар ва спорт турлари, жисмоний тарбиянинг анъанавий воситаларидан фойдаланиш йўллари кўрсатилган.

Сўнгги йилларда профессор Ф.Н.Насриддинов бошчилигида бир гуруҳ

мутахасислар, ёш тадқиқотчилар миллий ўйинларни ўрганиш, уларни халқ ўртасида оммалаштириш мақсадида бир қатор илмий-амалий ишларни, нашрларни амалга оширишга муваффақ бўлдилар. Шунингдек, «Ўзбекистонда жисмоний тарбия» ва бошқа муаллифларнинг илмий ишларида халқ миллий

ўйинлари ҳақидаги қарашларни кўриш мумкин [1].

Касбий фаолиятнинг турли функцияларини бажариш компетентлиги фақат бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассисининг олий таълим муассасаларида ўқув дастурининг турли фанларини ўрганишда олган билимларини ўз ичига олмайди. Мутахассиснинг касбий компетентлигини шакллантиришни (ривожлантиришни) таълимнинг якуний мақсади қилиб белгилаган ҳолда, бўлажак мутахассиснинг жисмоний, ақлий ва маънавий соғломлиги, таълими, умуммаданий саводхонлиги каби касбий тайёргарлик ва шахсий сифатларни ҳам ҳисобга олиш керак.

Кўпаб педагоглар ва психологлар олий таълим муассасаларида ўқиш жараёнида малакали рақобатбардош мутахассисни тайёрлаш муаммосини ҳал қилишни *касбий компетентликни* шакллантириш билан боғлашади. *Компетентли ёндашув* ривожланишининг бошланиши ўтган асрнинг 90-йилларига тўғри келади, бунда “компетентлик” феномени бўйича биринчи

илмий (диссертация) тадқиқотлар олиб борилган. “Компетентлик” тушунчасининг таърифи, компетентликни шакллантириш ёки ривожлантириш тузилмаси ва механизмларини аниқлаш кўплаб ўқитувчилар ва психологлар томонидан ўрганилган.

“Компетентлик” тушунчаси “компетенция” (лотинча competo - эришаман; мос келаман, яқинлашаман) сўзидан олинган бўлиб, Катта энциклопедик луғатда қуйидагича таъриф берилган: 1) муайян орган ёки шахснинг қонун, низом ёки бошқа ҳужжатларда кўрсатилган ваколатлари, 2) маълум бир соҳадаги билим, тажриба [2]. “Компетентлили” сўзи 1) билимдон, тушунчага эга, обрўли, 2) компетенцияларга эга (ваколатли) маъноларини билдиради [3]. Бироқ, ушбу атамаларни мутахассиснинг касбий фаолиятга тайёрлиги мезонини аниқлашда ишлатадиган олимлар ўз тадқиқотларида уларни турли усулда изоҳлайдилар, масалан:

- С.Е.Шишов ва И.Г.Агаповлар: “*Компетенция* деганда биз шахснинг ўқув-билиш жараёнида мустақил иштирок этишига йўналтирилган, шунингдек, уни меҳнат фаолиятига муваффақиятли киритишга қаратилган, таълим орқали олинган билим ва тажрибага асосланган умумий қобилияти ва фаолиятга тайёрлигини тушунамиз. *...Компетенция* бир вақтнинг ўзида муайян фаолият шароитига мослаштирилган билим, кўникма ва хулқ-атвор муносабатларини сафарбар қилишни чамбарчас боғлайди” [4];

- В.А.Козырев, Н.Ф.Радионова, А.П.Тряпицына: “Таълимни модернизация қилиш шароитида сифатнинг интеграл кўрсаткичи *мутахассиснинг* маълум миқдордаги билим ва кўникмалар билан белгиланмайдиган, балки шахснинг олган билим ва тажрибасини муайян вазиятда сафарбар қилиш қобилиятини тавсифловчи *компетентлиги* деб ҳисобланиши мумкин. *...Махсус компетенция* етарлича юқори даражада шахсий касбий фаолиятга эга бўлишни, ўзининг кейинги касбий ривожланишини лойиҳалаш қобилиятини назарда тутади” [5];

- А.В.Хуторский *компетенция*ни таълим олувчини тайёрлаш учун берилган талаб (меъёр), компетентликни эса “унинг мавжуд бўлган шахсий сифати (сифатлар тўплами) ва маълум бир соҳадаги фаолиятга нисбатан минимал тажрибаси” деб ҳисоблайди;

- Ж. Равен [6] *компетентлик*ни аниқ фан соҳасида муайян ҳаракатни бажариш учун зарур бўлган махсус қобилият, жумладан, ихтисослашган билимлар, махсус фан кўникмалари, фикрлаш усуллари, шунингдек, ўз фаолиятига масъулиятни англаш сифатида белгилайди;

- В.Г.Горб касбий компетентлик деганда “мутахассиснинг маълум бир касбий компетенция доирасида лойиҳалаш ҳаракатларини амалша ошириш имконини берадиган шахсий имкониятлари”, “касбий компетенция - бу шахснинг касбий фаолиятда давлат, ижтимоий ва шахсий ваколатларини амалга ошириш учун касбий мақоми имкониятлари” деб тушунади [].

Ушбу масала бўйича илмий адабиётларни таҳлил қилиб, хулоса қилишимиз мумкинки, кўпчилик муаллифлар “*компетенция*” тушунчасини маълум бир лавозимни эгаллаган мутахассис эга бўлиши керак бўлган касбий

қобилиятларга (кўникмаларга) қўйиладиган талаблар тўплами сифатида қарайдилар. Мутахассиснинг бир қатор касбий вазифаларни, ваколатларини юқори малакали даражада бажаришда муайян вазиятда намоён бўладиган қобилияти (маҳорати)ни *компетентлик* деб аташ мумкин.

Тадқиқот методологияси. Ҳар бир тадқиқотчи касбий компетентлик тузилмасини ўзига хос тарзда белгилайди. Барча муаллифлар асарларида касбий компетентлик тузилмасининг мажбурий таркибий қисми билим таркибий қисмидир.

Ю.И.Нечаев [8] диссертация ишида касбий компетентлик таркиби

қуйидаги таркибий қисмларни ўз ичига олади:

- *билиш* компетентлиги, бу мутахассиснинг касбий тайёргарлиги қобилияти ва эҳтиёжи билан тавсифланади;

- *коммуникатив* компетентлик, бу шахслараро мулоқот кўникмалари ва усулларига (шу жумладан чет тили ва замонавий ахборот технологиялари ёрдамида) эга бўлишни ўз ичига олади;

- *махсус* компетентлик, яъни ижодий даражада ўз касбий фаолиятига эга бўлиш, шу жумладан ўз касбий ривожланишини лойиҳалаш, ишлаб чиқариш жараёнларини режалаштириш ва қўл иши кўникмаларини эгаллаш;

- *аксиологик* компетентлик, индивидуал ютуқлар мотивацияси, муваффақият манбаи, шахснинг ўзини ўзи англаш истагини ўз ичига олади;

- *экстремал* компетентлик, бу нормал йўлга қўйилган ишлаб чиқариш шароитларидан четга чиқишни, синов шароитларини, турмуш тарзини, дунёқарашини, муносабатларини ўзгартиришни назарда тутади.

Таҳлил ва натижалар. Шундай қилиб, бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассисининг компетентлигига оид психологик-педагогик тадқиқотларнинг назарий таҳлили бизга мутахассис компетентлигининг тузилмасини ишлаб чиқиш имконини берди. Ушбу тузилма касбий компетентликнинг қуйидаги таркибий қисмларини ўз ичига олади:

- *билиш* компетентлиги, тизимли шаклланган касбий аҳамиятли билимлар, мутахассислик бўйича турли муаммоларни ҳал қилиш методлари, узлуксиз

касбий таълим қобилиятига жавоб беради;

- *аксиологик* компетентлик - мутахассиснинг касбга бўлган муносабатини қадрият сифатида тавсифловчи ва мақсадлар, шахснинг касбий фаолиятда ўзини ўзи амалга оширишдаги муваффақият мотивациясини ўз ичига олган шахсий сифати;

- *коммуникатив* компетентлик, бу мутахассиснинг ўз жамоасидаги ҳамкасблари, буюртмачилар ва пудратчилар билан, лойиҳани тасдиқлаш пайтидаги (она тили ва хорижий тиллар, график тиллар ва замонавий ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда) касбий мулоқот қилиш қобилиятини ўз ичига олади;

- *ижтимоий-психологик компетентлик,* жисмоний, психологик соғломлик, замонавий ижтимоий тажриба мавжудлиги ва маълум шароитларда ўз вақтида барча шахсий касбий компетентликларни муваффақиятли амалга

оширишга ҳисса қўшишга жавобгар;

- *касбий тажриба* - мутахассиснинг олий таълим муассасаларида ўқишнинг биринчи кунларидан (ёки олий таълим муассасаларида ўқишдан олдин касбий тажрибага эга бўлган тақдирда, биринчи иш кунларидан) босқичма-босқич тўпланадиган барча шахсий касбий тажрибасини ўз ичига олади.

Хулоса ва таклифлар. Шундай қилиб, *мутахассиснинг касбий компетентлигини* ушбу мутахассисликнинг малака талаблари билан тартибга солинадиган барча турдаги касбий фаолиятнинг маълум (зарурий) функцияларни моҳирона бажаришга қодир бўлган мутахассиснинг интеграл хусусияти сифатида белгилаш мумкин. Мутахассиснинг касбий компетентлиги умумкасбий ва махсус сифатларни, физиологик, психологик ва маънавий-ахлоқий таркибий қисмларни ўз ичига олади ва замонавий жамият ва саноатнинг ижтимоий-иқтисодий талабларига боғлиқ. Бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассисининг *касбий компетентлиги* фаолиятда намоён бўлиши керак. Бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассисининг *касбий компетентлигининг* тузилмаси ва мазмунини тақдим этиш ўзига хос сифатларни ўрганиш ва ўқитиш жараёнида уларни ривожлантириш учун оптимал методологик ёндашувни танлашни талаб қилади. Бундай ёндашув, тажрибанинг кўрсатишича, компетентли ёндашув ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алиев М. Жисмоний тарбия ҳақидаги илмий услубий билимларни болаларга сингдириш келажак соғлом турмуш тарзининг асосидир. Соғлом авлод тарбиясининг буюк давлат қуриш заминидир, илмий-амалий анжуман материаллари. 2-қисм. Т., 1994. 16-18 б.

2. Большой энциклопедический словарь: В 2-х т. /Гл. ред. А.М. Прохоров.-Сов. энциклопедия, 1991. Т. 1. - 863с.

3. Ожегов СИ. Словарь русского языка/ Под ред. чл.-корр. АН СССР Н.Ю, Шведовой, - М,: Рус. яз., 1987. - 750 с.

4. Шишов С.Е., Агапов И.Г. Компетентностный подход к образованию: прихоть или необходимость? //Стандарты и мониторинг. -2002.-№2.-С. 58-62.

5. Козырев В.А., Радионова Н.Ф., Тряпицына А.П. Направления модернизации педагогического образования// Модернизация педагогического образования в Сибири: проблемы и перспективы. Часть 1: Сборник научных статей. - Омск: Изд-во ОмГПУ, 2002. - С. 3 - 10.

6. Равен Дж. Педагогическое тестирование: Проблемы, заблуждения, перспективы. Природа компетентности//Школьные технологии. - 1999. - С. 151-175.

7. Горб В.Г. Основная образовательная программа вуза: проблемы и решения// Стандарты и мониторинг. - 2004. - №2. - С. 22 -31.

8. Нечаев Ю.И. Формирование методологической грамотности студента вуза на начальном этапе подготовки: Дис. ...канд. пед. наук. — Омск, 2001.-189 с.

9. Писарева С.А. Диссертационные исследования «компетентности»

учителя и ученика// Модернизация педагогического образования в Сибири: проблемы и перспективы. Часть 1: Сборник научных статей. - Омск: Изд-во ОмГПУ, 2002,-С, 180-190,

10. Татьяненко С.А. Формирование профессиональной компетентно-170 сти будущего инженера в процессе обучения математике в техническом вузе: Дис. ...канд. нед. наук. — Тобольск, 2003. - 240 с.

11. Геллер Э.М Основные фуксии подвижных игр и проблемы дальнейшего их внедрений в практику физкультурного движения // Теория и практика физической культуры, 1987. № 3. Б.20-22.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНИДА МОТИВАЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Уринбоев Шерзод Дилшод ўғли,
Чирчиқ давлат педагогика университети Туризм факултети тютори

Аннотация. Республикамизда жисмоний тарбиянинг мақсад ва вазифалари ҳукуматнинг ҳамда республика жисмоний тарбия ва спорт давлат қўмитасининг қарорларида келиб чиққан ҳолда амалга оширилади.

Мақолада талабаларнинг жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида мотивациясини ривожлантиришда самарадорликка эришиш учун мотивларнинг турлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари, талабаларда мавжуд бўлган эҳтиёжлар, уларнинг билим, кўникма ва малакаси ҳамда тажрибаси даражаси, дунёқараши ва қизиқишлари ва бошқа мотивация жараёни самарадорлигига таъсир этувчи омиллар санаб ўтилган.

Калит сўзлар. тасаввур, қизиқиш, имконият, мотив, омил, восита, муҳит, эҳтиёж, инновацион ёндашув.

РАЗВИТИЕ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. Цели и задачи физического воспитания в нашей республике реализуются на основании решений правительства и республиканского государственного комитета по физической культуре и спорту.

В статье перечислены виды мотиваций и их характеристики, потребности обучающихся, уровень их знаний, навыков и опыта, мировоззрение и интересы и другие факторы, влияющие на эффективность процесса мотивации с целью достижения эффективности в развитии мотивация студентов на занятиях по физическому воспитанию.

Ключевые слова. воображение, интерес, возможность, мотив, фактор, средства, среда, потребность, инновационный подход.

DEVELOPMENT OF MOTIVATION OF STUDENTS IN THE

PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION

Annotation. The goals and objectives of physical education in our republic are implemented on the basis of decisions of the government and the republican state committee for physical culture and sports.

The article lists the types of motivations and their characteristics, the needs of students, the level of their knowledge, skills and experience, worldview and interests, and other factors that affect the effectiveness of the motivation process in order to achieve efficiency in the development of students' motivation in physical education classes.

Keywords. imagination, interest, opportunity, motive, factor, means, environment, need, innovative approach.

Кириш. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш тўғрисида Кадрлар тайёрлашдаги оқилона тизим ғоят мухим ахамиятга эга. Шу боис республикамизда жисмоний тарбиянинг мақсад ва вазифалари ҳукуматнинг ҳамда республика жисмоний тарбия ва спорт давлат қўмитасининг қарорларида келиб чиққан ҳолда амалга оширилади. Республикада амалга оширалаётган жисмоний тарбиянинг ўз олдига қўйиган мақсади соғлом, руҳан тетик ва бунёдкор инсонни хаётга тайёрлашдан иборат. Бу мақсад Республикада жисмоний тарбия билан шуғулланувчи барча муассаса ташкилотлар учун зарурий вазифадир.

Ҳар ким ўзини жисмонан тарбиялаши учун жисмоний тарбия ва спортнинг зарурлигини тушуниб этиши ва қунт билан ўзига ёққан маълум бир жисмоний машғулотлар тизими асосида саломатлигини шакллантириши керак. Халқимиз фарзандларининг жисмоний қобилиятларини ҳар томонлама ривожлантириш тарбиянинг ажралмас қисми бўлган жисмоний тарбия жараёнида амалга оширилади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Профессор А.Қ.Атоевнинг илмий ишларида болаларни жисмоний тарбиялашда чаққонлик, эпчиллик даркорлиги, куч-қувват каби хусусиятларининг такомиллаштириш тўғрисида ёзилади.

Жисмоний тарбиянинг мақсади жамиятнинг соғлом, хушчақчақ, ҳар томонлама жисмоний ривожланган, меҳнат ва Ватан ҳимоясига тайёр турган мутахассисларни тарбиялашдан иборат узоқ муддатли, уюштирилган педагогик жараёндир. Талабаларда касбий маҳоратни ривожлантириш жараёнида мотивация ўзига хос аҳамият касб этади, чунки уларда касбий компетентлиликнинг ривожланиши таълим-тарбия жараёни ва тарбиявий муносабатлар жараёнларининг самарадорлигига боғлик бўлиб, мазкур жараёнларнинг самарадорлиги касбий компетентлиликни ривожлантириш жараёнлари натижавийлигини ифодалайди. Демак, талабаларнинг жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида мотивациясини ўрганиш ўзига хос аҳамиятга эга бўлиб, бундай мотивация касбий компетентликни ривожлантириш имконини беради.

Тадқиқотчилар А.Н.Леонтьев, Ж.Аткинсон, В.Жеймс, Т.Дембо,

Н.Кузьмина, К.Левин, Г.Мюррей, Хекхаузен, Ф.Хоппе ва бошқалар ўзларининг илмий ишларида муваффақиятга эришиш мотивациясига таъсир кўрсатадиган шундай шахсий хусусиятларни ўрганганлар.

Масалан, ўз-ўзини ҳурмат қилиш ва интилишлар даражаси А.Н.Леонтьев томонидан ўрганилган бўлиб, у муваффақиятга эришиш учун мотивация шахсий хусусиятларда намоён бўлади, деб ҳисоблайди. Психолог индивидуал хулқ-атвор стратегияларининг ўзаро боғлиқлигини таъкидлайди, уларнинг аксарияти болалик давридаёқ ўзини намоён қилади ва ҳаётда муваффақиятга эришиш учун мотивация параметрлари билан боғлиқ ҳолда кечади, деб ёзади.

Психолог Э.П.Ильиннинг таъкидлашича, шахсий хусусиятлар муваффақиятга эришиш учун мотивация хусусиятларига таъсир қилади ва мотивация хусусиятлари мустаҳкамланиб, шахсий хусусиятларига айланади, деб ёзади. Шу билан бирга, психолог муваффақиятга эришиш мотивациясининг ривожланишига ўз-ўзини бошқариш қобилияти ва ўз-ўзини такомиллаштириш каби шахсий хусусиятлар таъсир кўрсатишини таъкидлайди.

Тадқиқот методологияси. Жисмоний тарбия жараёнида қуйидаги асосий вазифалар ҳал этилади:

а) соғлиқни мустаҳкамлаш, организмни чиниқтириш ва жисмоний ривожланиш даражасини ҳамда иш қобилиятини ошириш;

б) ҳаётга зарур бўладиган, жумладан, амалий характерга эга бўлган ҳаракат малака ва кўникмани эгаллаш;

в) кишининг маънавий ва иродали сифатини тарбиялаш;

г) жисмоний сифат (тезкорлик, куч, эпчиллик, чидамлик) ни ўстириш; д) махсус спорт машқини бажариш техникасини эгаллаш.

Демак, талабаларнинг жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида мотивациясини ривожлантиришда самарадорликка эришиш учун мотивларнинг турлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари, талабаларда мавжуд бўлган эҳтиёжлар, уларнинг билим, кўникма ва малакаси ҳамда тажрибаси даражаси, дунёқараши ва қизиқишлари, талабалар яшаётган ва ишлаётган муҳитнинг ҳолати, тарбиявий муносабатлар, шахсга йўналтирилган ёндашувнинг ўзига хос хусусиятлари, рефлексив ва тизимли ёндашувларнинг хамда инновацион фаолиятнинг заруриятини мотивация жараёни самарадорлигига таъсир этувчи омиллар сифатида инобатга олиниши зарур.

Таҳлил ва натижалар. Талабаларнинг жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида мотивациясини ривожлантириш жараёни самарадорлигига таъсир этувчи омилларни инобатга олган ҳолда, самарадорликнинг ўзаро боғлик бўлган қуйидаги кўрсаткичларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

• талабаларнинг билими, кўникма ва малакаси ҳамда тажриба даражаси, дуёқараши, тасаввури, қизиқиши ва имкониятларининг белгиланган мақсадларга мос келишини ифодаловчи хусусиятлар;

• белгиланган мақсадларга муваффақиятли эришиш натижаларига мос келувчи мотивлар, омиллар ва воситаларнинг ўзига хос хусусиятлари;

• талабалар учун зарурий ва қулай шарт-шароитлар яратувчи ижодий муҳитнинг ўзига хос хусусиятлари;

• давлат, жамият ва шахс эҳтиёжларининг ривожланиши, мотивацияни ривожлантириш жараёнлари иштирокчиларининг эҳтиёжлари ва қониқиш ҳосил қилиш даражаси;

• мотивацияни ривожлантириш жараёнлари иштирокчиларининг илмий-методик таъминоти даражаси;

• мотивацияни ривожлантириш жараёнларини ташкил этишда рефлексив ёндашув, тизимли ёндашув, инновацион ёндашув, шахсга йуналтирилган таъсир ва бошқа ёндашувларнинг ўзига хос хусусиятлари;

• ахборотларнинг ишончлилиги ва янгилиги;

• талабаларнинг мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар ва

уларнинг натижалари, фан-техника ютуқлари бўйича тушунчаларини аниқлаш;

• тасаввури ва дунёқараши, қизиқиши ва имкониятларини ўрганиш;

• белгиланган мақсадларга муваффақиятли эришиш натижаларига мос келувчи мотивлар, омиллар ва воситаларнинг турлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш ва таҳлил қилиш;

• талабаларнинг эҳтиёжлари ва қониқиш ҳосил қилиш даражасини аниқлаш;

• талабаларга қўйилаётган замонавий талаблар бўйича зарурий маълумотларни тўплаш.

Хулоса ва таклифлар. Талабаларнинг жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида мотивациясини ривожлантириш жараёнининг самарадорлигини таъминлашда талабаларнинг фаолияти, таълим-тарбия жараёнининг ҳолати, талабаларнинг таълим-тарбия жараёнига бўлган муносабати, уларнинг ўзаро муносабатлари, шунингдек, таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигига таъсир кўрсатаётган бошқа омиллар, талабаларнинг тасаввури, тушунчаларининг ривожланиши, дунёкарашининг ўзгариши тўғрисида етарли ахборотлар тўплаш зарур.

Агарда аниқ мақсад ва натижалар белгиланган бўлса, мотивация манбалари ўқув фаолиятига ижобий муносабатни пайдо қилади. Талабаларнинг жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида мотивациясини ривожлантиришда уларнинг қизиқишлари ва мойилликларини инобатга олиш лозим. Жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида мотивацияни ривожлантириш натижасида касбий компетенция ҳам ривожланади. Улар ўртасидаги ўзаро боғликликни таъминлаш учун таълим жараёнида талабаларда ўз фаолиятини муваффақиятли бўлишига юқори даражада ишонч мотивациясини ошириш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Атаев А.К. Развитие быстроты, ловкости и силы у детей. Т., «Укитувчи»1973. 120 б.

2. Исакова М Т. Комил инсон тарбиясида миллий қадриятлар. Алпомиш. Илмий-амалий анжуман матнлари. Фарғона, 2000. 41-45 б.

3. Гужаловский В.А. Этапность развития физических (двигательных) качеств и проблема систематизатсии физической подготовки детей школьного возраста. Автореф. дисс. ...докт. пед. наук. М., 1979. 26 б.

4. Кузьмин Е.А., Маслова Т.М. Сравнительный анализ мотивации достижения успехов студентов вуза // Постулат: Издательство: Приамурский государственный университет им. Шолом-Алейхема (Биробиджан). 2019. № 2 (40). С. 2.

5. Назаров А. С. Psychological aspects of managerial decision making //Молодой ученый. – 2020. – №. 44. – С. 45-48.

6. Назаров А. С. Принятие управленческих решений как основная функция современного менеджера //Вопросы экономики и управления. – 2020. – №. 2. – С. 1-5.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARGA TIKILGAN SARMOYA

Ravshanbekova Zilola Ikromjon qizi

GulDU Ijtimoiy-iqtisodyot fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *O‘zbekiston yoshlarning kelajagi ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi inson kapitalini to‘g‘ri boshqarishga bog‘liqdir***.** *Har qanday davlatning innovatsion taraqqiyotdagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning innovatsiyalar sohasida davlat siyosatini nechog‘liq samarali olib borishi hamda inson kapitalini sifatli shakllantirishiga bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *inson kapitali, innovatsion iqtisodiyot, ish samaradorligi, investitsiyalar, boshqaruv tizimi, yuksak intellektual shaxs.*

Har bir millatning ertangi kelajagi istaymizmi-yo‘qmi bu – Yoshlardir. Ular Yangi O‘zbekistonning eng katta xazinasi, milliy boyligi, bebaho oltin fondi, qolaversa, ertangi istiqbolimiz poydevori sanaladi. Bugun ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashida davlatimiz tomanidan barcha kuch hamda imkoniyatlar ishga solinmoqda. Yangi O‘zbekiston o‘z oldiga ulkan marralar qo‘ygan. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizning barcha soxhalarida rivojlanish tamoyillarinijahoning ilg‘or, umumetirof etgan standartlariga va inson kapitalini to‘g‘ri boshqarishga bog‘liq ekanligini bugun dunyo hamjamiyati etirof etmoqda.

Inson kapitalining muhim tarkibiy qismi yoshlarning kelajagiga tikilgan kapital bo‘lib, u yuksak intellektual shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadida davlat tomonidan ajratilgan investitsiya hisoblanadi..

Asosiy omil iqtisodiy rivojlanish ilmiy, intellektual, ma’naviy salohiyatdan oqilona foydalanishga aylanadi. Inson kapitaliga investitsiyalar ulushini oshirish tendentsiyasi bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko‘plab mamlakatlar uchun xosdir. Bu mamlakatlarda davlat inson kapitaliga investitsiyalar jalb qilishda aloxida etibor qaratiladi va moliyalashtiriladi. AQSh, Yaponiya va ko‘plab Evropa mamlakatlarida rivojlangan intellekt yuqori ijtimoiy mavqega ega bo‘lishi misolida buni ko‘rishimiz mumrin. Bugungi kunda O‘zbekistonda tug‘ilgan bolaning balog‘at yoshiga

yetganidagi mehnat unumdorligi belgilangan ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan va to‘la sog‘lom bo‘lgan sharoitda mehnat unumdorligi 62 foizni tashkil qiladi. Ushbu ko‘rsatkich Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan pastroq, ammo daromad darajasi o‘rtachadan past bo‘lgan mamlakatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha yuqori.(**Publication: The Human Capital Index 2020 Update)**

Hozirda mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya’ni 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklashini ko‘z oldimizga keltirsak, juda katta e’tibor, g‘amxo‘rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko‘rsatiladigan e’tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O‘zbekiston mehnat resurslarining yarmidan ko‘pi yoshlardir. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan bo‘ladi.

2023-yil 14 aprel kuni Samarqand shahrida Rossiya va Markaziy Osiyo

davlatlari tashqi ishlar vazirlarining oltinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda

2024 yilda Toshkent MDH mamlakatlarining yoshlar poytaxti, Samarqand esa madaniy poytaxti maqomini berish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi. Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Sharq Uyg‘onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.

Davom etayotgan o‘zgarishlar sharoitida inson resurslarini boshqarish inson kapitaliga investitsiya kiritish ishonch darajasini ham oshiradi. O‘qimishli insonlar ko‘proq bo‘lgan jamiyatda odatda nisbatan yuqori iqtisodiy o‘sishga erishiladi. Yurtimizda inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda, chunki yoshlarning bilimli bo‘lishlari uchun ajratilayotgan investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirish — innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi.

Inson kapitalini boshqarishning eng muhim omili uning o‘sishiga investitsiyalardir. Dunyoga mashhur davlat arbobi, Singapurning birinchi Bosh vaziri Li Kuan Yu **“Singapur mo‘jizasi”da “to‘g‘ri siyosat va inson kapitaliga sarmoya tikishimizda”, deya ta’kidlagan ei. Ya’ni inson kapitaliga yo‘naltirilgan 1 dollar mablag‘ 10 yildan so‘ng 100 barobar, 20 yildan so‘ng 1000 barobar bo‘lib qaytadi.** Aslida ham shunday, chunki mehnat resurslarida intellektual salohiyatning roli tobora oshib borishi ushbu yangi davrning xarakterli xususiyatidir. Mehnatga layoqatli aholini, birinchi navbatda, yoshlarni yangi texnologik davrda yashash va mehnat qilishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Muxtasar qilib aytganda, Oʻzbekistonda inson kapitali uchun katta maqsadlar va mablagʻlar sarflanmoqda. Yoshlaridagi boy bilim, rivojlangan qobiliyat, yuksak intellekt va ijodkorlik qobiliyatiga ega boʻlishi oʻz navbatida, xalqimizda “Yangi Oʻzbekiston orzusi” paydo boʻlishiga zamin yaratmoqda. Fan va texnologiyaning tizimli yangilanishi yoshlarimizning nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish va harakat qilish uchun tegishli bilim, koʻnikma va psixologik tayyorlikni, biznesga ijodiy, faol yondashuvni, *tashabbus va mehnatsevarlik kab ixislatlarini* oʻz zimmasiga olish qobiliyatini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Shoumarov D. Inson kapitali oʻz-oʻzidan yuzaga chikmaydi. Oʻzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 17-son 20.03.2023.
2. Abduraxmonova N .Q. Inson kapitaliga sarmoya Yangi Oʻzbekiston taraqqiyoti kafolati. Oʻzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 18-son 09.08.2022

ПРОСТРАНСТВО В НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Каршибаева Ирода Гайратовна,
магистр Гулду

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема категории пространства, играющий важную методологическую роль в исследовательской деятельности лингвистов. Ключевым конструктом для реконструкции представлений о пространстве в языке выступает языковая картина мира. Опыт познания мира, в том числе его пространственных атрибутов, хранится в языковой картине мира в виде категорий.

Представления человека о пространстве являются неотъемлемой частью лингвокультурной картины мира. Отражение представлений данного типа характерно для носителей всех языков. Человеческая жизнь имеет непосредственное отношение к пространству, а человеческое тело является в свою очередь основным пространственным ориентиром для осмысления отношений с предметами окружающего мира. Многолетний и неослабевающий интерес лингвистов в категории пространства и ее языковой репрезентации объясняется многообразием данных, которые представляются в результате исследований в области анализа средств выражения пространственной семантики. Полученные в результате исследований данного типа сведения могут найти применение как в смежных областях научного знания, таких как лингвокультурология, когнитивная лингвистика, психолингвистика, так и в практике преподавания русского языка как иностранного. Анализ научного дискурса в аспекте изучения репрезентации пространственных отношений позволил сделать вывод о наличии различных подходов к осмыслению пространственности и ее отражения в материале русского языка.

Понятие подхода к изучению используется в научном дискурсе при

обозначении общего направления деятельности исследователя. Подход к изучению можно назвать основой, на которой базируется исследовательская деятельность учёного, базой, от которой она отталкивается. Данное понятие является более масштабным, чем понятие метода. Подход может включать в себя несколько методов, может являться как общенаучным, так и узкоспецифическим. При рассмотрении вопроса о рассмотрении в науке о языке проблемы пространственных отношений следует отметить, что среди исследовательских подходов, сложившихся в русистике последних пятидесяти лет исследования данного типа велись в трёх направлениях:

1) функционально-грамматическом;

2) лингвокультурологическом;

3) когнитивистском.

Попытки научного описания пространственности и отражения представлений о ней в русском языке начинаются в истории современной русистики в рамках функционально-грамматического подхода. В рамках функциональной грамматики предметом изучения и научного описания становятся языковые единицы различных уровней, рассматриваемые с позиции их грамматической функции, а также с точки зрения реализуемого ими значения. Ранние попытки научного осмысления способов выражения пространственности в науке можно отметить уже в исследованиях М.В. Ломоносова, А.Х. Востокова, А.А. Потебня.

М.В. Ломоносов в «Российской грамматике» обращает внимание на предлогов в русском языке, называя предлоги и союзы «знаменательными частями слова», которые способны «знаменовать обстоятельства». Он отмечает способность предлога поучаствовать в формировании обстоятельственных конструкций со значением места. Автор к пространственным отношениям относит наречия. Здесь также обращается внимание на функционирование в языке Предложного падежа. При этом среди особенностей форм данного падежа учёный называет обязательное употребление в составе одного из предлогов: в, при, на и др.

В «Русской грамматики» (1980) насчитывается 44 единицы русских предлогов: близ, в, вблизи, вглубь, вдоль, вне, внутри, возле, вокруг, впереди, вслед, до, за, из, из-за, из-под, к, меж, между, мимо, на, навстречу, над, напротив, о, около, от, перед, по, поверх, под, подле, позади, посередине, посреди, при, против, с, сбоку, сзади, сквозь, снаружи, у, через.

Как мы уже отметили, под пространственными отношениями

понимаются различные положения лиц или предметов относительно друг друга. Пространственные отношения в русском языковом сознании имеют тройственный характер, это может быть местоположение и два направления. Пространство может являться как местом осуществления действия, так и конечным или исходным пунктом движения или направленного действия. Для выражения пространственных отношений в русском языке выработано богатое разнообразие лексических и грамматических средств, которые образуют лексико-грамматическое поле

пространственности. Синтаксические единицы с пространственным значением могут быть двух типов: номинативные и коммуникативные; первые представляют собой словосочетания (встреча на берегу, возвращение из экскурсии, пятна на парте), вторые — предложения (Встреча друзей состоялась на берегу реки; Наш дом находится на соседней улице; Юрта расположена под горой).

Самый типичный для русского языка способ выражения пространственных отношений – предложно-падежные формы. Практически для обозначения места действия, местоположения и места как исходного или конечного пункта движения используются все падежи, а именно: существительные в родительном падеже с предлогами: из, с, от, у, около, напротив, мимо, вблизи, вдоль, вокруг, посреди, из-за, из-под и др., например: из школы, с почты, от друзей, у автобуса, около здания, напротив университета, вблизи института, вдоль улицы; существительные в дательном падеже с предлогами: к, по: к стадиону, по парку; существительные в винительном падеже с предлогами: в, на, через, за, под, сквозь, например, в универмаг, на почту, через улицу, за друга, под стол, сквозь деревья; существительные в творительном падеже с предлогами: над, под, перед, за, между, рядом с, например, над вершинами, под лестницей, перед машиной, за квартолом, между домами, рядом с другом; существительные в предложном падеже с предлогами: в, на, при, например, в здании, на вокзале, при университете.

Необходимо заметить, что не все предложно-падежные формы употребляются в одинаковой степени. К самым употребительным относятся: формы предложного падежа с предлогами в, на; формы родительного падежа с предлогами у, около; формы творительного падежа с предлогами под, над, за, перед; формы винительного падежа с предлогами в, на; формы дательного падежа с предлогом к; формы родительного падежа с предлогами из, с, от.

Предлоги у, около, возле употребляются в современном русском языке в разной степени. Высокой частностью употребления отличаются предлоги у и около. Предлог возле менее употребителен, поскольку имеют книжную окраску.

Предлоги у, около, возле обладают общим значением «рядом с кем-чем-нибудь». Они почти полностью совпадают в своем употреблении с предлогом у, например: у дома, около дома, возле дома. Исключением являются те случаи, когда они стоят при личных местоимениях, например: около меня, возле меня. В таких конструкциях с пространственным значением предлог у не употребляется.

Русский язык располагает более развитой и разветвленной системой обозначения пространственных отношений, что проявляется и в плане содержания – в более детальной дифференциации значений, и в плане выражения – в значительно большем количестве используемых языковых средств.

Таким образом, в результате анализа материала известных работ

лингвистов XIX века по грамматике русского языка, можем сделать вывод, что абсолютного единства подходов к анализу языкового материала, которые участвуют в выражении пространственного значения, обнаружить нельзя.

В XX веке функционирование языковых единиц, которое выражает пространственные отношения, продолжает осмысляться в работах А.А. Шахматова. Ученый, обобщая результаты работы своих предшественников в направлении анализа различных частей речи, выражающих пространственные отношения, даёт характеристику пространственным наречиям как особому типу языковых единиц, которые связаны по своему происхождению как с именами существительными (отымённые наречия), так и с местоимениями (местоимённые наречия). В работе «Синтаксис русского языка» автор впервые обращает внимание на функционирование каждого из предлогов в сочетании с формами существительных в определённых падежах. А.А. Шахматов даёт характеристику предложно-падежным формам существительных, наречиям места и глаголам движения, называя их среди частеречных форм, которые участвуют в выражении обстоятельственных значений. Ученый в своей работе «Синтаксис русского языка» данный тип значения называет «обстоятельством дополняющим».

Таким образом, наиболее полно предпосылки формирования функционально-грамматического подхода к изучению языковых единиц с пространственным значением формируется уже в XX веке.

Литература

1. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику – М., 2008. – С. 155.

2. Рахилина Е.В. Семантика русских позиционных предикатов//Вопросы языкознания. –1998. – № 6. – С. 69-80.

3. Кубрякова Е.С. О понятиях места, предмета и пространства // Логический анализ языка. Языки пространств. – М., 1998. – С.84-93.

4. Яковлева Е.С. Фрагменты русской языковой картины мира (модели пространства, времени и восприятия). – М., 1994. – С. 31.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PIRLS XALQARO TADQIQOTIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNING DOLZARBLIGI

Xolmurodova Shoxsanam,

Guliston davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi, matnni o‘qib tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan PIRLS dasturi haqida ma’lumotlar, ushbu dasturda ishtirok etish bo‘yicha xalqaro

tajribalardan misollari va tahlillari, o‘qish savodxonligini rivojlantirish omillari, unga erishishda yetakchilik qilayotgan mamlakatlar tajribalari haqida fikrlar va ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, o‘qish savodxonligi, matnni o‘qib tushunish, xalqaro tajribalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da xalq ta‘limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlardan biri PIRLSda O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta‘minlanishi ta‘kidlab o‘tilgan.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study - xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko‘ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda.

O‘quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan ob’ektiv testlarni o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma’lumotlar to‘planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilashda ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O‘zbekiston Respublikasi ilk marotaba xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi

ta’lim tizimiga, uning sifati va samaradorligiga yangicha qarash va zamonaviy yondoshuvlar olib kirilishida muhim qadam hisoblanadi. Shunday ekan, milliy ta’lim tizimidan farqli bo‘lganligi sababli mazkur tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish uchun barcha manfaatdor vazirlik va idoralar, umumta’lim muassasalari jamoalaridan yuksak mas’uliyat, o‘quvchilardan yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik, shuningdek o‘qituvchilardan zamonaviy innovatsion o‘qitish usullarini o‘zlashtirishlik talab etiladi.

Shunday ekan, bu borada amalga oshirilgan ishlarga misol sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish o‘rinlidir. Xalqaro tadqiqotlar doirasida bo‘lib o‘tgan **6 ta** xalqaro seminar-treninglarda **30 nafardan** iborat malakali mutaxassislar xorijiy mamlakatlarda malaka oshirildi hamda Respublikamizning **14 ta** hududlaridagi seminarlarda xorijiy ilg‘or tajribalar pedagoglar bilan o‘rtoqlashildi.

Buning mantiqiy davomi sifatida, xalqaro ekspertlar ishtirokida Toshkent va

Samarqand shaharlarida seminar-treninglar tashkil etilib, **260 nafar** o‘qituvchilarning xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha hamda **60 nafar** mutaxassislarning testologiya yo‘nalishi bo‘yicha malakasi oshirilib, tizim rivoji uchun malakali trenerlar sifatida tayyorlandi. Shuningdek, umumta’lim muassasalarining **2800 nafarga** yaqin pedagoglari xalqaro tadqiqotlar haqida umumiy tushunchalarga ega bo‘ldilar.

Shu kunga qadar amalga oshirilgan ishlar haqida to‘xtalib o‘tar ekanmiz, ta’lim tizimida xanuzchaga muammolar saqlanib qolayotganligini ta’kidlab o‘tish o‘rinli.

Misol sifatida aytish mumkinki, xalqaro tadqiqotlarga dastlabki tayyorgarlik holatini o‘rganish maqsadida, Respublikadagi **191 ta** maktablarda tajriba sinovlar o‘tkazilib, **4873 nafar** o‘quvchilarning savodxonligi baholangan edi. Uning natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarda olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, mantiqiy fikrlash, masalalarni nostandart yo‘llar orqali yechimini topish, shuningdek, berilgan topshiriqlar yuzasidan ochiq savollarga o‘z fikrlarini mustaqil yozma bayon qilish ko‘nikmalari yetishmasligi ma’lum bo‘ldi.

Tadqiqotning ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan test o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma’lumotlar to‘planadi.

Tadqiqotda ishtirok etish O‘zbekistonga nima beradi? Xalqaro tadqiqot ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o‘z vaqtida axborot olish, tegishli chora-tadbirlar va dasturlarning ta’sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, ta’lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi;

- o‘quvchilarning bilimi va salohiyati qay darajada shakllanganligini bilish hamda xalqaro miqyosda taqqoslash;
- mamlakat o‘quvchilarining savodxonlik darajalarini boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan solishtirish;
- pedagog xodimlarning o‘qitish usullarining boshqa mamlakatlarda dars berayotgan hamkasblarining o‘qitish usullaridan farqli jihatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- savodxonlikni rivojlantirishga oid darslar maktablarda qanday tashkil etilganligi haqida ma’lumot olish;
- ota-onalar tomonidan o‘quvchilarning bilimi va savodxonligini yaxshilashda qo‘shilayotgan xissalari salmog‘ini bilish;
- maktabda o‘tayotgan fanlar yuzasidan xalqaro darajada o‘quvchilarning bilimlarini monitoring qilib olishda metodologik yordam beradi;
- o‘quvchilarni fanlararo uyg‘unlik asosida baholaydi, dunyo bo‘yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta’lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Xalqaro baholash dasturi ishtirokchilari hamda imtiyozli o‘rin olgan

bolalarning erishgan yutuqlarini tahlil qilish jarayoni shuni ko‘rsatdiki, oilasida kitob o‘qishga qiziqishning mavjudligi, bolaning dunyoqarashini o‘sishiga ota-ona tomonidan e’tibor qaratilishi, “Bolalardan-bolalarga” proektini oilada ishlashi bolaning matn bo‘yicha shakllangan xulosaga ega bo‘lishi, talqin qilishi va umumlashtira olish ko‘nikmasi, matn tarkibini tahlil qilishi va baholashi, til xususiyatlari va matn tuzilishi haqidagi ma’lumotlarni amalda qo‘llay olishi ko‘nikmasini yuqori darajada hosil qilar ekan.

Jahon xalqaro baholash tizimida bolalarimiz ishtirok etishlari hamda imtiyozli o‘rinlarni egallashlari uchun faqat o‘qituvchilar jonbozlik ko‘rsatishlari kamlik qiladi. PRILS xalqaro baholash dasturida nafaqat, bolaning tanlovga ishtiroki va erishgan natijasi baholanadi. Bu dastur o‘quvchining kitob o‘qishga bo‘lgan mehrini, o‘qituvchining mahoratini, bolaning fikrlashi darajasini o‘sishiga yordam va e’tiborini ayamaydigan ota-onalarni faoliyatini, eng kerakli moddiy ta’minotni yarata olgan maktab ma’muriyatini ham baholaydi.

Bugun ta’limning amaliyot bilan uzviyligi alohida ahamiyatga molik ekani bois, o‘qituvchi ish rejasini shakllantirishdayoq o‘z o‘quvchilarida mazkur mavzularni hayotga tatbiq eta olish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilab olishi lozim.

Buning uchun o‘qituvchilarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va zarur yordamlar berish, yo‘naltirish (motivatsiyalash) lozim.

PIRLSga past ko‘rsatkichli maktablarni jazolovchi usul sifatida hadiksirab qarash to‘g‘ri emas. Aksincha keyinchalik ta’lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishga yordam beradigan tahliliy ma’lumotlar olinishida ko‘makchi sifatida munosabatda bo‘lish kerak.

YOSHLARDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA SAN’ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Usmonqulova Feruza Eshbekovna
Sayxunobod tumani 27-umumta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda san’atning tarbiyaviy o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim va tarbiya jarayonida musiqa va san’atning keng qamrovidagi o‘rni hamda buni oiladan boshlash muhim vazifa ekanligi nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa san’at tarbiyasi, inson ruhiyati, bola psixologiyasi, pedagogik qarash, oilaviy muhit, inson kamoloti, milliy musiqa, milliy an’ana.

Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o‘quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz, katta qiziqish uyg‘otmoqda. Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g‘oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi.Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati,

tili va madaniy an’analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasning strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma’rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta’sir etadi.

Jamyatimiz taraqqiyotida ma’naviy va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki qator aytilgan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta’lim- tarbiyasi nafaqat o‘zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir.

Zamonaviy dunyoda Yangi O‘zbekiston jamiyatida millatlararo munosabatlarni rivojlantirish ta’lim-tarbiyaning mazmunini tashkil etishi alohida e’tiborni talab etmoqda. Chunki ta’lim-tarbiya ko‘pmillatli davlatda yashaydigan xalqlarning ma’naviy va madaniy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish va amalga oshirishdek mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga oladi. Ta’lim va tarbiya esa turli yo‘nalishlarda olinib, ularning bir ko‘rinishi san’atdir.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, san’at noyob ijodiy faoliyat sifatida estetik tafakkurning asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblangan. Jumladan, G‘arb va Sharqda qadimdan san’at estetikaning asosiy tadqiqot ob’ekti sifatida qaralgan. Biroq, shuni alohida ta’kidlash lozimki, san’at estetik soha bilan cheklanib, chegaralanib qolmaydi. Inson o‘z idrokini toblash jarayonida estetik mohiyat bilan belgilanadigan san’atning ta’sirchan kuchidan turli ijtimoiy maqsadlarda foydalanishni o‘rgandi. San’atni tushunish, uning kishilar hayotidagi o‘rnini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida jiddiy bahslarga sabab bo‘lgan. Shunga ko‘ra, san’at mazmuni ob’yektiv va sub’yektiv, hayotiy va xayoliy omillar birligidan tashkil topadi. San’atning ijtimoiyestetik vazifalari juda keng va xilmaxil. San’at — inson uchun estetik zavqshavq manbai; inson hayotiga go‘zallik baxsh etadi; odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi; hayotni kuzatish, o‘rganish va bilish vositasi; hayotni inson orzu qilgan tomonga o‘zgartirishda yordam beradi; tarbiya vositasi; hayotdagi go‘zallikdan ilhomlanishga, xunuklikdan nafratlanishga chorlaydi; odamlar orasidagi ma’naviy ko‘prik, muloqot vositasi; odamlarning badiiy estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma’lum dunyoqarashni shakllantiradi va h.k. San’at jamiyat ma’naviy hayotining boshqa hodisalari (fan, mafkura, axloq) bilan ma’lum darajada bog‘likdir. San’atning maqsadi dunyoni badiiy o‘zlashtirish, odamga lazzat baxsh eta oladigan, uni ma’naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo‘li bilan kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. San’at asarlarining diqqat markazida insonlar, ularning ijtimoiy aloqasi va o‘zaro munosabatlari, muayyan tarixiy sharoitlardagi hayoti, faoliyati turadi.

Masalaga nemis faylasufi I.Kant quyidagicha yondashadi: “Nazariyada san’atning ma’lum bir maxsus sinfiga bo‘linishning faol jarayoni boshlanadi, uning asosiy maqsadi go‘zallik, go‘zallikni tasvirlash yoki yaratish, hissiy taassurotni, zavqlanishni rag‘batlantirish, ya’ni estetik tajribani ifoda etishdir. Shu asosda she’riyat, adabiyot (san’atning maxsus turi sifatida talqin etiladi) rasm, musiqa, arxitektura, haykaltaroshlik kabi san’at turlari ham mavjud. Ular san’atni fan va hunarmandchilikdan ajratishga kirishadilar va estetik o‘ziga xoslikni uning mohiyati qabul qiladilar” Demak, san’at estetik hodisa sifatida o‘zining turli yo‘nalishlaridan

foydalangan holda jamiyat a’zolari ongiga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatar ekan, paragrafimiz mavzuiga daxldor ravishda milliy munosabatlarni uyg‘unlashtirish jarayonida ham faol ishtirok etadi.

San’at shunday kuchli ijobiy ma’nodagi qurolki, uning ta’sirini jamiyatning har jabhasida ko‘rish, his qilish mumkin. Manbalarda san’at – ijtimoiy ongning ma’lum bir shaklini, shuningdek, inson faoliyati va uning mahsulini tavsiflovchi eng muhim estetik kategoriya sifatida talqin qilinadi. San’atning kuchi shundaki, u insonning hayot yo‘lini badiiy ko‘rinishda o‘ziga ko‘rsatib beruvchi ijtimoiy ong shaklidir. Voqelikni badiiy aks ettirish xususiyatlari ko‘p qirrali chuqur bilimlarni san’atkordan talab qilish asnosida, insoniy belgilar va taqdirlarning yaxlit asarini yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, shaxsning noyob o‘ziga xosligini anglashga, uning ichki dunyosini o‘rganishga va murakkab ruhiy holatlarni etkazishga sharoit yaratadi. San’at shuningdek, ijtimoiy hayotning tasvirini yaratishda, undagi qarama-qarshilik va ziddiyatlarni ochishda, ijtimoiy muammolarni hal etish va xulosa chiqarish uchun ham zarurdir.

Demak, san’atning estetik kategoriya sifatida insonlar o‘rtasida va bundan kelib chiqib millatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ijobiy ko‘prik vazifasini bajarishini e’tirof etish mumkin. Mamlakatda qanchalik san’at va madaniyat muassasalari faoliyati rivojlanib borsa, shuncha milliy munosabatlardagi pozitiv natijalar oshib boradi.

Mualliflar M.A.Nurmatova, N.B.Abdullaevalar tomonidan tayyorlangan “Axloqiy va estetik madaniyat” nomli uslubiy qo‘llanmada shunday ma’lumotlar berilgan: “O‘zbekiston madaniyat va san’ati forumi” jamg‘armasi tashkil topishi va turli ko‘rgazmalar, teatr va kinofestivallar, xalqaro simpozium va anjumanlar tashkil etish orqali o‘zbek madaniyati va san’atini jahonga tanitmoqda. “Yangi avlod” bolalar ijodiy festivali, Navqiron O‘zbekiston” an’anaviy va zamonaviy san’at festivali, “Kelajak ovozi” megatanlovlari shular jumlasidandir. Bugungi kunda Toshkentda 24 ta muzey, 15 ta kinoteatr, 11 ta madaniyat va istirohat bog‘i, 166 ta jamoat kutubxonasi, 9 ta madaniyat saroyi, 65 dan ortiq madaniyat uylari mavjudligi bu sohada olib borilayotgan ulkan ishlar dalilidir”Shunday qilib, san’at mazmunining umumbashariy ahamiyati insonlar ongiga har tomonlama foydali va ahamiyatli ekanligi bilan belgilanadi. San’atning bilim manbai, ma’naviy boyitish va shaxsining dunyoqarashini shakllantirish manbai bo‘lib xizmat qilishi natijasida jamiyatda qadriyatlar tizimi shakllanadi. Bu esa o‘z-o‘zidan milliy munosabatlardagi qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.Abdirasilov, B.Boymetov, N.Tolipov Tasviriy san'at.

2. B.Boymetov, N.Tolipov.Maktabdatasviriy san'at to‘garagi.

3.Kobiljonova, Sh R., and N. N. Jalolov. "REPRODUCTIVE AND PERINATAL OUTCOMES BORN BY CAESAREAN SECTION." (2023).

4.Imamova, A. O., G. O. Toshmatova, and R. Khobiljonova Sh. "Protecting works and hygienic assessment of nutrition of preschool children in Tashkent." (2023) M.A.Nurmatova, N.B.Abdullaevalar tomonidan tayyorlangan “Axloqiy va estetik madaniyat” nomli uslubiy qo‘llanma

ИЛМИЙ-МЕТОДИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КЛАСТЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Очилова Хурсаной Маҳмуд қизи

Чирчиқ давлат педагогика университети Туризм факултети ўқув ишлар бўйича декан ўринбосари

Аннотация.

Бугунги кунда ташкил этилаётган кластерлар ҳудудий яқинлик билан боғланган, бир-бирини тўлдирувчи ва алоҳида корхоналар, компанияларнинг рақобатдош устунликларини оширувчи турли компаниялар, корхоналар, ихтисослаштирилган хизматлар, ресурслар ва инфратузилмани етказиб берувчилар, илмий ва таълим ташкилотлари бирлашмаларидан иборат.

Мақолада педагогика фанида илмий-методик компетенцияларни шакллантиришда кластерлардан фойдаланишнинг назарий асослари ўрганилган ҳамда кластернинг барча аъзолари ҳамкорлигини доимий равишда кадрлар, технологиялар, инновациялар алмашинуви, ресурсларни, хизматларни алмашиш, инфратузилмани ривожлантириш ва маркетинг орқали амалга ошириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар.

Инновация, стратегия, интеграция, меҳнат бозори, мақсад, институционализация, ҳамкорлик, рақобат.

Кириш

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларда “Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-165-сон фармонида (06.07.2022 й.) хорижий давлатларнинг илғор тажрибасини инобатга олган ҳолда мамлакатимизда «кластер» ва «кластер сиёсати»нинг ягона концепцияси ҳамда қонуний асосларини ишлаб чиқиш, инновацион ва юқори технологияли маҳсулотлар бозорини кенгайтириш, стартап ва кичик инновацион ташкилотларни ўзаро манфаатдор «пиноцитози» (қамраб олиб ўзлаштириш) механизми асосида инновацион кластерлар ёки йирик ташкилотлар ташкил этиш, мавжудларини модернизация қилиш, инновацион кластерлар ёки стартаплар «пиноцитози» орқали йирик ташкилотларни ташкил қилишда иштирокчилар ҳуқуқи ва мулклар сотилиши, лицензияланиши ва шерикчиликда эгалик қилиниши асосларини яратиш ва тартибга солиш ҳамда бозор талабларига мослашувчан миллий инфратузилмани ривожлантириш орқали халқаро сифат сертификатларига эга бўлган кластер ва йирик инновацион ташкилотлар улушини ошириш каби чора-тадбирлар белгилаб берилган [1].

Бундай меъёрий ҳужжатлари Республикамизнинг 2026 йилгача инновацион ривожланиш стратегик мақсадларини белгилайди. Илм фанни ривожлантириш, фан ва таълим интеграцияси, барча даражадаги малакали кадрлар тайёрлашнинг яхлит тизимини такомиллаштириш таълимни ривожлантиришни, жаҳон меҳнат бозорида рақобатбардош, малакали мутахассисларни тайёрлашга асосий эътиборни қаратишни, давлат сиёсатида таълимнинг устуворлигини таъминлайди. Рақобатбардош инсон салоҳиятини

шакллантиришга қаратилган таълимни самарали ривожлантириш учун шарт-шароитларни таъминлашни белгилайди.

Давлатимиз раҳбари томонидан давлат-хусусий шериклик шартлари асосида нодавлат таълим ташкилотлари томонидан “Таълим кластерлари” ташкил этиш учун тавсия этиладиган профессионал таълим муассасалари рўйхати эълон қилинди. Унга кўра давлат-хусусий шериклик лойиҳаси доирасида хусусий шерик зиммасига меҳнат бозорида эҳтиёж юқори бўлган касб ва мутахассисликлар бўйича кадрларни тайёрлаш, профессионал таълим муассасасини юқори малакали педагог кадрлар билан тўлдириш, ўқув жараёнини белгиланган тартибда ташкил этиш учун зарур шарт-шароитлар яратиш, илғор халқаро тажрибалар асосида ўқитишнинг инновацион педагогик шакллари, усуллари ва замонавий технологияларидан фойдаланиб, профессионал таълим соҳасидаги таълим жараёнининг самарадорлигини ва натижадорлигини ошириш, профессионал таълим муассасаларини таъмирлаш, жиҳозлаш, сақлаш ва эксплуатация қилиш, давлат-хусусий шериклик тўғрисидаги битим амал қиладиган муддат давомида объект фаолиятининг ихтисослигини сақлаш ва бошқа шу каби масалалар белгилаб берилди.

Материаллар ва методлар

«Кластер» ва «кластер сиёсати»ни масалалари хорижий ва мамлакатимиз олимлари томонидан кенг муҳокамага сабаб бўлмокда. Жумладан, K.Petersen кластерларнинг вакт ўтиши билан ривожланишини таъкидлайди. Юқоридаги таъриф кластерни тўлиқ тавсифлайди; яқинроқ кўриб чиқишга арзийдиган камида яна бир боскич мавжуд: бу кластернинг шаклланишидир. Кластернинг шаклланишида баъзи асосий хусусиятлар мавжуд эмас: “Мавжуд кластерларни кузатиш мумкин. Бироқ, янги кластерларнинг салоҳиятини кузатиш жуда қийин, буни Европадаги кўплаб биотехнологик кластерлар мисолида кўриш мумкин” (Профессор Мюллер билан суҳбат, BAK Basel) [11].

K.Petersen сиёсий қарорларга таъсир этувчи минтақавий кластерларнинг хусусиятларини келтиради: 1) қўллаб-қувватланадиган кластерларни танлаш мезонларини белгилаш; 2) умуман кластер сиёсатини қўллаб-қувватлашнинг мақсадга мувофиқлиги тўғрисидаги қарор, яъни кластернинг минимал критик массаси талаб қилинади; 3) қўллаб-қувватлашнинг аниқ чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ва кластерлар томонидан қўллаб-қувватланадиган маблағлардан фойдаланишнинг мувофиқлик мезонларини ва кластер сиёсатининг умумий стратегиясини аниқлаш [10].

Китобда [10] K.Petersen кластерларнинг энг муҳим хусусиятларини санаб ўтади: фазовий яқинлик; критик масса (иштирокчилар сони); кластернинг ҳаётий айланиши; кластер аъзоларининг табиати; кластер аъзолари ўртасидаги алоқалар, ўзаро ишонч, умумий мақсад ва стратегия, институционализация ва ҳамкорлик ва рақобат ўртасидаги мувозанат каби динамика ва кластер ичидаги муносабатлар.

Олинган натижалар

Ҳудудий яқинлик билан боғланган, бир-бирини тўлдирувчи ва алоҳида

корхоналар, компанияларнинг рақобатдош устунликларини оширувчи турли компаниялар, корхоналар, ихтисослаштирилган хизматлар, ресурслар ва инфратузилмани етказиб берувчилар, илмий ва таълим ташкилотлари бирлашмаси кластерни ташкил қилади. Унинг барча аъзоларининг ҳамкорлиги доимий равишда кадрлар, технологиялар, инновациялар алмашинуви, ресурсларни, хизматларни алмашиш, инфратузилмани ривожлантириш ва маркетинг орқали амалга оширилади [5].

Шундай қилиб, кластерда бир вақтнинг ўзида иккита асосий вазифа амалга оширилади:

1) турдош фирмаларнинг яқинлиги туфайли харажатларни камайтириш;

2) инновацияларнинг бир фирмадан иккинчи фирмага тарқалиши, бу умуман кластерда унумдорликнинг доимий ўсишини таъминлайди [8].


Муҳокамалар

Шундай қилиб, таълим кластерлари муаммосига бағишланган тадқиқотлар мазмунини таҳлил қилиш (3-илова) таълим жараёнида кластерлардан фойдаланишнинг асосий йўналишларини аниқлади. Шу билан бирга, педагогика фанида илмий-методик компетенцияни шакллантиришда кластерлардан фойдаланишнинг назарий асослари етарли даражада ишлаб чиқилмаганлиги аниқланди (1-расм).

Педагогика фанида турли таълим ташкилотлари ўқитувчиларининг илмий - методик компетенциясини ўрганиш тажрибаси мавжуд:

- касбий фаолият ўқитувчилари (Т.А.Загривная [2]);
- олий таълим муассасасидан кейинги таълимда бошланғич синф ўқитувчилари (И.Ю.Ковалева [4]);
- инновацион мактаб ўқитувчилари;
- ўрта махсус касб-ҳунар таълими муассасалари ва олий таълим муассасалари ўқитувчилари.

Кўпинча педагогик тизим тадқиқотчилари ўқитувчиларнинг илмий-методик ишларини объект сифатида танлайдилар.



1-расм. *Педагогика фанида кластерли ёндашувни ўрганиш йўналишлари*

Тадқиқотчилар Э.М.Софьянц [6] ва Л.Р.Хисматуллина [9] инновацион фаолиятда ўқитувчилар, шунингдек, умумтаълим мактаблари ўқитувчилари билан илмий-методик ишларни такомиллаштириш муаммосига мурожаат қиладилар. С.А.Федоров илмий - методик фаолият жараёнида ўқитувчининг ижодий салоҳиятини ривожлантиришни кўриб чиқади [7]. М.Н.Каурцев [3], бошланғич касб-ҳунар таълими муассасасида илмий-методик ишнинг бир қисми сифатида интерфаол педагогик технологияларни жорий этиш жараёнини ўрганган.

Олий таълимнинг ҳозирги ҳолати ва ривожланишида "умумий таълим ташкилоти – университет – корхона" тизимидаги интеграция жараёнлари, амалий бакалавриат ва магистратура таълим йўналишлари дастурларини ишлаб чиқиш, техника олий таълим муассасаси ўқитувчисининг илмий-методик компетентлигини шакллантириш ва янада ривожлантириш муаммолари янада долзарб муаммо бўлиб бормоқда. Шу билан бирга, ўқитувчининг ушбу компетентлигини шакллантиришнинг асосий шартлари: фан ва амалиётнинг ўзаро алоқаси; тармоқ мутахассисларини кўп босқичли тайёрлашни амалга ошириш; таълим ташкилотлари ўқитувчиларининг малакасини ошириш дастурларини амалга оширишдан иборат. Буни корхоналар, илмий-тадқиқот муассасалари ва таълим ташкилотларидан ташкил топган илмий лабораториялар кластерлари шароитида муваффақиятли амалга ошириш мумкин.

Хулоса

Демак, кластерлар – ҳудудий яқинлик асосида бирлашган, бир-бирини тўлдирувчи ва рақобатбардош устунликларини кучайтирувчи таълим ва илмий-тадқиқот ташкилотлари, тармоқ корхоналари ва компаниялари, инфратузилма, ресурслар ва ихтисослаштирилган хизматларни етказиб берувчилар ва бутун кластер бирлашмасини ўз ичига олади.

Кластерларни яратиш ва уларнинг фаолияти бўйича халқаро тажрибани ўрганиш таълим ташкилотларининг рақобатбардошлигини ошириш учун кластерли ёндашувни қўллаш имкониятларини кўриб чиқишни мақсадга мувофиқлигини белгилайди. Кластерлар саноат корхоналари билан ўзаро боғланган турли касб-ҳунар таълими муассасалари фаолиятини ягона маконда бирлаштиришга қаратилган. Кластерларни яратиш ва уларнинг фаолияти бевосита таълим ташкилотларининг рақобатбардошлигига таъсир қилади, шунингдек, таълим органлари, молия, илмий-тадқиқот, таълим муассасалари ва корхоналарнинг интеграциясига ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида. 06.07.2022 йил. ПФ-165-сон.

2. Загривная, Т.А. Становление научно-методической компетентности педагогов в процессе профессиональной деятельности: дис. … канд. пед.наук: 13.00.01 / Загривная Тамара Александровна. – СПб., 2006. - 256 с.

3. Каурцев, М.Н. Применение интерактивных технологий в научно-методической работе как ресурс личностно-профессионального роста педагогов: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Каурцев Михаил Никитович. - Улан-Удэ, 2011. - 223 с.

4. Ковалёва, И.Ю. Развитие научно-методической компетентности педагогов в условиях образовательного выбора: дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Ковалева Ирина Юрьевна. - Мурманск, 2007. - 169 с.

5. Матушанский, Г.У., Завада, Г.В., Романова, Л.М. Непрерывная профессиональная подготовка преподавателя высшей школы (на траектории ассистент – старший преподаватель – доцент): монография / Г.У. Матушанский, Г.В. Завада, Л.М. Романова. – Казань, 2011. – 152 с.

6. Софьянц, Э.М. Система научно-методической работы в области в условиях перестройки школы: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Софьянц, Эдуард Матвеевич. - Киев, 1991. - 162 с.

7. Федоров, С.А. Развитие творческого потенциала педагога в процессе научно-методической деятельности: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Федоров Сергей Александрович. - Тюмень, 2010. - 223 с.

8. Харченко, С.А. Формирование культуры сотрудничества студентов вуза посредством кластерного взаимодействия: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Харченко Светлана Альбертовна. - Чита, 2013. - 234 с.

9. Хисматуллина, Л.Р. Совершенствование научно-методической работы учителей общеобразовательной школы в инновационной деятельности: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Хисматуллина Лилия Ринатовна. - Йошкар-Ола, 2010. - 190 с.

10. Kirsten Petersen « Clusters and clustering policy: a guide for regional and local policy makers» / European Union, 2010. – 196 p.

11. http://www.kazved.ru/article/34821.aspx

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Г.Эргашева

“Тошкент Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти” – миллий тадқиқот университети

Аннотация.

Профессионал таълимнинг ҳар бир босқичида ўқув фанлари даражасида компетентликлар аниқланган. Компетентликлар тартибини белгилашда профессионал таълимнинг асосий мақсадларига мувофиқ ижтимоий ҳамда шахсий тажрибанинг моҳияти, ижтимоий жамиятда касбий фаолиятни ташкил

этиш жараёни муҳим аҳамият касб этади.

Ушбу нуқтаи назардан мақолада профессионал таълим ўқитувчисининг касбий-методик шаклланишида педагогик фаолият компетентлигини ривожлантириш асослари ва мазмунда қайд этилади.

Калит сўзлар.

Профессионал таълим, фан, компетентлик, тажриба, фаолият, билиш, ахборот, методика, тизим, жараён, натижа.

Жамият ва унинг турли ижтимоий гуруҳларининг замонавий педагогик тизимларга ижтимоий буюртмаси, олимлар томонидан шахснинг компетенциялари сифатида белгиланган профессионал таълим натижаларини таъминлашга қўйиладиган талабларда ифодаланади.

Буларнинг барчаси бўлажак мутахассисларни тайёрлашга янги талабларни қўяди. Бугунги кунда таълим-тарбия масалалари умумий маданиятга, турли хил педагогик технологиялардан фойдаланиш қобилиятига эга бўлган, уларни динамик жамиятнинг ўзгарувчан шароитларида қўллай оладиган ва ўз педагогик фаолият йўналишини ҳимоя қила оладиган мутахассис шахсини тайёрлашга қаратилган [3].

Меҳнат мазмуни янги компетенциялар ва сифатга янги талаблар билан бойиб боради. Натижада профессионал таълимни компетенцияларга қайта йўналтириш масаласи долзарб бўлиб қолади. Кўриниб турибдики, таълим мазмунида инновацион жараёнларнинг кўп қисми яқин келажакда компетентли ёндашувни амалга ошириш билан боғлиқ бўлади [1].

Педагогик билимлар, мустақил педагогик фаолият юритиш профессионал таълим муассасаси ўқитувчиси касбий маҳоратининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади, ўз навбатида профессионал таълим ўқитувчиси жамият маънавий ҳаёти, моддий ишлаб чиқариш соҳаларини педагогик жиҳатдан йўналтиришга ёрдам беради. Профессионал таълим тизими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш барча гуманитар, ижтимоий-иқтисодий, табиий-илмий ва математик билимлар, педагогик - психологик ҳамда умумкасбий ва махсус тайёргарлик мазмунини ишлаб чиқиш, профессионал таълим ўқитувчиси педагогик фаолияти ҳақида, унинг вазифалари ва ҳал этадиган таълим-тарбиявий масалалари, муносабатлари усуллари борасида тўла тасаввурга эга бўлиш имконини беради.

Ўрганилаётган ҳодисанинг ҳар томонлама назарий-методик ва тажриба-амалий жиҳатдан ўрганилиши, ўқитувчининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш даражасини тизимли аниқлашда юзага келган илмий ёндашувни тасаввур этишга имкон беради. Мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантиришнинг мақсади касбий ва шахсий ривожланиш жараёнида ўқитувчининг ўз-ўзини англаш, баҳолаш ва бошқариш каби таркибий қисмларни ривожлантириш ва турли таълим муассасаларида ишлашга тайёрлаш яъни фанлар асосларини ўрганиш вазифалари қуйидагилардан иборат бўлиши лозим: аниқ педагогик ҳамда

ишлаб чиқариш муаммоли вазиятларда масалаларни ажратиб олиш ва уларни ҳал қилиш усули сифатида педагогик ва техник-технологик тафаккурни ривожлантириш; профессионал таълим тизими ўқитувчисининг педагогик-шахсий фаолияти асоси сифатида педагогик, умумкасбий ва ихтисосликга оид билимларни ўзлаштиришга нисбатан ижобий муносабатда бўлишга эришиш; касбий фаолият индивидуал методининг асоси сифатида, ўқув-педагогик ва ишлаб чиқариш ҳаракатларининг репродуктив ва ижодий усулларини шакллантириш; муҳим касбий-педагогик сифатларини ривожлантириш (ҳамдардлик, болаларни севиш ва бошқалар), касбий ва шахсий ўз-ўзини ривожлантириш эҳтиёжини юзага келтириш ҳисобланади. Ўсиб келаётган ёш авлоднинг ўқитиш ва тарбиялашда энг асосий таъсирни ўқитувчи кўрсатар экан, ўқитувчининг касбий компетентлигини шаклланганлиги, ўқув ва тарбия жараёнини бошқаришда намоён бўлади. Ўқувчиларни тўғри тарбия ва билим олиши, уларнинг баҳолари яхши бўлиши боғлиқ. Профессионал таълим тизими ўқитувчиси дарсга тайёрланаётганда ҳар хил метод ва усулларни қўллаб янги материални қандай баён қилишни ўйлайди. У ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини, уларнинг тажрибаси, жисмоний ривожланиши ва касб унумдорлигига таъсир қиладиган бошқа факторларни ҳисобга олган ҳолда иш объектларини танлайди.

Маълумки, ҳозирги замон ишлаб чиқариши жуда тез суръатлар билан ривожланмокда. Касб қуроллари, технологик процесслар узлуксиз такомиллашиб бормоқда. Бу маълум даражада профессионал таълимида ўз аксини топиши керак. Демак, ўқитувчилар фан ва техника сохасидаги тараққиётни узлуксиз кузатиб бориши, улардан таълим олувчиларни тушунарли шаклда хабардор қилиб туриши ва ўз маҳорати устида ишлаши керак.

Профессионал таълим ўқитувчиларининг таълим ва тарбия беришида, маҳорат турларига қуйидагиларни киритишимиз мумкин:

- таълим бериш маҳорати;
- таълимнинг замонавий усулларини қўллай олиш маҳорати; - тарбиялай олиш маҳорати;
- инсон омилини таъминловчи фазилати;
- билимларни ҳолисона баҳолаш ва назорат қила олиш маҳорати.

Профессионал таълим ўқитувчиси педагогик фаолиятини назорат қилишда қуйидаги жиҳатларга:

а) таълим – тарбия ишининг аниқ мақсадга йўналтирилганлигини, илмий жиҳатдан асосланганлигини ҳамда унинг мазмунини тўғри танланганлигини аниқлаш;

б) Касб ва касбий фаолиятнинг натижаси сифатини аниқлаш, ривожланиш босқичлари, тараққиёт даражасини белгилаш ҳамда истиқболдаги йўналишларини ёритиш;

в) таълим ва тарбиянинг муқобил самарали услубларини ишлаб чиқиш, ўқувчи ва ўқитувчиларнинг дунёқарашларини шакллантиришга, педагогик жамоанинг барча аъзолари орасида ўзаро ишончга, дўстликка, ҳамкорликка

асосланган муносабатларни ўрнатишга қаратилган ягона мақсад сари интилиш каби вазифаларни аниқлашга эътибор бериш зарур.

Педагогикада "компетентлик" – бу ўқитувчининг шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга касбий фаолиятни амалга оширилиши учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ҳамда уларнинг касбий фаолиятда қўллай олиши билан ифодаланади. Ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлиги даражасига қўйилувчи талаблар муайян вазиятларда билим, малака ва фаолият усуллари тўпламини мақсадга мувофиқ қўллаш қобилиятини англатади.

Профессионал таълимнинг ҳар бир босқичи учун таълим блоклари ва ўқув фанлари даражасида таянч компетентлик аниқланади. Таянч компетентлик тартибини белгилашда профессионал таълимнинг асосий мақсадларига мувофиқ ижтимоий ҳамда шахсий тажрибанинг моҳияти, ижтимоий жамиятда касбий фаолиятни ташкил этиш жараёнида ҳаётий касб этади. Ушбу нуқтаи назардан таянч компетентлик: яхлит – мазмунли, ижтимоий – маданий, ўқув – билиш, ахборот олиш, коммуникатив, ижтимоий фаолиятли, шахснинг ўз–ўзини такомиллаштириш турларига бўлинади. Профессионал таълим ўқитувчисининг касбий-методик шаклланиши қуйидаги тарзда намоён бўлади: педагогик тизим, жараён ва натижа. Ижтимоий қоидалар касбий шаклланиш даражасини баҳолашда муҳим асослар сифатида акс этади ва улар, ўз навбатида, Давлат таълим стандарти мазмунида қайд этилади.

Таълим тизими фаолиятини баҳолашда унинг самарадорлиги ҳамда педагогик тизим ривожи билан боғлиқ асосий кўрсаткичларини ажратиб кўрсатиш мумкин. Айнан ана шу кўрсаткичлар ўқитувчининг касбий шаклланиш даражасини баҳолаш мантиқини асослаб беради. Профессионал таълим тизимида ўқитувчи фаолияти учун муҳим педагогик шарт-шароитлар сифатида қуйидагиларни эътироф этиш мумкин.

1. Замонавий талабларга жавоб бера оладиган меъёрий ва ўқув-методик ҳужжатлар (давлат таълим стандарти, намунавий ўқув режалари, ишчи ўқув режалари, намунавий ўқув дастурлари, ишчи дастурлари, дарсликлар, ўқув қўлланмалар, методик тавсияномалар, қўшимча махсус адабиётлар, кўрсатмали воситалар, дарс ишланмалари, лойиҳалар ва бошқалар)нинг мавжудлиги.

2. Илмий педагогик ходимлар (профессор, доцент, ўқитувчи, малакали ўқув усталари, техник ходимлар)нинг билим, кўникма ва малакаларининг юксаклиги, касбий компетентлик даражасининг етарлича шаклланганлиги ҳамда илмий салоҳиятга эга бўлиши.

3. Ўқув жараёнининг моддий-техник (ўқув бинолари, ўқув аудиториялари, ўқув устахоналари, амалий-лаборатория жиҳозлари), ахборот технологиялари (радио, телевидение, компьютер, нусха кўчириш қурилмалари, лаборатория асбоб-ускуналари, магнитофонлар (аудио, видео, мультимедия), тренажёрлар, кинопроекторлар, диапроекторлар, электрон доскалар, техник воситалар мажмуининг мавжудлиги ва ҳоказолар) жиҳатдан етарлича таъминланганлиги.

4. Ижтимоий ва ўқув-технологик жиҳатдан қулай муҳит (ўқитувчилар, ўқувчилар, раҳбарлар, шунингдек, ўқувчиларнинг ўзаро муносабатлари мазмуни, йўналиши, мақсадлар бирлиги ва бошқалар) яратилганлиги.

5. Ташкилий ҳамда ўқув-амалий фаолиятнинг изчил, узлуксиз ҳамда тизимли йўлга қўйилганлиги. Професcионал таълим муасссасалари ўқитувчиларининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлик даражаларини ривожлантиришда фойдаланиладиган шакллар, методлар, воситалар етарли илмий асосланмаганлиги кузатилди.

Мустақил педагогик фаолият юрита олиш учун ўқитувчида қизиқиш, ҳоҳиш, қобилият етарли даражада шаклланган, мустақил ишлашга эҳтиёж бўлиши, ўқитувчиларнинг мустақил таълим олишига қатор психологик омиллар ҳам таъсир кўрсатиши аниқланди. Профессионал таълим тизимида ўқитувчиларни касбий маҳоратини ҳамда мустақил педагогик фаолият кўрсатиш компетентлигини ривожлантириш педагогик шарт-шароитлар, маҳорат турлари, методик тайёргарлик натижасида ривожланиши кўрсатиб ўтилди.

Меҳнат бозорига рақобатбардош кадрлар тайёрлашда янада юқори натижаларга эришиш учун таълимнинг якуний мақсадларини адекват англаш, уни такомиллаштириш ва мазмунан замонавийлаштириш, айниқса, ўқитишнинг интерфаол методлари ва замонавий дидактик воситаларини такомиллаштириш борасида кенг қамровли мақсадли ишларни амалга ошириш таълим-тарбия соҳасидаги стратегик вазифаларнинг асосий йўналишлари билан белгиланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Красильникова В.А. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: учебное пособие / В.А. Красильникова. – Оренбург – ГОУ ОГУ, 2006. – 235 с.

3. Палецкий С. В. Педагогическая технология освоения учащимися исследовательской деятельности [Текст]: учебно-методическое пособие / С. В. Палецкий. – Омск, 2004. – 71 с.

2. Тестов В.А. Дистанционное образование в вузе: проблемы и перспективы [Текст] / В. А. Тестов, Р. В. Ардовская // Труды СГУ, 2001. – №38. – С. 7-13.

3. Шутикова М.И. Формирование профессиональных компетенций в обучении на основе практико-ориентированного подхода [Электронный ресурс] / М.И. Шутикова // Концепт. – 2013. – Современные научные исследования. Выпуск 1. – Режим доступа: http://e-koncept.ru/2013/53214.htm. (10.03.2014)

LABORATORIYA-AMALIY DARSLAR ASTRONOMIYA MASHGʻULOTLARINING BIRLIGI SIFATIDA

Sheroz Eraliyevich Nurmamatov, Laylo Kuchimbayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika kafedrasi oʻqituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika va astronomiya ta'lim yoʻnalishi talabasi

Psixologik - pedagogik adabiyotlarda ta'lim birligi haqida turli xil tushunchalar mavjud. G.D.Kirillov va M.I.Maxmutov uni mashgʻulot deb hisoblaydi, V.V.Bespalko, N.P.Markova, M.N.Skatkin va L.Stolyarovlar - qadam, T.I.Shamov – bilish faoliyati deb tushuntiradi.

M.I.Maxmutov mashgʻulot tushunchasini didaktikaning eng muhim kategoriyasi sifatida izohlaydi, u mashgʻulotga "barcha elementlari zamonaviy didaktikaning asosiy qoidalarini aks ettiruvchi tizim sifatida qaraladi va oʻquvchilarni tarbiyalash va ularning bilish mustaqilligini shakllantirishga qaratilgan", deb ta'rif beradi.

M.N.Skatkin mashgʻulot qismlarini uning mazmunini tushunish uchun oʻz maqsadiga erishish uchun harakatga sabab boʻladigan qadamlar deb ataydi. Qadamlar deganda muallif "oʻqitish va oʻqish faoliyatining texnikasi va usullari"ni nazarda tutadi. Biroq, M.N.Skatkin, G.D.Kirillovalarning ta'kidlashicha, darsning tarkibiy qismlari: dars maqsadi, oʻquv materialining mazmuni, ta'lim metodlari va usullari, tashkil etish, oʻzaro ta'sir qilish usullari metodik tizimni tashkil qiladi. Darsda ular birlashtirilib, oʻqituvchi va talabalar faoliyatining mazmunli, metodik va tashkiliy jihatlarini belgilab, ikkita quyi tizimni: oʻqitish quyi tizimi va oʻquv quyi tizimini tashkil qiladi.

Yu.K.Babanskiy oʻqitish birligi "tahlil qilinayotgan ob'ektning ajralmas xususiyatlarini eng toʻliq shaklda" aks ettirishiga e'tibor qaratadi.

T.A.Ilinaning fikriga koʻra, metodik tizimning bu xususiyati "oʻquv materialining qiyinligining minimal oʻlchovidir, uning koʻrsatkichi oʻqituvchining ushbu materialni maxsus mustahkamlash va uning oʻzlashtirilishini tekshirish uchun toʻxtash zarurligini his qilishidir".

Oʻquv faoliyatining yaxlitligini tavsiflovchi birlik tadqiqot predmetidan kelib chiqib, ma'lum tarkibga ega boʻladi va oʻziga xos chegaralarga ega. Yaxlit tizimlarga qoʻyiladigan talablarga koʻra, ta'lim jarayonining birligi tizimning barcha tarkibiy qismlarining oʻzaro bogʻliqligini ta'minlashi va ushbu tizimga xos boʻlgan rivojlanish tendensiyalarini aniqlashi kerak. Biroq, ta'lim birligi:

- mazmunli va jarayonli tarkibiy qismlarni oʻz ichiga olishi;
- oʻqituvchi faoliyati va ta'lim oluvchilar faoliyati oʻrtasidagi oʻzaro aloqani ta'minlashi;
- muayyan metodik maqsadni hal qilishi;
- toʻliq va siklik xarakterga ega boʻlishi kerak.

Astronomiya mashgʻulotlarini oʻtkazishning metodik tizimida ta'lim jarayonining birligi, bizningcha, ushbu tizimning ishlashini ta'minlovchi

laboratoriya-amaliy darslari hisoblanadi. Aynan laboratoriya-amaliy darslar ta’limning mazmuni, tamoyillari va metodlari bilan belgilanadigan, o‘qituvchi tomonidan rejalashtiriladigan va tartibga solinadigan hamda o‘qituvchining o‘zi va ta’lim oluvchilar tomonidan amalga oshiriladigan o‘quv harakatining asosiy shakli hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, mashg‘ulotni tizim sifatida ko‘rib chiqiladigan yondashuv quyidagilarni aniqlashni talab qiladi:

- tizimning asosiy tarkibiy qismlari;
- tizimning yaxlitligini va uning rivojlanishini ochib beradigan dars qismi;
- tizimning ishlashini tushuntirish uchun tarkibiy qismlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar;
- tizimning rivojlanish tendensiyasi;
- tizimning rivojlanishini belgilovchi pedagogik shart-sharoitlar;
- tizim samaradorligi ko‘rsatkichlari.

Darsda umumiy va xususan, laboratoriya darslarida biz “o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilarning ma’lum bir tarkibining maqsadli o‘zaro ta’siri (faoliyati va muloqot) jarayonini tashkil etishning dinamik va o‘zgaruvchan shakli, shu jumladan mazmuni, shakllari, metodlari va ta’lim jarayonida ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy masalalarini hal qilish uchun tizimli ravishda qo‘llaniladigan (bir vaqtda) ta’lim vositalari”ni tushunamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Mamadazimov M., Tillaboev A., & Nurmamatov Sh.** Astronomiya kursidan masalalar to‘plami. Toshkent -2019. 148 bet.
2. **Muxamedov G.I., Nurmamatov Sh.E., & Sapaev I.U.** Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida astronomiyadan masalalar yechish usullari. *Academic research in yeducational sciences*, *2*(1) (2021), 664-667.
3. **Nurmamatov Sh.E.** "Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida astronomiya fanidan" Osmon sferasi, uning asosiy nuqtalari, aylanalari va chiziqlari" mavzusiga doir masala yechish metodikasi." *Fizika, matematika va informatika* 1.1 (2020): 37-44.

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI METODIK TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Musurmanov Ulug‘bek Amirkulovich

***O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi*.**

Dunyoda oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularning har bir faoliyat turiga mustaqil ilmiy-ijodiy yondashishi, olingan yangiliklarni amalda tadbiq eta bilish kompetentsiyalarini rivojlantirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, kompetentli kadr sifatida ilmiy-metodik faoliyatga tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim davrida talabalarni ilmiy ishlarga jalb etish, mustaqil tadqiqotchilik

faoliyati, tajriba natijalarini amaliyotga tadbiq etishga yoʻnaltirish mustaqil, salohiyatli, ijodiy tadqiqotchilik kompetentsiyasiga ega ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash uchun mustahkam poydevor hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uzluksiz, shiddat bilan rivojlanayotganligi boʻlajak informatika oʻqituvchilarini tayyorlashda bu jarayonga katta e'tibor qaratish, ularni etuk mutaxassislar qilib tarbiyalashda metodik tizimni uzluksiz, doimiy takomillashtirib borishni taqozo etadi

Axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish sharoitida boʻlajak informatika oʻqituvchisining bilish faolligi mazmuni muayyan oʻzgarishlarga uchraydi, shunga koʻra, uning konstruktiv, loyihali, tashkiliy, kommunikativ shart-sharoitlar mazmuni muayyan ahamiyat kasb etadi. Quyida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida boʻlajak informatika oʻqituvchisining tayyorgarligiga qoʻyidagi asosiy maqsadni koʻzda tutadi:

- boʻlajak oʻqituvchilarni informatika fanini ijodiy oʻqitish va oʻzlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qoʻllash boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalari bilan qurollantirish;
- boʻlajak oʻqituvchilarni informatika sohasi boʻyicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va oʻtkazishga tayyorlash;
- boʻlajak oʻqituvchilarni ta'lim sohasini axborotlashtirishning yoʻllari va ulkan istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish hamda chuqurlashtirish.

Boʻlajak informatika oʻqituvchisi oʻsib kelayotgan avlodning umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida oʻqitiladigan «Informatika va axborot texnologiyalari», «Axborot texnologiyalari» fanlarining ahamiyatini, ularning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.

Boʻlajak informatika oʻqituvchisi quyidagi bilimlar bilan qurollangan boʻlishi zarur:

- informatika va axborot texnologiyalari haqida tushunchalar;
- informatika va axborot texnologiyalarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidagi roli;
- informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning oʻquv-tarbiya jarayonida qoʻllash.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimizdan kelib chiqib, pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida informatika oʻqituvchisini tayyorlashning maqsadini takomillashtirish uchun talabalarga:

- oʻqitiladigan fanning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarini toʻgʻri qoʻyishga oʻrgatish;
- mutaxassislik bilimlarini zamon talabiga moslab rivojlantirib borishni tushuntirib etkazish;
- pedagogik «Men»ning shakllanishini, «Men-oʻqituvchiman», «Men-tarbiyachiman» gʻoyasi asosida boʻlajak informatika oʻqituvchisini tarbiyalash;

● pedagogik faoliyatidagi qadriyatlarni rag‘batlantirib borishga erishish;

● talabalarda namunali o‘qituvchi bo‘lishga rag‘bat va motivatsiya hosil qilish va pedagogik ongni rivojlantirib borishga o‘rgatish.

Metodik tizimning mazmunini takomillashtirish uchun talabalarga:

● o‘rganilgan ob’ekt va xodisalarni modellashtirish, loyihalashtirish va fan mavzularini metodik tizim sifatida o‘rgatib borish;

● informatikani o‘qitishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar, metodlar, vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirib borish;

● informatikani o‘qitishda fanlararo bog‘liqlik, metapredmetli yondashuvdan foydalanishni shakllantirish;

● pedagogik dasturiy vositalar, elektron ta’lim resurslari va elektron ta’lim muhitini yaratish va undan foydalanishni o‘rgatish;

● informatika o‘qituvchisini metodik tayyorlashda psixologig-pedagogik, nazariy, amaliy va texnologik tayyorligini shakllantirish;

● talabalarni innovatsion, loyihalovchilik va tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga o‘rgatib borish;

● informatika yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarning ko‘lamini kengaytirish maqsadida talabalarni ilmiy tadqiqot ishiga yo‘naltirib borishni zarur deb topdik.

Pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida informatika o‘qituvchisini tayyorlashning metodik tizimining metodlarini takomillashtirish uchun talabalarga:

● informatika fanini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari, ularning integratsiyasi imkoniyatlaridan foydalanishni o‘rgatib borish;

● interfaol metodlarni tahlil va tanlash tamoyilidan foydalanib informatika mavzusiga moslab qo‘llashni o‘rgatish;

● informatika mavzularini o‘qitishda foydalaniladigan pedagogik dasturiy vositalarni yaratish va foydalanishga o‘rgatish;

● o‘qitishda kirib kelayotgan innovatsiyalarni va innovatsion metodlarni o‘z pedagogik faoliyatiga olib kirishga o‘rgatish;

Tabalarga informatikadan ta’limning tashkiliy shakllari auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlardan tashkil topib, auditoriya dars mashg‘ulotlari shakllari asosan uch qismdan: nazariy ta’lim (ma’ruza) va amaliy mashg‘ulot va laboratoriya mashg‘uloti shakllarida olib borilishi, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar: mustaqil ta’lim, ma’naviy-ma’rifiy, to‘garak ishlari, turli bahs-munozara kechalari, soha fidoyilari bilan uchrashuv va hokazolar bo‘lishini tushuntirib etkazish lozim.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchisi yangi axborot texnologiyasini, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalarni chuqur o‘rgangan, shuningdek, jamiyatni, ta’limni axborotlashtirilayotgan sharoitda ishlash uslublarini egallagan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi №PF-6097 Farmoni.
2. Kayumova N.A. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish. // «Zamonaviy ta’lim» jurnali, 2019, 12 (85). 24-30-b.
3. Kayumova N.A. Informatika o‘qituvchisining metodik tizimini loyihalash. // «Zamonaviy ta’lim» jurnali, 2017, 11-son. 4-10-b
4. Nurulloyev F.N.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanish // Pedagogik mahorat. -Buxoro, 2020(maxsus son).- 267-270.

TA’LIM JARAYONIDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Niyozov Muhammad Baxronovich
Guliston davlat pedagogika instituti p.f.b.f.d. (PhD)

Ta’lim - bu insonning tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘zlashtirishi, dunyoqarashi va bilim jarayonlarini shakllantirish jarayoni va natijasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va Internetdan keng foydalanish butun dunyoda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning sifat jihatidan o‘zgarishiga olib keldi. Yaratilayotgan tizimlarning tobora murakkablashib borishi va ishlab chiqarish muhiti talablarining sifat jihatidan o‘zgarishi (raqamli ishlab chiqarishga o‘tish) kadrlarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv faoliyatini qayta ko‘rib chiqish zarurligiga olib keladi. Mehnat muhitining ushbu yangi xususiyatlari elektron o‘quv resurslari tarkibining muvofiqligini ta’minlash uchun kitoblardan elektron ta’lim resurslariga o‘tishni talab qiladi.

Ma’lumki, Respublikamizning barcha ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida o‘qitishning zamonaviy shakllari va uslullarini qo‘llash, ta’lim tizimida axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, ular yordamida ta’lim tizimini talab darajasiga etkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda. O‘quv jarayonida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o‘qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O‘quv jarayoni uchun yaratilgan elektron ta’lim resurslari o‘quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg‘ulotlarida repititor, mustaqil ta’lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta’minlovchidir.

Elektron ta’lim resurslari o‘quvchilarga axborotni o‘qish, ma’ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga mo‘ljallangan vazifalarni bajarish, o‘z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to‘ldirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Elektron ta'lim resurslari o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi.

O'quv jarayoniga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslari quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak:

- Teskari aloqani ta'minlash;
- Kerakli axborotlarni tez topishga yordam berish;
- Gipermatnli tushuntirishlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqt hisobini e'tiborga olish;
- Ekranga ma'lumotlarni chiqarishda kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan foydalanish;
- Predmetning har bir bo'limi bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga mos holda bilimlarini baholay olish;
- Predmetning o'quv axborot bazalarini yangilash imkoniyatini yaratish.

Ta'lim tizimida o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilsa ta'lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta'lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- o'quvchilarning o'quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

Elektron ta'lim resurslarini o'quv jarayonida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda ahamiyati juda katta hisoblanadi. Elektron ta'lim resurslaridagi kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta'lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishdan iborat.

Elektron ta'lim resurslaridagi mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun yaratilgan elektron o'quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o'quv-uslubiy materiallar ta'lim oluvchilarga kerakli mavzular bo'yicha ma'lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta'lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Avtomatlashtirilgan o'quv-uslubiy ta'lim vositalari yordamida ta'lim oluvchilar o'qituvchining yordamisiz ham o'z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin

O‘quv jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;
- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligi.
- o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;
- o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar.

O‘quv jarayonini kompyuterlashtirish, masofali o‘qitishning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan o‘quv-uslubiy ta’minotni yaratish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki elektron ta’lim resurslarini tahlil qilish orqali biz o‘quv jarayoniga internet muhiti tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanishimiz zarur, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu barcha o‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish, o‘qish motivatsiyasini va shunga mos ravishda ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. *Abduqodirov A.A., Pardaev A.X.* Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. G‘G‘ Monografiya. – Toshkent: Fan. 2009. – 148 b.
2. *Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E.* Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. // Monografiya. Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.
3. Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Yusupov A.X. veb texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llash // “Innovatsion va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim, fan va boshqaruv sohalarida qo‘llash istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferentsiyasi materiallari. – Samarqand, SamDU nashri, 14-15 may 2020 y. 345-347 b.
4. Toshtemirov D.E. Niyozov M.B. Ta’lim jarayonida veb texnologiyalarning o‘rni // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar**.** 2(46).2020. -B.114-120.
5. Niyozov M.B., Mamatov A.M. O‘quv jarayonida elektron ta’lim muhitini takomillashtirish // “O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. Guliston -2019 17-18 may. 116-117 b

TARBIYASI QIYIN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING O‘ZIGA XOS PEDAGOGIK JIHATLARI

Maqsud Mashrabovich Jabborov

Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi, +998915642023

Максуд Машрабович Жабборов, Старший преподаватель Национального центра подготовки педагогов по новым методикам Джизакской области

Maksud Mashrabovich Jabborov, Senior Lecturer of the National Center for Training Teachers on New Methods of Jizzakh Region

Annotatsiya: Mazkur maqola tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xos pedagogik jihatlari va uning ahamiyati haqida yozilgan.

Аннотация: В данной статье написано об уникальных педагогических аспектах работы со школьниками с трудным образованием и их важности.

Annotation: This article is written about the unique pedagogical aspects of working with students with difficult education and its importance.

Kalit so‘zlar: tarbiyasi qiyin o‘quvchilar, tarbiyaviy vositalar, tarbiya amallari, oila tarbiyasi.

Ключевые слова: трудно обучаемые учащиеся, средства обучения, образовательные практики, семейное воспитание.

Key words: *schoolchildren with difficult learning, educational tools, educational practices, family education.*

Ma’lumki, shaxsning ishtimoiylashuvi asosan maktab yillariga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun maktab oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalaridan biri bolaning kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratish, uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiyaning eng maqbul shakllarini joriy etishdir. Ammo ma’lumki, hozirgi sharoitda maktab oldida ko‘plab muammolar, hal qilinmagan masalalar mavjudki, ular barchasi maktabga har taraflama yordamni taqozo etmoqda.

Maktabda o‘qitiladigan fanlar o‘smir uchun o‘z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo‘lib xizmat qiladi. J.Piajening ta’kidlashicha, “Ijtimoiy hayot uch narsaning ta’siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi”. Bu borada o‘zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z-o‘zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Ma’lumki, o‘smirlik davrida o‘smirning “meni” qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo‘nalishi keskin o‘zgaradi. O‘smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o‘zini endi kichkina bola emas, balki katta bolib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o‘smir shunday qilishga haqqi borligiga o‘zini-o‘zi ishontiradi, chunki men endi “katta bo‘lib qoldim” deb o‘ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar “katta bolib qolganlik tuyg‘usi” ni shaxsning o‘smirlik yoshdagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladlar. L.S.Vigotskiy o‘smirlik davrida qiziqishlarining o‘zgarishiga bog‘liq ravishta ikki fazani (salbiy va ijobiy) ajratib ko‘rsatgan. Salbiy faza ilgarigi qiziqishlarining so‘nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bolishi bilan bog‘liq. Bunda quyidagi salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari namoyon boladi: ish

qobilyatining, o‘zlashtirishining pasayishi, o‘smirning qopolligi va yuqori qo‘zg‘aluvchanligi, uning o‘zidan qoniqmasligi va xavotirlanish va boshqalar. Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarining paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. O‘smirda boshqalarning va o‘zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo‘ladi. O‘smirlik davridagi inqiroz - o‘smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat’iy o‘zgarishi, buzilishidir.82

Ushbu illatlardan o‘smir bolalarni xalos etish yoki ularning oldini olish uchun qanday psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish mumkin?!

Tarbiyada ta’sir ko‘rsatish usullariga ya’ni taqdirlash va jazolash yo‘llariga alohida e’tibor beriladi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash jarayonida ham pedagog-tarbiyachilar ulardan samarali foydalanishlariga to‘g‘ri keladi. Taqdirlash bola xatti-harakatlarida ijobiy sifatlarni tarkib topishi va mustahkamlanishi uchun, jazolash esa ixtiyor etilmaydigan salbiy xususiyatlarni oldini olish va ulardan ogoh etish maqsadida foydalaniladi. Jazolash adolatli va bolaning shaxsini kamsitmagan holda samarali tashkil etilishi zarur.83

Tarbiyaviy vositalar orasida tarbiya amallari borki, ularni samarali qo‘llash ijobiy natijalarga olib keladi.

Tarbiya amallari tarbiya uslublarining tarkibiy elementlari bo‘lib, ular bolaga ta’sir samaradorligini ta’minlashga yordam beradi. Biz tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash jarayonda mutaxassislar bir qator tarbiya amallaridan foydalanishlari o‘rinlidir deb hisoblaymiz.

Tarbiya amallari

Bizning izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz tarbiya amallarini maqsad va yo‘nalishidan kelib chiqqan holda ularni quyidagi uch guruhga ajratishimiz.

Birinchi guruhga tarbiyachining tarbiyalanuvchiga murojaat etishi orqali uning shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash yordamida tashkil etiladigan amallar.

Bu amallar toifasiga yordam ko‘rsatishga ehtiyojni aniqlash kiradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchiga maslahat ma’nosida murojaat qilib, o‘z muammolari haqida so‘zlab berishini so‘raydi va shu asnoda muammoning yechish yo‘llarini topadi.

Umuman bola tarbiyasida har bir kichkintoyga shaxs sifatida qarab, fazilatlaridan kelib chiqib amallarni bajarishga yo‘naltirish, har biriga e’tiborni kuchaytirish va amallar doirasini kengaytirish lozim.

Adabiyotlar:

1. Л.С.Выготский. Собрание сочинений в шести томах. – Москва: Педагогика, 1982.
2. M.M.Jabborov. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning turlari va ularning kelib chiqish sabablari // Maktab va hayot, 2022, № 7

---

[82] Л.С.Выготский. Собрание сочинений в шести томах. – Москва: Педагогика, 1982.

[83] M.M.Jabborov. Tarbiyasi qiyin o’quvchilarning turlari va ularning kelib chiqish sabablari // Maktab va hayot, 2022, № 7

JADID MUTAFAKKIRLARI ILMIY-IJODIY FAOLIYATIDA TARBIYA MASALALARI

Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna

Chirchiq Pedagogika instituti magistranti

Rezyume. *Maqolada Jadid mutafakkirlari ilmiy-ijodiy faoliyatida ta'lim va tarbiya borasidagi qarashlari tahlil etilib ularning ma'naviy me'rosining tarixiy va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan*

Inson faqat orqaga, o'tmishga qarab yashay olmaydi, balki o'tmish avlodlar tomonidan yaratilgan hayotiy tajriba va barcha ilmiy bilimlarni chuqur o'rganish, o'zlashtirish, ularga ijodiy va tanqidiy yondashish asosida to'xtovsiz ilgarilab borishga harakat qiladi. O'tmishni, tarixni bilmasdan turib kelajakda yuqori pohanalarga erishish, olg'a rivojlanish mumkin emas.

Markaziy Osiyo ilm, fan, din, adabiyot, san'at qadimdan rivojlangan, tarixi nihoyatda boy mintaqalardan biri hisoblanadi. Ularning tarbiya borasidagi tarixiy merosi dunyo sivilizatsiyasi bo'lib, uni o'rganish, ommalashtirish zamonaviy ilm – fan va taraqqiyot uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ana shu bebaho ilmiy me'rosni yanada chuqur tadqiq etish va ommalashtirish xozirgi zamon ilm-fani va jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarb deb hisoblasak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarbiyaga oid ilmiy bilimlar Jadid ma'rifatparvarlari davri g'oyalarida yanada yuksaklikka ko'tariladi. Jadid ma'rifatparvarlari Turkistonning ahvoli nochor bo'lib turgan bir sharoitda uni qanday qilib taraqqiy ettirish yo'llarini qidirdilar. Ular xalq ongini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, jamiyatni insonparvarlashtirish, yurtni qoloklikdan chiqarishning yagona yo'li yosh avlodni yuksak fazilatli va zamonaga mos savodli, diniy va dunyoviy fanlarni puxta egallagan etuk insonlar qilib tarbiyalashdir, deb o'yladilar. Darhaqiqat, o'tgan asrning boshlarida xalqning ahvoli o'ta ayanchli bo'lib, mamlakatda ochlik, iqtisodiy tanglik hukm surardi. Jadidchilik xarakatining faol qatiashchilari Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Bexbudiy va boshqalar o'lkani halokatdan qutkarish va taraqqiyot yo'liga burishda ilm-fanning o'rni beqiyos ekanligini chuqur tushunib etdilar. Ilm-fanni ravnaq toptirish, eng avvalo, ular fikricha, maktabni isloh qilishdan boshlanishi kerak. Ular maktablarda bolalarni o'qitish eski uslubda olib borilayotganligini, u erlardan zamona talabiga javob beradigan ilmli yoshlar chiqmayotganligini alam bilan ta'kidlaydilar. Ma'rifatparvarlar, agar bunday xol o'zgarmasa, Turkistonning iqtisodi, tarbiyasi, madaniyati va ilm-fani tanazzulga uchraydi, xalqi esa savodsiz, johil va nodonligicha qolib ketadi, degan fikrni bildirdilar.

Jadid chilik harakatining etakchilaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov ilmni insonning eng noyob hunarlaridan biriga kiritadi. Olimning fikricha, «Ilm odamning zehnini ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirar, dunyoda baxtli va izzatli qilur. Oxiratda saodatli va sharofatli qilur»[84]. Ma'rifatparvarning nazarida, ilm shunday katta kuchki, xalolni xaromdan ajratishga, yaxshini yomondan, savobli gunoh ishlardan farq qilishga, insonning o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishga

[84] Авлоний А. Туркий гулистои ёхуд ахлок;. Т.: «Ўқитувчи», 1992. 22-23-бетлар. 43-бет.

yordam beradi. U «madaniyat, insoniyatni ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan. buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Allox taologa muhabbat va e’tiqodimizni ortdirur, janobi haqning azamat va qudratini bildirur. Alxosil, butun xayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, ximmatimiz, gayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur.

Ko‘rinadiki, ma’rifatparvarlar axloq bilan ilm-fanni o‘zaro bog‘liq holda qaradilar. Ularni bir-biridan ayirib bo‘lmaydi. Zero axloq ilm-fanni to‘g‘ri tushunishga, uni natijalarini jamiyat farovonligi va manfaati yulida xizmat qilishiga yordam beradi. O‘z navbatida fan insonlarning go‘zal fazilat va xulq-odob qoidalarini kasb qilishiga ko‘maklashadi. Turkiston jadidlari millat taraqqiyoti ilmga bog‘lik ekanligini usiz har qanday jamiyat tushkunlikka uchrashi muqarrarligini uqtirdilar. Insonparvarlik, o‘zaro yordam, mehr-shafqat, sahovatpeshalik, xayr-ehson, oliyhimmatlik va boshqa xislatlarning zamirida ilm yotadi. Shuning uchun ular jaholat va nodonlikni yaramas va tuban illat, insoniyatning dushmani va yomon xulqlarning majmui, deb xisobladilar

Jadid mutafakkirlariyaing qimmatli fikrlaridai yana biri, bizningcha, ularni ilmni taraqqiy ettirish yo‘llarini ko‘rsatib berishidir. Ularning qat’iy ishonchi bo‘yicha, ilm o‘z-o‘zidan yuksalmaydi, uni rivojlantiring uchun mablag‘, isloh, qilingan maktab va madrasalar, mashaqatli mehnat, g‘ayrat va shijoat, tartib va intizom zarur. Fitrat xind sayyoxi tilidan bu haqda shunday deydi: «Bir johil kishining olim bo‘lishi uchun uch narsa lozim kelur: pul, madrasa, sa’yu amal. Sizning Buxoroda Madrasa ham, pul ham bor, chunki bu vaqflarning barchasi ilm olish uchun vujudga keltirilgan, sa’yu amal-intilish ham mavjud, zero Buxoro ahli ilm tahsiliga muhabbatlidir. Faqat shuni aytish lozimki, sizning dars berish va daryo olish tartiblaringiz yomon, madrasalarning vaqfi esa xisobsizdir. Xar ikkisini ham tuzatish oson»[85].

Bexbudiyning fikricha, yoshlar bo‘lajak olimlar diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallashi kerak bo‘ladi. Iloxiy bilimlarni egallamoqchi bo‘lgan talabalar, eng avvalo Turkiston va Buxoroda arab tili va rus tili, diniy bilimlarni o‘rgangandan so‘ng o‘z bilimini yanada chuqurroq o‘zlashtirish uchun Makka, Madina va Istambulga borishlari kerak. Dunyoviy bilim va turli kasb-xunarlarni o‘rganish uchun esa yoshlar Ovrupaga, ko‘proq Moskva va Peterburgga borsalar ma’qul bo‘ladi. Talabalarni «Peterburg, Moskov dorilfununlariga yuborib duxturlik, zokunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi tijorat, ilmi ziroat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qitmoq lozimdir, - deydi. Rossiya vatanina va davlatina bilfe’l sherik bo‘lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim. Toki maishat ehtiyoji zamonamiz to‘g‘risida vatan va millati islomg‘a xizmat qilinsa va podshohlik mansablariga kirib musulmonlarga naf etkurulsa va ham davlati Rossiyaga sherik bo‘lunsa, xattoki shul tariqa o‘qutgan musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul dorilfununlariga tajriba uchun yubormok kerakdur»[86]

---

[85] Фитрат. Хинд сайёхи баёноти. Танланган асарлар. 1-жилд. Т.: «Маънавият», 2000. 117-бет
[86] Бехбудий. Падаркуш. 449-бет. Ж Фиграт. 1 (нажот йули (Раҳбари нажот). Т.: «Шарқ». 2001. 50-бет.

Turkiston jadidlari diniy va dunyoviy ilmlarni o‘rganish millat ravnaqi, jamiyat taraqqiyotiga asos bo‘lishiga chuqur ishondilar. Fitrat va Munavvarqori Abdurashidxonov dunyoviy fanlarni o‘rganish Turkistonni mustaqillikka erishuvida muhim omil bo‘ladi, degan fikrda turdilar. Fitrat jamiyatga foyda keltiruvchi, xalqning ongini oshirishga yordam beruvchi, ma’naviyat va madaniyatni yuksaltiruvchi ilmlar qatoriga tarix, jug‘rofiya, tabobat, kimyo, nabotot, xayvonot, ma’danlar ilmi, riyoziy ilmlarlai xisob, jabr, falsafiy ilmlardan ruh ilmi, mantiq ilohiyotni kiritadi

Fitrat ilm-ma’rifat va tarbiyaniig jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti, madaniyat rivojida muhim ahamiyatga molikligini yuqori baholadi. Fitrat inson kamolotida oila, jamoa muhim o‘rin egallashi va aqlning komil bo‘lishi, axloqiy poklik, donishmandlik, shijoatlilik, adolatlilik kabi insoniy fazilatlarni ulug‘ladi, inson aqliy quvvatining natijasisiz, aqlning raxbarligisiz saodatga erisha olmasliklarini ta’kidladi. Bu sohada o‘qituvchilar rahnamolik qilishlari kerakligini aytib, o‘qituvchilarga murojaat qildi, ularni turk eliga to‘g‘ri yo‘llarni ko‘rsatishga chorladi: Orkadoshlar, to‘planaylik johilning uyin yiqqali, el ko‘zin olgan qorong‘u pardalarni yirgkali. Biz erurmiz ma’rifat arslonlari, ilm erlari, To‘planaylik turk eliga tug‘ri yo‘llar ochkali. Fitrat uchun millat tinchligi va ravnaqi xar qanday qadriyatlardan ulug‘dir. Uning ta’kidlashicha, odamlar qanday din, mazhab, qavm va millatga mansub bo‘linmasinlar, bir otaning farzandlaridirlar, bir jinsdirlar. Demak, ular o‘zaro ahil bo‘lmoqlari kerak.

Jadid mutafakkirlari yoshlarning istiqboli tug‘risida qayg‘urdilar, ularni zamonasining ilmli va etuk insoni bo‘lishini har tomonlama qo‘llab-kuvvatladilar.

Buyuk shoir, dramaturg, ma’rifatparvar va davlat arbobi Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida: «Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misol ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur» - degan edi. Avloniy tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratib «Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» deydi.

Atoqli pedagog Abdulla Avloniy: «Axloq ilmini o‘qib, bilib amal qilgan kishilar o‘zining kim ekani, janobi haq na uchun xalq qilganin, er yuzida nima ish uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O‘z aybini bilur, iqror qilub, tuzatmakga sa’y va qo‘shish qilgan kishi chin bahodir va paxlavon kishidir». Demak, axloq, odob va etika qoidalarini bilish va ularga to‘la amal qilish kishilarning o‘zaro hurmat-extirom bilan tinch-totuv yashashini ta’minlaydi. Aksincha holda, ya’ni axloqqa, odobga kam va etarli e’tibor berilmagan odamda, oilada beandishaliklar, beburdliklar va shu kabilar mavjud joyda salbiy, nojo‘ya axloqiy fazilatlar yuzaga keladi va avj oladi, odamlar orasidan hurmat, mehr-oqibat ko‘tariladi, hayot asta-sekin izdan chiqa borib, ijtimoiy hayotning jiddiy to‘sqiniga aylanadi.

Behbudiy ta’lim-tarbiyada muvaffaqiyatlarga erishishning birdan bir yo‘li o‘lkada ilm-fanni rivojlantirish ekanini aytadi. Behbudiy ta’lim-tarbiya ishini

ijtimoiy hayot, jaxon miqyosida sodir bo‘layotgan voqealar bilan bog‘liq holda olib borishni tavsiya etadi. U yoshlar tarbiyasida oila, ota-onalar alohida mavqega ega ekanini ta’kidlaydi. U «Padarkush» asarida: «Bizlarni xonavayron... bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaxolatdir, be’vatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik , zarurat va xorliklar... xammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir..."[87] deb yozadi.

Xulosa qilib aytganimizda, Jadid mutafakkirlari ijodida axloq va ta’lim masalalari juda ham ko‘p va rang-barang bo‘lib, ularning bemisl ilmiy, tarbiyaviy g’oyalari xozirgi davrda ham o‘zining dolzarb ahamiyatini yo‘otmagan. Ularning ushbu boy ilmiy merosning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, **birinchidan,** uni asrab-avaylash, o‘rganish va ommalashtirish, barkamol insonni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. **Ikkinchidan,** ularning ta’lim va tarbiya borasigi qimmatli fikrlari keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb muammolarni hal etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИ МУНОСАБАТЛАРИДА МЕНЕЖМЕНТ ВА БОШҚАРУВ МАСАЛАЛАРИ

Эшбобоев Дилшод Элмурод ўғли

Тошкент вилояти Оҳангарон туман педагогика коллежи директори, эркин тадқиқотчи

Аннотация. *Мақолада “менежмент” ва “бошқарув” тушунчалари талқини, бозор иқтисодиёти нуқтаи назаридан қайта кўриб чиқилган ишлаб чиқаришни бошқариш, ўтмишдаги энг яхши тажрибани ўзлаштирган замонавий, илғор бошқарув тури – менежмент ҳақида сўз юритилади.*

Калит сўзлар: *менежмент, бошқарув, субъект, ҳокимият, таълим, иқтисодиёт, мақсад, тажриба.*

Иқтисодиёт, таълим ва ижтимоий-ижтимоий муносабатларни компьютерлаштириш ва ахборотлаштиришнинг замонавий шароитида барча ички ва ташқи бозорлардаги рақобатнинг табиати ва натижаларига сезиларли таъсир кўрсатадиган бошқарув тизими алоҳида аҳамиятга эга. Бу тизим корхона, фирма, таълим муассасаси, илмий-тадқиқот институти ва бошқалар каби ҳар қандай ташкилий тизимнинг асосий бўлинмаларидан биридир. У юқоридан пастгача ташкилий тизимнинг бутун тузилишига, унинг фаолияти ва функцияларига киради.

Ахборот инқилоби шароитларида бошқарув маданияти, бошқарув билимларининг шаклланиш жараёни туб сифат ўзгаришлари негизини ташкил қилади. Уларнинг моҳияти шундан иборатки, замонавий менежментнинг диққат марказида “инсон ресурси” туради. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини модернизация қилиш бўйича амалга оширилаётган ислоҳотлар

---

[87] Бехбудий. Падаркуш. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т.: «Ўқитувчи», 1995. 449-бет. Мунавварқори Абдурашидхонов. Адибуссоний. Танланган асарлар.: «Маънавияг», 2003. 73-бет.

мамлакатимизнинг барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлашда устувор йўналишлардан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда иқтисодиёт ва ижтимоий тараққиёт соҳасидаги энг муҳим жаҳон ютуқларининг аксариятини менежмент билан боғлаш одатий ҳолдир. Уларнинг асоси, биринчи навбатда, корхоналарни муваффақиятли бошқаришдир. Бошқарув соҳасидаги етакчи назариётчи П.Друкернинг фикрича, уларнинг якуний натижаларининг тахминан 80% юқори сифатли, юқори профессионал менежмент томонидан таъминланади [1]. Шу сабабли, ушбу соҳадаги сўнгги ютуқларни маҳаллий амалиётга жорий этиш ва уларни мослаштириш зарурати табиий кўринади.

Жаҳон бошқарув ғояларининг ривожланишига А.Богданов, Н.Витке, А.Гастев, П.Керженцев ва бошқалар муносиб ҳисса қўшдилар. Фундаментал илмий ишланмалар академиклар А.Аганбегян ва Д.Гвишиани томонидан амалга оширилди, Г.Попов ва С.Шаталиннинг бошқарув фани ва иқтисодиёти соҳасида амалга оширилган ишлари ҳаммага маълум.

Маҳаллий фанда “менежмент” ва “бошқарув” тушунчаларини белгилашда чалкашликлар мавжуд. Касб-ҳунар таълими луғатидаги талқинга кўра, бошқарув субъектлар, ҳокимият органлари томонидан одамларга, таълим, иқтисодиёт ва бошқа объектларга уларнинг ҳаракатларини йўналтириш ва керакли натижаларни олиш учун амалга ошириладиган онгли мақсадли таъсир сифатида тақдим этилади [2].

Мамлакатнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда менежмент - бу бозор иқтисодиёти нуқтаи назаридан қайта кўриб чиқилган ишлаб чиқаришни бошқариш, ўтмишдаги энг яхши тажрибани ўзлаштирган замонавий, илғор бошқарув туридир.

Бозор муносабатларига ўтиш билан бозор иқтисодиётига хос хусусиятларни ва бошқарув соҳасидаги инновацион ютуқларни ҳамда миллий иқтисодиёт, маданият, таълим, психологиянинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга оладиган замонавий менежмент методологиясига кескин эҳтиёж пайдо бўлди.

Бутун 20-аср давомида бошқарув фани кўпгина олим ва бошқарув амалиётчиларининг эътиборини тортди, масалан, О.С.Виханский, А.И.Наумов ва бошқалар. Улар фаолиятининг мақсади дунёнинг етакчи давлатларининг менежмент тажрибасини ўрганиш ва таҳлил қилиш, хорижий бошқарув назариясини давлатимизнинг ўзига хос хусусиятларига мослаштириш, шунингдек, мамлакат бошқарув моделини яратишга уриниш бўлган. Ҳозирги вақтда менежмент ўзига хос хусусиятларга эга бўлмоқда.

Менежмент - ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, фойдани кўпайтириш ва корхона, фирманинг ресурс салоҳиятидан яхшироқ фойдаланиш мақсадида ишлаб чиқариш ва саноат ходимларини бошқариш тамойиллари, методлари, усуллари, воситалари ва шакллари тўпламидир [2]. Бошқарув бошқа одамларнинг иши, кўникмалари, қизиқишлари ва хатти-ҳаракатларининг мотивларидан фойдаланган ҳолда мақсадларга эришиш кўникмасини ўз ичига олади.

Менежментнинг ўзига хос хусусиятларини кўриб чиқишдан олдин, иқтисодиётнинг ҳозирги босқичининг объектив хусусиятларини таъкидлаш керак.

Инсоният тарихи юқори самарали, фан ва техника ютуқларини қабул қилувчи ва доимий равишда ижтимоий эҳтиёжлар таркибидаги ўзгаришларга йўналтирилган бозор иқтисодиётидан бошқа ҳеч қандай иқтисодий тизимни билмайди. Бозор муносабатларини мажбуран жорий этиш ёрдамида бозорни сунъий равишда яратиб бўлмайди. Бозор иқтисодиёти узоқ тарихий жараённинг натижасидир.

Бозор муносабатлари ривожланишининг биринчи, ўтиш босқичида, унинг вазифалари:

- халқ хўжалигининг моддий-молиявий балансига эришиш;
- онг ва хулқ-атвор стереотипларининг ўзгариши;
- янги шаклдаги кадрларни тайёрлаш ҳисобланади.

Бозор ҳар доим муайян мамлакатнинг миллий ва тарихий анъаналари ва хусусиятларини акс эттиради. Бозор иқтисодиёти умумий хусусиятларга эга бўлиб, бошқа мамлакатларникидан фарқ қилади. Тартибга солинадиган, ижтимоий йўналтирилган бозор ҳозирда юқори самарали бўлиши мумкин.

Менежментда асосий муаммо бу кадрлар билан ишлаш ҳисобланади. Одамлар бозор муносабатларининг субъектларидир. Ҳар қандай корхонанинг муваффақияти уларнинг малакаси ва иш сифатига боғлиқ. Бозор муносабатларининг яна бир субъекти раҳбар ҳисобланади. Бошқарувнинг типик вакили давлат корхоналари маъмурияти бўлиб, улар, қоида тариқасида, ушбу корхоналарни акциялаштириш ва хусусийлаштириш жараёнида сақланиб қолади. Замонавий раҳбар одатда олий муҳандислик ва техник маълумотга, кучли етакчилик тажрибасига эга бўлган шахсдир. Унинг ҳокимиятга аниқ истаги бор, у ишни яхши кўради, унга кўп вақт ажратади. Ўз навбатида, менежер хизмат тури бўйича бошқарув масалаларига масъул бўлган оддий иқтисодчи ёки муҳандис эмас, балки ўзининг ушбу касбга тегишли эканлигини биладиган ва шунга мос равишда ўз касбий фаолиятини амалга ошириш учун зарур билимлар, кўникмалар ва малакалар тўпламига эга бўлган махсус касб вакилидир [3].

Маълумотларга кўра, тўртта менежердан фақат биттаси меҳнат социологияси ва психологияси, иқтисодиёт, молия, менежмент ва маркетинг бўйича адабиётларни ўқийди. Бундай раҳбарлар бошчилигидаги корхоналарда бошқарувнинг маъмурий-буйруқбозлик усуллари, кучли тазйиқлар давом этмоқда. Бугунги кунга қадар корхонанинг умумий стратегиясини шакллантириш, бозорда рақобатбардошликни ошириш, ходимларни касбий тайёрлаш ва қайта тайёрлаш учун шарт-шароитларни яратиш, ишлаб чиқаришни бошқаришга ходимларни жалб қилиш ва бошқаларга кам эътибор қаратилган.

Корхона товар-пул муносабатларининг мустақил объектига айланган, ўз иқтисодий фаолияти натижалари учун тўлиқ жавобгар бўлиб, корхонага бозорда рақобатбардош ва барқарор мавқега эришишга имкон берадиган

самарали бошқарув (менежмент) тизимини шакллантириши керак.

Шундай қилиб, мамлакатнинг иқтисодий ривожланишидаги асосий қийинчиликлардан бири бу *касбий маҳоратли бошқарувчи-менежерларнинг* етишмаслигидир. Диссертация тадқиқотида менежерларни касбий тайёрлаш масалалари кўриб чиқилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Друкер Питер Ф. Практика менеджмента: Учебное пособие. М.: Вильяме, 2000.
2. Вишнякова С.М. Профессиональное образование: Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. - М.: НМЦ СПО, 1999.
3. Драчева Е.Л., Юликов Л.И. Менеджмент: уч. пособ. - М.: изд. центр «Академия», 2003.

КОМПЬЮТЕР САВОДХОНЛИГИДА АХБОРОТ МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИ

Ҳакимов Жамшид Октямович,

педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети

Аннотация. *Ижтимоий фанлар, файласуфлар ва ахборот фалсафаси соҳасидаги мутахассисларнинг асарларида ахборот маданияти муаммолари алоҳида ўрин эгаллайди.*

Мақолада компьютерлаштиришнинг дастлабки босқичида компьютер саводхонлиги ва у билан боғлиқ ахборот маданияти ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: *маданият, механизм, нутқ, алоқа воситалари, маданий воқелик, қадрият.*

ВОПРОСЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация. Проблемы информационной культуры занимают особое место в работах специалистов в области социальных наук, философов и философов информации.

В статье говорится о компьютерной грамотности и связанной с ней информационной культуре на начальном этапе компьютеризации.

Ключевые слова. Культура, механизм, речь, средства коммуникации, культурная реальность, ценность.

ISSUES OF INFORMATION CULTURE IN COMPUTER LITERACY

Annotation. The problems of information culture occupy a special place in the works of specialists in the field of social sciences, philosophers and philosophers of information.

The article talks about computer literacy and related information culture at the initial stage of computerization.

Keywords. Culture, mechanism, speech, means of communication, cultural reality, value.

Жаҳон миқёсида ахборот-коммуникация технологиялари ривожланиб, таълим жараёнида кенг қўлланилаётган ҳозирги шароитда талабаларнинг ахборот-лойиҳалаш компетентлигини электрон ўқув-методик мажмуалар ва технологиялардан комплекс фойдаланиш катта аҳамият касб этмоқда. Техника йўналишидаги таълим муассасалари учун мутахассислар, хусусан, компетентли муҳандис-ўқитувчиларни тайёрлашда лойиҳалаш жараёнларини автоматлаштириш асослари (икки ўлчамли конструкциялаш ва уч ўлчамли моделлаш) дастурлари, CALS/ИТИ-технологиялари, интеллектуал таълим тизимлари (Intellgent Tutorig Systems)ни қўллаш ўқитишда янги сифатларга эришишнинг муҳим шарти саналади. Таълимнинг парадигмал транформацияси контекстида бўлажак мутахассисларни муҳандис-ўқитувчи, мураббий, уста фаолиятларига тайёрлашда таълимнинг инновацион ахборот-дидактик шаклларини, лойиҳалаш жараёнларини автоматлаштириш методларини, технология ва ахборотлаштириш воситаларини яхлит тизимга бирлаштиришнинг педагогик ва технологик асосларини ишлаб чиқиш ва амалда жорий этиш долзарб педагогик муаммолардан ҳисобланади.

Ахборотлашган жамият назарияси, таълимни ахборотлаштириш муаммосининг турли аспектлари, олий таълим муассасалари ўқув жараёнида ахборот-коммуникацион технологияларини амалий қўллаш, хусусан, талабларни касбий фаолиятга тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситалари, электрон таълим ресурслари, ахборот-таълим муҳити имкониятларидан самарали фойдаланиш, бўлажак педагогларда ахборот-коммуникацион тайёргарликни ривожлантириш масалалари А.Абдуқодиров, Л. Бобожонова, Ф.Закирова, Ҳ.Қодиров, Ж. Ҳамидов, У.Бегимқулов, У.Юлдашев ва бошқалар томонидан ёритилган, таълим самарадорлиги ва талабаларининг касбий тайёргарлиги мазмунига ахборот-комуниация технологияларининг ижобий таъсирини М.М. Мирзаев, О.Х. Тўрақулов, Д.Н.Маматов ва бошқалар ўрганишган.

Жамият тараққиётида ахборотнинг асосий ролини тушуниш; жамиятни ахборотлаштириш ва ахборот жамиятининг шаклланиши “ахборот маданияти” каби янги мураккаб ва хилма-хил тушунчанинг пайдо бўлиши ва ривожланишига олиб келди, ахборот маданиятининг мустақил илмий йўналиш ва таълим амалиёти сифатида шаклланишини белгилаб берди.

“Ахборот маданияти” атамаси биринчи марта XX асрнинг 70-йилларидаги маҳаллий нашрларда кутубхона ва китоб иши соҳасида пайдо бўлган [1]. 1980-йилларнинг охиридан бошлаб ижтимоий фанлар, файласуфлар ва ахборот фалсафаси соҳасидаги мутахассисларнинг асарларида библиографлар, кутубхоначилар билан бир қаторда ахборот маданияти муаммолари ҳам кўтарилиб келинмоқда.

Бироқ, бу вақтда фалсафий-мафкуравий ёндашув нуқтаи назаридан (А.П.Суханов, В.С.Семенов, Э.П.Семенюк, А.Д. Урсул, Ю.А.Шрейдер ва бошқалар) ахборот маданияти янгилик эмас, балки у ахборот ўзаро

таъсирининг турли механизмлари (нутқ, ёзиш, мавҳумлик ва мажозийлик) пайдо бўлиши билан жамият ривожланишининг дастлабки босқичларида пайдо бўлган. Инсон томонидан яратилган ахборот турли моддий шаклларда сақланиб қолган ва алоқа воситалари ёрдамида авлоддан-авлодга узатилган. "Ахборотнинг ушбу "сақланиш қонуни" унинг тўпланиши ва узлуксиз ўсишига ёрдам берди. Бу эса ҳар бир авлод ижтимоий-маданий воқеликни яратишда, инсоният яратган барча бойликларни ўзлаштиришда фаол иштирок этувчи ахборот маданиятининг пайдо бўлиши учун зарур шарт-шароит яратди" [2, 38 б.]. Ю.А.Шрейдернинг таъкидлашича, ахборот билимлари шахс метабилимининг асосий таркибий қисми, ҳар қандай билим олиш ва ҳар қандай фаолиятни амалга ошириш учун методологик асос ҳисобланади [3, 362].

А.П.Сухановнинг фикрича, ахборот маданияти:

1. шахснинг маданий-ижодий фаолиятини билиш ва объективлаштириш жараёнига ҳисса қўшади;

2. шахс томонидан маданий воқеликни ривожлантиришда ва инсоният яратган барча бойликларни ўзлаштиришда фаол иштирок этади;

3. воқеликнинг ўзи, бевосита маданий борлиқнинг қадрияти ва атрибути, шахсни жамият билан боғловчи зарурий шарт сифатида ҳаракат қилади.

Кейинги йилларда А.А.Виноградов, А.И.Ракитов, Э.П.Семенюк, А.Д.Урсулларнинг нашрлари туфайли бу тушунча сифат мақомига эга бўлиб, кенг махсус-илмий ва фалсафий жиҳатдан қўлланила бошлади.

Информатика ва АКТ соҳасидаги мутахассисларнинг иши "ахборот маданияти" тушунчасининг янги мазмунига сезиларди ҳисса қўшди (А.П.Александров, Я.А.Ваграменко, Е.П.Велихов, Б.С.Гершунский, А.П.Ершов, В.М.Монахов ва бошқалар).

Замонавий техник воситалардан кундалик ҳаётда кенг фойдаланиш, энг янги ахборот техникалари ва технологияларидан фойдаланиш, шунингдек, мактаб ўқув дастурига "Информатика ва АКТ" фанининг киритилиши ахборот маданиятини шакллантиришнинг асоси сифатида янги турдаги компьютер саводхонлигининг пайдо бўлишини белгилаб берди.

"Ахборот маданияти" тушунчасини академик А.П.Ершов Математик таълим бўйича VI Халқаро конгрессдаги "Мактабни компьютерлаштириш ва математика таълими" маърузасида шакллантирди (Белград, 27.07.1988 - 08.03.1988):

"... Компьютер саводхонлигидан ахборот маданиятгача. Таълимни компьютерлаштириш ҳақида гапирганда, бу жараённинг умумий йўналиши ҳақида, ўз вақтида, ўқувчининг синфдан синфга ўтиш даврида ҳам, бутун жамиятнинг тарихий ривожланиш ўқи бўйлаб ҳаракатланиши даврида ҳам ривожланиши ҳақида ўйламаслик мумкин эмас.

Деярли барча мамлакатларда компьютерлаштиришнинг дастлабки босқичи компьютер саводхонлигининг у ёки бу даражасига эришиш билан боғлиқ. Ушбу атама деярли ўн йил давомида доимий қўлланилиб келмоқда ва мен унинг вариантларини таҳлил қилмайман, лекин мен унинг кенгайтирилган

таърифини бераман, бу эса информатика бўйича истиқболли дарслик дастури бўйича комиссияга мактабни компьютерлаштиришни ўқувчиларнинг компьютер саводхонлигидан жамиятнинг ахборот маданиятига ўтиш сифатида ривожлантириш формуласини беришга имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Воробьев, Г.Г. Твоя информационная культура. [Текст] / Г.Г. Воробьев. — М.: Молодая гвардия, 1988. —303 с
2. Суханов, А.П. Информация и прогресс [Текст]: научно-популярная литература / А.П. Суханов. — Новосибирск: «Наука», 1988. — 192 с.
3. Шрейдер, Ю.А. Информатизация и культура [Текст] // НТИ. Сер. 2. 1991.—№8. —С . 1-9

PIRLS АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ БАҲОЛАШ

Химматалиев Дўстназар Омонович, Ташпулатова Жанар Абдусаттаровна, Омонова Нилуфар,

педагогика фанлари доктори, профессор,

Педагогика ва психология мутахассислиги 1 курс магистранти,

Таълим муассасаларини бошқарув мутахассислиги 1 курс магистранти

Чирчиқ давлат педагогика университети

Аннотация. Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бирига айланган. Мақолада PIRLS асосида ўқувчилар билимини баҳолаш орқали ўқувчиларнинг ўқиш, математика ва табиий йўналишдаги таълим сифатини баҳолаш, ўқувчиларнинг чет тилларини мукаммал билиш тизимини яратиш вазифалари ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар. тил ўргатиш, ижодий шахс, ижтимоий фаолият, маданий таълим, дастур, инсонпарварлаштириш, модернизациялаш.

ОЦЕНКА ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ PIRLS

Аннотация. Дальнейшее совершенствование системы непрерывного образования, качества образовательных услуг стало одной из актуальных задач сегодняшнего дня. В статье говорится о задачах оценки качества образования учащихся по чтению, математике и естественным наукам, а также создания системы совершенного владения учащимися иностранными языками на основе PIRLS.

Ключевые слова. обучение языкам, творческая личность, социальная активность, культурное образование, программа, гуманизация, модернизация.

ASSESSMENT OF STUDENT KNOWLEDGE BASED ON PIRLS

Annotation. Further improvement of the system of continuous education, the quality of educational services has become one of the urgent tasks of today. The article talks about the tasks of assessing the quality of education of students in

reading, mathematics and natural sciences, as well as creating a system of perfect knowledge of foreign languages by students based on PIRLS.

Keywords. language teaching, creative person, social activity, cultural education, program, humanization, modernization.

Республикамизда олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини кенг миқёсда жорий этишга қаратилган қатор мақсадли дастурлар ишлаб чиқилиб, таълим муассасаларини глобал Интенет тармоғига улаш, уларнинг таълимий сайтларини такомиллаштириш борасида салмоқли ишлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш” устувор вазифа сифатида белгиланган [1].

Шу боис техника олий таълим муассасаларида мутахасислар, жумладан, муҳандис-ўқитувчилар тайёрлаш жараёни ва педагогик муаммоларини қиёсий таққослаш, танқидий таҳлил қилиш, умумлаштириш ва ўқитиш методларининг мақбул вариантларини танлаш, ўқитишда ахборот-коммуникация технологияларини комплекс қўллаш, хусусан, лойиҳалаш жараёнларини автоматлаштириш методларини ўргатиш муҳим педагогик вазифалардан ҳисобланади. Талабаларнинг ахборот-лойиҳалаш компетентлигини ривожлантиришга йўналтирилган таълим муҳити моделини, виртуал таълим технологияларини жорий этиш, виртуал лаборатория машғулотларини ташкил этишнинг методик таъминотини такомиллаштириш учун кенг шароитлар мавжуд. Бу эса, таълимнинг парадигма транформацияси контекстида талабларнинг ахборот-лойиҳалаш комптентлигини ривожлантиришда ахборот-коммуникация технологиялари воситаларни комплекс жорий этишнинг педагогик шарт-шароитлари ва дидактик имкониятларини такомиллаштириш, бўлажак мутахассисларнинг амалий тайёргарлиги даражаларни баҳолашнинг мезон ва кўрсаткичларини аниқлаштиришни тақозо этади.

Бугунги кунга келиб, ёмон назорат остида ва эҳтиёткорлик билан амалга оширилган, муқобил таълим шакллари ягона таълим маконининг мавжудлигига таҳдид солаётгани (дипломларнинг эквивалентлиги, таълим хизматларининг зарур минимал тайёргарлик даражасига мувофиқлиги) аниқ бўлди. Замонавий давлат таълим тизими оммавий “ишлаб чиқариш оқими” хусусиятларига эга ва айнан шундай тизимлар уларнинг кўпгина бўғинларида стандартлаштирилиши керак. Мактаблар учун мавжуд дастурлар ўқувчиларнинг фанга тайёргарлик даражасига қўйиладиган талабларни расмий равишда белгилаб қўйган бўлса-да, уларни сўзнинг қатъий маъносида стандартлар, яъни аниқ ва бир маънода кўрсатилган параметрларга эга меъёрий ҳужжатлар деб аташ мумкин эмас.

Таълим стандартлари ўқув жараёнининг натижасини белгилаши керак. Бу натижаларни “билим”, “кўникма”, “малака”, “тайёргарлик даражаси”, “таълим

сифати” ва бошқа тушунчаларда кўрсатиш мумкин. Замонавий педагогик адабиётларда “таълим сифати” тушунчаси жуда кўп қўлланилади, шунинг учун ушбу тушунчанинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида тўхталиб ўтамиз.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ5712-сон фармонига мувофиқ 2030 йилга келиб PISA (The Programme for International Student Assessment) халқаро дастури рейтингида жаҳоннинг биринчи 30 та илғор мамлакатлари қаторига киришига эришиш ҳамда таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш асосида ўқувчиларнинг ўқиш, математика ва табиий йўналишдаги таълим сифатини баҳолашнинг миллий тизимини яратиш вазифалари белгиланган [2].

PIRLS (Халқаро ўқиш саводхонлигининг ютуқлари) синовини бошланғич синф ўқувчиларининг матн ўқиш ва тушуниш сифатини баҳолашга қаратилган. TIMMS сингари, у миллий таълим тизимидаги фарқларни кўрсатади. PIRLS сўрови ҳар беш йилда бир марта ўтказилади ва аллақачон тўрт марта ўтказилди. 2001, 2006, 2011 ва 2016 йиллар. Бугунги кун замон талаби билан, барча таълим муассасалари қаторида умумтаълим мактабларининг ўқувчилари ҳам хорижий тилларни мукаммал билиши ва эркин тарзда мулоқот қила олиши, муҳим масалалардан бирига айланмоқда.

Шахсга йўналтирилган таълим парадигмаси тилларни ўргатишнинг замонавий концепциясида ҳам ўз аксини топди, бу ҳар қандай таълим муассасаси ўқувчиси шахсини шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. Чет тилларини ўқитиш жараёнининг аҳамиятини ўрганиш нафақат хусусий нутқ компетенцияларини шакллантиришда, балки таълим олувчиларнинг шахсига таъсир қилишда ҳам эътироф этилиши керак, бунинг натижасида у ўз-ўзини ривожлантирувчи организмга айланади, мазмунли ва рефлексли хулқ-атвор тажрибасини, ижодий билиш фаолияти қобилиятини эгаллайди.

Маданиятлараро мулоқот жараёнининг муваффақияти кўп жиҳатдан шахснинг ҳам билиш (интеллектуал) жиҳати ҳамда ҳиссий жиҳатлари бўйича ривожланиши имкониятлари билан боғлиқ. “Чет тили” фанини ўзлаштириш таълим олувчи хусусий фаолияти (тилни ўрганиш)да таълим олувчининг фаолиятини йўналтириш (ўқитувчи) натижасида, янги тил кодидан фойдаланган ҳолда маданиятлараро мулоқот қобилияти ривожланади. Шунинг учун маданиятлараро мулоқот қилиш қобилиятини эгаллаш, энг аввало, таълим натижаси учун масъулиятнинг маълум бир қисмини ўз зиммасига олиши керак бўлган талабанинг шахсий фаолиятидир.

Кўриб чиқилаётган таълим жараёни ижтимоий-шахсий, ижтимоий-фаолиятли ва ижтимоий-маданий йўналганлик билан тавсифланади, бу тилни ўргатишга йўналтиришда ўз аксини топади:

• тил ўрганувчи шахсга унинг ривожланиши ва ўз-ўзини ривожлантириши учун шарт-шароитларни таъминлаш;

• тил ўргатишнинг маҳсулдорлиги;

автоном, масъулиятли, ижтимоий фаол, ижодий шахсни шакллантириш;

• ўрганилаётган тилдан фойдаланиб, реал, ижтимоий фаолият турига тайёргарлик кўриш;

• ўрганилаётган чет тилини кўп тилли ва кўп маданиятли ривожланишини таъминловчи лингвомаданий ва маданий таълим (Н.Ф.Коряковцева [3, 19 б.].

PIRLS сингари халқаро дастурларни бизнинг таълим тизимимизга кириб келиши билан ўқитувчи ва ўқувчини интенсив ривожлантириш, уларнинг ўзаро фаолияти ва мулоқотини демократлаштириш, таълим жараёнини инсонпарварлаштириш, ўқувчини ўз-ўзини шакллантиришга йўналтириш, таълимнинг моддий техника базасини модернизациялаш каби муҳим вазифалар бажарилади.

Таълимда замонавий педагогик технологияларга асосланиш ва инновацияга интилиш, ўқувчиларни фаоллаштиришга қаратилган турли интерфаол методлардан фойдаланиш, таълим мақсад ва мазмунини самарали амалга оширишга ёрдам беради. PIRLS халқаро дастурининг ҳозирги замондаги аҳамияти чуқур интеграция жараёнлари, халқаро ҳамкорликнинг мисли кўрилмаган юксалиши билан тавсифланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сонли “Ўзбекистон республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони.
3. Коряковцева Н.Ф. Европейский языковой портфель для России — новая образовательная технология в области обучения иностранным языкам. Учебное пособие по курсу теория обучения иностранным языкам — М.: МГЛУ, 2009. — 153 с.
4. Манухина Ю.В. Формирование социолингвистической компетенции в процессе овладения формулами речевого этикета: Дисс. канд. пед. наук/ Ю.В.Манухина. - М., 2006. - 267 с.

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY MULOHAZA VA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

D.H.Baxramova

ORIENTAL UNIVERSITETI magistranti

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarda tanqidiy mulohaza va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati, kreativ fikrlashni rivojlantirishning zaruriy shartlari haqida ayrim mulohazalar bayon etilgan.

Калит сўзлар: танқидий мулоҳаза, креативлик, ижодий фикрлаш, мантиқ, далил.

Аннотация. В статье изложены некоторые соображения о важности формирования у учащихся навыков критического суждения творческого мышления, необходимые условия для развития творческого мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, креативность, творческое мышление, логика, аргументация.

Annotation. The article presents some considerations on the importance of developing students' skills of critical judgment and creative thinking, the necessary conditions for the development of creative thinking.

Key words: critical thinking, creativity, creative thinking, logic, reasoning.

Maktab ta'limi rivojlanishining hozirgi bosqichi uning mazmunini aniqlashga yondashuvlarni sifat jihatidan o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu o'quvchi shaxsini rivojlantirish g'oyasiga asoslangan o'qitishning yangi konsepsiyasining shakllanishi bilan bog'liq. Mazkur konsepsiya o'quv jarayoniga pedagogik yondashuvlarning tubdan o'zgarishini anglatadi, bunda bilimlar shaxsni rivojlantirish mexanizmlarining ularni o'zlashtirish jarayoniga kiritilgandagina to'liq bo'lishi mumkin.

O'quvchilar orasida **tanqidiy** va **kreativ** fikrlashning mavjudligi jamiyatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar muvaffaqiyatining asosidir, shuning uchun uni maktab ta'limining quyi bosqichi – boshlang'ich ta'limning o'quv jarayonida shakllantirish va rivojlantirish ta'lim tizimining yetakchi vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Bugungi kunda tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega, o'rnashib qolgan fikr va mulohazalarni shubha ostiga qo'yishga qodir, suhbat va munozara o'tkazish, muammoning mohiyatini va uni hal qilishning muqobil usullarini aniqlash, haqiqatni taxmin va shaxsiy fikrdan ajrata oladigan mehnatda raqobatbardosh va talabga ega shaxs – bozor talabi qonun-qoidalariga javob bera oladi.

Bugungi kunda maktab ta'limida o'quvchilarning bilim olishi, birgalikda qaror qabul qilishda ishtirok etishi, mantiq, argument va dalillarni tahlil qilishi hamda rivojlantirish ko'nikmalarini oshirish muammosi muhimligicha qolmoqda.

Tanqidiy fikrlash - bu ma'lumotni obektiv tahlil qilish va oqilona xulosa chiqarish qobiliyati. Shuningdek, tanqidiy fikrlash deduktiv mulohazalarga asoslanib, mavzu bo'yicha ma'lumot to'plashni va mavzuga tegishli bo'lgan ma'lumotlarning qaysi biri mos kelmasligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash qobiliyati odamlarga ham shaxsiy, ham professional hayotda yordam beradi va ko'pchilik ish beruvchilar tomonidan qadrlanadi. Bugungi jamiyatda tanqid qiluvchilar judayam ko'p, lekin jamiyatga tanqid qilganida aniq bir yechim beradigan faol fuqarolar kerak.

O'qitishning yangi standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchilardan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi.



1-rasm. Tanqidiy fikrlashning yetti muhim xususiyati

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda “ijod” ma’nosini anglatadi. Kreativlik yangi, original (o‘ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma’naviy bog‘liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘quvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotidagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkin.

O‘quvchining kreativligi, bu uning turli sharoitlarda, har xil yo‘nalishlar va fan mavzusi doirasida, yangi bilim va ko‘nikma egallashda, turli vaziyatlarda har xil original g‘oyalarni izlab topish layoqatidir.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan kreativ tarkibiy komponentlarni va kreativ layoqatning qismlarini ko‘rish mumkin.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari



2-rasm. Shaxsga xos kreativlik sifatlari

O‘quvchidagi kreativlikni rivojlantirishdan oldin unga ta’lim berayotgan o‘qituvchining ham fikrlashi kreativ bo‘lishi, albatta, muhim rol o‘ynaydi. Demak, o‘quvchilardagi kreativlikni rivojlantirish uchun ularga ta’lim beruvchi o‘qituvchilarning fikrlashini kengaytirish, ulardagi kreativlik va tanqidiy mulohaza yuritishni o‘rgatishdan iboratdir.

O‘qituvchilar ta’lim mazmunidagi yangiliklardan qo‘rqmasligi kerak. Doktor Devid L. Kioza AQShdagi Jorjiya Universiteti assistanti aytganidek: “5-10 yil oldin biz o‘qituvchilarning vazifasini faqat bilim va ko‘nikmalarni tarqatish deb o‘ylardik, bugun esa ularning zimmasiga nafaqat bilim berish, balkim ularni shaxs sifatida hayotga har tomonlama shakllantirish ham yuklatilgan. Agar o‘quvchilarning ijtimoiy emotsional tuyg‘ularini hisobga olmasangiz, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati bo‘lmaydi”[1]. Hozirda Milliy o‘quv dasturlari asosida yaratilayotgan darsliklarni ham o‘rgatishda bu fazilatlar o‘ta muhim hisoblanadi.

O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishimizda asosan 20 ta aniq hayotiy ko‘nikmani o‘quvchiga singdirishimiz lozim. Bularga Vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga sadoqat, faol fuqarolik, mutoala qilish, moliyaviy savodxonlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tanqidiy mulohaza, fikrlash, muloqat qilish, AT, mediasavodxonlik, jamoada ishlash, hayot xavfsizligi, bag‘rikenglik, xayrixohlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, liderlik, ekologik madaniyat kiradi. Ko‘nikmalarining ichida ijodkorlik va tanqidiy fikrlash eng muhimlari hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozoriga biz tayyorlagan o‘quvchilar, albatta, shunday sifatlar va ko‘nikmalarni o‘zida shakllangan bo‘lishi kerak.

O‘quvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Karl Rensom Rodjersning “Ijod – o‘z-o‘zini kuchaytirish demakdir” nomli asarida ijodiy shaxs uchun quyidagi eng asosiy ta’rif beriladi: **kreativlik** o‘quvchilarning ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo‘nalishi va o‘zini boshqara olishida ko‘rinadi hamda uni o‘zini faolligi, o‘zini-o‘zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o‘sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi [2].

Odamlarning turmush tarzini yaxshilashning yagona yo‘li ilm-u fanning eng so‘nggi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilishdir. Shundagina mehnat unumdorligining, ya’ni kishi boshiga ishlab chiqariladigan mahsulotlarning hajmi ortadi. Bu esa daromadlarning ortishiga olib keladi. Davlat budjetiga qo‘shimcha mablag‘ tushib ijtimoiy sohaga — ta’limga, ilm-u fanning rivojlanishiga ko‘proq mablag‘ ajratilishiga imkon tug‘iladi. Barcha rivojlangan mamlakatlar aynan shu yo‘sinda ish tutishgan. Buyuk bobomiz Imom al-Buxoriy iboralari bilan aytganda: “Ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay”.

Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti ishlab chiqarishning yangi yo‘nalishlarini va bu yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi malakali mutaxassislarni tayyorlashni ham taqozo etadi. Ularni tayyorlash va qayta tayyorlash ulkan mablag‘lar sarflanishiga olib keladi. Ushbu vaziyatda sarflanadigan mablag‘ni kamaytirish, umuman olganda esa yangi sohalar ehtiyojini qondira oladigan

mutaxassislar tayyorlashning boshqa yo‘li bormi? – degan savol tug‘iladi. Bor, agar mutaxassislarning o‘zi yangi texnologiyalarni yaratsa, bu muammoning eng maqbul yechimi bo‘ladi. Buning uchun ular quyida berilgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

– ulkan ma’lumotlar oqimidan eng dolzarblarini ajrata bilish va unga aloqador bilimlarni egallash;
– egallagan bilimlariga tayanib eng muhim muammolarni ajrata bilish;
– mavjud bilimlarini yangi vaziyatda qo‘llay olish;
– muammolarning yechimlarini topib, ularni ishlab chiqarishga tatbiq eta olish.

Bunday talablarga javob beradiganlarni “ijodiy fikrlovchi” mutaxassis deyiladi.

Ijodiy fikrlovchi mutaxassislar faqat ishlab chiqarish texnologiyalarining doimiy ravishda yangilanib turishiga tayyor turmasdan, balki vujudga keladigan muammolarni aniqlab, ularni yechishdan ruhiy qoniqish ham oladilar. Inson faoliyatining barcha sohalarida, xoh u ishlab chiqarish bo‘lsin, xoh madaniyat va san’at, xoh ilmiy yoki pedagogik faoliyat bo‘lsin “ijodiy faoliyat” yuqori baholanadi va rag‘batlantiriladi. Chunki u har qanday faoliyat samaradorligining ortishiga olib keladi. Shuning uchun ham “ijodiy faoliyat” bilan shug‘ullanuvchi, ya’ni “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalariga ega mutaxassislar doimo yuqori baholanib kelingan. Hozirgi paytda esa ularning bahosi yanada ortmoqda.

“Ijodiy fikrlash”ni o‘rgatish esa ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. “Ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillariga ham o‘zgartirishlar kiritish kerak. Endi ta’lim beruvchi faqat ma’lumotlar berish bilan shug‘ullanib qolmasdan o‘quvchilarga “ijodiy fikrlash” usullarini o‘rgata olishi, o‘zi ham “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalariga, ta’lim oluvchi esa “ijodiy fikrlash” usullarini o‘rganishga tayyor, tegishli motivatsiyaga ega bo‘lishlari lozim. Bularning hammasi ta’limga yangi didaktik tizim – “ijodiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik texnologiyalarini”, ya’ni ta’limning yangi uslublarini joriy qilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. David L. Chiesa. Applied Linguistics. T.:Georgea state university. 2008 y.
2. Carl Ransom Rogers. Creativity means self-empowerment. Boston: Houghton Mifflin, 1961

O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPITENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TA’LIM USULLARINING O‘RNI

Yusupova Nodira Firnafasovna
O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Yunusobod tumani 302-sonli maktabo‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim sifati va mazmunini oshirish bo‘yicha takliflar, darslarni to‘g‘ri tashkil etish va loyihalashtirish yo‘l-yo‘riqlari hamda interfaol usullar bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetansiya, kommunikativ tafakkur, “FSMU”, “Raqamli poyezd”, “Tasavvurimdagi rasm”, “Kim oshdi savdosi” va boshqalar.

O‘qivchilar kompitensiyasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanib ulgurdi. Ta’lim sohasidagi har bir xodim o‘z ustida ish olib borar ekan, davlat qo‘yayotgan talablarni bajarishga majburdir. Binobarin, ta’lim tizimida har xillik o‘z natijasini bermaydi. O‘ziga ishongan ta’lim xodimi turli metodlarni mohirona qo‘llab, shunday darslarni qoyilmaqom qilib o‘tib qo‘yayotganligi ham aslida bor gap. Bu holatdan bitta haqiqatni ochish mumkinki, har qanday pedagog ham dars o‘tishi mumkin, biroq darsda metodikani qoyilmaqom qilib ifoda etishi amrimahol.

Darhaqiqat, bugungi ta’lim ana shunday bilimli, ijodkor, mehribon va samimiy ustozlarni “o‘z davrasi”ga chorlamoqda. Ta’lim tizimiga oid hujjatlarda aks ettirilayotgan turli tavsiyalar va usullar deyarli har kuni qulog‘imizga chalinib turadi. Shunday ekan, nomlari juda tanish bo‘lib ketgan turli metodlarning bugungi kundagi ahamiyati va roli qay ahvolda ekanligi hammani e’tiborida. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, har bir metodni o‘z roli va funksiyasi bor, biroq bulardan har birimiz qay darajada foydalanmoqdamiz? Ularni asl madsadida ishlatayapmizmi, aniqroq qilib aytganda ularni qoidasi bo‘yicha bosqichma-bosqich ishlata olayapmizmi? Yoki har bir o‘qituvchi o‘z imkoniyat darajasida ishlatayapdimi?

Har bir metod nimaga qaratilganligini bilib olish va uni shu yo‘nalishdagina ishlatish o‘quvchilarda kompitentlikni yuzaga keltiradi. O‘qituvchi dars jarayonida o‘z metodini tanlab oladi va shu usulda darsni qiziqroq o‘tilishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda o‘zbek tili fani o‘qituvchilarining ham yangilikka juda intiluvchanligi ta’lim samaradorligini oshirish borasida yaqqol sezilmoqda.

Bugungi kun pedagogikasi pedagoglarning malakasidan, mahoratidan tashqari ta’lim oluvchilarning talablarini ham hisobga oladi. Demak, kecha biz uchun qiziq tuyulgan yangi metod bugun o‘z samarasini bermasligi mumkin. Darhaqiqat, bizning o‘zimiz ham yangiliklarga doim ehtiyoj sezganmiz.

“Idrok xaritasi”, “Charxpalak”, “Umumiy nuqta”, “SWOT”, “FSMU” kabi texnologiyalarni har qanday darslarda qo‘llash, ularni samarali tashkil etish yo‘llarini yaxshi bilish, qoyilmaqom tarzda o‘quvchiga yetkazib berish va har bir pedagog uchun karakli bo‘lgan ijodkorlik uning saviyasini belgilaydi, qolaversa, o‘quvchilarda shu yo‘nalish bo‘yicha turli kompitensiyalarni vujudga keltiradi. Bugun pedagog men nimaga qodirman? Men bolaga nimalarni o‘rgata olaman? Mening mehnatimni kim va nima uchun qadrlashadi? Kabi savolarni berib turishligi ham foydadan holi ish emas. Darhaqiqat, inson oldinga qarab intiladi.

Darslarning kirish va asosiy qismlarida quyidagi interfaol metodik mashqlarni ishlatish ham foydadan holi bo‘lmaydi.

Raqamli poyezd mashqi. Bu mashqni odatda mustahkamlash darslarida o‘tkazish mumkin. Poyezd rasmi chizib qo‘yiladi. Har bir vagon raqamlab chiqiladi. Har bir raqam ostidagi vagonda terli miqdordagi harflar yashiringan bo‘ladi. O‘quvchi (ishtirokchi) chiqib bironta vagonni tanlaydi. Vagon ichidagi harflar o‘quvchiga taqdim etiladi. Tadqim etilgan harflardan zudlik bilan so‘zlar hosil

qilishadi. Hosil qlingan so‘zlarni mavziga aloqadorligini izohlab berishi lozim. Mashqning davomi sifatida topilgan so‘zlar yuzasidan xotira mashqini ham o‘tkazish mumkin. Masalan, topilgan so‘zlar qaysilar ekanligini so‘rab, kim ko‘p so‘z eslab qolganligini so‘ralsa ham bo‘ladi. Bu usul bilan xotirani ham mustahkamlash mumkin.

Hosil bo‘lgan so‘zlardan gaplar ham tuzish mumkin. Tuzilgan gaplarni tahlil qilish lozim. Tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning bilimlarini takrorlash orqali oshirishga erishiladi. Vazifani to‘gri bajarga o‘quvchilar baholanadi.

Tasavvurimdagi rasm mashqi. Asosan, tasavvur qila olish qobilyatini tekshirishga qaratilgan bu mashq rasm chizish qobilyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Har qanday yoshdagi bolalarga(hatto kattalarga) mo‘ljallangan bu usul ularni tasavvurlarini tekshiradilar. Tasavvur qilish natijasida hosil bo‘lgan bilimlarini mashq so‘ngida so‘zlab berishlari kerak. Bunda esa nutqiy qobilyatlari baholanadi. Maqsad tasavvurni kengaytirish va nutqini o‘stirishdan iborat.

Mashqni quyidagicha amalga oshirish mumkin: Dastlab turli so‘zlar yozilgan kartochkalardan tayyorlanadi. Keyin o‘quvchilardan biri shartni bajarish uchun chiqadi. O‘sha o‘quvchi so‘zlar yozilgan kartochkalardan birini tanlaydi. Tanlangan so‘zning rasmini chizib ko‘rsatishi kerak. O‘quvchilar qaysi so‘z yashiringanligini topishadi. So‘zlar qiyinlik darajasiga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin: do‘stlik, tutun, sim, rasm, og‘riq, bilim, kitob, sharf, osmon, tabiat…

Kim oshdi savdosi mashqi. Odatda har bir mashqning tagida manfaat yotadi. Yoki o‘qituvchi, yoki o‘quvchi, yoki har ikkalasining ham manfaati. Bu metodik mashq hammaning manfaati uchun xizmat qiladi. Iqtisodiyot fani bilan bog‘liq bu metodik mashq darsni qiziqarli tashkil etish uchun asos bo‘lsa ajabmas. Mashqni o‘tkazish har qanday yoshdagi o‘quvchilarga mos tushadi. Bu usulni bosh maqsadi o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishdan iborat. Kim oshdi savdosini hamma ko‘rgan. Faqat buni fanda quyidagicha qo‘llash kerak: Dastlab kim oshdi savdosiga qoyiladigan yutuq aytiladi(kitib, daftar, ruchka, qalam, baho…). So‘ngra savdoga qo‘yiladigan fan yoki mavzu tanlanadi. Masalan: sintaksis yoki ot. Kim ot haqida ma’lumotlar aytadi deb so‘raladi. Biron o‘quvchi ot haqida 5 ta ma’lumot aytishi mumkin, kimdir 7 ta, kimdir 15 ta kim ko‘p ma’lumot aytsa, g‘olibga qo‘yilgan yutuq taqdim qilinadi. Ma’lumotlar aytish kim oshdi savdosiga qo‘yiladi. Kim ko‘p ma’lumot ayta olishini oshib borish tartibida oshirib borishi mumkin. Eng ko‘p ma’lumot aytmoqchi bo‘lgan o‘quvchi ayta olmasa, undan avvalgisi g‘olin hisoblanadi va u aytadi. Metodik mashq shu tartibda amalga oshiriladi. Asosan yutuqlar baho tarzida ham bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quvchilar kompitensiyalarini shakllantirishda interfaol usullarni qo‘llash ularda ijodiy tafakkurni shakllantiradi, dunyoqarashini o‘zgartiradi. O‘qituvchining dars samaradorligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шерайзина, Р.М. Педагогический анализ и экспертиза инновационной деятелности учителя / Р.М. Шерайзина, А.Е. Марон. – Новгород.: 1994. – 128 s.

2. Зимняя И.А. Компетентностный подход. Каково его место в системе

подходов к проблемам образования? // Высшее образование сегодня. 2006. №8. – с. 20–26.

3. Торрансэ Э.П / Мактаб тажрибаси орқали ижодий фикрлашни ривожлантириш // -НВ, 1962. – С 215

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O‘RNI

Gaffarova Nilufar

Toshkent shahri Yunusobod tumani, 258-umumta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi

Anotatsiya. Maqolada ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun AKT vositalaridan foydalanish va turli fanlardagi yutuqli omillari keltirilgan. Darslarda o‘quvchilarning diqqatini va boshqarish va faolligini oshirishda AKTning o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot texnologiyalari, texnik afzalikklar, interfaol dars, multimedia, taqdimot.

Annotation: The article presents the use of information and communication technology tools for the effective organization of the educational process and the success factors in various subjects. The lessons provide information about the role of information and communication technologies in increasing the attention and management and activity of students.

Keywords: Information technologies, technical advantages, interactive lesson, multimedia, presentation.

O‘quvchilarga bilim berishda va uni ularda fanga oid tushunchalar hosil qilishda AKT vositalarining o‘rni benihoya kattadir. Hozirgi vaqtda o‘quvchilarni dars davomida diqqatini bir joyga qaratish va samarali ta’lim berish texnologiyalari muhim amaliy masalalardan biridir. Biz bu jarayonni o‘rganish davomida quyidagilarga ega bolishimiz mumkin. Axborot texnologiya sohasi orqali ularni darsga jalb qilish va yangi metodik jarayonlarni tashkillash orqali erishishimiz mumkin. Zamonaviy o‘qituvchi ham kompyuter texnikasini, ham axborot texnologiyalarini mukammal bilishi zarur.

Hozirgi vaqtda kompyuter savodxonligini oshirish uchun turli xil imkoniyatlar mavjud: maktabdan tashqari uzluksiz ta’lim kurslari, maktab ichidagi kompyuter kurslari, tengdoshlar o‘rtasida ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash.

O‘qituvchi tomonidan AKTni o‘zlashtirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- tanishuv- AKTdan foydalanishning umumiy usullarini egallash;
- foydalanish- aniq muammolarni hal qilish uchun tayyor elektron ta’lim resurslaridan foydalanish;
- integratsiya- AKTdan foydalanish orqali o‘qitish texnologiyasini o‘zgartirish;

- transformatsiya- ta'lim mazmunini o'zgartirish, o'zining elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish.

O'qituvchilarning axborot kompetentsiyasini rivojlantirish muassasaning o'quv amaliyotiga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, birinchi navbatda AKT va dizayn texnologiyalarini joriy etish shartlaridan biri bo'lib, ular quyidagilarga yordam beradi:

- o'quvchilarning axborot kompetentsiyasini rivojlantirish;
- boshqa fanlar axborot bazasida AKTni o'rganishda ham, fan darslarida AKTdan foydalanishda ham fanlararo aloqalarni amalga oshirish;
- ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish;
- o'quvchilarng kognitiv faolligini oshirish;
- mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish;
- jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning o'zini o'zi qadrlashini sozlash;
- o'quvchilarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash;
- baholash qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqalar.

AKTdan foydalanish natijalari o'quvchilar va o'qituvchilarning har tomonlama kamol topishi, o'quv jarayonini yuqori metodik darajada tashkil etish, ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishdir.

Darsda AKTdan foydalanish usullari juda xilma-xil bo'lib, ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- multimedia ko'rinishida axborot materiallarini taqdim etish (illyustratsiyalar, videokliplar, ovozli yozuvlar, taqdimotlar va boshqalar);
- ob'yektlar, hodisalar va jarayonlarning modellarini interfaol rejimda o'rganish (interaktiv modellar, virtual laboratoriyalar, tabiiy fanlar sikli sub'ektlari uchun konstruktorlar);
- mustaqil izlanish uchun sharoit yaratish, mustaqil ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish, taqdimot ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkonini beruvchi AKTdan foydalangan holda loyiha faoliyatini tashkil etish;
- tabiatshunoslik eksperimentlarini o'tkazishda, tajriba natijalarini qayta ishlashda va hisobot tayyorlashda elektron jihozlardan foydalanish;
- o'quv, ijodiy, tadqiqot vazifalarini hal qilish; axborot-qidiruv faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish;
- xolis va tezkor baholashni amalga oshirish va boshqalar.

Sinflar sonining ko'pligi va kompyuter jihozlarining yetarli emasligi bilan AKTdan foydalangan holda darsni tashkil etish muammoli bo'lishi mumkin. Maktabning texnik ta'minoti asosida AKTdan foydalangan holda darsning tashkiliy shakli quyidagilar bo'lishi mumkin:

- o'rganilayotgan materialni kompyuterda namoyish qilish va illyustratsiya qilish, loyiha faoliyati natijalarini taqdim etish uchun bitta shaxsiy kompyuter va proyektor (yoki interfaol doska) yordamida sinfda frontal ish;
- laboratoriya, ijodiy, nazorat va boshqa mustaqil ishlarni tashkil etish uchun

10-12 ish o‘rinlari uchun kompyuter sinfida individual va guruh ishlari.

AKTdan foydalangan holda aniq darsda talabalarning mehnatini tashkil etish shakli kompyuter sinfidagi ish o‘rinlari soni, o‘quvchilarning texnologik tayyorgarlik darajasi, o‘quv materialining mazmuni, darsning maqsad va vazifalari bilan belgilanadi.

Har bir o‘quvchi individual kompyuterda (ehtimol kichik sinf yoki kichik guruhlarga bo‘lingan holda) eng yaxshi variantdir.

Hisobotni taqdim etish bilan o‘quvchilarning individual uy vazifasi elektron formatda (ehtimol katta sinf aholisi, uy kompyuterlari va o‘quvchilarning yuqori ta’lim motivatsiyasi bilan) - maqbul variant.

Vazifalarni juftlarga taqsimlash (ehtimol, kompyuterlar sonidan ikki baravar ko‘p bo‘lmagan o‘quvchilar soni va shakllangan o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari bilan) kompyuterda juftlashtirilgan ishlash zaif sinf uchun maqbul variantdir.

2-3 guruh o‘quvchilari uchun kompyuterda smenali ishlash (ehtimol, o‘quvchilar soni kompyuterlar sonidan 2-3 baravar ko‘p bo‘lsa va ko‘pchilik o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalari shakllangan bo‘lsa) sinf to‘la bo‘lganda optimal hisoblanadi. Darsda AKT dan samarali foydalanish uchun bir qator talablarga rioya qilish zarur: darsda ESM ning didaktik roli va o‘rnini to‘g‘ri belgilash; darsning puxta o‘ylangan tashkiliy shakllaridan foydalanish; kompyuterda ishlashda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda va sanitariya me'yorlariga rioya qilgan holda AKTdan foydalanishning turli shakllari va usullarining oqilona kombinatsiyasi.

AKTdan foydalangan holda darsga yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rayotganda o‘qituvchi quyidagi algoritmga amal qiladi:

- darslik va qo‘shimcha qo‘llanmalar materialini o‘rganish;
- texnik imkoniyatlarni baholash (uskunalar mavjudligi, informatika xonasining ish vaqti va boshqalar).

Mavjud ERM ni darsning maqsad va vazifalariga muvofiq tanlang.

Agar kerak bo‘lsa, etishmayotgan ESMni mustaqil ravishda ishlab chiqing, buning uchun mutaxassislar va o‘quvchilarni jalb qiling.

Darsdan oldin tanlangan barcha materialni ko‘rib chiqing va tinglang, vaqtni belgilang va dars ssenariysini tuzing.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan, jumladan, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim jarayonida reproduktiv faollik ulushini qisqartirish orqali bolaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish, o‘z navbatida, o‘rta ta’lim sifatini pasaytirishning asosiy sharti sifatida qaralishi mumkin. O‘quvchilarning o‘quv yuklamasi, o‘quv vaqtidan unumli foydalanish.

Matematika darslarida AKTdan foydalanish ish shakllarini, o‘quvchilar faoliyatini diversifikatsiya qilish, diqqatni faollashtirish, shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi. Taqdimotda diagrammalar, jadvallar qurilishi

vaqtni tejash, materialni yanada estetik jihatdan loyihalash imkonini beradi. Illyustratsiyalar, chizmalar va boshqalardan foydalanish. Darsga qiziqishni rivojlantirish; darsni qiziqarli qilish. Matematika darslarida AKTdan foydalanish turli illyustrativ, informatsion materiallardan foydalanish imkonini beradi.

Multimedia loyihasi yordamida Microsoft Power Point dasturida yaratilgan slaydlar va taqdimotlar namoyish etiladi. Ushbu texnologiyadan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- trening davomida ko‘rish darajasini oshirish;
- o‘quv jarayonini jonlantirish, o‘yin-kulgi elementlarini qo‘shish;

Oxirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, odamlar bir vaqtning o‘zida eshitgan narsalarining 20 foizini, ko‘rganlarining 30 foizini va ko‘rgan va eshitganlarining 50 foizdan ortig‘ini o‘zlashtiradilar. Shuning uchun AKT elementlari juda muhim va an'anaviy darsga kiritilishi kerak.

Zamonaviy o‘qituvchining malakasi ta’lim makonida samarali hamkorlik qilish imkoniyatini ta’minlaydigan va buning uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarga bog‘liq bo‘lgan murakkab shaxsiy resursdir.

Matematika darslarida AKTdan foydalanish ish shakllarini, o‘quvchilar faoliyatini diversifikatsiya qilish, diqqatni faollashtirish, shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi. Diagrammalarni qurish, taqdimotdagi jadvallar vaqtni tejash, materialni estetik jihatdan yoqimli qilish imkonini beradi. Illyustratsiyalar, chizmalar va boshqalardan foydalanish. darsga qiziqishni rivojlantirish; darsni qiziqarli qilish. Texnologiya darslarida AKTdan foydalanish turli illyustrativ, informatsion materiallardan foydalanish imkonini beradi. Mehnat ta’limi texnologiyalari dasturining alohida mavzu va bo‘limlarini o‘rganishda AKTdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu quyidagi omillarga bog‘liq:

Ushbu ta’lim yo‘nalishi, birinchi navbatda, materiallarni qayta ishlash, modellashtirish va loyihalash usullari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishni ta’minlaydi. Binobarin, darsda o`quvchilarning amaliy faoliyatiga ko`proq vaqt ajratilishi kerak.

Maktab media kutubxonasida multimedia disklari yetarli emas. Mavjud disklar tor tematik fokusga ega va bir qator afzalliklardan xoli emas. Dasturchilarning kasbiy mahorati, chiroyli grafikalar, ular yaxshi animatsiyani o‘z ichiga oladi, ko‘p funktsiyali va hokazo. Ularning yordami bilan darsda o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan barcha maqsadlarga erishish mumkin emas.

Sinf taxtasida qilingan barcha qaydlar va eslatmalar bilan dars davomida bajarilgan barcha ishlarni keyinchalik ko‘rish va tahlil qilish uchun kompyuterda, shu jumladan video shaklida saqlash mumkin. Interfaol doska bilan ishlaydigan o‘qituvchi axborot uzatishning turli shakllari - vizual va audio kombinatsiyasi orqali materialni idrok etish darajasini oshirishi mumkin. Dars jarayonida u yorqin, rang-barang sxemalar va grafikalardan, ovoz bilan birga animatsiyadan, o‘qituvchi yoki o‘quvchining harakatlariga javob beradigan interfaol elementlardan foydalanishi

mumkin. Agar kerak bo‘lsa, guruhda ko‘rish qobiliyati zaif o‘quvchilar bo‘lsa, o‘qituvchi doskada tasvirlangan u yoki bu elementni kattalashtirishi mumkin. Ko‘rinish va interaktivlik interaktiv doskaning asosiy afzalliklari hisoblanadi. Interfaol doskalar yangi avlod maktab o‘quvchilarini, kompyuterlar va uyali telefonlarni ajratib turadigan ma’lumotlarni idrok etish usuliga mos keladi, ular testlarga, mustaqil ishlarga talabchanroq.

Shunday qilib, yangi axborot texnologiyalari, uslubiy jihatdan malakali qo‘llanilishi, o‘quvchilarning bilim faolligini oshirish, shubhasiz, o‘qitish samaradorligini oshirishga olib keladi.

Axborot va aloqa vositalaridan foydalanish o‘quv jarayonidagi texnologiyalar (AKT) quyidagilarga yordam beradi:

- Talabalarning o‘rganilayotgan fanga qiziqishini rivojlantirish;
- Materiallar tayyorlashda, adabiyotlar bilan ishlashda, sinfdan tashqari ishlarda talabalarning faolligi va mustaqilligini rag‘batlantirish;
- Muammolarni muhokama qilishda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Bilimlarning ob’yektiv nazoratini, o‘quvchilar tomonidan materialni o‘zlashtirish sifatini ta’minlash.

Kompyuterlar vaqtni tejashga va ishni samaraliroq qilishga yordam beradi: ma’lumot qidirish, ko‘proq muammolarni hal qilish (va uy vazifalarini qisqartirish), natijalarni tahlil qilish, kompyuterning grafik imkoniyatlaridan foydalanish, o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fanga qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi, kognitiv va rag‘batlantiradi. o‘quvchilarning ijodiy faoliyati va mustaqilligi, muloqot qobiliyatlarini shakllantirish, bilimlarni ob’yektiv nazorat qilishni ta’minlash, o‘quvchilar tomonidan materialni o‘zlashtirish sifati.

AKT quyidagi afzalliklarga ega:

- vizual ravshanlik samaradorligini oshiradi;
- ko‘rinishdan frontal ish uchun ham, individual faoliyat uchun ham foydalanish imkonini beradi;
- vizual va eshitish idrok qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda (nafaqat harakatsiz tasvirlar, balki animatsiya va ovoz ham);
- internet qo‘shimcha ma’lumotlarga kirish va undan foydalanib, vazifalar turlarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi;
- elektron darslik bilan ishlash o‘rganilayotgan materialni ishlab chiqish, o‘qitish va nazorat qilishni yanada aniq tashkil etish imkonini beradi;
- talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyatini diversifikatsiya qilish (taqdimotlar, loyihalar, tezislar va boshqalar yaratish) imkonini beradi;
- axborotni to‘plash va saqlashning ixchamligi; harakatchanlik; erishish qiyin bo‘lgan materiallarni namoyish qilish (virtual laboratoriyalar, virtual ekskursiyalar va boshqalar);
- ishning barcha bosqichlarida o‘z-o‘zini sinab ko‘rish uchun eng keng imkoniyatlarni beradi; natijalarni tez qayta ishlash;

- turli xil mehnat shakllari tufayli bilimlarni oʻzlashtirishda kognitiv faollik va motivatsiyani oshirishga yordam beradi;
- oʻquvchilar mustaqil ishi nazorat qilinadi va boshqariladi;
- AKT sizga oʻqituvchi tajribasini, ma'lum bir oʻquv fanini oʻqitish modelini boshqa oʻqituvchilarga osongina kengaytirish imkonini beradi.

Yangi materialni taqdim etishda taqdimot mening yordamchimga aylanadi, chunki taqdim etilgan material qisman slaydlarda koʻrsatilgan va men shunchaki uni toʻldirishim, eng qiyin daqiqalar va tasvirlarga sharhlarim va tushuntirishlarimni berishim kerak.

Oʻquv jarayonida multimediali taqdimotlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, uslubiy mashgʻulotlarga sarflangan vaqtni tejash imkonini beradi.

Taqdimotlardan yangi materialni tushuntirishda, oʻtgan materialni takrorlashda va joriy bilim nazoratini tashkil qilishda (taqdimot-soʻrovlar) foydalanish mumkin. Soʻrov taqdimotlari talabalarga qaratilgan topshiriq-savollarni oʻz ichiga oladi, ular oʻtilgan mavzu boʻyicha asosiy tajribalarni aks ettiruvchi yoki oʻrganilgan narsalarni namoyish qiluvchi materiallarni oʻz ichiga olishi mumkin. jismoniy hodisa. Oʻquvchilarga berilgan savol slayd sarlavhasida boʻladi, sharhlar va raqamlarga tushuntirishlar taqdimot davomida oʻqituvchi tomonidan beriladi. Bunday taqdimot-soʻrovlar talabalarning frontal ogʻzaki soʻrovi yoki frontal individual yozma soʻrovi (nazorat ishi, yozma test ishi, mustaqil ish) uchun moʻljallangan boʻlishi mumkin.

XULOSA

Shubhasiz, zamonaviy maktabda kompyuter barcha muammolarni hal qilmaydi, u faqat koʻp funktsiyali boʻlib qoladi. texnik vositalar oʻrganish. Oʻquv jarayonidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar muhim ahamiyatga ega boʻlib, ular nafaqat har bir oʻquvchiga ma'lum bir bilim zaxirasini "investitsiya qilish" imkonini beradi, balki, birinchi navbatda, talabalarning bilim faolligini namoyon qilish uchun sharoit yaratadi. Ammo axborot texnologiyalari toʻgʻri tanlangan (yoki ishlab chiqilgan) oʻqitish texnologiyalari bilan birgalikda oʻqitish va tarbiyaning zaruriy sifati, oʻzgaruvchanligi, differentsiatsiyasi va individuallashuv darajasini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malaxovskiy V. Tanish va notanish raqamlar. - Kalinigrad: FGUIPP, 2004.

2. Buxalina M., Mosiyeva V. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. - M., 2000.

3. Beknazarova M., Matematika darslarida akt texnologiyalaridan foydalanish. -G., 2018.

РАҚОБАТ СТРАТЕГИЯСИ ВА УНИ АМАЛГА ОШИРИШ ФУНКЦИЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ҳамид Ботиров
А.Авлоний номидаги миллий-тадқиқот институти илмий ходими

ХАРАКТЕРИСТИКА КОНКУРЕНТНОЙ СТРАТЕГИИ И ФУНКЦИИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ

Научный сотрудник Национального исследовательского
института им. А. Авлони
Хамид Ботиров

CHARACTERISTICS OF THE COMPETITIVE STRATEGY AND THE FUNCTION OF ITS IMPLEMENTATION

Researcher at the National Research Institute. A. Avloni
Hamid Botirov

Аннотация: Рақобат стратегиясининг тушунчаси ва уни амалга оширишда функцияларни роли жараёнларда таҳлил этилган. Асосан ижтимоий соҳада рақобатнинг муҳимлиги ҳамда уларнинг функционал жиҳатлари ўрганилган.

Калит сўзлар: бошқарув стратегияси, ихтисослашган стратегия, рақобат стратегияси, инновациян, тенглик, тақсимлаш функицялари.

Аннотация: Анализируется понятие конкурентной стратегии и роль функций в ее реализации в процессах. В основном изучено значение конкуренции в социальной сфере и ее функциональные аспекты.

Ключевые слова: стратегия управления, специализированная стратегия, конкурентная стратегия, инновации, равенство, функции распределения.

Abstract: The concept of competitive strategy and the role of functions in its implementation in processes are analyzed. The significance of competition in the social sphere and its functional aspects are mainly studied.

Keywords: management strategy, specialized strategy, competitive strategy, innovation, equality, distribution functions.

Стратегиялар белгиланган муайян амалий ҳаракатлар ҳисобига амалга оширилади бу “тактика” ёки “ёндашув” деб аталади. Натижада, рақобат соҳасидаги бошқарув ҳаракатларини ўрганиш эълон қилинган стратегиялар ва улар доирасида амалга ошириладиган вазифаларнинг таҳлил қилиш билан боғлиқдир.

Ҳозирги кунда рақобатни бошқариш юзасидан бир нечта стратегияларни келтириш.

Бошқарув стратегияси - бу ҳар қандай соҳа бошқарувида истиқболли режаларни ва аниқ мақсадларни белгилаш, уни амалга ошириш йўллари ва муддатлари, субъектларига асосланган стратегия ҳисоблнанади. Бошқарув стратегилари ижтимоий, иқтисодий, сиёсий фаолиятларни ёки аралаш жараёнларни ўзида акс эттиради.

Ихтисослашган стратегия бу одатдагидек соҳа доирада устунлик қилади. Ихтисослашган соҳанинг кучи унинг маълум бир манфаатларни ҳимоя қилиш ёки соҳа доирасида юқори кўрсаткичларга эришиш учун белгиланадиган мақсад ва вазифалардир. Ушбу турдаги рақобатчилар соҳада ҳар қандай имкониятидан фойдаланишга тайёр, бошқалар билан сифат учун курашилади.

Ихтисослашган рақобатнинг афзалликлари шундаки, соҳада бошқалар қила олмайдиган янгиликларни ёки натижаларни соҳасида кескин ўзгаришлар орқали осон амалга оширилади. Мослашувчанликни ошириш улар учун рақобатбардошлик манбаига айланади. Доимий равишда фойда кўришга ёки натижаларга эришишда намоён бўлади.

Ихтисослашган рақобат бошқалар фаолияти самарасиз бўлган жойда ёки бошқа рақобатчилар етарлича натижани таъминлай олмайдиган жойда юқори натижаларни кўрсатишади. Айнан ихтисослашиш – бу уларнинг кучи ҳисобланади. Масалан мактабларнинг ихтисослашиш, уларнинг нуфузининг шу ихтисослашуви билан белгиланади. Хусусан бунга мисол сифатида Қоракўлдаги Халқаро математика мактабини мисол қилиш мумкин.

Таълим бозорига ихтисослашув хилма-хилликни олиб келади. Рақобатбардош рақиблар билан курашишдан қочиш учун рақобатчилар истеъмолчининг махсус эҳтиёжларни излайдилар ва фаол шакллантирадилар, ностандарт вазиятлардан фойдаланадилар. Улар етакчи ташкилотлар билан тўғридан-тўғри курашишни эмас, балки улар учун мавжуд бўлмаган фаолият соҳаларини қидиришни афзал кўришади.

Бундай стратегия нафақат ихтисослашувда, балки чекланган талабга эга бўлган соҳаларга эътиборни қаратишдан иборат. Истеъмолчининг алоҳида эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда, ташкилот томонидан бутун фаолиятининг афзалликларини ўрганиш ва қондиришга бағишланади. Масалан, ifone мобиле алоқа воситасининг экран ойнаси Хитойнинг BOE Technology Group [1.] компанияси фақат ишлаб чиқиш бидан шуғулланади ва бу соҳада дунёга машҳур лидер ҳисобланади.

Рақобат стратегияси – ишлаб чиқиш учун уни амалга оширишда устувор йўналишларни аниқлаш муҳим аҳамият касб этади. Рақобат стратегияси рақобатбардошликнинг заиф томонларни кучайтиришни ёки бартараф этиш ва кучли томонларни яна ривожлантиришни каби бошқа муваффақиятли тажрибаларни қўллашни талаб этади.

Биринчи марта "рақобат стратегияси" (concurrent strategy) термини АҚШлик иқтисодчи Майкл Портер қўллаган. Унинг таърифича рақобат стратегияси (рақобат стратегияси, рақобатбардош ҳаракатлар стратегияси) узоқ муддатда рақобатбардошликка эришиш ва уни сақлаб қолиш учун компания раҳбарияти фойдаланадиган барқарор хатти – ҳаракатлар модели ва қоидалар ва устуворликлар тўпламидир. [2. P-816]

Рақобат стратегиясини шакллантиришнинг иккита ёндашуви мавжуд: бозорга йўналтирилганлик; ресурсларга йўналтирилганликдир. [3.]

Н.Қ.Йўлдошев, М.М.Азларова, Г.Й.Хўджамуратовалар рақобат

курашида стратегияларни ишлаб чиқишни маркетинг вазифаларини ечишга хизмат қилишини таъкидлайдилар. [4. 138-бет]

Ю.Б.Рубиннинг [5. С-109] назариясига кўра, рақобат стратегиялари компаниялар томонидан стратегик мақсадларга эришишни таъминлаш воситалари (эришиш усуллари) сифатида тушунилади. Режалаштирилган стратегияни амалга ошириш бир қатор моделлар ва рақобатбардош хатти-ҳаракатларнинг тегишли усуллари, яъни рақобат тактикаси орқали амалга оширилади.

Рақобат стратегиясини ишлаб чиқишда стратегик рақобатбардош устуворликларни оширишга қаратилиши, таълимнинг истеъмолчи, ҳамкор ва жамоатчилик талабларига мувофиқлиги, шунингдек бошқа рақобатчиларнинг кўрсаткичлар таҳлилининг инобатга олиниши муҳим аҳамиятга эга.

Рақобат стратегияларининг устувор йўналишларни амалга оширишда истеъмол, функционал ва ижтимоий рақобатбардош устуворликлар аҳамиятга эга.

Рақобатчиларга нисбтан қуйидаги статегик мақсадлар назарда тутилиши мумкин:

стратегик мақсадлар рақобатчиларни бир-бири билан бирлаштиришга қаратилган бўлиши мумкин;

рақобатчилар билан ҳамкорлик тузиш шаклида икки ва ундан ортиқ ташкилотлар учун ягона рақобат стратегияси бўлиши мумкин;

рақобатчилар билан умуман ўзаро таъсир қилишдан қочишга қилинган ҳаракатларни назарда тутувчи алоҳида рақобат стратегияси бўлиши мумкин.

Аксарият вазиятларда ташкилотлар рақобат стратегиясини белгилашда бир-бирларига ўзаро таъсир қилишдан қочишга ҳаракат қилишади ва стратегик мақсадларини ошкор қилмайди. Бироқ айрим ташкилотлар бошқаларнинг заиф ва кучли томонларининг тажрибасидан деярли фойдаланишмайди. Бу эса уларга фақатгина ўзининг қобиғидаги заиф томонларини кўришга ва уни олдини олиш ёки бартараф этиш билан чегараланади. Ваҳоланки бу келгусида келиб чиқиши мумкин бўлган вазиятларни олдини олишда, яъни бошқаларнинг рақобатдаги заиф томонларини ўрганишга ва кутилмаган ҳолатларни олдини олишга хизмат қилади.

Таъкидлаш жоизки, ҳамкорликда рақобат стратегисини ишлаб чиқилса, устувор йўналишларни самарали ва белгиланган муддатларда амалга ошириш мумкин. Чунки ҳамкорликда кучларнинг бирлашиши аксарият вазиятларда олдида турган вазифаларни янада тезкорлик билан бажариш ва сарфланиши мумкин бўлган ресурларнинг тежалишига олиб келади. Натижада стратегик мақсадларга эришишда кутилган натижаларни таъминланишига хизмат қилади.

Рақабат стратегияси қуйидаги мақсадлардан иборат бўлиши лозим:

рақобатчилар билан курашиш йўналиши;

кучли томонларни ривожлантириш ва сақлаб қолиш йўналиши;

ҳамкорлик йўналиши,

ҳимояланиш (ўзаро таъсир қилишни олдини олиш) йўналиши.

Мақсад ёрдамида қабул қилинган рақобат стратегияси амалга оширилади. Ушбу мақсадларнинг объектлари бу турли хил тактикаларни амалга ошириш орқали муҳим вазифлардир. Демак вазифаларини турли хил тактикалардан фойдаланган ҳолда рақобат стратегиясини амалга ошириши мумкин.

Ягона мақсад сари юқори стандартлар асосида ўз фаолиятини ривожлантиришга қаратган ҳолда, ўзини рақиблардан устунлигини рақобат стратегияси орқали амалга оширади.

Салоҳиятли рақибларни ҳақиқий ҳамкорларга айлантириш ташкилотнинг асосий стратегик мақсадларида назарда тутилади, рақобатчилар билан ҳамкорлик ва ҳаракатлар йўналиши эса улар билан биргаликда ҳамкорлик устувор йўналишларда белгиланади.

Бу борада олим Ю.Б.Рубин фикрича таълим хизматлари бозорида таълим муассасалари ўз ҳамкорларининг рақобатбардошлигини оширишдан манфаатдор. Таълим хизматларида манфаатдор томонлар ўртасида ҳамкорлик қилиш учун барча зарур шарт-шароитлар мавжуд. [6. С-28-41] Олимнинг фикрига қўшилган ҳолда аксарият ҳолларда рейтинг кўрсаткичлари юқори бўлмаган мактабларнинг рейтинг натижалар юқори бўлган мактаблар билан ҳамкорлик амалга ошириши зарур. Бу жараёнда икки томон учун манфаатли ҳисобланади. Рейтинг натижалар юқори бўлган мактаблар фаолияти оммалаштирилишига олиб келинади ва рейтинг кўрсаткичлари паст бўлган мактаблар томонидан йўл қуйилган камчилик ёки хатоликлар олди олинади.

Дарҳақиқат мактаблар учун рақобат стратегияси дастлаб ўринда ташқи рақобатга тайёргарлик кўриш мақсадида ички рақобатни ривожлантиришдан иборат. Ташқи рақобат мактаблар ўртасида белгиланган мезонлар доирасида матаблар рейтингида иштирок этишни ташкил этади.

Рақобат стратегиясида устувор йўналишлар ички рақобатни такомиллаштиришга қаратилса, ташқи рақобатга курашида тайёр бўлишига замин яратади. Шу жараёнда рақобат статегиясини ишлаб чиқишда устувор йўналишларни тўғри белгилаш, вазифларни тўғри ва аниқ масъуллар ўртасида тақсимлаш бу самарали натижалар олинишига ва белгиланган мақсадларга эришишга олиб келади.

Рақобатни ўрганишнинг яна бир жиҳати сифатида шуни таъкидлаш керакки, рақобатнинг таълим тизими учун ҳам, жамият учун ҳам оқибатларини ўрганиш жуда муҳим аҳамият касб этади. Бунинг учун Р. Мертоннинг функционал таҳлил модели назарий восита сифатида ишлатилади. Функциялар “маълум бир тизимнинг ташқи муҳитга мослашадиган ёки мослашишига ҳисса қўшишга кузатиладиган оқибатлардир”. [7. С-28-41]

Рақобатнинг қуйидаги асосий функциялари мавжуд.

1.**Тартибга солиш функцияси.** Рақобат товар ва хизматлар етказиб беришга шундай таъсир кўрсатадики, у имкон қадар истеъмолчилар талабларига жавоб беради. Бунда истеъмолчи қайси ва қандай миқдорда маҳсулотнинг ишлаб чиқариш кераклигини ўз талаби орқали аниқлайди.

Рақобат соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Рақобат тўғрисидаги қонунчилик қонун ва бошқа қонунчилик ҳужжатларидан иборатдир. Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг рақобат тўғрисидаги қонунчилигида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

Рақобат тўғрисидаги қонунчилик Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ва (ёки) ундан ташқарида содир этиладиган, рақобатнинг чекланишига олиб келадиган ёки олиб келиши мумкин бўлган ҳаракатларига нисбатан татбиқ этилади.

1. **Тенг имкониятлар яратиш функцияси.** Рақобат соҳада рақибларга нисбатан бир хил даражадаги имкониятларни яратилади. Мавжуд ресурлар ва имкониятлар ўзаро нисбати асосида иштирокчиларнинг қобилиятига мувофиқ, уларнинг заиф ва кучли томонлари максимал даражада ҳисобга олинади. Иштирокчиларнинг соҳада рақоабтбардошлигини адолатли равишда ва тенг даражада таъминлаш мақсадида уларнинг заиф томонлари билан курашилади.

3. **Инновацион функция.** Рақобат туфайли ишлаб чиқариш омиллари меҳнат унумдорлигини оширишга қаратилган. Инновация ҳаётий заруратдир, чунки хизмат кўрсатувчилар доимий равишда даромадларни кўпайтиришга интилишлари ва ишлаб чиқариш тузилмаларини истеъмолчининг ўзгарувчан эҳтиёжларига (ва умуман атроф-муҳитга) мослаштиришлари керак.

4. **Тақсимлаш функцияси.** Рақобат дастлабки навбатда маълум бир ишлаб чиқариш омилининг етишмаслиги даражаси кўра, маълум бир мезон лар асосида бериладиган имкониятларни ёки ваколатларни тақсимлайди.

5. **Назорат қилиш функцияси.** рақобат мавжуд бўлганда, ҳеч бир иштирокчи бозорда устун мавқега эга бўла олмайди ва ўз шартларини бошқа иштирокчиларга айтиб бера олмайди. Рақобатни ривожлантиришга кўмаклашиш ва истеъмолчиларнинг манфаатларини рақобатга қарши ҳаракатлардан ҳимоя қилиш давлат томонидан рақобат тўғрисидаги қонунчиликка риоя этилиши устидан назоратни амалга оширади. Рақобат соҳасидаги низолар қонунчиликда белгиланган тартибда ҳал этилади. Рақобат тўғрисидаги қонунчиликни бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

Рақобат қуйидаги хусусиятлар билан тавсифланади:

талаб ва таклифдан келиб чиқиб, кўп сонли хизмат кўрсатувчилар ва истеъмолчиларнинг мавжудлиги;

хизматларнинг ҳар хиллиги ва турли даражада кўрсатилиши;

хизмат кўрсатувчилар ва истеъмолчиларнинг томонидан бозор таъсир ўтказишнинг мумкин эмаслиги;

бозорга эркин кириш ва чиқиш;

хизмат кўрсатувчилар ва истеъмолчиларнинг хизматлар тўғрисида максимал хабардорлиги.

Доимий ҳаракатдаги рақобати тушунчаси қуйидаги хусусиятлар билан

тавсифланади:

бозорда хизматларнинг юқори даражада ҳаракатланиши;

хизматлар учун белгиланган харажатларнинг маъқуллиги ёки миқдорининг аҳамиятсизлиги;

қобилиятли рақобатчиларнинг мавжудлиги.

Рақобат рақобатчиларнинг мусобақалашуви бўлиб, бунда уларнинг мустақил ҳаракатлари улардан ҳар бирининг хизмати бозоридаги умумий шарт-шароитларига бир томонлама тартибда таъсир кўрсатиш имкониятини истисно этган ҳолда соғлом муносабатларга қурилади. Агар ушбу муносбатлар носоғлом амалга оширилса, инсофсиз рақобатни келтириб чиқаради.

Инсофсиз рақобат – бир гуруҳ иштирокчиларнинг манфаатини амалга оширишда афзалликларга эга бўлишга қаратилган, қонунчиликка, иш муомаласи одатларига зид бўлган ҳамда бошқа рақобатчиларга зарар етказадиган ёки зарар етказиши мумкин бўлган ёхуд уларнинг ишчанлик обрўсига путур етказадиган ёки путур етказиши мумкин бўлган ҳаракатлардир. [8.]

Инсофсиз рақобат хусусиятларига қуйидагилар киради:

рақобатчи ҳақида нотўғри ёки ноаниқ маълумотларни тарқатиш;

истеъмолчиларни хизматлар усули, жойи ва уларнинг сифати тўғрисида чалғитиш;

рақобатчининг белгисидан ёки номидан ноқонуний фойдаланиш;

сифат талабларига жавоб бермайдиган хизматларни реклама қилиш;

реклама маълумотларида хизматларнинг ҳақиқий хусусиятлари тўғрисидаги маълумотларни бузиб кўрсатиш;

бошқа рақибга зарар келтириши ёки унинг ишчанлик обрўсига путур етказиши мумкин бўлган нотўғри таққослаш;

махфий илмий, техник, ишлаб чиқариш ёки бошқа маълумотларни рухсатсиз ишлатиш ёки ошкор қилиш.

Бозорда қабул қилинган рақобат қоидалари ва қоидаларининг бузилиши қуйидаги шаклларда бўлиши мумкин:

камситувчи хизматлар ёки бу фаолиятни тугатиш мақсадида рақобатчининг фаолиятини назорат қилиш, жосуслик, коррупция;

тегишли ташкилотлар билан тил бириктириш ва махфий картеллар тузиш;

рақобатчилар хизматларини сохталаштирган ҳолда бузиб кўрсатиш;

нотўғри маълумотлар ва реклама;

фирибгарлик тўғрисидаги ҳисобот;

хизматлар сифати, стандартлари ва хизмат кўрсатиш муддатларини бузиш.

Р.А.Фатхутдинов бу субъектнинг рақобатчиларга қарши курашда объектив ёки субъектив эҳтиёжларни қонунчилик доирасида ёки табиий шароитда қондириш учун ғалабага ёки бошқа мақсадларга эришиш учун ўз рақобатбардош устунликларини бошқариш жараёни [9.] деб ҳисоблайди. Рақобатни жараён деб рақобат тушунчасини қуйидагича таъриф берган мақсадга мувофиқ. Рақобат бу ижтимоий буюртма шаклида мавжуд бўлган

хизмат, бу меъёрлар ва қоидалар асосида хизмат кўсатувчилар ва истеъмолчиларнинг маълум бир макон-вақт узлуксизлигида ўзаро таъсири жараёнида талаб ва таклифни қондириш имкониятини беради.

Хулоса ўрнида айтиш мумкин, рақобат тушунчаси турли вазиятларда турлича эътироф этилган бўлсада ҳозирги кунга қадар ягона бир ёндашув бўлмаган. Рақобат табиий жараёнда, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий соҳаларда ҳамда рақобат функциялари, рақобатнинг бир нечта хусусиятлари кўриб чиқишда асосан хизмат кўрсатишнинг бир тури сифатида ёндашувларда доирасида таҳлиллар олиб борилди.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар рўйхати

1. https://appleinsider.ru/iphone/proizvoditelej-oled-displeev-dlya-novyx-iphone-stanovitsya-bolshe.html
2. Michael E. Porter. Competitive strategy: Techniques Analyzing Industries and Competitors. The free press. New York London Toronto Sydney Singapore. 2017 y. P-816
3. https://fayllar.org/xalqaro-bozorlarda-raqobat-strategiyasi.html
4. Yo'ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xo'djamuratova G. Y."Menejment": (O'quv qo'llanma). - T.: TDIU, 2009 y.Бет-138.
5. Рубин Ю.Б. Теория и практика предпринимательской конкуренции. - 8-е изд. - М.: Маркет ДС, 2010. - С. 109
6. Рубин Ю.Б., Емельянов А.А. Стандартизация как фактор конкурентоспособности высшего образования//Высшее образование в России. -2005. - № 11. - С.28-41
7. Мертон Р. Явные и латентные функции//Американская социологическая мысль; тексты / М., 1994. С. 428.
8. Ўзбекистон Республикасининг "Рақобат тўғрисида"ги Қонуннинг 4-моддаси.
9. Фатхутдинов Р.А. Кокурентоснособность: экономика, стратегия, управление. - М.: ИНФРА-М, 2000. С.27

INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KOMMUNIKATIVLIK-MULOQOT QILISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Atayeva Shaxnoza Zoirjon qizi

Guliston shahar 11-umumta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

+99895 097 7702

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida o'quvchilarni kommunikativlik, ya'ni muloqot qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlar va interfaol metodlarda foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.


Kalit so'zlar: ingliz tili, kommunikativlik, muloqot, o'yin, interfaol metod.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida

uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug‘i asosida pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ‘ib qilishni rivojlantirishda o‘quvchilarni “Kommunikativlik” (muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish)ga yo‘naltirilgan holda ish jarayonini tashkil etish asosiy omillardan biridir.

Kommunikativlik - shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o‘rnatish, axborot to‘plash, turli ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal hulq-atvorini kuzatish.

Quyida ingliz tili darslarida o‘quvchilarni kommunikativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi o‘yin va interfaol metodlardan namunalar keltirib o‘tamiz.
“Invertorlar”. O‘yin uchun sizda to‘p (yumshoq o‘yinchoq, mikrofon...) bor. Bir o‘quvchi to‘pni bolaga tashlaydi va bir so‘zni aytadi va bola so‘z ma’nosiga qarama-qarshi bo‘lgan so‘z bilan chiqadi va to‘pni orqadagi o‘quvchiga beradi, o‘yin shu ketma-ketlikda davom etadi.



Masalan: Big-small, Tall-low, Slow-fast, Long-short kabi.

“Ketma-ket” metodini qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish, ingliz tilida so‘zlashishni o‘rgatishdir. Usul o‘quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishiga imkoniyat yaratadi va o‘quvchilarning nutq malakalarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.
Usuldan quyidagi maqsadlar uchun foydalanish mumkin:
- iboralar tuzishda;
- maqollar topishda;
- gaplar tuzishda;
- matn yaratishda;
- lug‘at ustida ishlashda foydalanish mumkin.

Masalan, ekranda ketma-ket ravishda meva va sabzavotlar oid rasm chiqadi.

Fruit and vegetables

Bo‘ri va quyon rasmi ekranda ketma ket ko‘rsatiladi.

Wolf and rabbit

Topshiriq: Tasvirda berilgan rasmlardan ertak nomini toping.

Javob: Oltin baliqcha - Golden fish.

Turli mavzu va unga oid so‘zlarni o‘rganishda, gap va matnlar yaratishda “Ketma-ket” usulidan foydalanish ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug‘i.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. -Toshkent, 2006.
3. S.Xan, L.Jo‘rayev, K. Inogamova- Kids' English 3 Teacher's book. Tashkent "O‘zbekiston" 2015.
4. S.Xan, L.Jo‘rayev, K. Inogamova- Kids' English 3 Pupil's book. Tashkent "O‘zbekiston" 2017.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING SPORT MUSOBAQALARIGA TAYYORLASHNING ASOSIY OMILLARI

Nizamov Azizbek Ganisherovich

Guliston shahar 14-umumta’lim maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada o‘quvchi-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash tizimini takomillashtirishning amaliyotdagi holati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan hamda mazkur jarayon bo‘yicha tegishli ilmiy xulosalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘quvchi, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, ommaviy sport, sport musobaqalariga tayyorlash tizimi.

Abstract: In this article, the practical situation of improving the system of preparing students for sports competitions is analyzed from a scientific-theoretical point of view, and relevant scientific conclusions are presented on this process.

Key words: student, sports competitions, physical education, physical culture, mass sports, training system for sports competitions.

Jismonan yetuk inson ham aqlan, ham ruhan baquvvat bo‘ladi. Hozirgi kunda Respublikamiz aholisini jismoniy tarbiyaga oid madaniyati va ma’naviyatini rivojlantirish muhimdir. Insonni yoshlikdan tarbiyalanmasa, kerakli jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni o‘z vaqtida egallamasa atrof muhitga, tabiatga nisbatan befarq bo‘lib shakllanadi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiyaga oid bilimlarini yoshlarda aynan kichik maktab yoshidan rivojlantirishni amalga oshirish ayni muddaodir. Jismoniy tarbiyadan davlat ta’lim standartida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan davlat talablarida shaxsiy gegiyena, kun tartibi, ovqatlanish gigiyenasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Bunda shaxsning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda qat’iy gigienik bilimlarni rivojlantirishga ham e’tibor berilgan.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining “Yoshlar siyosatinig joriy holati va mavjud muammolar” deb nomlangan 3-bobida .... Yoshlarda reproduktiv salomatlik, to‘g‘ri ovqatlanish va gigiyena qoidalari, sog‘lom turmush tarzi haqida tushunchalar to‘liq shakllanmaganligi..... Aksariyat mahallalar va maktablarda yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar mavjud emasligi, hususan, mavjud sport inshootlari 1,3 mln o‘ringa ega bo‘lib, mamlakat aholisining faqatgina 4 foizini qamrab olishi, maktablarining 24 foizida sport zallari mavjud emasligi sababli, o‘quvchilarning bor-yo‘g‘i 25 foizi jismoniy tarbiya va sportga jalb etilganligi qayd etilgan. [1,2.]

Mazkur konsepsiyaning yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari deb nomlangan 4- bobida:

- yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish,
- jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan yoshlarning umumiy sonini oshirish;

- bolalar va o‘smirlar sport maktablari sonini va sport ta’limi muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va moliyaviy ta’minlashning samaradorligini oshirish;

- nogironligi bor shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga shug‘ullanishlari uchun jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarida sharoitlar yaratish hamda maxsus sport jihozlari bilan ta’minlash;

Konsepsiyaning kutilayotgan natijalar deb nomlangan 6-bobida esa, yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilib, sport inshootlarining sig‘imi 30 foizga oshirilishi, mahallalarda yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi qayd etilgan.

O‘zbekistonda keng qamrovda ommaviy sport sog‘lomlashtirish ishlari turli o‘quv muassasalarida tashkillashtirilib borilmoqda.

Sport musobaqasi o‘quv mashg‘ulot jarayonida qilingan mehnat bilan birga sport sohasida qo‘yilgan maqsadlarning bajarilishi, erishilgan amaliy natijalarni ham oydinlashtiradi. Sport musobaqasi jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi fazilatlarni rivojlantirish nazarda tutiladi:

-o‘sib kelayotgan yosh avlodni inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqorolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish g‘oyalariga tayangan holda tarbiyalash;

-yosh avlodning sog‘lig‘ini mustahkamlash, issiq-sovuqqa chidamli, o‘sib kelayotgan organizmni yanada rivojlantirish, hayotda uchraydigan turli-tuman jismoniy sifat va yo‘nalishlarini tarkib toptirish;

-umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilarni muntazam sport mashg‘ulotlariga jalb qilish, jumladan, sharqona yakka kurash sport turlarini rivojlantirish, bu borada o‘quvchilarning yashash joylarida mashg‘ulotlar tashkil qilish;

-yosh sportchilarning sport mashg‘ulotlariga qiziqishlarini, rivojlantirish va ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;

-umumta’lim maktablarida ommaviy sportni rivojlantrish, sport mashq jarayonini tashkil qilish to‘g‘risidagi ishlarni maromiga yetkazish;

-o‘quvchilar o‘rtasida sport turlarini keng ko‘lamda ommaviy tus olishini targ‘ibot va tashviqot qilish va hokazo. [1,2,3.]

Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi galda o‘z xalqining, yoshlarining jismoniy va ma’naviy kamoloti bilan o‘lchanadi. Hozirda davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro musobaqa, kuch-qudratini namoyon etish bellashuvi, asosan ikki yo‘nalishda - sport va jismoniy tarbiya hamda aql-zakovat, ya’ni intellektual faoliyat sohasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy asoslangan holda aytganda, xalqning jismoniy-intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, bu borada tegishli zaxiralarni shakllantirish XXI- asrda taraqqiyot va yuksalish kafolatiga aylanib bormoqda. [4]

Bu haqiqatni chuqur va har tomonlama idrok etib, yurtimizda sog‘lom va barkamol avlod tarbiyasini davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish bu borada o‘ziga xos milliy tizim yaratish chora - tadbirlarini ko‘rdi.

Ana shu maqsadda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish nafaqat bolalar va o‘smirlarni, balki butun xalqni ommaviy sport harakatiga jalb qila oladigan o‘ziga xos samarali tizimni shakllantirish, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ishlarining uzviy va ajralmas qismi deb biladi, bu sohadagi tadbirlarni o‘zaro uyg‘un va mushtarak tarzda tashkil etish taklifini berdi. [4,5.]

Bugun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining turli qatlamlarini qamrab olgan samarali milliy tizim vujudga kelgani va u hozirdanoq yaxshi natijalar berayotgani nafaqat o‘zimizning, balki xorijiy mutaxassislar tomonidan ham tan olinib, e’tirof etilayotgani mazkur sohadagi ishlarning naqadar puxta o‘ylab, uzoqni ko‘zlab amalga oshrilganini ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, bunday olijanob ishlar davrning nihoyatda murakkab bosqichida amalga oshirila boshlagani bilan yanada ahamiyatlidir. Dunyo miqyosida global o‘zgarishlar yuz berayotgan bir davrda bizning yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy ishlar jamiyat hayotidagi tub o‘zgarishlar bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda.

Ana shu ezgu ishlar hozirgi kunda ham izchillik va qatiyat bilan davom ettirilib, xalqimiz, avvalo, yoshlarimiz o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib yetishga mustahkam zamin bo‘lmoqda, mamlakatimizda jismoniy intellektual resurslarning ro‘yobga chiqishini taminlamoqda. Yurtimizda soglom avlodni voyaga yetkazish vazifasiga qudratli davlatni shakllantirish, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqorolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish jarayonining muhim sharti sifatida qaralmoqda. Zero, jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi bir avlod vakillarining maydonga chiqqani, ularning jahon miqyosida qo‘lga kiritgan yutuqlari hammani g‘ururlantiradi. [5,6,7.]

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport rivojiga katta e’tibor berilayotganining yana bir asosiy sababi nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham barkamol avlodni voyaga yetkazish zarurati bilan izohlanadi.

Sport xalq, millat davlatimizning g‘ururini yuksaltiradi, ma’naviy kuch-qudrat baxsh etadi, qolaversa butun jamiyatni ana shu g‘urur tuyg‘usi orqali birlashtiradi. Eng asosiysi, sport sog‘lom turmush tarzining asoslaridan biri sifatida yoshlarning o‘z imkoniyat va salohiyatini, iqtidorini har xil bo‘lmag‘ur ishlarga emas, balki el-yurti obro‘yini oshirishga, o‘z jismoniy va ma’naviy kamolotini oshirish yolida sarflashga safarbar etadi. Negaki, doimiy ravishda sport bilan shug‘ullanadigan bolaning jismi ham, ruhi ham tetik bo‘ladi, uning butun vujudi uyg‘un tarzda kamol topadi. Uning o‘y-hayoli faqat o‘z iste’dodini namoyon etish, turli musobaqalarda g‘alaba qozonish ishqi bilan band bo‘ladi. [8.]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi farmoni //lex.uz// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5863/3979-son;

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi” //lex.uz// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019 y., 09/19/118/2612-son;

3. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son)

4. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar darslik. T.:”Zarqshom”-2004. 34-b.

5. Neverkovicha S.D. Pedagogika fizicheskoy kul’turi. Uchebnik dlya studentov VUZov. Pod red. “Academia”. M.: 2017. 46-c.

6. Usmonxo‘jaev T. Sog‘lom bola - el boyligi T:Yangi asr avlodi 2005. 64-b.

7. Fayzieva S. Sog‘lom muhit-inson salomatligi. Eko hayot, 2014. 2-s, 74-b.

8. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sportni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.: 2014. 71-b.[]

9. Kadirniyazovich S.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sport musobaqalariga tayyorlash mazmuni

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARINING AHAMIYATI

Mamatqulova Rohat

Sardoba tumanidagi 1-maktabning ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqollada so‘nggi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, dars jarayonidagi pedagogik texnologiyalar, metodlarni samarali qo‘llashning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: islohotlar, ehtiyoj, «rivojlanishi», «shakllanishi», «bilim olishi», «tarbiyalanishi», pedagogik texnologiya, metod,usul, uslub

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda tub islohotlar amalga oshirilib, davlat boshqaruvini tubdan yangilash, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash borasida keng ko‘lamli yangilanish va tashabbuslar boshlandi. Ularni hayotga to‘liq joriy etish ijtimoiy taraqqiyot mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladigan vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan iqtidorli va istiqbolli, malakali va raqobatbardosh professional kadrlarga juda katta ehtiyojni

vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, jamiyatning ta'lim sohasida tub islohotlar boshlanishiga turtki bo'ldi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda tub islohotlar amalga oshirilib, davlat boshqaruvini tubdan yangilash, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash borasida keng ko'lamli yangilanish va tashabbuslar boshlandi. Ularni hayotga to'liq joriy etish ijtimoiy taraqqiyot mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan iqtidorli va istiqbolli, malakali va raqobatbardosh professional kadrlarga juda katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, jamiyatning ta'lim sohasida tub islohotlar boshlanishiga turtki bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabalaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning «rivojlanishi», «shakllanishi», «bilim olishi» va «tarbiyalanishi» ga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar asosiy figura bo'lganligi uchun oliy o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yuqori malakali kasb egalarini tayyorlashda pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar ularlarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarning mazmuni pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishdan iborat bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar-bu jamoa bo'lib «fikrlash» deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmuning tarkibiy qismi hisoblanadi.

- Bu metodlarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshadi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:
- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijobiy yondoshgan holda kuchaytirish;

➢ pedagog va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etilishi.

➢ Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o‘rganayotgan ayrim o‘qituvchilar fikricha, pedagogik texnologiya- u faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan kompьyuter, masofali o‘qitish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolotlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etib, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa, o‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlash, izlanish, tahlil etish, o‘zlari xulosa qilish, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho berish imkoni tug‘ilsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda, bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

➢ O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etishi uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

➢ O‘qituvchi o‘qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzilgan texnologik xarita unga fanni, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondashishiga, tushunishiga, yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi-maqsadidan tortib erishiladigan natijasini ko‘ra olishga yordam bera oladi. Ayniqsa, texnologik xaritani o‘quvchining imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzishi, uning shaxs sifatida ta’limning markaziga chiqishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Saydahmedov.N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T:. Moliya.2003. 172-b.
2.Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T:. “Fan” nashriyoti.2006.
3.Ishmuhammedov R., Abduqodirov A, Pardayev A “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. T:. “Iste’dod” . 2008.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ИҚТИДОРЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЧИЛИК САЛОҲИЯТИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Курбанова Г.Б.
ГулДу Педагогика кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. *Республикмизда иқтидорли талабаларни аниқлаш уларни*

тарбиялашнинг ижтимоий-педагогик технологияларини ишлаб чиқиш. Иқтидорли ўқувчиларни тарбиялаш ва ривожлантиришда давлат ва нодавлат ҳамкорлигини таъминлашнинг меъёрий асослари яратилди. Иқтидорли ўқувчиларни тарбиялаш ва ривожлантириш самарадорлигини ошириш бўйича фанларни чуқурлаштириб ўтиш учун Президент мактаблари ташкил этилди. Уларнинг моддий техника базаси таъминланди. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришда Харакатлар стратегиясида "Юксак билимли ва интелектуал ривожланган авлодни тарбиялаш, Олий таълим муассасаларида компетентли илмий педагогик кадрлар заҳирасини яратиш" вазифаси устувор этиб белгиланди. Натижада иқтидорли талабаларни аниқлаш уларни фан оламига олиб кириш, уларда тадқиқотчилик компетентлигини инновацион ёндашувлар асосида такомиллаштириш технологияларидан кенг фойдаланишдан имконият яратилади.

Калит сўзлар: Иқтидорли, ижодий, малакали, кадрлар, тизим, илм-фан, инновацион, интеграция, компазиция, коммуникатив, функция**,** бизнес, менежмент.

Аннотация. *Выявление талантливых студентов в нашей республике разработка социально-педагогических технологий их обучения. Созданы нормативные основы обеспечения государственного и негосударственного сотрудничества в области образования и развития талантливых студентов. Президентские школы были созданы с целью углубления дисциплин, повышения эффективности обучения и развития старшеклассников. Была обеспечена их материально-техническая база. В стратегии дальнейшего развития Республики Узбекистан в качестве приоритетной была определена задача "воспитать поколение высокообразованных и интеллектуально развитых людей, создать резерв научно-педагогических кадров с компетенциями в высших учебных заведениях". В результате выявление талантливых студентов позволит вывести их в мир науки, используя широкий спектр технологий для повышения компетентности исследователей на основе инновационных подходов.*

Ключевые слова: талантливый, творческий, квалифицированный, кадровый, системный, научный, инновационный, интеграционный, композиционный, коммуникативный, функциональный, деловой, управленческий.

Annotation. *Identification of talented students in our republic and development of social and pedagogical technologies of their trainings. The regulatory framework for ensuring State and non-state cooperation in the field of education and the development of talented students has been created. The Presidential schools were created with the aim of deepening the disciplines, improving the effectiveness of teaching and developing high school students. Their material and technical base was provided. In the strategy of further development of the Republic of Uzbekistan, the priority task was defined as "to raise a generation of highly educated and intellectually developed people, to create a reserve of scientific and pedagogical personnel with competencies in higher educational institutions". As a result, the*

identification of talented students will allow them to enter the world of science, using a wide range of technologies to improve the competence of researchers based on innovative approaches.
Keywords: management, creative, skilled, personnel, system, science, innovation, integration, composition, communicative, function, Business, Management.

Барча даражадаги замонавий таълим амалда битта асосий мақсадга эга: инсонга ўзлари ва атрофларидаги дунё ҳақида билим бериш, бу билимлардан ўзлари ва жамият манфаати учун фойдаланиб яшашга ўргатиш, танлаган касбларида шахсий имкониятларни рўёбга чиқаришга ҳисса қўшиш. Шунга асосланиб, таълим олиш мақсад эмас, балки ҳаётда муҳимроқ, стратегик мақсадларга эришиш учун зарур бўлган воситадир.

Олий таълим замонавий жамиятда муҳим рол ўйнайди. Ҳар қандай давлатнинг интелектуал салоҳияти унинг таълим тизими томонидан яратилган бўлиб, у давлатнинг барқарор ва прогрессив ривожланишининг асосий ва ажралмас омили ҳисобланади. Фуқароларнинг таълим сифати иқтисодий ривожланиш имконияти ва жамият турмуш даражасини белгилайди, технологиялар ва замонавий бозор эса олий таълимни тақозо этади.

Ўз навбатида, олий таълим меҳанизмларидаги динамик ўзгаришлар мамлакатимиз ҳаётида амалга оширилаётганислоҳотлар ва жамоатчилик фаолиятининг барча жабҳаларига қўйиладиган янги талаблар самарасидир. Бу эса, ўз навбатида, мутахассисларни тайёрлашга тизимли, интеграллашган ёндашув асосида ўқув фаолиятини ташкил этиш муаммосини кескин кўтаради. Бу мақсадга эришишнинг мураккаблиги ўқув материалини нафақат репродуктив ўзлаштиришни, балки ўқувчи томонидан ҳам, ўқитувчилар томонидан ҳам креатив ёндашишни талаб этади. Шу сабабли бўлғуси ўқитувчиларни замонавий билимга эга бўлганлар сифатида тайёрлаш ва қайта тайёрлаш жараёнида уларнинг креатив салоҳиятини шакллантиришга катта аҳамият бериш зарур.

Илмий адабиётларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, бугунги кунда "креативлик" атамаси одамлар онгида инсон шахсининг барча қимматли креатив ва интеллектуал компонентларини мужассамлаштирган, уни ижодкор деб аташга имкон берадиган ягона илмий таъриф ва талқинга эга эмас. Мавжуд устуворликларга мувофиқ, айрим муаллифлар креатив салоҳиятни мақсадга мувофиқ ривожлантириш мумкинлигини ҳисобга олиб, бу атамага кўпроқ амалий маъно беради. Гуманистик психологиянинг асосчиси Аброҳам Маслоу ижодни инсон табиатининг асосий хусусияти, ҳар бир инсонга туғилишдан берилган салоҳият, шунингдек, дунёни идрок этиш ёки ҳақиқат билан ўзаро таъсир қилишнинг махсус усули сифатида белгилайди. Бу таъриф асосида ижодни атрофдаги нарса ва ҳодисаларни янги, ўзгача истиқболда кўриш ва идрок этиш қобилияти ёки маҳорати сифатида таърифлаш мумкин.

Ю. М. Асадов фикрига кўра, креатив салоҳиятнинг энг қимматли хусусияти унинг инновациялар соҳасидаги юксак ролидир. Инновация, асосан, инсон ақл-заковатининг маҳсули бўлган интеллектуал қатор сифатида, креатив

салоҳиятдан фойдаланишнинг энг тизимли ва кўринадиган натижасидир. Шунга кўра илмий ва технологик тараққиётнинг ривожланишига энг катта таъсир кўрсатувчи янгиликдир.

Абдураҳманов Р. Б. ва б. креатив салоҳиятни касбий ёки ижодий фаолият доирасида ўзаро боғланган ва шахснинг ташқи муҳитдан келаётган билимлари ва ахборотлари асосида янги ғоя ва тушунчаларни ишлаб чиқиш қобилияти билан тавсифланадиган ақлий ва креатив воситалар мажмуаси сифатида тушунади. Шу билан бирга, "креатив салоҳият" атамасининг моҳиятини белгилаб, илмий адабиётларда "креатив" тушунчаси "ижод" тушунчаси билан узвий боғлиқлигини таъкидлаймиз. Иккала тушунча ҳам бир-бирига мос келади ва кўпинча синоним сифатида ишлатилади. Бунга сабаб "креатив" атамасининг келиб чиқишидир (лот.дан. Creatio -яратиш, инглиз тилида Creativity - ижодий салоҳият, ижодий қобилият). Кўриб турганимиздек, термин талқинида ижод унсури мавжуд. Шунинг учун ҳам "ижод" тушунчаси талқин қилинишидан олдин унинг таркибий қисмлари "ижод"тушунчасининг таркибий қисмлари сифатида ўрганилган. Ўз навбатида ижод муаммолари узоқ вақт давомида ўқитувчилар, психологлар, файласуфлар ва бошқалар томонидан ўрганилган.

Файласуфлар ижодни сифат жиҳатидан янги моддий ва маънавий қадриятларни яратувчи инсон фаолияти жараёни сифатида талқин этадилар. Ижод турлари ижодий фаолият хусусияти билан белгиланади:

- ихтирочилик;
- бошқарувчилик;
- илмий;
- бадиий ва ҳоказо.

Психологик адабиётларда ижодни аниқлаш ва талқин қилишга турлича ёндашувлар мавжуд. Ижод инсон фаолияти ва мустақиллигининг маҳсулдор шакли сифатида янги, номаълум кашфиётнинг яратилиши сифатида қаралади. Г. Алтшуллернинг фикрига кўра, ижодкорлик мавжуд тажрибани қайта ташкил этиш ва янги билимлар бирикмаларини шакллантиришга асосланган янги билимларни ҳосил қилувчи фаолиятдир. У икки даражада намоён бўлади. Ижоднинг бир даражаси мавжуд билимлардан фойдаланиб, иккинчисида унинг қўлланиш доирасини кенгайтириш билан тавсифланади-объект ёки билим соҳасининг одатий кўринишини ўзгартирадиган мутлақо янги ёндашув яратилади. Психологик хусусият сифатида ижодкорликнинг моҳияти интеллектуал фаолият ва фаолият маҳсулотларига нисбатан сезгирликдан иборат. Тадқиқотимиз аспектида катта аҳамиятга эга бўлган Алтшуллер Г. нинг асосий ғояси ижодкорликни ўрнатиш, шунингдек, ҳар қандай фаолиятни ўрганиш мумкин, бундан ташқари, барча ижодий фаолиятни ўргатиш керак. Бу фикр Лернер И. томонидан ҳам қўллаб-қувватланган. Лернер И. Ишонадики, ижод уч йўналишлари қуйидаги томонидан ўқитилиши мумкин:

- ақлий операцияларда ўқитиш;
- ижодий фаолият тартибларида ўқитиш;
- ижодга қадрият муносабатини шакллантириш.

Пономарев Я. А. фикрига кўра шахс ўзига хослиги, ташаббускорлиги, юксак ўз-ўзини ташкил этиши ва салмоқли ишлаши билан ажралиб туради. Ўз навбатида, И. А. Зимняя фикрларнинг чуқурлиги, ғайриоддий саволлар ва ечимлар, интеллектуал ташаббус каби хусусиятларга эътибор қоратди. Богоявленская Д. тадқиқотида ижодкорлик тадқиқотининг бирлиги "интеллектуал ташаббус" ни кўриб чиқишни таклиф қилади ва муаллифнинг фикрига кўра, ижодий фаолиятнинг барча турлари "интеллектуал фаолият" каби шахснинг қобилияти билан бирлаштирилган. Торранс П. ижодий шахсларнинг бундай умумий хусусиятини ривожланиш, доимий ўсиш зарурати сифатида аниқлади.

Педагогикада ижодкорлик таълим жараёни билан боғлиқ равишда таҳлил қилинади ва ҳақиқатни ўрганиш ва ўзгартиришга, янги ўзига хос мавзуларни яратишга онгли, фаол инсон фаолияти сифатида аниқланади ва ўқувчиларни ўқитиш ва тарбиялашнинг энг самарали усулларини излашда, дарсликлар яратишда, билимларни доимо янгилаб, эскирган педагогик қарашлар, қарорларни қайтадан кўриб чиқилишига қаратилган.

Дунаев А. фикрига га кўра, ўқитувчининг ижодкорлиги улар ўртасидаги психологик-педагогик муносабатларнинг ўзига хослигидан келиб чиққан ва талаба шахсини шакллантириш ва ўқитувчининг ижодий педагогик фаолияти даражасини оширишга қаратилган таълим жараёни (ўқитувчи ва талаба) субъектларининг шахсий йўналтирилган ўзаро таъсирини таъминлайди. Муаллифнинг фикрича, ўқитувчи ижодининг асосий мезони ўқувчи шахсини шакллантиришнинг ижобий динамикасини таъминлаш ва ўқитувчининг ўз фаолияти самарадорлигини оширишдир.

Алексеев Н. А. ўқитувчининг ижодий шахсини илмий ва педагогик фикрлаш ва ижодий тасаввурларнинг комбинациясида намоён бўладиган ижодкорлик, интеллектуал фаолиятга эътибор қаратадиган касбий ишда ижодкорликни англаш билан ажралиб турадиган шахс сифатида белгилайди.

Юқорида таъкидланганидек, "ижод" атамаси сўнгги пайтларда илмий адабиётларда кенг қўлланилиб, фаол қўлланилаётган "ижодий қобилиятлар" иборасининг ўринни деярли эгаллаган.. Бу тушунчалар синоним сифатида қабул қилинади, шунинг учун янги атамани жорий етишнинг мақсадга мувофиқлиги ҳақида шубҳа бор. Бироқ, объектив равишда, ижодкорликни муайян ижодий қобилият ёки тўплам сифатида эмас, балки яратиш қобилияти сифатида аниқлаш тавсия этилади. Бу тушунчалар, гарчи жуда яқин бўлса-да, айрим муаллифларга кўра бир хил эмас.

Ижодни ўрганиш асосчиси Гилфорд Д. муаммони ҳал қилишнинг самарадорлиги интеллектуал тестлар билан ўлчанадиган мавжуд билим ва кўникмаларга эмас, аммо муаммони ҳал қилиш учун тақдим этилган маълумотлардан турли йўллар билан ва тез суръатларда фойдаланиш қобилиятига эга бўлишга боғлиқлигини исботлади. Бу хусусият креативлилик деб аталган.

Гилфорд Д. ва Торранс Е. белгиланган ижодий фикрлаш тавсифловчи 16 интеллектуал қобилиятни ажратиб кўрсатди. Улар орасида:

- тезлик (маълум вақт оралиғида содир бўладиган ғоялар сони);

- мослашувчанлик (бир ғоядан иккинчи ғояга ўтиш қобилияти);

-ўзига хослик (умумий қабул қилинганларидан фарқ қиладиган ғояларни ишлаб чиқариш қобилияти);

- қизиқувчанлик (бошқаларга қизиқиш уйғотмайдиган муаммоларга сезгирликнинг ортиши);

- мотивциядан реакциянинг мантиқий мустақиллиги

Бундан ташқари, Гилфорд Д. бу қобилиятларни "дивергент фикрлаш", яъни турли йўналишларда юзага келадиган ва муаммони ҳал қилиш йўлларини ўзгартиришга имкон берадиган, кутилмаган хулосалар ва натижаларга олиб келадиган фикрлаш тури концепциясида бирлаштирди. Конвергент фикрлаш муаммоларни ҳал қилишнинг барча мавжуд йўлларини таҳлил қилишга қаратилган бўлиб, улардан фақат биттасини тўғри танлашга қаратилган. Конвергент фикрлаш муаммонинг олдиндан маълум бўлган ечимига қаратилади, дивергент фикрлаш муаммо ҳали аниқланмаган бўлса, уни ҳал қилиш учун олдиндан таклиф қилинган, белгиланган йўл бўлмаса, намоён бўлади. Конвергент фикрлаш ақлни, дивергент фикрлаш креативликни аниқлайди.

Тадқиқотчи Булда А. ақл-заковат ва креативликни муҳим ролга эга бўлган инсон қобилияти сифатида кўриб чиқяпти ва ушбу позициядан келиб чиқиб, креативликни ақл-заковатга нисбатан редуктив ҳолат корсатувчиси деб ҳисоблайди. Ушбу ҳолатда ижодкорлик ақл-заковатдан келиб чиқадиган ҳодисадир, аммо ягона қобилият эмас. Шунинг учун юксак ақл-заковат юксак ижодкор қобилиятларни юзага келитради, даражаси паст ақл-заковат билан эса ижодкор намоён қилиш қийин бўлади. Ермолаева Л. фикрига кўра, креативликни алоҳида махсус қобилият сифатида ажратишнинг ҳеч зарурати йўқ. Фаолиятнинг ҳар қандай қобилияти (илмий, ижодий) биринчи навбатда умумий ақл-заковатнинг баланд даражаси ёрдамида юзага келади.

Богоявленская Д. шунингдек, ақл ва ижодкорликни икки хил умумий қобилият сифатида талқин қилди, у уларнинг мавжудлигини ахборотни қайта ишлаш жараёнлари билан боғлади. Ижодкорлик инсон учун мавжуд бўлган ахборотни ўзгартириш ва дунёнинг чексиз кўп янги моделларини яратиш учун масъулдир. Ақл-заковат эса бу маълумотларни реал амалиётда қўллаш ва атрофимиздаги дунёга мослаштириш учун ҳизмат қилади.

Лубард Т., Муширу К., Торжан С., Зенасни Ф. томонидан ижодкорлик ва ақлни мукаммал ўрганиш ўтказилди, улар мураккаб руҳий муаммоларни ҳал қилиш натижаси ижодкорлик билан боғлиқлигини ва ечимнинг тўғрилиги умумий ақл даражаси билан ижобий боғлиқлигини аниқлади. Шунинг учун ижодкорлик ва умумий ақл-идрок ақлий муаммони ҳал қилиш жараёнини белгилайдиган қобилиятдир, лекин улар турли босқичларда ҳар хил вазифаларни бажаради.

Олий таълимнинг муваффақиятини башорат қилишда кўпгина тадқиқотчилар ақл ва ижоддан мустақил равишда ўрганиш учун умумий қобилият сифатида ўрганиш қобилияти мавжуд деган хулосага келишди.

Маълумки, ижод ва университет ўзлпаштиришининг ўзаро боғлиқлиги жуда кичик бўлиб, эмпирик тадқиқотларга кўра "идеал аълочи талаба" ва "ижодкор шахс" нинг шахсий сифатлари ҳар хил деб аталган. Умумий ақл-заковат ва университет муваффақияти даражаси ўртасидаги корреляциялар катта тафовутга эга ва ақл-заковат танланган намунанинг хусусиятлари ва бошқаларни ташхислаш методологиясига боғлиқ. Шундай қилиб, тадқиқотларда олинган ижодкорлик ва ақлнинг корреляцион қийматлари диагностик жараёнига боғлиқ.

Демак, ижод ташхиси вақтида унинг мезонлари кўринишларидан хабардор бўлиш лозим: тест жараёнида кретивликни намоён этиш индивид шахснинг креативлилигини кўрсатади, аммо тескариси нотўғри. Диагностика жараёнида инсон хулқ-атворини тартибга солиш даражаси бўйича тестларни жойлаштирсак, қарама - қарши қутбларда турадиган бир томондан, юқори тезликдаги интеллект тестлари, иккинчи томондан эса креативлик учун ўйин усуллари.

Бироқ, психологларнинг фикрича, ижод инсон ақлининг кучи бўлиб, янги боғланишларни ўзгартириш ва яратиш орқали янги мазмун яратади ва уни фикрлаш жараёнида ғояларнинг умумий қабул қилинган, одатий тартибини йўқ қилиш қобилияти деб белгилаган. Торранс Е. ижодкорлик умумий ақл, шахсий хусусиятлар ва самарали фикрлаш қобилиятига асосланган махсус эмас, балки умумий қобилиятдир.

Ҳозирги кунда кўпгина тадқиқотчилар ижодкорликни қуйидаги асосий жиҳатларда кўриб чиқмоқдалар:

- жараён сифатида;
- маҳсулот сифатида;
- шахс сифатида (аслида шахснинг ижодий қобилиятлари);
- муҳит сифатида (соҳа, тузилма, ижтимоий контекст, ижод маҳсулига қўйиладиган талабларни шакллантириш);
- ҳал қилинадиган муаммо сифатида.

Психологлар ижод моҳияти ҳақида қуйидаги умумлашмаларни амалга оширганлар:

- ижодкорлик-бу янги ёндашувлар ва янги маҳсулотларга бўлган эҳтиёжга мос равишда жавоб бериш қобилияти ва жараённинг ўзи онгли ва онгсиз бўлиши мумкин бўлса-да, мавжуд бўлган янги нарсалардан хабардор бўлиш имконини беради;
- янги ижодий маҳсулот яратиш, аввало, ижодкор шахси ва унинг ички мотивацияси кучига боғлиқ;
- ижодий жараён, маҳсулот ва шахснинг ўзига хос хусусиятлари уларнинг ўзига хослиги, мустақиллиги, ҳақиқийлиги, вазифага етарлилиги ва зарур деб аташ мумкин бўлган бошқа эстетик, экологик, оптимал шакли, ҳозирги вақтда тўғри ва оригинал бўлган хусусият
- ижодий маҳсулотлар табиатда жуда кўп турли хил бўлиши мумкин: математикада масаланинг янги ечими, кимёвий жараённинг кашф этилиши, мусиқа, расм ёки шеърлар яратиш, ижтимоий муаммоларнинг ноёб ечими ва

бошқалар.

Акмеология нуқтаи назаридан, ижодкорлик кўплаб шахсларга хос бўлган жараён ва шахснинг интеллектуал ва шахсий хусусиятлари мажмуаси сифатида тавсифланади, бу муаммоларни мустақил тарғиб қилиш, кўплаб оригинал ғояларни яратиш ва уларни ноанъанавий ҳал қилишга ёрдам беради.

Голованова А. ижодни ўрганишга бўлган турли ёндашувларни таҳлил қилгач, ижодни икки асосий жиҳат - процессуал ва шахсий жиҳатдан ўрганилишини умумлаштирди. Ижодкорликни процессуал аспектда ўрганиш субъектнинг ижод предметини, умуман объектив воқеликни ўзгартириш хусусиятлари ҳамда бундай ўзгариш босқичлари ва натижаларини ўз ичига олади.

Ўз навбатида, аксарият муаллифларнинг фикрига кўра, педагогик жараён шароитида ижодкорлик олий ўқув юртларининг инновацион фаолияти билан узвий боғлиқ бўлиб, у ўқув жараёни ва иқтисодиётни модернизациялаш, унинг моддий-техник салоҳиятини тизимли янгилаш ва университет самарадорлигини оширишнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади.

Олий таълим муассасаларида инновацион фаолият бугунги кунда асосий фаолият турларидан бирининг мақомини олади (ўқув ва илмий билан бирга) ва университет ривожланишининг зарурий шарти ҳисобланади. Инновацион фаолият, аввало, шахс ўз-ўзини ривожлантиришнинг сифат босқичи бўлиб, ўз-ўзини тарбиялаш, ўз-ўзини акс эттириш натижасида вужудга келган ўқув жараёни субъектларининг ўз-ўзини долзарблаштириш жараёнидир. Шунинг учун таълим-тарбия муҳитида ўз-ўзини ташкил этиш жараёнлари айниқса инновацион фаолиятни амалга оширувчи таълим муассасаларига хосдир, ва бу барқарор тузилмалар (ижодий гуруҳлар, уюшмалар) нинг пайдо бўлиши ва аввалги ижтимоий тажрибадан қатъий назар "шахсий-янги" яратишга қодир бўлган ижодкор шахсларнинг пайдо бўлиши мумкин. Шу билан бирга таълимни ахборотлаштириш таълим муассасалари инновацион жараёнларининг ажралмас қисмидир. Унинг негизида ахборотлаштириш бу ҳолда ахборот маҳсулотлари, воситалари ва технологияларини ўқитиш ва таълимга жорий этиш асосида педагогик жараёнларни ўзгартиришнинг чора-тадбирлари мажмуидир. Таълимни ахборотлаштиришнинг назарий асослари аввало информатика, сўнгра кибернетика, тизимлар назарияси ва дидактикадир. Таълимни ахборотлаштириш дидактик жараённинг муҳим томонларининг ўзгаришига олиб келади ва педагогик фаолият сифати ўзгаради. Ўқиётганлар кўп миқдорда турли ахборотлар билан ишлаши, уни интеграллаши, қайта ишлаш, модел жараёнларини автоматлаштириш ва муаммоларни ҳал қилиш, ўқув фаолиятида мустақил бўлиши ва яна кўп имкониятларга эга бўлиши мумкин. Ўқитувчи ҳам мунтазам операциялардан озод бўлиб, ўқиётганларга ташхис қўйиш, тренинглар ва тренингларнинг ривожланиш динамикасини кузатиш имкониятини олади. Шу билан бирга кўп сонли тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатадики, айрим ўқитувчилар таълимнинг анъанавий шаклидан таълимда ахборот технологияларидан фойдаланишга ўтишга тайёр емаслар. Электрон технология ҳали ҳам асосан

таълимнинг ёрдамчи воситаси сифатида ишлатилади.

Шундай қилиб, илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, креативлик моҳияти ва тушунчасининг таърифида ноаниқлик йўқ. Турли фикрларга қарамасдан, деярли барча таърифларда ижодкорлик янги нарсаларни яратиш билан боғлиқ (шахс ва жамият учун). Аксарият муаллифлар креативликни инсоннинг ижтимоий аҳамиятга эга бўлган янги, оригинал маҳсулот яратиш учун оптимал имкониятлардан фойдаланиб, муаммони идрок этиш қобилияти деб тушунадилар [83, 86, 109]. Ўз навбатида ижод атамаси воқеликнинг муайян ҳодисаларини қайта яратиш ва ўзгартиришга қаратилган онгли фаол инсон фаолияти сифатида талқин этилади. Бироқ, асосий психологик ёндашувларга кўра, креативлик ва ижодкорлик ажратилмаслиги керак. Ильин Е. фикригага кўра, бу илмий ёндашувларда чалкашлик ва ноаниқ таърифларни яратади ва уларга, албатта, йўл қўймаслик керак. Шунинг учун ҳам ҳаётда ижод ва креативлик ажралиб чиқиши мумкинлигига қарамай, фанда бу тушунчалар бир хил бўлиши керак.

References

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida PF-4947− sonli Farmoni *[On the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan, PF-4947-th decree].* – Toshkent - February 7, 2017. - Retrieved from https://lex.uz/docs/-3107036 (In Uzb.)

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi *[The concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan up to 2030].* October 8, 2019. - Retrieved from http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-oliy-ta-lim-tizimini-2030-yilgacha--09-10-2019 (In Uzb.)

3. Kolosey N.S. Ispolzovanie oblachnix texnologiy v obrazovatelnom protsesse-uslovie dlya sovmestnoy raboti pedagogov i uchashixsya *[The use of cloud technologies in the educational process is a condition for joint work of teachers and students].* [Electronic resource]. - Retrieved from http://academy.edu.by/files/do%20ikspres/Kolosey.pdf (In Russ.)

4. Tkachenko V. Oblachnie vichisleniya *[Cloud computing].* [Elektronniy resurs]. – Retrieved from https://www.lessons-tva.info/archive/nov031.html (In Russ.)

5. Koroleva A.S. (2012) *Innovatsionnie texnologiy sovremennogo ofisa (Oblachnie vichisleniya)* [Innovative technologies of modern office (Cloud computing)]. In: *Visshaya shkola ekonomiki* [Higher school of Economics]. Saint Petersburg: НИУ ВШЭ [NIU VShE]. pp – 88 (In Russ.)

6. Vaganova O.I., Dvornikova E.I., Kutepov M.M., Luneva YU.B., Trutanova A.V. (2017) Vozmojnosti oblachnix texnologiy v elektronnom obuchenii [Possibilities of cloud technologies in e-learning]. *Mejdunarodniy jurnal prikladnix i fundamentalnix issledovaniy [International journal of applied and fundamental research].* № 6-2. pp. 183-187. (In Russ.)

7. Dukkardt A.N., Saenko D.S., E.A.Slepsova E.A. (2014) Oblachnie texnologii v obrazovanii [Cloud technologies in education]. *Jurnal “Otkritoe obrazovanie” [/*

«Open education» Magazine]. №3. pp. 28-36. (In Russ.)

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. − Т.: 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947− сонли Фармони https://lex.uz/docs/-3107036
2. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. 2019 йил 8 октябр http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-oliy-ta-lim-tizimini-2030-yilgacha--09-10-2019
3. Колосей Н.С. Использование облачных технологий в образовательном процессе-условие для совместной работы педагогов и учащихся / Н.С.Колосей [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://academy.edu.by/files/do%20ikspres/Kolosey.pdf%20
4. Ткаченко В. Облачные вычисления (Cloud computing) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: www.lessons-tva.info/archive/nov031.html

5. Королева А.С. Инновационные технологий современного офиса (Облачные вычисления): учеб. пособие. “Высшая школа экономики”, Санкт-Петербург, 2012. -88с.

6. Ваганова О.И., Дворникова Е.И., Кутепов М.М., Лунева Ю.Б., Трутанова А.В. Возможности облачных технологий в электронном обучении// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2017. – № 6-2. – С. 183-187.

7. Дуккардт А.Н., Саенко Д.С., Е.А.Слепцова Е.А. Облачнқе технологии в образовантии // Журнал “Открытое образование” 2014. - №3 – С. 28-36.

8. Азизхаджаева Н.Н. Проблемное обучение высшей школе- Т.6 РУМЦ.1994.-34

9.Азизхаджаева Н.Н. Вопросы подготовки учителя в системе непрерывного педагогического оброзования.- 1995.-64 с.

10.Азларов. Ю. Педагогик технология ва педагогик махорат.Т.:2003.-174 С.

11. Азизжоджаева Н.Н. Оила педагогикаси-Т.: Ўқитувчи, 1998. 272 б.

12.Айзенк Г.Ю. Проверьте свои способности. Перевод с англ.- М.: Педагогика – Пресс, 1992.176 с .

13.Акбаров А.А. Формирование социальной активноснти будущего учителя через студенчиское самоупавление.: Автореф. Дисс .канд. пед.наук.-Т.: 1991.-22 С.

ИҚТИДОРЛИ ТАЛАБАЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИ УЗЛУКСИЗ ТИЗИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Курбанова Г.Б.

ГулДу Педагогика кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада олий ўқув юртларида иқтидорли талабаларни аниқлаш, танлаш ва малакали кадрлар тайёрлаш учун бажариладиган ишлар тизимини ташкил этиш ва амалга ошириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Иқтидорли, ижодий, малакали, кадрлар, тизим, илм-фан, инновацион, интеграция, компазиция, коммуникатив, функция**,** бизнес, менежмент.

Annotation: In this article, the issues of identification, selection and implementation of the system of work to be carried out for the training of qualified personnel of senior students in higher educational institutions are covered.

Keywords: management, creative, skilled, personnel, system, science, innovation, integration, composition, communicative, function, Business, Management.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации и реализации системы выполняемых работ в высших учебных заведениях по выявлению, отбору одаренных студентов и подготовке квалифицированных кадров.

Ключевые слова: талантливый, творческий, квалифицированный, кадровый, системный, научный, инновационный, интеграционный, композиционный, коммуникативный, функциональный, деловой, управленческий.

Ҳозирги кунда илм-фан соҳасида юксак натижаларга эришиш учун унинг турли йўналишлари бўйича чуқур билимларга эга бўлиш зарур. Замонавий компьютерларнинг имкониятлари ва ахборот технологияларидан самарали фойдаланмай илм-фан сохасида юксак марраларга эришиб бўлмай қолди. Ахборот технологияларидан фойдаланиш ва уларни илм-фан соҳаларига кенг қўллаш малакасига эга бўлиш учун эса хорижий тилларни мукаммал билиш талаб қилинмоқда.

Илм-фаннинг эришган ютуқларини чуқур ўрганиб, уларни янада ривожлантиришга ҳисса қўша олиши учун, бу соҳага кириб келувчи ёшлар юксак қобилият ва имкониятларга эга бўлиши, юқори малакали устозлар билан ҳамкорликда илмий йўналишни мақсадли танлаши, фаолиятини замонавий методология, тизим, технология ва дастурлар асосида юритиши зарур.

Республикамиз таълим тизимининг ёшларни илм-фан соҳасига танлов асосида жалб этиш, уларни истак, имконият ва қобилиятларини мақсадли йўналтириш, илмий фаолиятни комплекс дастурлар асосида ташкил этиш тажрибаси ва эришилаётган натижаларнинг салмоғи ортиб бормоқда. ОТМларда иқтидорли ёшлар билан иш олиб бориш дастур ва низомлари ишлаб чиқилган, ташкил этилган иқтидорли ёшлар академиялари Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасдиқлаган умумий низом ва дастурлар асосида фаолият юритишмоқда. Натижада илм-фан, маданият, спорт, замонавий техника, технология, ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва бошқа соҳаларда

юқори натижаларга эришаётган ёшларнинг сони кундан-кунга ортиб бормоқда.

Бу борадаги ишларнинг сифат ва самарасини янада ошириш метод, тизим ва технологияларини яратиш устида ОТМларда илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Тадқиқотларнинг асосий мақсадлари жумласига иқтидорли талабаларни бакалавриат йўналишида ўқиши давомида илмий фаолият билан узлуксиз ва самарали шуғулланиб тасдиқланган илмий иш мавзуси бўйича юқори кўрсаткичларга эришиш билан бир қаторда келажакда мустақил илмий фаолият юритиш малакасини эгаллашини таминлайдиган тадбирлар тизими ва технологиясини яратиш киритилди. Таҳлиллар тадқиқотнинг мақсадларига эришиш учун қуйидаги вазифаларни ҳал этиш ташкилий чоралари ва методлари-ни такомиллаштириш устида изланишлар олиб бориш зарурлигини кўрсатди.

1. Ёшларда илм-фан соҳасида юксак натижаларга эришиш орзу, истак, ҳавас ва мақсадларни шакллантириш, бу соҳага уларнинг қобилият ва имкониятларини баҳолаб жалб этиш ҳамда мақсадли йўналтириш дастур ва методларини қўллашнинг самарали тизимини белгилаш.

Илм-фан соҳасида фаолият юритмоқчи бўлган иқтидорли талаба бу соҳанинг исталган йўналишига биринчи қадамни қўйишдан олдин унинг қай даражада ривожланиб бораётгани, ечимини кутаётган долзарб муаммолари, келажакда юксак марраларга эришиши учун бу соҳанинг кўп қирраларини мукаммал эгаллаши зарурлиги ҳақида бир оз бўлсада тасаввур ва тушунчаларга эга бўлишини таъминлаш катта аҳамият касб этади.

2. Ёшларни илм-фаннинг инсоният учун катта аҳамият касб этувчи устивор йўналишларида меҳнат қилиб юксак натижаларга эришишини таъминловчи илмий фаолият метод ва технологияларини жорий этиш.

3. Олим ва мутахассисларни ёшларни илм-фаннинг юксак чўққилари сари етаклашнинг замонавий метод ва технологияларини мукаммал эгалаши ва амалиётга жорий этишини таъминловчи чора-тадбирларни такомиллаштириш.

4. Ёшларни тарбиялаш ва илм-фан сохасида юксак марраларга олиб келиши тарихдан маълум бўлган устоз-шогирд методини самарали қўллаш ва бундай вазифани амалга ошириш малакасини мукаммал эгаллаган иқтидорли ёш олимларни тайёрлашнинг замонавий тизим ва методларини жорий этиш.

5. Ёшларнинг илм-фан сохасида эришган ютуқларини амалиётга жорий этиш, Халқаро грантлар ва инновацион лойиҳаларни бажаришда фаол иштирок этиш ҳамда бозор иқтисодиёти шароити талаблари асосида самарали фаолият юритиш малакасини шакллантириш метод ва технологияларини такомиллаштириб жорий этиш ва б.

Мамлакатимизда истиқболли ёшларни қўллаб қувватлаш, уларни иқтидорини рўёбга чиқариш, илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятини самарали йўлга қўйиш учун қўшимча шарт-швроитлар яратиш бўйича изчил чора-тадбирлар амалга ошириб келинмоқда.

Шу билан бирга, улғайиб келаётган ёш авлоднинг илм эгаллашга бўлган иштиёқи ва интелетуал салоҳиятини ошириш, шунингдек, халқаро майдонда мамлакатимиз нуфузини янада юксалтириш учун иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини такомиллаштириш зарурати мавжуд.

Ёшларни амалга оширилаётган ислоҳатларнинг фаол иштирокчисига айлантириш, илм-фанни ўзлаштиришга бўлган рағбатини ошириш, изланувчанлик ва яратувчанлик фаолиятига кенг жалб қилиш, жаҳон миқёсида ватанимиз довруғини кенг таратган аждодларга муносиб авлодларни тарбиялашимиз зарур. Бунинг учун иқтидорли ёшларни аниқлаш, улар фаолиятини илмий ва услубий жиҳатдан таъминлаб бориш, илғор тажрибаларни оммалаштириш ва улар асосида таълим муассасалари учун тавсия ва қўлланмалар ишлаб чиқиш. Ёшлар ўртасида маҳаллий ва халқаро шу жумладан, нодавлат фан олимпиадаларни ташкил этиш уларнинг халқаро олимпиадаларда иштирокини таъминлаш. Юқори малакали мутахассисларни жалб қилган ҳолда олимпиадалар учун доимий янги назорат материалларини ишлаб чиқиш, халқаро олимпиадалари иштирокчиларини юқори малакали мутахассислар. Шу жумладан, олимлар, профессор-ўқитувчилар, хорижлик мутахассисларни жалб қилган ҳолда тайёрлаш.

Республика Олий таълим муассасаларида инновацион корпаратив ҳамкорлик интеграциясини амалга ошириш энг долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Бугунги кунда таълим инсон фаолиятининг барча соҳаларига янги технологияларни жорий этишю рақобатбардошликни ошириш, турмуш даражасини кўришнинг муҳим шартига айланиб бормоқда. Кўпгина мамлакатларда олий мактабнинг ошиб бораётган ролини ҳисобга олган ҳолда уни ривожлантириш стратегияси миллий стратегия устуворликлари билан белгиланади ва мазкур стратегия ОТМ сифатини ошириш ҳамда уни имкониятини кенгайтиришга йўналтирилмоқда.

Ўзбекистонда бозор ислоҳатларини бошланиши янги шароитлар олий маълумотли мутахассисларни тайёрлаш тузилмаси, уларнинг билим ва кўникмаларига бўлган талабни ўзгартирди. Эндиликда янги билимларни амалда қўллай оладиган, муайян касб соҳасидаги инновацион имкониятлар кўламини тушуна оладиган кадрларга талаб ортиб бормоқда. Булар тўғри қарор қабул қила оладиган таҳлилий қобилиятга эга, юқори даражали мутахассислар бўлиши лозим.

Ҳозирги кунда ОТМ ва иш берувчилар орасидаги ҳамкорликда турли муаммолар мавжуд. ОТМ ўз битирувчиларини билимдон деб ҳисобласаларда, улар иш берувчи талабларига аксарият ҳолатларида етарли даражада жавоб бермаяптилар. Кўпгина битирувчилар бошқа мутахассислик бўйича ишлашга ёки қайта тайёрлов курсларида ўқишларига тўғри келяпти. Шулардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ОТМ ва потенциал иш берувчи ўртасидаги долзарб масала бўлиб қолмоқда.

ОТМ, фан ва ишлаб чиқариш интеграцияси – ОТМ, фан ва ишлаб чиқаришдаги ютуқлар ва салоҳиятлардан биргаликда фойдаланиш. Аввало

тайёрлаш муҳити, малакани ошириш ва қайта тайёрлаш ҳамда биргаликдаги илмий изланишлар олиб боришда ўз ифодасини топади. Амалиётда интеграция деганда, бир мақсадда бирлашган бир неча субектларни биргаликда иш олиб бориши тушинилади. Интеграция турли соҳа ва даражаларни ўз ичига олган ҳолда ўзида компазицион ва коммуникацион функцияларни намоён этади.

Компазицион функция – интеграцияни таркиби ва структураси, бирлашган субектларни норасмий ва норматив чегараларни ва уларни мутахассисликларини бирлаштиради.

Коммуникатив функция - субектлар аро коперациялар шакли ва таркибини, алоқа ва ўзаро бирлашмаларини, уларнинг принцип ва механизмларини янги шароитларга мослашувни ифодалайди.

Бугунги ривожланиш даврида жаҳонда "учлик сперал" илмий ишлаб чиқариш интерацияси модели кенг тарқалган бўлиб (ОТМ ишлаб чиқариш корхонаси муассасалари – фанлар академияси институтлари) фанлар академияси – олий таълим – ишлаб чиқариш корхоналари.

ОТМ ва корхона ҳамкорлиги:

1. **корхонани қизиқиши** (малакали кадрларни доимий ишга олиш, амалий тайёрлаш мақсадида талабаларни вақтинчалик ишга олиш, тадқиқот ва ишлаб чиқаришга талабаларни жалб қилиш, илмий ишлаб чиқариш ва маслаҳатларга профессор-ўқитувчиларни жалб қилиш, малакали мутахассислар тайёрлашда иш берувчи сўрнини кучайтириш):
2. **ОТМ (кафедра) қизиқиши** (битирувчиларни ишга жойлаштиришда қатнашиш, аниқ курс ва диплом ишларини корхона муаммолари билан боғлаш, мутахассисларни тайёрлашда иш берувчи мониторингини олиб бориш, талабаларни амалиёт базаси билан таъминлаш, тадқиқот ва ишлаб чиқаришда буюртмалар олиш, корхона ишчиларини қайта тайёрлашга қабул қилиш)
3. **Талабанинг қизиқиши** (чуқур билимга эга бўлиш, аниқ мутахассисилик бўйича малакага эга бўлиш, аниқ йўналишда илмий иш олиб бориш, маълум кўринишдаги рағбатланиш, иш билан таъминланиш)

Юқорида келтирилган тизимдан қуйидагилар талабанинг малакасига таъсир қилувчи омил ҳисобланади:

1. Умум ОТМлараро структуралар таъсири
2. Мутахассислик кафедранинг таъсири, жумладан:
   - Паст курс талабаларини мутахассисликка жалб қилиш тизими;
   - Етакчи курс талабаларини тайёрлаш тизими;
   - Ўқитувчилар таъсири;
   - Махсус таълим технологиялари асосида талабаларни ижтимоий қўллаш тизими.
3. Бизнес ва менежмент вакилларининг таъсири
4. Ота-оналарнинг таъсири
5. Ўқитувчиларнинг таъсири
6. ОТМнинг ички рейтингги

Ҳозирги ривожланиш вақтида малакали талаба ўз устида ишлаши

шахсини ўстириши лозим бўлади. Чунки ҳозирги кунда ишга жойлашишдаги талаблар жуда юқори. Малакали талаба ўқишни битиргандан сўнг мутахассислиги бўйича кафолатланган иш жойига эга бўлиши керак ва келажакда ўз мутахассислиги бўйича етук мутахассис, хар томонлама рақобатбардош бўлиши, ҳам билим жиҳатдан, ҳам шахс сифатида компетентли бўлиб етишиши керак.

ОТМда корхона муаммоларини ўрганиш, ушбу муаммолар асосида малакавий битирув ишларига илмий мавзулар бериш керак бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Консепцияси яратилган ва 2019 йил 8 октябрь ПФ -58/47 сонли Президент фармони билан тасдиқланган. Ушбу фармонда қуйидаги вазифалар белгилаб берилган:

Таълимнинг ишлаб чиқариш корхоналари ва илмий тадқиқот институтлари билан ўзаро манфаатли ҳамкорлигини йўлга қўйиш.

Талаба ёшлар таълим-тарбияси учун қўшимча шароитлар яратишга қаратилга комплекс чора-тадбирларни ўз ичига олган бешта ташаббусни амалиётган тадбиқ этиш.

Олий таълим илмий изланувчи талабаларининг юқори импакт – факторга эга, нуфузли халқаро илмий журналларда мақолалар чоп этиши, мақолаларга ихтибослик кўрсатгичларини ошиши шунингдек республика илмий журналларининг халқаро илмий техник базасига босқичма-босқич киритилишини таъминлаш. Шу билан биргаликда ушбу фармон билан олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Консепцияси ва 2019 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси” ҳам тасдиқланган. Ушбу йўл харитаси орқали босқичма-босқич амалга ошириладиган вазифалар белгилаб берилган.

Консепцияда қуйидаги вазифалар бажариш кўзда тутилган:

- Иқтидорли ёшлар орасидан олий таълим муассасаларига талабаларни саралаб олиш механизмини яратиш;
- Олий таълим муассасалари илмий фаолияти худудларни ижтимоий иқтисодий ривожлантириш истиқболларидан келиб чиқиб ташкил этиш, таҳлиллар асосида инновацион ривожланишни прогнозлаштириш фаолиятини йўлга қўйиш;
- Инновацион фаолият тадқиқот натижаларини амалиётга кенг жорий этиш, илмий ишланмаларни тижоратлаштириш, илмий тадқиқот ишларига иқтидорли ёшларни жалб этиш, таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг мустахкам интеграциясини таъминлаш;
- Илмий тадқиқот ишлари ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқлари мавжуд муаммолар ечимига қаратилишини таъминлаш;

Бундан ташқари ушбу консепцияда олий таълим тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари ва устувор йўналишларидан, қуйидаги вазифаларни бажариш зарурлиги белгилаб берилган;

1. Олий маълумотлилар тайёрлаш сифатини ошириш
2. Таълим жараёнига рақамли технологиялар ва замонавий усулларни жорий этиш

3. Илмий тадқиқот ишларини натижадорлиги ошириш
4. Ёшларни илмий фаолиятга кенг жалб этиш, илм-фани инновацион инфратузилмасини шакллантириш
5. Маънавий-маърифий ишлар таъсирчанлигини ошириш
6. Юқори малакали мутахассислар тайёрлаш жараёнига кадрлар буютмачиларини фаол жалб этиш

Юқорида белгилаб берилган вазифаларни амалга ошириш Консепциянинг бажарилиш натижасидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.- “Ўзбекистон”-2017й 592-бет
2. Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020й. 24-январ. Т.-“Тасвир” нашриёти 2020й 72-бет.
3. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демакратик ЎЗбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.-“Ўзбекистон” NMIU, 2017й 56-бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида. Тошкент ш 2019 й 6 май.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Тошкент ш 2019 й 8 октябр.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент 2020 й 24 январ.
7. Азизходжаева Н. Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Т. ТДПУ, 2003.
8. Бегимкулов У. Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Т.: Фан, 2007.
9. Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. А. Таълим сифатини бошқариш. Т.: Турон-Иқбол, 2006.
10. Саифназаров И., Никитченко Г., Қосимов Б. Илмий ижод методологияси. Ўқув қўлланма. Т.: Янги аср авлоди. 2004.
11. Ҳайдаров Ф. И., Эргашов М., Исянов Р. Г., Шарипов Ш. С. Олий таълим муассаларида талабалар илмий фаолиятини ташкил қилиш тизими. Т.: ТДПУ, 2010.
12. Шодмонова Ш. С. ва бошқалар. Педагогик технологиялар. Т.: Fan va texnologiyalar, 2011.
13. Исянов.Р.Г. Маматов.Д. Қурбанова.Г.Б. Устоз-шогирд фаолияти методологияси. ГулДу., 2021.

OILAVIY NIZOLARNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Xazratqulova Dilfuza Xamrakulovna
TDPU tadqiqotchisi

Izoh: Har qanday oila hayoti davomida muammoli vaziyatlarga duch keladi, ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar va manfaatlar kontekstida amalga oshiriladi. Konflikt qarama-qarshi maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, fikrlarning to'qnashuvi sifatida tavsiflanadi. Albatta, buning ham salbiy oqibatlari bor. Ular ajralishlar, bolalar va jamiyat uchun farq qiladi. Ajralishning eng zaif tomoni odatda bolali ayoldir. U asabiy-psixiatrik kasalliklarga ko'proq moyil bo'lgan odam. Ushbu maqolada oiladagi ijtimoiy kelishmovchiliklarni bartaraf etishning ijtimoiy psixologik jihatlari haqida fikr-mulohazalar va tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: oila, muammoli vaziyatlar, ziddiyat, pozitsiya, er-xotin, bolalar, ajralish, jamiyat, salbiy oqibatlar, qarama-qarshilik, ota-ona, qiyinchilik.

Oilaviy nizolar nizolarga bo'linadi: turmush o'rtoqlar, ota-onalar va bolalar, turmush o'rtoqlar va har bir turmush o'rtog'ining ota-onalari, buvisi va bobosi. Oilaviy nizolar oilaviy munosabatlarda asosiy rol o'ynaydi. Ular, ehtimol, turmush o'rtoqlarning ehtiyojlarini qondirmaslikdan kelib chiqadi. Oilaviy nizolarning paydo bo'lishiga tashqi omillar sezilarli darajada ta'sir qiladi: ko'plab oilalarning moliyaviy ahvolining yomonlashishi; ish joyida turmush o'rtoqlardan birining (yoki ikkalasining) ortiqcha ish bilan bandligi; turmush o'rtoqlardan birini oddiy ish bilan ta'minlashning mumkin emasligi; uzoq vaqt davomida o'z uyining yo'qligi; bolalar muassasasini tashkil qilish imkoniyati va boshqalar. Ko'pchilik uchun ajralish ularni dushmanlik, yoqtirmaslik, aldash va hayotlarini qoraygan narsalardan xalos qiladi.

Oilaviy nizolar juftlarni psixologga murojaat qilishning eng keng tarqalgan sababidir. Oiladagi nizolarni hal qilish usullari ko'p jihatdan jamiyatning ma'lum bir hujjayrasida qanday janjal sodir bo'lganiga bog'liq. Ota-ona munosabatlari va nikoh tushunchalari bolalardagi oilaviy nizolarga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikki kishi o'z fikrlari yoki istaklari bilan to'qnash kelganda, buning natijasida ular umumiy yo'nalish topmoqchi bo'lganda, oiladagi nizolar tabiiy jarayon hisoblanadi. Hatto janjal janjal paytida janjal bo'lishiga qaramay, janjal er-xotinning birligini anglatadi, deyish mumkin. 4-birinchi, agar er-xotinlar janjallashayotgan bo'lsa, ular bilan bo'lishadigan narsa bor. Va odamlar har doim ham umumiy mulkka ega emas, balki erkinlik, shaxsiy hudud, bolalar va boshqalar. Boshqacha aytganda, er-xotinlar janjal mavzusi ular uchun muhim bo'lsagina janjallashishadi. Bundan tashqari, qarama-qarshi tomon bilan janjallashishni istamagan odam nizo paydo bo'ladi. Bunday paradoks: odamlar o'zlariga zarar bermasdan, bir-birlarini xafa qilishni xohlamasliklari uchun janjal qilishadi. 4-ikkinchidan, mojaro, turmush o'rtoqlar hali ham bir xil yo'lda ketayotganligini ko'rsatadi. Mojaro - bu ikki kishi borishga tayyor bo'lgan yo'lning yo'qligi. Aynan

janjal paytida ular uni topishga harakat qilishgan. Bu shuni anglatadiki, odamlar birgalikda harakat qilishni xohlashadi, shuning uchun ular bir-birlari bilan uchrashish uchun eng yaxshi variant deb o‘ylaydigan narsalarni majburlash uchun juda ko‘p harakat qilishadi.

Oilaviy nizolarning eng xarakterli jihatlaridan biri er va xotin o‘rtasidagi nizolardir. Xo‘sh, nega bir-birini eng ezgu niyatlar bilan sevib qolgan yoshlar oila qurganlaridan keyin munosabatlarida nizolar, janjallar yuzaga keladi? Nega ular urushadi? Umuman olganda, er-xotin o‘z hayotida mojarolarsiz, urushlarsiz yashay oladimi? Bu kabi savollarni yana ko‘p davom ettirish mumkin.

Psixologlar oiladagi janjallarni normal holat deb hisoblashadi. Qarama-qarshiliklar tufayli er-xotinlar bir-birlaridan nafratlanishni, hatto ajralishni ham boshlaydilar. Shu sababli, oilada har doim yuzaga keladigan nizolarni qanday hal qilish kerakligi masalasi juda muhim bo‘lib qolmoqda. Odamlar janjal qilishlari tabiiy, ayniqsa, bu odamlar turmush o‘rtoqlar va mehribon sherik bo‘lsa. Sizning munosabatingizda hech qachon janjal bo‘lmaydi, deb umid qilish ahmoqlikdir, chunki dunyoda ikkita bir xil odam yo‘q. Siz qanchalik yaqin va sevimli bo‘lishingizdan qat'iy nazar, sizning fikringiz sherigingiz bilan mos kelmaydi degan savollar doimo mavjud. Odamlar odatda bahsli masalalarni qanday hal qilishadi? Ular qichqirishadi, tanqid qilishadi, qoralashadi, janjal qilishadi, hatto idishlarni sindirib, yugurib kelishadi. Hech kimga sir emaski, muammolarni hal qilishning bunday usullari nafaqat sevuvchilarning munosabatlarida o‘z izini qoldiradi. Biroq, odamlar ba'zi tushunchalar bo‘yicha kelisha olmasalar qichqiradilar. Ammo bir haqiqatni yodda tutish kerak: qichqiriqni eshitish mumkin emas! Shuning uchun, janjal va qichqiriqlardan so‘ng, sheriklar bir-birlari bilan xotirjam ohangda muloqot qilishni boshlamaguncha, muammo hal etilmaydi.

Oiladagi nizolarning turlari. Nizolarning eng keng tarqalgan tasnifi:

1. Konstruktiv konfliktlar. Turli sabablarga ko‘ra bunday nizolar bo‘ladi, lekin ularning yechimi ikkala tomonni ham mamnun qiladi, boshqacha aytganda, ularning kelishmovchiligini bartaraf etish kelishuviga aylangan. Yosh oiladagi mojaro bo‘ladimi yoki ko‘p yillik tajribaga ega oila bo‘ladimi, natija doim gullab-yashnaydi.

2. Yomon bahslar. Bunday to‘qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ularni uzoq yillar davomida davom ettirishga majbur qiladi, nikohdan qoniqish hissini kamaytiradi, uzoq vaqt davomida yoqimsiz omonat qoldiradi. Bunday nizolarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin.

Oilaviy mojaroning ko‘p miqdorda paydo bo‘lishining sabablari bor, chunki nikoh nafaqat umumiy uyni saqlash va farzand ko‘rishni, balki ularning istaklarini amalga oshirish, ehtiyojlarini qondirish va baxtli yashash istagini ham o‘z ichiga oladi. Erkaklar va ayollar turmush qurishni davom ettirish orqali o‘z hayotlarini yaxshilashni xohlaydigan odamlar bo‘lib qoladilar.

Afsuski, bunday jarayonlar deyarli har bir oila uchun muqarrar bo‘lib, ko‘pchilik yoshlar turmush qurish arafasida turmush qurishlarini kutishmaydi.

Xo‘sh, bu jarayonlar, ya’ni er-xotin kelishmovchiligiga kiradimi? Ular er-xotin munosabatlariga qanchalik ta’sir qiladi? Har qanday oilada u yoki bu darajada

ziddiyatli vaziyatlar yuzaga keladi. Nizolar, oila qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, mutlaqo ozod bo‘lolmaydi (himoyalangan, kafolatlangan). Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar odatda ziddiyatli bo‘lmaydi. Bu mojarolar ma'lum darajada er-xotin munosabatlarining rivojlanishi uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Ammo nizo nizodan farq qiladi. Ular bir-biridan kelib chiqishi, tashqi ifodasi, takrorlanish chastotasi (soni) va nihoyat, oqibatlari bilan farqlanadi. Nizolarning takrorlanishi, kuchi, darajasi va boshqa ma'lumotlarini (ko‘rsatkichlarini) aniq belgilash (olish) mumkin bo‘lgan aniq mezon yo‘q. Bunda hamma narsa sub'ektning o‘ziga, uning shaxsiy, psixologik xususiyatlariga, yoshiga, jinsiga, uning kiritilishiga, konflikt qanday qabul qilinishiga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Ajratuvchi nizolarda ularning paydo bo‘lishi va uni hal qilishning asosiy muammosi turmush o‘rtoqlardan birining manfaatiga qaratilgan bo‘ladi. Bunday nizolarda bir tomonning manfaatlarini hal qilish ko‘pincha ikkinchi tomon manfaatlarining boy qadr-qimmati hisobiga sodir bo‘ladi. Masalan, er yoki xotinni shaxsan o‘zi uchun biror narsa sotib olishga majbur qiladigan narsa, er yoki xotinning mehnati tufayli, o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan nizolar – er-xotin yoki xotinning qarindoshlari bilan munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar. Bunday nizolarni hal qilish, ya'ni bir tomon manfaatlarini qondirish ko‘p hollarda ikkinchi tomonning manfaatlarini boyitish hisobiga amalga oshiriladi. Bunday vaziyatlarda manfaatlari yo‘qolgan tomonda norozilik, e'tiroz saqlanib qoladi va bu keyingi kuchayib borayotgan mojaroning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ajratuvchi nizolarda nizo hal etilishi bilan konfliktli vaziyat saqlanib qoladi.

Shuningdek, ajratuvchi ularni keltirib chiqargan sabablarni er-xotin munosabatlari doirasidan tashqarida bo‘lgan omillarga bevosita bog‘liq deb hisoblaydi. Ularning qo‘zg‘atuvchisi va ishtirokchilari ba'zan er-xotindan tashqari uchinchi shaxs ham bo‘lishi mumkin, buning hal etilishi ham er-xotinning o‘ziga emas, balki uchinchi (boshqa) ehtimoliy shaxsga bog‘liq. Buning natijasida nizolarning yanada keskinlashishi, sonining ko‘payishi kuzatilmoqda.

Oilaviy nizolarni hal qilish usullari. Oiladagi nizolarni hal qilishning ko‘plab samarasiz usullari mavjud, ulardan foydalanish nafaqat sizning qimmatli vaqtingizni olib tashlashi, balki oiladagi nizolarni yanada kuchaytirishi mumkin. Oilangizdagi nizolarni bartaraf etish uchun oilaviy psixologlardan yordam so‘rang. Oilada hech qanday qarama-qarshilik yo‘q, chunki oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, qarama-qarshi jins vakillari butunlay boshqacha hayot hikoyalari va turli xil tarbiya bilan turmush qurishadi va shu bilan birga ular bir-birining tubida bo‘lishlari kerak. Bu holatda qilish mumkin bo‘lgan yagona narsa oiladagi nizolarning oldini olishdir. Oiladagi nizolarni hal qilish uchun siz tushunishga intilishingiz kerak. Agar ikkala turmush o‘rtoq ham bir-birini eshitishga harakat qilsa, unda murosaga kelish mumkin. Bu erda g‘alaba qozonishning hojati yo‘q, chunki g‘alaba mag‘lubiyatni bashorat qiladi. Ittifoq qullar va xo‘jayinlar emas, balki ikki teng huquqli sheriklar ittifoqidir. Ikkala turmush o‘rtoq o‘z munosabatlarida qulay bo‘lishi kerak, buning natijasida nikoh ittifoqi birovning

xohish-istaklarining bajarilmasligi sababli buzilmaydi.

Ma'lumki, bir-biriga mutlaqo o'xshash, mos keladigan ikkita odam bo'lishi mumkin emas, chunki inson va uning individualligi takrorlanmaydi. Keyin ikki yoki undan ortiq shaxslardan tashkil topgan oilalarni ko'p uchratamiz. Bir oila uchun mo''tadil bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimi, ikkinchi oila bilan to'liq mos kelmaslik yoki biron bir oila uchun unchalik ahamiyatsiz bo'lgan nizo va uning sababi boshqa oila a'zolarining munosabatlarida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin va hokazo.

Shuning uchun ham umumiy oilalarga xos bo'lgan nizolar va ularning sabablarini bir jihat yoki xususiyat bilan ko'rsatish masalasi ham mantiqqa to'g'ri kelmaydigan asardir. Ammo oilalarning turli toifalarini o'rganish, oila a'zolarining munosabatlarini solishtirish va hokazolar asosida qandaydir nisbiy xulosalar, mulohazalarga kelish mumkinki, bu qarindoshdan o'zi uchun nisbatan "tegishli" xulosalar chiqarishga to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, oilada bunday nizolarni oldini olish uchun oila ishonchli munosabatlarga ega bo'lishi kerak. Agar er-xotin bir-biridan biror narsani yashirsa yoki sir saqlasa o'z-o'zidan munosabatlar salbiy tomonga o'zgarishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qilishda muammolardan qochish emas, balki ularni hal qilish kerak. Muammoni hal qilish uchun uni xotirjam qabul qilish kerek, uchinchi shaxslarni oilaviy munosabatlarga aralashtirish yoki jalb qilish tavsiya etilmaydi. Oilaviy nizolarga o'zgalarning aralashuvi vaziyatni keskinlashtirishi mumkin, xatto ajrimga ham olib kelishi mumkin. Ajrimlar esa nizoning echimi hisoblanmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. D. Levinson. "Madaniyatlararo nuqtai nazardan oiladagi zo'ravonlik". Nyuberi parki, Kalifomiya: Sage. (1989)
2. H. McCubbin, S. Figli, "Stress va oila: me'yoriy o'tishlar bilan kurashish". Nyu-York: Bruner / Mazel. (1983).
3. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sino falsafiy qarashlarida baxt masalasi // Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 2 (Maxsus 1-son), 395-401 B.
4. V. V. Kunitskaya. "Oiladagi nizolar va ularni hal qilish yo'llari" ijtimoiy o'qituvchi. (2017) y

ОБУЧЕНИЯ ПЕДАГОГОВ НОВЫМ МЕТОДИКАМ-ПРОБЛЕМА ДНЯ

Нишанов Шавкат Турабович
Заведующий кафедрой методики преподавания языков Джизакского областного национального центра обучения педагогов новым методикам

В практике работы в образовательных учреждениях насущная проблема дня – воспитание социально активной личности, способной брать на себя ответственность за самостоятельно принятые решения. Для слушателей

национального центра обучения педагогов новым методикам обязательными стали требования готовности к ориентации в насыщенной информационными потоками жизни, к непрерывному самообучению. В связи с внедрением новых и современных методов в обучении преподавателей школ, особенно учителей русского языка, возникает необходимость коммуникативной направленности преподавания русского языка, большего внимания анализу текстов различных стилей и типов речи, целенаправленному развитию монологической и диалогической речи будущих учителей РКИ, формированию умения рассуждать на предложенную тему самостоятельно. И дело тут не только в программах, учебниках или пособиях. Дело в подходе к обучению. Надо, чтобы, начиная урок, учитель спрашивал себя не только чему, но и как учить, зачем учить.

В связи с этим особое значение имеет использование и совершенствование методик образовательного процесса на базе новых и современных методов обучения и что является нормой сегодняшнего дня. Особенно это касается сферы обучения учителей русского языка на основе модульного обучения, где взаимодействие с учителем на уроках не может быть эффективным без самостоятельного усвоения учащимися необходимой информации. На уроках должна постоянно звучать живая речь и поэтому, на данном этапе обучения, ДО или ZOOM платформа являются не эффективным и тогда будет актуально использование – офлайн обучение на базе различных современных методов, опирающихся на живую речь, как одного из современных методов преподавания русского языка для будущих учителей школ. Таким образом, можно использовать аудирование при модульное обучении в оффлайн режиме. Устойчивыми умения аудирования могут стать, если учащийся самостоятельно их совершенствует во внеурочное время. Этому могут способствовать средства информационно-коммуникативных технологий, которые позволяют слышать речь носителей русского языка, видеть учебную информацию посредством компьютера, обеспечивать незамедлительную обратную связь между учеником и обучающим средством, а также организовывать учебную деятельность в индивидуальном темпе и контролировать результаты усвоения на основе модульного обучения.

Проблемы аудирования широко освещаются в научной и методической литературе. Психологи, лингвисты и методисты признают это метод как самый сложный вид речевой деятельности, следовательно, и работа по формированию навыка воспринимать речь на слух требует кропотливых усилий. В этом плане привлекает внимание подход зарубежных психологов и методистов к изучению данного современного метода, в основе которого лежит сопоставление механизмов аудирования у носителей и изучающих новый язык. Ребенок сразу становится слушателем, только родившись, но спустя уже месяцы он начинает говорить, а читать и писать он научится лишь через несколько лет. Это значит, что аудитивные навыки первичны и лежат в основе формирования всех остальных речевых навыков и умений.

Основу аудитивной информации составляют параллельно действующие

психологические процессы – восприятие на уровне слова, предложения, диалога, и понимание, результат смысловой переработки аудиоинформации, порождает коммуникативное намерение учащегося, логику мысли. Психолингвистики отмечают, что аудирование основанное на модульном обучении с использованием различных методов или технологии в офлайн режиме, является более продуктивным нежелии в онлайн, который предназначенный для формирования и совершенствования иноязычных речевых умений будущих учителей РКИ.

УМУМТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ

Турдибоев Дилшод Хамидович,
Гулистон давлат университети, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент, Ахборот технологиялари факультети декани*, *E-mail:
dilshod.turdiboyev.82@mail.ru

Хорижнинг ривожланган мамлакатларида таълим жараёнини халқаро баҳолаш меъзонларини умумий ўрта таълим мазмунига сингдиришга катта эътибор қаратилган. Жумладан, Австралия, Канада, Германия, Франция, Италия, Япония, Корея, Португалия, Туркия, Полша ва бошқа давлатларда умумий ўрта таълим муассасаларида таълим жараёнини халқаро тадқиқот меъзонлари асосида ишлаб чиқилган методикалар амалиётга татбиқ қилинган. Шуни айтиш лозим-ки, ушбу методикаларни ривожланган мамлакатлар қаторида республикамизда ҳам амалиётга жорий қилиш бўйича сиёсий ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, фанлардан ўқув дастурлари, ўқув қўлланма ва дарсликларнинг янги авлодини яратишда ҳамда аниқ ва табиий фанларни ўқитиш методикасини такомиллаштиришга жорий қилиш бўйича сиёсий ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" [1] № ПФ 5712 сонли Фармонининг 3 боб, 8 бандида Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш мақсадида ўқувчиларнинг ўқиш, математика ва табиий йўналишдаги фанлардан саводхонлик даражасини баҳолашга йўналтирилган муҳим вазифалар ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрда "Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги [2] 997-сонли Қарорда халқ таълими тизимида халқаро баҳолаш дастурларидан фойдаланиш ва дастур тадқиқотларида иштирок этиш бўйича вазифалар ижросини бажаришда ушбу тадқиқот иши муаян даражада хизмат қилади. Бу борада, бошланғич таълим тизимида янги таълим муҳитини шакллантириш, яъни ўқувчилар фаоллигини оширишга йўналтирилган замонавий ўқув-

методик таъминоти яратиш ва уни амалиётга жорий қилиш, халқаро баҳолаш дастурларида иштирокини таъминлаш ҳамда мазкур фаолиятни мувофиқлаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги таълим сифатини назорат қилиш инспекцияси қошида “Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази” ташкил этилганлиги мазкур тадқиқот ишининг долзарб аҳамиятга эга эканлигини билдиради.

Ушбу йўналишда тадқиқот иши олиб борган олимларнинг илмий тадқиқот ишларини ўрганиш ва таҳлил қилиш натижасида, халқаро баҳолаш мезонлари асосида ўқувчиларни саводхонлигини ривожлантиришнинг педагогик имкониятларини ривожлантиришга мўлжалланган ўқув ва услубий қўлланмалар, янги адабиёт дарсликлари ва педагогик воситалар яратиш ҳамда уларни таълим жараёнига тадқиқ қилиш масаласи долзарб экан деган хулосага келдик.

Халқаро баҳолаш меъзонлари асосида таълим жараёнини ташкил қилишда қуйидаги вазифаларни бажаришга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ:

Математика фанини ўқитишда халқаро баҳолаш тизими асосида ўқув жараёнини амалга оширишнинг педагогик имкониятларини ўрганиш, мавжуд муаммоларни таҳлил қилиш ва дидактик талабларни аниқлаш;

Математика таълим жараёнини халқаро баҳолашлар тизими асосида ташкил қилишда ва математика фанидан ўқув материаллари ҳамда топшириқлар тайёрлашда халқаро баҳолаш меъзонлари асосида дидактик тамойиллардан фойдаланиш методикасини ишлаб чиқиш;

халқаро баҳолаш мезонлари асосида ўқувчиларни математик саводхонлигини ривожлантириш технологиясининг педагогик моделини ишлаб чиқиш;

халқаро баҳолаш мезонлари асосида ўқувчиларнинг математик саводхонлигини ривожлантириш технологиясини ишлаб чиқиш, қўллаш ҳамда уларнинг самарадорлигини тажрибада аниқлаш.

Умумтаълим муассасалари учун яратиладиган ўқув адабиётларини халқаро баҳолаш меъзонлари асосида яратишга қўйиладиган **педагогик-психологик талаблар:**

халқаро илмий базаларга киритилган илмий асосланган маълумотлар, ўқувчиларнинг мантиқий билим даражалари, эслаб қолиш қобилиятлари, тафаккури ҳисобга олинган ҳолда воқеа ва ҳодисаларнинг моҳиятини англашга ва амалий қизиқишларини ривожлантиришга, юзаки билим олишга зид бўлган ва ўқувчиларни амалий фаолият билан шуғулланишга бўлган эҳтиёжларини тўлақонли қондиришга йўналтирилган бўлиши;

ўқув фанлар мавзуларининг ўқувчиларнинг ёши ва психофизиологик хусусиятларига мос ҳолда берилиши, маълум фактлар, тушунчалар, қоидалар ва фанлараро боғлиқликни ҳисобга олган ҳолда содда ва тушунарли баён қилиниши;

ўқувчиларнинг физиологик жиҳатдан янгиликларни қабул қилиш қобилиятларини, олдин олган билимларини ўзлаштирганлик даражаси ҳисобга олинган бўлиши лозим.

Юқорида келтирилган талаблардан келиб чиқиб, ҳозирги вақтда мамлакатимизда PISA (The Programme for International Student Assessment) халқаро баҳолаш тизими асосида таълим жараёнини ташкил қилиш ва математика фанидан яратилган дарсликларнинг мазмуни ушбу тизимга мос келадими? деган саволга жавоб излаш мақсадида фикрларимизни баён қиламиз.

PISA (The Programme for International Student Assessment)халқаро баҳолаш тизими асосида ўқув материаллари тузишда 4 та асосий омилларга эътибор қаратилади.

Шахсий омил - бундай мазмундаги топшириқлар ўқувчининг турмуш ҳаёти билан боғланган ижтимоий характерга эга бўлади. Бундай топшириқларни тузишда ўқувчининг ижтимоий муҳитда дуч келадиган кундалик машғулотларидаги вазиятлар эътиборга олинади.

Касбий омил - бундай мазмундаги топшириқлар ўқувчининг оиладаги яқинлари (ота-она ва яқин қариндошлар) касбий фаолиятидан, рўзғордаги юмушлардан, савдо ва пул муносабатларидан келиб чиқиб ишлаб чиқилади.

Ижтимоий омил – бундай топшириқлар жамият ҳаёти, маҳалла, урф одат ва қадриятларга оид муаммолар ва вазиятлардан пайдо бўлади.

Илмий омил – бундай топшириқлар дунёдаги фан ва техниканинг ривожланиши билан боғлиқ, табиатда содир бўладиган жараёнлар, назарий характерга эга бўлган муаммолардан иборат бўлади. Бундай топшириқлар ўқувчиларни илмий изланувчанлик ва эвристик характерлик қобилиятларини шакллантиради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030-йилгача ривожлантириш консепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 2019-йил 29-апрелдаги ПФ-5712-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018-йил 8-декабрдаги 997-сонли Қарори.

3. PISA–2021 Mathematics Framework (second draft), 46th meeting of the PISA Governing Board, 5-7 November 2018 Prague, Czech Republic.

4. PISA Mathematics in 2021, An analysis of the center for curriculum redesign (CCR), 2016.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING AQLIY RIVOJLANISHI

Eshquvvatova Farida Kozimovna
Guliston shahar, 8-umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Kalit so‘zlar: Bolalar, oila, tarbiya
Ключевые слова: дети, семья, воспитание.
Key words: Children, family, education

Annotatsiya. Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi turli masalalar bo‘yicha o‘z fikrining bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar o‘z yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o‘z nutqida 500-600 so‘zni ishlatsa, olti yoshli bola 3000-7000 so‘zni ishlatadi. Boshlangich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe’l, sifat, son va bog‘lovchilardan iborat bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar o‘z nutqlarida qaysi so‘zlarni ishlatgan ma’qul-ku, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o‘z jumlalarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi.Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib nutqni o‘zlashtirish ma’lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o‘ziga xos yana bir xususiyati borki bola nutqda faqatgina o‘z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o‘z suxbatdoshining diqqatini o‘ziga jalb qilish uchun xam gapiradilar.

Bu davrda yozma nutq xam shakllanishini boshlaydi. Yozma nutq jumlalarni to‘g‘ri tuzish va so‘zlarni xam to‘g‘ri yozishga ma’lum tinglovchilar qo‘yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so‘zlarni qanday eshitgan bo‘lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to‘g‘ri talaffuz etishga va yozishga o‘rganishi zarur. Yozma nutq egallash asosida bolalarda turli tekstlar haqida ma’lumot xam yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endi shakllana boshlagani bois bolada xali o‘zi yozgan fikrlarni so‘z va xarflarni nazorat etish malakasi xali juda kam. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o‘quvchida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash. fikrini bayon etish uchun material to‘plash, asosiysini ajratib olish ma’lum ketma-ketlikda materialni bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jumlalarni to‘g‘ri tuzish, aynan mazmunga to‘g‘ri keladigan so‘zlarni topish va ularni to‘g‘ri yozish xam, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, o‘z xolatlarini topa olish, to‘g‘rilay olish xam aqliy rivojlanishining ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

O‘qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlaishi uchun muxim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Mazkur ta’lim jarayonida ularning bilimlari ko‘lami kengayadi, bilimga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, o‘tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular xar bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muxim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

7-10 yoshdagi o‘quvchining idroki.uning xatti-harakati, o‘yini va mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. O‘quvchi o‘zining extiyoji, mayli, qiziqish va intilishi

turmushi sharoitiga mos, shuningdek O‘qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.
. Maktab yoshiga kelib normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real xayotni aks ettirayyotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun xam surat va rasmlarda nimalar aks etganini real xayotga taqqoslagan xolda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-xayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go‘zalligini turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o‘z munosabatini bildira oladi.
Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog‘lomligida uning bilish faolligida ko‘rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi asosan atrof-olamni bilish, o‘rganishiga qaratilgan bo‘ladi. Bola o‘ynab turib olam sir-sinoatlari, sabab-xodisalari va bog‘liqlaridan xabardor bo‘lishga intiladi. Masalan, bola o‘zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho‘kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo‘lsa, u shunchalik ko‘p savol beradi va bu savollar asosan xilma-xil bo‘ladi. Bolani qor, yomg‘ir qanday yog‘ishi, quyosh kechasi qaerda bo‘lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha necha kilometr ekanligini bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning juda ko‘p asosan «Nima uchun? », « Qanday qilib? », « Nima orqali? » savollariga javob olishga qaratilgan bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o‘zlari ko‘rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Demak, kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.
6-10 yoshli bola albatta mantiqiy xam fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko‘rganlariga tayanib taolim olishga senzetiv bulgan davr hisoblanadi. So‘zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga xam bog‘liq bo‘lib, ular ma’lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki intellektual rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi - individ ijtimoiy munosabatlar bilan o‘zgaradi. Bolaning maktabda muntazam - ravishda o‘qishga o‘tishi uning atrof-xayotdagi narsa-xodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o‘zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, muloxaza yuritish, xukm va xulosa chiqarish, taqqoslash taxlil qilishning turli usullarini qo‘llashdek o‘ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o‘smirlardan farq qiladi. Ta’lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni kamol toptirishning garovidir.
Boshlangich sinf o‘quvchilarida diqqatni irodaviy zo‘r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bulmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtieriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiersiz diqqat ko‘proq rivojlangan bo‘ladi. Boshlangich sinf o‘quv materiallarining yakkolligi, erkinligi, jozibadorligi, o‘quvchida beixtier xis-tuygular uygotadi, irodaviy zurikishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o‘quvchilari diqqatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun xam ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat oboektda uzoq tura olmaydi. Taolim jarayoni kichik maktab yoshdagi

o‘quvchilarning ixtieriy, barqaror, mustaxkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga kulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar echish, mashklar bajarish, takrorlash irodaviy zur berish jarayonida ixtieriy, ongli diqqat tarkib topadi.
Bu yoshdagi bolada ixtieriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo‘lsa uni taksimlash, ongli ravishda boshqarish o‘quvi shakllana boshlaydi.Kichik maktab yoshidagi bola maolum darajada o‘z faoliyatini o‘zi mustaqil rivojlantira oladi. U o‘z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so‘z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so‘zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so‘zsiz o‘z diqqatlarini intellektual masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini tinglovchi qiladi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taasurotlari, tasviriy sanhat asarlarini etarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Obrazlar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib o‘quvchilarda xayol paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi. 2009y.
3. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O‘qituvchi. 1982y.
4. Davletshin. M. Umumiy psixologiY. T.: 2002 y. Karimova V. va boshq. PsixologiY. T.: A.Qodiriy nom. xalq merosi nash. 2002 y.
5. Jabborov A. Ma’naviyat psixologiyasi. Qarshi. Universitet. 2001 y.

Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. T.: Zarqalam. 2006 y. - Nishonova Z. va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. T.: O‘z. yozuv. uyush. nash. 2006 y.

HISSIY STRESSNING BOSHLANG‘ICH MAKTAB O‘QUVCHILARINING AKADEMIK KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Irgasheva Charos

Sirdaryo tumani 39-maktab psixologi

Annotatsıya: *Maqolada hissiy stress darajasini va uning maktabdagi shaxmat o‘yini jarayonida yosh o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Turli xil akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan o‘quvchi bilan tasdiqlovchi tajriba o‘tkazildi. Shuning uchun biz hissiy barqarorlikni yaxshilashga va boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining akademik ko‘rsatkichlarini oshirishga yordam beradigan hissiy stressni yumshatishni tuzatishga qaratilgan o‘quv o‘quv dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.*

Zamonaviy sharoitda o‘qitishni bilim, ko‘nikma va malakalarni olish tizimini shakllantirish sifatida talqin qilib bo‘lmaydi. Yosh avlodni tarbiyalash va tarbiyalashning asosiy maqsadi ijtimoiy tajribani uzatishdir. Endilikda ta’limni o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini maksimal darajaga yetkazadigan tarzda

tashkil etish vazifasi turibdi. Shuning uchun, odatda, faqat umumiy o‘rganish haqida emas, balki rivojlantiruvchi ta’lim haqida. Rivojlanish jarayoni "o‘rganish" kontseptsiyasiga alternativa sifatida asosiy yo‘nalishlardan biriga aylanadi. Maktablarda shaxmatni o‘qitish shaxmatchilarni tayyorlash emas, balki bilimli, psixologik jihatdan rivojlangan, bilimli avlodni shakllantirishni maqsad qilgan. O‘quv jarayonining natijasi ta’lim mazmuniga, uning universalligiga, insonparvarlik va ilmiy yo‘nalishiga bog‘liq. Shaxmat fanining o‘quv materialini o‘zlashtirish o‘quvchilarning nafaqat bilish sohasini, balki tashkilotchilik, mustaqillik, mehnatsevarlik, matonat, intizomni ham rivojlantiradi. Shaxmat o‘yiniga ishtiyoqni shunday tashkil qilish kerakki, u foydali bo‘lib, salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Yuqori stresslarda neyropsikologik belgilarning salbiy ta’siri har xil bo‘lib, har kimda turlicha ifodalanadi. Yangi mavzuni o‘rganishning boshlanishi, aqliy va jismoniy stress hissiy stressni keltirib chiqarishi mumkin. Shaxmatni passiv sport turi deb hisoblash mumkin, chunki kichik yoshdagi o‘quvchilar shaxmat stolida o‘tirgan uzoq vaqt davomida harakatsiz holatda bo‘lishadi. Bu xususiyatga e’tibor berish kerak, chunki, ayniqsa, boshqa sport turlari bo‘yicha sport musobaqalari paytida, hissiy stress, qoida tariqasida, yuqori jismoniy faollik bilan birlashtiriladi. Muhim farq shundaki, harakatchanlik tanani hissiy stressning salbiy ta’siridan himoya qiladi. Xo‘sh, shaxmat - bu yuqori neyropsikologik kuchlanish bilan birga keladigan sport. Hissiy stressning oqibatlari faoliyatga qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. M. Rogovskiy, V. Marishchukov, K. Gurevich va boshqa psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, emotsional stress turli xil ifoda shakllariga ega: asab tizimining kuchli inhibisyonu yoki aksincha, kuchli tirnash xususiyati, yuz mushaklarining kuchlanishi, majburiy xatti-harakatlar, beixtiyor harakatlar, passivlik. , hissiy inertlik, boshqalarning his-tuyg‘ulariga befarqlik, ruhiy tushkunlik, katta harakat diapazoni (odam qo‘llarini shiddat bilan silkitadi, qadam tashlaydi yoki yuradi), so‘zma-so‘zlik, o‘z harakatlariga ishonchsizlik, ishni yakunlay olmaslik, qarorlarning tez-tez o‘zgarishi, to‘satdan boshqa sohaga o‘tish faoliyati , idrok blokadasi, dan - muhim ma’lumotlarning yo‘qolishi, fikrlashning bloklanishi, o‘ylangan muammoni hal qila olmaslik, xotira blokadasi, oddiy ma’lumotlarni eslay olmaslik, o‘z-o‘zini nazorat qilishni yo‘qotish va boshqalar (Ilyin, 2001) . Hissiy stress va ish samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro. Bir tomondan, o‘quvchilarning ishi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar hissiy stressni keltirib chiqarishi mumkin, ikkinchi tomondan, yuzaga kelgan hissiy stress ishni samarali bajarishga katta to‘siq bo‘ladi. Hissiy stress inson tanasining qiyin vaziyatga javoban o‘ziga xos bo‘lmagan reaktsiyasini faollashtirish sifatida tavsiflanadi. Bu nafaqat omillarning tabiatiga, balki inson tanasining sezgirligiga, sharoitlar, hodisalar, idrok etish, shaxsiy xususiyatlar va xulq-atvorni tartibga solishning subyektiv xususiyatlarining etarlilik darajasiga bog‘liq (Naenko, 1976). A.Proxorov ta’lim-pedagogik jarayonning psixik xolatlarini o‘z-o‘zini tartibga solishni o‘rganar ekan, axborotni nihoyatda keng miqyosda o‘zlashtirishning cheklangan davri emotsional stressni keltirib chiqaradi, degan xulosaga keladi. Bu odamdan tegishli o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini talab qiladi (Proxorov, 2003). Ko‘pgina mualliflar o‘z-o‘zini tartibga solishning

hissiy tomonini ajratib ko‘rsatishadi, uning mazmuni darajasi inson o‘ylashi, tushunishi, so‘zlar yordamida hissiy holatlarni tasvirlashi, o‘z ehtiyojlarini tushunish, tahlil qilish va qiyin vaziyatlarda rahbarlik qilish. Hissiy intellekt ijtimoiy intellektning infratuzilmasi sifatida qaraladi, u o‘z va boshqalarning his-tuyg‘ularini hisobga olish, fikrlash va faoliyatni boshqarish uchun ushbu ma’lumotlarni farqlash va ulardan foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi (Goleman, 2010). Yosh o‘quvchining hissiy stressining o‘quv jarayoniga ta’sirini aniqlash uchun tasdiqlovchi eksperiment o‘tkazildi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning 674 hissiy stressini tashxislash uchun mo‘ljallangan "Emosional stressni tashxislash metodikasi" 30 ta savoldan iborat. Ularning har biri uchun o‘quvchi "+", "-" va "bilmayman" tomonidan berilgan uchta javobdan biri bilan javob berishlari mumkin. Agar o‘quvchi ushbu bayonotga rozi bo‘lsa, u “+” variantini, agar rozi bo‘lmasa, “-”, agar qaror qilmagan bo‘lsa, “bilmayman” variantini tanlaydi (Ilyin, 2001). Tadqiqotni eksperimental guruhda o‘tkazish uchun yarim yillik baholarini hisobga olgan holda turli xil akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan o‘quvchi kiritildi. Shuningdek, N. Luskanovaning “O‘quvchi motivatsiyasi darajasini baholash” so‘rovnomasidan foydalandik. Usul ta’lim motivatsiyasi darajasini aniqlashga qaratilgan. Muallifning ta’kidlashicha, bolaning o‘quv faoliyatining pasayishi ta’lim motivatsiyasining past darajasi bilan kuzatiladi. N. Luskanova tomonidan o‘quvchining motivatsiyasi darajasini baholash uchun so‘rovnoma 10 ta asosiy qoidadan iborat bo‘lib, ular turli formulalarda takroriy savollarni o‘z ichiga oladi (Luskanova, 1999). Quyida biz ushbu qo‘llaniladigan usullarni tahlil qilish natijalarini taqdim etamiz. "Emosional stressni tashxislash usuli" bo‘yicha olingan ma’lumotlarga ko‘ra, yuqori darajadagi akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan to‘rt nafar talaba hissiy stressning past darajasini aniqladi, 14 o‘quvchi o‘rtacha, 2 nafari esa yuqori darajada edi. O‘rtacha o‘sish darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchidan 13 nafari yuqori, 4 nafari o‘rtacha, 3 nafari hissiy stressning past darajasini ko‘rsatdi. Shunday qilib, o‘rtacha o‘sish darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarning ko‘pchiligida hissiy stress, past o‘quvchilarning ko‘pchiligi esa past darajaga ega, deb aytish mumkin. Maktabdagi motivatsiya darajasini baholash uchun N.Luskanova tomonidan so‘rovnomasi bo‘yicha ma’lumotlarning natijalarini tahlil qilishdan biz quyidagi natijalarga erishdik: umumiy sonidan 18 tasi (o.ch.) o‘quv faoliyati yuqori. o‘quvchining ta’lim motivatsiyasining yuqori darajasini va ikkitasi - o‘rtacha. O.h.ning o‘ntasi. o‘quvchilarning o‘rtacha darajasi bilan ta’lim motivatsiyasining yuqori darajasi qayd etildi, ettitasi o‘rtacha darajaga ega, va uchtasi past. Ta’lim darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar mos ravishda o‘rtacha (6ta) va past darajadagi ta’lim motivatsiyasini (14ta) ko‘rsatdilar. Taxmin qilish mumkinki, yuqori akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan ba’zi o‘quvchi hissiy taranglikni ko‘rsatdilar, ammo taranglik ularga xalaqit bermaydi, balki tanadagi aqliy va jismoniy resurslarning faollashishiga olib keladi. Eng yuqori darajadagi hissiy zo‘riqish o‘rtacha akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan o‘quvchi tomonidan namoyon bo‘ldi va ular yuqori akademik motivatsiyaga ega. Bundan tashqari, agar o‘rtacha akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan o‘quvchining akademik motivatsiyasi yuqori bo‘lsa, unda paydo bo‘lgan hissiy stress tananing mavjud aqliy va jismoniy resurslarining

pasayishiga olib keladi. Shuning uchun biz o‘quv dasturini ishlab chiqishni tavsiya qilamiz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект на работе. Ценное практическое руководство по развитию и совершенствованию эмоций человека Москва: АСТ; Владимир: ВКТ, 2010.

2. Ильин Е.П. Эмоции и чувства, СПб.: Питер, 2001. Лусканова Н.Г. Методы исследования детей с трудностями в обучении. М., 1999.

3. Наенко Н.И. Психическая напряженность. М.: МГУ, 1976. Прохоров А.О. Функциональная структура регуляции психических состояний // Вестник Российского гуманитарного научного фонда. 2003. № 1. С.170-178.

O‘QUVCHILARNI O‘SMIRLIK DAVRIDA BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANISHI VA KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

Adilova Gulbahor Sottiyevna

Sirdaryo viloyati, Mirzobod tumani 13-maktab amaliyotchi psixologi

O‘smirlik davri o‘zining betakrorligi, mustaqilligi, ijodiyligi, tanqidiyligi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun bu davr o‘zining murakkabligi o‘smir shaxsida o‘ziga o‘zgalarga nisbatan tanqidiylikni shakllanishi bilan bog‘liqdir. Aynan o‘smir shaxsining shaxs sifatida shakllanishida bilish jarayonlari psixologik xususiyatlarini o‘rganish hozirgi kun uchun dolzarb muammo bo‘lib kelmoqda.

O‘smirlik davrini o‘tish, burilish, qiyin davr sifatida adabiyotlarda keng qo‘llaniladi. O‘smirlik davrining o‘tish davri deyilishiga asosiy sabab bu vaqt oralig‘ida bolalikdan kattalik holatiga o‘tish davri yuzaga keladi ya’ni psixik jarayonlarning o‘quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun o‘smirlik yoshi o‘zaro munosabat shakllaridan faoliyatni tashkil qilishda kattalar tomonidan rahbarlik qilishda qat’iy o‘zgarishlarni talab qiladi. Aynan mazkur davrni ilmiy jihatdan o‘rganish muhim bo‘lib unga asos bo‘lgan omillar quyidagilardan iborat.

1.Fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat san’at va adabiyot ijtimoiy iqtisodiy shart-sharoitlarning o‘zgarayotganligi

2.Ommaviy axborot ko‘lamining kengayishi tufayli o‘smirlar onglik darajasining ko‘tarilganligi

3.O‘g‘il va qizlarning dunyo voqealaridan tabiat va jamiyat qonunlaridan tarixdan etarli darajada xabardorligi

4.Ularning jismoniy va aqliy kamolotining jadallashgani

5.O‘smirlar bilan ishlashda g‘oyaviy, siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi

6.Oshkoralik ijtimoiy adolat demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotganligi

7.O‘quvchilar uchun mustaqil bilim ongli ijodiy fikr yuritish, o‘z-o‘zini boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilganligi

Kichik maktab va katta maktab yoshiga qaraganda o‘smirlik yoshi ta’lim va tarbiya uchun ancha qiyin hisoblanadi. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin ya’ni ta’lim jarayonida yangi materialni tushuntirishning eski shakli va metodlari sekin-asta yaroqsiz bo‘lib qoladi. Agar o‘quvchi yaqin yaqinlarda batafsil tushuntirishlarini bajonidil eshitgan bo‘lsa endilikda yangi material bilan batafsil tanishtirish shakli ko‘pincha o‘quvchilarni zeriktirib qo‘yadi ularda befarqlikni yuzaga keltiradi ularga ochiqdan-ochiq og‘irlik qiladi. Ilgarilari o‘quv materialini so‘zma-so‘z qayta tiklashga moyil bo‘lgan o‘quvchi endilikda materialni o‘z so‘zlari bilan ifodalab berishga intiladi. O‘qituvchi biror formula qonun qoidani aniq esga tushurib aytib berishlarini talab qilganda o‘quvchi qarshilik bildiradi. Kechagina itoatkor odobli bo‘lgan o‘smir to‘satdan qo‘rslik qo‘pollik qaysarlik va intizomsizlik ko‘rsata boshlaydi. Kattalarning ko‘rsatmalari o‘smir shaxsning taraqqiyotida eng muhim holatlardan biri unda o‘z -o‘zini anglashning tarkib topishdan, o‘zini shaxs sifatida anglash ehtiyojining tarkib topishidan iboratdir. Kichik yoshdagi davrda o‘ziga baho berish istagi bo‘lmaydi: “Men qanday odamman?”, Men qanday foyda keltirishim mumkin?, Mening qanday yaxshi tomonim bor?, Mening qanday kamchiliklarim bor?, O‘smirlarda bo‘lsa, o‘z-o‘ziga nisbatan, o‘zining ichki ruhiy hayotiga, o‘z shaxsining sifatlariga qiziqish yuzaga keladi. O‘zini boshqa kishilar bilan taqqoslash, o‘ziga baho berish ehtiyoji paydo bo‘ldi. O‘smir o‘ziga nazar solib qaray boshlaydi. O‘zi uchun qandaydir tarzda “Men”ini ochadi, o‘z shaxsining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilshga intiladi.

Tajribada qo‘llaniladigan metodlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Kuzatish metodi. Kishining har kungi psixik faoliyatini odatdagi hayot va sharoitlarida tahlil qilishdan iboratdir.

Kuzatish orqali turli odamlarning diqqati, his-tuyg‘ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, nutq faoliyati va hokazolari o‘rganiladi. Ammo, o‘ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni etmaydi.

2. Eksperiment metodi. Sun’iy hosil qilingan psixologik sharoitda namoyon bo‘luvchi psixik faoliyatni tahlil qilishdan iboratdir. Eksperimentator yoki tajriba o‘tkazuvchi psixik faoliyatning o‘ziga kerakli hodisasini maxsus tarzda hosil qiladi hamda uning namoyon bo‘lish sharti va harakterini belgilaydi. Tajriba metodi o‘z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi.

3. Psixologik-pedagogik eksperiment - o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda maxsus usullar yordamida o‘rganishdir.

Mazkur eksperiment o‘quvchilarni maxsus uyushtirilgan ta’lim sharoitida maqsadga muvofiq ulardan o‘zgarishlarni kuzatishni taqozo etadi. Bu eksperiment aniqlovchi va tarkib toptiruvchi bosqichlardan iborat bo‘lib, maxsus uyushtirilgan ta’lim tarkib toptiruvchi eksperiment jarayonida olib boriladi. U quyidagi tuzilishga ega: eksperimentator yoki tadqiqot olib boruvchi, sinaluvchilar, faraz, reja, yo‘l-yo‘riq, tajribaning bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan, o‘zgaruvchan, nazorat qilinadigan va qilinmaydigan qismlardan iborat. Eksperimental tadqiqotning asosiy bosqichlari: farazni ilgari surish, metodikani tanlash, eksperimentni

rejalashtirish, olingan ma'lumotlarni ishlab chiqish, tahlil etish va izohlashdan iboratdir.

4. Anketa metodi. Kishilar psixikasini ommaviy so'roq asosida o'rganish demakdir. Bu metod yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarning munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch turda o'tkaziladi.

Ularning birinchi turi anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi.

Ikkinchi turida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi.

Uchinchi turdagi anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Tarqatilgan anketalar yig'ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo'sinda xulosalar chiqariladi.

5.Suhbat metodi erkin, nutqiy munosabat tufayli olingan kishi psixik faoliyatining xulosasini tekshirish demakdir. Bu metod yordamida inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

6.Test metodi. Test - inglizcha "sinash", "ekshirish" degan ma'noni anglatadi. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq, misol yoki jumboqlar test deb ataladi. Test, ayniqsa, odamning qanday kasb egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, to'plangan ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishiga bog'liqdir.

7. Biografik (tarjimai hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar biografik metod orqali o'rganiladi. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi.

Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, audio ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filümlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxs haqida to'la tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda

yordam beradi.

Biografik ma’lumotlar odamlarning o‘zini o‘zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o‘zining uslubini yaratishi, kamolot cho‘qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sunnatova R.I., Parpiev U. «Kasbga yo‘naltirish maslahatlari: metodlar, muammolar, imkoniyatlar», Toshkent 2001 yil.
2. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil
3. Djiga N. D. Psixologo-akmeologicheskaya kontseptsiya sozidaniya produktivnogo sub’ekta obrazovaniya G‘G‘ Avtoreferat dis. ... doktora psixologicheskix nauk. - Kostroma, 2014.
4. Volodina T. V. Psixologo-pedagogicheskaya model razvitiya jiznestoykosti pedagoga: dissertatsiya ... kandidata psixologicheskix nauk . - Ulyanovsk, 2014.

O‘SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA UNING O‘ZIGA XOS USUSIYATLARI

Xolbayeva Nargiza Azizovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘smirlar psixologiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, aqliy taraqqiyotni aniqlash uchun o‘tkaziladigan trening mashg‘ulotlari va ularga qo‘yiladigan talablar, mustaqil ravishda trening tashkil etish uchun namunaviy mashqlardan namunalar keltirib o‘tilgan

Аннотоция

В данной статье приведены психология подростков и ее специфические особенности, учебные занятия и требования к определению психического развития, примеры примерных упражнений для организации обучения самостоятельно.

Annotation

In this state of bringing the psychology of adolescents and its specific features, training sessions and requirements for the definition of mental development, examples of exemplary exercises for organizing training on their own.

O‘zbekiston Respublikasida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, yangilanishlar inson intellekti muammosini yanada chuqurroq va izchil ravishda tadqiq etishni taqozo etmoqda. "Tarbiya qancha mo‘qammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi", - dedi prezident Sh.Mirziyoev.

O‘zbekiston xalqining rivojlangan mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatga kirishuvi har jihatdan yeto‘q yoshlarni kamol toptirish zaruriyatini

vujudga keltirmoqda. Hozirgi davrda fan va texnikani yoʻqsak darajada egallash va jahon hamjamiyati mamlakatlari taʼlim standarti darajasiga yaqinlashtirish uchun intellekt koʻrsatkichi yuqori hamda mustaqil, ijodiy fikrlovchi oʻquvlarni shaqllantirish maqsadga muvofiqdir.

Oʻsmirlik davri 10–11, 14–15 yoshni tashkil etadi. Koʻpchilik oʻquvchilarda Oʻsmirlik yoshiga oʻtish asosan 5–sinfdan boshlanadi. «Endi u bola emas–u, xali katta xam emas»-bu formula oʻsmirlik davri xarakterini bildiradi. Bu yoshda oʻsmir rivojida keskin oʻzgarishlar roy bera boshlaydi. Bu oʻzgarishlar fiziologik, xamda psixologik oʻzgarishlardir. Fiziologik oʻzgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan boglik ravishda tanadagi barcha aʼzolarning moʻqammal rivojlanishi va oʻsishi, xujayra va organizm toʻzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi oʻzgarishlar bevosita Oʻsmir endokrin sistemasining oʻzgarishlari bilan boglikdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofez bezining funktsiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm toʻqimalarining oʻsishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (kalkonsimon bez, buyrak oʻsishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada boʻy oʻsishi tezlashidi, jinsiy balogʻatga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikqilamchi jinsiy bezlarning paydo bulishi) amalga oshadi. Oʻsmirlar oʻzlarini kattalardek tutishga xarakat qiladilar. Ular oʻzlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini maʼlum darajada oʻrtoqlari va oʻqituvchilarga kursatishga intiladilar. Bu xolatni oddiy kuzatish yoʻli bilan ham osongina koʻrish mumkin. Oʻsmirlik yoshiga xos boʻlgan psixologik xususiyatlarni oʻrgana turib, Oʻsmirlar shaxsining shaqllanib, rivojlanib, kamolatga erishish yoʻllarini va unga taʼsir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita taʼsirini tushunish mumkin. Bu davrda Oʻsmir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar xayotida xali oʻz urnini topa olmagan xolatda boʻladi.

Oʻsmirlik davrida etakchi faoliyat–bu oʻqish mulokat xamda mexnat faoliyatidir. Oʻsmirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu dustlik, urtoklikdagi elementar normalarini aniklash va egallashdir. Oʻsmirlar mulokotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u tula urtoklik kodeksiga buysinadi.

Oʻsmirlarning ota–onasi, kattalar bilan qiladigan mulokoti asosan ularning katta boʻlganlik xissi asosida toʻzilgan boʻladi. Ular kattalar tomonidan kilinadigan xak–xoʻqoʻqlarini cheklashlariga, karshilik va extirozlariga kattik kayguradilar. Lekin shunga karamasdan u mulokotda kattalarning qoʻllab–kuvvatlashlariga extiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat Oʻsmirga kattalarni yaxshirok tushinishlari uchun yordam beradi. Oʻsmir oʻzida boʻlayotgan oʻzgarishlar, uni tashvishga solayotgan muamolar xakida kattalar bilan bulishishga katta extiyoj sezadi, lekin buni xech kachon birinchi bulib oʻzi boshlamaydi. Oʻsmir oʻziga nisbatan yosh bolalardek kilinadigan muomila –munosabatiga kattik norozilik bildiradi. Oʻsmirlar mulokoti nixoyasida oʻzgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. Oʻsmirlik davriga kimningdir xatti –xarakatini imitatsiya kilish xosdir. Koʻpincha ular oʻzlariga tanish va yokadigan kattalarning xatti–xarakatlarini imitatsiya taqlidchanlik qiladilar.
Qayd etib utilgan yunalganlik albatta kattalarning xam mulokot va munosabatda mavjud, lekin ular kattalarnikidan oʻz emotsionalligi bilan farklanadi. Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruxida Oʻsmir oʻzining kelishuvchanlik xususiyati bilan

namoyon bo‘ladi. O‘smir o‘z guruxiga boglik va karam bo‘lgani xolda shu guruxning umumiy fikriga kushilishga va uning karorini doimo bajarishga tayyor bo‘ladi. Gurux ko‘pincha O‘smirda «Biz» xissining shakillanishiga yordam beradi va uning ichki xolatini mustaxkamlaydi. O‘smir yoshdagi bola uchun dust tanlash juda katta axamiyatga ega. O‘smirlik davrida dust juda kadirli xisoblanadi

O‘smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta extiyoj sezadilar. Kattalarning o‘smir yoshdagilar uchun ta’sir kursatish, tarbiya berish uchun eng qo‘lay sharoit–bu umumiy mexnat bilan shugullanishidir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bulish rollaridan koniksalar, o‘smirlar, ayniksa katta o‘smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat kursatayotganlaridan, lozim bo‘lganda ularning urnilariga xam ishlay olishlaridan konikadilar. Agar kattalar o‘smirlarning teng, dustona, uni tula tushunadigan va aql bilan raxbarlik kilsalar, bunga o‘smirlar ijobiy karaydilar, lekin bu raxbarlik kattaning xohish–istagi ustunligi asosida bulsa, unday xolda ular tula karshilik kursatadilar. Bu qarshilik ko‘pincha salbiy natijalarni, baxzan esa depressiyani xam yo‘zaga keltirishi mumkin. Bu xolat ko‘pincha ota – onasi avtoritar munosabatda buluvchi oilalarda uchraydi. Ko‘pgina bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlar hayotda mustaqil xolda xarakat kilishlari, o‘z rejalarini amalga oshirishlari, kiyin maxsuliyatning o‘z buynilariga olishlari birmuncha qiyinrok. Ular ko‘pincha intelektual xarakterdagi muammolarni xam kiyinchilik bilan engadilar. O‘smirlik davrida bolalarning atrofdagi odamlar bilan shaxsiy va ish yo‘zasidan bo‘ladigan munosabatlaridagi mavkei o‘zgaradi. Endi O‘smirlar uyin xamda damga kamrok vaktlarini ajratgan xolda ko‘prok jiddiy ishlar bilan shugullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. O‘qish o‘smirlar xayotida katta urinni egallaydi. O‘smirlar o‘qishidagi asosiy motiv bu ularning kattaliklarini xis ettiradigan, anglatadigano‘qish turlariga tayyorlanishlaridir. Ular uchun mashgulotlarning asosan mustakillik beriladigan shaqllari yokadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o‘smirlarning fanlarni muvafaqqiyatli o‘zlashtirishlari kizikishlarining orttirishlari o‘qituvchining o‘quv materialini tushuntira olish maxoratiga boglik, bilim o‘rganish extiyojlari asosida asta-sekinlik bilan umuman o‘quv fanlari nisbatan ijobiy munosabat shaqllanadi. Bu davrda o‘qishning chngi motivlari yo‘zaga keladi. Bu motivlar asosan O‘smirning xayotiy rejalari kelajak kasbi, va ideali yuilan boglik bo‘ladi. Aynan o‘smirlik davridadan boshlab bolalar xayotiy ilmiy, badiiy bilimlarni kenagytirishga aloxida extiyoj sezadilar va bunga xarakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida xursatga sozovor bo‘ladi. Bilim o‘smirlarga alohida bir quvonch bag‘ishlaydi va uning tafakkur kilish layoqatini rivojlantiradi. O‘smirlarning o‘quv materiallarini faqat mexanik xotiraga asoslanishlari xalakit berishlari mumkin. Bu davrda o‘quvchilarga beriladigan o‘quv materialining xajmi katta bo‘lgani uchun xam uni eslab kolishi yoki bir necha marta takrorlash yuli bilan o‘zlashtirish kiyin. Buning uchun albatta o‘quvchi o‘quv materialini mazmunini taxlil kilishi, undagi mantikiy to‘zilishni bilishi muxim. Bu davrda bolalarning idrok, diqqat va tasavvurlari o‘zgaradi, lekin bu o‘zgarish bolaning o‘ziga va atrofdagilarga sezilmagan xolda kechadi. Shu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, nutqi, tafakkur jarayonlari xam jadal rivojlanadi. Bu o‘zgarishlar atrofdagilarga sezilarli darajada bo‘ladi. O‘smirlik

davrda bolani anglash va o‘z–o‘zini anglash darajasi kutariladi va unda o‘zi, boshka odamlar, olam xakidagi bilimlari cho‘qurlashadi. O‘yin faoliyati asta–sekin kamayib, yangi faoliyatlar yo‘zaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi boskichi boshlanadi. O‘smirlik davrida o‘z faoliyatini nazorat etish rivojlana boshlaydi va o‘zini–o‘zi boshkarishga intilishi kuchayadi. Bir so‘z bilan aytganda o‘smirlik davri psixik rivojlanishda keskin burilish davri xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraxmonov F. Davletshin «Odamlar Bilan qanday mulokotga kirishish va yoshdashish kerak» 1996 y. Toshkent.
2. Adizova «O‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari».

BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA KOMBINATORIKA ELEMENTLARI O‘QITISHNING AHAMIYATI

D.Sh.Zikirova
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Anontatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kombinatorik masalalar yechishga o’rgatishn,va ularni fikrlash qobilyatlarini rivojlantirishga nazariy-metodik tavsiyalar keltirib o’z qarashlari bilan izohlab berildi.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, boshlang’ich ta’lim kombinatorika, element, to’plam, masala, mantiq, matematik tafakkur

Аннотация: В данной статье приведены теоретико-методические рекомендации по обучению учащихся начальных классов решению комбинаторных задач и развитию их мыслительных способностей, а также разъяснены их взгляды.

Ключевые слова: дошкольник, комбинаторика начального образования, элемент, коллекция, задача, логика, математическое мышление.

Annotation: This article is dedicated to the attitudes of elementary grades to develop their critical thinks and to give examples for the oritical-methodical recommendation.

Key words: pre–school education, elementary gradess, combinatorical,

element, sums, logic, mathematical thought.

- Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi, — deb aytgan edilar Shavkat Mirziyoyev.Shu bilan bir qatorda yoshlarda matematika faniga qiziqishni kuchaytirish, iqtidorli bolalarni seleksiya qilib, ixtisoslashtirilgan maktablar va keyinchalik oliy ta’lim muassasalariga qamrab olish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish kerakligi ta’kidlandi. Bolalar uchun mazkur fandan oddiy va tushunarli tilda yozilgan ommabop darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish, matematik ongni, kerak bo‘lsa, bog‘chadan boshlab shakllantirish vazifasi qo‘yildi. Shunday ekan bog’cha yoshidan boshlab matematika faniga qiziqtirishimiz fikrlash doiralarini kengaytiradigan boshqotirmalarni, matematik tafakkurni shakllantiradigan qiziqarli sonli rebuslarni maktabgacha ta’lim muassalarida og’zaki tarzda shakllantirsak boshlang’ich sinfda bu kabi jarayonlarga qiynalmaydilar. Shularni hisobga olib boshlang’ich sinflarda matematika darslarida kombinatorika elementlarini o’qitishning ahamiyati haqida to’xtalamiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kombinatorika elementlarini o'qitish, ularni mantiqiy fikrlashga va masalalarni yechish jarayoniga qiziqtiradi. Kombinatorik masalalarda o’quvchilar masalalar shartini amalda qo’llab bajaradilar va o‘zlari isbotlaydilar.Shu bilan birga kombinatorik masalalarda berilgan topshiriqni necha usulda bajarish mumkinligini aniqlaydilar. Kombinatorik masalalarda o’quvchilar masalalarni bir necha xil usul bilan ishlash jarayonlarini ham o’rganadilar. Elementlarning turli kombinatsiyalari va ularning sonini topish bilan bog’liq masalalar kombinatorika masalalari deyiladi. Bunday masalalar matematika fanining tarrnogi - kombinatorikada o‘rganiladi. Kombinatorika asosan, XVII-XIX asrlarda mustaqil fan sifatida yuzaga kelgan bo‘iib, uning rivojiga B.Paskal, P.Ferma, G.Leybnits, Y.Bernulli, L.Eyier kabi olimlar katta hissa qo‘shganlar.


Kombinatorikada, asosan, chekli to‘plamlar, ulaming qism to‘plamlari, chekli to‘plam elementlaridan tuzilgan kortejlar va ulaming sonini topish masalalari o‘rganilgani uchun uni to‘plamlar nazariyasining bir qismi sifatida qarash mumkin. (B.M.K.N)

Quyidagi masalani ko‘rib chiqaylik.

Masala. Sinfda 3 ta o‘quvchi bir biri bilan qo‘l berib salomlashsin. Ko‘rishishlar soni nechta buladi.Bu turdagi masalalarni albatta o‘quvchilar bilan amaliy ishlash va o’quchilarni tajribasida tekshirilsa o’quvchilar uchun ham qiziqarli buladi,ham masalaning mohiyatini tushunib yetadilar. Boshlang‘ich sinf o’quvchilarida masalalar ishlash va ularning qisqa shartlarini tuzishda biroz qiynaladilar. Ammo kombinatorika masalalarini o’quvchilar bilan amaliy bajarilganda o’quvchilarda bu hol kuzatilmaydi. Har bir masalaning mazmunini o’quvchilar hayotidan olib bajartirish ham kerak buladi

Masala. Sinfda 40 o‘quvchi bor. Ularning 26 tasi basketbol, 25 tasi - suzish, 27 tasi - gimnastika bilan shug'ullanadi, bir vaqtda suzish va gimnastika bilan -- 15 ta, basketbol va gimnastika bilan - 16 ta, suzish va gimnastika bilan shug‘ulla- nuvchilar - 18 ta. 1 o‘quvchi darsdan ozod. Hamma sport turi bilan nechta o‘quvchi shug‘ullanadi? Nechta o‘quvchi faqat 1ta sport turi bilan shug‘ulianadi?

Yechish. Maslada 3 ta to‘plam qaralyapti: *A* - basketbol bilan shug‘ullanuvchilar, B - suzish bilan shug‘ullanuvchilar, C - gimnastika bilan shug‘ullanuvchilar. Bu uch



to‘plam kesishadi.

Bu 3 to‘plam kesishmasidagi elementlar sonini x bilan belgilasak, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:

26+25-(33-x)+(18-x)+27-(34-x)+l=40.

Bu yerda x=10. Demak, hamma sport turi bilan 10 ta o‘quvchi, faqat 1 ta sport turi bilan 10 ta: basketbol bilan - 5 ta, suzish bilan - 2 ta, gimnastika bilan - 3 ta o‘quvchi shug‘ullanadi. Bu ko’rinishdagi masalalarni yuqori sinf o’quvchilari uchun mos buladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kombinatorik misollar deb boshqotirma shaklidagi misollarni ham dars jarayonida ishlashimiz mumkin.

Masalan, Katakchalar o’rniga qaysi raqamlarni qo’ysak tenglik to’g’ri buladi?

$6 \times = 4$ $\square$ $\triangle$

$6 \times = 4$ $\square$ $\triangle$

Bu turdagi kombinatorik misollar ham o’quvchilarni mantiqiy fikrlashini oshiradi. Fikrlashga undaydi. Raqamlarni qo’yib ko’rib, ko’paytirish jadvaliga murojaat qilgan holda ishlanadi. To’rtburchak shakliga 7 va 8 raqamlarini, uchburchak shakli ga esa 2, 8 raqamlarini qo’yish kerakligini topadi va qiziqib keyingisini bajarishda topqirroq bo‘ladi. Bunday turdagi kombinatorik boshqotirmalar o’quvchilarda matematika faniga bo’lgan qiziqishni oshiradi.

Quyidagi masalaga kundalik hayotda foydalanadigan mahsulotlardan tuzilgan masala bo‘lib, o‘quvchilarning o’zi ham qilib ko’rishlari mumkindir. Bunda o’quvchi har xil variantlarni tanlaydi.

Masalan, karam bodring va sabzi bor. Agar har bir salat tayyorlashda faqat 2 xil sabzavotdan foydalanish kerak bo‘lsa, necha xil salat tayyorlash mumkin?

VARIANTLAR TANLOVI

 + 

 + 

Javob: 3 xil

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.SOF.UZ/POST/SHAVKAT-MIRZIYOYEV.ILM-FAN.31.012020.2980

2. Gmurman B.E. “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”. O’qituvchi.1977.

3. S.Burxonov, O’.Xudoyorov, Q.Norqulova, N.Ruzikulova, L.Goipova “3-sinf uchun darslik”, “SHARQ” NM, 2019.

“BINKAT”- BUYUK IPAK YOʻLIDA

O.Begiyev, Sh.Xoliqulov

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi katta oʻqituvchisi;

IIV Sirdaryo akademik litseyi oʻqituvchisi

Mustaqiligimizga erishganimizdan soʻng biz tariximizga doir har bir voqealarni asl holaticha oʻrganish imkoniyatiga ega boʻldik. Chorizm davrida tariximizga haqqoniylik bilan yondashilmadi sovet tizimiga mos qilib oʻzbek fuqarolariga oʻrgatilgan boʻlsada, ota – bobolarimiz oʻzligini, oʻz tarixini unutmasdan bizgacha qoldirishga harakat qildilar. Zero tarix bugun va kelajakning koʻzgusi. Mustaqil hayotimizda buyuk maqsadlar sari intilishimiz uchun sharoyitlarning yaratilganligi hamda buyuk kelajak uchun madaniy – maʼnaviy merosga ega boʻlishimiz darkor. Zero oʻz tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutadigan millatning kelajagi yoʻq. Shuning uchun ham Oʻzbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq tarixni oʻrganish borasida muhim qadamlar qoʻyildi. 2017-yil

3-avgustda Prezident Sh.Mirziyoyevning bir guruh olimlar va ijodkor ziyolilar vakillari bilan oʻtkazgan uchrashuvidan keyin tarixni oʻrganishga boʻlgan eʼtibor yanada kuchaydi. Ushbu uchrashuvda davlat rahbari tarixni qayta tiklash borasidagi eng dolzarb masalalarni koʻrsatib berdi. Shu oʻrinda tarixni, Buyuk Ipak yoʻli koʻp asrlar davomida Xitoydan to Oʻrta Yer dengizigacha boʻlgan Yevroosiyo davlatlarini birlashtirib, Sharq va Gʻarb xalqlarining iqtisodiy va madaniy

integratsiyalashuv jarayonlarida muhim rol o‘ynagan. Bu aloqalarda O‘rta Osiyo mintaqasidagi davlatlarning ahamiyati ham katta bo‘lgan. Ayniqsa, mintaqaning dasht hududlari bilan kontakt zonalarda joylashgan voha o‘lkalari alohida o‘rin tutar edi .

Xitoy va Shimoliy Hindistonni G‘arb o‘lkalari bilan bog‘lovchi dastlabki karvon yo‘llari O‘rta Osiyoning janubiy hududlaridan o‘tgan. Savdo yo‘lining asosiy tarmoqlari Yaqin Sharqdan Kaspiy dengizining janubiy sohillari orqali Baqtriyaga kelgan. Bu erdan yo‘lning biri Amudaryoning yuqori havzalaridagi tog‘li hududlar orqali Shimoliy Hindistonga, undan esa Xitoy imperiyasiga yo‘l olgan .Ikkinchi yo‘l esa shimolga tomon burilib, So‘g‘d poytaxti Samarqandga, undan Xo‘jandga ketgan. Xuddi shu davrda xitoylik yilnomachilar savdo yo‘lining yana bir shimoliy tarmog‘i haqida so‘z yuritadilar. Mazkur tarmoq Xitoydan Tyan-Shan orqali Farg‘onaga, undan Sirdaryo orqali shimoliy davlatlar - Kangyuy, Yantszi va Yantsay hududlariga qadar cho‘zilgan .

Choch bu yo‘lda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan, uning hududidan Ipak yo‘lining shimoli-sharqiy yo‘nalishi o‘tgan edi. Choch shaharlari topografiyasini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib arab-fors tillaridagi yozma manbalar xizmat qiladi. Bu manbalar asosida So‘g‘ddan Chochga ikkita yo‘l o‘tganligi, ulardan birinchisi, X-XII asrlardagi shimoliy yo‘l bo‘lib, karvonlarni Sirdaryoning chap qirg‘og‘idagi dashtlardan Chirchiq vodiysiga, Chinanchket shahriga, undan voha poytaxti Binketga olib borgan . Shu bilan birga ikkinchi - ja¬nubiy yo‘l ham mavjud bo‘lib, Qudama ibn Ja’far va Ibn Xo‘rdodbehlarning ma’lumotlariga ko‘ra, “Zomindan Xovosgacha cho‘l bo‘ylab 6 farsax , Xovosdan Choch daryosigacha 15 far¬sax va u yerda daryo kechuvi bor. Daryo bo‘yidagi bu to‘xtash joyidan Benaketgacha 4 farsax. Benaketdan Turk daryosi bo‘yidagi Chshachketgacha 4 farsax vau erda turklarning kechuvi bor” .

Buyuk Ipak yo‘li ko‘p asrlar davomida Xitoydan to O‘rta Er dengizigacha bo‘lgan Evroosiyo davlatlarini birlashtirib, Sharq va G‘arb xalqlarining iqtisodiy va madaniy integratsiyalashuv jarayonlarida muhim rol o‘ynagan. Bu aloqalarda O‘rta Osiyo mintaqasidagi davlatlarning ahamiyati ham katta bo‘lgan. Ayniqsa, mintaqaning dasht hududlari bilan kontakt zonalarda joylashgan voha o‘lkalari alohida o‘rin tutar edi .

Xitoy va Shimoliy Hindistonni G‘arb o‘lkalari bilan bog‘lovchi dastlabki karvon yo‘llari O‘rta Osiyoning janubiy hududlaridan o‘tgan. Savdo yo‘lining asosiy tarmoqlari Yaqin Sharqdan Kaspiy dengizining janubiy sohillari orqali Baqtriyaga kelgan. Bu erdan yo‘lning biri Amudaryoning yuqori havzalaridagi tog‘li hududlar orqali Shimoliy Hindistonga, undan esa Xitoy imperiyasiga yo‘l olgan [2:81]. Ikkinchi yo‘l esa shimolga tomon burilib, So‘g‘d poytaxti Samarqandga, undan Xo‘jandga ketgan. Xuddi shu davrda xitoylik yilnomachilar savdo yo‘lining yana bir shimoliy tarmog‘i haqida so‘z yuritadilar. Mazkur tarmoq Xitoydan Tyan-Shan orqali Farg‘onaga, undan Sirdaryo orqali shimoliy davlatlar - Kangyuy, Yantszi va Yantsay hududlariga qadar cho‘zilgan .

Choch bu yo‘lda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan, uning hududidan Ipak yo‘lining shimoli-sharqiy yo‘nalishi o‘tgan edi. Choch shaharlari topografiyasini

o‘rganishda asosiy manba bo‘lib arab-fors tillaridagi yozma manbalar xizmat qiladi. Bu manbalar asosida So‘g‘ddan Chochga ikkita yo‘l o‘tganligi, ulardan birinchisi, X-XII asrlardagi shimoliy yo‘l bo‘lib, karvonlarni Sirdaryoning chap qirg‘og‘idagi dashtlardan Chirchiq vodiysiga, Chinanchket shahriga, undan voha poytaxti Binketga olib borgan . Shu bilan birga ikkinchi – janubiy yo‘l ham mavjud bo‘lib, Qudama ibn Ja’far va Ibn Xo‘rdodbehlarning ma’lumotlariga ko‘ra, “Zomindan Xovosgacha cho‘l bo‘yjgb 6 farsax, Xovosdan Choch daryosigacha 15 farsax va u erda daryo kechuvi bor. Daryo bo‘yidagi bu to‘xtash joyidan Benaketgacha 4 farsax. Benaketdan Turk daryosi bo‘yidagi Chshachketgacha 4 farsax vau erda turklarning kechuvi bor”. Arab qo‘shinlari Chochga ilk bor 713-yilda bostirib kelishgan. Tabariyning yozishicha, Chochni zabt etish uchun arablar 20 ming kishilik qo‘shin tortgan. Shahar aholisi arablarga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Pekin, arablar ko‘p o‘tmay Chochni bosib olganlar va talon-toroj qilib katga o‘lja bilan qaytganlar. Arab istilochilari tomonidan vayron etilgan shahar o‘zini o‘nglay olmadi. Faqat IX-asrga kelib, avvalgi o‘rnidan 4–5 km shimoli-g‘arbroqda, Bo‘zsuv kanalidan chiqarilgan Kaykovus (Kolkohdiz) arig‘i yonida yangitdan vujudga kedli va yana Chochning poytaxtiga aylanib, jadal taraqqiy eta boshladi. Bu yangi shahar arab manbalarida Binkat (uzoqdan ko‘rinib turuvchi yoki quyi shahar) deb tilga olinadi. Bu nom IX- X asrlarda zarb etilgan kumush va chaqa tangalarda Shosh va Madinat ash Shosh nomlari bilan bir qatorda uchraydi. Bu shaharda ham hunarmandchilik va savdo-sotiq tez rivoj topdi. Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Choch ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy sohada ancha rivoj topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013.– 279 b.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
3. Ro‘zieva D. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – Toshkent, 2014.
4. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. – Toshkent: RTM, 2000. - 46 b.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - Toshkent., 2003. - 66 b.
6. Safin D.V., Musina R.G. Ta’lim berish va o‘qishning interfaol usullari. O‘quv qo‘llanma. 1-modul. Interfaol o‘qitishning nazariy asoslari. -Toshkent, 2007.

OILALARDA AYOLLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK MUAMMOSINING IJTIMOIY MOHIYATI

Fayziyeva Shoira Ayubovna

Guliston davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Jahonda oilalardagi zo‘ravonlikning oldini olish usullarini o‘rganishning dolzarbligi, bu hodisa odamlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq bo‘lib, tenglik, ijtimoiy rivojlanish va demokratik jamiyatni qurishda haqiqiy to‘siqdir. Hozirgi vaqtda gender tengligi tinchlik va bag‘rikenglik qadriyatlarini tarqatish, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, zo‘ravonlikdan voz kechish tamoyillari sifatida zamonaviy jahon taraqqiyotining yagona qiymat birligi sifatida rasman tan olinmoqda. Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot markazlarida zo‘ravonlikni, xususan ayollarga qilinadigan zo‘ravonlikni ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganish, diagnostik tadqiq qilish orqali zo‘ravonlikni oldini olishga qaratilgan zarur taklif va tavsiyalarni berish bilan bog‘liq muammolar ilmiy tadqiq etib borilmoqda.Shu bois, biz, XXI asrda gender erkinliklarning rivojlanishi va taraqqiyoti yuqori cho‘qqiga chiqadi, deb ayta olamiz.

Kalit so‘zlar: Oila instituti, tazyiq, zo‘riqish, jismoniy zo‘ravonlik, emotsional zo‘riqish, jinsiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, tajovuz.

Butun dunyo miqyosida xotin-qizlar huquqlariga inson huquqlari nuqtai nazaridan baho berish jahon taraqqiyparvar tafakkurida kechayotgan ijobiy o‘zgarishlar samarasidir. Tabiiyki, xotin-qizlar harakatlarining mavjudligi, ular faoliyatining hukumatlar tomonidan tan olinayotganligi, hozirgi zamonda siyosat va davlat tizimini modernizatsiya qilish, demokratlashtirish yo‘lidan olib borayotganligidan, ayollar muammolarini baholashda liberallashtirish holati keng rivoj topayotganligidan dalolat beradi. Shu bois, biz, XXI asr – gender erkinliklarning rivojlanishi va taraqqiyoti shiori ostida o‘tadi, deb ayta olamiz.

Jamiyatimizda xotin-qizlarga munosabat o‘zgarmoqda. Agar avvallari an’anaviy tarzda ayollarga ona, tarbiyachi, xonadon sohibi, kasbu kor egasi, mutaxassis va olima sifatida munosabat ko‘rsatilgan bo‘lsa, aynan bugungi kunda mazkur yo‘nalishlar mohiyatan yangi mazmun bilan boyitilmoqda. Mamlakatning istiqbol strategiyasida xotin-qizlar iqtisodiy o‘sish va bunyodkorlikning zaxira boyligi, inson kapitalini yaratuvchisi, taraqqiyot, o‘sish va texnik rivoj asoslarini belgilab beruvchi, oilalar farovonligi va jamiyat tinchligi asosi, juda katta, serg‘ayrat, adolat izlovchi aqliy-intellektual va jismoniy potensial, korrupsiyaga qarshi kurashning avangardi sifatida baholanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlar bugungi siyosiy-ijtimoiy makonga Yangi O‘zbekistonning zaxira boyligi, qudrati, yaratuvchilari, quruvchilari bo‘lib maydonga chiqadilar.

Shunday ekan, ularning ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish, imkoniyatlarini kengaytirish, muammolarini hal etish, ijtimoiylashuvini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoridan o‘rin oladi.

Mamlakatimiz ayollari taqdirining bugungi mazmunini belgilab beruvchi omillardan biri bu – ikki muhim qonunning qabul qilinishi bo‘ldi.

Ular – O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlardir. Ularda gender tenglik tamoyillariga jamiyatimizning barcha bo‘g‘inlarida ustuvorlik berish, tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi davlat va nodavlat tizimlari faoliyatini tashkil qilish, xotin-qizlarning rang-barang muammolarini hal etish, jamiyatda ayollar ijtimoiy holatiga e’tiborli bo‘lish, mazkur maqsadda mutasaddi tizimlar mehnatini muvofiqlashtirish, xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishda innovatsion g‘oyalar va yangi yo‘nalishlarni joriy etish kabi masalalar belgilangan.

Ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta’rif berildi, uning mohiyati va milliy xususiyatlari belgilandi. “**Gender** – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati” ekanligi belgilab berildi.

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda zo‘ravonlik tushunchasi ta’rifi: “**Zo‘ravonlik** – xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)” belgilandi. Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari o‘rnatildi.[9]

Xotin-qizlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi. *Senatda Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi ish boshladi. Har ikki tuzilma amaldagi qonunchilikning barcha normalarini ayollar va erkaklar tengligi nuqtai nazaridan monitoringini yo‘lga qo‘ydi*. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlari himoyasiga qaratilgan qariyb 20 ta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori, 4 ta Prezident Farmoni, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Jamiyatda o‘z o‘rni, ovozi, mavqei va hurmatiga ega bo‘lgan muvaffaqiyatli ayollarning hayot tajribasini ommalashtirish maqsadida www.genkom.uz sayti yaratildi.

Oilaviy, maishiy, psixologik, jismoniy, jinsiy tazyiq va zo‘ravonlik tarixiy-ijtimoiy hodisadir. Zo‘ravonlik, xususan oiladagi va maishiy zo‘ravonlik turli xalqlarda, turli davrlarda mavjud bo‘lgan. U oddiy odamlar hayotida ham yoki mashhur va boy odamlar hayotida ham sodir bo‘lishi mumkin, ya’ni zo‘ravonlik turli ijtimoiy tabaqalar ichida uchraydi. Biroq oiladagi uzoq davr mobaynida davom etadigan surunkali ishsizlik, moddiy muammolar, yetishmovchilik, yo‘qchilik, kambag‘allik, depressiya, qiyinchilik va undan chiqib keta olmaslik kabilar oiladagi agressiyaning ortishiga sabab bo‘lishi, konfliktogen sifatida vaziyatni kuchaytirib yuborishi va zo‘ravonlik orqali o‘z manfaatlari ifodasini yuzaga keltirishi mumkin.

Dunyo bo‘yicha yiliga 15 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan har beshinchi ayol zo‘ravonlik holati bo‘yicha ariza bilan murojaat qiladi. BMTning statistik ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har uchinchi ayol tazyiq va zo‘ravonlik holatiga duch keladi. Koronavirus infeksiyasi tarqalgan davrda BMTning Bosh Kotibi Antoniu Guterrish oilalardagi tinchlikni qadriyat sifatida e’zozlash uchun “Xonadonlarimizda tinchlik bo‘lsin!” shoiri bilan murojaat qilib chiqdi. Dunyo davlatlaridan 145 davlat, jumladan O‘zbekiston mazkur da’vatni qo‘llab-quvvatladi.

Dunyo miqyosida har kuni oilasida o‘z yaqinlari tomonidan tatbiq etilgan zo‘ravonlik oqibatida 137 ayol hayotdan ko‘z yumadi. 40-70 % hollarda zo‘ravonlik ayollarning yaqinlari, ya’ni turmush o‘rtoqlari, qarindoshlari va ayol tanigan-bilgan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Zo‘ravonlik nafaqat jismoniy ravishda, balki psixologik, verbal tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

Zo‘ravonlik bilan duch kelgan ayollarning qariyb 40 % yordam so‘rab huquq va ijtimoiy organlarga ariza topshirmaydi va o‘z huquqlari poymol etilganligi borasida hech kimga murojaat qilmaydi. Ular indamaydilar. Ular chidaydilar. Ular uyaladilar, sharm-hayo, oriyat qiladilar, o‘z yaqinlarini, nikoh qilingan turmush o‘rtoqlarini avaylab, ularga qarshi chiqishni o‘ziga ep ko‘rmay, o‘zlarini qurbon qiladilar, ba’zilari esa hayotdan ko‘z yumadilar.

Lekin ular yashash, xursand bo‘lish, bola tarbiya qilish, unib-o‘sish, o‘z oilasi, yaqinlari va jamiyatga foydali bo‘lish uchun tug‘ilgan. Umrbod indamay, chuqur sukutda, o‘zligidan kechib, o‘z og‘riqlari, dardlari, zarbalar kuchi, tahdidlar va kamsitishlarni ichiga yutib, churq etmay o‘tadigan ayollar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Agar 1990 yilda xalqaro miqyosda 1,13 million kishi zo‘ravonlik oqibatida hayotdan ko‘z yumgan bo‘lsa, 2013 yilda ular soni 1,28 million bo‘lgan. 2013 yildagi o‘limlardan 842 000 tasi o‘z joniga qasd qilganlar, 405 000 – shaxslararo zo‘ravonlik oqibati bo‘lsa, 31 000 – jamoaviy zo‘ravonlik, ya’ni turli urushlar natijasida sodir etilgan. Afrika qit’asida 100 000 kishiga nisbatan kuniga 60,9 kishi zo‘ravonlik oqibatida hayotdan ko‘z yumadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har uchinchi ayol turli darajadagi jismoniy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rar ekan. Bularning barchasi xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik masalasi butun jahonda mavjud bo‘lgan o‘ta dolzarb muammoligini namoyish etadi.

Tazyiq va zo‘ravonlik illati haqida uzoq davr mobaynida yurtimizda hech nima deyilmagan va mazkur muammo to‘g‘risida bugun ochiq gapirilmoqda. Kundalik turmushimizda markaziy shaharlarda ham, chekka qishloqlarda ham bu turdagi muammo bilan to‘qnash kelayotgan ayollarimiz, yosh kelinlarimiz, qizlarimiz mavjud. Zo‘ravonlik faqat jismoniy kuch ishlatish bilan emas, ruhiy, axloqiy, iqtisodiy va maishiy bosim ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi va oilaning har qanday a’zosiga nisbatan, ya’ni ayollar, erkaklar, bolalar, qariyalarga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. Haqoratlash, majburlash, zo‘rlash, iqtisodiy cheklovlar qo‘yish, muntazam ruhiy qiynoqqa solish kabi holatlar ham zo‘ravonlik sifatida baholanadi.

Dunyoda hech bir inson tazyiq va zo‘ravonlikdan mutlaq himoya qilinganman, deb ayta olmaydi. Zo‘ravonlik hodisasi atrofimizda, turli odamlar hayotida uchrab

turadigan ijtimoiy illatlardan biridir. Zo‘ravonlik ijtimoiy munosabatlar ichida yuz beradi va mana shu ijtimoiy munosabatlarning noto‘g‘ri tarzda tashkil qilinishi oqibati sanaladi. Binobarin, tazyiq va zo‘ravonlik hodisalari ijtimoiy makonning o‘ziga xos illat, xato holat, dardli va ayanchli vaziyatlaridan biridir. Shunga ko‘ra, tazyiq va zo‘ravonlik haqidagi axborot, holat va vaziyatlar, odamlar hayotidagi konkret hodisalar haqida ochiq-oydin va samimiy so‘zlash, gapirish, ularni muhokama qilish zarur. Uning sabablari, yuzaga kelish asoslari va oqibatlari, zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxs psixologik tiplari, bunday jabrdiydalar bilan ishlash metodikalari va ularni reabilitatsiya qilish, ya’ni ularni sog‘lom va tinch hayotga qaytarish usullari haqida keng jamoatchilikka imkon qadar ilmiy-nazariy va amaliy bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va tarqatish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Tazyiq va zo‘ravonlik holatiga ko‘pchilik hollarda xotin-qizlar duch keladi. Tazyiq va zo‘ravonlik holati bilan barcha yoshdagi, barcha ijtimoiy qatlamlardagi, barcha xulq-atvordagi ayollar to‘qnash kelishi mumkin. Ayol kishi kichik yoshda bo‘ladimi, yoki nafaqa yoshida bo‘ladimi, boy oila vakilimi, yoki kambag‘al oiladanmi, muammoli va notinch oiladanmi yoki kelib chiqishiga ko‘ra tinch va osuda hayot kechirgan oiladanmi, yuqori mansabdor shaxs oilasidanmi yoki oddiy oiladanmi, qiz bolami, maktab yoshidagi qizmi, turmushga chiqmaganmi yoki turmushga chiqqan yosh kelinmi, tajribali uy bekasimi yoki uy yumushlariga endi o‘rganayotgan yosh ayolmi, ishchi xodimmi yoki katta bir korxonaning rahbarimi, mulkdormi yoki biznesmenmi, tug‘magan ayolmi yoki onami, bularning baridan qat’iy nazar, u o‘z hayotida tazyiq va zo‘ravonlik hodisasi bilan to‘qnash kelishi mumkin.

Binobarin, tazyiq va zo‘ravonlik yosh tanlamaydi, jins tanlamaydi, millat tanlamaydi, davlat tanlamaydi, mansab, mavqe, martaba, boylik va kelib chiqish tanlamaydi. Tazyiq va zo‘ravonlikni qo‘llagan odam har vaqt o‘zidan ojizroq, ruhiy-emotsional holati barqaror bo‘lmagan, ruhiyati singan, tang holatda bo‘lgan, ruhiy ezilgan, jussasi kichikroq, jismoniy baquvvat bo‘lmagan, zo‘ravonga adekvat, ya’ni mos kelgan munosabat va javobni ko‘rsata olmaydigan, zo‘ravondan o‘zini himoya qilishga shaxsiy jur’ati bo‘lmagan, javob qaytarishga mavqei yo‘l qo‘ymaydigan va imkoni bo‘lmagan, har jihatdan zo‘ravonga tobe bo‘lgan odamni qidiradi va unga nisbatan zo‘ravonlik ishlatadi. Zo‘ravonlik aslida jismoniy kuchli bo‘lgan odamning jismoniy kuchsiz odamga nisbatan aynan kuch qo‘llashidir.

Tazyiq va zo‘ravonlik verbal (so‘zlar orqali) yoki noverbal (harakatlar orqali) tarzda qo‘llanilishi mumkin. Verbal zo‘ravonlik so‘zlarni o‘ziga qurol qilib oladi. So‘zlar orqali o‘zga odamga hujum qilinadi. Hujumdan maqsad esa o‘zga odamdan o‘ch olish, uning nafsoniyatiga tegish, uni yerga urish, uni yo‘q qilish, unga ruhiy zarar va zarba yetkazish, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini sindirish, uni o‘ziga ruhiy-psixologik jihatdan qul qilib olish va ojizligiga iqror qildirish kabilardan iborat bo‘ladi. Oiladagi zo‘ravonlikka nafaqat tajovuz, balki majburiy jinsiy aloqa, doimiy haqorat va ruhiy bosim ham kiradi. Bu kabi zo‘ravonlik negizida ayolning turmush o‘rtog‘ida qaysidir bir muammoni yechish, muammoni hal qilish istagi emas, aksincha oila a’zosini kamsitish va boshqarish istagi yotadi.

Odatda bizning milliy an’anamizga ko‘ra ayollar bunday holatga duch kelgan taqdirda, ular yakkalanib qoladi, andisha qiladi, dardini ichiga yutadi, mazkur falokatni hatto yaqinlariga ham aytmaydi, chunki uyaladi, hayo qiladi, qo‘rqadi yoki istihola qiladi. Ayol kishi odatda bunday vaziyatlarda dardini ichiga yutadi, birovga churq etmaydi, haqiqatni yashiradi, “keyin yaxshi bo‘lib qolar” deb umid qiladi. Ayol kishi dardini kimga aytishni bilmaydi, qiynaladi, joni og‘riydi, biroq uyat, oriyat va sharm-hayo ustunlik qiladi. Jamiyat ham an’anaviy tarzda ayol kishidan doimiy shunday sabrni, churq etmaslikni, erini yonini olishni, uni kechirishni, “hamma erkaklar shunaqa, onalarimizdan qolgan odat” deb, ko‘nikishni, janjal va g‘alvani unutishni, ularga e’tibor bermaslikni, uydan chiqarmaslikni, qanoatni talab etadi.

Aslida esa bu – jamiyat ichidagi doimiy mavjud bo‘lgan zulm ko‘rsatish holati, insonlararo munosabatlardagi ijtimoiy muammoning bir turidir. Zo‘ravonlikdan ayolni asrash va bunday muammolarni hal qilishning zamonaviy mexanizmlari bugungi kunda ayol kishini himoya qilishga yo‘naltiriladi. Bugungi jamiyat ayol kishiga “Sen – yolg‘iz emassan!” deb murojaat qiladi. Ayol kishi esa qonun himoyasida bo‘ladi.

Tazyiq va zo‘ravonlik ijtimoiy makonda, hayotimizda, ayniqsa, ayollar taqdirida tez-tez uchrab turadigan illat, ijtimoiy kasallikdir. Bu holat zo‘ravonlikni qo‘llagan shaxsning ijtimoiy ojizligi belgisi, sog‘lom muloqot qila olmaslik, ma’naviy zaiflik, manqurtlik, axloqsizlik, o‘z fikrlarini zo‘ravonliksiz bildira olmaslik, muloqot malakalarining o‘rgatilmaganligi, chuqur egoizm va o‘z kuchiga haddan ortiq ishonish holatidir.

BMTning 1993-yil 20-dekabrdagi Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni tugatishga oid Deklaratsiyasida (rezolyusiya 48/104) qayd etilishiga ko‘ra, “Ayol kishining jismoniy, jinsiy, psixologik sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday zo‘ravonlik amallari yoki ayol kishini qiynash va unga tahdid qilish holatlari, uni o‘z rayiga qarshi ravishda ozodlikdan mahrum qilish, shaxsiy va ijtimoiy hayotidan uzib qo‘yish” zo‘ravonlik holatlarining mavjudligini isbotlaydi.

Zo‘ravonlikni o‘tkazayotgan shaxsning asl maqsadi o‘z ta’siri ostidagi ayolni to‘la ravishda nazorat qilish, uning erkini o‘z qo‘liga olish, o‘z ustunligini unga ko‘rsatish va jabr qilish, zo‘ravonlik o‘tkazish uchun o‘ziga va qo‘liga, kuchiga erk berishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, bir marta zo‘ravonlik qilgan shaxs mazkur aktdan huzur qila boshlaydi, o‘z agressiyasidan, o‘zini qiynagan emotsional holatlardan zo‘ravonlikni o‘tkazish orqali ozod bo‘la boshlaydi, shunga ko‘ra zo‘ravonlik holatlari ba’zan shafqatsizlik bilan amalga oshiriladi. Natijada ayol kishi hayotdan ko‘z yumishga majbur bo‘ladi. Bunday holatlarda zo‘ravonlikni qo‘llayotgan shaxs o‘z emotsiyalariga chuqur kirib ketadi va o‘zining amallari oqibatlariga har doim ham javob bermaydi va kuch ishlatish orqali ko‘nglida yig‘ilgan o‘z agressiyasidan qutulish yo‘li sifatida tazyiq va zo‘ravonlik amallaridan foydalanadi.

Ba’zi holatlarda esa jamiyatdagi hukm surgan turli milliy va ijtimoiy stereotiplar sabab bunday zo‘ravon shaxslar, ayniqsa oilaviy konfliktlar jarayonidagi amalga oshirgan zo‘ravonliklari uchun jazolanmaydi, ularning qilgan ishlari

yashiriladi, ayol xotirasidan ular o‘chiriladi, ayolni ularga e’tibor bermaslikka chaqiriladi, ayoldan “Bu o‘z ering, bolalaringni otasi, chidab yasha” deyish orqali undan bo‘lgan voqeani buzib talqin qilishni talab etishadi. Oqibatda zo‘ravonlik o‘tkazgan shaxs jazodan qutulib qoladi. Ba’zan esa, zo‘ravonlik oilaviy munosabatlarning odatiy usuli sifatida baholanadi.

Ko‘pchilik ayol kishini himoya qilish zarurligini, uning hayoti noyobligini, Alloh bergan umrni hech kim tortib olmasligi joizligini, bechora ayol “ayol bo‘lganligi uchungina” mana shunday imtihondan o‘tayotganligi, “ayol kishining qul va cho‘ri emasligi”ni yoddan chiqarib qo‘yadi.

Ko‘pchilik hollarda zo‘ravonlik negizida ayol kishiga, u erkak kishining eng yaqin kishisi bo‘lsa ham, erkak tafakkuridagi o‘z ayoli, uning joni, uning hayoti, uning tanasiga, uning tuyg‘ulari, o‘ylari va qarashlariga nisbatan “bepisand”, “sotib olingan mol” sifatidagi, faqat “iste’mol qilish”, “uning jismidan foydalanish” asosiga qurilgan noto‘g‘ri, axloqsiz va aybli munosabat yotadi.

Islom ta’limotida “ayolga nufuzli va hurmatli” munosabat ko‘rsatish talab etilgan. Bu ta’limotning asosida “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” Hadisi turadi. Ayollar - ona, xotin, buvi va momolar, qiz, opa-singil, amma-xola, qarindosh ayollar mavqeida hurmat qilinadi. Xolaning mavqei onaga tenglashtiriladi. Erkak kishi mana shu ayollarning barchasiga chuqur hurmat qo‘rsatishi lozimligi uqtiriladi. Ayol erkak kishiga berilgan “omonat”, ya’ni Alloh tomonidan berilgan “qarz” sifatida baholanadi. Yaratganning talablaridan biri esa, qanday sog‘ berilgan bo‘lsa, mana shunday sog‘ qaytarish zarurligi aytiladi. Er o‘z ayolini mehr va adolat bilan boshqarishi darkorligi talab etiladi.

Xotin-qizlarni zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishidan muhofaza qilish har bir fuqaroning dolzarb vazifasidir.

1945 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta’sis etilganda, bu xalqaro tashkilotga a’zo bo‘lgan 51 davlatning 30 tasida xotin-qizlarning erkaklar bilan umumiy tengligi haqidagi qonunchilik mavjud edi. 1995 yilga kelib esa BMT patronajida Pekinda o‘tkazilgan Xotin-qizlarning xalqaro konferensiyasida barcha davlatlarga bir muhim tavsiya berilgan edi, ya’ni mavjud boshqaruv lavozimlarining 30% gacha qismiga xotin-qizlarni tayinlash tavsiya etilgan.

Dunyo tarixida xotin-qizlarning o‘z huquqlari uchun kurashlari oson va bir tekis kechmaganligi shohidi bo‘lamiz. Ba’zi mamlakatlarda uzoq yillik qat’iy va muntazam, shuningdek davomli harakatlargina ayollar ijtimoiy ahvolining yaxshilanishiga olib kelgan. Ayollar harakatlarida esa minglab ilg‘or fikrli ayollar qatorida o‘z zamonining bir qator taraqqiyparvar, ilg‘or va aqlli erkaklari ayollar huquqlari uchun kurashganlar.

1946 yil 12 fevralda Londonda BMT Bosh Assambleyasining inaguratsion marosimida AQSh marhum Prezidentining rafiqasi Eleonora Ruzvelt mazkur anjumanning Qo‘shma Shtatlardan saylangan delegati sifatida o‘zining “Dunyo xotin-qizlariga ochiq xati”ni o‘qib eshittirdi. Bu sana yangi dunyo tarixida xotin-qizlarning o‘z siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, tibbiy va insoniy haq-huquqlari yo‘lidagi harakatlarida yangi davrni, zamonaviy yangi bosqich vujudga kelganligini namoyon etdi va tub o‘zgarishlar mohiyatini belgilab berdi.

Shu davrdan boshlab, butun dunyo miqyosida ayollar mavhum bir oilaviy tushuncha bo‘lmay, balki jamiyatning to‘laqonli a’zosi, jamiyatning bunyodkor kuchi ekanligi g‘oyasi BMT ga a’zo bo‘lgan barcha davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshlandi. Shu davrdan boshlab ko‘pchilik davlatlarda zamonga e’tibor ayolga e’tibor bilan uzviy bog‘lanib ketganligiga shohid bo‘lamiz. Zamonaviy davlatlarning taraqqiyparvarlik darajasi esa xotin-qizlar haq-huquqlarining nechog‘li ta’minlanganlik me’yori bilan belgilanmoqda. [14]

1980 yilda BMTning 145 a’zo davlatlari Kopengagenda xotin-qizlarning ikkinchi anjumaniga yig‘iladilar. Anjuman ishtirokchilari Bosh Assambleya tomonidan 1979 yil dekabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyaga alohida e’tibor qaratishadi. Mazkur xalqaro hujjat hanuzgacha xotin-qizlar tengligi va ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi asosiy xalqaro hujjatlardan hisoblanadi. Hozirgacha mazkur Konvensiyani 165 dunyo davlatlari ratifikatsiya qilgan bo‘lib, O‘zbekiston ham shular qatoridan o‘rin oladi. Ushbu hujjatni imzolagan barcha davlatlar har to‘rt yilda o‘z davlatlaridagi xotin-qizlar ahvoli to‘g‘risida Bosh Assambleyaga hisobot berib borishlari lozim.

Xalqaro miqyosda, shuningdek milliy qonunchiligimizda xotin-qizlar huquqlariga qanchalik e’tibor qaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, ayollarga nisbatan maishiy zo‘ravonlik, tajovuzkorlik, ruhiy zo‘ravonlik, mehnat qilish huquqi yuzasidan nomutanosibliklar kabi muammolar hali ham uchrab kelmoqda.

1993 yilda Venada o‘tkazilgan Inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro konferensiya kun tartibiga xotin-qizlarning inson sifatidagi huquqlari umuminsoniy haq-huquqlarning ajralmas qismi ekanligi haqidagi masala qo‘yilgan bo‘lsa, 1993 yilda “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash to‘g‘risida” gi Deklaratsiya qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borilmoqda ekan, bu jarayon keng xalq ommasi ichida yangi siyosiy munosabatlar, yangi siyosiy dunyoqarash, yangi siyosiy madaniyatning shakllanib borayotganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston uchun yangilik bo‘lgan demokratik siyosiy madaniyatni esa xotin-qizlar manfaatlarining yangi miqyosda va mazmunda namoyon etilishi, to‘laqonli amal qilishi, jamiyat ongidan muntazam joy olishi, va nihoyat, har qanday sharoit va davrlarda ham o‘zligini yo‘qotmasligi kabi omillarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Adabiyotlar:

1. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-561-son Qonuni, 3-modda // https://lex.uz/docs/4494709.
2. Akramova F.A. Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta’siri masalalari. -Toshkent: OOO “NORI” MChJ, 2019. – 130 b.
3. Akramova F.A. Oilada kelishmoqchiliklarni bartaraf etish psixologiyasi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. -Toshkent: OOO “NORI” MChJ, 2019. – 32 b.
4. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. Darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2008. – 163 b.

O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

D.Toshtemirov, D.B.Jonibekov
***GulDU pedagogika fanlari nomzodi, dotsent; GulDU tayanch doktaranti, Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga tayyorlash milliy markazi o‘qituvchisi*.**

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarning dars davomidagi baholari va aqliy didaktik o‘yinlarning afzalliklari haqida ma’lumotlar berilgan. O‘qituvchining pedagogik faoliyatida didaktik o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirish, ularni atrof-muhit bilan tanishtirish, bilimga qiziqishlarini rivojlantirish, aqliy faoliyatning muayyan usullarini o‘rgatish mumkin.*

Kalit so‘zlar: dars, aqliy didaktik o‘yinlar, baholash, kahoot.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumta’lim maktablariga alohida e’tibor qaratish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. O‘qituvchilarning bilim saviyasini oshirish, o‘qitish uslub va texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Darslarda noan’anaviylikni joriy etish, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan e’tibori va qiziqishini oshirish, dars jarayonidagi faolligini oshirish ana shunday tadbirlardan biridir. Eng muhim masalalardan biri bu bir darsda barcha talabalarni baholay olishdir. Bir qarashda bularning barchasini bir vaqtning o‘zida, ya'ni 45 daqiqalik dars jarayonida bajarish biroz imkonsizdek tuyulishi mumkin. Lekin buni amalga oshirish mumkin. Barchamizga ma’lumki, bugungi asrda o‘qitishning turli uslub va texnologiyalari ishlab chiqilmoqda va ulardan keng foydalanmoqdamiz. Kooperativ ta’lim texnologiyasi, modulli o‘qitish texnologiyasi, dizayn texnologiyasi, PISA testlari va topshiriqlari va boshqalar bunga misol bo‘la oladi. Yana bitta muhim texnologiya borki, unga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Bu darsda didaktik o‘yinlardan foydalanish texnologiyasidir. Dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish bir qancha afzalliklarga ega. Masalan, birinchi mavzuni takrorlash noan'anaviy bo‘lib, dars jarayoniga o‘zgacha energiya beradi; ikkinchidan, o‘quvchilarning mantiqiy rivojlanishi o‘sib boradi, o‘quvchilarning

erkin fikrlash imkoniyatini beradi, o‘qituvchining darsga ijodiy yondoshishi kuchayadi va nihoyat, eng muhim jihatlardan biri o‘qituvchiga barcha o‘quvchilarni baholash imkoniyatini beradi. Bunday holda, o‘qituvchidan bunday imkoniyatni ta'minlaydigan o‘yinni tanlash talab qilinadi. Chunki didaktik o‘yinlarning ko‘p turlari mavjud va ular xilma-xildir. Jamoa bo‘lib, yakka tartibda va kichik guruhlarda o‘ynaladigan o‘yinlar mavjud. Quyida biz sizning e'tiboringizga bir darsda sinfdagi barcha o‘quvchilarni baholash imkonini beruvchi bir nechta o‘yinlarni taqdim etamiz. Aqliy didaktik o‘yinlar yordamida bir vaqtning o‘zida sinf o‘quvchilarini to‘liq baholash imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin va quyida aqliy didaktik o‘yinlarga misollar keltiramiz.

O‘yin “Ofis dasturlari”.

Ushbu o‘yin 7-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, jadval quyida keltirilgan.

<table>
<tr><td>WORD</td><td colspan="2">EXCEL</td><td>POWER POINT</td></tr>
<tr><td colspan="2">Лист</td><td colspan="2">Varoq – dasturning ishchi maydoni</td></tr>
<tr><td colspan="2">Слайд</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="2">Страница</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="2">docx</td><td colspan="2">Word dasturining fayl kengaytmasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">pptx</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="2">xlsx</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="2">ячейка</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="2">анимация</td><td colspan="2">slayd sarlavhasi</td></tr>
<tr><td colspan="2">=SUMM(LEFT)</td><td colspan="2"></td></tr>
</table>

O‘quvchilar ofis dasturlarini jadvaldagi dasturlarga tegishli bo‘lgan nomlarning nomi va vazifasi haqida yozishi hamda mos ranglarga bo‘yashlari kerak. Masalan, Лист-varoq ofis dasturlaridan Excel dasturiga kiradi va u dasturning ishchi maydoni. Shuning uchun Листning nomi yozilgan quti yashil rangli qalam bilan bo‘yalgan va uning yoniga “Varoq – dasturning ishchi maydoni” deb yozilgan.

"Kahoot" o‘yini.

Ushbu o‘yinning nomi internetda onlayn o‘ynaladigan "Kahoot" o‘yinidan olingan. O‘yinda har bir o‘quvchiga yurak, romb, uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak (har biri 10 ta) va savollar ko‘rinishidagi kartochkalar beriladi. Har bir savolda yuqoridagi shakllardagi kabi javob variantlari mavjud. Javob variantining qaysi shakli to‘g‘ri bo‘lsa, o‘quvchilar bo‘sh qog‘ozga savolning raqamini yozadilar va qog‘ozga tegishli shaklni yopishtiradilar. O‘yin oxirida shakllarning javoblar bilan mosligi tekshiriladi. Masalan, savollar quyidagicha tuzilishi mumkin:

1. Dasturlash muhit(lari)i to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang?

■ python	♥ scratch
▲ C++	◆ barchasi

2. Elektron jadval dasturi?

■ Excel	♥ Paint
▲ Word	◆ Power point

3. Matn muharriri dasturi?

■ Excel	♥ NotePad
▲ Word	◆ Power point

4. Matn protsessori dasturi?

■ Excel	♥ NotePad
▲ Paint	◆ Word

5. Taqdimot tayyorlovchi dastur?

■ Excel	♥ Power point
▲ Paint	◆ Word

"Ortiqchasini toping" o‘yini.

Ushbu o‘yin 8-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning har bir qatorida jadval va beshta so‘z berilgan. Bu so‘zlar orasida qolgan to‘rtta so‘zga mos kelmaydigan bitta qo‘shimcha so‘z bor. Talabalar bu ortiqcha so‘zni topib, o‘sha qutining ichki qismini rangli qalam bilan bo‘yashlari kerak.

MONITOR	MS WORD	POTPLAYER	PAINT	WINDOWS
WORD	PAINT	ACCESS	POWER POINT	EXCEL
ANDROID	MAC OS	SAMSUNG	WINDOWS	LINUX
TELEGRAM	WHATSAPP	FACEBOOK	YOUTUBE	GMAIL
GOOGLE	FIREFOX	SAFARI	BRANDMAUER	YANDEX
PRINTER	FLASH DISK	KLAVIATURA	WEB KAMERA	VIDEO PROYEKTOR

“Mos so‘zlarni tanlang” o‘yini.

O‘yinning sharti quyidagicha. O‘qituvchi har bir o‘quvchiga matnli qog‘oz va so‘zlar yozilgan qog‘oz tarqatadi. Matndagi ba'zi so‘zlar olib tashlangan. O‘quvchilar matnning bo‘sh joylarini qog‘ozga yozilgan so‘zlar yordamida to‘ldiradilar, ya’ni qog‘ozga tegishli so‘zlarni matn ichida to‘g‘ri joylashtirishlari kerak. Masalan, quyidagicha:

… – har xil ko‘rinishdagi oddiy va murakkab matnlarni taxrirlashga mo‘ljallangan matn muharriri. Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Writer, LibreOffice … , StarOffice Writer, KWord, NeoOffice Writer, Corel WordPerfect, Apple Pages (bu faqat Mac OS tizimida) va AbiWord.

Microsoft Excel — har ko‘rinishdagi … ma’lumotlar bilan ishlashga mo‘ljallangan elektron jadvalli dastur. Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Calc, LibreOffice … , KSpread, StarOffice, Gnumeric, Corel Quattro Pro va Apple Numbers (bu faqat Mac OS tizimida).

Microsoft PowerPoint — ma’lumotlarni taqdimot, … qilishga mo‘ljallangan taqdimot dasturi. Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Impress, LibreOffice Impress, KPresenter, Corel WordPerfect va Apple … .

… – ma’lumotlar ombori (bazasi) bilan ishlashga mo‘ljallangan dastur. O‘rnini bosuvchi dasturlar: OpenOffice.org … , LibreOffice Base, Kexi.

Kalitlar: Microsoft Word, Writer, hisob-kitobli, Calc, reklama, Keynote, Microsoft Access, Base.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dars jarayonida aqliy didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va yuqoridagi turlar o‘qituvchiga barcha o‘quvchilar bilan ishlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Antsibor M.M. Active forms and teaching methods// Tula, 2002.-p.5-8.

2. Turakulova M.N., Ruzikulova N.A. The effectiveness of didactic game methods in zoology lessons // Internauka scientific journal, 2023, part 3, -p.37-38

3. Khassanov, F. O., Khuzhanazarov, U., Rakhimova, N., Esankulov, A., & Achilova, N. (2013). Two new species of Iris L.(Iridaceae Juss.) from Uzbekistan. *Stapfia*, *99*, 1-3.

4. Khujanazarov, U., Shomurodov, H., Mirkhamidova, P., & Alimova, R. (2021). Current state of Cenopopulations Iris Magnifica Vved and Tulipa Fosteriana W. Irving in Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 244, p. 02027). EDP Sciences.

5. Ruziqulova N.A., Bozorova U.B. Umumta’lim maktablarida biologiya fanlarini o‘qitishda PISA dasturi testlaridan foydalanishning samaradorligi// “Tabiiy fanlarning dolzarb masalalari” mavzusidagi III-xalqaro ilmiy-ilmiy-nazariy anjuman materiallari to‘plami. Nukus 2022. 271-273 b.

6. Ziyonet.uz

PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISHNING AXBOROT-TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
2023-yil 20-21-aprel

ORGANIZATION OF INFORMATION AND EDUCATION NVIRONMENT FOR TEACHER TRAINING: PROBLEMS AND SOLUTIONS
MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
April 20-21, 2023

ОРГАНИЗАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ
МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
20-21 апреля 2023 г.

ISBN 978-9943-45-75 To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

Bosishga ruxsat etildi: 27.04.2023-y.
Bichimi: 60X 84, 1/16 Hajmi: 30 b.t

MUNDARIJA